

# JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

## OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports

## OUR INDEXING



ISSN (E): 2181-4570



<http://universalpublishings.com>





"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

# JOURNAL OF SCIENCE RESEARCH

**MAY 31 , 2023**

**VOLUME 1, ISSUE 5**

2023



« **Journal of Universal Science Research** » ilmiy-uslubiy jurnali: 30.06.2023 yil.

Ushbu to'plamda « **Journal of Universal Science Research** » ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-soni 6-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.


OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ





**Bosh muharrir**, Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

**Mas’ul kotib**: Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

**Nashrga tayyorlovchi**: Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

### TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

**Texnika fanlari muharriri**, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.


**Texnika fanlari muharriri** Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Kimyo fanlari muharriri** Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

**Kimyo fanlari muharriri**, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Iqtisodiyot fanlari muharriri** Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri**, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.





**Tibbiyot fanlari muharriri** Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O‘zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Biologiya fanlari muharriri** Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O‘zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

**Sotsiologiya fani muharriri** Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.


**Filologiya fanlari muharriri** Jo‘rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo‘qon davlat pedagogika instituti. Qo‘qon, O‘zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o‘qituvchi.

**Fizika-matematika-fanlari muharriri** Bobamuratov Ulug‘bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O‘zbekiston.

**Tibbiyot fanlari muharriri** Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tibbiyot fanlari muharriri** Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrası mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

**Gumanitar fanlar muharriri** Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)





ISSN (E): 2181-4570

**Mavzu: Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari, nazariy asoslari va ulardan geografiya o'quv mashg'ulotida foydalanish masalalari.**

**Muhammadova Marjona Sodiq qizi Buxoro davlat universiteti 2- kurs magistranti**

**Abbasova Gulnoza Baxshilloyevna Buxoro tuman 6-maktab oliy toifali katta o'qituvchi**


**Annotatsiya:** Innovatsion ta'lim texnologiyaning turlari va ulardan geografiya fanlarida foydalanish xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, novatsiya, innovator, innovatsion ta'lim, ta'lim innovatsiyalari

Lug'aviy jihatdan "Innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"<sup>1</sup>.

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli





ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan.

**Innovatsion ta'lim** (ingl. "innovatsion" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir.


Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Innovatsion ta'limni geografiya darslarida foydalanish samarali deb o'ylayman. Sababi bunda yangilik kiritish ya'ni ixtiro qilish metodni qo'llash, geograf olimlar tomonidan bildirilgan nazariya va ilmiy g'oyalarni o'rganish o'quvchiga qulay bo'ladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari quyidagilar:

Muammoli ta'lim o'quvchilarning mustaqilligini faollashtirishi kerak bo'lgan o'quv faoliyatida turli xil muammoli vaziyatlarni yaratishga asoslangan. Natijada tahliiy va ijodiy qobiliyatlar va qobiliyatlar rivojlanadi.

Ko'p darajali trening o'qituvchiga zaif o'quvchilarga yordam berishga va kuchli tomonlarga e'tibor berishga yordam beradi. Ushbu uslub ko'proq qobiliyatli o'quvchilarni ta'lim sohasida chuqurroq rivojlanish istagini vujudga keltiradi, qolgan o'quvchilar esa akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, bu esa o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

Loyihalash asosida o'qitish usullari maktab o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, ularni ongli ravishda professional va ijtimoiy taqdirni belgilashga majbur qiladi. O'qitishning tadqiqot usullari talabalarga o'zlarini qiziqtirgan muammolarni mustaqil o'rganishga va ularni hal qilish yo'llarini taklif qilishga imkon beradi.





ISSN (E): 2181-4570

Guruhli o'qitishning mohiyati yangi mavzuni o'qitishda o'quv dasturi talablaridan emas, balki talabaning imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Guruh mashg'ulotlarida shaxsning psixologik va pedagogik diagnostikasi keng qo'llaniladi.


Yuqori sinflarda ma'ruza va kredit tizimidan foydalaniladi. Bu maktab o'quvchilariga universitetda o'qishga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatini beradi. Ushbu tizimning mohiyati bitta blokda bilim berishdan iborat bo'lib, ularni boshqarish talabalarning dastlabki tayyorgarligiga qarab amalga oshiriladi.

Innovatsion portfelni baholash tizimi shaxsning rivojlanish yo'nalishini aniqlash vositasi sifatida talabaning muvaffaqiyati to'g'risida shaxsiy hisobni shakllantirishga asoslangan.


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu kompyuter va Internetdan foydalanish orqali bilimlarni cheksiz boyitishdir.

Ta'lim tizimiga yangi usul va texnologiyalarni tatbiq etish umuman an'anaviy o'qitish usullarini bekor qilishni anglatmaydi. Innovatsiya butun o'quv jarayonining ajralmas qismidir

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.








Ta'lim innovatsiyalari “innovatsion ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan. Geografiya fanidan xabarimiz borki, dastlabki shahar rimda paydo bo'lgan. Olimpiada o'yinlari ham rimda paydo bo'lganligini jismoniy tarbiya fanlaridan bilib olganmiz. Mana shunday darslarni fanlar aro integratsiyada o'tish metodlaridan foydalanish bu ham darsni tinglovchining fikrlashini yanada oshirishiga yordam beradi va o'quvchi yoki talaba birgina fan bilan cheklanib qolmaydi.

Innovatsiyalar turli ko'rinishga ega. Quyidagilar innovatsiyalarning asosiy ko'rinishlari sanaladi:

- yangi g'oyalar;
- tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;
- noan'anaviy yondashuvlar;
- odatiy bo'lmagan tashabbuslar;
- ilg'or ish uslublari

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovatsiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish **maqsadi** ko'zlanadi.





Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.


Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (**yangilanish**) deb yuritiladi. Bunga geografiya o'quv darslarida 10-sinfda o'tiladigan bashorat mavzusini misol tariqasida olsa bo'ladi. Sababi bashoratning bir nechta turlari mavjud bo'lib: ular qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va hokazolarga bo'linadi.

Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (**yangilik kiritish**) deb ataladi. Bunda esa bevosita dala amaliyoti bilan bog'liq. Chunki dala amaliyoti albatta kuzatish bilan birgalikda konseptual ya'ni muayyan tizimning rivojlanishiga xizmat qiladigan konsepsiya yoki nazariyalar yaratadi.

Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mohiyatiga ko'ra novatsiya va innovatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Ular quyidagilardir (2-jadval):



**2-jadval. Novatsiya va innovasiyalar o'rtasidagi asosiy farqlar**

<b>Asosiy farqlar</b>	
<u>Novatsiya</u>	<u>Innovatsiya</u>
1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi;	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi;
2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi;	2) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;
3) metodlar yangilanadi;	3) sub'yektlarning faoliyati to'la yangilanadi;
4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	4) yangi texnologiyalar yaratiladi;
	5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi;
	6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi

Maktab ta'limining bugungi vazifasi, o'qituvchilarning yangi innovatsion axborot texnologiyalari orqali dars davomida samarali foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berish hisoblanadi. Shuning uchun ham dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning matematika fanini tushunarli, aniq qilib o'rganib borishi uchun ham, darslarni yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish va o'rgatish maqsadga muvofiqdir.


Xulosa qilib aytganda aniq fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagi o'quv mashg'lotlariga: ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.





### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
2. Alimov A.A. "Совершенствование процесса подготовки будущиx преподавателей специальнкx дисциплин." Europeanresearch 8 2015.
3. Olimov Q.T., Sayidahmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltaeva M.L., Alimov A.A., Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. T.,- 2012.- 300b
4. Q.T.Olimov, L.P.Uzoqova. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Kasb – hunar kollejlari o'qituvchilari uchun metodik o'quv qo'llanma Toshkent: Fan, 2004.- 119b
5. Internet ma'lumotlari.





## 三毛SAN MAO ASARLARINING LINGVISTIK JOZIBASI VA UNING MADANIY MULOQOTGA TA'SIRI

*Rasuleva Nigina Alisherovna*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Xitoy filologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi*  
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD*  
[nigina11@hotmail.com](mailto:nigina11@hotmail.com)

*Ashirbayeva Sevinch Abduxoshim qizi*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrasi talabasi*  
[ashirbayevasevinchgmail.com](mailto:ashirbayevasevinchgmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgacha San Mao va uning adabiy asarlari bo'yicha tadqiqot ishlarining natijalari juda ko'p bo'lib, bu asosan San Mao asarlaridagi samimiy va tabiiy yozuv uslubi tufayli o'quvchilarning qalbiga o'z vaqtida kirib kelishiga olib keldi. Moddiy sivilizatsiya bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan Xitoy jamiyatida ma'naviy ochlik va tashnalikka to'yimli voha topdi. Yangi ijtimoiy madaniyat yangi tuproqda maftunkor joziba bilan porlay boshladi. Ushbu maqola San Mao nasrining til jozibasini zamonaviy madaniy muloqot nuqtai nazaridan ko'radi, ko'p qirrali tadqiqotlar olib boradi, San Mao nasriy asarlarining Xitoy dunyosida mashhurligi sabablarini aniqlashga harakat qiladi va uning keng tarqalishi tahlilini o'tkazadi. Yozuvchilar va kitobxonlar o'rtasidagi ta'sir San Mao nasrining til jozibasini fanlararo tadqiqotlar uchun ochib berish aloqa, sotsiologiya va madaniyat nazariyasi yordamida chuqur muhokama qiladi.

**Kalit so'zlar.** San Mao; "Yomg'irli fasl boshqa qaytmaydi" asari; go'zallik; uyg'unlik; "Cho'ldagi restoran" asari; "Abadiy Maryam" asari;

San Mao o'z hayoti bilan yozadigan inson, u o'zining hazilkash, sof va sodda tili bilan biz uchun o'ziga xos adabiy dunyo qurib berdi. San Mao o'z nasrida doimo o'zining hayotini yozib borgan. San Mao asarini o'qib, biz til badiiy tuzilishining





asarlarga ta'sirini chuqur anglay olamiz va San Maoning tilni boshqarish qobiliyatidan hayratga tushamiz. U doimo yuksalib boradi, uning nasri ham... San Maoning "Yomg'irli fasl boshqa qaytmaydi" ilk asarlari yetilmagan, cho'lning orqasida yashayotgan, cho'l quyoshida bug'lanib ketgandek, tili ixcham, to'g'ri va samimiydir. Bu xususiyatlar San Maoning keyingi turmush o'rtog'i Xosening vafotidan keyin ham asarlarida hamon saqlanib, maqoladagi qayg'u va tushkunlik bilan bir-birini to'ldirib, o'ziga xos va teranroq jozibaga ega bo'ldi. San Mao asarlaridagi til ixcham, yumoristik, romantik va jonlidir. U g'amxo'rlik qilayotgan insonparvarlik va tabiiy urf-odatlar ham go'zallik, tabiat va muhabbatga to'la. Erkin va oson tilda, biz har doim uning tajribasini chinakam his qila olamiz. San Mao nasrida estetik xususiyatlar va hayotiy tajribaga to'la ijodkorlik mavjud. Uning hikoyalari orqali o'quvchilar insonlar olamida quvonch, g'azab, qayg'u va shodlik davrini boshdan kechirayotgandek tuyuladi. San Mao yozma dunyosida umrning uzunligi ahamiyatsiz, harorat va hayotning chuqurligi muhimroqdir.

San Mao asarlaridagi o'ziga xos til uslubi uning chuqur adabiy mahoratini ko'rsatadi hamda tinch, tabiiy va tiniq til va personajlar hamma joyda Xitoy klassik adabiyotining soyasini ochib beradi. Idiomalar, mumtoz she'rlar va adabiy asarlar mazmuni asarga aylanib, nasr tilini nafis va kulgili qiladi. San Maoning hayot yo'li shu tarzda bayon etilgan. Til uslubida ham avtobiografiyaning haqiqiyliigi va soddaligi, ham sayohat nasrining erkin va sodda go'zalligi bor, huddi dunyodagi eng samimiy elf kabi, kitobxonlar qalbida bemalol kezib yuradi.

Tabiiy va chiroyli "San Mao uslubi" tili nafaqat dunyodagi eng oddiy haqiqiy ranglarga ega, balki dunyodagi ayollarning eng qat'iy va yoqimli ranglarini ham o'z ichiga oladi. Optimistik va erkin ruhli San Mao o'z hayotidagi barcha ruhiy kuchni tabiiy so'zlarga aylantiradi va dunyoviy olamga tushadi, shuning uchun o'qiyotganda o'quvchilar yanada qiziqarli hislar olamiga tushib qoladi.

"Cho'ldagi restoran" nomli ijod na'munasida San Mao "Bodringli omlet qo'ziqorinlari" taomini ta'riflagan, bu esa bir zumda yoshlar orasida ommalashib ketdi. Xosening barcha hamkasblari sharqona taomlarni yaxshi ko'rib qolishdi.<sup>1</sup> Xose xo'jayinining maqtovi, San Maoning yuzida ongsiz ravishda ayyor va mag'rur ifoda paydo bo'lishiga olib keladi. Sokin tarzda hazilkash va yoqimli uy bekasi obrazi ko'zni

<sup>1</sup> 丁琪, 论三毛创作的文化视野及意义[J]内蒙古大学学报(哲学社会科学版), 2010, 05:102-106.





qamashtiradi. Muhabbatga samimiy qarash San Mao asarlarida eng madaniy xarakterli nuqta deyish mumkin. Sharq ayollarining muhabbatga fidoyiligi, yerning chekkasidagi hamrohlik, solih xotin va Edipga o'xshagan er va bola, bu sharqona madaniyat tushunchalaridir. Ularning barchasi San Mao asarlaridagi "Satirlar orasi" da tasvirlangan.

Sevgi tushunchasidan tashqari, San Maoning dunyo qiyofasi o'quvchilar avlodining madaniy kontsepsiyasiga ta'sir ko'rsatdi. "Oilaviy qo'shnilar" maqolasida San Mao qo'shnisi Rab onasining tuya go'shtini tepalikdagi San Maoning poyabzal qutisidagi muzlatgichiga qo'yish iltimosini istamay, rad etadi. "Bir oy davomida u menga faqat bir so'z aytdi: "Meni rad etding va meni xafa qilding." Bir nechta zarbalar bilan u ko'zlari aylanib yurgan va oq tishlarni ko'rsatadigan kulgili tasvirni tasvirlaydi. Aynan shunday xotirjamlik San Maoning mehribon va bag'rikeng munosabatini ko'rsatadi. Menimcha, bu ham Xitoy xalqini modernizatsiya qilish jarayonida e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydigan madaniy mentalitetdir, odamlarning qarashlari endi mamlakat yoki o'zlarining kichik hayoti bilan chegaralanib qolmaydi va global qarash Xitoy jamiyati va qoniga sekin astalik bilan singib ketadi.

San Maoning qalamida vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan hazillar o'quvchilarning hayotga bo'lgan munosabatiga chuqur ta'sir qildi. "Sahroda cho'milish" maqolasida San Mao cho'l ayolining birinchi marta cho'milayotganini ko'rib, shunchalik ko'p semiz va yalang'och tanalarni ko'rganligini aytadi. O'zini o'ylab: "Taqqoslash uchun, men yonida o'sayotgan yupqa itning dumiga o'xshayman, katta semiz sigir, ularning oldida oqarib ketadi." Cho'ldagi ma'yus hayotni jonli, yorqin yozuv va qaytarib bo'lmaydigan latifalar soya qiladi. Chet elda yashab, g'alati odamlarni uchratib qolishingiz muqarrar. Islandiyadan kelgan qo'shni ayol "islandiyalik" bo'lishga qodir. U San Maoga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi, lekin "bu aysbergga o'xshash qo'shni ayolga yigit kishi bir qarashidayoq zumda erib ketishi mumkin."<sup>2</sup> Aqlli so'z o'yini, lekin o'quvchilar o'zlarining qo'shnilaridan noroziligini ko'rishlari uchun yetarli, juda hazilkash va juda kulgili. Hayot qiyin bo'lishi mumkin, lekin siz optimistik va ijobiy munosabatda bo'lsangiz, nega baxt va lazmatni tatib ko'rmaysiz.

<sup>2</sup> 曹萌, 过一种诗意的生活 —三毛作品中的情怀[J], 中外企业文化,2013,24:252.





San Mao o'quvchilarga maftunkor ayol qiyofasini ko'rsatish uchun ushbu oddiy yoki chiroyli tildan foydalanadi. San Mao tomonidan qurilgan nasr olamida dunyoda erkin, oson va chaqqon raqsga tushadi. U o'z orzularini ro'yobga chiqarish va ideal hayotga intilish yo'lidagi harakatlari bilan ko'pchilik oddiy odamlar uchun sehrli darcha ochadi. Bu oynada odamlar dunyoga nazar tashlab, o'z orzulariga e'tibor berib, hozirgi hayotini pragmatik tarzda boshqara boshlaydilar. Bunday murojaat tabiatan tug'iladi, ayni shu tabiiy joziba ham odamlarning ijtimoiy-madaniy tushunchalarini jimgina oziqlantiradi. Aytish mumkinki, San Mao asarlari tomonidan yaratilgan til jozibasi Xitoy madaniyatining tarqalishida sehrli rol o'ynadi. San Mao asarlarining keng ta'sir doirasiga ega bo'lishining sababi uning jilosiz til ifodasidan kelib chiqadi. Haqiqatni aytadigan hikoyalar, aniq va erkin hamda oson yozilgan, haqiqiy his-tuyg'ularni, irodali va g'ayrioddiy didni, cheksiz tuyg'ularni, cheksiz samimiyat bilan ifoda etadi.<sup>3</sup> Bunday badiiy temperament yozuvchi va kitobxonlar orasidagi masofani juda yaxshi yaqinlashtirishi va katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. "Abadiy Maryam" romanida San Mao katta uyga ega bo'lganidan xursand, "Dahlizda ikkita xona bor, qo'shimcha ravishda uzoq tog'larga qaragan go'zal katta balkon bor. Xose va mening o'z joyimiz bor va biz..." "Zamonaviy xitoycha lug'at"da "各得其所" ta'rifi "har kim yoki hamma narsa to'g'ri joylashtirilgan" deb tushuntirilgan. San Mao er-xotinning katta uyga ko'chib o'tgandan keyingi holatini tasvirlash uchun ushbu so'zni tanlash juda o'rinli. Shunga mos ravishda, oldin ularning kichik va qo'pol xonasini tasvirlash uchun "bosqichma-bosqich" ta'riflash yanada yorqinroq bo'ladi. Bu so'zlardan San Maoning ochiqchasiga erkinligini to'liq his qilish mumkindek tuyuladi. Gohida uning qizchaga bo'lgan munosabatini, goh cho'lga yuz tutishga qo'rqmas sog'inchini, goh jim, mayin, goh yirtqich izlanishlarini his qilasan. Har bir asar San Mao o'zining haqiqiy ifodasidir. Va haqiqat shuki, eng ta'sirchan bo'lgan San Mao nima uchun o'quvchilar tomonidan seviladi.

Hozirgi kunda ko'plab yoshlar ko'pincha jingalak shlyapalar, keng va yorqin kiyimlar kiyishni hamda osmonning oxirida yolg'iz yurishni, orqalarida xalta bilan dunyoni kechishni orzu qiladilar, sevgidan umidsizlar; Kuchli oshiq bo'lganingiz yaxshi, kayfiyatingiz yaxshi yoki yomon bo'lganida yozish yoki chizishingiz mumkin... Bu narsalarda hammamiz San Mao soyasini topa olamizmi? San Mao haqiqati, sevgisi,

<sup>3</sup> 曹萌, 过一种诗意的生活 —三毛作品中的情怀[J], 中外企业文化, 2013, 24: 252.







go‘zalligi ta‘sirchan so‘zlar bilan birga odamlarning madaniy tushunchalarida chuqur muhrlangan.

不要问我从哪里来  
我的故乡在远方  
为什么流浪  
流浪远方.....

Bu San Maoning nozik hamda yolg‘iz, tasodifiy va surgun hayotini ifodalovchi qo‘shiq. U sarson-sargardon yurt kezib yurgan davrlarda taniqli emas edi, ammo dunyoni tark etganidan so‘ng mashhurlikka erishdi. San Mao kichik orzusi bilan Sahroda to‘liq hayotini o‘tkazdi, o‘zining hech qachon bo‘ysunmaydigan munosabati bilan kelajak avlodlarni ilhomlantirdi va haqiqat dunyosi (tuzog‘i)ga tushib qolgan odamlar uchun dunyo kezish haqidagi cheksiz xotiralarni qoldirdi.

San Mao nasroniylikka e‘tiqod qiluvchi an‘anaviy xitoy oilasida tug‘ilgan, keyin ota-onasi bilan Tayvanga ko‘chib o‘tgan. U o‘smirligidan kitob o‘qishni yaxshi ko‘rardi, ayniqsa an‘anaviy Xitoy madaniyati uchun, Xitoy va G‘arbning ko‘p madaniyatli muhitining kirib borishi ostida San Mao an‘anaviy xitoy savodxonlarining mehr-shafqatiga va g‘arb madaniyatidagi birodarlik ruhiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, San Mao maktab yillarida qattiq zarba oladi, bir muddat autizmdan aziyat chekadi va nihoyat maktabni tashlab ketadi, bu unga o‘qish va rasm chizish uchun ko‘p vaqt beradi. Keyinchalik oilasi va do‘stlari yordamida San Mao soyadan chiqib, xorijda o‘qish uchun Germaniya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarga yo‘l oladi, natijada u G‘arb falsafasi va madaniyati bilan aloqaga kirishish imkoniga ega bo‘ldi hamda Sahroi Kabirning sehrli vasvasasi ostida u bu yerda sevikli Xose bilan turmush qurib, qo‘nim topdi. Shu tariqa uning hayoti ijodining cho‘qqisiga chiqdi. Ehtimol, taqdir uning iste‘dodi va erkinligiga juda hasad qilgandir, shuning uchun ham u San Mao bilan hazillashib, Xose hayotini erta oldi va u vafot etganidan keyin San Mao dunyosi ham qulab tushdi. San Mao asarlariga nazar tashlar ekanmiz, uning hayoti qayg‘u va quvonchlardan tashkil topganligini ko‘rishimiz mumkin. U kundalik hayotining iliq va sovuqligini, hayotdagi eng chuqur his-tuyg‘ularni va eng kuchli qayg‘usini o‘z asarlarida jamlaydi, shirin va mayin balladalar qo‘shig‘i kabi, dunyoda o‘ziga xos oqqush ohangiga aylanadi.

San Mao asarlaridagi yolg‘izlik.





“Yomg‘irli fasl boshqa qaytmaydi” asarida San Mao shunday deb yozgan edi: “Men sizni tushunaman, garchi biz o‘ynab, hayotdan zavqlanayotgan bo‘lsak ham biz bu odamlardan farq qilamiz. Ammo, hayotimizning mohiyatida biz hammamiz o‘zimizni yolg‘iz his qilamiz, buni inkor etib bo‘lmaydi. Qanday qilib bo‘lsada, baxtingizni topsangiz ham, doimo o‘zingizni yolg‘iz his qilasiz.” Hayotning chuqur hissiy tajribasida yolg‘izlik odamlarning umumiy tuyg‘usi bo‘lib ko‘rinadi, bu ayniqsa San Mao asarlarida ko‘zga tashlanadi. San Maoning afsonaviy hayotida yolg‘izlik uning hissiy tajribasining normal holatidir. San Mao juda yoshligidan boshqa bolalardan farq qilar edi. Uning sog‘lig‘i yaxshi bo‘lmagan hamda ota-onasi tomonidan yaxshi qaralgan, natijada bu uning nozik tabiatli va o‘ziga xos did sohibasi bo‘lib yetlishiga olib kelgan. Bolaligida u boshqa bolalar bilan o‘ynagandan ko‘ra, yolg‘iz qabrga borib, loy bilan o‘ynashni afzal ko‘rar edi. O‘smirlik davrida u hech qachon qizlar o‘ynagan o‘yinlarni o‘ynamagan, mustaqil, yolg‘iz hayotda yashashga o‘rgangan. Shu bilan birga, San Mao an‘anaviy xitoy klassikasi “Qizil uylar orzusi” 《红楼梦》 asarini besh yoshdan oshganida va o‘rta maktabda o‘qib yurganida o‘qiy boshlagan. U dunyoning deyarli barcha mashhur romanlarini o‘qigan, shuning uchun u juda erta odamlar va hayotning yakuniy ma‘nosini izlagan va o‘rgangan. Bu hayotiy kechinmalar uning asarlarida mujassamlashgan, masalan, “Ikkilanish” 《惑》 da kasallikdan aziyat chekkanligi, “Jenni portreti” 《珍妮画像》 da hayotda adashib qolgan qiz personaji; San Maoning “Tushlarda qancha gul to‘kiladi” 《梦里花落知多少》 dagi yolg‘izlik va sog‘inchdagi his tuyg‘ ulari; “Mening Antonim” 《安东尼\*我的安东尼》 romanida “men” o‘zini gavjum shahardagi qushlarga tomon talpinishini ifodalaydi. Bu asarlarda qalbidagi yechimi yo‘q yolg‘izlik yorqin ifodalangan, balki milliy siyosatni chinakam boshidan kechirganlarga bunday nozik va real ifodalarga ega bo‘lishi mumkindir.

San Mao asarlaridagi haqiqiy tuyg‘ular.


San Mao “Tushda qancha gullar to‘kiladi” 《梦里花落知多少》 da shunday deb yozgan edi: “Sekin uxlab qoldim, qo‘llarim bo‘yningizga osildi, uzoqda nimadir ohista gumburladi - o‘zimni eslayman yosh, siz osmon haqida gapirishni, men esa kulishni yaxshi ko‘rar edim. Bir kuni shaftoli tagida yonma-yon o‘tirdik, o‘rmondagi shamol, qushlarning sayrashi, tushayotgan gullarni orzu qilganicha, biz qandaydir tarzda uxlab qoldik...” San Mao asarlarida eng ajralmas narsa bu haqiqiy his-tuyg‘ularning





ifodasidir. Uning hayotiy tajribasi ko‘pincha San Mao asarlarida kuzatiladi, masalan, u “hayotning mohiyati yolg‘izlikda” deb yozadi. San Mao nasroniylikka ishonganligi sababli, u juda insonparvar, ana shunday insonparvarlik ruhi esa sharq adabiyotining o‘ziga xos lirik bo‘yoqlari g‘amxo‘rligida kuchli emotsional ifodaga ega bo‘ladi. U Sahro haqida yozganida, huddi shunday yozgan: “U qanchalik uzun yoki qisqa bo‘lmasin, qanchalik quvonchli yoki qayg‘uli bo‘lmasin, qanchalik sevgi yoki nafrat, foyda yoki yo‘qotish bo‘lmasin ... hamma narsa o‘tishi kerak, xuddi shu gullar, bu oqayotgan suvlar kabi...” Bu iboralardan ko‘rinib turibdiki, San Mao hayotning pirovard ma‘nosi haqida o‘ylagan, uning tafakkurida o‘limni kesish va baxt sifatida qabul qilish mumkin bo‘lgan narsa, o‘lim ham g‘amgin hayotning oxiri, chunki o‘lim hayot ortidan keladi. Hayot va o‘lim haqidagi ana shunday qarash ta‘sirida San Maoning o‘limni she‘riy tasviri kuchli o‘lim tuyg‘usini uyg‘otdi. Ammo bu o‘lim muhiti pessimistik o‘qish uchun emas, balki o‘quvchini o‘qish jarayonida cheksiz fikrlashga majbur qilishini isbotladi. Hayot va o‘lim haqida yozish hayotdan voz kechishni anglatmaydi. Bu hayot va o‘lim haqidagi hushyor qarashga ega hayot va o‘lim bayonotidir. Hayot va o‘limning ma‘nosi yanada mazmunli tarzda talqin qilingan namunasidir. Shunday qilib, u hayot va o‘lim haqidagi ushbu noyob qarashga intilish bilan birga, hayotning “Hikoya asosida u Xose bilan Sahroi Kabirdagi kulgili, baxtli va oddiy turmush tarzini ifodalaydi. Ayni paytda San Mao baxtli va faoldir. Xose dunyoni tark etganidan so‘ng, San Maoning maqolalari to‘satdan kuchli qayg‘u tuyg‘usiga burkandi, u Xosega bo‘lgan sog‘inchini yozma ravishda ifodalaydi, natijada bu qayg‘uli va ta‘sirli asarlari yaratilishiga olib keladi. Jumladan, “Tushlarda qancha gul to‘kiladi” asarida u Xose bilan o‘tkazgan baxtli kunlarini ko‘ngli to‘lib eslaydi, U Segoviyadagi qorda Xose bilan muhabbat tuyg‘usi almashinuvi hamda Xosening o‘limi unga olib kelgan vayronagarchilik hissi haqida yozgan. Bunday yurakni larzaga soluvchi kechinma dunyoning chuqur tajribasini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, Xose bilan tush yo‘riqlarida uchrashish ifodasi dunyoning quvonchu qayg‘usiga bitilgan.

O‘zining notinch va mashaqqatli hayoti davomida San Mao o‘zining hayotiy tajribalari va ruhiy izlanishlarini tasvirlash uchun qalamdan mohirona tarzda foydalangan. Ehtimol, o‘zi yashab turgan jamiyatga tegishli emas edi; u shoirona yillarini o‘tkazishi va ot kabi orzu qilishi kerak. Ammo tobora zamonaviylashib borayotgan jamiyatda San Mao har doim jamiyatning chekkasida turib, ma‘naviy konvertatsiya va hayot erkinligiga erishish uchun zamonaviy sivilizatsiya va ibtidoiy






hayot o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qilgan. Ammo o'z hayoti bilan yozadigan yozuvchi San Mao unga ergashgan o'quvchilarga hayotning yonayotgan tuyg'usini ham yuqtirgan holda, balki o'zining betakror yozma personajlari bilan hayotining o'zgacha borlig'ini gavdalantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 曹萌, 过一种诗意的生活 —三毛作品中的情怀[J], 中外企业文化,2013.
2. 丁琪, 论三毛创作的文化视野及意义[J]内蒙古大学学报(哲学社会科学版), 2010.
3. Ли Цзыюнь «Очищение человеческой души». Пекин, «Сяньлянь», 1984; У Дайин. «Беседы о женской прозе новой эпохи»/ «Современная литературные веания», Ланьчжоу, 1983, №4; «Женский мир и женская литература»//Пекин, «Литературная критика», 1986, №1.
4. 三毛 . 哭泣的骆驼 [M]. 哈尔滨: 哈尔滨出版社, 2003,(6):65-119.
5. 朱立新.三毛的写作观与人格魅力[D].邢台: 河北邢台学院继续教育部,2010.
6. 林丹. 奇真爱: 三毛作品魅力之奥秘[J]. 漳州师范学院学报(哲学社会科学版), 1995.
7. 《现代汉语大词典》。上海辞书出版社。2006年。ISBN: 9787532627288.
- 8.[https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8C\\_%D0%9C%D0%B0%D0%BE](https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D0%B0%D0%BD%D1%8C_%D0%9C%D0%B0%D0%BE)





ISSN (E): 2181-4570

**Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси  
“Коррупцияга қарши кураш” мутахассислиги магистратура тингловчиси  
Қодиров Маруфжон Исмоилжон ўғли  
Мавзу: Ахборот технологиялари ва сунъий интеллектнинг  
коррупцияга қарши курашдаги ютуқлари: хорижий давлатлар илғор  
тажрибалари таҳлили.**

Коррупция бутун дунё мамлакатлари олдида турган доимий ва мураккаб муаммо бўлиб қолмоқда. Унинг иқтисодий тараққиётга, ижтимоий ҳамжиҳатликка ва сиёсий барқарорликка салбий таъсири ушбу кенг тарқалган муаммога қарши курашиш учун инновацион стратегияларни талаб қилади. Сўнгги йилларда бир қанча мамлакатлар коррупцияга қарши саъй-ҳаракатларини кучайтириш учун ахборот технологиялари (АТ) ва сунъий интеллектдан (СИ) муваффақиятли фойдаланмоқда. Ушбу замонавий технологиялардан коррупцияга қарши курашда фойдаланаётган хорижий мамлакатлар самарали натижаларга эришаётгани ҳаммага маълум. Қуйида бундай замонавий дастурлар ва уларнинг ижобий тажрибаларини таҳлил қилиб ўтамыз. Ушбу стратегияларни ўрганиб чиқиб, биз қимматли фикрларни тўплашимиз ва турли миллий контекстларда, хусусан, Ўзбекистонда қўлланилиши мумкин бўлган потенциал ечимларни аниқлашимиз мумкин. Гарчи янги технологиялар ҳукуматлар ва коррупцияга қарши амалиётчилар томонидан тобора кўпроқ трансформацион ўзгартирувчи восита сифатида кўриляётган бўлсада, макро даражадаги коррупцияга АКТнинг ҳақиқий таъсирини ўлчаш учун ҳали чуқур тадқиқотлар олиб борилмаган.<sup>1</sup>

Коррупцияга қарши курашда бошқа давлатлар томонидан самарали натижаларга эришган ахборот технология дастурлари ва сунъий интеллектни қуйидаги йўналишларга таснифлаган ҳолда таҳлил қилсак мақсадга мувофиқ:

- ❖ Коррупцияни аниқлашда технологик инновациялар;
- ❖ Электрон ҳукумат ва шаффоф бошқарув;
- ❖ Ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва суд-ҳуқуқ тизимини мустаҳкамлаш.

<sup>1</sup> Zinnbauer Dieter, False Dawn, Window Dressing or Taking Integrity to the Next Level? Governments Using ICTs for Integrity and Accountability - Some Thoughts on an Emerging Research and Advocacy Agenda (2012), [http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2166277](http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2166277)





Ушбу йўналишлар кенг қамровли бўлиб, улар ўз ичида ҳам бир неча соҳаларга бўлиниб кетади. Бу йўналишлардаги илғор хорижий тажрибаларни ўрганиб чиқамиз.

***Коррупцияни аниқлашда технологик инновациялар.***

Давлат ёки ташкилотдаги коррупцион ҳолатларни аниқлашда уни айнан қайси тармоқлар ёки соҳаларда кўпроқ эканлигига эътибор бериш лозим. Шунга қараб алгоритмлар ишлаб чиқарилади. Ўрганишлар натижасида, мамлакатлардаги коррупцион ҳолатларни аниқлашда асосан куйидаги 3 та йўналишдаги технология инновациялар самарали натижаларга эришганлигини кўришимиз мумкин:


**а. Илғор маълумотлар таҳлили (*Advanced Data Analytics*).** Кўплаб мамлакатлар коррупция шакллари аниқлаш учун илғор маълумотлар таҳлилидан фойдаланадилар. Сунъий интеллект ва машина ўрганиш алгоритмлари интеграцияси орқали таҳлилчи-аналитиклар эътиборидан четда қолиши мумкин бўлган турли яширин алоқалар ва қоидабузиш ҳолатларини очиб берадиган катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаш мумкин. Турли ахборот манбаларини таҳлил қилиш ва таққослаш қобилияти улкан маълумотларнинг энг катта афзалликларидан биридир.<sup>2</sup> Масалан, “Панама ҳужжатлари”<sup>3</sup> номи билан машҳур бўлган жиноий қилмишлар ҳақидаги, даромадни яшириш ва солиқдан қочиш бўйича халқаро даражадаги арбобларнинг офшор ҳудудлардаги қилмишларини очиб берган 11,5 млн. файлдан иборат сизиб чиқарилган улкан маълумотларни таҳлил қилиш ва уларни фош этишда ҳам шундай технологиядан фойдаланилган.

**б. Прогноз таҳлил (*Predictive Analytics*).** Архив ёки тарихий маълумотларни таҳлил қилиш ва асосий хавф омилларини аниқлаш орқали прогноз таҳлилий дастурлар ҳукуматларга коррупция ҳодисаларини олдиндан билиш имконини бера олади. Ушбу тизимлар юқори хавфли ҳудудларни, давлат харидлари жараёнларини ёки молиявий операцияларни баҳолаб, кенг миқёсли таҳлил қилиб бериши мумкин, бу эса ҳукумат, ҳуқуқни муҳофоза қилувчи органларга олдиндан ҳаракат қилиш ёки чора кўриш имконини беради.

<sup>2</sup> Maykl Dikson. Can we use big data analytics as an anti-corruption tool. March 15, 2019.

<https://seleritysas.com/blog/2019/03/15/big-data-analytics-as-an-anti-corruption-tool/>

<sup>3</sup> <https://www.theguardian.com/news/2016/apr/03/what-you-need-to-know-about-the-panama-papers>





Амалий нуқтаи назардан, келгусида нима бўлишини аниқ айта олиш имконсиз, лекин технологиялар ёрдамида автоўрганиш алгоритмларининг кенгайтирилган прогноз қилиш кучи орқали кўп манбали маълумотлар базасидан фойдаланган ҳолда коррупция билан боғлиқ энг долзарб маълумотларни очиш ва уларни прогноз қилиш мумкин.<sup>4</sup>

**с. Ижтимоий тармоқ таҳлили (Social Network Analysis).** Коррупция кўпинча мураккаб йўналишларда шаклланади. Ижтимоий тармоқ таҳлили СИ алгоритмлари билан биргаликда жисмоний ва юридик шахслар ўртасидаги муносабатларни хариталаш, тизимлаштириш орқали мураккаб коррупция тармоқларини очиши мумкин. Ушбу ёндашув асосий иштирокчиларни ва уларнинг алоқаларини аниқлашга, қандай масалалар, манзиллар, ҳаражатлар ва бошқа маълумотларни ўрганишда ёрдам беради. Шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлар учун коррупциялашган тармоқларга қарши курашда, уларни фoш этишда катта ёрдам бера олади.


Жиноий тармоқларни ўрганиш учун мултиплекс ёндашувга амал қилиш, яъни бир нечта ўзаро боғлиқ тармоқ ўлчовларини ажратиш ва уларнинг ўзаро боғлиқлигини ўрганиш самаралидир.<sup>5</sup> Масалан, Словения давлатида ноқонуний даромадларни легаллаштириш билан боғлиқ жиноятларни аниқлашда шубҳали шахслар ва ташкилотларнинг ички ва халқаро транзакциялари, молия операцияларини таҳлил қилиш орқали уларни алоқаларини аниқлаш, шу орқали жиноий механизмлар ва шерикларни аниқлаш йўлга қўйилган.

### **Электрон ҳукумат ва шаффоф бошқарув.**

Бугунги кунда деярли барча давлатлар томонидан жорий қилиб борилаётган, халқаро ташкилотлар томонидан жиддий тавсия қилинаётган ва халқаро нормаларда ҳам алоҳида кўрсатилаётган коррупцияга қарши курашишда ахборот технологияларининг энг самарали йўналишларидан бири электрон ҳукумат ва шаффоф бошқарув ҳисобланади. Ушбу йўналиш маиший коррупцияни камайтиришда муҳим рол ўйнайди. Шунинг учун ривожланган ва ривожланаётган давлатлар бу йўналишда катта тажрибаларга эришмоқда.

<sup>4</sup> Marcio S.M. Predicting and explaining corruption across countries: A machine learning approach. Oklahoma State University. January 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X19302473>

<sup>5</sup> T. Diviák, J. Dijkstra, T. Snijders. Structure, multiplexity, and centrality in a corruption network: : 22 March 2018. <https://link.springer.com/content/pdf/10.1007/s12117-018-9334-y.pdf>





Хорижий тажрибада бу йўналишда ҳам эришилган ютуқлар кенг қамровли бўлиб, уни қуйидаги асосий кичик йўналишларга бўлишимиз мумкин:

**а. Рақамли давлат хизматлари (*Digital Public Services*).** Электрон ҳукумат ташаббуслари маъмурий жараёнларни соддалаштиради, маъмурий бошқарув тизимидаги коррупция имкониятларини камайтиради. Солиқ тўловлари, рухсатномалар учун аризалар ва давлат харидлари учун онлайн порталлар каби давлат хизматларини кўрсатиш учун рақамли платформалар одамларнинг бевосита муносабатга киришиши, яъни “инсон омили”нинг таъсирини минималлаштиради ва шаффофликни оширади.

Рақамлаштириш инсон омилини минимал даражага тушириш орқали маъмурий ходимлар томонида ҳам, давлат хизматларидан фойдаланишга интилаётган фуқаролар томонида ҳам коррупцион хатти-ҳаракатлар қилиш имкониятларини камайтиради.<sup>6</sup> Ўзбекистондаги давлат хизматлари марказлари ва [my.gov.uz](http://my.gov.uz) сайти бунга яққол мисол бўла олади.

**б. Очик маълумотлар ва ошкоралик (*Open Data and Transparency*).** Хорижий давлатлар очик маълумотлар концепциясини қабул қилиб, ҳукуматлар маълумотларини жамоатчиликка очиқлаш жараёнини жадал суратда амалга киритиб, соддалаштириб бормоқда. Очик маълумотлар порталлари фуқароларга ва ОАВга ҳукумат фаолияти, бюджет маблағлари ва давлат харажатларини кузатиш имконини беради, уларда ҳисобдорлик маданиятини ривожлантиради ва коррупциянинг олдини олади. Бугунги кунда нафақат хорижий, балки миллий ОАВ томонидан ушбу йўналишда мустақил ўрганишлар олиб борилиб, жамоатчилик муҳокамалари бўлиб ўтаётганлиги бунга мисолдир.

Оммавий маълумотларга кириш ва очик ҳукумат маълумотларининг мавжудлиги коррупцияни камайтириш даражасига профилактик ва ижобий таъсир кўрсатиши мумкин. Давлат секторига алоқадор маълумотларини эълон қилиш ва улардан қайтадан фойдаланиш имкониятининг мавжудлиги самарали бошқарув ва фуқаролар иштирокини яхшилашни таъминлашда умуметироф этилган.<sup>7</sup> Ўзбекистонда ҳам бу йўналишда норматив ҳужжатлар қабул қилинб,

<sup>6</sup> UNDP. Digitalization as a tool for good governance and corruption prevention. December 9, 2020.

<https://www.undp.org/north-macedonia/blog/digitalization-tool-good-governance-and-corruption-prevention>

<sup>7</sup> Karolis Granickas. Open Data as Tool to Fight Corruption. European Public Sector Information Platform. April 2014.

[https://data.europa.eu/sites/default/files/report/2014\\_open\\_data\\_as\\_a\\_tool\\_to\\_fight\\_corruption.pdf](https://data.europa.eu/sites/default/files/report/2014_open_data_as_a_tool_to_fight_corruption.pdf)







барча давлат органлари ва ташкилотларнинг очиклиги, ўз фаолиятига доир маълумотларнинг шаффофлигини таъминлашда илдам илгарилаб борилмоқда.<sup>8</sup>

**с. Хабар берувчиларни ҳимоя қилиш механизмлари (Whistleblower Protection Mechanisms).** Технологиялар хабар берувчиларни ҳимоя қилишда энг асосий йўллардан бирidir. Баъзи мамлакатлар коррупция тўғрисида аноним тарзда хабар бериш учун хавфсиз рақамли платформаларни жорий қилмоқди, бу эса жамиятдаги коррупцион йўналишларни, шахсларни ва механизмларни аниқлашда катта ёрдам беради. Бунда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ёки ҳукумат коррупцион ҳолат юз берган, жой, мансабдор шахс, йўналиш ва бошқа турдаги маълумотларни таҳлил қилб, коррупциянинг сабабларини аниқлай олишлари ва тегишли чоралар кўришлари мумкин.

Хабар берувчиларнинг мотивлари турли мунозараларга сабаб бўлади. Уларни кўпинча норози ходимлар, ташкилотларга нисбатан нафратланган шахслар ёки шахсий пул мукофоти ёки шон-шухратга интилаётган оппортунистлар сифатида ҳақоратланади ва танқид қилинади. Бироқ, тадқиқотлар шуни кўрсатадики, хабар берувчиларнинг аксарияти ҳалоллик, жамоат хавфсизлигига ғамхўрлик қилиш, адолат ва ўзини ўзи сақлаш каби мақсадларга эга бўлади.<sup>9</sup> Шунинг учун коррупцияга қарши курашда хабар берувчиларни ҳимоя қилиш технологиялари ва механизмлари жуда муҳимдир.

### **Ҳуқуқни муҳофаза қилиш ва суд-ҳуқуқ тизимини мустаҳкамлаш.**

Ахборот технологиялари ва сунъий интеллект ҳозирда суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда ҳам кенг фойдаланилаётган инновацияларда ҳисобланади. Ушбу технологиялар суд ва бошқа органларнинг самарали, қонуний ва масъулиятли фаолият юритишида, уларнинг коррупцияга қарши курашда кучли қуроли сифатида фойдалана олишида муҳим рол ўйнамоқда. Ушбу йўналишда самарали натижаларга эга бўлган хорижий давлатлар тажрибаларини куйидаги кичик йўналишлар орқали чуқурроқ таҳлил қиламиз.

**а. Сунъий интеллект ёрдамида ишлайдиган тергов воситалари:** СИ билан ишлайдиган воситалар ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига коррупция ҳолатларини аниқлаш ва тергов қилишда ёрдам беради. “Табиий тилни қайта

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali <https://data.egov.uz/>

<sup>9</sup> UNODC. The Doha declaration: promoting a culture of lawfulness. Whistle-blowing systems and protections. <https://www.unodc.org/e4j/zh/anti-corruption/module-6/key-issues/whistle-blowing-systems-and-protections.html>





ишлаш” алгоритмлари<sup>10</sup> ҳуқуқий ҳужжатлар ва янгиликлардаги мақолалар каби катта ҳажмдаги ўрганилмаган маълумотларни таҳлил қилиши ва терговчиларга потенциал йўл-йўриқлар ва далилларни аниқлашда ёрдам бериши мумкин. Буларга шахс ҳақида барча маълумотларни, жумладан, молиявий аҳволи, транзакциялари, мулклари, яқин қариндошлар ва улар билан муносабатлари, соғлиғи, маълумоти, характери, содир этган ҳуқуқбузарликларини таҳлил қилиб берувчи, экспертиза ўтказиш билан боғлиқ бўлган инновациялар мисол бўла олади.

Автоматик ўрганиш қобилиятига эга сунъий интеллект нафақат маълумотларни олиш учун, балки аҳамиятсиз ёки ҳақиқатга асосланмаган нарсаларни истисно қилиш ёки белгилашда уларни аниқлаш, баҳолаш ва таснифлаш учун дастурланиши мумкин. Чуқур ўрганиш ва нейрон тармоқлар кучли механик ўрганишга асосланган технологиялар бўлиб, улар суд тиббиётида, далилларни тўплашда, электрон почта хабарлари, сўровномалар, блоглар ва ҳисоботлар каби рақамли ҳужжатларни юритишда катта амалий ёрдам бера олади.<sup>11</sup> Сунъий интеллектга асосланган кўчалардаги минглаб фуқароларни шахсини аниқловчи, уларни А нуқтадан Б нуқтагача ҳаракатларини кузата олувчи ақлли камералар, тергов жараёнларида гумонланувчиларнинг ҳар бири ҳаракати ва хатто кўз қорачиғларининг ҳаракатига қараб, уларни таҳлил қилувчи технологиялар тергов соҳасини анча ривожланишига ҳисса қўшмоқда. Бундай технологиялар аллақачон АҚШ, Буюк Британия, Хитой давлатларида амалда қўлланилади.

**б. Хатарларни автоматик баҳолаш.** СИга асосланган хавфларни баҳолаш тизимларини жорий этиш орқали мамлакатлар давлат амалдорларининг ҳалоллиги ва мувофиқлигини ҳолисона баҳолашлари мумкин. Бу тизимлар коррупцион амалиётлар билан шуғулланиш хавфи юқори бўлган шахсларни аниқлаш учун молиявий операциялар, турмуш тарзи ва бошқа тегишли омиллар ҳақидаги маълумотларни қайта ишлай олади ва келгусида қандай турдаги ҳуқуқбузарлик содир қилиши мумкинлигини таҳлили қилиб, уни олдини олиш

<sup>10</sup> The Role of Natural Language Processing (NLP) Algorithms. <https://www.expert.ai/blog/natural-language-processing-algorithms/>

<sup>11</sup> Julie Clegg, Founder & CEO at Human-i Intelligence Services Inc. The Impact of AI & Machine Learning on Investigations. September 26, 2019. <https://ontic.co/blog/ai-machine-learning-and-investigations/>





чоралари кўришда муҳим рол ўйнайди. Кенг маънода коррупцияга қарши хавфларни баҳолаш ҳукумат ёки корхонанинг ички ва ташқи муносабатларида коррупциянинг алоҳида шакллари эҳтимолини ва бундай коррупцияга олиб келиши мумкин бўлган таъсирини баҳолаш учун улар фойдаланадиган механизмларнинг хилма-хиллигини ўз ичига олади.<sup>12</sup> Сунъий интеллектга асосланган ушбу инновация қайси давлат ташкилоти ёки корхонага дахлдор бўлишидан қатъий назар, шу йўналишдаги тегишли маълумотлар бўйича дастурланган алгоритмлар асосида бўлиши мумкин бўлган коррупцион хавфлар ҳақида хабар беради. Албатта бу қарор қабул қилувчи учун самарали ёрдам беради.

с. *Суд залининг самарадорлиги (Courtroom Efficiency)*. Технологиялар суд жараёнларини яхшилаши ва коррупция заифликларини камайтириши мумкин. Ҳозирда суд тизимида ҳам бундай технологияларни жорий қилиш ислохотлари олиб борилоқда. Бу каби рақамли бошқариш тизимлари суд ишларини кузатиш, ҳужжатларни бошқариш ва режалаштириш жараёнларини яхшилайти, манипуляция ва порахўрлик имкониятларини минималлаштиради. Сунъий интеллектга асосланган алгоритмлар судьяларга далилларни баҳолашда, адолатли ва холис қарор қабул қилишни таъминлашда ҳам ёрдам бера олади.

ҲХНТ билан USAID суд жараёнин режалаштириш тизими ва ишларни бошқариш дастурини жорий этиш орқали суд залининг самарадорлигини ва рақамли аудиоёзувни расмий суд ёзувлари сифатида ишлатиш орқали шаффофликни ошироқда. USAID нинг “Адолат ҳамма учун” лойиҳаси, шунингдек, фуқаролик жамияти ташкилотлари ва журналистларнинг журналистик тадқиқотлар ва жинойтлар ҳақидаги хабарларни ўрганиши ҳамда коррупцияга қарши кураш бўйича ҳукумат фаолиятини кузатиш имкониятини кучайтироқда.<sup>13</sup>

Суд залининг самарадорлигини ошириш технологиялари мураккаб иш жараёнларини осонлаштириш, ҳар хил турдаги ҳолатлар ва тегишли маълумотларни моделлаштириш, суд ходимларига қоидаларни

<sup>12</sup> Georg Kell. A Guide for Anti-Corruption Risk Assessment. United Nations Global Compact Office. 2013 New York. [https://d306pr3pise04h.cloudfront.net/docs/issues\\_doc%2FAnti-Corruption%2FRiskAssessmentGuide.pdf](https://d306pr3pise04h.cloudfront.net/docs/issues_doc%2FAnti-Corruption%2FRiskAssessmentGuide.pdf)

<sup>13</sup> USAID. FACT SHEET: ANTICORRUPTION. <https://2017-2020.usaid.gov/albania/news-information/fact-sheets/fact-sheet-anticorruption>





автоматлаштириш асосида ишни тайинлаш ва қайта топшириш, коррупцияга қарши курашиш ва барча ҳаракатларни тўлиқ кузатиш орқали суд иштирокчиларини ҳимоя қилиш, муассасалар ўртасида узлуксиз ва хавфсиз алоқа, суд қарори натижаларини кузатиш каби жараёнларни ўз ичига олади.<sup>14</sup>

Албатта, ҳозирда давлатимизда ҳам суд фаолиятини рақамлаштириш, ултра сунъий интеллектни қўллаш бўйича давлат дастурлари доирасида чоратadbирлар белгиланиб, жорий қилиш масалалари кўрилмоқда.

Коррупцияга қарши курашда юқорида тўхталиб ўтилган йўналишларда ахборот технологиялари ва сунъий интеллектни қўллаш орқали ижобий натижаларга эришган илғор хорижий давлатлар тажрибаларини таҳлил қиламиз.

Бу йўналишда юқори самардорликка эришган давлат сифатида Сингапур, Эстония, Швеция, Бирлашган Араб Амирликлари (БАА) тажрибаларига тўхталамиз.

### *Сингапур.*


Сингапур коррупцияга қарши курашда инновацион технологиядан фойдаланиш бўйича етакчи давлатлардан бири бўлиб келмоқда. Мамлакатнинг Коррупция амалиётларини тергов қилиш бюроси - Corrupt Practices Investigation Bureau (CPIB)<sup>15</sup> коррупция механизмларини аниқлаш ва юзага келиши мумкин бўлган хавфларни таҳлил қилиш учун илғор маълумотлар таҳлили ва СИ алгоритмларини қўллайди. Уларнинг тизими шубҳали фаолиятни аниқлаш ва терговни осонлаштириш учун турли маълумотлар манбаларини, жумладан, молиявий операциялар ва турмуш тарзи билан боғлиқ маълумотларни таҳлил қилади. Сингапурдаги шаффоф электрон ҳукумат ташаббуслари ва давлат хизматларини кўрсатиш учун рақамли платформалар ҳам коррупция имкониятларини минималлаштирди ва жавобгарликни кучайтирди.

Энг самарали антикоррупцион дастурлардан бири Ҳукумат интеграциялашган молиявий бошқарув тизими GIFMS<sup>16</sup> дастури ҳисобланади. Бунда тегишли тартибда интеграция қилинган маълумотлар базаларидан фойдаланган ҳолда коррупцион хавфлар сунъий интеллект ёрдамида таҳлил

<sup>14</sup> M.Peltomali. IMPROVING COURTROOM EFFICIENCY. 2019 Finland. <https://www.elinar.com/2019/12/18/improving-courtroom-efficiency/>

<sup>15</sup> Сингапур коррупцион амалиётларни тергов қилиш бюроси <https://www.cpi.gov.sg/>

<sup>16</sup> <https://www.agd.gov.sg/our-services/overview/>





қилиниб, масъул шахсларга етказилади ва тегишли тартибда чора кўрилади. Бунда асосан молиявий операциялар, мол-мулк декларациялари билан боғлиқ шубҳали амалиётларга эътибор қаратилади.

Сингапурнинг Коррупция амалиётларини тергов қилиш бюроси (CPIB) коррупцияни аниқлаш ва олдини олиш учун Case Intelligence and Knowledge Management System" (CIKMS) каби сунъий интеллектга асосланган воситалардан фойдаланади. Бунда тергов жараёнларида гумон қилинувчи шахслар ёки юридик шахсларнинг фаолияти ҳақидаги маълумотларни терговга дахлдорлиги бўйича исботланиши лозим бўлган далиллар доирасида таҳлил қилиб, масъул шахсларга маълумот сифатида тақдим қилинади. Бу маълумотлар масъул шахслар томонидан қайта ўрганилиб далил сифатида фойдаланиш учун тақдим қилиниши мумкин.<sup>17</sup>

Шунингдек, Сингапурнинг давлат харидлари соҳасида ҳам коррупцияни камайтиришга эришган давлат дасутрларидан бири **GeBIZ**<sup>18</sup> платформаси ҳисобланади. Бу давлат идоралари учун шаффоф ва самарали харид жараёнини таъминловчи турли рақамли транзакция тизимларини ўз ичига олади. Бу дастур ҳам сунъий интеллектга асосланган бўлиб, харидлар бўйича ўтказилаётган тендерлар бўйича шубҳали ҳолатлар аниқланса автоматик бекор бўлади. Масалан, бир шахсга тегишли корхоналар ўртасидаги тендер, нархларни сунъий ошириш ҳолатлари, ҳақиқатда мавжуд бўлмаган корхоналар иштироки бўйича ҳолатларни аниқлаш, уларни бартараф этади.

### ***Естония.***

Естония электрон бошқарув ва рақамли инновациялар соҳасида жаҳон етакчиси сифатида шуҳрат қозонмоқди. Мамлакатнинг мустаҳкам рақамли инфратузилмаси хавфсиз ва шаффоф давлат хизматларини тақдим этиш имконини беради. Фуқаролар солиқ тўлаш ва рухсат олиш учун ариза бериш, одамларнинг бевосита мулоқотига бўлган эҳтиёжни камайтириш ва коррупция хавфини минималлаштириш каби давлат хизматларидан онлайн фойдаланишлари мумкин. Естониянинг блокчейн технологиясини жорий этиш,

<sup>17</sup> Corrupt Practices Investigation Assistant (CPIA). <https://www.cpi.gov.sg/careers/corrupt-practices-investigation-assistant/>

<sup>18</sup> <https://www.gebiz.gov.sg/about-us.html>





масалан, рақамли идентификация тизимида маълумотлар яхлитлигини таъминлайди ва ҳукумат транзакцияларига ишончни оширади.

Эстониянинг самарали технологияларидан бири **X-Road**<sup>19</sup> ички тизимидир. Бу ташкилотлар ўртасида ягона ва хавфсиз маълумот алмашинувини таъминлайдиган очиқ дастурий тизимдир.

Эстонияда давлатида деярли ҳар бир соҳа рақамли бўлиб, у овоз беришдан тортиб солиқ декларациясигача, тўхташ жойи чипталарини сотиб олишгача қамраб олган. Бу хизматлар ортида давлат органлари, фуқаролар ва компаниялар ўртасидаги рақамли алоқа инфратузилмаси – X-Road туради. Бу дастур ўзининг стандартлари ва қонунлари билан биргаликда Эстониянинг рақамли магистралини ташкил қилади.<sup>20</sup> Бу дастур фақат ҳукуматга тегишли бўлиб қолмай, жамиятнинг ҳар бир қатлами унга аъзо бўлиб кириши, давлат органлари, хусусий ташкилотлар ёки фуқаролар билан электрон хизматлардан фойдаланиши мумкин. Хавфсиз маълумотлар алмашинувини таъминлаш учун барча чиқувчи маълумотлар рақамли имзоланади ва шифрланади ва барча кирувчи маълумотлар аутентификация қилинади.

Эстониянинг коррупцияга қарши курашдаги яна бир инновацион дастури **E-TAX**<sup>21</sup> дастуридир. Бу Эстония Солиқ ва Божхона Кенгаши томонидан ўрнатилган электрон солиқ ҳисоботи тизимидир. Ҳар йили Эстонияда солиқ декларациясининг қарийб 98 фоизи электрон шаклда топширилади.<sup>22</sup> Эстонияда электрон солиқ электрон ҳукуматнинг узоқ йиллик тараққиётининг бир қисмидир. Эстония 2017 йилда Жаҳон Иқтисодий Форуми томонидан тадбиркорлик фаолияти бўйича биринчи ўринни эгаллади, 2018 йилда Index Venture томонидан стартапга самарали ёндашиш бўйича Европа Комиссиясининг 2020 рақамли иқтисодиёт ва жамият индексида (DESI) Европа Иттифоқи мамлакатлари орасида биринчи ўринни эгаллади. 2019 йил ҳолатида Эстониянинг рақамлаштириш бўйича статистикасига кўра, эстонияликларнинг 99 фоизи электрон гувоҳномага эга, давлат хизматларининг 99 фоизи онлайн ва

<sup>19</sup> The free and open-source data exchange solution. <https://x-road.global/>

<sup>20</sup> Hendrik Lume. X-Road: Estonia's digital backbone. June 10, 2022. <https://nortal.com/blog/x-road-estonias-digital-backbone/>

<sup>21</sup> <https://investinestonia.com/business-in-estonia/taxation/e-tax-system/>

<sup>22</sup> <https://e-estonia.com/solutions/ease-of-doing-business/e-tax/>





мамлакатда 70 000 дан ортиқ электрон резидентлар мавжуд.<sup>23</sup> Ушбу электрон солиқ тизимининг афзалиги шундаки, ҳеч бир жисмоний ёки юридик шахс солиқдан кўчиш ва бўйин товлаш ҳаракатларини амалга ошира олмайди. Чунки бу дастур комплекс интеграциялашганлиги учун, солиқ тўловчиларнинг ҳамма маълумотларини таҳлил қила олади.

### *Швеция.*


Швеция шаффофликни рағбатлантириш ва коррупцияга қарши курашиш учун инновацион ёндашувларни қўллаб келмоқда. Айниқса, мамлакатнинг очик маълумотлар дастурлари фуқароларга ҳукумат маълумотлари, жумладан, бюджет маблағлари ва давлат харажатлари ҳақидаги маълумотлардан фойдаланиш имкониятини беради. Ушбу шаффофлик жамоатчилик назоратини кучайтиради ва қонунбузарликлар ёки эҳтимолий коррупцияни аниқлашга ёрдам беради. Швециянинг сунъий интеллектга асосланган хавфларни баҳолаш тизимлари давлат амалдорларининг ҳалоллиги ва мувофиқлигини баҳолайди, бу еса ҳокимиятга коррупция амалиётида иштирок этиш хавфи юқори бўлган шахсларни фаол равишда аниқлаш имконини беради.

Швециянинг энг илғор технологияларидан бири коррупция ҳолатларидан хабар берувчи платформаси бўлиб, у хабар берувчиларни яхши ҳимояланганлигини таъминлайди. Бу платформа NAVEX **WhistleB**<sup>24</sup> платформаси ҳисобланади. Бу платформа 2011 йилда Стокгольмда ташкил этилиб, фойдаланишга топширилган. Ҳозирги кунга келиб эса бутун Европа Иттифоқи давлатлари ҳудудларида ҳам амал қиладиган хабар бериш тизими ҳисобланади. Бу тизимда фақат давлат мансабдор шахсларининг коррупцион ҳаракатларинигина эмас, балки хусусий сектор тизимидаги ҳукубузарликлар ҳақида ҳам хабар бериш имконияти мавжуд. коррупцион ҳолатлар ҳақида хабар берувчи шахс ушбу платформадан фойдаланганда, агар истаса шахсини махфий қолишини белгилаши мумкин, бу мурожаатни кўриб чиқишга ҳеч қандай тўсиқ бўлмайди.

Молиявий жиноятлар таҳдидига қарши курашиш ва молиявий тизимининг яхлитлигини ҳимоя қилиш учун Швеция жинойий фаолиятдан олинган

<sup>23</sup> Colin C Williams. E-TAX: ELECTRONIC TAX FILING, ESTONIA. The University of Sheffield. May 2021.  
[https://www.researchgate.net/publication/351984837\\_E-TAX\\_ELECTRONIC\\_TAX\\_FILING\\_ESTONIA](https://www.researchgate.net/publication/351984837_E-TAX_ELECTRONIC_TAX_FILING_ESTONIA)

<sup>24</sup> <https://whistleb.com/about-us/>





даромадларни легаллаштиришга (AML) ва терроризмни молиялаштиришга қарши (CFT) назоратни кучайтирмоқда. 1991 йилда Банк инспекцияси ва Суғурта назорати органининг қўшилиши сифатида ташкил этилган Швециянинг молиявий назорат органи ёки **Finansinspektionen (FI)**<sup>25</sup> мамлакатнинг асосий молиявий регулятори ҳисобланади.

FI Швеция Молия вазирлиги ваколати остида ишлайди ва мамлакат молия институтларининг “хавфлар ва назорат тизимлари”ни ўрганиш ва “низомлар, қарорлар ва бошқа қоидаларга риоя қилиш”ни назорат қилиш учун жавобгардир. FI ўз фаолиятини ахборот технологиялари ва сунъий интеллект ёрдамида амалга оширади. FI Швецияда ташкил этилган компанияларнинг молиявий соғломлигини ҳам баҳолайди ва бизнес юритиш учун рухсат бериш ваколатли эга.


### *Бирлашган Араб Амирликлари (БАА).*

БАА коррупцияга қарши самарали курашиш учун сунъий интеллект ва илғор технологиялардан фойдаланаётган илғор давлатлардан биридир. Мамлакатнинг давлат органлари коррупция ҳодисаларини олдиндан билиш ва олдини олиш учун прогноз таҳлиллардан фойдаланади. Тарихий маълумотларни таҳлил қилиш ва хавф омилларини аниқлаш орқали ҳокимият профилактика чораларини амалга ошириши ва яхлитлик механизмларини кучайтириши мумкин. БАА, шунингдек, фуқароларга давлат хизматларидан онлайн фойдаланиш имконини берувчи ва анъанавий бюрократик жараёнлар билан боғлиқ коррупция хавфларни камайтирадиган электрон бошқарув ислохотларини амалга оширмоқда.

БАА ҳукумати фуқароларга давлат хизматларидан онлайн фойдаланиш имконини берувчи **UAEPass**<sup>26</sup> номли рақамли идентификация тизимини жорий қилди. Бу тизим 2018 йилда ишга туширилган бўлиб, фуқароларнинг транзаксиялари хавфсизлигини таъминлаш орқали коррупция имкониятларини камайтиради. UAEPass хавфсиз рақамли идентификатор бўлиб, у БААдаги барча фуқаролар, резидентлар ва ташриф буюрувчилар учун биринчи тасдиқланган ва ягона миллий рақамли идентификация бўлиб, у турли хизматлардан фойдаланиш

<sup>25</sup> AML Regulations in Sweden: An Overview. <https://ripjar.com/blog/aml-regulations-in-sweden-an-overview/>

<sup>26</sup> Federal Authority for Identity, Citizenship, Customs & Port Security (ICP). What is the UAE Pass? <https://icp.gov.ae/en/uae-pass/>







имконини беради. Ҳукумат, ярим давлат ва хусусий сектор Интернет ва логин орқали ушбу тизимидан хизмат кўрсатиш марказларига ташриф буюрмасдан ўзини вақти ва кучини тежайди.

Ушбу дастур идентификацияси фуқаролар, аҳоли ва ташриф буюрувчиларнинг давлат, нодавлат ва хусусий сектор томонидан тақдим этилаётган хизматлардан қониқиб даражасини оширишга қаратилган бўлиб, ушбу агентликлар томонидан тақдим этилган 5000 дан ортиқ давлат хизматлардан фойдаланиш имкониятини яратади.<sup>27</sup> Ушбу дастурга эга бўлиш учун БААнинг белгиланган киоскаларидан дастлаб рўйхатдан ўтиш лозим ва кейинчалик фойдаланиш мумкин бўлади. Албатта бу тизимнинг коррупцияни камайтиришдаги асосий томони маиший коррупциянинг барча кўринишларига барҳам беришдир.

БААнинг энг илғор тажрибаларидан яна бири **E-Dirham**<sup>28</sup> дастуридир. E-Dirham тизими 2001 йилда БАА ҳукумати томонидан давлат операциялари учун хавфсиз ва самарали электрон тўлов тизими сифатида ишга туширилган. У БААдаги давлат ташкилотлари, корхоналар ва жисмоний шахслар томонидан давлат хизматлари, жарималар ва йиғимларни тўлаш каби турли операциялар учун кенг қўлланилади.

E-Dirham тизими бир қатор афзалликларни тақдим этади, жумладан, давлат операцияларида самарадорлик, шаффофлик ва хавфсизликни ошириш, шунингдек, бу коррупция ва фирибгарлик манбаи бўлиши мумкин бўлган нақд пулдан фойдаланишни камайтиришга ёрдам беради. Умуман олганда, E-Dirham БААда давлат операцияларида шаффофлик ва самарадорликни рағбатлантиришда муваффақиятли тажриба бўлди ва у мамлакатдаги жисмоний шахслар ва корхоналар томонидан кенг қўлланилишида давом этмоқда.

Шуни таъкидлаш керакки, юқорида биз ўрганган мамлакатлар муваффақиятли амалиётларни намойиш этган бўлса-да, ҳар бир давлатнинг контексти ва муаммолари ҳар хил бўлиши мумкин. Шунинг учун, коррупцияга қарши курашда ушбу стратегияларни ҳар бир мамлакатнинг ўзига хос эҳтиёжлари ва шароитларига мослаштириш алоҳида аҳамият касб этади.

<sup>27</sup> <https://dubaiofw.com/uae-pass/>

<sup>28</sup> <https://u.ae/en/information-and-services/finance-and-investment/third-generation-edirham/edirham>





Коррупцияга қарши кураш кўп қиррали ёндашувни талаб қилади ва ИТ ва СИ интеграцияси ушбу кенг тарқалган муаммони ҳал қилиш учун муҳим имкониятларни тақдим этади. Хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибасини таҳлил қилиб, уларнинг муваффақиятларидан сабоқ олишимиз ва стратегияларини ўз миллий шароитимизга мослаштиришимиз мумкин. Илғор маълумотлар таҳлили, электрон ҳукумат ташаббуслари ва сунъий интеллект ёрдамида тергов воситалари коррупцияга қарши курашда технологиядан қандай фойдаланиш мумкинлигига амалий мисолдир.

Бироқ, маълумотларнинг махфийлиги билан боғлиқ муаммолар ва коррупцияга қарши курашда сунъий интеллектдан фойдаланиш билан боғлиқ бўлиши мумкин бўлган нотўғри фикрларни ҳал қилиш жуда муҳим. Сиёсатчилар ва манфаатдор томонлар технологик тараққиёт ва шахсий ҳуқуқлар ва демократик тамойилларни ҳимоя қилиш ўртасида мувозанатни сақлашлари керак.

Бундан ташқари, глобал миқёсда коррупцияга қарши самарали курашиш учун мамлакатлар ўртасида ҳамкорлик ва билим-тажриба алмашиш муҳим аҳамиятга эга. Мамлакатлар илғор тажриба, технологик тажриба ва олинган сабоқларни алмашиш учун халқаро ҳамкорлик ва платформаларни ўрнатиши керак. Ушбу жамоавий саъй-ҳаракатлар коррупцияга қарши стратегиялар самарадорлигини ошириши ва коррупцияга қарши бирлашган кучни ривожлантириши мумкин.

Давлатлар ИТ ва СИНинг амалий ечимларини татбиқ этишда мамлакатлардаги потенциал муаммолар ва хавфларни ҳам ҳал қилишлари керак. Рақамли тизимларнинг ишончлилиги ва хавфсизлигини таъминлаш учун инфратузилма, салоҳиятни ошириш ва киберхавфсизлик чораларига муносиб сармоя киритиш зарур. Бундан ташқари, технологиядан нотўғри фойдаланишнинг олдини олиш ва СИ алгоритмларига киритилган потенциал нотўғри қарашлардан ҳимоя қилиш учун самарали қоидалар ва назорат механизмларини ҳам ишлаб чиқиши керак.

Хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибалари таҳлили коррупцияга қарши курашда ИТ ва сунъий интеллектдан муваффақиятли фойдаланиш бўйича қимматли билимларни бера олади. Илғор маълумотлар таҳлили, электрон ҳукумат ташаббуслари, сунъий интеллект ёрдамида тергов воситалари ва бошқа





технологик ечимларнинг интеграцияси коррупцияга қарши курашни сезиларли даражада ошириши мумкин. Бирок, маълумотлар махфийлиги ва юзага келиши мумкин бўлган нотўғри фикрларни ҳисобга олган ҳолда технологияни жорий этишга еҳтиёткорлик билан ёндашиш керак. Ҳамкорлик, салоҳиятни ошириш ва жамоатчиликни жалб қилиш коррупцияга қарши кенг қамровли стратегиянинг муҳим таркибий қисмидир. Юқорида биз таҳлил қилган Эстония, Сингапур, Швеция, Бирлашган Араб Амирлиги давлатларининг илғор тажрибалари бизнинг мамлакатимиз шароитига мувофиқ келувчи, амалда жорий қилиш мумкин бўлган самарали тажрибалар бўла олади. Ушбу илғор тажрибаларни қўллаш ва мослаштириш орқали мамлакатимизда коррупцияни минималлаштириш, уни жиловлаш, шаффофлик, ҳисобдорлик ва яхши бошқарувни рағбатлантириш орқали ижобий натижаларга эришишимиз мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Zinnbauer Dieter, False Dawn, Window Dressing or Taking Integrity to the Next Level? Governments Using ICTs for Integrity and Accountability - Some Thoughts on an Emerging Research and Advocacy Agenda (2012), [http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract\\_id=2166277](http://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2166277)
2. Maykl Dikson. Can we use big data analytics as an anti-corruption tool. March 15, 2019. <https://seleritysas.com/blog/2019/03/15/big-data-analytics-as-an-anti-corruption-tool/>
3. Marcio S.M. Predicting and explaining corruption across countries: A machine learning approach. Oklahoma State University. January 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X19302473>
4. T. Diviák, J. Dijkstra, T. Snijders. Structure, multiplexity, and centrality in a corruption network: 22 March 2018. <https://link.springer.com/content/pdf/10.1007/s12117-018-9334-y.pdf>
5. UNDP. Digitalization as a tool for good governance and corruption prevention. December 9, 2020. <https://www.undp.org/north-macedonia/blog/digitalization-tool-good-governance-and-corruption-prevention>
6. Karolis Granickas. Open Data as Tool to Fight Corruption. European Public Sector Information Platform. April 2014. [https://data.europa.eu/sites/default/files/report/2014\\_open\\_data\\_as\\_a\\_tool\\_to\\_fight\\_corruption.pdf](https://data.europa.eu/sites/default/files/report/2014_open_data_as_a_tool_to_fight_corruption.pdf)





ISSN (E): 2181-4570

7. UNODC. The Doha declaration: promoting a culture of lawfulness. Whistle-blowing systems and protections. <https://www.unodc.org/e4j/zh/anti-corruption/module-6/key-issues/whistle-blowing-systems-and-protections.html>
8. Julie Clegg, Founder & CEO at Human-i Intelligence Services Inc. The Impact of AI & Machine Learning on Investigations. September 26, 2019. <https://ontic.co/blog/ai-machine-learning-and-investigations/>
9. Georg Kell. A Guide for Anti-Corruption Risk Assessment. United Nations Global Compact Office. 2013 New York. [https://d306pr3pise04h.cloudfront.net/docs/issues\\_doc%2FAnti-Corruption%2FRiskAssessmentGuide.pdf](https://d306pr3pise04h.cloudfront.net/docs/issues_doc%2FAnti-Corruption%2FRiskAssessmentGuide.pdf)
10. USAID. FACT SHEET: ANTICORRUPTION. <https://2017-2020.usaid.gov/albania/news-information/fact-sheets/fact-sheet-anticorruption>
11. M.Peltomali. IMPROVING COURTROOM EFFICIENCY. 2019 Finland. <https://www.elinar.com/2019/12/18/improving-courtroom-efficiency/>





ISSN (E): 2181-4570

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI  
O‘QITISHDA YOUTUBE VIDEOHOSTING PLATFORMASI  
IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI**

**Mamadaliyeva Jamilaxon Abdujabbor qizi**

**Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti, talaba**

**Qo‘qon, O‘zbekiston**

**E-mail: [jamilaxon.musayeva@mail.ru](mailto:jamilaxon.musayeva@mail.ru)**

**Ilmiy rahbar:** Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Fizika-matematika fakulteti “Informatika” kafedrasida dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) M.M.Jo‘rayev


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Youtube Videohosting platformasi imkoniyatlari haqida ma’lumotlar beriladi va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 8-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanidan “SMM - ijtimoiy media marketing” bobini o‘qitishda Youtube Videohosting platformasi imkoniyatlaridan foydalanish metodikasi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy raqamli texnologiyalar, ta’limning mazmuni va uning sifati, ta’limni axborotlashtirish, internet, Informatika va axborot texnologiyalari, YouTube, video fayllar, o‘quv jarayonida foydalanish, ko‘rgazmalilik.

**Аннотация:** В данной статье будет представлена информация о возможностях платформы видеохостинга YouTube и освещена методика использования возможностей платформы видеохостинга YouTube при преподавании главы “SMM-маркетинг в социальных сетях” по информатике и информационным технологиям 8 класса в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** современные цифровые технологии, содержание образования и его качество, информатизация образования, интернет, Информатика и информационные технологии, YouTube, видеофайлы, использование в учебном процессе, наглядность.

**Annotation:** this article provides information about the possibilities of the Youtube Videohosting platform, and covers the methodology for using the capabilities of the Youtube Videohosting platform when teaching the chapter “SMM-social media marketing” on 8th grade Informatics and Information Technology in general secondary education schools.






**Keywords:** modern digital technologies, the content of education and its quality, informatization of Education, internet, Informatics and Information Technology, YouTube, video files, use in the educational process, exhibitionism.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning taraqqiyot darajasi birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, ya'ni ta'lim tizimining rivojlanishiga chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda ta'limning mazmuni va uning sifati masalalari ta'lim tizimida ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ham ta'limni axborotlashtirishga, ya'ni ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu mamlakatlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'limning sifati oshirishda keng qo'llanilishi kuzatilmoqda. Darhaqiqat, axborot texnologiyalari va internetdan ta'limda foydalanish ta'lim sifatini yanada yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarishga zamin yaratadi.

Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'limda innovatsiyalar, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o'quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [1].

Bu borada Respublikamizda bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida ham qator reja va loyihalar ishlab chiqildi.

Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish va bunday darsliklarni jahon standartlariga moslashtirish konsepsiyalari ishlab chiqildi. Konsepsiya asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning quyidagi yangi asosiy vazifalari belgilab berildi: – "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning zamonaviy shakl, metod va texnologiyalarini qo'llash; – o'quvchilar masofadan turib yangi bilimlarni egallashi, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun tizim yaratish va uni yo'lga qo'yich; – ta'lim jarayonida tayanch





bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni doimiy nazorat qilib turish, o'quvchilar qobiliyatiga qarab kasbiy yo'naltirish ishlarini olib borish.

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lim berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari tufayli o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, asosiy tashkilotchiga aylanmoqdalar [2].

Shulardan kelib chiqib, ta'lim sifatini oshirish maqsadida so'nggi yillarda ta'limning barcha tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Bunda ayniqsa internet texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi yanada samaraliroq natijalar beradi. Shulardan YouTube haqida to'xtalib o'tamiz.

YouTube katta hajmdagi video fayllar jamlangan sayt hisoblanadi. Tizimdan professional videolavhalardan tortib, havaskorlar videolarini hamda videoblogerlar materiallarini topish mumkin. YouTube sayti yordamida kanal ochib, u orqali biznes loyihalarni yuritish mumkin. YouTube sayti Steve Chen, Chad Hurley, Jawed Karim tomonidan amalga oshirilgan loyiha bo'lib, 2005-yil 14-fevralda ro'yxatdan o'tgan[3].

YouTube, foydalanish oson va qulay bo'lganligi sababli, tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. 2006-yilda YouTube tarmog'ini Google kompaniyasi sotib olgan. YouTube'da ro'yxatdan o'tmagan holda ham videoroliklar bilan tanishish va ularni ko'rish mumkin.

YouTube'dagi videofayl o'chirilgani bilan, u batamom o'chmagan bo'ladi va maxsus dasturlar yordamida uni ko'rish mumkin. YouTube saytidan foydalanish uchun [www.youtube.com](http://www.youtube.com) rasmiy manziliga kiriladi.

YouTube'dan foydalanish qulay va ko'rish osonligi tufayli juda ham mashhur va kirib ko'ruvchilari soni ko'pligi bo'yicha jahonda uchinchi o'rinda turadigan saytdir. Saytda video ko'ruvchilar soni kuniga 2 milliarddan ortiq hisoblanadi. Saytda professional videolavhalardan tortib, havaskor videolar, videobloglarga taqdim etilgan.

YouTube domeni 2005-yil 14-fevralda ro'yxatdan o'tgan bo'lib, unda foydalanuvchilar videolarni yuklashlari, ko'rishlari va bir-birlari bilan baham ko'rishlari mumkin. Videolar reyting orqali baholanishi mumkin. YouTube butunlay Python dasturlash tilida yozilgan. Bu loyiha a'zolari Steve Chen, Chad Hurley, Jawed





Karim lar hisoblanishadi. YouTube saytini yaratishdan oldin bu insonlar Paypal da ish yuritishgan.

Dastlab YouTube sayti video tanishuvni amalga oshirish uchun yaratilgan edi, keyinchalik bu sayt video xosting bo'ldi. Ro'yhatdan o'tgan YouTube foydalanuvchilarining 70 %i AQSh fuqarolaridir. Amerikaliklar saytga eng ko'p video fayllarni joylashtiradiganlar ekan, ulardan so'ng Buyuk Britaniya joy olgan. Eng ko'p videolarni tomosha qiladigan davlat ham AQSh ekan, 2 chi o'rinda Yaponiya davlati turadi. 2006 yilda Google kompaniyasi YouTube ni sotib olgan. Hozirgi kunda sayt 30 ga yaqin tillarga tarjima qilingan.

Quyida biz "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan "SMM - ijtimoiy media marketing" bobini o'qitishda, nazariy bilimlarni berishda ko'rgazmalilik tamoyillarini amalga oshirish uchun Youtube Videohosting platformasi imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha namuna keltirdik.

Informatika va AT o'quv predmeti - umumiy o'rta ta'lim o'quv fanlarining tarkibiy qismi, o'quvchilarga ilm-fan asoslari to'g'risidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiy, raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari, o'ziga xos ko'nikmalarini o'zlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tadbiq etish imkonini beradi [1].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Informatika va AT fani bo'yicha o'quv dasturida ko'rsatilgani bo'yicha 8-sinflarda jami haftasiga 1 soatdan jami 34 soat mashg'ulotlar o'tilishi rejalashtirilgan. Shundan I bob – "SMM - ijtimoiy media marketing" bobi uchun 5 soat rejalashtirilgan:

### **I bob. SMM – IJTIMOY MEDIA MARKETING**

**SMM (Social Media Marketing – ijtimoiy media marketing) haqida.** SMM imkoniyatlari: afzalliklari, kamchiliklari. Brend tushunchasi. SMMning asosiy vazifalari. Amaliy mashg'ulot.

**SMM platformalar bilan tanishish. Facebook tarmog'i.** Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tish. Facebook tarmog'i bo'limlari bilan ishlash. Amaliy mashg'ulot.

**SMM platformalar bilan tanishish. YouTube sayti.** YouTube saytida ro'yxatdan o'tish va foydalanish. Amaliy mashg'ulot.

**SMM platformalar bilan tanishish. Telegram tarmog'i.** Telegram tarmog'ida ro'yxatdan o'tish. Telegram tarmog'ini sozlash. Amaliy mashg'ulot.







**SMM platformalar bilan tanishish. Instagram tarmog‘i.** Instagram tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tish. Instagram tarmog‘idan foydalanish. Instagram sahifalarini ko‘rib chiqish va xabarlar bilan tanishish. Amaliy mashg‘ulot [1].

Quyida ushbu mavzularni yoritishda ko‘rgazmalilik hamda raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini qo‘llash maqsadida mashg‘ulotlarda YouTube saytidan foydalanish ketma-ketligini ko‘rib chiqaylik.

Bobning har bir mavzulari uchun oldindan videoroliklarimizni tayyorlab olamiz. YouTubeda kanal ochib ularni quyidagi tartibda joylashtiramiz:

1. YouTube saytining o‘ng yuqori qismida joylashgan avatarni bosib, Your Channel, so‘ng ochilgan oynada Customize channel tanlanadi (1).


2. Avatar ustida qatlamchani tanlab, Edit channel icon oynasida Edit tugmachasini bosgan holda Google+ ga o‘tib, kanalga mos rasm (shaxsiy foto, kompaniya yoki brend logotipi) o‘rnatiladi (2).

3. Add channel art yordamida kanal yuqori qismi uchun o‘zingiz yaratgan yoki YouTube galereyasidan olingan tasvirni o‘rnatish mumkin. Tasvir o‘lchami 2048 × 1152 pikselda bo‘lishi tavsiya etiladi (3).

4. Sozlash tugmachasi yordamida “Overview” sahifasi yoqib qo‘yiladi. Aynan shu sahifa yordamida: asosiy, video, pleylist, kanallar hamda kanal haqidagi menyulari ochiladi (4).

5. About bo‘limi orqali kanal haqida qisqacha ma’lumot, turli so‘rovlar uchun elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqlar va sayt manzili kiritiladi (5).

Kanalga “SMM - ijtimoiy media marketing” bobi uchun tayyorlangan videolarni joylashtirish uchun Videokamera ikonkasini (6) bosib, Upload video (7) ko‘rsatmasi tanlanadi.





### Mashg'ulotlarda


[https://www.youtube.com/channel/UCNX7xhUPW6\\_SHaGz5RDQEfA](https://www.youtube.com/channel/UCNX7xhUPW6_SHaGz5RDQEfA) manzildan ko'rgazmali videoroliklarni yuklab olib nazariy materiallarni yoritishda foydalanish mumkin. Bunday zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar ta'lim oluvchilar bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgandir.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bu talabni yuzaga keltirishda ayniqsa zamonaviy axborot texnologiyalar to'la ishonchli vosita bo'la oladi.

Umumiy holda xulosa chiqarish mumkinki, zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tashkil etish va o'quv jarayonida foydalanishdir.

### ADABIYOTLAR

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Informatika va AT. 2021 yil.
2. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf: O'qituvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma. M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. – Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b.
3. M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov. “Informatika va axborot texnologiyalari”: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik: - Toshkent: “Tasvir”, 2020. - 112 b.





ISSN (E): 2181-4570

**Surxondaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'nalishlari**  
**Termiz davlat universiteti**  
**Iqtisodiyot va turizm fakulteti**  
**Beznis boshqaruvi va statistika kafedrasi o'qituvchisi**  
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'nalishlari haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Investitsion, Malaka, mamlakat, hudud, islohat, viloyat, joziba, bahor, tarix, qirqqiz, ziyorat, turizm.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Hududlarning iqtisodiy, investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda investitsion jozibadorlik haqida bayon etsak, investitsion jozibadorlik muayyan mintaqaning salohiyatiga, jumladan, ehtimoliy xatarlarga bog'liq. Ayrim hududlarning investitsion jozibadorligi statistik ma'lumotlar asosida kamida sakkizta sohada aniqlanadi. Bu aholini ish bilan ta'minlash, moliyalashtirishni ta'minlash, ishlab chiqarish quvvatlarining mavjudligi, iste'mol talabi, infratuzilma, tabiiy resurslar mavjudligi, turizm sohasi va innovatsiyalarni rivojlantirishdir. So'nggi yillarda qulay investitsiya muhiti yaratilib, sohaga alohida etibor qaratilayotgani iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorij sarmoyasini jalb etishga keng imkoniyat yaratilayapdi. Viloyatimizda birinchi bor o'tkazilgan investitsiya forumida imzolangan memorandumlar asosida 2018-yil va keyingi yillarning o'tgan davrida 100 million dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Sanoat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, eksport qilish, zamonaviy noturar va turar-joylar qurish, xizmat ko'rsatish komplekslari barpo etish loyihalari amalga oshirildi. Mamlakatimiz janubidagi voha xorijiy sarmoyadorlarni jalb etish uchun boy resursga ega hudud. Toshko'mir, gaz, sement, neft, marmar, osh va kaliy tuzlari, ohak, uran, polimetall, granit tosh, oltingugurt, keramzit, gips, kvarts, yod, karbid, brom, slanes kabi ko'plab noyob tabiiy boyliklar zaxirasi mavjud. Tabiiy iqlim sharoiti barcha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash uchun zarur imkoniyat yaratadi. Viloyatimizda turizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish mumkin. Bunga budda va islom diniga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgani, ko'p ming yillik tarixga ega madaniy meros obyektlari,





maftunkor tabiat manzaralari, shifobaxsh zilol suvlari yaqqol dalildir. Xorijlik sarmoyadorlarda nafaqat vohaning sanoat salohiyatini rivojlantirish balki, agrar tarmoq imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga qiziqish ortib borayapdi. Surxondaryo qo‘shni Afg‘oniston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari bilan chegaradosh viloyat. Temir yo‘l va xalqaro avtomagistral yo‘l infratuzilmasiga, O‘zbekistonda yagona daryo portiga egaligi ham dunyoga chiqishda iqtisodiy jihatdan katta qulaylik yaratadi. Shu bilan birga viloyatda “Termiz” va “Boysun-farm” erkin iqtisodiy zonasi faoliyat yuritmoqda. Ularda xorijiy va mahalliy tadbirkorlar uchun barcha qulayliklar barpo etilgan. Bu ham vohada investitsion jozibadorlikni oshirishga imkon yaratadi. Surxondaryoning yana bir investitsiyaviy jozibadorligini hududda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kattaligi bilan ham ahamiyatlidir. O‘tmishdan Buyuk ipak yo‘li chorrahasida dunyoning yirik savdo va madaniy markazi sifatida G‘arbu Sharqni bir-biriga bog‘lab kelgan qadimiy va hamisha navqiron Surxondaryo keyingi yillarda har taraflama yuksalib, yangi bosqichda taraqqiy etmoqda. Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishdagi yirik imkoniyatlari bilan jahonga yuz tutmoqda. Birgina turizm yo‘nalishini oladigan bo‘lsak 2001 yilda YuNESKO Boysunni "Insoniyatning ogzaki va nomoddiy qadriyatlar makoni" sifatida etirof etdi. Vaholanki ushbu yuksak etirofga dunyodagi 19 ta hudud sazavor bolgan xolos. 2002 yildan boshlab esa Boysunda "Boysun bahori" ochiq folklor festevali otkazila boshlandi va dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar ushbu festivalda ishtirok etish uchun kela boshladi. 2009 yil 25 avgustda Surxon vohasiga tashrif buyurgan Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov Surxon vohasining nihoyatda qadimiy tarixga ega ekanligini, insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida voha alohida orin tutganligini ta’kidladi. Memoriy yodgorliklari haqida gapiradigan bo‘lsak Viloyatdagi 359 tarixiy yodgorliklardan 294 tasi arxeologiya, 26 tasi me’moriy, 39 tasi monumental san’ati yodgorliklaridir. Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan 2001—2002-yillarda viloyatdagi bir kancha tarixiy obidalar va arxeologik yodgorliklarda ta’mirlash ishlari olib borildi. Surxondaryo viloyatidagi yodgorliklar o‘zining qadimiyligi bilan mashhur. Xuroson me’morlik an’analarida qurilgan mashhur Jarqo‘rg‘on minorasi (1108—09 yillar), Sulton Saodat majmuasi (X asr, XV-XVII asrlar), Denovdagi Chag‘oniyon davlati qal’asi qoldiqlari (15-asr), Hakim atTermiziy majmuoti (11 — 15-asrlar), Eski Termizdagi Zurmala minorasi (II asr), Termiz atrofidagi Kokildor xonaqohi (16-asr) va boshqa tarixiy obidalar vohaning jozibadorligini oshirmoqda. Davlatimiz rahbari





tomonidan Surxondaryo viloyatida investitsion jozibadorlikni oshirish maqsadida qator islohotlar olib bormoqda. Surxondaryo neft, gaz, ko'mir, qimmatbaho va rangli metallar, ko'p turdagi bezak toshlar kabi 100 dan ortiq konlarga ega bo'lsa-da, ular yetarli darajada o'zlashtirilmagan. Shuning uchun kelgusi besh yilda viloyatimizda 7 milliard dollarlik 5 mingdan ziyod investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Stansiyada ishlab chiqarilgan elektr energiyasi Surxondaryodagi 500 ming xonadonni ham nurga to'ldiradi. Bundan tashqari, qo'shni Afg'onistonga yiliga kamida 3 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan Surxondaryo viloyatida respublika darajasidagi masalalarni hal qilish vakolatiga ega "Investorlarga ko'mak markazi"ni tashkil etish taklifi berilganligi vohada investitsion jozibadorlikni oshirish uchun katta imkon beradi. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan transformatsion jarayonlar neft-gaz tarmog'iga ham ijobiy tasir ko'rsatmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning neft-gaz tarmog'ining rivojlanishiga qaratayotgan katta e'tibori va amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarini neft hamda gaz mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyati yaratildi. Viloyatimizdagi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Termez National Carpets" MCHJ dan boshlandi. Korxonada Germaniya, Belgiya va Turkiyadan olib kelingan uskunalar o'rnatildi. 250 ga yaqin mutaxassis ishlaydigan zavodning ishlab chiqarish quvvati bugungi kunda yiliga 4,5 million kvadrat metr mahsulotni tashkil etadi. Hududning investitsion jozibadorligini oshirish uchun avvalo investitsion muhitni yaratishimiz zarur. Bugungi kunda jahonning 50 dan ortiq mamlakati O'zbekistonga barqaror tarzda investitsiya kiritmoqda. Ular iqtisodiyotimizning asosan metallurgiya, energetika, kimyo sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik, turizm, yengil sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan islohotlar iqtisodiyotning rivojlanishi va insonlarning turmush darajasi yaxshilanishiga xizmat qiladi. So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida qadimiy vohaning sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilayotgan yuksak e'tibor hududda ichki va tashqi turizmni rivojlantirib, investitsion jozibadorlikni oshirmoqda. Vohada 38 turoperator, 53 mehmonxona va yuzta oilaviy mehmon uylari sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda. Viloyatda paleolit davridan XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan 444 ta arxeologiya, 36 ta me'morchilik va muqaddas qadamjo, 39 ta haykaltaroshlik yodgorliklari, 42 ta diqqatga





sazovor joy mavjud. Hozirgacha ularning 101 tasi turistik namoyish maskanlari sifatida tanlab olinib, ro'yxati shakllantirilgan va turistik aylanmaga kiritilib, infoturlar tashkil etilayotir. Muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmini joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish, turizm orqali investitsion jozibadorlikni va aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratgan edi. 2018—2019- yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi. Unda hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratdi. O'tmishda Surxondaryo muqaddas islom dinini targ'ib qilgan va uni rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan Hakim Termiziy, Iso Termiziy kabi ko'plab buyuk olimlarga beshik bo'lgan. Boy tarixga ega bu yurtida So'fi Olloyor, Alouddin Attor, Muhammad Zohid singari ulug' zotlar mangu qo'nim topgan. Mazkur dastur asosida Boysun, Termiz, Jarqo'rg'on, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sherobod tumanlaridagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar rekonstruksiya qilinib, obodonlashtirildi. Yo'llar ta'mirlandi. Savdo-hunarmandchilik do'konlari qurildi. Xorijlik sayyohlarning emin-erkin ziyorat qilishi uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratildi. Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Hazrat Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attor mangu qo'nim topgan muqaddas ziyoratgoh mavjud. Oltinsoy tumanida "Silsilai oliya" tarkibiga kiruvchi ulug' zotlardan yana biri – Muhammad Zohid maqbarasi, turkiy tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi So'fi Olloyor qadamjosi va ul zot tomonidan barpo etilgan masjid saqlanib qolgan. Yangi yo'nalishlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da aziz-avliyolar muqaddas hoki qo'yilgan bu maskanlarni obodonlashtirib, ziyoratchi sayyohlar uchun zamonaviy qulayliklar yaratib berildi. Surxondaryo viloyatida turizmni rivojlantirish uchun 374 tarixiy, madaniy, san'at, me'moriy obidalar, noyob arxeologik qazilmalar mavjud. Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, hududning noyob tarixiy-madaniy va me'moriy obidalari bilan turistlarni keng tanishtirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari sifatini






takomillashtirish, ichki turizmni faollashtirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi daromadlari o‘shirishni rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilinishi vohada investitsion jozibadorlikni oshirish uchun imkon yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda Boysun tumanidagi Omonxona qishlog‘i, Zovboshi tog‘li hududi, Darband qishlog‘i hududlarini o‘z ichiga olgan — Boysun kichik turizm zonasiga investorlarni jalb qilib, turizm infratuzilmasini barpo etish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirildi. Surxondaryo viloyatida turistlar tashrif buyuradigan barcha madaniy meros obyektlari, ziyoratgohlar, muzeylar, mehmonxonalar, hunarmandchilik markazlari va boshqa turizm obyektlari hamda aholi gavjum joylar, xususan bozorlar, shox bekatlar, yo‘l bo‘yi xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, istirohat bog‘larida o‘rnatilgan tartibda Wi-Fi zonalarini tashkil etildi. Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti va Termiz davlat universiteti bilan Turkiya, Yaponiya, Tayland, Malayziya, Indoneziya kabi davlatlarning oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini kengaytirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Surxondaryo viloyatiga investitsiyalarni jalb qilish, hududlarni investitsion jozibadorligi oshirishga qaratilgan tizimli ishlar tashkil qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan bu kabi chora-tadbirlar viloyat nafaqat viloyat balki mamlakat iqtisodiyotiga yanada ko‘proq hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil Oliy Majlisga murojatnomasi.
2. Mustafaqulov Sh. I " Investitsion muhit jozibadorligi " Ilmiy-amaliy qo‘llanma. Toshkent 2017.
3. Дж. Общая теория занятости, процента и денег. — М.: Прогресс, 1978.
4. Самуэльсон П. Экономика.- М.: МГП “АЛГОН” ВНИИСИ. 1992.
5. Юсупов А. Хорижий инвестициялар — корхоналар иқтисодий тараққиёт омили. /Ж. Бозор, пул ва кредит.
6. S. Tursunov, Surxondaryo tarixidan lavhalar" .





ISSN (E): 2181-4570

**SUBSTITUTSIYA HODISASI VA UNING TURLARI****Abdullayeva Poshshajon Usmon qizi,****“Ma'mun-universiteti” NTM****Ingliz tili o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada substitutsiya hodisa, uning turlari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Substitutsiya- matndagi jumla yoki gapning leksik-grammatik darajadagi munosabatlarni saqlaydigan birlashma turidir. U ma'lum bir elementni takrorlash o'rniga ishlatiladigan vosita turi bo'lib, o'rni bosuvchi so'z yoki gap yordamida amalga oshiriladi. Substitutsiya so'z yoki gap o'rni bosadigan tuzilmaviy funksiyaga ega. Nominal substitutsiyalar asosan olmoshlar yordamida ko'p ifodalanishi ma'lum. Bundan tashqari One/ones, same, here and there, then and at that time va kabi Nominal substitutsiyalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Substitutsiya hodisasi, almashtirish turlari, nominal substitutsiya, predikativ va jumla substitutsiyasi

**Аннотация:** В статье говорится о явлении субституции, его видах и значении. Субституция – это вид сочетания фраз или предложения в тексте, сохраняющий отношения на лексико-грамматическом уровне. Это тип устройства, которое используется вместо повторения определенного элемента, используя замещающее слово или предложение. Субституция имеет структурную функцию замены слова или предложения. Известно, что именные субституции часто выражаются местоимениями. Кроме того, обсуждаются номинальные субституции типа One/ones, same, here and there, then and at that time и т.п.

**Ключевые слова:** Явление субституции, виды субституции, номинальные субституции, фразовая субституция

**Abstract:** The article talks about the phenomenon of substitution, its types and importance. Substitution is a type of combination of a phrase or sentence in the text that preserves relations at the lexical-grammatical level. It is a type of device that is used instead of repeating a specific element, using a substitute word or sentence. Substitution has the structural function of replacing a word or sentence. It is known that nominal substitutions are often expressed using pronouns. In addition, nominal substitutions such as One/ones, same, here and there, then and at that time and so on are discussed.







**Key words:** Substitution, types of substitution, nominal substitution, predicative and clausal substitution

Substitutsiya tilshunoshlikda keng tarqalgan hodisalardan bo'lib, u deyarli barcha tillar lingvistikasida mavjuddir. Almashtirish hodisasi bir tilda boshqa tillardagidan ko'proq va tez-tez foydalanilganligi sababli, almashtirish usullari ham tillarda farq qilishi mumkin. U **koheziyaning (cohesion)** bir turi hisoblanib yillar mobaynida ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan va ushbu hodisani o'rganish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Substitutsiya- matndagi jumla yoki gapning leksik-grammatik darajadagi munosabatlarni saqlaydigan birlashma turidir. U ma'lum bir elementni takrorlash o'rniga ishlatiladigan vosita turi bo'lib, o'rnini bosuvchi so'z yoki gap yordamida amalga oshiriladi. Substitutsiya so'z yoki gap o'rnini bosadigan tuzilmaviy funksiyaga ega. U turli xil bosqichlarda - so'z, so'z birikmasi, gap va hattoki matnlarda ham bo'la oladi. Uning asosiy vazifalaridan biri takrordan qochish, xabarni qisqartirish va uni o'quvchi uchun aniqroq qilishdan iborat. Almashtirishning yana bir vazifasi ma'lumotlarni tartibsiz holda ko'rsatmasdan gaplarni bog'lashdir.


“*Substitutsiya*” so'zining kelib chiqishi lotincha “*substitute*” fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, biror elementni yoki vositani boshqasining o'rniga qo'yishni anglatadi. U almashtirish deb tarjima qilinadi va so'z yoki iborani takrorlamaslik uchun ushbu so'zlar ingliz tilida “*so, one, did, do*” va o'zbek tilida “*shunday*” kabi to'ldiruvchi so'z bilan ifodalanadi. Uni quyidagi namuna orqali batafsil o'rganishimiz mumkin:

*E.g. The flower seller cries, “Red flowers, red flowers, come and buy ones and present her”.* - Ushbu gapda *ones* so'zi *red flowers* (qizil gullar) so'zini takrorlamaslik uchun uning vazifasida qo'llanilgan.

Almashtirish grammatik munosabat bo'lib so'z birikmalarida emas, balki ma'noda bo'lgan munosabat ekanligi tufayli uning har xil turlari semantik jihatdan emas, balki grammatik jihatdan aniqlanadi. Ingliz tilida substitutsiya ot, fe'l, gap vazifasini bajarishi mumkin. Ularga mos ravishda almashtirishning uchta turi mavjud:

1. Nominal substitutsiya
2. Predikativ substitutsiya
3. Jumla substitutsiyasi

Nominal almashtirish ot yoki otli so'z birikmasini nominal o'rin bosuvchi so'z bilan almashtirishni anglatadi. Nominal substitutsiya nominal guruhda bosh so'z yoki





butun nominal guruhdagi soʻzlarni va birikmalarni almashtirish vazifasini bajaradi. Buni quyidagi namunalarda koʻrishimiz mumkin:

1. *Have you any knives? I need a sharp one.*
2. *He studied the whole text last night. I did the same.*

Ushbu namunalarda *one* soʻzi *knives* soʻzi oʻrnida bosh soʻz bajarsa, *the whole text last night* birikmasi *same* soʻzi bilan ifodalangan.

Nominal almashtirish quyidagi usullarda oʻrganiladi:

### 1. Nominal Substitutsiya “one/ ones”:

Substitutsiya birligi har doim nominal guruhning bosh boʻlagi vazifasini bajaradi va faqat oʻzi nominal guruhning asosiy boʻlagi boʻlgan elementni almashtirishi mumkin. Buni quyidagi naʼmunalarda koʻrish mumkin:

*Cherry ripe, cherry ripe, ripe I cry,  
Full and fair ones, come and buy.*

Ushbu misolda *ones* soʻzi “*Full and fair ones*” soʻzlari uchun bosh boʻlak vazifasini bajargan

*One/ ones* soʻz oʻrnini bosuvchi grammatik munosabat belgisi boʻlib, u odatda oldingi matnda topilgan maʼlum bir otni (atoqli ot emas) taklif qiladi va oʻzi ham ot bilan almashtirilgan bir xil hisoblagichdir. Uning oʻrni va ahamiyati namunada koʻrsatilganidek, bekor qilishning qandaydir shakli mavjudligini bildirish boʻlganligi sababli, u qandaydir aniqlovchi modifikator bilan birga boʻlishi kerak va shuning uchun uni bunday aniqlovchi elementlarning tashuvchisi sifatida koʻrish mumkin.

### Nominal Substitutsiya “same”

Substitutsiya *same* odatda *the* aniq artikli bilan keladi. Faqat otni bosh boʻlak qilib oluvchi *one* dan farqli oʻlaroq, *the same* soʻzi butun nominal guruhni oʻz ichiga oladigan, jumladan, har qanday oʻzgartiruvchi elementlarni bildiradi. Buni quyidagi naʼmunalarda koʻrishimiz mumkin:

*I'll have two poached eggs on toast, please.  
I'll do the same.*


Substitutsiya *the same* quyidagi holatlarda qoʻllanilishi mumkin:

Bir xillikni yaʼni oʻxshashlikni ifodalaganda *the same* dan foydalaniladi

Fakt ishtirok etayotgan jarayon muhitida koʻpincha fakt oʻrnini bosishi mumkin.

Ushbu holat quyida namunalar yordamida keltirilgan:

*John thought it was impossible.*





*Yes, I thought **the same**.*

**Do the same:**

Ikkinchidan, bir xil ot o‘rnini bosuvchi ko‘pincha *do fe’li* bilan qo‘shilib, ayrim turdagi ergash gaplarda jarayon o‘rnini bosadi. Buni quyidagi misollardan tushunish mumkin:

*They all started shouting, so I **did the same**.*

**Be the same:**

*The same* shakli aniqlovchili gaplarda aniqlovchi sifatida yuzaga keladi, bu yerda u ot yoki sifatdoshni, ya’ni bosh bo‘lak vazifasida ot yoki sifatdoshga ega bo‘lgan ot so‘z birikmasini almashtira oladi. Buni quyidagi namunada ko‘rish mumkin:

*Charles is now an actor. Given half a chance I would have been **the same**.*

**Here and There**

Biz joy haqidagi tafsilotlarni almashtirish uchun ingliz grammatikasida *here* (bu yer) va *there* (u yerda) kabi so‘zlardan foydalanamiz, ya’ni o‘rin ravishlarini almashtirish uchun:

*John asked me to go for dinner at **Toni’s Italian**, but I didn’t want to go **there** as it’s so busy at the weekend.*

*I’m so glad I moved to **Australia**. I hope you’ll visit me **here** one day.*

A new **theme park** has opened near me but I’ve never been **there**

**Then and at That Time**

Vaqt (vaqt qo‘shimchalari) haqidagi ma’lumotlarni almashtirish uchun biz *then* (o‘sha paytda) va *at that time* (o‘sha vaqtda) kabi so‘zlardan foydalanamiz:

*He suggested we go **at 5pm** but I did not want to go **then**.*

*I prefer going abroad **at Christmas time** and my friends like to go **at that time** of year as well.*

**Nominal substitutsiya olmoshlar bilan ifodalanishi**

**Kishilik olmoshlari** (*I, me, you, him, it, they*). Kishilik olmoshlari ot so‘z birikmalari o‘rnida ishlatiladi, odatda odamlar va yuqorida aytib o‘tilgan narsalarga ishora qiladi. **Egalik olmoshlari** (mine, yours) ham xuddi shunday qo‘llanadi. Masalan: *I can speak Japanese quite well. I’ve been learning it for several years. To ensure that our sales staff speak to customers in an appropriate way, management has made the decision to send **them** on a training course next week - Men yapon tilini yaxshi bilaman. Men buni bir necha yildan beri o‘rganyapman. Sotuvchilarimiz*





*mijozlar bilan to'g'ri gaplashayotganiga ishonch hosil qilish uchun rahbariyat ularni keyingi haftada o'quv kurslariga yuborishga qaror qildi.*

Substitutsiyaning ko'p uchraydigan turlaridan yana biri bu **predikativ substitutsiyadir**. Ingliz tilidagi ushbu tur **“do”** fe'lidir. Bu leksik fe'l egallagan o'rinda fe'l guruhida bosh bo'lak vazifasini bajaradi va uning o'rni har doim gap oxirida bo'ladi. Buni quyidagi namunlardan aniqlashtirish mumkin:

1. *...the words did not come the same as they used to do.*

2. *'I don't know the meaning of half those long words, and, what's more, I don't believe you do either!'*

Ushbu namunalarda 1-gapda qo'llanilgan *do* fe'li *come* fe'lining ma'nosini ifodalash uchun; 2-gapdagi *do* fe'li esa ***know the meaning of half those long words*** birliklarining o'rnida foydalanilgan.

Birinchi va ikkinchi namunalarda nazarda tutilgan elementlar gapda bir xildir, shuning uchun almashtirishning o'zi uzviy emasdir. Ammo predikativ almashtirish muntazam ravishda jumla chegarasidan tashqariga chiqadi.

*He never really succeeded in his ambitions. He might have done, one felt, had it not been for the restlessness of his nature.* - Ushbu namunada **done** so'zi *succeeded in his ambitions* (o'z maqsadlarida muvaffaqiyat qozonganlarning) o'rnini bosadi va shu bilan ikkita jumlaning nominal almashtirish bilan bir xil tarzda anafora orqali bog'lash uchun xizmat qiladi.

“Do” substitutsiyasi, “do” fe'lidan funksional darajada farqlanadi, bunda “do” leksik fe'l, umumiy fe'l, (*pro-verb*) va predikativ operator vazifasini bajaradi.

Do bilan bog'liq so'zlar to'plamini quyidagi parchada tasvirlash mumkin:


*What's John doing these days?*

1. *John's doing a full-time job at the works.*
2. *That'll do him good.*
3. *I'm glad he's doing something.*
5. *He likes it more than I would ever do.*

Ushbu namunada (1) *do* lug'aviy fe'li, (2) umumiy fe'l, (3) harakat fe'li, (4) o'rinbosar.

### **Jumla substitutsiyasi**

Almashtirishning yana bir turi mavjud bo'lib, unda gap ichidagi bir element emas, balki butun gap ko'rib chiqiladi. “So” (shunday) va *not* (yo'q) so'zlari bo'lak





o‘rnini bosuvchi vositalar sifatida ishlatiladi. Bo‘lak o‘rnini bosishda butun gap nazarda tutiladi, qarama-qarshi element esa gapdan tashqarida bo‘ladi. Buni quyidagi namunada ko‘rish mumkin:

*Is there going to be an earthquake? / It says so.*

Bu yerda “so” so‘zi butun gapni anglatadi, zilzila bo‘ladi va qarama-qarshi muhit uning tashqarisidagi “says” (deydi) bilan ifodalanadi.

Bo‘lak o‘rnini bosishda sodir bo‘ladigan uchta muhit mavjud: xabar, shart va modallik. Bu muhitlarning har birida u ikki shakldan birini olishi mumkin: ijobiy yoki salbiy; ijobiy “so (shunday)”, salbiy “no (yo‘q)” so‘zlari orqali ifodalanadi.

Jumla substitutsiyasi almashtirilgan elementning bosh bo‘lagidan ko‘proq kengaytirishilishi mumkin va u butun bir gapning presuppozitsiyasini o‘z ichiga oladi. So va not o‘rinbosar vositalar sifatida jumla substitutsiyasida butun bir gap o‘rnini bosish uchun foydalaniladi. Buni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

*Are you coming to dinner? I think so. Did he leave on time? I think not*

1-gapda *so men tushlik qilmoqchiman* degan ma‘noni anglatadi; 2-namunada *not* u o‘z vaqtida ketmaganligini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Buyuk ingliz grammatik olimlari Halliday va Hasan (1976: 131) gap almashuvi sodir bo‘ladigan uchta muhitni tasvirlaydi.<sup>1</sup> Bular o‘zlashtirma gaplar [1], shart ergash gaplar [2], va modallik [3].

[1] *Mary thinks that there is another planet beyond Pluto. But no one else thinks so*<sup>2</sup>

[2] *Would the girls miss the package she had put down? If so, would she remember that Erica had been close by?*<sup>3</sup>


[3] *“I dare say you never even spoke to Time!” “Perhaps not.”*<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Halliday, M.A.K. and Hasan, R. 1976. Cohesion in English. London: Longman

<sup>2</sup> Salkie, R. (1995). Text and discourse analysis. London & New York: Routledge p.56

<sup>3</sup> Hailey, A. (1971). Wheels. New York: Doubleday & Company, Ltd p.120

<sup>4</sup> Halliday, M.A.K (1985). An introduction to functional grammar. London: Edward Arnold p.297



### References

1. Cohesion in English: Halliday, M.A.K. and Hasan, Longman, London, 1976.
2. Introduction to Text Linguistics: De Beaugrand and Dressler, Ilham Abu Ghazaleh, and Ali Khalil Muhammad, Nablus Computer Center, Dar Al-Kitab Press, 1, 1413 AH – 1992 AD.
3. Linguistics of the Text: An Introduction to the Harmony of Discourse: Muhammad Al-Khattabi, The Arab Cultural Center, Casablanca - Morocco, 2nd Edition, 2006 AD.
4. Querol M. 2012. Substitution as a Device of Grammatical Cohesion in English Narrative and its Translation into Spanish. Retrieved January, 30
5. Quirk, Randolph. (et. al.) 2000. A Comprehensive Grammar of the English Language. Harlow: Longman Group Ltd.
6. Halliday, M.A.K (1985). An introduction to functional grammar. London: Edward Arnold.
7. Hailey, A. (1971). Wheels. New York: Doubleday & Company, Ltd



ISSN (E): 2181-4570

**Нодир Ахроркулович Кахоров**  
**Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни**  
**муҳофаза қилиш академияси тингловчиси**

**Аннотация:** *Давлат харидлари соҳасидаги коррупция харидлар жараёнининг яхлитлигига путур етказувчи ва давлат ресурсларининг исроф қилинишига олиб келадиган жиддий муаммо ҳисобланади. Ушбу мақолада давлат харидларидаги коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг турли шакллари, жумладан порахо'рлик, тил бириктириш, қариндош-уруғчилик, фирибгарлик ва манфаатлар то'қнашуви ҳамда ушбу ҳаракатларнинг содир этилиш схемалари ҳақида сўз юритилган.*

**Калит сўзлар:** *Коррупция, порахўрлик, манфаатлар тўқнашуви, давлат харидлари.*

**Nodir Ahrorkulovich Kaxorov**

A student of the Law Enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan

**Abstract:** *Corruption in public procurement is a serious problem that undermines the integrity of the procurement process and wastes public resources. This article discusses the various forms of corruption related offenses in public procurement, including bribery, collusion, nepotism, fraud and conflict of interest, and the patterns by which these acts are committed.*

**Key words:** *Corruption, bribery, conflict of interest, public procurement.*

**Нодир Ахроркулович Кахоров**

магистрант Академии правоохранительных

органов Республики Узбекистан

**Аннотация:** *Коррупция в сфере государственных закупок является серьезной проблемой, которая подрывает честность процесса закупок и приводит к растрате государственных ресурсов. В данной статье рассматриваются различные формы коррупционных правонарушений в сфере*





ISSN (E): 2181-4570

государственных закупок, включая взяточничество, сговор, nepотизм, мошенничество и конфликт интересов, а также способы совершения этих действий.

**Ключевые слова:** Коррупция, взяточничество, конфликт интересов, государственные закупки.

## Давлат харидлари соҳасида коррупциявий ҳуқуқбузарликлар шакллари

Давлат харидлари ҳар бир мамлакат иқтисодиётида муҳим рол ўйнайди. Бу давлат хусусий корхоналардан товарлар, хизматлар ва инфратузилма лойиҳаларини сотиб олиш жараёнидир. Давлат харидлари жараёни ошқора, адолатли ва рақобатбардош бўлиши керак. Давлатчилик пайдо бўлган илк даврлардан бошлаб давлат харидига бўлган эҳтиёж сезилган ва бугунги кунгача ушбу соҳада коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг турли шакллари содир этилиб келинмоқда.

Бугунги кунда содир этилаётган ҳуқуқбузарликлар статистикаларидан келиб чиқиб, қуйидаги асосий шакллари келтириш мумкин:

**1. Порахўрлик.** Порахўрлик давлат харидларидаги коррупциянинг энг кенг тарқалган шакли ҳисобланади.<sup>1</sup> Бу давлат мансабдор шахси ёки хусусий шахс харидлар жараёнида ижобий қарор қабул қилиш эвазига пора таклиф қилган ёки олганида юзага келади. Порахўрлик турли шаклларда (моддий ёки номоддий наф кўриш) бўлиши мумкин.

**2. Келишув** (картель келишув). Келишув харидлар жараёнида икки ёки ундан ортиқ иштирокчилар жараёни маълум бир иштирокчи фойдасига ҳал қилишга келишиб олганларида юзага келади. Келишув турли шаклларда бўлиши мумкин, жумладан, тендерда сохталаштириш, бунда иштирокчилар маълум бир иштирокчи шартномада ғалаба қозонишини таъминлаш учун юқори таклифлар беришга рози бўладилар. Тендер иштирокчилари ўз товарлари ёки хизматлари

<sup>1</sup> Бобошко Н.М. Коррупция в сфере государственных закупок как угроза экономической безопасности государства. Вестник экономической безопасности. 2020;(6):стр.22







учун маълум бир нарх белгилашга рози бўладиган нархларни белгилашни ҳам ўз ичига олиши мумкин.

**3. Непотизм.** Непотизм давлат амалдори харид жараёнида дўсти, оила аъзоси ёки бизнес ҳамкорига хайрихоҳлик қилганда юзага келади.<sup>2</sup> Непотизм давлат амалдорининг оила аъзолари ёки дўстларига тегишли бўлган компанияларга шартномалар беришни ўз ичига олиши мумкин, гарчи улар энг малакали ёки рақобатбардош иштирокчилар бўлмаса ҳам. Непотизм харид жараёнининг яхлитлигига путур этказди ва сифатсиз товарлар ёки хизматлар харид қилинишига олиб келиши мумкин.

**4. Фирибгарлик.** Фирибгарлик, харидлар жараёнида тарафлардан бири бошқа иштирокчиларга нисбатан устунликка эришиш учун фактларни нотўғри кўрсатса ёки маълумотни яширса содир бўлади. Харид қилишдаги фирибгарликка мисоллар қаторига товарлар ёки хизматларни сохта сертификатлаш, сохта ҳисоб-фактураларни тақдим этиш ёки компания ёки жисмоний шахсининг малакаси ёки тажрибасини нотўғри кўрсатиш киради.

**5. Манфаатлар тўқнашуви.** Манфаатлар тўқнашуви бевосита ёки билвосита шахсий манфаатдорлик шахсининг мансаб ёки хизмат мажбуриятларини лозим даражада бажаришига таъсир кўрсатадиган ёхуд таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳамда унинг шахсий манфаатдорлиги билан давлат харидлари субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ўртасида қарама-қаршилик юзага келадиган ёхуд юзага келиши мумкин бўлган ҳар қандай вазиятдир, шунингдек аффилиланганликнинг мавжуд бўлиши.<sup>3</sup> Масалан, давлат мансабдор шахси шартнома тузиш учун иштирок этаётган компанияда молиявий манфаатдор бўлиши ёки таклифларни баҳолаш комиссияси аъзоси иштирокчи билан шахсий муносабатларига эга бўлиши мумкин. Манфаатлар тўқнашуви харид жараёнининг маълум бир иштирокчи фойдасига ҳолис бўлишига олиб келиши мумкин.

Юқорида кўрсатилган давлат харидлари соҳасида содир этилаётган коррупцион ҳолатларни 2 та турга бўлиш мумкин:

<sup>2</sup> Б. Алиев, Т. Норов, Коррупция глобал ижтимоий иллат, Монография, Тошкент - "IQTISODIYOT", 2022, 17 б.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги қонуни, ЎРҚ-684-сон, 22.04.2021 йил. 14-модда, [Электрон манба]. <https://lex.uz/uz/docs/5382974>





а) давлат буюртмачиси ва харид қилиш тартиб-таомиллари иштирокчиси (кейинги ўринларда иштирокчи) ўртасида тил бириктириш (коррупция);

б) иштирокчилар ўртасидаги тил бириктириш (картель келишуви).


Коррупционер давлат хизматчиси ўзига керакли тадбиркор тендерда ғолиб бўлишини таъминлаши учун амалиётда бир нечта схемалардан фойдаланади. Шунини таъкидлаб ўтиш лозимки, ушбу қоидабузарликлар қонунчиликдаги камчиликлар сабабли эмас, балки харидлар жараёнида инсон омилининг юқорилиги ва амалиётда уларга қарши кураш нисбатан самарасиз бўлганлигидан келиб чиқади.

**Давлат буюртмачиси ва иштирокчилар ўртасида тил бириктириш коррупцион схемасига қуйидагиларни келтириш мумкин:**

**1. Сохта саралаш.** Буюртмачи тендер талабларида товар (ишлар, хизматлар)нинг хусусиятларини керакли ишлаб чиқарувчи фирманинг маҳсулотига мослаб тавсифлайди ёки тендер талабларида фақат керакли фирмада мавжуд малакалар алоҳида кўрсатилиши мумкин. Бу эса потенциал тендер иштирокчилар сонини камайтиради ва ўзига керакли фирманинг ютиб олишига замин яратади.

**2. Товар (хизмат)га зарурати йўқ талаблар қўйиш.** Керакли фирма тендерда ютиб чиқиши учун буюртмачи маҳсулот (хизмат)га зарур бўлмаган талабларни қўяди. Масалан, тендер талабларида етказиб берувчининг расмий дилер бўлиши кераклиги кўрсатилади ёки рухсатнома сертификати айнан маҳсулотни ишлаб чиқарган завод томонидан тақдим этиш зарурлиги, ишни бажариш учун зарур бўлмаган ҳужжатлар, лицензия ва рухсатнома, сертификатлар талаб этилади. Аслида бундай талабларнинг қўйилиши товар (хизмат)нинг сифатига таъсир қилмаслиги мумкин. Бироқ бу керакли фирма учун рақобатни сезиларли даражада камайтиради ва ютиб олиш имкониятларини оширади.

**3. Тендер ҳужжатларини мураккаблаштириш.** Бунда тендер ҳужжатлари бир неча ўнлаб саҳифалардан иборат мураккаб (ноаниқ) техник топшириқларни ўз ичига олган бўлади. Натижада тендер иштирокчиларининг кўпчилиги уларни тўлдиришда хатога йўл қўйиши мумкин. Буюртмачи эса ҳужжатлардаги бундай хато ва камчиликларни асос қилиб иштирокчиларни





тендердан четлатиши ёки балларини камайтириши мумкин. Натижада тендерда тўғри ва мукамал «жавобларни» тақдим этган керакли фирма ғалаба қозонади.

**4. Харидларни қисмларга бўлган ҳолда амалга ошириш.** Бунда харид қилинаётган товар (ишлар, хизматлар)нинг суммасини тендер ёки аукцион орқали амалга ошириладиган харидлар мезонидан камайтириш мақсадида турли қисмларга (лотларга) бўлиш орқали электрон дўкон ёки энг яхши таклифни танлаш орқали амалга ошириш натижасида олдиндан келишилган иштирокчидан харидни амалга ошириш имконини беради.

Мисол учун, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан 2021 йилда ўтказилган назорат тадбирларида 2790 та ҳолатда 29,0 млрд. сўмлик харидлар қонунга зид равишда қисмларга бўлган ҳолда амалга оширилганлиги аниқланган.<sup>4</sup>

**5. Нохолис (субъектив) баҳолаш.** Бу комиссия томонидан аризаларни кўриб чиқишда иштирокчилар томонидан кўрсатилган маълумотларнинг тўғрилигини текширмаслиги ёки баҳолаш тартибида кўзда тутилмаган таклифлар учун ҳам қўшимча балл беришда намоён бўлади. Масалан, комиссия томонидан баҳолаш жараёнида иштирокчиларнинг **харид предметиға тааллуқли бўлмаган** кўрсаткич ва ютуқларини инобатға олиш.


**6. Юқори нархларда харид қилиш.** Бунда, давлат буюртмачиси томонидан харид қилинадиган товар (иш, хизматлар) нархини атайлаб юқори баҳолаб, олдиндан келишилган корхона ютишиға замин яратади ва товар (иш, хизмат)нинг реал нархидан ташқари қолган «фойда»ни ўзаро тақсимлашға келишиб олиши мумкин.

Мисол учун, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан 2021 йилда ўтказилган назорат тадбирларида 141 та ҳолатда 26,1 млрд. сўмлик харидлар юқори нархларда харид қилинганлиги аниқланган.<sup>5</sup>

---

<sup>4</sup> Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан Бош прокуратураға тақдим этган ҳисоботларға асосан тайёрланди.

<sup>5</sup> Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан Бош прокуратураға тақдим этган ҳисоботларға асосан тайёрланди.





**7. Тендер аризаларининг асоссиз рад этилиши.** Буюртмачи томонидан тендерда иштирокчиларнинг аризалари асоссиз ёки тегишли тушунтиришларсиз рад этилади. Шунингдек, ҳатто тезда бартараф этилиши мумкин бўлган ҳужжатлардаги майда камчиликлар важ қилиниб, фирманинг тендер ёки аукциондаги иштироки рад этилади. Техник топшириқда иш ишлаб чиқариш учун зарур бўлган материаллар нархини ҳисоблаб, сметага киритиш зарурлиги ҳақида ҳеч қандай кўрсатма бўлмаган бўлсада, буюртмачи бундай ҳисоб-китоблар йўқлиги сабабли аризани рад этганини мисол келтириш мумкин.

**8. Жуда кам муддат кўрсатиш.** Бунда, тендер лойиҳасини бажаришга атайин жуда кам муддат қўйилиши мумкин. Мисол учун, харидор мураккаб монтаж ишлари учун атиги бир кун ажратган. Табиийки, ушбу ишларни анча олдин бошлаган ёки олдиндан келишиб олган фирмагина тендерда ғолиб чиқиши мумкин.

**9. Буюртмачи томонидан тендер якунлангунча сир сақланиши лозим бўлган маълумотларни очиқлаши.** Масалан, буюртмачи танловда тадбиркорлар томонидан тақдим этилган пул котировкалари ҳажми ҳақидаги маълумотларни керакли фирмага ошкор қилади. Натижада, керакли фирма энг мақбул нархни таклиф этиб, тендер (аукцион) ғолибига айланади.

**10. Алоҳида имтиёз бериш.** Буюртмачи тендер ҳужжатлари ва талаблари билан керакли фирмани тендер эълон қилишдан анча олдин таништиради. Натижада ушбу фирма аризасини тайёрлашда маълум бир имтиёзга эга бўлади. Мисол учун, тендер ҳақидаги эълон берилгандан кейин ҳужжатларни топширишга бир ой вақт берилади, лекин аслида керакли ҳужжатларни тендерга тайёрлаш учун камида 2–3 ой кетиши мумкин.

**11. Бир нечта техник ва функционал жихатдан мустақил лотларни биттага бирлаштириш.** Бундай хийла рақобатни чеклаш учун ишлатилади, чунки бир иштирокчи бир вақтнинг ўзида бир нечта ўзаро боғлиқ бўлмаган ишларни бажаришга малакаси етишмаслиги мумкин. Одатда тадбиркорлар маълум турдаги товар ёки хизматларга ихтисослашган бўлади. Шу сабабли буюртмачи ҳар хил турдаги эҳтиёжларини битта харид (буюртма)га жамлаши потенциал иштирокчиларнинг тендерда иштирок этишига тўсиқ бўлиши мумкин.

**12. Ноқулай шартлар.** Мисол учун, давлат органи бажарилган иш учун кўпчилик тадбиркорларга мақбул бўлмаган тўлов шаклларины таклиф этади





(узоқ муддатли ёки бўлиб-бўлиб тўлов шакллари) ва натижада кераксиз фирмаларнинг тендерга қизиқишини пасайтиришга эришиши мумкин.


**13. Расмиятчилик.** Иш бажарилгандан ёки қурилиш бошлангандан кейин тендер эълон қилинади. Мисол учун, давлат буюртмачиси ўзига тегишли бўлган ёки олдиндан келишилган корхона билан оғзаки шартларга асосан ишларни бошлаган бўлади, бироқ молиялаштириш мақсадида номига тендер эълон қилиниб, олдиндан келишилган корхона ғолиб деб топилади. Ваҳоланки ишлар бундан анча олдин бошланган бўлади.

**14. «Яширин» харидлар.** Агар буюртмачи тендерга бегона фирмалар эътиборини қаратишни истамаса, тендерни «яшириши» мумкин. Мисол учун, сотиб олиш предметини ёки тендерни асига мос келмаган бошқача ном билан атайди, унинг тоифасини нотўғри белгилайди. Натижада бу тендерга камроқ фирмалар ариза топширади ва ўзига керакли фирма ютиш имкониятларини оширади.

**15. Тендерда иштирок этишдан бош тортишга ундаш.** Буюртмачи ўзига керакли тадбиркор ютиб чиқиши учун тендерда ғолиб бўлиш эҳтимоли юқори бўлган тадбиркорга маълум бир ҳақ эвазига тендердан воз кечишни таклиф қилади.

**16. Шартнома шартларини ўзгартириш ёки бажарилмаган ишни қабул қилиш.** Керакли фирма тендер (аукцион)да ғолиб чиқиш учун бозор нархига мос бўлмаган зарарли нархларни ҳам таклиф этишига тўғри келиши мумкин. Лекин кейинчалик шартномани бажариш жараёнида шартнома шартлари икки томонга манфаатли тарзда ўзгартирилади. Амалиётда шартнома нархи ўзгармаган, лекин амалда харид кам ҳажмда етказиб берилган ҳолатларни ҳам кўриш мумкин. Бундан ташқари, шартномадан фарқли турдаги маҳсулотлар буюртмачи томонидан қабул қилиб олинishi ҳам коррупция мавжудлигидан далолат беради.

**17. Қонунга зид равишда тўғридан-тўғри шартномалар тузиш.** Бунда давлат буюртмачиси тотмонидан қонунчилик ҳужжатларида кўрсатилган ҳолатлардан ташқари ўзига тегишли бўлган ёки алоқадор фирмадан товар (иш, хизмат)ларни тўғридан-тўғри шартномалар орқали харид қилиши мумкин.





Мисол учун, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан 2021 йилда ўтказилган назорат тадбирларида 1051 та ҳолатда 82,2 млрд. сўмлик товар (ишлар, хизматлар) қонунчилик талабларига зид равишда **тўғридан-тўғри шартномалар орқали** харид қилинганлиги аниқланган.<sup>6</sup>

**18. Лоббизм.** Бу энг агрессив схемалардан бири. Бунда давлат органи томонидан тендер ўтказмасдан керакли хусусий фирма билан тўғридан-тўғри шартнома тузиш учун махсус ҳукумат қарори чиқартириб олинади. Амалиётда бу турли кўринишларда амалга оширилишини кўриш мумкин:

а) қарорда айрим давлат органларига тендер ўтказмасдан ўзи хоҳлаган хусусий фирмалар билан тўғридан-тўғри шартнома тузиш ҳукуқи берилади;

б) айрим қарорларда тендерсиз давлат буюртмалари бўйича тўғридан-тўғри шартнома тузиш керак бўлган хусусий фирма (корхона) номи аниқ кўрсатилади.


в) давлат харидлари тўғрисидаги қонунга асосан тўғридан-тўғри шартнома асосида харидни амалга ошириш соҳаларини кенгайтириш орқали.

Мисол учун, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги ПҚ–3953-сонли Қарорида тўғридан-тўғри тузиладиган шартномалар асосида харид қилинадиган товарлар (ишлар, хизматлар) рўйхати берилган. Бироқ, манфаатдор тузилмаларнинг етарли асосларсиз киритган таклифларига мувофиқ ушбу Қарор 2020-2021 йиллар мобайнида 24 та янги банд билан тўлдирилган ва бу жиҳат давлат харидлари жараёнига сезиларли салбий таъсир кўрсатган.

Ваҳоланки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлдаги ПФ–6257-сонли Фармонининг 7-бандига кўра, давлат харидларида рақобатли савдо турларини чекловчи тўғридан-тўғри шартномалар тузишни назарда тутувчи қонунчилик ҳужжатларини ишлаб чиқиш бўйича ташаббус билан чиқиш қатъиян тақиқланган.

Ана шу қоида кучга кирганидан кейин ҳам юқорида қайд этилган рўйхатнинг 3 тасига қўшимча харид қилинадиган товарлар (ишлар, хизматлар) рўйхати қўшилган бўлса, 5 та янги банд билан товарлар (ишлар, хизматлар)

<sup>6</sup> Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан Бош прокуратурага тақдим этган ҳисоботларга асосан тайёрланди.





рўйхати тўлдирилгани айрим давлат буюртмачиларининг харидларни тўғридан-тўғри шартномалар тузиш орқали амалга ошириш баҳонасида коррупцияга интилаётганини англатади.

Давлат харидлари борасидаги шу каби долзарб муаммоларни тезкорлик билан ҳал этиш мақсадида қуйидагилар таклиф этилади:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги ПҚ–3953-сонли Қарорида белгиланган Давлат буюртмачилари томонидан тўғридан-тўғри шартномалар бўйича харид қилинадиган товарлар (ишлар, хизматлар) рўйхатини аввало, 45 тадан 20 тага қисқартириш, қисқарган рўйхатни эса “Давлат харидлари” тўғрисидаги Қонунга ўтказиш мақсадга мувофиқ, деган фикрдамиз.

Бу билан асосиз равишда ушбу рўйхатга қўшимча киритишнинг олди олинади, қонунчилик ташаббуси ҳуқуқи субъектларининг бу борадаги таклифларини эса, парламент ва кенг жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш имкони яратилади.

“Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуннинг 71-моддасида тўғридан-тўғри шартномалар бўйича давлат харидлари Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида амалга оширилиши мумкинлиги белгиланган.<sup>7</sup>

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги ПФ–5780-сонли Фармонининг 27-бандига кўра, Вазирлар Маҳкамасининг ушбу Қонунга мувофиқ бўлмаган, шу жумладан Қонунда кўзда тутилмаган, ягона етказиб берувчидан тўғридан-тўғри харид қилиш имконини кўзда тутувчи баённомалар шаклидаги топшириқларини киритиш амалиёти қатъиян тақиқланган.

Шунга қарамасдан, 2021 йилнинг 9 ойида Вазирлар Маҳкамасининг мажлислари баёнлари билан деярли 25 трлн. сўмлик давлат харидлари тендер ва танловларсиз тўғридан-тўғри шартномалар тузиш орқали амалга оширилган.<sup>8</sup>

Шу боис, “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуннинг 71-моддасидан Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида тўғридан-тўғри шартномалар

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги қонуни, ЎРҚ-684-сон, 22.04.2021 йил. 71-модда, [Электрон манба]. <https://lex.uz/uz/docs/5382974>

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси томонидан Президент Администрациясига киритган маълумотида асосан тайёрланди.





бўйича давлат харидларини амалга оширишга оид нормани чиқариш лозим, деб ҳисоблаймиз.

### References

1. Бирлашган Миллатлар ташкилотининг “Коррупцияга қарши Конвенцияси” (UNCAC), 2003 й;
2. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг (OECD) порахўрликка қарши конвенцияси;
3. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат харидлари тўғрисида»ги қонуни, ЎРҚ-684-сон, 22.04.2021 йил.
4. Б.Алиев, Т.Норов, Коррупция глобал ижтимоий иллат, Монография, Тошкент - “IQTISODIYOT”, 2022;
5. Бобошко Н.М. Коррупция в сфере государственных закупок как угроза экономической безопасности государства. Вестник экономической безопасности. 2020;(6);
6. Исмаилов Б. И. Коррупцияга қарши курашга оид халқаро андозалар: хорижий ва миллий амалиёт. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Юристар малакасини ошириш маркази, 2012;
7. Исмаилов Б.И. Коррупцияга қарши кураш борасида хорижий давлатлар амалиёти ва халқаро стандартлар тизими шаклланиши. Ўқув қўлланма.-Т.: ЮМОМ. 2019.







ISSN (E): 2181-4570

## ВЫРАЖЕНИЯ ИНТЕРРОГАТИВНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ КАК ВЕРБАЛЬНЫЕ СРЕДСТВА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ.

Д. Т. Нормаматова

Гулистанский государственный университет

### АННОТАЦИЯ.

В данной статье выражаются вопросительного местоимения, и использование вопросительных местоимений как части вербальной конструкции общения. За этим также следует различная активизация вопросительных местоимений и обращение к связи их с другими вариантами синтаксиса. Уточняются функции вопросительных предложений, которые являются «**Who, What, Which**», имеют различные синтаксические значения. В статье раскрываются различия и категории вопросительных местоимений и их употребление в устной речи в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** Интеррогатив, синтаксема, язык, вопросительный местоимения, синтактика, анализ, семантика, речь, вопрось.


### EXPRESSION OF INTERROGATIVE PRONOUNS AS A VERBAL MEANS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

D. T. Normamatova

Gulistan State University

### ABSTRACT.

In this article it is expressed three forms of interrogative pronouns and the using them as part of the verbal means in communication. It is also followed the interrogative pronouns' different activation and the accessing the connection of with other variants of syntaxes. It is clarified the functions of interrogatives which are “**Who, What, Which**” have variety of syntaxes denoting agentive, state, qualitative, relative and the function of object. Thereby, it is studied the positions and the scaling of agentive syntaxes in special and general questions. In the work it is enlightened that the most common prompt for creating questions in language is the interrogative pronoun, more commonly known in learning language system. In the article it is conveyed the differences and the categories of interrogatives and the using them in oral speech, their connections via prepositions the studies of connotative connections by the examples. This article re-visits these pronouns drawing on a wide range of literatures to establish





them into a coherent frame for designing and implementing large-scale in observing and working on pronouns.

**Key words:** Interrogative, syntactic, interrogative pronoun, language, analysis, semantics, speech, question.

Роль нашей республики в мировом сообществе растёт, международные связи, торговля, туризм и культурно-экономические связи между странами развиваются и укрепляются в то время, когда ее будущее создает молодых для того, чтобы они могли основательно преподавать английский язык и свободно обсуждать образовательные вопросы с иностранцами, а также учить их уметь говорить на английском языке.

Также невозможно слепо переводить на другие языки, не понимая их сути, пока каждый язык имеет свои лексические, грамматические и стилистические особенности. В данной статье мы рассмотрим, как определить синтаксически-семантические значения вопросительных местоимений в английском языке и как они отражаются в оригинале при переводе их на узбекский язык. С помощью вопросительных местоимений говорящий стремится получить новую информацию от участников речевого процесса, определить то, что ему неизвестно.

**Целью исследования** являются выявить средства выражения лексем вопросительных местоимений в английском и узбекском языках, выявить их синтаксические семантические функциональные значения, исследовать общие и отличительные аспекты местоимений в сопоставимых языках, определить особенности, характерные для их употребления в художественных текстах.

**Объект исследования и использованные методы:** С помощью синтаксической связи вопросительных местоимений в предложении с текстами данной статьи на английском и узбекском языках объектом исследования является их деятельность в предложении, их средства выражения, синтаксические семантические значения вопросительных местоимений в каждом языке, а также их общие и отличительные аспекты, синтаксические семантические функциональные функции, а также в статье широко используются методы сравнительно-типологического системного анализа, трансформации и моделирования.





Полученные результаты и их анализ: Вопросительные местоимения имеют свое отношение к личности (кто?), к предмету (что?), к признаку (который? какой (ая, ое)?), на количество (сколько?), ко времени (когда?), к цели и причине (почему?) и к месту (куда? откуда? где?) [9, с. 309]. Одним из средств, выраженных в разнообразной синтаксической семантике, являются вопросительные местоимения, которые имеют свои собственные лексемы и свойства внутри группы местоимений. Вопросительные местоимения образуют сами по себе очень широкое значение: они приобретают относительное, обозначающее, неопределенное, отрицательное и суммативное значения, и каждое из них требует определенной лексики для того, чтобы войти в связь с синтаксисами других вариантов.

По своему строению вопросительные местоимения в английском и узбекском языках практически не отличаются: “Who” — “ким” — они одинаковые. “whose” — “кимнинг” — между ними нету разницы. Потому что оба они находятся в родительном падеже в двух языках.

“What” — “нима” — они одинаковы по своей структуре на обоих языках. Поскольку вопросительное местоимение what, которое в грамматическом смысле является переменным местоимением в английском языке, используется в том же плане для определения подлежащего, знака и количества в предложении но, в узбекском языке вопросительное местоимение “what – нима” выражается в предложении вопросительными местоимениями, такими как: нима, кандай, қаерда, неча.

“Whom” - объектная форма “who”. Есть разница в узбекском языке “Whom”, определяющего формы: -кимни, -кимга, -кимда, -кимдан. Поскольку английский и узбекский являются языками разных систем, категории падеж на этих языках отличаются друг от друга следующим образом: Категория падеж в английском языке развита недостаточно, а в узбекском - хорошо развитый. Две падежи в английском языке морфологически сопоставимы с шестью падежами в узбекском языке. [3, с.112] поэтому вопросительные местоимения в узбекском языке различаются шестью падежами. Использование вопросительных местоимений в английском форма падежах вопросительных местоимений ограничено. В узбекском языке все вопросительные местоимения могут использоваться в форме падежах. Слова в узбекском языке, обозначающие





ISSN (E): 2181-4570

вопрось или форму, обозначающую качество или форму имеют форму падежа, место этого в английском языке используются предлоги. Например,

**Where** did you come from? [TD.SC. 11, с. 66]

Сиз **қаёқдан** келиб қолдингиз? [ТД.БК.5, с. 50]

“**Where** do you suppose she`s gone to?” said Minni [TD.SC. 11 с. 88]

Сенингча у **қаёққа** кетган бўлиши мумкин?- деб сўради Минни. [ТД.БК. 5,с. 72]

**What** are you eating meat for? ” Rinaldi turned to the priest. [EH.FA. 12, с. 123]

**Нега** сиз гўшт танаввул қилаяпсиз? – Риналди кашашга ўгирилди. [ЭҲ.АҚ.10, с. 183]

Интерогативные местоимения, то есть местоимения *who, whom, what, why, which, whose* являются субстантивами (опущенными) или квалитативными синтаксисами, в соответствии с которыми они по-разному выражаются в синтаксической семантике, а иногда также могут иметь некатегориальные знаки с другой стороны [7, с. 223]. Из этих синтаксисов мы сначала остановимся на том, что местоимения *who, what, whom, which* обозначают субстанциальные (опущенные) интерогативные местоимения и приведем следующие примеры: *Who is speaking? (Ким гапиряпти?) Who of us can still remember his name? (Ким унинг исмини эслай олади?) Who are ready to follow me? (Ким мени кузатишга тайё?) Which would you like best?(Қайси бирини ёқтирасиз?)* и эти примеры, как субстанциальные интерогативные синтаксисы, являются синтаксисами, которые имеют наибольшее разнообразие среди них и имеют свои собственные функции, такие как выражение сообщения, статуса, качества, равенства или дополнения в предложении[7, с. 223].

Трансформация вопросительных местоимений в узбекском языке отличается от таковой в английском языке. В английском языке общая трансформация вопроса осуществляется в основном путем цитирования вспомогательных слов перед притяжательным, в то время как в узбекском языке это делается с помощью частицами. В английском языке предлог (*Aux*) ставится до или после вопросительного слова, в то время как в узбекском языке частица – **ми**, ставится в конце предложения и не используется при трансформации.

*Is John speaking? – Джон гапиряптими?*





*Do you speak English? – Сиз инглизча гаплашасизми?*

Если, специальный вопрос используется с вопросительными местоимения в предложении, тогда частица –ми, узбекском языке не используется [3, с. 52].

*Who is speaking? – Ким гапираяпти?*

Существует также состояние небольшого ограничения в использовании интерогативных синтаксисов, мы можем видеть эту ситуацию в нижеследующих примерах:


*Who of us can still remember his name? Which of the two is better?*

*(Ким ҳали ҳам унинг исмини эслай олади? Қайси бири яхшироқ?)*

В данном примере предлог *of* можно различить субстанциально интерогативной лексемы от синтаксисов выраженных существительным путем ограничивая в предложении. В указанном граничном преобразовании, в рамках субстантивной интерогативности, могут также появляться дополнительные (сходство, совместимость) синтаксисы, и в этом случае – выполняется через частицу *–else*. Например: *Who else could be? (Яна ким бўлиши мумкин?) Who else is coming? (Яна ким келаяпти?) What else could I do but this? (Бундан бошқа яна нима қилишим мумкин)*. Данное различие в субстанциально интерогативные связывается тесно с существительным указывает его как признак существительного. Предлог *Of* и причастие *else* в относительном субстанциально интерогативе всегда участвуют в вопросительных предложениях с синтаксисами *who, whom, what, which, that*.

Выше мы показали субстантивные относительные синтаксисы, которые совместимы и дополняют друг друга. Такая ситуация чаще всего используется в устной речи. Также в устную речь иногда включается значение препозитивности вместо местоимения *who* местоимение *whom* в широком смысле слова, которые стоят на месте местоимения: *Who do you want? Who were you talking to?* Когда речь идет о местоимений *who* или *whom*, то, конечно, мы можем косвенно познакомиться с коннотативными (буквальными) вариантами местоимений *What* или *which* также могут быть изменены друг с другом в смысле значения, зная их различия в относительном значении предикатов и наблюдая их квалификативную (качественную) категорию на примерах.

Тот факт, что синтаксические варианты соединяются и образуют парадигматический эквивалент, не вызывает у исследователя вопросов. Точнее,





трансформация синтаксиса вопросов переплетается в систематической последовательности.

Говоря о вопросительных трансформациях, мы коснемся некоторых сведений о них. В том числе, в вопросительных трансформациях *She saw John. Whom did he see?* (*У Жонни кўрди. У кимни кўрди?*) мы видим не только синтаксис дополнения, но и изменение лексемы *see*, соответственно, в вопросительной трансформации можно встретить участие 2-х интерогативных синтаксем, а именно субстанциальной и процессуальной синтаксем.

### Заключение

Изучая трансформацию вопросительных предложений, мы будем изучать не только речь, но и язык, его ресурсы, к какому разделу она относится образовательная, а их межъязыковые синтаксисы имеют эквивалентную особенность, вопросительные предложения имеют особое значение в языке. Одной из семантико-синтаксических особенностей вопросительных местоимений является употребление двух типов синтаксем для имен человека и других (животное, птица и предмет). *Who* в основном имеет функцию существительного. Вопросительное местоимение *What* может также выступать в функции объектного и объективного местоимения: *what have you bought?* (*Нима сотиб олдингиз?*), субъективное местоимение *what is your name?* (*Исмингиз нима?*), *What questions were asked?*, адъективное местоимение (*Қандай саволлар берилди?*). Местоимение *Whose* выполняет также функцию притяжательности. Но здесь оно было введено в форму притяжательного местоимения *who*, так как оно является вопросительным притяжательным местоимением (*interrogative possessive*). Местоимение *whose* в основном используется как адъективное местоимение, в некоторых случаях также местоимение *whose* может прийти в предложении в качестве определяющего. Это зависит в основном от характера контекста.

### Список использованной литературы

1. Ахмедов, А. Нурмонов, А, Маҳмудов Н. Грамматика узбекского языка. \_ Тошкент.: Фан, 1992– 123 с.
2. Ж.,Бўронов М., Тошбоева М. Инглиз тили грамматикаси.\_ Тошкент.:Ўқитувчи, 1978. – 73-75 с.



3. Буранов Ж. Сравнительная грамматика английского и узбекского языков. \_Т.: Ўқитувчи, 1973. – 96 96 с.
4. Вестник Министерства Народного Образования Республики Узбекистан «Развитие образования» спец. выпуск № 5, 1999 г.
5. Драйзер. Т . Бахтиқаро Керри \_Т.: Шарқ, 2007. – 14-341 с.
6. Логинов А. В. Местоимения как средство выражения интеррогативной семантики. // Логинов А. В. Филологические науки. Вопросы теории и практики, Тамбов: Грамота. № 1 (31) 2014, часть 2. 111 с.
7. Мухин А. М. Синтаксемний анализ и проблема уровень языка.\_ Ленинград.: Наука, 1980.– М: 1973 – 221 – 235 с.



ISSN (E): 2181-4570

**Искусственный интеллект и его применение в принятии решений: методы, алгоритмы и перспективы**

**К.К.Сеитназаров**

**Заведующий кафедрой «Информационной безопасности»**

**Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми, доктор технических**

**наук, доцент**

**[Seytazarov82@mail.ru](mailto:Seytazarov82@mail.ru)**

**Н.С.Мухиятдинов**

**студент 2-курса по направлению «Информационной безопасности»**

**Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми**

**[nuratdinmuxiyatdinov2003@gmail.com](mailto:nuratdinmuxiyatdinov2003@gmail.com)**

**М.М.Урынбаева**

**студентка 2-курса по направлению «Цифровая экономика»**

**Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми**

**[malikaurinbaeva15@gmail.com](mailto:malikaurinbaeva15@gmail.com)**

Аннотация: Эта научная статья исследует методы и алгоритмы принятия решений на основе искусственного интеллекта. Введение вводит читателя в тему и объясняет важность искусственного интеллекта в современном обществе. Цель исследования заключается в изучении различных методов и алгоритмов, используемых для принятия решений с помощью искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, принятие решений, машинное обучение, моделирование, генетические алгоритмы.

В настоящее время искусственный интеллект (ИИ) становится все более важным и влиятельным в различных сферах нашей жизни. Используя современные компьютерные технологии, исследователи и инженеры создают системы, способные анализировать данные, обучаться на основе опыта и принимать решения с высокой точностью и эффективностью. Применение искусственного интеллекта в принятии решений открывает новые возможности для автоматизации и оптимизации процессов, повышения производительности и улучшения качества принимаемых решений.







Целью данной статьи является исследование и анализ применения искусственного интеллекта в принятии решений. Мы рассмотрим основные концепции и методы, используемые в искусственном интеллекте, и исследуем их применение в различных областях, таких как медицина, финансы, логистика и другие. Также мы обсудим этические и социальные аспекты, связанные с использованием искусственного интеллекта в принятии решений.


Искусственный интеллект имеет огромный потенциал для оптимизации и улучшения процессов принятия решений в различных сферах. Понимание его принципов и применение в практике могут привести к революционным изменениям в нашей жизни. Впереди нас ждет увлекательное путешествие в мир искусственного интеллекта и его роли в принятии решений.

### **Основы искусственного интеллекта**

Искусственный интеллект является областью компьютерных наук, которая занимается разработкой систем и алгоритмов, способных имитировать интеллектуальные способности человека. В этом разделе мы рассмотрим основные концепции и методы искусственного интеллекта, которые находят применение в принятии решений.

Одним из основных методов искусственного интеллекта является машинное обучение. Оно позволяет системам обрабатывать данные, находить закономерности в них и прогнозировать результаты на основе этих закономерностей. Машинное обучение включает в себя такие методы, как обучение с учителем, обучение без учителя и обучение с подкреплением. Эти методы позволяют системам самостоятельно извлекать знания и применять их для принятия решений.

Еще одним важным подходом в искусственном интеллекте являются нейронные сети. Нейронные сети моделируют работу человеческого мозга и состоят из множества связанных между собой искусственных нейронов. Они способны обрабатывать большие объемы данных и обнаруживать сложные зависимости и паттерны. Нейронные сети применяются для классификации, регрессии, кластеризации и других задач принятия решений.[2]






## Применение искусственного интеллекта в принятии решений


Применение искусственного интеллекта в принятии решений находит широкое применение в различных сферах. В медицине, например, системы искусственного интеллекта могут помочь в диагностике заболеваний, прогнозировании и лечении пациентов. Они способны анализировать медицинские данные, истории болезней и результаты тестов для выявления паттернов и предоставления рекомендаций врачам.

В финансовой сфере искусственный интеллект применяется для анализа финансовых данных, прогнозирования рынка и оптимизации инвестиционных портфелей. Системы искусственного интеллекта могут анализировать большие объемы данных, учитывать финансовые индикаторы и предоставлять рекомендации для принятия решений в реальном времени.



**Рис.1. Основные коммерческие сферы применения технологий искусственного интеллекта в финансе**

В логистике и транспортной отрасли искусственный интеллект может помочь оптимизировать маршруты, распределение ресурсов и прогнозирование спроса. Системы машинного обучения и нейронные сети позволяют анализировать данные о грузоперевозках, дорожных условиях и прогнозах спроса, чтобы принимать оптимальные решения и улучшать эффективность транспортных операций.






### Методы и алгоритмы принятия решений на основе искусственного интеллекта

Методы и алгоритмы принятия решений на основе искусственного интеллекта (ИИ) представляют собой различные подходы и техники, используемые для автоматизации процесса принятия решений с помощью компьютерных систем. Они основаны на использовании данных, аналитических моделей и алгоритмов для генерации оптимальных или приближенных решений в различных ситуациях.

Некоторые из распространенных методов и алгоритмов принятия решений на основе ИИ включают:





## Рис.2. схема Методов принятия решений на основе искусственного интеллекта

- **Машинное обучение**

Машинное обучение - это подраздел искусственного интеллекта, который позволяет системам извлекать знания из данных и принимать решения на их основе. Существует несколько типов задач машинного обучения, таких как обучение с учителем, обучение без учителя и обучение с подкреплением.

В обучении с учителем модель обучается на основе помеченных данных, где каждому примеру соответствует правильный ответ или метка. Это позволяет модели научиться предсказывать правильные ответы на новых данных. Примерами задач обучения с учителем являются классификация и регрессия.

В обучении без учителя модель анализирует непомеченные данные и находит в них скрытые закономерности или структуру. Это позволяет выявлять группировки данных (кластеризация), определять аномалии или выбросы (обнаружение аномалий) и строить сжатые представления данных (снижение размерности).[3]

В обучении с подкреплением модель взаимодействует со средой и получает обратную связь в виде награды или штрафа за свои действия. Она учится принимать решения, которые максимизируют общую награду. Примерами задач обучения с подкреплением являются управление роботами, игры и оптимизация процессов.

- **Нейронные сети**

Нейронные сети являются математическими моделями, которые имитируют работу человеческого мозга. Они состоят из множества взаимосвязанных искусственных нейронов, которые передают и обрабатывают информацию. Нейронные сети могут быть глубокими, состоящими из множества слоев, или поверхностными, с одним или несколькими слоями.

Нейронные сети используются для различных задач принятия решений. Например, в задачах классификации нейронные сети могут определить, к какому





классу принадлежит входной объект. В задачах регрессии они могут предсказывать непрерывные значения. Нейронные сети также широко применяются в обработке естественного языка, компьютерном зрении, рекомендательных системах и других областях.[1]

- **Экспертные системы**

Экспертные системы используют знания экспертов в конкретной области для принятия решений. Они обычно основаны на правилах и базе знаний, которые описывают проблемную область и способы решения проблем. Экспертные системы могут принимать решения, анализировать причины и объяснять свои выводы.

- **Генетические алгоритмы**

Генетические алгоритмы основаны на принципах естественного отбора и эволюции. Они используются для решения оптимизационных задач, где требуется найти оптимальное решение из множества возможных вариантов. Генетические алгоритмы работают с популяцией потенциальных решений, применяя операции скрещивания, мутации и отбора, чтобы эволюционировать к более лучшим решениям.[5]

Будущее искусственного интеллекта в принятии решений обещает много перспективных возможностей, но требует ответственного и осознанного подхода к его развитию и использованию. Дальнейшие исследования и разработки в этой области помогут нам лучше понять и преодолеть вызовы и потенциальные проблемы, а также создать эффективные системы принятия решений, основанные на искусственном интеллекте, которые будут служить интересам общества и обеспечивать справедливость и этичность.

- **Этические и социальные аспекты**

С развитием и применением искусственного интеллекта в принятии решений возникают важные этические и социальные вопросы. Например, важно обеспечить прозрачность и объяснимость принятых решений. Многие системы искусственного интеллекта, такие как нейронные сети, могут быть сложными для





интерпретации, что вызывает опасения в отношении доверия к их принятым решениям. Это может быть особенно важно в медицине, где необходимо обеспечить объяснение и обоснование диагнозов и рекомендаций.


Также существуют опасения относительно проблемы биаса в системах искусственного интеллекта. Если модели обучаются на непропорциональных или предвзятых данных, они могут передавать эти предубеждения при принятии решений. Это может привести к несправедливым и неэтичным последствиям, например, в сфере судопроизводства или подбора персонала.

### **Заключение**

Искусственный интеллект имеет значительный потенциал в принятии решений, и его применение уже начинает изменять различные сферы деятельности. Однако вместе с этим возникают важные этические и социальные вопросы, требующие дальнейшего исследования и обсуждения. Необходимо разрабатывать нормативные и этические рамки для применения искусственного интеллекта в принятии решений, чтобы обеспечить его справедливость, прозрачность и надежность.[4]

Однако вместе с преимуществами искусственного интеллекта существуют и этические и социальные вопросы, которые требуют дальнейшего исследования и обсуждения. Необходимо разрабатывать нормативные и этические рамки для применения искусственного интеллекта в принятии решений, чтобы обеспечить справедливость, прозрачность и надежность систем и алгоритмов искусственного интеллекта.

This article explores the use of modern innovations in teaching biological sciences to enhance student learning and engagement. It analyzes the benefits and challenges associated with integrating technologies such as virtual reality, online simulations, and interactive platforms into the classroom. The article also discusses effective teaching strategies and provides insights for educators on how to leverage these innovations to improve students' understanding and application of biological concepts.

**Keywords.** teaching methods, modern innovations, biological sciences, virtual reality, online simulations, interactive platforms, student engagement.

### KIRISH

Texnologiyaning rivojlanishi biologiya fanlari sohasida o‘qitish va o‘rgatish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Zamonaviy innovatsiyalarni o‘qitish usullariga integratsiyalash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, kontseptual tushunishni yaxshilashi va biologik tamoyillarni qo‘llashni osonlashtirishi mumkin. Ushbu maqola biologiya fanlari sinfiga virtual haqiqat, onlayn simulyatsiyalar va interaktiv platformalar kabi texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq foyda va





muammolarni o'rganishga qaratilgan. Bundan tashqari, u o'quvchilarning ta'lim natijalarini optimallashtirish uchun ushbu innovatsiyalardan foydalanadigan samarali o'qitish strategiyalari haqida tushuncha beradi.


### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ushbu bo'limda biz biologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy innovatsiyalarni integratsiyalashuviga oid adabiyotlarni ko'rib chiqamiz. Tahlil virtual haqiqatni, onlayn simulyatsiyalarni va interaktiv platformalarni sinfga kiritishning afzalliklarini ta'kidlaydi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga murakkab biologik jarayonlarni tasavvur qilish va amaliy ta'lim bilan shug'ullanish imkonini beruvchi immersiv va interaktiv tajribalarni taklif etadi. Bundan tashqari, tadqiqotlar texnologiyaning o'quvchilar motivatsiyasi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va bilimlarni saqlashga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi. Biroq, texnologiyadan foydalanishning cheklanganligi, o'qituvchilar malakasini oshirish zarurati va texnologik chalg'itish imkoniyatlari kabi muammolar ham muhokama qilinadi.

Biologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy innovatsiyalardan foydalanishni o'rganish uchun aralash metodik tadqiqot usuli qo'llanildi. Ushbu tadqiqot o'z sinflarida virtual haqiqat, onlayn simulyatsiya va interaktiv platformalar kabi texnologiyalarni joriy etgan o'qituvchilar bilan so'rovlar va intervyularni o'z ichiga oldi. Ushbu innovatsiyalar bilan bog'liq imtiyozlar, qiyinchiliklar va samarali o'qitish strategiyalari haqida tushunchaga ega bo'lish uchun to'plangan ma'lumotlar sifat jihatidan tahlil qilindi.

### **NATIJALAR**

Yig'ilgan ma'lumotlarning tahlili bir nechta asosiy xulosalarni aniqladi. O'qituvchilarning xabar berishicha, virtual haqiqatni biologiya darslariga integratsiya qilish o'quvchilarga murakkab tuzilmalar va jarayonlarni yanada chuqurroq va qiziqarli tarzda tasavvur qilish imkonini beradi. Onlayn simulyatsiyalar o'quvchilarga virtual tajribalar o'tkazish imkoniyatini beradi, bu ularga amaliy muhitda ilmiy tushunchalarni o'rganish imkonini beradi. Interfaol platformalar hamkorlikda o'rganishni osonlashtirdi, bu o'quvchilarga tengdoshlari bilan muloqot qilish va darhol fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.






Ushbu imtiyozlarga qaramay, o'qituvchilar muammolarni ham ta'kidladilar. Texnologiyadan foydalanishning cheklanganligi va u bilan bog'liq xarajatlar amalga oshirishdagi to'siqlar sifatida belgilandi. Bundan tashqari, ushbu yangiliklardan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar va o'quvchilarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlandi. Biroq, o'qituvchilarning umumiy fikr-mulohazalari shuni ko'rsatdiki, strategik jihatdan birlashtirilganda, biologiya fanlarini o'qitishdagi zamonaviy innovatsiyalar o'quvchilarning faolligini, biologik tushunchalarni tushunish va qo'llashni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

## XULOSA

Virtual haqiqat, onlayn simulyatsiyalar va interaktiv platformalar kabi zamonaviy innovatsiyalarning integratsiyasi biologiya fanlari bo'yicha o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarni qiziqtiradigan, kontseptual tushunishni yaxshilaydigan va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan immersiv va interaktiv tajribalarni taqdim etadi. Biroq, muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun texnologiyadan foydalanishning cheklanganligi va o'qitish zarurati kabi muammolarni hal qilish kerak. Ushbu innovatsiyalardan foydalanish va samarali o'qitish strategiyalarini qo'llash orqali o'qituvchilar biologiya fanlari bo'yicha o'quvchilarning ta'lim natijalarini optimallashtiradigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
3. Ta'limda pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiyamaliy konferensiya materiallari.- T.:1999.- 212 b





ISSN (E): 2181-4570

**Mutaxassislarni tayyorlashda kompetentli yondoshuv masalalari****Cho'lponova Xadicha Toshbaevna****Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi****Issues of competent approach in training specialists****Chulponova Khadicha Toshbaevna****Senior Lecturer, Tashkent State Transport University****Annotatsiya**

Maqolada mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ixtisoslikning eng asosiy va muhim jihatini ifodalashga xizmat qilishi, kompetentli yondoshuvda mutaxassisning nafaqat kasbiy bilimlarga ega bo'lishi, balki ularni amaliyotda qo'llay olish malakasiga asosiy e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, kompetentli yondoshuv, kompetentlik, bilim, ko'nikma, kasbiy kompetensiya

**Annotation**

The article focuses on the fact that the professional competencies of the specialist serve to express the most basic and important aspect of the specialization, and the specialist's competence in the competent approach is not only to have knowledge, but also to be able to apply it in practice.


**Key words:** Competence, competent approach, competence, knowledge, skill, professional competence

Jahon andozalariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'p jihatdan kadrlar tayyorlash tizimining barqaror rivojlanishiga hamda uni ta'minlovchi bo'lajak kadrlarni maxsus tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lgan o'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishini taqozo qiladi. Bu esa ta'lim jarayonini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan ilmiy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunga kelib, mutaxassislarga kompetentli yondoshuvning quyidagi jihatlari bayon etiladi:

1) kompetensiyalar an'anaviy bilimlarning insondagi intellektual, kommunikativ, kreativ, metodologik, dunyoqarashga oid ko'nikmalar bilan uyg'unlashgan holatidir;

2) kompetentli yondoshuv asosida ta'lim jarayonining maqsadga muvofiqlik va maqsadga yo'nalganlik g'oyasi yotadi. Bunday yondoshuvda kompetensiyalar yosh





mutaxassis malaka va ko'nikmalarining eng yuksak darajasini ifodalagan holda tashkiliy jihatdan quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi: bilim, malaka, ijodiy faoliyatga oid tajriba va qadriyatga asoslangan munosabat;


3) kompetentli yondoshuv asosida ikkita asosiy tushuncha farqlanadi: kompetensiya va kompetentlik. Kompetensiya – ma'lum bir vazifani hal etish imkonini beruvchi shaxs sifatlari majmui. Kompetentlik esa, insonning ma'lum bir kompetensiyaga egaligi, bunday egalikka va faoliyat ob'ektiga bo'lgan munosabatni anglatadi.

Kompetentli yondoshuvga asosan ma'lumotlilik bilim bilan o'lchanmaydi, balki bilimlar asosida shaxsning turli murakkab vazifalarni hal qila olish qobiliyatida ifodalanadi. Kompetentli yondoshuvda bilimning ahamiyati inkor etilmaydi, lekin asosiy e'tibor olingan bilimni amalda qo'llay olish qobiliyatiga qaratiladi. Bunda ta'lim maqsadi shaxsning o'sishi, barkamolligi va uning yangi imkoniyatlariga oid ibora va atamalarda ifodalanadi.

SHaxsning kasbiy-psixologik tuzilmasini ifodalashda «kompetentlik» va «kompetensiya» atamalarini izohlab o'tish o'rinli bo'lardi. Bu ikki tushunchani farqlashdagi asosiy jihat shundan iboratki, kompetensiya shaxs sifati yoki xislati bo'lsa, kompetentlik esa shu sifat yoki xislatning amalda namoyon bo'lishidir. Kompetentlik – kasbiy va ijtimoiy sohada samarali faoliyat yuritish maqsadida shaxsning potensialini amalga oshirish istagi va qobiliyati bo'lib, bunda inson faoliyat natijasining yuksak ijtimoiy ahamiyatini shaxsiy mas'uliyat sifatida his etadi hamda natijani mukammallashtirib borish haqida qayg'uradi. Ushbu ikki ta'rifni o'zaro qiyoslaganda ular o'rtasidagi quyidagi uzviylikni ko'rishimiz mumkin. Avvaliga, kasb talablari asosida kompetensiyalar shakllanadi, keyinchalik esa inson bu kompetensiyalarni amalda qo'llashga, kompetentlikka qodir bo'ladi.

Kompetensiyalar konsepsiyasining asoschilaridan biri Richard Boyasis, kompetensiyani shaxsga o'z vazifasini yuksak darajada bajarish imkonini beruvchi asosiy xarakteristika, deb ta'riflaydi.

Kompetentli bo'lish o'zbek tilidagi «mutasaddi», «mutasaddilik» kabi tushunchalar bilan xamohangdir. Lekin amaldagi mavjud «mutasaddilik» atamasi kompetentlikning bir tomonini ifodalaydi xolos va u ko'proq mutaxassisning xuquqiy jihatdan biron faoliyat turini bajarishga vakolati borligini bildiradi. Qabul qilingan va amaldagi atamalardan chetlashmagan holda «mutasaddi» so'zini o'z mazmuniga ko'ra






talqin etib, faoliyat sifatiga oid mazmuni ta'riflashda «kompetentlik» atamasini ishlatishni o'rinli deb topamiz. YA'ni, kompetentlik deganda biron ishni belgilangan standartlar asosida bajarish deb tushuniladi. Ushbu talqinda mazkur mehnatni bajara olish imkonini beruvchi bilim, malaka va ko'nikmalargina emas, balki insoning o'z salohiyatini amalda qo'llay olishga qodirligi ham nazarda tutiladi. Demak, insonning biron vazifani echishga ichki imkoniyatlarining mavjudligi kompetensiya, shu salohiyatni amalda qo'llay olish, kasbiy hayotga tatbiq eta olish esa kompetentlikdir.

T.YU. Bazarov fikriga ko'ra, mutaxassis kompetensiyasi va kompetentligi haqida so'z yuritganda, ma'lum bir ishni talab darajasida bajarish qobiliyati nazarda tutiladi (masalan, muzoqaralar olib borish yoki moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish). Kompetentlik – shaxsning xislati, qobiliyati, malakasi va motivatsiya xususiyatlarining yig'indisi bo'lib, ularga ega bo'lgan inson konkret lavozim yoki kompaniya tomonidan belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda bajarishi mumkin. SHunday ta'rifga asoslangan xolda, personal kompetentligi tashkilot kompetensiyalarini amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi.

B I.Bespalov fikricha, kasbiy faoliyatning eng umumiy xususiyatlariga ko'ra umumiy va maxsus kompetensiyalar farqlanadi. Umumiy kompetensiya deganda shu tashkilot miqyosida barcha xodimlar uchun yagona standart sifatida qabul qilingan xulq shakllari nazarda tutiladi. Maxsus kompetensiyalar esa, muayyan faoliyat turi uchun yoki mutaxassisning aynan damdagi egallagan mavqei toifasi tomonidan kutiladigan xulq standartlarida ifodalanadi.

Kasbiy kompetensiyalar bitiruvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim va malakalar asosida, maqsadga muvofiq, tizimli va mustaqil tarzda muammo hamda vazifalarni hal etishlari, shuningdek, o'z faoliyat natijalarini baholay olishini anglatadi. SHaxsiy kompetensiyalar insonning o'zini shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini baholay olishi, oilasi, kasbi va ijtimoiy hayot talablariga binoan o'zini namoyon qila olish qudratini nazarda tutadi. Bundan tashqari, ushbu kompetensiyalar, shaxsning o'z qobiliyatini namoyon qilishi, o'z hayotiy reja hamda intilishlarini anglab etishi va rivojlantirishini ham anglatadi. Ijtimoiy kompetensiyalar insonning shaxslararo o'zaro munosabatlari tizimida shakllanishi va yashay olish qobiliyati, bunga tayyorligi, o'zgarishlarni hisobga olish va o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashish extiyojining mavjudligini, boshqalar bilan kelishish sharti bo'lgan ratsional diskussiya qoidalari va tamoyillarini tushunish, ularga amal qilishni nazarda tutadi.






F. S. Ismagilova kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni farqlar ekan, kasbiy kompetensiyalar – ish beruvchi tomonidan konkret ish o‘rniga belgilangan funksional majburiyatlarni bajarish uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuini tashkil etadi. Bu kompetensiyalar insonning ish joyida butun mehnat faoliyati davomida shakllanadi. SHaxsiy kompetensiyalar esa, insonning biron lavozimda yoki faoliyat turida samarali ishlashini ta‘minlovchi shaxsiy sifatlar yig‘indisini nazarda tutadi.

Bunday tahlilda kasbiy kompetensiyalar faoliyat va hayot davomida orttirilgan deb ta‘kidlansa, shaxsiy kompetensiyalar ko‘proq tug‘ma, ya‘ni genetik darajada tarkib topgan, deb e‘tirof etiladi. Turli shakldagi o‘quv mashg‘ulotlari orqali mazkur kompetensiyalarni ma‘lum bir darajagacha rivojlantirish mumkin. F.S. Ismagilova talqinidagi eng asosiy g‘oya shundan iboratki, kompetensiya o‘ziga xos psixologik tuzilma bo‘lib, uning asosida bilim, malaka va ko‘nimalarning shakllanishi va rivoji ta‘minlanadi. Bunday tuzilmaning mohiyati shaxsning, ya‘ni mutaxassisning ichki faolligida, o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan mukammallashtirib borish ishtiyoqiga egaligida namoyon bo‘ladi. Masalan, F.S. Ismagilova tomonidan «vazifani qanday bajarish kerakligini bilish malakasi» degan ibora ishlatiladi.

SHunday qilib, kompetensiyalar o‘ziga xos psixologik tuzilma bo‘lib, uning asosida bilim, malaka va ko‘nimalarning shakllanishi va rivoji ta‘minlanadi. Bunda mutaxassis mehnat faoliyatidagi tajriba to‘plashi davomida o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan mukammallashtirib borish ishtiyoqiga egaligini namoyon qiladi. Jamoada o‘zini shaxs sifatida rivojlanish imkoniyatini baholay olishi, oilasi, kasbi va ijtimoiy hayot talablariga binoan o‘zini namoyon qila olish qudratini nazarda tutadi. Bundan tashqari, ushbu kompetensiyalar, shaxsning o‘z qobiliyatini namoyon qilishi, o‘z hayotiy reja hamda intilishlarini anglab etishi va rivojlantirishini ham anglatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismagilova F.S. Professionalный опыт специалиста в организационной деятельности. - Екатеринбург, 1999. - 208 с
2. Petrovskaya L.A. Kompetentnost v obshchestve. – M.: Izd-vo MGU, 1989.
3. Raven Djon. Kompetentnost v sovremennom obshchestve. Vyyavlenie, razvitiye i realizatsiya. – M.: Kogito- Sentr, 2002. – 396 s.
4. Maxmudov I.I. Boshqaruv professionalizmi psixologik tahlili. T. Akademiya 2011.





ISSN (E): 2181-4570

**ISLOM MA'NAVIYATIDA TA'LIM VATARBIYA.****Ortiqov To'lanboy Artiqovich****ADUPI falsafa fanlar doktori professor****Vaxobova Ziyodaxon****ADUPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni****o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi magistranti**


**Annotatsiya:** Mazkur maqolada islom dini jamiyat hayotiga kirib kelgan davrning insonlar madaniy-manaviy hayotiga ta'siri va ta'lim-tarbiya borasidagi o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi. Shunigdek islomda ota-onaga bo'lgan hurmat, e'tibor masalalari hamda islom odobiga ko'ra farzand tarbiyasi xususidagi fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Movarounnahr, masjidlar, islom, tarbiya, idlom odobi, hadis, kamolot, tenglik, tinchlik.

**Kirish**

VII asr birinchi yarmida Islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt eta boshladi. Butun Arabiston yarimoroli, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qancha mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi. Arablarning Movarounnahrqa bo'lgan birinchi yurishi 651-yili Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676-yili esa, Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, Samarqand, Kesh hamda Nasaf kabi shaharlar bosib olindi. Ikkinchi yurish esa, 705-yili Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim boshchiligida sodir bo'ldi. Arablar VIII asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrni to'la zabt etishga erishdilar<sup>1</sup>. Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilarining Movarounnahr xalqining Islom dinini qabul qilish jarayoni qiyin kechgan va bu jarayon bir necha yillar davomida amalga oshirilgan. Chunki Movarounnahr yurti arab istilosiga qadar ham ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etgan bo'lib, bu mamlakatda yashovchi xalqlar turmush tarziga ko'ra ham arablarga nisbatan bir qadar ustunlikka ega edilar. Zero, mazkur hududda

<sup>1</sup> O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi "I" harfi 2000.








yashovchi xalqlarning aksariyati o'troq xalqlar bo'lib, turg'un holda dehqonchilik bilan shug'ullanar edilar. Shu bois ular tezda arab istilochilariga bo'ysuna qolmadilar. Movarounnahrda Islom ta'limoti g'oyalari yoyilgunga qadar bu erda yashovchi xalqlar ko'psonli xudolarga, quyoshga, ko'k din(shaman)ga hamda o'zlari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi.<sup>2</sup> Shunga ko'ra, o'lkada yagona bir g'oyaviy e'tiqod tarkib topmagan bolib, bu holat aksariyat vaziyatlarda turli elatlar o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqarar va o'zaro janjallarga sabab bo'lar edi. Movarounnahrda Islom talimoti g'oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo'ysunish, yagona va qudratli Allohga sig'inish, Allohning yerdagi rasuli (elchisi) bo'lgan Muhammad alayhis-salom ko'rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi.Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, ilmu-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va Rim madaniy merosi negizida bir qancha fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Masjidlar va ular huzuridagi maktablarda ta'lim-tarbiya. Savod chiqarish uslubiyoti. "Chor kitob" va "Xaftiyak" - dastlabki savod darsliklari. Hadis ilmining paydo bo'lishi, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy va boshqa muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari islom olamida ta'lim va tarbiyaning yuksalaishida beqiyos kuch bo'lgan. «Qur'on»ni yod bilgan kishi qori deb atalardi. Qorilar katta hurmatga sazovor edilar. Bora-bora o'qimishli kishilar, ya'ni domlalar alohida ajralib, o'z xonadonlarida ham maktablar ocha boshladilar. Talabalar maktabdor domlalar maktabida husnixat, og'zaki hisobni o'rganar, asta-sekin fors-tojik va turkiy tildagi kitoblarni, qo'lyozmalar ham o'qitilar, o'rgatilar edi.Husnixat va arifmetika bilan yana xususiy muallimda shug'ullanar edilar. Movarounnahrda arab bo'lmagan bolalar uchun «Xaftiyak» VIII asrda tuzilgan bo'lib, «Qur'on» suralaridan ettidan biri tanlab olingan darslik sifatida o'rganilgan.X—XII asrlarda islom dini rukunlari fors tilida she'r va nasr bilan bayon qilingan, «Chor kitob» o'qitila boshlandi. XII asrdan boshlab Ahmad Yassaviy, uning turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlari vositasida islom dini rukunlari turkiy tilda o'rganila boshlandi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qir, qizlar esa otinoyilar

---

<sup>2</sup> Falsafa qomusiy lug'at






uyida o'qitilar, ular yozuvni emas, faqat o'qishni o'rganar edilar. X asr boshlarida madrasalar ham paydo bo'la boshlaydi. «Madrasa» so'zi «dars o'qitiladigan joy», «ma'ruza tinglaydigan joy» ma'nosini anglatadi. Malumki, madrasalarda musulmon diniy oqimlari arab tili grammatikasi va qoidachilik, ilohiyot, mantiq, notqlik mahorati, kalom o'rgatilgan. Asta-sekin madrasalarda astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar o'qitila boshlandi. Madrasalarda 15-20, 30-40 va 100-150 tacha talaba o'qigan. Madrasani bitirib chiqqanlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy ishlarda ish olib borar edi.«Qur'on»g'oyalarining ma'naviy-axloqiy xususiyatlari xususida so'z yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamizQur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashash, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini insonning ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi lozim bo'lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Shu bois u necha asrlardan buyon insoniyatning eng ulug' qadriyatlaridan biri sifatida e'zozlanib kelinmoqda.Asolini olganda, islomda ilohiy va dunyoviy hodisalar alohida-alohida olib qaralmaydi. Islom ta'limotida insonning ruhiy va jismoniy kamolotiga ham birdek e'tibor beriladi.Islomiy g'oyalar odamlarni yaxshilikka davat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda er yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi<sup>3</sup>.uni biz «Qur'on»ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo'ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Ilm-fan, ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi. «Qur'on»ning «Zumar» surasi 9-oyatida kishilarni ilm

<sup>3</sup> Milliy istiqloq g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. Darslik 2000-y.






o'rganishga davat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: «Aytin: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalarigina pand-nasihah qila olurlar». Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi: bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Ko'rinib turibdiki, islom dini ta'limotiga ko'ra, bilim va aqliy kamolot inson yetukligining asosiy mezoni sanalgan. Ilm-fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga etishida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois «Qur'on»da xulq-odob qoidalari majmuining yaratilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Muayyan shaxs, jamiyatning ravnaq topishida axloqning o'ziga xos o'rni tavsiflanadi. Zero, o'zi yashab turgan jamiyat a'zosi bo'lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga sezilarli darajada zarar etkazsa, axloqli kishilar uning gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shadilar. «Qur'on»da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi amallar inson kamolotini belgilovchi omillardir, deb tushuntiriladi. Zero, Islom dini g'oyalarining asl mohiyati ham kishilarga yomonlikning oqibatlarini ko'rsatish, ularni doimo to'g'ri yo'lga yurishga davat etish va yomonlikning oldini olishdan iboratdir. Ota-onalar Qur'oni Karim g'oyalariga ko'ra eng birinchi navbatda ehson ko'rsatilishga loyiq kishilar sifatida qayd etilgani holda ularning haqlari belgilab beriladi. Ota-onaning farzand oldidagi haqqi quyidagilardan iboratdir: farzandga ota-ona xatti-harakatlarining malol kelmasligi; ota-ona bilan gaplashganda ularning dillariga og'ir botadigan so'z aytmaslik; ota-onaga ehtirom bajo keltirish; ota-onaga rahm-shafqat ko'rsatish; ota-onaning haqlariga duo qilish. «Qur'on»da faqat ota-ona emas, oilaning boshqa a'zolariga, qarindoshlar, yetimlar, kambag'allar, qo'ni-qo'shnilar ham yaxshilik qilish ta'kidlangan. «Niso» surasining 36-oyatida «Ota-onangizga ham qarindosh-urug', etim va miskinlarga, qarindosh, qo'shni va begona qo'shniga, yoningizdagi hamrohingizga, yo'lovchi musofirga yaxshilik qilingiz!»<sup>4</sup> deya, kishilarni bir-biriga yaxshilik qilishga undaydi. Bu oyat katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega. Chunki har bir oilaning mustahkamligi jamiyatni mustahkamlashga, har bir etimga g'amxo'rlik esa jamiyatning taqdiri uchun harakat qiladigan ma'naviy yuk-sak insonni kamolga etkazishga olib keladi. Qo'ni-qo'shnilar bilan totuv-lik esa mahalla hayotining tinch-totuv bo'lishini ta'minlaydi, bu

<sup>4</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Qur'oni Karim ma'nolar tarjimai" Hilol nashr 2022





esa o'z navbatida jamiyatning barqarorligiga olib keladi. Demak, yuqoridagi sura oila va jamiyat o'rtasidagi mustahkam aloqa mohiyatini ham ifoda etadi.«Qur'on»da sabr-qanoatga ham yuksak axloqiy fazilat sifatida katta e'tibor beriladi. Shuning uchun ham sabr «Qur'on»da eng ko'p zikr etiladigan xislat bo'lib, quyidagi xislatlarni kamol toptiradi. Shu o'rinda shijoat qiyinchliklarga, halimlik esa jahлга sabr qilishning mezoni sifatida talqin etiladi.«Qur'on»ning bir qancha oyatlarida shirinsuxanlik, to'g'ri so'z va muomala madaniyati borasida so'z yuritiladi. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalar Islom dini g'oyalari yaratilgunga qadar ham shakllangan bo'lsada, biroq Islom talimotigina uning asl mohiyati, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini to'la ravishda ochib berdi. Kishilarida shirinso'zlik, madaniy muomala ko'nikmalari taraqqiy etgan mamlakatlardagina ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot ro'y beradi. Shirinso'zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligi ko'rsatadi, uning obro'sini oshiradi, elning hurmatiga sazovor qiladi. Shu bois «Qur'on»da har bir insonning shirinso'z bo'lishi ham o'zi uchun, ham jamiyat uchun foydali ekanligiga alohida ta'kidlanadi. Boshqa oyatda esa, Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi: «Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz» («Baqara» surasi, 53-oyat).So'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'pollik qilmaslik, xushmuomala bo'lish odoblari hayotda tinchlik va baxt-saodatga eltuvchi yorug' yo'l sifatida talqin etiladi. Haqiqatan ham so'zlashish madaniyati har bir inson uchun eng zarur, unga baxt-saodat, jamiyatga esa ravnaq keltiradigan muhim fazilatdir. Keltirilgan misollardan ayon bolmoqdaki, muomala madaniyati barcha davrlarda ham insoniylikning eng ulug' sifati tarzida talqin etilgan. Zero, xalqaro maydonda davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni o'rnatishda ham muayyan davlatning rasmiy vakili sanalgan elchilarning so'zlashuv madaniyati qoidalarining mohiyatidan nechog'li xabardor bo'lishlari hamda ularga qafiy amal qila olishlari nihoyatda muhimdir.«Qur'on»da yaxshi fazilatlariga ega kishilar bilan hamsuhbat bo'lish insonning kamolotga erishuvini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi hara alohida ta'kidlanadi. Bu yaxshilar bilan do'st bo'lish imkoniyatini yaratadi, do'stni dushmandan ajrata olish layoqatining shakllanishiga imkon tug'diradi, o'ziga nisbatan hamkor- do'st tanlashga yordam beradi.«Qur'on»da yana insonni axloqiy kamolga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo'rlik, qimorbozlik, yolg'onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, josuslik, g'iybatchilik, maishiy buzuqlik, g'azabnoklik, hasadgo'ylik, ochko'zlik kabilar xususida ham muhim fikrlar






bildirilgan. Manmanlik - o'z aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik illati kishilarni sog'lom fikr yuritishdan, o'zini takomillashtirib borishdan mahrum etadi. Natijada jaholat illati paydo bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Islom va uning asosiy talimoti mujassamlash-gan Qur'oni Karim insonda aqliy, axloqiy hamda jismoniy xislatlarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, komil insonni tarbiyalashda muhim manba bolib xizmat qiladi. Har bir inson qilgan ezgu amallari va odob-axloqi bilan yaxshi nom qoldiradi. Mazkur holat hadislar mazmunida shunday talqin etiladi: «Mo'min kishiga vafotidan keyin savobi tegib etib turadigan amali solihlar quyidagilardir: Tarqatgan ilmi.. Qoldirgan solih farzandi.. Meros qoldirgan Qur'oni.4. Qurgan masjidi.5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.6. Qazigan arig'i.7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa - ehson uchun ajratgan moli».5 Haqiqatan ham inson hayotdan o'tadi, lekin u ilm-ma'rifat, ziyo tarqatishda, xalq farovonligi yo'lida qilgan ishlari bilan xalq orasida abadiy qoladi. Ana shunday xislatlardan eng muhimi saxovatdir. Bir qancha hadislar mazmunan insonni saxovatli bolishga undaydi. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi yo'lida mehnat qiladi, atrofdagilarni o'zi ega bolgan ne'matlardan bahramand etadi. Shu bilan birga, hadislarida yana kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qo'yishdan saqlanish kerakligi, kelajakka nisbatan ishonch bilan yashash xususidagi fikrlar ham o'rin olgan. Chunonchi, «Birortangiz ekish uchun qolingizda biror ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bolib qolsa-yu, qiyomat qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta, ekib qo'ying», - degan fikrlar hayotga bo'lgan umid, kelajakka bo'lgan ishonchning yorqin ifodasidir. Xulq-odob haqidagi hadislarida ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sanalgan illatlar qoralanadi.

Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlariga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarni o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, beraor kisbi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, emoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bolib xizmat qiladi. Hadislarida jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi

---

<sup>5</sup> O'zbekiston musulmonlar idorasi rasmiy sahifasi.






muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislar ekin hamda ko'chatlarni o'tqazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi fikrlar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227-va 446-hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar shular jumlasidan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki islom ta'limoti va islom odobi dunyo dinlari orasidagi eng to'g'ri din va eng mukammal din sifatida tan olinadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasi" Hilol nashr 2022
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi "I" harfi 2000.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston, 2003.
6. Milliy istiqlol g'oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. Darslik 2000.
7. Falsafa qomusiy lug'at
8. O'zbekiston musulmonlar idorasi rasmiy sahifasi.
9. Ziyo.uz
10. Azon.uz





ISSN (E): 2181-4570

## STOMATOLOGIYADAGI JAROHATLAR

**Keldiyorov Adhambek Bobonazar o'g'li**

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti**

**Ilmiy rahbar: Boyqobilov Soatmurod**

**Annotatsia:** Ushbu maqolada "21, 22 tishlarning og'iz bo'shlig'iga siljishi bilan to'liq bo'lmagan dislokatsiya" tashxisi bilan og'rigan bemorda amaliyotdan olingan klinik holat keltirilgan. (mo'tadil lateral lyuksatsiyaning dislokatsiyasi)", depulpatsiyasiz splintlangan, ya'ni. Bunday vaziyatda bemorga o'z vaqtida professional yordam ko'rsatish va ko'rsatmalar endodontik aralashuvlarsiz neyrovaskulyar to'plamni saqlab qolish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** Dislokatsiya, pulpa, periodont, neyrovaskulyar to'plam, periodontal ligament.

Bemor V.L., 56 yoshli, 2012-yil 6-iyulda poliklinikaga yuqori frontal tishlarida og'riq, qon ketish, harakatchanlik shikoyatlari bilan murojaat qilgan. Anamnezdan kechki soat 23.00 da u ko'chada jarohat olgan (velosipeddan yiqilib tushgan). Travmatologiya bo'limida travmatolog tomonidan tekshirilgandan so'ng, tashxis qo'yilgan: "Chap suyagining siljishi bilan yopiq sinishi". U erda unga gipsli shina qo'yilgan. Travmatologiya bo'limida stomatolog bo'lmaganligi sababli, og'iz bo'shlig'ining shikastlanishi faqat furatsilin eritmasi bilan davolash bilan chegaralangan. Bemorning so'zlariga ko'ra, xuddi shu kuni og'izdan 2 soat davomida qon oqadi, tishlarning og'rig'i va harakatchanligi qayd etilgan.

Anamnezdan bemor endokrinolog ro'yxatida, 2-toifa qandli diabet insulinga bog'liq. Yo'ldosh kasalliklar: gipertenziya. Klinik tadkikotda 21 va 22 tish tojlarining og'iz bo'shlig'iga siljishi (1, 2, 3 a, b-rasm), palpatsiyada og'riq, teginish sezgirligi, perkussiyada metall tovushi bor. , tish go'shtining shishishi, giperemiyasi, vestibulyar tomoni bilan shilliq qavatning yorilishi, bu tishlarning proektsiyasida va yuqori labda gematoma, tishlarning harakatchanligi 21 va 22. Og'iz yarim ochiq. Zararlangan tishlar pulpasining elektr qo'zg'aluvchanligi kamayadi. Rentgen tasviri shikastlangan tishlarning siljish yo'nalishi va darajasini aks ettiradi, periodontal bo'shliq butun bo'ylab notekis.






ISSN (E): 2181-4570



1-rasm - Bemorning ortopantomogrammasi B. Klinikaga murojaat qilgan kuni



2-rasm - Bemorning ko'rinishi B. Davolanish kuni







ISSN (E): 2181-4570



3-rasm - (a), (b) bemor B og'iz bo'shlig'ining klinik ko'rinishi

Tashxis: 21, 22 tishlarning og'iz bo'shlig'iga siljishi bilan to'liq bo'lmagan dislokatsiya. (o'rtacha zo'ravonlik lateral lyuksatsiyaning dislokatsiyasi). Davolash: shikastlangan (dislokatsiya qilingan) tishlarning joyini o'zgartirish barmoq usuli bilan o'tkazuvchan behushlik ostida amalga oshirildi. Immobilizatsiya qilish maqsadida Connect splint qo'llanildi (4, 5-rasm) va yallig'lanishga qarshi terapiya va kaltsiy preparatlari buyurildi. Qon shakari va qon bosimi nazorat ostida edi. Eslatma: hech qanday cho'ntak tekshiruvi o'tkazilmagan. Tavsiyalar berildi: 1. Yumshoq parhez. 2. Har ovqatdan keyin faqat yumshoq cho'tka bilan tozalang. 3. Dastlabki 7 kun ichida xlorheksidin eritmasi bilan yuvib tashlang.




4-rasm - Davolanish kunida Connect avtobusini qo'llaganingizdan so'ng





ISSN (E): 2181-4570




5-rasm - Connect splint qo'llangandan keyin intraoral rentgenogrammalar (strelkalar shikastlangan tishlarning yuqori qismini ko'rsatadi)

10 kun ichida bu tishlarning pulpa holati kuzatildi. Pulpa yashovchanligicha qoldi. EOD noto'g'ri javob berdi, sovuq tekshiruv 50% noto'g'ri javob, radiologik belgilar perkussiyadan keyin aniq kechikdi. Himoya effekti nima bo'layotganini yashirdi. Anesteziyasiz tishlarning hayotiyliigi uchun 330-sonli burg'ulash sinovi o'tkazildi, bu ijobiy natija berdi.



6-rasm - Davolanishdan 10 kun o'tgach, ushbu bemorning klinik ko'rinishi





7-rasm - Davolanishdan 21 kun o'tgach, ushbu bemorning klinik ko'rinishi

Bemor 2 oy davomida kuzatildi, shikastlangan tishlarning rentgenologik nazorati o'tkazildi, bu erda periodontal ligamentning to'liq tiklanishi qayd etildi. 8 haftadan so'ng shina olib tashlandi, shikastlangan tishlar to'liq tiklandi, perkussiya og'riqsiz, shilimshiq, shikastlangan tishlar atrofida to'liq tiklandi, 21.22 tishning biroz qisqarishi bor (8-a, b, 9-rasm).



8-rasm - 2 oydan keyin ushbu bemorning klinik ko'rinishi. Shinani olib tashlashdan keyingi holat





ISSN (E): 2181-4570



9-rasm - Bemorning ortopantomogrammasi B. 2 oydan keyin.

Etti oy o'tgach, 2013 yil yanvar oyida bemor keyingi tekshiruvga taklif qilindi. 3D rasm olindi (10-rasm a, b, c), 21, 22 tishlar atrofida periodontal ligamentning to'liq tiklanishi mavjud. Klinik kuzatishda tish go'shti shilliq qavati och pushti rangda, perkussiya og'riqsiz, tishlarning harakatchanligi yo'q (rasm No11 a, b). Tishlar hayotiy ahamiyatga ega, buni EDI ko'rsatkichlari 4-6 mA va bu tishlarning toj qismining rangi tasdiqlaydi. Bemor dispanser kuzatuviga olindi.





ISSN (E): 2181-4570



Shakl 10 - Bemorning 3D tasviri B. jarohatdan 7 oy o'tgach. Klinik holatlar A) 21 tish, B) 22 tish, C) frontal proyeksiyada 21, 22 tish.



11-rasm - Bemor B. 7 oydan keyin tish bo'shlig'ining klinik ko'rinishi.

Shunday qilib, o'rtacha og'ir tish jarohatlari bilan og'rigan bemorlarni erta davolash va o'z vaqtida professional davolanish neyrovaskulyar to'plamni (pulpa) va periodontal tishni endodontik aralashuvlarsiz saqlab qolish imkonini beradi. Bizning klinik kuzatuvimiz shularni ko'rsatadi.

#### ADABIYITLAR:

1. David O. McGowan tomonidan "Ambulator jarrohlik stomatologiyasi atlas". - M: 1999. - C. 50-52.
2. Smile Dental Journal/Desember 2010. - 56-jild. - 4-son.
3. "Bolalar jarrohligi stomatologiyasi va jag'-jag' jarrohligi atlas". - M.: 2011 yil. - C. 25-27





ISSN (E): 2181-4570

**Askiyaning lingvistik xususiyatlari****Ataxanova Asaloy. Urganch davlat universiteti****Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti**

**Annotatsiya:** Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan og‘zaki ijod na’munalarini o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish, ularni leksik jihatdan chuqur tadqiq ostiga olish har doim dolzarflik kasb etib kelgan. Tadqiqot manbayi askiyaga xos bo‘lgan lingvistik xususiyatlarni o‘rganish, chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Askiya, so‘z o‘yini, payrov, so‘z qo‘llash talabi, payrov talabi, sintaktik talab

**Abstract:** It is always important to study the examples of oral creativity that are living as an integral part of the rich spiritual heritage of our nation, to show the image of the people’s life reflected in them, and to take them under lexical deep research. The source of research requires the study of linguistic

features of Askiya, a deep analysis.

**Key words:** Askiya, word game, payrov, word usage requirement, payrov requirement, syntactic requirement

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi na’munalarini o‘rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodiga mansub tadqiqot talab masalalardan biri bu askiya hisoblanadi. Bugungi kunda qadar adabiyotshunos olimlar tomonidan askiya borasida ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi, to‘plamlar yaratildi. Shunday bo‘lsa ham, askiya tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishga muhtojligicha qolmoqda.

Askiya haqida fikr yuritishdan oldin uning asl mohiyati haqida qisqacha mulohaza yuritish lozim. O‘zbek tilining izohli lug‘atida askiyaga so‘z o‘yiniga, qochiriqlarga asoslangan hozirjavoblik musoboqasi sifatida ta’rif berilgan. Askiya-o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yumorga asoslangan kichik janri bo‘lib, boshqa xalqlar adabiyotida uchramaydi. Bu askiyaning boshqa xalqlar folklor janrlarida uchramaydigan o‘ziga hos alohida xususiyati hisoblanadi. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligini esa, asosan, o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlari boyligi hamda xalqimizning mutoyibaga boy mentaliteti bilan izohlash maqsadga muvofiqdir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Do‘stmatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015. 12-bet





Tomoshabinlarda kulgu qo‘zg‘atuvchi so‘z va qochirimlar, hozirjavoblik va zakiylikni ko‘rsatib beruvchi dialogik va polilogik bahs, so‘z o‘yinlari va hazil-mutoyibaga asoslangan, uzoq yillar davomida xalqimiz hayotiy tajribasi negizida yaratilgan askiyalarda xalq hayotining barcha jabhalari qamrab olinganligi uchun ham mavzu doirasi keng qamrovli bo‘ladi.

Askiyalar orqali tomoshabinlarda kulgu qo‘zg‘atish askiyachining so‘z qo‘llash mahoratiga, so‘z boyligiga, o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan foydalana bilishiga bog‘liq. Askiyalarda ko‘zlangan maqsadga erishish, tomoshabinlarda yengil kulgu uyg‘otish, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq o‘ziga xos talablar bo‘ladi. Bular quyidagilar:

1. So‘z o‘yini vositasida bellashish
2. Payrov mavzusini yoritishda mavzuga doir lingvistik birliklarni, atamalarni qo‘llash
3. Mavzu doirasidan chetga chiqmaslik
4. Hozirjavoblik
5. So‘z o‘yining poetik talablar asosida badiiy va sirli tarzda olib borish
6. Fikrlar izchilligi, mantiqiy bayonga amal qilish
7. Til birliklari yordamida birdan ortiq axborot ifodalash
8. Lisoniy til birliklarining nutqdagi imoniyatlarini ko‘rsata bilish
9. So‘z qo‘llash talabi:
  - a) payrov talabi
  - b) sintaktik talab

Bunda payrov mavzusiga doir atamalarni qo‘llash birlamchi talab (payrov talabi) hisoblansa, tilning grammatik qonun- qoidalariga amal qilib so‘z qo‘llash hamda qo‘shimcha axborot ifodalash ikkilamchi talab (sintaktik, stilopragmatik talab) hisoblanadi<sup>2</sup>. Masalan:

Juda katta qurilish bo‘layotgan joyga komissiya kelibdi. Muhandis u yoqqa, ishboshi- prorab bu yoqqa halloslab choparmish. Yetti-sakkiz quruvchi esa quruq zambilg‘altakni shaldiratib, u yoqdan- bu yoqqa g‘ildiratarmish. Komissiya a‘zolari hayron bo‘lishib, qurilish boshlig‘idan so‘rashibdi.

- Nima ishbo‘lyapti o‘zi?
- Qurilishda qayta qurishni jadallashtiryapmiz, - deb javob beribdi boshliq.

<sup>2</sup> Do‘stmatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015. 35-bet





- Zambilg‘altaklarda yuk yo‘q-ku?!
- Ishlarni tezlashtirganimiz uchun yuklarni ortishga ham vaqt yetmayaptida!

Ushbu askiyada kulgu qo‘zg‘atish bir qancha vositalar yordamida amalga oshgan. Askiya matni an‘anaviy boshlanma va dialogik nutqdan iborat. Ushbu misol qurilish haqida bo‘lganligi uchun qurilish so‘zi birlamchi talab bo‘lib, payrov talabi hisoblanadi. Askiya mavzusini yoritish uchun “Qurilish”, “Qayta qurish” so‘zlari mavzuga doir lingvistik birlik sifatida qo‘llanilgan. Keltirib o‘tilgan misolda hozirjavoblik, mavzudan chetga chiqmaslik, fikr izchilligi, lisoniy til birliklarining nutqdagi imkoniyatlarini ko‘rsata bilish, fikr izchilligi mantiqiy bayonga amal qilish kabi talablarning barchasiga amal qilingan.

Bir odam ig‘vogarlighi tufayli qishloqda otning qashqasidek bo‘lgan ekan. Ko‘chada ketayotgan Afandining ro‘parasidan o‘sha ig‘vogar chiqib qolibdi. Shunda afandining eshagi ketma- ket hangrab yuboribdi. Haligi ig‘vogar afandiga debdi:

- Bu qanaqasi, aytib qo‘ysangiz bo‘lmaydimi? Mening yonimda hangraydimi?
- Birodar, - debdi Afandi, buning tiliga siz tushunmasangiz men tushunmayman.

Shu payt eshak boshini qattiq silkib, haligi odamning basharasiga so‘lagini sachratibdi.

- Aytib qo‘ying, uning ustidan yozib, ta‘zirini beraman!
- E – e, tushunarli, - debdi Afandi, - men emas o‘zingiz ayting, uning tiliga siz tushunar ekansiz. Eshak har holda eshak-da!

Ushbu askiya matnidagi tagma‘no afandi va ig‘vogar o‘rtasidagi dialogik nutq ko‘rinishida voqelangan. Ushbu misolda ham askiyachi so‘z o‘yini vositasida nozik ma‘no ifodalashga harakat qilgan. Afandi ig‘vogar raqibidagi salbiy hislatlarni so‘z o‘yini vositasida eshakka qiyoslash orqali tinglovchida yengil kulgu paydo qiladi. Mavzu doirasidan chetga chiqmaslik, fikr izchilligi, mantiqiybayonga amal qilish, hozirjavoblik kabi talablarning barchasiga amal qilinishi askiyabozning mahoratini ko‘rsatib bergan.

Askiya haqida fikr yuritar ekanmiz yana bir muhim jihatga alohida e‘tior qaratishimiz lozim. Askiya san‘atining asosini badiiy adabiyotdagi iyhom va tajnis san‘atlari tashkil etadi. Askiyada esa ko‘proq iyhom san‘atidagi so‘z o‘yini yetakchilik







qiladi. Ba'zan bu san'at shu qadar murakkablashib ketadiki, uni aytilgani zahoti anglab olish ham qiyin bo'ladi<sup>3</sup>:

Ohunjon qiziqning tanishlaridan biri ko'chada hol-ahvol so'radi.

- Ohunjon aka, ishlaringiz qalay?
- E uka, qalay nimasi, oltin!
- Rostdan-a?
- Ha-da! Qizichilikning reviziyasi bo'lmagandan keyin yomon bo'larmidi?

Keltirgan ushbu misolda ham askiyachi tinglovchilarda kulgu uyg'otish uchun kulgu qo'zg'atuvchi vositalardan foydalangan. Eng ko'zga tashlanadigan jihati esa askiya matnida omonim so'zlarni qo'llash orqali askiyadan ko'zlangan maqsadga erishilgan. "Qalay" so'zi o'zbek tilida qanday?, qanaqa? ma'nolari bilan bir qatorda tabiatda uchraydigan metall nomini ham anglatadi. Askiyada bu so'z dastlab so'roq olmoshi sifatida qo'llangan bo'lsa Ohunjon qiziq nutqida metall ma'nosida qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri bo'lib, tilimizning juda boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib beradigan boy ma'naviy neris hisoblanadi. Eng e'tiborlisi, askiyani o'ylab topish, javob qaytarish, uni tushunib yetish oson emas. Askiyani tushunish, raqibga javob qaytarish uchun o'zbek tilining nozik qirralarini chuqur anglab yetish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zali ijodi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2010
2. Do'smatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015
3. Do'smatov X. Asosi bitta so'zdan iborat askiyalar matni. Farg'ona
4. Boltaboyeva U. Askiya san'atiga bir nazar. Farg'ona: So'z san'ati xalqaro jurnali, 2020

---

<sup>3</sup> Madayev O. O'zbek xalq og'zali ijodi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 90-bet





## Janubiy Qoraqalpog‘istondagi inson tana a‘zolari va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq ayrim laqablar haqida

Erkayeva Gulira‘no. Urganch davlat universiteti

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada antroponomik birlik hisoblangan laqab termini haqida, inson tana a‘zolari va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq laqablar tasnifi, Janubiy Qoraqalpog‘istondagi ayrim laqablar to‘g‘risida ma‘lumot beradi.


**Kalit so‘zlar:** Laqab, ikkinchi nom, ibobiy va salbiy bo‘yoq, tasnif

**Abstract:** This article provides information about the term nickname, which is an anthroponomic unit, the classification of nicknames related to human body parts and appearance, and some nicknames in Southern Karakalpakstan.

**Key words:** Nickname, second name, positive and negative color, classification

Qadimdan odamlarga xarakter xususiyati, kasb-kori, nasl-nasabi, harakatlari, jismoniy kamchiliklari yoki ajralib turadigan alohida belgisiga ko‘ra laqab berilgan. Laqablar doimo ismlar bilan birgalikda aytiladi va bir xil ismli kishilarni bir biridan farqlashga xizmat qiladi. Laqabga o‘zbek tilining izohli lug‘atida esa quyidagicha ta‘rif berilgan: “Laqab[a] -ikkinchi nom; laqab; taxallus]. Biror xususiyatiga ko‘ra kishilarga xazil qilib, masxaralab berilgan qo‘shimcha nom; shuningdek ma‘lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom.” Laqablar dastlab biror kishi yoki bir nechta odam tomonidan biror maqsadni ko‘zlab berilsa-da, keyichalik u shaxsning doimiy ismi bilan qo‘shilib aytiladigan va shu orqali taniladigan bo‘ladi. Ular ba‘zan salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lsa, ba‘zan ijobiy xususiyatlarni ifodalaydi. Masalan, Qo‘qon xoni Olimxonning xalq tomonidan berilgan salbiy bo‘yoqdagi laqabini ko‘rib chiqsak. Is‘hoqxon To‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona” nomli asarida quyidagicha fikrlar bildirilgan: “ Bu Olimxonning laqabi Zolimxon edi. Buning amakisi Hojibekni qatl qilib, ko‘b zulmlar chiqargan ediki, g‘azabindan, zulmidan Zolimxon mashhur va ma‘ruf, munkiri tasavvuf edi. Ma‘a mofihiyi o‘zini mutasharri bilib, ijroi shar‘iddaosi-la ko‘p zulmlar qilur ekan”. Yoki Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qahramoni Miryoqub obraziga har ishni eplagani uchun “epaqa” laqabi berilganligi unga ijobiy xususiyatni yuklagan.

“Laqablarning qo‘yilishi doimo real asosga, motivga ega bo‘ladi. Ayniqsa, bu shaxsning jismoniy kamchiliklari va xarakteri, xatti-harakati bilan bog‘liq laqablarda





aniq ko'rinadi."<sup>1</sup> Janubiy Qoraqalpog'istondagi laqablarni o'rganar ekanmiz, ularni ham qo'yilish sabablari reallikka asoslangan. Bu xususiyatni biz ko'proq tana a'zolari va tashqi ko'rinish bilan bog'liq laqablarda yaqqol uchratishimiz mumkin. Bunday turdagi laqablarni o'z navbatida bir nechta tasnifga ham ajratishimiz mumkin:

Insonning tanasini rangi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qora yoki, oq, sori, malla;*

Insonning ko'zi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qiytar, ko'r, so'qir;*

Insonning sochi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *kal, jingalak, malla, takiz;*

Insonning gavdasi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *dobbi, samiz, lo'ppish, tumaloq, shlanka, tayoq, qoq, gurji, kalta pakana, qiyshiq;*

Insonning yuzi yoki bosh qismi bilan bog'liq bo'lgan laqablar: *qosh, puchuq, yalpoq, ko'sa, shalpan;*

Insonning tanasi rangi bilan bog'liq bo'lgan laqablar asosan ular boshqalardan shu xususiyati bilan ajralib turganda beriladi. Janubiy Qoraqalpog'istondaagi odamlarning deyarli barchasi bug'doy rangdagi odamlardir va ular juda oq ham emas qora ham emas. Shu sababli oq, sariq yoki qora rangdagi odamlar uchrab qolsa, ularga shunday laqablar beriladi. Qora rangli odamlarga asosan *qora, qoravoy, negr* laqablarini berish odatiy holga aylangan va ikkita bir xil ismlilarni shunday laqab bilan ajratishadi. Bu laqablar ko'pincha masxaralash yoki xazil tariqasida aytiladi. *Oq va sori* laqablari ko'proq ijobiy ma'noda qo'llanib faqat ikki odamni farqlashga xizmat qiladi: *Sotim qora, oq Asad, qora Asad, Zuhra sori*

Insonning ko'zi bilan bog'liq bo'lgan laqablardan biri *qiytar(g'ilay)*- qaraganda ko'z qorachilari bir tomonga yo'nalmaydigan, to'g'ri qaray olmaydigan, ko'z soqqasi qiyshiq o'rnashgan. *Jonibek qiytar*. Ko'rish qobliyatini yo'q odamlarga nisbatan *ko'r, so'qir* laqablari odamlarni bir biridan ajratish uchun qo'llandsa-da, ba'zan bu laqablar masxaralash va xazil sifatida ham ishlatilishi mumkin. Sababi ko'z oldida turgan narsasini topa olmaydigan odamlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatlarga ko'p tushadigan odamlar shunday laqablar bilan "siylanadi".

Insonning sochi bilan bog'liq bo'lgan laqablar asosan soch rangi, tekis yoki noteksligi, soch miqdoringing kam yoki ko'pligiga qarab beriladi. *Kal* laqabi sochi butunlay yoki qisman to'kilib ketgan odamlarga nisbatan qo'llanadi: *Hasan kal, Ortiq*

<sup>1</sup> E. Begmatov. O'zbek tili antroponomikasi. T.: Fan, 2013






*kal*. Sochi o'ta tekis bo'lgan odamlarga nisbatan *takiz* laqabi qo'llanadi va bu laqab avloddan avlodga ham o'tgan. Chunki bunday genetik belgilar meros bo'lib o'tishi tabiiy holatdir. *Samandar takiz*. Jinalak laqabi ham aynan shunday xususiyatga ega: *Mohira jinalak*. Soch rangini bildiruvchi laqablardan biri bo'lgan *malla* laqabining ma'nosini ba'zi odamlar sochga nisbatan qo'llangan deyishsa, ba'zilar tananing rangiga nisbatan qo'llangan degan fikrni aytishadi. Bu laqabga mansub kishilarning ko'rinishi yo qora emas yo sariq emas. Shu sababdan bu ikki rangning aralashmasi bo'gan malla rangi asos qilib olingan. Ularning sochlari malla rangda va bunday xususiyat laqab sifatida berilishiga xizmat qilgan.

Insonning gavdasi bilan bog'liq bo'lgan laqablar boshqalariga nisbatan salmoqlidir. Ko'pincha semiz odamlar kuguga olinib *samiz*, *dobbi*, *do'bbon*, *lo'ppish*, *tumaloq* kabi laqablar bilan nomlanadilar: *Mammat dobbi*, *Jahongir lo'ppish*, *Otavoy tumaloq*, *Olim samiz*. Ozg'in odamlarga nisbatan esa *qoq*, *tayoq* kabi laqablar berilgan. Tayoqdek ozg'in odam bo'lganligi uchun tayoq laqabi berilgan bo'lsa, qoq laqabining qo'yilishida ikki xil qarash borligini ko'rishimiz mumkin. Qoq laqabiga mansub kishilar haqiqatda oriq, yuzlari xuddi qoq(turshak)dek eti yo'q odamlardir. Lekin bu laqab haqida yana bir qarash bor, hech bir insonni befarq qoldirmaydi. Qoqlarning ota-bobolari shunchalik ziqna bo'lishgan ekanki, bir bo'lak go'shtni bir yil davomida ovqatga solib, yemasdan quritib qo'yib yana keyigi safar ovqat pishirganda qaynatib olib olib qo'yisharkan. Xalq orasida go'shtni quritib yeyish holatlari bor bo'lgan ammo bir bo'lak go'shtdan bu darajada uzoq vat hech kim foydalanmagan ekan. Shu sababdan ham ularga *qoq* deb laqab qo'yishgan bo'lishlari mumkin. Bo'yi past odamlarga nisbatan berilgan laqablar ham qiziqarlidir. Masalan, *gurji* laqabini olaylik. Bu so'zning ma'nosi it zotlaridan biriga borib taqaladi. Bo'yi past kichkina itlarning turi shunday ataladi va bu kichkina, past bo'yli odamlarga laqab qo'yilishiga asos bo'lgan. Bunday turdagi laqablarga *pakana*, *kalta* laqablarini ham kiritishimiz mumkin. Inson gavdasi bilan bog'liq bo'lgan laqablardan yana biri *qishiq*. Bu laqabdagi odamlar bir tomonga qiyshayib yurganligidan shunday laqab olishgan. *Og'abek qishiq*.

Insonning bosh qismi va yuzi bilan bog'liq bo'lgan laqablar ham talaygina. Misol sifatida qosh laqabini olishimiz mumkin. *Qosh* laqabli odamlarning ta'kidlashicha, qadimda ularning ota-bobolari dehqonchilik bilan shug'illanishgan va har doim o'ziga to'q yashashgan, ko'p oziq-ovqatlarni zaxiraga qo'yishadigan kishilar bo'lishgan. Eng ahamiyatli jihati ularning qoshlari qalin va uzun bo'lgan. Ammo ularni qosh deb





atashlariga boshqa bir sabab bor. Bir yili xalq boshiga ocharchilik tushadi, bunday payda ular saxiylik qilib barchaga o'z'lari g'amlab qo'ygan oziq-ovqatdan, nonlardan ulashadi. Ular g'amlagan oziq-ovqat shunchalik ko'p ekanki, ocharchilik tugab, bahor kelguncha hammaga yetgan ekan. Shunda odamlar aytishadiki, bu odamlar bizni qoshlar tomimizni tutib turgandek, bizni ocharchilikdan saqlab qolganlardir, deb ularni qosh laqabi bilan chaqira boshlashgan. Qosh - bu binolarning devor qismining yuqori joyiga qo'yiluvchi va tomni ushlab turish vazifasini bajaruvchi yog'ochdir. Ovshandan beri bu odamlarning avlodlari qosh laqabi bilan ataladi. *Yalpoq* laqabining kelib chiqish tarixi aynan qaysi davrga tegishli ekanligi ma'lum emas. Ammo shu narsa aniqki, bu laqabga mansub odamlarning bosh qismi orqasi tekis tushgan yoki yassi. Bu odamlarning bunday laqab bilan atalishiga saosiy sabab sifatida faqatgina ularning avlodlarining bosh qismi ham ajdodlariniki singari bo'lganligidandir. Ammo bugungi kunga kelib yalpoq laqabi bilan ataluvchi odamlarning hammasi ham bunday ko'rinishga ega emas. *Ko'sa* laqabli insonlarni ham hayotimiz davomida ko'p uchratamiz. *Ko'sa* soqol-mo'ylovi juda siyrak yoki butunlay yo'q, chiqmaydigan<sup>2</sup> degan ma'noni anglatadi. *Arka ko'sa*. Yuz bilan bog'liq laqab bo'lgan laqablardan *puchuq* asosan kichkina bolalarga nisbatan erkalash ma'nosida qo'llanganiga qaramay, kattalarda ham uchraydi. *Puchuq* qanshari past, burni yassi, yopishgan, kichik yoki shikastlangan<sup>3</sup> ma'nosini anglatadi. *Manzura puchuq*.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Janubiy Qoraqalpog'istondagi inson tana a'zolari va tashqi ko'rinishi bilan bog'liq bo'lgan laqablar salmoqli va ularning tasnifini yanada kengaytirish mumkin. Laqablarni ular uchun asos bo'lgan motivga (tasodifiy hodisa, shaxsda mavjud bo'lgan nuqsonlar va ijobiy fazilatlarga) ko'ra tasnif qilinishi u<sup>4</sup>yoki bu tildagi laqablar lug'aviy nominativ tarkibini laqablarda ifodalangan milliy-ruhiy jarayonni aniqlashga yordam beradi.


#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. Begmatov. O'zbek tili antroponomikasi. T.:Fan, 2013
2. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona. T.: Ma'naviyat. 2005
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ziyouz.com

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. K harfi. Ziyouz.com

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. P harfi. Ziyouz.com

<sup>4</sup> E. Begmatov. O'zbek tili antroponomikasi. T.:Fan, 2013





ISSN (E): 2181-4570

**O‘zbek xalq maqollarida vatan mavzusi.****Otaboyeva Nodira Baxtiyor qizi.****Urganch davlat universiteti magistri.****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada vatan mavzusiga oid bo‘lgan maqollar va ularning izohi haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** hikmat, zarbulmasal, dono xalq, manmanlik, jamiyat, aql va zakovat, yaxshilik.

**ABSTRACT**

The article discusses some proverbs about homeland that people are use everyday and given several example of proverbs.

**Key words:** wise, parable, wise nation, arrogance, society, mind and consciousness, kindness.

Maqollar o‘zbek xalq ijodining eng qadimgi namunalaridan biri hisoblanib, asrlar osha xalqimizning hayotiy tajribalarini va bilimlarini ixcham shaklda namoyon etadi. XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asariga maqollar, qo‘shiqlar, rivoyat va boshqa janrga mansub asarlarni kiritdi.<sup>1</sup> Shuni ta’kidlash joizki, dala sharoitida yozib olingan ijod namunalarida bizning ajdodlarimiz ham qatnashgan. Ulug‘ rus yozuvchisi Tolstoy maqollar inson ruhiy dunyosini aks ettishi haqida mamniyat bilan to‘xtalib: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko‘raman.”<sup>2</sup> deya qayd etadi. Maqollarda so‘z qimmatini alohida ahamiyatga ega. Chunki maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish yoki biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular har bir xalqning ijodi o‘z qolipiga egadir.

Ya’ni bu janr dunyodagi barcha xalqlar og‘zaki ijodida mavjud. Vaqtlar osha maqollar ham sayqallanib mavzu doirasi kengayib borgan. Filologiya fanlar doktori, professor X.G.Ko‘r Safaviylar davrida turkiy maqollar to‘plangani, biroq bu majmuaning bizgacha yetib kelmagani haqida ma’lumot bergan<sup>3</sup>. Xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Maishiy hayotimizdagi kichik tasvirdan tortib, katta lavhalar maqollarda o‘z aksini topadi.

<sup>1</sup> Madayev.O “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”T.:”Mumtoz so‘z” 2010.

<sup>2</sup> Imomov Q, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq poetik ijodi. T.: O‘qituvchi,1990.

<sup>3</sup> Mallayev.H.M.”O‘zbek adabiyoti tarixi” T.:O‘qituvchi.1971.





ISSN (E): 2181-4570

Quyida ona vatan haqidagi maqollarga to'xtalib ularni izohlashga harakat qilamiz:

*Har gulning o'z isi bor, Har elning o'z tusi bor.*

Ushbu maqollar izohiga to'xtalsak: har bir vatanning o'ziga hos belgilari haqida fikr bildirilgan. Shohlardan biri Samarqand nonini o'zga hududda tayyorlash uchun nonvoyga barcha shart-sharoitlar yaratadi. Lekin nonvoy Samarqand havosini so'raydi. Xulosa shuki, vatan undagi narsalar yagonadir.

*Badqavm bo'lsang bo'l, Beqavm bo'lma.*

*Betkay ketar, bel qolar, Beklar ketar, el qolar*

Bu maqolda esa insoni albatta eli bo'lishi kerakligi aytilgan. Dunyodan qancha insonlar o'tadi lekin ularning ortida ular yaratgan el, avlod qoladi. Chunki har kim o'z elida azizdir.

*O'z yurtningning qadri o'zga yurtda bilinar.*

*Begona tuproq – devona tuproq.*

*Har shaharning havosi boshqa.*

Bu maqollarda begona joy hech qachon o'z yurtningdek bo'la olmasligiga ishora mavjud. Ko'pchilik insonlar boylik yoki yaxshi hayot ortidan quvib o'zga ellarga ketishadi. Fikrimcha o'zga yurtning sim-u zaridan o'z yurtimizning tuprog'i yaxshiroqdir. Hech bir narsa vatanimizdagi tinchlik va farovon hayotga teng kelolmaydi.

*Vatangado bo'lguncha, Kafangado bo'l.*

*Vatanni sotgan er bo'lmas.*

Ushbu maqollarda vatanni sotgan inson hech qachon odamlar qatorida yashay olmasligiga ishora bor. Rivoyatlarga ko'ra Marg'iyona shahrini qo'lga olmoqchi bo'lgan dushmanlar davlat xaritasini olib kelganga insonga katta mukofat va'da qiladila. Malikaning ochko'z kanizlaridan biri shahar xaritasini o'g'irlab dushman





ISSN (E): 2181-4570

qo‘liga topshiradi va malika bo‘lish istagi borligini aytadi. Bosqinchilar podshohi esa o‘z yurtini sotgan kanizakni ko‘zlarini o‘yib oladi. Kanizak shu tarzda “mukofotlanadi”

*Vataning tinch-sen tinch.*

*Vatanning vayronasi-Umrning g'amxonasi.*

Bu maqollar esa vatanni doim qadrlash va uni saqlashga undaydi. Chunki tinchlik bor yurt kundan kunga obod bo‘lib boraveradi. Shy tinchlikka har birimiz hissa qo‘shib yashash barchamizning burchimizdir.

*Bulbulga bog' yaxshi,*


*Kaklikka tog'.*

*Vatansiz inson – kuysiz bulbul.*

Bu maqollar esa har kimni vatanni sevishtga undaydi ya'ni bulbul chamanda yayrasa inson vatanida yayraydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, o‘zbek xalq maqollaridagi vatan mavzusining o‘rni va ahamiyati kattadir. Vatanni qadrlab uni asrash esa barchamizning burchimiz hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”.T.:O‘zbekiston,2018.
2. O‘zbek tili va adabiyoti. T.:Fan,1997.
3. Tafakkur gulshani. T.: G‘G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.1981.
4. B.Safarov, K.Mirzayev “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi”. T.:O‘qituvchi,1990.







ISSN (E): 2181-4570

## Gavhar Ibodullayeva she'rlarida okkazinalizm va shevaga xos so'zlarning ishlatilishi

To'liboyeva Sabohat Davronbek qizi  
Urganch davlat universiteti magistranti

### Annotatsiya

Ushbu maqola Gavhar Ibodullayeva she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ijodkorning okkazional, shuningdek, shevaga xos so'zlardan foydalanish mahorati, uning ijodi va tilining o'zbek adabiy tili rivojidadagi o'rnini belgilash masalasi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, okkazional so'zlar, shevaga xos so'zlar, so'z boyligi, til boyligi

### Abstract

In the article, the occasional dialect words of Gavkhar Ibadullayeva are analyzed from point of view of linguapoetics and it is spoken about determine the place of the poet's work and language in literary uzbek.

**Key words:** Lingua-poetics, occasional words, dialect words, language as wealth

O'zbek adabiyoti boy ma'naviy merosga ega bo'lib, ushbu meros na'munlarini lisoniy tadqiq qilish, har tomonlama chuqur o'rganish, ichki ma'no noziklarini tahlil qilish bugungi tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganidek „Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat na'munalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar.“<sup>1</sup> Ushbu merosni saqlash, o'rganish va tadqiq qilishda Prezidentimizning quyidagi yorqin fikrlari diqqatga sazovordir: „Shuningdek, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz daskor“

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki davlatimiz rahbarining bu aytayotgan fikrlariva qo'yayotgan talablari yosh, barkamol, kitobxon shaxs, har tomonlama yetuk, mustaqil, erkin fikrlovchi, vatanparvar, fidoyiavlodlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy olamini yanada boyitishni maqsad qilgan. Bunday ezgu maqsadni amalga

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi „O'zbek tilining davlat tilisifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirkari to'g'risidagi “ Farmoni.





oshirishda esa eng avvalo, tilning, til va adabiyot birligi natijasida yuzaga kelgan badiiy matnning ro'li nihoyatda katta.

Biror-bir badiiy asar yoki she'riyat durdonasi yaratilar ekan, yozuvchi yoki shoira o'z fikrlarini, falsafiy qarashlarini ifodalash uchun so'zdan foydalanadi. Ma'lum bir badiiy durdonaning butun bir nafosati, jilosi so'zlar yordamida bunyod bo'ladi. Turli xil so'z shakllaridan, tasviriy ifodalardan va shu kabilardan foydalanish natijasida individual nutqiy butunlik- badiiy matn yuzaga keladi. Tayyor bo'lgan badiiy asar ya'ni badiiy matnni keyinchalik turli xil aspektlardan o'rganish yozuvchi yoki shoira badiiy mahoratini, so'z qo'llash mahoratini, o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Gavhar Ibodullayeva Inoyatovna o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri, taniqli shoira, Yangibozor elimizning jonkuyar, fidoyi farzandalridan biri. U yoshligidan ijod bilan shug'ullanib keldi. Talabalik davrlaridayoq Respublika yosh ijodkorlarining Do'rmonda o'tkazilgan birinchi seminarida ishtiroki davomida adabiyot namoyondalarining nazariga tushgan edi. 1994-yildan O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi a'zosi. She'rlari va badiiy publitsistik maqolalari „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“, „Kitob dunyosi“, „Turkiston“, „Ma'rifat“, „Toshkent oqshomi“ gazetaleri, „Saodat“, „Sharq yulduzi“, „Tafakkur“, „Yoshlik“ jurnallarida muntazam yoritib borilgan, „Uch tomir“ (1989), „Muborak kunlar“ (1995), „Ellik navo“ (2001), „Shovot mavjlari“ (2003), „To'maris izdoshlari“ (2005), „Xorazm ohanglari“ (2010), „Onajon“ (2011), „Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida“ (2014), kabi to'plamlar, „O'zbek adabiyoti antalogiyasi“ (2013) dan o'rin egallagan. Shoira qator she'riy to'plamlarida insoniyatning, o'zbek xalqining nozik va nafis his-tuyg'ularini, matonatini, vatanparvarligini jamiki ezgu fazilatlar ufurib turgan shijoatini g'oyatda go'zal tashbehlariga slogan holda tarannum qilgan. Uning „Qutlug' so'zlar“, „Bir vujud sog'inch“, „Yuragimda yashayotgan sir“, „Vatan siyrati“ nomli she'riy to'plamlari o'zbek adabiyotining eng nodir durdonalaridir.

Gavhar Ibodullayeva davlatimizning „Shuhrat medali“ (1997), „O'zbekiston belgisi“ (2000), „El-yurt hurmati ordeni“ (2003), „Mustaqillikning 20 yilligi“ (2011) esdalik nishoni va 2016-yilda „O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi“ faxriy unvonlari bilan taqdirlangan.

Gavhar Ibodullayeva she'riyati tilida poetik takrorlar, tasviriy ifodalar, ko'chimlar, troplar, individual okkazonalizmlar, sinonimik, antonomik qatorlarning





o'ziga xos tarzda ifodalanishi mazmunning aniq va yaqqol tushunilishini ta'minlagan. Ayniqsa shoira ijodida qo'llangan shevaga xos elementlar uning yaratgan badiiy durdonalarini xalq tiliga, uning qadim o'tmishiga nihoyatda yaqinligini, unig bor dardini, quvonch-u tashvishini ko'rsatib berishga mukammal tarzda xizmat ko'rsatgan.

Bizdan o'tdi bahorlig'  
Sizdan xazon o'tmag'ay  
Bizdan o'tdi ohorlig'  
Sizdan to'zon o'tmag'ay  
Shifolig' bizdan o'tdi  
Darmon sizdan o'tmag'ay  
Safolig' bizdan o'tdi  
Imkon sizdan o'tmag'ay.

Ushbu misralarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, bahorlig', ohorlig', shifolig', safolig' so'zlarida – lig' ya'ni –lik ot yasovchi qo'shimchasining tarixiy variant qo'llangan va uning badiiy –estetik vazifasi tarixiy davr milliy kaloritini qo'llash orqali mazmunning ta'sirchanligi yanda ortgan.

Getma diysiz, boshqa so'zni oytmisiz,  
Monga bir gapingiz boro o'xshidi.  
Keynimnan qolmiysiz, iza qoytmiysiz,  
Bu xo'vpli yo'limiz doru o'xshiydi.  
Go'vinni oqini gizlab nishiysiz.  
Rasmi tozo yog'g'on qoro o'xshiydi.  
Dardni icha yutib nichik yoshiysiz?  
Gunlar galar-getar , yoro o'xshiydi.

Tilda so'zlarning qo'llanilishi bir xil darajada emas. Qo'llanilish doirasi jihatidan o'zbek tili leksikasi ikki xil bo'ladi: 1. Umumiste'mol leksikasi ( iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika) 2. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.

Iste'mol doirasi chegaralangan leksika 3xil bo'ladi.1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar. Dialektal leksika ma'lum hududda qo'llanilib shu hudud aholisi uchungina tushunarli bo'lgan so'zlar, sheva so'zlariga aytiladi. Bunday so'zlar dialektalizmlar deb ham yuritiladi. Sheva so'zlari adabiy tildan 3 xil xususiyatiga ko'ra farqlanadi: a) fonetik xususiyatiga ko'ra: aka-oka, bola-bolo, dada-doda, kovush-govush. b)leksik xususiyatiga ko'ra yong'oq- g'o'z, buzoq-





o‘jak v) grammatik xususiyatiga ko‘ra: oshni-oshti, kelyapti-kevotti, bobomga-boboma.<sup>2</sup>

Yuqorida keltirilgan she‘riy parcha ham o‘zbek o‘g‘uz lahjasining eng yorqin na‘munasi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Gavhar Ibodullayeva sheva elementlaridan shu darajada mahorat bilan foydalanganiki, ifodalanmoqchi bo‘lgan mazmun, fikr o‘quvchiga to‘liq tushunarli ravishda ifoda qilingan. Shoira fonetik dialektizmlardan juda maromida foydalangan. Masalan, Getma- Ketma, oytmiysiz-aytmaysiz, mongo- menga, boro o‘xshiydi- borga o‘xshaydi, qolmiysiz- qolmaysiz, qoytmisiz- qaytmaysiz, xo‘vpli-xavfli, dorod-dorga so‘zlari o‘g‘uz lahjasining dialektizmlarining badiiy matnda qo‘llanilishi ifodalanmoqchi bo‘lgan mazmunning nihoyatda ta‘sirli, tushunarli bo‘lishini ta‘minlagan.

Gavhar Ibodullayeva o‘zining she‘rlarida turli-tuman individual okkazionalizmlardan juda ustalik va o‘zgacha mahorat bilan foydalangan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiqki, bunday okkazionalizmlarni qo‘llash shoirning yuksak mahoratidan darak beribgina qolmay, o‘zbek tilimizning ham ajoyib durdonalar bilan boyishiga imkoniyat yaratib beradi.

Okkazionalizm- individual tarzda yaratilgan va individual ma‘noga ega bo‘lgan til birligi.<sup>3</sup> Shoira ijodidagi okkazional so‘zlarni ko‘rib o‘tsak.


Nechuk toledur bu, nechuk sinoat,  
Mehriston unmoqda qaroqlarimda  
Ko‘nglim o‘sib borar daraxt misoli  
Sog‘inch kaft yozadi yaproqlarimda.

Ushbu misralardagi mehriston so‘zi shoira ijodi individual okkazionalizmi hisoblanadi. Mehriston ya‘ni o‘rin-joy otini hosil qiluvchi qo‘shimcha bilan yangi so‘z hosil qilgan. Mehrga, muhabbatga limmo-lim joy ma‘nosida bu so‘z badiiy matnda ishlatilgan va mazmunning yanada ta‘sirchan bo‘lishini ta‘minlagan.

Ikki yoq boshlanar bardosh xuruji,  
Shodlik talosh bo‘lar, qoldig‘i alam  
Kiyib etaktoshli ro‘dapo ko‘ylak  
Izdan ta‘qib etar yalmog‘iz kulfat.

<sup>2</sup>Xolmonova Z. T. T.: -2007 100-bet

<sup>3</sup>O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: - O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008





Bu misralarda etaktoshli soʻzi yangi shaxsiy noyob, yaratiq hisoblanadi. Soʻz dastlab soʻzlari qoʻshish orqali hosil qilingan, keyin unga sifat hosil qiluvchi –li affiksi qoʻshilib yaʼni morfologik yoʻl bilan yangi soʻz yaratilgan. Ushbu soʻz keyingi misrada kelayotgan yalmogʻiz kulafga nisbatan qoʻllanilgan. Yaʼni yalmogʻiz kufat etaktoshli, ogʻir koʻylak kiyib olib oshiqni tinmay taʼqib qiladi. Vaholanki u yetib olsa oshiq oʻz koʻzlagan maqsadiga yetib bora olmaydi. Etaklari toshga toʻla koʻylak kiygan kulfat unga bor yuki, toshlari bilan unga toʻsqinlik qiladi. Shoiraning ushbu tasvir mahorati, obraz yaratish isteʼdodi nihoyatda goʻzal.

Bu sandiq ichida bir qiz uxlaydi,  
Jang-u talashlardan omon qolgan –ishq  
Lablari bir qatra dilsuv tilaydi  
Sochlari taratar anabrinu-u mushk.

Bu misralarda ham dilsuv soʻzini sintaktik usul yaʼni soʻzlarni bir-biriga qoʻshish orqali individual okkazianalizm yuzaga keltirilgan. Koʻplab sinovlarni boshidan oʻtkazgan ishq bu yerda qizga qiyoslanmoqda. Uning madori yoʻq, lablari bir qatra dilsuv xohlaydi. Dilsuv bu dildagi muqaddas, muazzam obihayot. Shu alohida taʼkidlab oʻtish kerakki, okkazional soʻzlar badiiy matnda, kontekstda boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda uning asl maʼnosi seziladi, anglashiladi.

Nargizlanib, nilufarlanib,  
Bodrab yotar koʻksimda sogʻinch.  
Oyoqlaring quchib yiqilgay  
Necha faryod, necha ming nolinch

Yuqoridagi keltirilgan toʻrtlikda ham individual okkazianalizmlar qoʻllanilgan. Nargizlanib, nilufarlanib soʻzlari shunday soʻzlar sirasiga kiradi. Nargiz, nilufar guli boʻlib koʻksimda sogʻinchga toʻla demoqchi shoira. Yuragidagi sogʻinch shu darajada jozibaliki uni shu gullarga oʻxshatgan holda –lan feʼl yasovchi affiksi yordamida yangi poetik durdona hosil qilgan. Bu holat esa sogʻinchning naqadar kuchli, shiddatli ekanligini, uning mazmuni oʻquvchi shuuriga nechogʻlik yaqin ekanligini yaqqol isbbiyotlarotlagan.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki Gavhar Ibodullayeva sheʼrlarini lingvipoetik jihatdan tahlil qilish shuni koʻrsatadiki , dialektizm va individual okkazionlaizm vositalaridan mohirona foydalangan, oʻziga xos, orginal uslubni yarata olgan. Bu esa uning sheʼrlari tilida yaqqol koʻzga tashlanadi, shu sababli Gavhar



ISSN (E): 2181-4570

Ibodullayevani o‘zbek adabiy tilini, jumladan, poetik nutqni boyitishda muayyan iz qoldirgan shoira sifatida baholash mumkin, degan xulosaga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G. Ibodullayeva. Yuragimda yashiringan sir. T.: Akademnashr,2012
2. Z. Xolmonova. Tilshunoslikka kirish. Toshkent-2007
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi,2008



## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОЙ ЗАИМСТВОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В УЗБЕКСКОМ И ТАДЖИКСКОМ ОФИЦИАЛЬНО-ДЕЛОВОМ ДИСКУРСЕ.

преподаватель Денауского института предпринимательства и  
педагогике Орипова Сарвиноз Нарзуллоевна

Студентка 3 курса кафедры английского языка и литературы  
Янгибоева Муштарийбону Шоймардон Кизи

**Аннотация:** Как и в лексике того или иного языка, в его терминологической системе также различают исконный и приобретенный пласты. Хотя терминологические пласты не существуют как отдельные системы в общественном сознании, такое положение обусловлено тем, что они находятся в вариативных, синонимичных, омонимических и, тем более, паронимических отношениях, и в то же время предъявляется требование точности лексических, стилистических и фразеологических терминов. , особенно показывает, что существует ряд проблем, таких как то, что усвоение термина часто субъективно и индивидуально в отличие от универсальной лексики.

**Ключевые слова:** английский язык, грамматика, язык, словарь, слово, предложение.

Это также является причиной появления фальсификаций в форме, значении и грамматических характеристиках присвоений, путаницы, неопределенности и других негативных ситуаций. Поэтому важно серьезно изучить эти дела, решить возникшие проблемы, добиться терминологического совершенства. Лексическая единица – это слово, словосочетание или другая единица языка, которые могут обозначать предметы, события, их признаки и т. Лексическая единица — смысловая единица, простое или сложное понятие слов, выраженное одним словом или словосочетанием, ни одно из которых не может быть опущено без изменения значения этой единицы Упорядоченный набор называется словарем. Область теоретических и практических принципов лексикографии называется лексикографией (от греч. lexicon — словарь и grapho — писать). Специалисты, которые составляют словари, называются лексикографами. Задачей лексикографии является разработка принципов и методики создания словаря, организация работы лексикографов, создание, систематизация и ведение учетных карточек, служащих основой для создания словаря Использование является






важным фактором расширения человеческого знания, увеличение словарного запаса и правильное и беглое выражение мыслей. Во второй половине 20 века и начале 11 века подходы к изучению узбекских и английских словарей находят свое отражение в трех направлениях, которые мы выбрали для решения задач. Если словари несколько консервативны, они сами определяют свои достоинства и недостатки. Потому что, как писал И. Р. Гальперин, «лексикография должна включать в себя все то, что живет в языке, который не утратил своей силы, ценности и способности к употреблению в речи, а также недавно родившаяся, живая и устойчивая *lib* может отражать все новое которые вышли». Ряд глаголов, стандартных в написании, в произношении оказываются глаголами вариативного парадигматического оформления. Например, наклонился /одолжил/ у /li:nd/, прыгнул - /lept/ у /li:pt/, выучил - /ld:nt/ у /ld:nd/, приснился - /dremt/, /drempt/ у /dri:md/ может произноситься. При анализе произносительных словарей отчетливо видно, что существуют нестандартные парадигматические формы лексических единиц. Потому что нестандартные орфографические формы произносятся только как «нестандартные», а стандартные орфографические формы произносятся как «стандартные», так и «нестандартные» в английском языке. Это особенно заметно в английском языке с американским акцентом. Как показывают эти примеры, существуют степени дисперсии, которые не носители языка могут четко обнаружить в английском языке с помощью лексикографического анализа, так как эта особенность отражена в письменных текстах. Не найдет, но обнаружит. можно анализировать в устной речи. Вторая область, где необходимо изучение словарного запаса, — это изменения словарного запаса и семантического анализа в больших и малых временных рамках. Например, из истории можно наблюдать, что новые слова и значения были разработаны путем изучения словарей неологизмов разных лет издания и различных опубликованных современных толковых словарей.

Новые слова, как показано

- 1) слова, первоначально зафиксированные в словарях, длительное время сохраняются в своих первоначальных значениях;
- 2) слова развиваются семантически и стилистически;
- 3) может постепенно отойти на языковую периферию или уйти из словаря;








4) испытывает напряжение в употреблении, продолжается в языке, переходит в историзм, а также пересматривается метафорически.

С середины 20 века были получены словари английских неологизмов, а в начале 21 века - толковые словари английского языка. Например, в «Словаре новых слов» указано, что слово «Смог» было зарегистрировано как неологизм в 1955 г. и сохранило те же значения в 2005 г. («загрязненный воздух, представляющий собой смесь дыма и тумана» — 1955 г. [Там же. ] и «загрязненный воздух, представляющий собой смесь дыма и тумана»-2005, можно увидеть из аналитических примеров, которые в основном дают следующие значения. "туман, особенно в городах" также приводится в предложении. В качестве аналогично определяемого неологизма в словаре Мэри Рейфер 1955 года приводится также пример аббревиатуры VIP. Словоформа, считая таким образом, необходимо учитывать тот факт, что семантическая структура з и употребление их в речи различны в разных языках. Например, в третьем международном новом словаре английского языка Вебстера слово «глаз» в аннотированном словаре 20 узбекских языков (2006 г.), русском а в словаре языка (1981 г.) показаны важные значения слова «глаз». В английском и узбекском языках союзные слова образуют различные искусственные слова: очки, глаз свидетель, глазастый, безглазый, закрыть глаза, на глаза, в глаз пироги. Видно, что соответствующие слова в двух языках могут иметь сходные и разные аспекты по значению, валентности и сфере применения. Известно, что лексические единицы и фразеологические единицы являются языковыми единицами, составляющими словарный запас языка. Считается. Они готовы говорить как языковая единица.


#### **Резюме:**

Также лексические единицы в каждом языке имеют свои языковые особенности. Но во всех языках языковым богатством служат лексические и фразеологические единицы. Многозначные фразеологизмы служат для обогащения лексического состава языка и речи и воплощают в себе значения эмоциональной окраски. Поэтому мы должны уметь правильно использовать лексические и фразеологические термины при переводе. Только так мы сможем добиться больших успехов в области лексикографии и перевода.



**Использованная литература:**

1. www.ziyonet.uz[1]
2. Zuparova, S., Shegay, A. (2021). Methods of Teaching Foreign Languages. Eastern European Scientific Journal, 1(7), 141-143.[2]
3. Djurayeva, Y., Ayatov, R., & Shegay, A. (2020). Current Problems and Resolutions of Teaching English Grammar. Academic research in educational sciences, 1(3).[3]
4. SPECIFY HOW LEXIS IS GROUPED. M Bo'ronova, G Mirzayeva, Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2022 [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Ja\\_3scYA AAAJ&citation\\_for\\_view=Ja\\_3scYAAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Ja_3scYA AAAJ&citation_for_view=Ja_3scYAAAAJ:d1gkVwhDpl0C)
5. Djurayeva, Y., Ayatov, R., & Shegay, A. (2020). Current Problems and Resolutions of Teaching English Grammar. Academic research in educational sciences, 1(3).[4]
6. Islomovich, S. E. (2023, May). THE ROLE OF QUANTUM COMPUTERS IN THE DEVELOPMENT OF QUANTUM ALGORITHMS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 05.05, pp. 557-563).
7. Nurmatov, ZO, Tursunpulatova, KA, & Nasriddinova, ZN (2023, May). THE ROLE OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. In International Conference on Science, Engineering & Technology (Vol. 1, No. 1, pp. 99-103).
8. Ziyatovich, M. F., & Islom o'g'li, X. S. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA UNING TA'LIM SOHASIGA ALOHIDA MUHOJAT QILGAN HOLDA TURLI SOHALARDAGI QAMROVI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(3), 16-19.
9. Nurmatov, ZO, Chorshamiyeva, ON, & Pirmova, F.A. (2023). TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI. Social Sciences in the Modern World: Theoretical and Practical Research , 2 (7), 12-18.
10. Islomovich, S. E. (2023, March). MAVZU: ELEKTRON RAQAMLI IMZO VA BULUT TEXNOLOGIYALARI: FOYDALANISH MASALALARI TAHLILI. In



Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 2, No. 3, pp. 31-34).

11. Shamsiddinovich, MR, & Obidjonovich, ZN (2021). Advantages and Improvements of E-Textbook Teaching of Computer Science in General Secondary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES , 2 (12), 71-74.

12. Yakubov, S. Kh., Khamraev, A. A., Khushbokov, I. U., & Nurmatov, Z. O. (2022). CAD ALGORITHMIZATION FOR OPTIMIZATION OF THIN-WALL ELEMENTS OF ENGINEERING STRUCTURES. Universum: Engineering Sciences , (11-1(104)), 53-59.



ISSN (E): 2181-4570

## Globalashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarda tarbiyaga ta'siri

*Normurotova Aziza Karim qizi*

[azizanormurodova68@gmail.com](mailto:azizanormurodova68@gmail.com)

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**

**Boshlang'ich ta'lim kafedrası 2-kurs magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globalashuv jarayonlari hamda uning tarbiyaga ta'sir etayotgan salbiy oqibatları haqida so'z borildi. Yoshlar ma'naviyatiga qaratilgan tahdidlarni oldini olish, mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritildi

**Abstract:** This article talks about the processes of globalization and its negative consequences affecting education. They discussed ways to prevent threats to the youth's spirituality and eliminate existing problems

**Kalit so'zlar:** global, axborot, ma'naviyat, g'arblashgan, tahdid, mafkuraviy immunitet, g'oya, ommaviy ma'daniyat, tarbiya, ijtimoiy tarmoq, internet, boshlang'ich sinf.

**Krish:**

Zamon shiddatli sur'atda rivojlanib borar ekan, har sohada ildam zamonaviylashib borayotgan jarayonni ko'ramiz. Bugungi globalashuv jarayonida axborot erkinligi, internet asri hisobidan dutun dunyo bir kaft yerdek bo'lib qolgandek go'yo. Yerning istalgan burchagidan turib hohlagan yangiligingizni bilib olish uchun bir necha soniya vaqt ketadi xolos.

Avvalo globalashish o'zi nima ekanligini bilib oladigan bo'lsak, GLOBAL (frans. global — umumiy, lot. globus — shar) — 1) butun Yer sharini qamrab oluvchi; 2) har tomonlama, to'liq, yalpi, universal degan ma'nolarni bildiradi. Globalashuv atamasi birinchi bor 1960 yil Giddns tomonidan foydalanilgan Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globalashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990 yilning armida amerikalik olim CHARlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan.

“Globalashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitt tomonidan 1983 yili «Garvard biznes rev`yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llangan. T.Levitt yirik






transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini “globallashuv” deb atagan. Bugungi kun yoshlari har tomonlama teran fikrli, salohiyatli, zamonaviy dunyoqarashga ega ekanligi hech kimga sir emas. Dunyo bo‘ylab 2 milliarddan ortiq aholini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Bu juda katta kuchdir. Umuman olganda yer kurrasi, uning kelajakdagi taqdiri qaysidir ma`noda mana shu yoshlar qo‘lida ekanligi ayni haqiqatdir. Shunday ekan qaysi davlat, qaysi millat bo‘lishidan qat’iy nazar bugungi kundagi eng oliy maqsadi yoshlarining milliy an`analariga sodiq, o‘zligini yo‘qotmagan avlod etib tarbiyalashdir.

Hech kimga sir emaski qator rivojlangan davlatlarda o‘z gemafoni kamayib bormoqda. Yoshlar oilaga, farzand va qarindoshlik rishtalariga yengil qarshmoqda. Bunday fikrlashga turtki bo‘layotgan salbiy fikrlarni ong ostiga singdirayotgan, yot g‘oyalarni juda sezilmaydigan tarzda ongimizga joylamoqqa urunayotgan g‘ariz niyyatli kishilar uchun axborot, so‘z erkinligi ayni muddao.

Yoshlar bugun hoh uyda, hoh maktabda bo‘lishsin hohlagan axborotini televidiniya, radio, internet va boshqa OAV lardan bemalol olishlari mumkin. Ota - onalar ham bemalol bunday axborotlarni farzandlari ko‘r-ko‘rona suiste`mol qilishlariga qo‘yib berishmoqda. To‘g‘ri biz rivojlangan XXI asrda yashayapmiz. Bugungi kunda har qadamda axborotlar bilan to‘la. Biz bundan himoyalannmaganmiz va buni inkor ham etaolmaymiz. Mashhur hind dinishmandi Indira Gandi aytganidek “Men toza havu kirsin deb derazamni ochib qo‘yaman, ammo, tashqaridan chang va g‘ubor kirishini ham inkor eta olmayman”.

Bugungi kunda hayotimizga axborotlar kirib kelishini ham aynan yuqoridagi fikrlarga qiyos etishimiz mumkin. Biz yangilik va turli axborotlarga kunda ehtiyoj sezamiz. Sababi bizning rivojlanib borayotgan turmush tarzimiz shuni taqazo etadi. Ammo bular orasida milliyligimizga, qadryatlarimizga zid bo‘lgan g‘oyalar sezdirilmay singdirilishiga urinilayotgan holatlarga ko‘zimiz tushadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchi yoshlarning aksari turli xildagi televidiniya ko‘rsatuvlariga ayniqsa, multfilmlarga qaram bo‘lib qolgani hech kimga sir emas. Bir qarashda bu holatning hech qanday salbiy holatlari ko‘zga tashlanmaydi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. G‘arb madaniyatiga yo‘g‘rilgan multfilmlarning negizida turli yot g‘oyalar singdirilishi maqsadida maxsus





tayyorlangan yigirma beshinchi kadrlari borki, bular har birimizni ogoh bo'lishga chorlaydi.


Farzandlarimiz bunday g'arazli niyatli kishilar qarmog'iga tushib qolmasligi uchun ularnda axborot ma`daniyatini shakllantirishimiz va kitobga mehr uyg'otmog'imiz lozim.

Yaponiya kunchiqar davlati qanchalik rivojlangan zamonaviy gadjetlar makoni bo'lishiga qaramasdan, bu diyor yoshlari o'z milliyligiga sodiq yoshlar ro'yxatining yuqori o'rinlarida turadi. Atrofi to'la nanotehnologiyalar bilan to'lib toshgan bo'lishiga qaramasdan yoshlari kitobga mehri bo'lakcha hisoblanadi. Bunday bo'lishiga sabab yaponlarning tarbiya metodlarini to'g'ri yo'lga qo'yilganligidandir. Yaponiyada bolalar uchun ko'p qismli multfilmlarni dastlabki bir necha qismlarini ishlab efirga uzatiladi. Keyingi qismlarini esa kitob shaklda chop etiladi. Bu esa bolalarni multfilm so'ngini qiziqish bilan bilishga bo'lgan talabi beixtiyor kitob o'qishga undaydi.

Yoshlarning ma`naviyatini mustahkamlsh milliy qadryatlarga sodiq qolgan holda voyaga yetishi uchun jahonning ilg'or tarbiya metodlaridan tajriba orttirishimiz zarur. Jamiyat kelajagi yoshlarga bog'liq. Shunday ekan yoshlarimizga milliylik, vatanparvarlik, halollik, ezgulik sifatlarini singdirib borishimiz zarur. Yurtboshimiz bugungi kun yoshlari haqida so'zlar ekan yoshlar bizning, ertangi kunimizning egalari deya bot-bot ta'kidlaydilar. Darxaqiqat ular bizning ertamiz egalari hisoblanadi. Ma`naviyati buyuk yurt qudratli bo'ladi.

Tarbiya har zamonda ham zaruriy ijtimoiy hodisa hisoblanib kelgan, ammo, bugungi shiddatli zamonda har qachongidan ham zarurroqdek nazarimda. Buyuk dahomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek "Tarbiya bizga yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham Abdulla Avloniyning bu hikmatga aylangan gapini mushohada qilib, bu fikr ya`ni, tarbiya, "...o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar dolzarb va muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham muhim, dolzarb ahamiyat kasb etadi",-deydi.

Tahdidlari kuchayib borayotgan bugungi zamonda "Ommaviy ma`daniyat" ni niqob qilib olgan "zamonaviy" yoshlarga boy davrda yashar ekanmiz yoshlarimiz ongiga faqatgina to'g'ri va izchil tuzib olingan tarbiya g'oyalarini singdirish, mafkuraviy imunitetni shakllantirish, ma`naviy bo'shliqni qolishiga yo'l qo'ymagan






holda milliy qadryatlarga muhabbat uyg'otish bilangina bugungi asr muammolaridan himoya qila olamiz.

Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqalayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli xil bu'zgu'unchilikka yo'g'rilgan vayronkor g'oyalar, odob - axloqni yemiruvchi, insonni manqurtlashtiradigan, asliyatiga yot bo'lib umumiy boshqa insonga aylantirishga undaydigan manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi tabiiy. Internet yordamida ishlar oson va tez bajariladi. Uning bir qancha qulay tomonlari borligi hech kimga sir emas. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham borki bunga ko'z yuma olmaymiz. Bugun har qanday ma'lumotni bir necha soniyalarda butun dunyoga tarqatish hech qiyinchilik tug'dirmaydi. Butun dunyo bir kichkina shaharcha kabidir. Ijtimoiy tarmoqlarga joylangan ma'lumot soniyalar ichida bir necha million tomoshabinlar tomonidan kuzatiladi.

Bunday imkoniyatni qo'ldan boy bermaydigan g'arazli kimsalar globall tarmoqdan qabih maqsadda foydalanishmoqda.

Bugun maktab o'quvchilarining deyarli barchasida uyali telefon bor, ularning aksariyati internetga ulangan. Bu mitti matoh yordamida dunyoni kaftda ko'rgandek kuzatish mumkin. Biroq global tuzoqlardan biriga ilinib qolish xavfi juda katta. Shu tariqa har xil ma'lumotlar bola ongini zaharlaydi. Unda zo'ravonlikka moyillik uyg'onadi, tajavuzkor, berahim insonga aylana boshlaydi. Bir qaraganda bu darhol ko'zga tashlanmaydi. Ammo sekin sekin bola ruhiyatida salbiy o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Fanda me'yordan og'ish tushunchasi mavjud. Ana o'sha og'ishlarga sabab zo'ravonlikka undovchi axborotlar ekanligi shubhasiz. Inson, uning joni, hayoti eng aziz tushuncha aslida. Alloh tomonidan berilgan eng ulug' ne'mat tiriklik ne'mati, ammo so'ngi vaqtlarda inson hayoti qadrsiz bir matohdek bo'lib bormoqda unga hech ikkilanmasdan nuqta qo'yishga bo'lgan urunish bobora ortmoqda. Inson o'z joniga suiqasd qilish barcha dinlarda ham qoralangan. Katta gunohlar qatoriga kiritilgan. O'z joniga qasd qilish 15 yoshdan 29 yosh oralig'idagi bo'lgan yoshlar orasidagi o'limga sabab bo'luvchi ikkinchi yirik omildir. Mutaxassislar virtual dunyo orqali ro'y berayotgan tahdid - haqoratlar va ijtimoiy tarmoqlar vositasida tarqatilayotgan buzgu'unchi g'oyalar bu muammoni yanada ortib borishiga sabab bo'layotganini aytishmoqda.

O'zbekistonda har yili ikki mingdan ortiq odam suisit qurboni bo'lmoqda. Buning yanada achinarli tomoni shundaki ularning aksari yoshlar ekanligi. Inson bu





qarorga bir kunda kelib qolmaydi bunga bir qancha vaqt tayyorlangan va bu eng so‘ngi qarori hisoblanadi. Buni qarangki shu qarorga targ‘ib qiluvchi internet o‘yinlar ham bunga asosiy sabablar qatoriga kirar ekan. Bugun axborot iste‘mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o‘zida uni iste‘mol qilish ma‘daniyatini tarbiyalashi lizim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘zi foydalanilayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur.

Axborot is‘temoli ma‘daniyati, eng umumiy ma‘noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma‘lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiluvchi bilimlar qobilyat va malaka tizimini anglatadi.


Bugungi axborotlashgan asrda bir zum ham ogohlikni qo‘ldan boy bermaslik kerak. Zero farzandlarimiz ongiga majburan singdirishga urinayotgan tahdidchilarning g‘arazli niyatlari tom ma‘noda davlatimizga qarshi ochilgan siyosiy urushning yashirin ko‘rinishidir.

Bugun zamon ancha ildamlashib ketdi. Internet rivojlangandan rivojlanmoqda. Zamonaviy gadjetlar bugungi kun yoshlarining ajralmas hamrohi bo‘lib bormoqda. Buning ijobiy tomonlari ham bor albatta. Ular bilan ilm olish, fanning so‘ngi yangiliklarini soniyalar ichida bilish, masofadan turib ta‘lim olishga imkon beradi.

Lekin odamzot tafakkurining yuksak va namoyoni bo‘lgan bunday yutuqlar ayni paytda katta kuch - quvvat va moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan ayrim siyosiy kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmayd. Odamlarning birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma‘naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anlash va bunday xavf - xatarlarning oldini olish bugungi kunda o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda”,- deb yozadi Muhtaram Prezidentimiz o‘zining “Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish” kitobida.

Yoshlarning turli oqimlarning ta‘siriga tushib qolmasliklari uchun internetdan foydalanishda quyidagi zaruriy ko‘rsatmalarga ahamiyat berishi tavsiya etiladi:

-Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishi xatodir. Chunki, xech narsa jonli, haqiqiy va real muloqotlar o‘rnini bosa olmaydi.;








ISSN (E): 2181-4570

-Internetdan foydalanuvchilar shaxsiy ma`lumotlarini turli ijtimoiy tarmoqlar, bloglarga, electron pochta kiritishlari, g`arazli maqsaddagi kishilarga ayni muddao bo`lib xizmat qiladi;

-“O`rgimchak to`ri”da aqidaparastlikni targ`ib qiluvchi saytlar tobora ko`payib bormoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga faqat “uz” domenidagi saytlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qomus.info online kutubxona \qomus.info\oz\encyclopedia\global
2. Шахрай С.М. Глобализация в современном мире: политико-правовые аспекты.-СПб:Фонд поддержки науки и образования в области правоохранительной деятельности «Университет»ю 2004.С.6
3. Что такая глобализация? По сайту <http://www.univer.omsk.su/omsk/socstuds/glob/index.html>
4. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari. – T.: Ma`naviyat, 2006. 8-b.
5. I. A. Karimov Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. -Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
6. Ma`naviyatshunoslik. Masharipova G. K. Xo`janova T. J. Fan ziyosi 2022. 232-bet





ISSN (E): 2181-4570

## ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ БОЛЬНЫХ ПЕРЕНЕСШИХ ИНСУЛЬТ.

Бегматова Сайёра Холматовна

Термезский филиал Ташкентской медицинской академии

**Аннотация:** статья содержит ключевые моменты, связанные с проблемой реабилитации пациентов, перенесших инсульт. Рассмотрены особенности реабилитации больных, перенесших инсульт. С использованием шкалы самообслуживания или функциональной независимости проведена оценка общей выраженности имеющихся у больных нарушений. Определена эффективность медицинской и социальной реабилитации с позиции пациентов.

**Ключевые слова:** реабилитация, кинезотерапия, индекс независимости в сфере повседневной жизнедеятельности Бартэла, инсульт, реабилитация, восстановительный период.

Острое нарушение мозгового кровообращения (ОНМК) – одно из самых трудоемких заболеваний с точки зрения ведения пациента; в процессе реабилитации должны участвовать все заинтересованные стороны – врач, сам больной, его близкие. Ишемический инсульт считается самым распространенным (около 80% случаев), для него характерны спазм сосуда или его закупорка тромбом. Выживание после инсульта – весьма важная проблема, но не менее важна жизнь пациента после случившегося. Последствия ишемического инсульта зависят от ряда причин, которыми он был вызван. Большинство людей, перенесших инсульт, становятся инвалидами. Одни не могут самостоятельно передвигаться, обслуживать себя, говорить, другие даже утрачивают способность к общению с внешним миром, к удовлетворению своих главных жизненных потребностей [1, 2].

Хельсинбургская декларация от 1995 года, разработанная экспертами ВОЗ, для стран- членов Европейского регионального бюро, провозглашает, что «более 70 % выживших пациентов должны быть независимы в повседневной жизни через три месяца после начала заболевания». реабилитация пациентов, перенесших инсульт, должна представлять собой динамическую систему взаимосвязанных медицинских, психологических и социальных компонентов, направленных на восстановление и сохранение здоровья, более полное восстановление личности и социального статуса больного.





Мероприятия, направленные на реабилитацию больного важно начинать в остром периоде заболевания и основная цель такой ранней реабилитации- это профилактика устойчивых патологических систем или уменьшение степени выраженности их за счет активации саногенетических механизмов и разрушения патологических систем. Частота и эффективность проведения реабилитационных мероприятий зависит от условий, в которых находится больной, времени прошедшего после инсульта, и ответной реакции больного, локализации патологического очага.

Важно, чтобы пациент добровольно желал участвовать в процессе, обладал умственными способностями, достаточными для того, чтобы запоминать реабилитационные упражнения и следовать простым командам. Для эффективного планирования и осуществления программ реабилитации необходимы скоординированные усилия различных специалистов: специально обученные медицинские сестры, физиотерапевт, врач по профессиональной реабилитации, логопед, психолог и социальный работник, диетолог, психотерапевт, психиатр.

Палаты ранней реабилитации должны быть просторными, оснащены функциональными кроватями, противопролежневыми матрацами, прикроватными функциональными креслами, ширмами. В отделении необходимо предусмотреть стол для кинезотерапии, оборудование для эрготерапии. Для оценки эффективности восстановительных мероприятий могут быть использованы: шкалы с диапазоном оценки движений по суставам, стандартизованный тест оценки функции руки, оценка психосоматического состояния больных, тесты измерения функциональной независимости.

К моменту завершения пребывания в реабилитационном отделении предусматривается дальнейший объем мероприятий по проблемам социальной, бытовой и профессиональной деятельности пациента. По результатам социально-медицинской оценки проводится сравнение профиля индивидуальных возможностей пациента с конкретными требованиями на его рабочем месте.

Если в остром периоде инсульта задачами лечения являются коррекция нарушений жизненно важных функций организма и минимизация неврологического дефекта, то в период реабилитации – адаптация, приспособление к жизни после инсульта.





ISSN (E): 2181-4570

Восстановительный период делится на 3 части:

- восстановительный ранний (6 мес);
- восстановительный поздний (6 мес – 1 год);
- резидуальный (после приступа прошло не менее 1 года).

Цель реабилитации больных, перенесших инсульт, – максимально полное восстановление функций, утраченных в результате поражения центральной нервной системы, и приспособление пациента к имеющемуся дефекту. Задача реабилитации – обеспечить пациенту возможность приспособиться к новым условиям жизни. Принципы реабилитации:

- коррекция нарушений жизненно важных функций и систем организма;
- минимизация неврологического дефекта;
- профилактика и лечение неврологических и соматических осложнений.

Как правило, восстановление длится на протяжении 1-го года после инсульта, причем самые главные результаты достигаются в 1-м полугодии после ОНМК. Обязательным спутником постинсультного периода у многих пациентов является социальная дезадаптация, связанная с нарушением двигательной активности, речевыми проблемами, болевым синдромом, нарушением работы тазовых органов, утратой прежнего социального статуса и привычного места в обществе (особенно это тяжело для людей работоспособного возраста) [3, 4, 6, 7].

Из методов восстановительного лечения применяют воздействующие на нарушение функции нервной системы и влияющие на взаимоотношения больного с окружающей средой [8]. Социально-средовая реабилитация формирует у человека чувство социальной значимости внутри новой для него социальной среды. Необходимо учитывать, что почти в половине случаев именно психические изменения являются основной причиной, препятствующей возвращению больного к самостоятельности после инсульта. Для восстановления больных необходим комплексный, интегральный подход с учетом не только клинико-функциональных закономерностей заболевания, но и психосоциальных факторов, особенностей личности пациента и окружающей его среды [5].

Важно комплексное применение различных методов:

- физиотерапевтических;
- механических восстановительных методик (кинезотерапия);
- массажа, мануальной терапии, остеопатии;





- лечебной физкультуры (ЛФК);
- методик альтернативной медицины (апитерапия, иглоукалывание, фитотерапия, гомеопатия);
- профессиональной помощи логопеда;
shomonlar odatiga ko‘ra, shu kunlarda ham ajdar, ilon raqslari o‘ynaladi. Qadimgi turklar shomonchiligida.- Bo‘ron, Quyun timsoli; bulut, yashin kabi tabiat stixiyalari yaxlit holda a.-tangri. O‘zbek xalq ertaklarida a.-yovuz, yirtqich ruh timsoli. Hind, grek, arman xalqlarining afsona va miflarida a. suv, hosildorlik, sel, daryo, dengiz va boshqa tabiat stixiyalari xudosi. Nasroniylikda a. yovuz, qora kuch, shayton timsoli. S.P.Tolstov fikricha, a. Sharqiy Eron va Markaziy Osiyo qadimgi qabilalarining, Avestodagi dualistic miflariga asosan, dastlab Anglo-Maynyu kulti bilan bog‘langan. (Avesto, Bundaxishna). A. skiflar madaniyatiga oid ot-ilon obrazini ifoda etuvchi gippokamp, ilonning genezisida yunon mifologiyasining umuman ta‘siri yo‘q deyiladi. M.E.Masson fikricha, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida bu fantastic mavjudot “ajdarho” deb atalgan. Qadimgi o‘zbek xalqida, mifologik timsollar va ular bilan bog‘liq kultlar, shuningdek, a. kultining kelib chiqishini chuqur o‘rgangan olim M. Jo‘rayev uning Amudaryo sohillarida yashovchi o‘zbeklar orasida urf bo‘lganini yozarkan, a.ning shamol, quyi olam, hayot daraxtining tubi, suv, obi hayot bilan bog‘liq holda talqin etilishini qayd etadi. Olim mazkur mifologik mavjudotning chizgilari va tasnifiga doir quyidagi aniq ma‘lumotni keltiradi: “...ilon to‘qqiz yoshgacha <<ilon>> deb aytiladi. To‘qqizdan to‘qson yoshgacha <<afhi>> deyiladi. To‘qson to‘qqiz yoshdan to‘qqiz yuz yoshgacha ajdarho, to‘qqiz yuzdan to‘qqiz ming yoshgacha <<yuho>> deb ataladi”<sup>3</sup>. Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, AJDAR so‘ziga mazmunan bir xil izoh berilgan, ya‘ni afsonaviy katta ilon deb ta‘rif berilgan. Ammo mifonimlarni izohlashda ayrim farqlarni ham kuzatishimiz mumkin: “O‘zbek tili izohli lug‘ati” va Sh.T.Maxmaraimovanning “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”da so‘zning qaysi tildan kelib chiqqanligi aytib o‘tilgan, o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi, maqol va iboralarda qo‘llanishining misollar yordamida tushuntirilishi esa bu so‘z haqida yanada kengroq tushunchaga ega bo‘lishimizga yordam beradi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da esa umumiy izoh berib o‘tilgan, qisqartma so‘zlarga ko‘proq duch kelamiz. Sh.T.Maxmaraimovanning “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati” orqali esa, nisbatan kengroq, izohlangan mifonimning boshqa xalqlarda qanday shakllarda uchratishimiz mumkin, qaysi olimlar qanaqa ta‘rif

<sup>3</sup> Sh.T.Maxmaraimova “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”.-T. Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2018.-23-bet.








berganligi haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, bu lug'atda keltirilgan mifonimlar ko'chma ma'noda ishlatilganda har bir ma'nosi misollar orqali tushuntirib berilgan.

Bundan tashqari, "O'zbek tili izohli lug'ati"dagi ayrim mifonimlarni biz "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da uchratmaymiz. Jumladan, *azozil, alvasti, bo'ji, duldul, jin, jodugar* va boshqa bir qator mifonimlar izohi "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"ga kiritilmagan. Quyida mifonimlar "O'zbek tili izohli lug'ati"da, "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da hamda Sh.T.Maxmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da qanday izohlanganligini ko'rib chiqamiz.

AJINA mifonimi "O'zbek tili izohli lug'ati"da shunday izohlangan: " **AJINA** [a.\_\_\_\_\_ - jinn] **1 ayn. jin1.** *Kampirlarning mish-mishlariga ko'ra, kishi ko'ziga ko'pincha kechalari echki bo'lib ko'rinadigan "ajina" va "alvasti"lar makoni bo'lgan bu ovloq joy obod bir sayilgoh bo'lib qoldi.* P. Tursun, O'qituvchi. **Ajina chalmoq** Jin tegib, aqldan ozdirmoq. *Falonchi odam yong'oq tagida uxlab yotgan ekan, ajina chalib ketibdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. **2 ko'chma** Kichkina, jikkak, ko'rimsiz odam haqida.-*Yuzboshini nima qilding, ajina? –dedi Nishonbek Muharramga.* B.Rahmonov, *Mardlar qissasi*". . "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da esa ajina so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "**AJINA** (arab.-jin) –turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi demonologik salbiy obraz. A. yovuz ruhlar haqidagi animistik tushuncha, e'tiqod mahsuli. Obraz sifatida kishilik jamiyati hali urug'chilik bosqichida ekanligida shakllangan. Og'zaki ijod namunalarida A. tashlandiq joy, chakalakzor, kimsasiz o'tloqlarda uchraydi, asosan, suluv qiz, chaqaloq, sochi yoyiq kampir, qo'zichoq, echki qiyofalarida namoyon bo'ladi, deyiladi". Endi Sh.T.Maxmaraimovanning "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"dagi ajina so'zining izohiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Ajina-(ar.- jin) o'zbek, tojik, qoraqalpoq, qizg'iz va qisman qozoqlarda yovuz ruh (Islom mifologiyasidagi jin obraziga monand) bo'lib, odatda odamlarga shaklan kattalashib boruvchi ayol yoki echki ko'rinishida namoyon bo'lgan. A. ning makonini kishilar yashaydigan joylardan yiroq bo'lgan ovloq manzillar, ko'proq kultepalar deb bilishgan". Ushbu izohlardan ko'rishimiz mumkinki, har uchala lug'atda ham ajina so'ziga berilgan izohda ajinaning arabcha jin ma'nosini anglatishi, odamlarning ko'ziga ko'pincha ayol, echki bo'lib ko'rinishi, ovloq, tashlandiq joylarda uchrashi





mumkinligi aytilgan. Farqi esa “ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ajina so‘zi faqat izohlangan, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da uning o‘z ma‘nosida, ko‘chma ma‘noda qanday ishlatilishi gaplar bilan keltirilgan bo‘lsa, Sh.T.Maxmaraimovanning “ O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”da ajina mifonimi qanday xalqlarda uchrashi , ko‘chma ma‘noda ishlatilganda aynan qaysi o‘rinlarda ishlatilishi misollar yordamida ko‘rsatib o‘tilgan.

Endi AZROIL so‘zining izohiga e‘tiborimizni qaratsak. Azroil so‘ziga “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da “AZROIL[a.\_\_\_\_\_ - o‘lim farishtasi] Islom dinida to‘rt farishtadan biri, jon oluvchi farishta; ajal farishtasi. – *Gardanimdagi qarzlarimni uzgunimcha, Azroil jonimni olib qo‘ymasa edi,- dedi qarzga botgan kishi afandiga.* “Latifalar”, -deb, . “ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da “AZROIL-islom dinida to‘rt bosh farishtadan biri, jon oluvchi farishta. Rivoyatlarga ko‘ra, A. dastlab oddiy farishta bo‘lgan, Alloh Odamatoni yaratish uchun farishtalarni yerdan tuproq olib kelishga yuboradi. Yer qarshilik qiladi va farishtalar undan bir siqim ham yulib ololmaydilar. Bu ishni faqat A. bajarganligi sababli u o‘limdan ustun turuvchi farishta deb hisoblangan. U to‘rt ming qanotli, to‘rt yuzli va tanasida yer yuzida yashovchilar qancha bo‘lsa, shuncha ko‘zi hamda tili bo‘lgan dahshatli maxluq sifatida tasvirlanadi. A. odamlar taqdirini biladi, ammo ularning har birining o‘lish vaqtini bilmaydi. Bu muddat yaqinlashganda Alloh taxti oldida o‘sadigan daraxtdan o‘limga mahkum etilgan kishining nomi yozilgan barg uzilib yerga tushar ekan. Shundan keyingina A. qirq kun ichida uning jonini olishi kerak ekan. A. taqvodorlarning jonini osongina, gunohkorlarning jonini esa qiynab olar ekan. Joni olinayotgan odam A. ga turli qarshiliklar ko‘rsatsa-da, pirovard natijada yengilar ekan. Xristianlikdagi to‘rt asosiy farishta ( arxangellar-Gavriil, Mixail, Azrail, Serafiil) islomdagi Jabroil, Mikoil, Azroil va Isrofilga muvofiq keladi. Bular Qur‘onda <<al-muqarrabun>> (yaqinlar, yaqinlashtirilganlar) deb atalgan”,- deb , Sh.T.Maxmaraimovanning “ O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”da esa “ Azroil- Azroil (ar.-) yoki Malakul-maut ( ar.- o‘lim farishtasi ). Insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan dinlarning mundarijasida A.ning muhim o‘rni bor. Xristian dinida A. Esrail ( oxirat kuni osiy bandalarni qiynoqqa soluvchi g‘azab farishtasi), Ezrail, Guru Grantx Sohibda Azraa-iil ( o‘lim farishtasi), chuvash dinida Esrel ( o‘lim farishtasi) bilan qiyoslanadi”,- tarzida izoh berilgan. Har uchala lug‘atdagi azroil so‘zining izohi jon oluvchi ajal farishtasi sifatida izohlangan. Farqi esa, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da Azroil so‘zining





ma'nosi umumiy qisqacha izoh va izohga monand gap yordamida ochib berilgan. Sh.T.Maxmaraimovanning " O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da ham so'zning izohi o'z ma'noda qanday, ko'chma ma'noda qay hollarda ishlatilishi misollar yordamida tushuntirib berilgan. " O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"dagi Azroil so'zining ma'nosi esa nisbatan kengroq keltirilgan. Unda Azroil qanday farishta ekanligi, uning bunday maqomga qanday erishganligi, ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lamiz.

ALVASTI so'zining izohi faqat "O'zbek tili izohli lug'ati"da hamda Sh.T.Maxmaraimovanning " O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da berib o'tilgan. . " O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da esa bu so'zning izohi keltirilmagan. Bu so'z "O'zbek tili izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan: "**ALVASTI 1** Sharq mifologiyasi va xurofiy tasavvurda: go'yo har xil qiyofada ko'rinadigan afsonaviy maxluq. *Kampirlarning mish-mishlariga ko'ra, kishi ko'ziga ko'pincha kechalari echki bo'lib ko'rinadigan "ajina" va "alvasti"lar makoni bo'lgan bu ovloq joy obod bir sayilgoh bo'lib qoldi.* P. Tursun, O'qituvchi.

**2 ko'chma** Shu maxluqqa nisbatlash, u bilan ataluvchi shaxs (asosan xotin-qizlarga nisbatan). *Shu choqqacha birovga so'zini bermagan, birovdan gap eshitmagan Begim, notanish xotindan dakki yedingmi, u alvastining ola-kula ko'zlaridan qo'rqib, kaltagidan qochdingmi?* I. Rahim, Chin muhabbat". Sh.T.Maxmaraimovanning " O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da ham Alvasti so'zining ma'nosi keltirilgan bo'lib , u quyidagicha: " Alvasti-( turk.- al, albassi, alvasti, albarsti, albasli, albasliqatin, albis, almasti) turk, Qozon, Qrim, G'arbiy Sibir tatarlari , qozoq, boshqir, oltoyliklar, turkman, qoraqalpoqlar, Ozarbayjon, qo'miq, qorachoy singari ko'plab turkey xalqlarda- suv stixiyasi- (tabiiy ofati) bilan bog'liq yovuz jin (demon), shayton. ... A. odatda, och rangli uzun sochlarini yoyib olgan badbashara ayol ko'rinishida tasavvur qilingan. O'tmishda uning jonivorlar va jonsiz buyumlarga aylana olish qobiliyatiga ishora qiluvchi qarashlar vujudga kelgan. Qozon tatarlari a.ni tezak, somon g'arami yoki archa ko'rinishini oladi deb ishonganlar. Ozarbayjonliklar uning oyog'i o'rnida qush panjasi bor deb hisoblagan bo'lsalar, Qozon miqlarida uning oyoq tovonlari teskari joylashgan holda yohud tuyoq bilan tasvirlangan. Turkiy xalqlarga mansub o'zga miqlarda a.ning peshonasida bitta ko'z bo'lganligi, u ham bo'lsa tosh ko'z yoki misdan ekanligi , shuningdek, qo'llarida o'tkir





tirnoqlar bo'lganligi aytiladi. Qirg'iz va qozoqlar sariq va qizil a.ni farqlaganlar. A.ning asosiy atributlari (qurollari) sifatida jodu kitobi, taroq va tanga tilga olingan.

Tasavvurlarga ko'ra a.ning istiqomat joyi daryo va suv havzalari bo'lib, odamzotga sochlarini tarab o'tirgan holda namoyon bo'lgan. Turk, ozarbayjon, qozoq, qirg'iz miqlariga ko'ra, a.ning odam tana a'zolaridan: o'pka, jigar yoki yurakni o'g'irlashi mumkinligi haqidagi qarashlar mavjud bo'lgan. Shuningdek, a.ning xomilador ayollarga ziyon yetkazishi haqidagi aqidalar ham bo'lgan.

A.ni odamzotga bo'ysundirish mumkin deb hisoblangan: buning uchun uning soch tolasiga ega bo'lish lozim deb topilgan bo'lsa, turkman va o'zbeklarda a.ga tegishli biror buyum (jodu kitobi, taroq va tanga) ni olib qo'yish, turklarda esa, alvastining kiyimiga ignani sanchib qo'yish shart deb o'ylangan.

Shundan kelib chiqqan holda, o'zbek, bolqor, nog'ay, qo'miq, turkmanlar a.ni uy-ro'zg'or ishlarida, o'z xo'jayinining moddiy tomondan boyib ketishida ko'makchiga aylanadi deb faraz qilganlar.

A.obrazi turkiy ellar mifologiyasi, shuningdek, qator xalqlarda, o'zining analogi-muqobiliga ega. Xususan, albasti (tojik), al pab (lazgin), ali (gruzin), xal anasy, alk (kurd), aly, alk (arman), almazi (ingush va Chechen), almas (mo'g'ul) shular jumlasidandir.

Taxmin qilinadiki, o'tmishda <<al>> nomli ma'bud semit xalqlarining <<ilu>> nomli obraziga yaqin bo'lgan, <<basti>> esa, hind-yevropa atamasi sifatida <<ma'bud>> ma'nosini anglatgan. Bu atamaning o'zi ham ruscha <<shayton>> (bes), osetincha <<uas>> singari tushunchalarga yaqin turgan. Bundan kelib chiqadiki, a.obrazi hind-yevropa va semit tillar oilasining o'zaro aloqadorlik munosabatlari natijasida yuzaga kelgan.

Dastlab, a. hosildorlik, farovonlik va ovchilik, yirtqich hayvonlar, homilador ayollarning homiysi sifatida qabul qilingan. Zardushtiylik dinigacha bo'lgan davrda tarqalgan turli mifologik tizimlarning vujudga kelishi oqibatida, yovuz kuchlar qatoriga tushirilgan. Bu ilmiy qarash <<..A.- <<Ko'hna Osiyo Zuhrosi (Anaxitasi) ning transformatsiyalangan shakli >> degan fikrga o'ta yaqindir.

Rus mifologiyasida a.ning albasta, lobasta, lobosta, lopasta singari fonemik variantlari mavjud bo'lib, ularning rus leksikonida paydo bo'lishiga qo'shni turkey xalqlar ta'sir ko'rsatganlar. A.ning ko'pincha rusalka, chertovka, bolotnitsa, vodyanixa –leshachixa, leshiy bilan tenglashtirilgan. Shunga qaramay, ushbu taqqosda






islomiy hamda <<Avesto>> mafkurasiga zid keluvchi jihatlarni o'zni bilan qayd etish lozim bo'ladi. Ya'ni:

-G'arb mifologik dunyoqarashida insu jins, yovuz ruhlar ko'proq suv havzalari, daryo, ko'llar ( ba'zan botqoqliklar) bilan bog'liq holda tasavvur qilinadi. Go'yo bu obrazlar ana shu hududlarda istiqomat qiladi. Biroq, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ko'hna qadriyatlarimizga muvofiq, suv, tuproq, havoni ifsoslantirish kata gunoh sanalib, azal-azaldan, birlamchi suv havzalari va ularning atrofi pok saqlangan. Shunga ko'ra, suv kulti bilan bog'liq barcha mifologik qarashlarimiz yovuz ruhlarning ishtirokidan holi bo'lib kelgan. Aksincha, ins-u jins, alvasti, dev, ajina singari yovuz ruh timsollarining makoni sifatida kultepalar, ivirsiq va xaroba, kimsasiz maskanlar nazarda tutilgan va bundayin <<farishtasiz>> joylar xosiyatsiz bo'ladi, deb hisoblangan". Bundan tashqari, " O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da alvasti so'zining o'z ma'nosida qo'llanilishi hamda ko'chma ma'noda qo'llanilishiga, ko'chma ma'noda qo'llanganda ham aynan qanday ma'noda qo'llanganligiga oid misollar bilan izohlab berilgan. Yuqoridagi izohlardan ko'rinib turibdiki, Sh.T.Maxmaraimovanning " O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'ati"da alvasti so'zining kelib chiqishi, tasviri, qaysi xalqlarda qanday ishlatilishi haqida kengroq ma'lumot berilgan. Alvasti so'zining ma'nosini izlagan kishi bemalol ushbu lug'atdan foydalanib, yetarlicha bilimga ega bo'lishi mumkin deb o'ylayman.

ALP so'zining izohi "O'zbek tili izohli lug'ati"da hamda " O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da keltirilgan. " O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da alp so'zining ma'nosi quyidagicha keltirilgan: "**ALP**- 1) qad. Turkiy xalqlarda ikki qo'shin o'rtasida jang boshlanishidan avval yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi bahodir jangchi, muboriz. A.lar qo'shinning zarbdor kuchi hisoblangan va ularning soni uncha ko'p bo'lmagan. A.larning qahramonligi, jasurligi aksar hollarda jang natijasini hal qilgan; 2) o'zbek xalq dostonlarida g'ayritabiiy kuch-qudrati, mardligi, jasorati va aql-farosati bilan ajralib turadigan qahramon sifati. Barvasta, sog'lom, baquvvat jussali kishilar ham A. ga qiyoslanadi". "**ALP 1** Qadimgi turkiy xalqlarda ikki qo'shin o'rtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi.

*2 folk.* O'zbek xalq dostonlarida g'ayritabiiy kuch-quvvati, mardligi, jasorati va sh. K. bilan ajralib turadigan qahramon sifati. *O'zi ekan nomi ketgan pahlavon, Alp Avazni ko'rdingizmi, onajon.* "Zulfizar bilan Avazxon",- tarzida izohlanadi alp





so‘zining ma‘nosi “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da. Berilgan izohlardan ko‘rishimiz mumkinki, har ikkala lug‘atda so‘zimiz deyarli bir xil izohlangan, va “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da keltirilgan misollar bizga so‘zning ma‘nosini yanada aniqroq tasavvur qilishimizga yordam beradi.

ANQO mifonimi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu so‘z biz keltirayotgan har uchala lug‘atda ham izohlab berilgan. Xususan, “ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da: “**ANQO**- afsonaviy qush. Qad. Sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy. U insonlar ko‘ziga ko‘rinmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va b.dan deb ta‘riflanadi. Xalqimiz orasida A. baxt, tole, davlat qushi, kimga soyasi tushsa, o‘sha baxtli bo‘ladi, degan fikr mavjud. Taqchil , kamyob narsalar haqidagi <<anqoning urug‘i>> degan ibora shundan olingan. Afsona, ertak va cho‘pchakalarda A. *Semurg*‘ga , *Humoga* ham o‘xshatiladi”,-deya izohlangan bo‘lsa, Sh.T.Maxmaraimovning “ O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”da anqo haqida quyidagicha ma‘lumot keltirilgan: “Anqo- ( ar-...afsonaviy qush) arab mifologiyasidagi Alloh tomonidan har tomonlama afsonaviy qilib yaratilgan afsonaviy, mo‘jizaviy qush. A. Arabiston sahrosida yashagan Qaqnusga o‘xshatilgan. Hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida a.ning Qof tog‘ida yashashi va qadimda Simurg‘ nomi bilan shuhrat topganligi bayon etiladi.

O‘tmishda payg‘ambar Xanzala ibn Safvonning as‘hob ar-Ross xalqini bahaybat qushlar- a.lardan qutqarganligi to‘g‘risidagi afsonalar mavjud bo‘lgan. Xanzala o‘z xalqini a.lardan himoya qilishni so‘rab, Alloh Taologa iltijo qiladi. Uning tilagi amalga oshgach, as‘hob ar-Ross jamoati yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytaradi va Xanzalani quduqqa tashlaydi. Alloh bu xalqni yo‘q qiladi. Ba‘zi rivoyatlarda ko‘rsatilishicha, a. tamomila yo‘qolib ketgan emas, lekin juda kam uchraydi. Qadimgi Sharq xalqlari afsona, ertak va dostonlarida bosh qahramonga homiy. U insonlar ko‘ziga ko‘ronmaydi, qanoti, pati oltin, kumush va b.lardan deb ta‘riflanadi. Xalqimiz orasida a. baxt, tole’ , davlat qushi , kimga soyasi tushsa, o‘sha baxtli bo‘ladi degan fikr mavjud. Taqchil, kamyob narsalar haqidagi <<anqoning urug‘i>> degan ibora shundan olingan”. Berilgan izohlarni ko‘rib, uchala lug‘atdan biz anqo mifonimining izohi, etimologiyasi, xalq orasida qanday shakllarda uchrashi, so‘z natijasida vujudga kelgan iboralar haqidagi ma‘lumotlarni olishimiz mumkin.

Endi BAHODIR so‘ziga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, biz bu so‘z haqida kerakli ma‘lumotni faqat “O‘zbek tili izohli lug‘ati” hamda “ O‘zbekiston Milliy





ensiklopediyasi”dan topishimiz mumkin. “**BAHODIR**, botir- 1) O’rta asrlarda turkmo’g’ul xalqlari qo’shinida janglarda ko’rsatgan ulkan jasorativa qahramonligi uchun beriladigan faxriy unvon. Chingiziylar davrida Chingizxon avlodidan b’lmagan zodagonlar, yirik lashkarboshilarga B. unvoni berilgan. Keyinchalik B. ma’nosining ushbu ijtimoiy xususiyati yo’qoladi va B. mo’g’ul zodagonlarining tarkibiy qismiga aylanadi. Turkiyshunos olimlarning fikricha, B. turkiy- mo’g’ulcha botir so’zining forscha shaklidir. 2) Chingizxon hukmronligi zamonida xonning shaxsiy gvardiyasi. Bunday qism Chingizxon 1203-y. keroyitlar ustidan ga’alaba qilgandan keyin tashkil etilgan. B. lar 1000 kishidan iborat bo’lgan. Tarixchi Nasaviyning (13-a) ma’lumotiga ko’ra, 1221-22-yillarda ularning umumiy soni 10000 kishiga yetgan. B. urush vaqtida ilg’or qism (avangard) bilan birgalikda harakat qilgan, tinchlik vaqtlarida esa, xon qarorgohini qo’riqlagan”,- deya “ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da izohlangan bahodir so’zi haqidagi ma’lumotni biz “O’zbek tili izohli lug’ati”da quyidagicha uchratamiz: “**BAHODIR** [ mo’g’. baatar – jasur, qo’rqmas] **1 folk.**Jismonan qudratli, pahlavon; devqomat. *Rustam baland bo’yli, keng yelkali, bahodir yigit bo’lib yetishibdi.* «Ertaklar». *Bahodirlar bu maydonda Turush bermoqqa havasda.* «Gulshanbog’»

**2** Hech narsadan hayiqmaydigan, dovyurak, botir; himmatli. *Vatanparvar, jangovar bo’l, hushyor bo’l, xalqing bilan hamkor bo’l.* Habibiy. *Hosil jonkuyarlari va yaylov bahodirlari safida ko’plab mardimaydonlar bor.* Gazetadan.

**3 ko’chma** Qudratli, ulkan, azamat. *Bu yaltiroq ko’zli, qop-qora uzun gavdali, po’lat bahodir (poyezd) o’z bag’rida butun bir hayot olib kelmoqda.* P. Tursun, O’qituvchi”. Lug’atlardagi so’zning izohiga e’tibor beradigan bo’lsak, “ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da asosan, bahodir so’zining kelib chiqish tarixi yoritilgan bo’lsa, “O’zbek tili izohli lug’ati”da bahodir so’zining hozirgi kunda qo’llaniladigan ma’nosi hamda bu ma’nolarga mos keluvchi gaplar yordamida tushuntirib berilgan. Asosiysi har ikki lug’at orqali biz o’zimizga kerakli bo’lgan ma’lumotni olishimiz mumkin.

BIBI MUSHKULKUSHOD so’ziga to’xtaladigan bo’lsak, bu so’zning ma’nosi Sh.T.Maxmaraimovanning “ O’zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug’ati”da hamda “ O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da keng yoritib berilgan. “O’zbek tili izohli lug’ati”da esa, bibi seshanba tarzida *bibi* so’zining tarkibida kelgan. Sh.T.Maxmaraimovanning “ O’zbek tili teomorfik metaforalarining





qisqacha konseptual lug‘ati”da bibi mushkulkushod so‘zining ma’nosi quyidagicha izohlangan: “ **Bibi mushkulkusho**-[toj: *mushkullarni yechuvchi xonim*] o‘zbek va tojik xalqlarida qiyin vaziyatlarda ko‘makka chaqirilgan, kelib chiqishi tojikcha personaj. Bibi –Seshanbi bilan bog‘liq miqlarga yaqin turadi. Afsonaga ko‘ra, kambag‘al chol o‘tin terayotib, o‘rtog‘ini yo‘qotib qo‘yadi. Uni qidirish asnosida Bibi mushkulkusho yashaydigan g‘orga borib qoladi. Bibi mushkulkusho cholga agar har chorshanba unga bag‘ishlab yig‘in o‘tkazib tursa, o‘rog‘ini albatta topishini va hatto o‘tinni keragidan mo‘lroq to‘plashini aytadi.

“Bibi Seshanba” va “Mushkul kushod”da shu nomdagi qissalar o‘qiladi. Ularning birida o‘gay ona qo‘lidagi yetim qiz ko‘rgan qiyinchiliklar, Bibi Seshanba onaning ko‘magi bilan yorug‘ kunlarga yetishi hikoya qilinadi. Ikkinchisida esa qiyinchilik bilan kun ko‘rayotgan o‘tinchi cholning Bibi Mushkul kushodning : “ har kuni bir tangadan sadaqa qilasan”, -degan ko‘rsatmasiga amal qilib, mo‘l-ko‘lchilikka erishishi, yodidan ko‘tarilganida esa yana boshiga falokat tushib, zindonband bo‘lishi, o‘sha bir tangani sadaqa qilib yuborgachgina, ozodlikka chiqishi aytilgan. Ayollar islomiy ruh berish maqsadida, Bibi Seshanba, Bibi Mushkul kushod nomini zuhd ahllari nomi bilan bog‘lashadi.

Surxondaryo viloyatida ushbu mifologik personaj bilan bog‘liq marosimlar <<Bibimushkul>> nomi bilan o‘tkazilib, undagi har bir aqidaviy jarayon (toq miqdordagi noz-ne‘matlarning ishtirokchilarga teng taqsimlanishi, otinoyi-qushnoch xotin boshchiligida qissani o‘qish, peshana va yuzga un surish(poklik) , yuzga oyna tutish (yorug‘lik), shirin suvdan niyat qilib ichish (shirin turmush ) va h. ) qat‘iy tartib ostida amalga oshiriladi. Ta’kidlash lozimki, bugungi kunda ham o‘tkazilib kelinayotgan bunday marosimlarda o‘tmishdagi holatlardan farqli, hazrat Muhammad (s.a.v)ga bag‘ishlab salovot o‘qiladi. Bu orqali, marosimning ziyarak ishtirokchisiga mushkullarning yechimini Allohning o‘zidagina so‘rash kerakligi ishora qilinadi”. “ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da esa Bibi mushkulkushod va Bibi Seshanba alohida-alohida keltirilgan: “**BIBI MUSHKULKUSHOD**- o‘zbek va tojiklarning afsonalarida hayotdagi turli mushkullarni oson qiluvchi kampir siymosi. Rivoyatlarga ko‘ra, *Bahovuddin Naqshbandning* xolasi. Ayollar turmushlarida biror-bir baxtsizlikka uchragan kezlarda yoki ishlari yurishmaganda, odatda chorshanba kuni B.M.ni eslab , unga atab majlis qurishgan, ziyofat uyushtirishgan , tilanchilarga xayr-sadaqa berishgan. **BIBI SESHANBA**, Seshanba ona- o‘zbek va tojiklarning afsonalarida







ISSN (E): 2181-4570

oilaviy baxt, shuningdek, ip yigirish va tikuvchilik kabi hunarlarning homiysi, piri. B.S. sharafiga ayollar seshanba kuni to‘planib, yig‘in, marosim o‘tkazish, uni keksa, oliyjanob kampir siymosida tasavvur etib, B.S.dan olaviy turmushda o‘zlari uchun saodat, ishlari uchun rivoj berishini tilab, u to‘g‘ridagi rivoyatlarni yodga olish, o‘qish odati bor”. Izohlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, lug‘atlarda Bibi Seshanba va Bibi Mushkulkushod mifonimlari bir-biriga yaqin turadi va deyarli bir xil, insonlarga mushkul kintlarda yordam beruvchi kampir qiyofasida jonlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1-12-jild
2. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 2020-yil, 1-5-jild.
3. Sh.T.Maxmaraimova. “O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati”.





ISSN (E): 2181-4570

## Teodolit yo'l o'tkazish bo'yicha loyihani joyga ko'chirishda geodezik qiymatlarni tayyorlash

*Ruzmetov Suhrob Umarbek o'g'li*

*Urganch Davlat Universiteti*

*Suhrobruzmetov@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada loyihani joyga ko'chirish zamonaviy usullar orqali qisqa vaqt ichida aniq natijani olish imkoniyatini oshiradi. Ushbu tadqiqot ishi Xorazm viloyati Urganch shahar Navro'z MFY Shifokorlar ko'chasi ichki xo'jalik yo'li misolida ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** geodeziya, s'yomka asosi, plan, teodolit yo'li, Indor CAD Road

Loyihani joyga ko'chirish jarayonining tartibini tanlashda harakar qilish kerakki, ularning bajarilishi soda va qo'yilgan texnik aniqlik talablari qoniqtirilsin, hamda ish kuchi va vaqt samaradorligiga rioya qilinsin. Shuning uchun loyihani joyga ko'chirishdan oldin, geodezik o'lchashlar tartibini aniqlash maqsadida tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Bu ishlar quidagilardan iborat: joyni ko'rish loyihani joyga ko'chirish usullarini aniqlash va tanlash, s'yomka asosi punktlarini zichlashtirish, loyihada kesmalar va burchaklar qiymatlarini aniqlash va ularni loyiha c ko'rsatish, loyihani joyga ko'chirish uchun rejalash chizmasini tuzish,

Joyga qurish bosqichida loyihani joyga ko'chirish turli usullarni qo'llash imkoniyatini aniqlash maqsadida joyda maxkamlangan geodezik tarmoq punktlarining mavjudligi va ularni zichlashtirish kerakligi belgilanadi.

Agarda tayanch sifatida tafsilotlardagi konturli nuqtalar qo'llanilmoqchi bo'lsa, unda ular orasidagi oraliqlarni nazorat o'lchashlari bilan solishtirib, ushbu punktlarni planda va joyda muvofiqiqligi tekshiriladi. Shunda, agar planda va joyda o'lchangan chiziqlar natijalari orasidagi farq 1 mm dan, ya'ni plandagi nuqta o'rnini xatosi chekli xatosidan oshsa, unda bunday nuqtalarni loyihani joyga ko'chirishda tayanch sifatida qo'llash tavsiya etilmaydi.

### ***Ishlash tartibi:***

1) Loyiha plandan nusxa ko'chiriladi. Bu nusxada barcha loyiha elementlari, dalalar nomeri, tavsilotlar ko'rsatiladi.

2) Loyihalangan yer bo'lakni chegarasi bo'yicha teodolit yo'lini o'tkazishda kamida ikkita nuqtasi tayanch yoki planda aniq tasvirlangan konturli nuqta bo'lishi kerak.





- 3) Grafik usulda joyiga ko'chiriladigan nuqtalarning koordinatalari aniqlanadi.  
 4) Teodolit yo'li bo'yicha direksion burchaklarni qiymati quidagicha hisoblanadi:

$$\operatorname{tg} \alpha_{AB} = \frac{Y_B - Y_A}{X_B - X_A} \quad \operatorname{tg} \alpha_{B-1} = \frac{Y_1 - Y_A}{X_1 - X_A} \quad \text{va h.k.}$$

Tekshirish uchun hisoblangan direksion burchak qiymatlari ishchi chizmada ko'rsatilgan direksion burchaklar bilan solishtirish kerak.

- 5) Loyihani teodolit yo'li bo'yicha ichki burchaklarining qiymatlari hisoblanadi.

$$\beta_B = \alpha_{B-1} + 180^\circ - \alpha_{B-1} \quad , \quad \beta_1 = \alpha_{B-1} + 180^\circ - \alpha_{1-2} \quad \text{va h.k.}$$

- 1) Quidagi formulalar orqali tomonlar uzunligi hisoblanadi

$$S_{AB} = \sqrt{(X_B - X_A)^2 + (Y_B - Y_A)^2}$$

yoki

$$S_{AB} = \frac{X_B - X_A}{\cos \alpha_{AB}} = \frac{Y_B - Y_A}{\sin \alpha_{AB}}$$

Tomonlar santimetrigacha hisoblab, tekshirish uchun ishchi chizmadagi uzunliklar bilan solishtiriladi. Hisoblash natijalari jadvalga keltiriladi.


Rejalash chizmasiga ko'ra loyiha burchaklarini joyida ketma-ket ravishda 1,2,...,8 nuqtalarda tuziladi. Har bir burchakni tuzilgandan keyin chiziqlar nazorat bilan (masalan ipli dalnomer bo'yicha) o'lchanadi va chiziqdagi loyiha nuqtalari qoziqlar orqali vaqtincha maxkamlanadi.

Loyiha yo'lni joyida o'tkazishda xatolarning yig'ilishi natijasida boshlang'ich A nuqtada chiziq bog'lanmasligi paydo bo'ladi. Ushbu bog'lanmaslikning qiymati, joydagi o'lchashlar xatolarining ta'siridan tashqari yana loyihani joyga ko'chirish uchun chiziqli va burchakli qiymatlarni xosil qilish usullaridan ham bog'liqdir.

Hisoblashlar va tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, loyiha yo'llarini o'tkazishda nisbiy chiziq bog'lanmasligi yo'l uzunligining 1/700 dan oshmasligi kerak. Kalta loyiha yo'llar uchun 1 yo'l qoyarli xato hisoblanadi.

Yo'l qo'yarli bog'lanmasligi joyida parallel chiziqlar usulida tarqatiladi. Xatolar yo'nalishi yo'lning oxirgi nuqtasida va loyiha nuqtalar o'rniga tuzatmalar bussol orqali aniqlanadi, chiziqli bog'lanmaslikni o'lchashda va chiziqli tuzatmalarni nuqtalar o'rniga kiritishda esa ruletka qo'llaniladi.

Dala sharoitida trassaning barcha elementlari va joydagi xarakterli obyektlar M 1:1000 masshtabli topografik planga olinadi. Trassaning ishchi plani hosil bo'lgandan






so'ng Indor CAD Road dasturi orqali avtomobil yo'lining o'rta chizig'i (Осьовая линия) markazdan teng ikkiga ajratiladi, har 25 metr oraliqdan va trassa elementlarida avtomobil yo'lining o'rta chizig'i koordinatalariga erishiladi.

1-jadval

Tayanch va loyiha	Koordinatalar		Koordinatalar		Direksion burchaklar	Chiziq uzunligi	Ichki burchaklar
	X	Y	Δ	α			
1	2		4		6	7	8
A	25	732					
			-		114°	67	112
			283	609	15'	1,5	°55'
B	42	341					
			-		181°	38	173
			387	005	20'	7,0	°26'
1	55	336					
			-		187°	62	195
			620	086	54'	5,9	°04'
2	05	250					
			-		172°	37	111
			374	047	50'	6,8	°56'
3	1	297					
			-		240°	68	113
			333	599	54'	5,2	°48'
4	98	698					
			+		307°	79	148
			477	631	06'	2,5	°52'





5	10 75	067						
			388	+	012	14'	358°	38 170
6	14 63	055						
			406	+	056	7°51'	40	200
7	18 69	111						
			396	+	86	45'	347°	40 82°
8	22 65	025						
			60	+	707	9'	85°0	69 150
A	23 25	732						

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. З.Д. Охунов. “Ер тузишдаги геодезик ишлар” Т, 2002 й
2. А.В. Маслов и др. “Геодезические работы при землеустройстве” М, 1990 й
3. А.Н. Назиров “Геодезия” Т, 1978 й





ISSN (E): 2181-4570

**Қаттиқ ва маиший чиқиндиларни қайта ишлаш корхоналари  
ишчиларни саломатлигини тиклашда профилактик рационни афзаллиги**

***Kenjayev Yodgor Mamatqulovich***

***Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti***

***tibbiyot fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari***

***TEL: +99897-694-44-80***

***[yodgortmatb@gmail.com](mailto:yodgortmatb@gmail.com)***

**Аннотация:** Соғлиқни сақлашни амалга оширишни услубий қўллаб-қувватлашга асосланган ишлаб чиқариш ва атроф-муҳитнинг гигиеник хавфсизлигини таъминлаш, ходимларнинг соғлиғини муҳофаза қилиш ва тарғиб қилиш соҳасида янги профилактика йўналишини ишлаб чиқишда илмий ёндашувга асосланади. Ходимларнинг соғлиғи учун хавфларни камайтиришда тиббий-профилактик чоралар тизимини, санитария-гигиена, ишлаб чиқариш ва иқтисодий тамойилларни ҳамда "тежамкор ишлаб чиқариш" ни ташкил этиш фалсафасини қўллаш самарадорлиги билан баҳоланади. Бироқ, баъзи саноат корхоналари ишчиларнинг касаланишини олдини олишга қаратилган чоратadbирларни ишлаб чиқиш бугунги кундаги долзарб муаммолардан биридир.

**Калит сўзлар:** профилактик рацион, нутриентлар, тўлақонли овқатланиш, чиқиндиларни қацта ишлаш, хавфсиз меҳнат шароити.

Янги илмий асосланган тушунчалар, иш усуллари ва амалий воситалар асосида ходимларнинг саломатлигини сақлашга қаратилган гигиеник чоратadbирлар ишлаб чиқиш, турли касалликларнинг олдини олиш ва касалликларга қарши курашишда иммун тизимини мустаҳкамлигини ошириш мақсадида профилактик рационларни ишлаб чиқиш талаб этилади [1, 2].

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17 апрел 2019 йилдаги Фармони билан "2019-2028 йилларда Ўзбекистонда қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегияси" тасдиқланди [3].

Маиший чиқиндиларни саралаш ва қайта ишлаш корхонаси «Био Еко Техно» МЧЖда жами 46 турдаги мутахассисликлар бўйича 376 нафардан ортиқ ходимлар фаолият олиб боради.

Корхонанинг саралаш ва қайта ишлаб чиқариш цехи бўлинмаларида касбий хавфни баҳолаш учун саломатликка таъсир этувчи салбий омилларни






ресурсларни тежаш технологиясини жорий этишдан олдин (2018) ва у жорий этилгандан кейин (2022 йиллар) меҳнат шароитларини ўрганиш ўтказилди. Бундан ташқари, корхона фаолияти давомида атроф-муҳитга ва аҳоли саломатлигига салбий таъсир этувчи хавф омилларини қиёсий таҳлили ўтказилди.

Шунингдек, корхона ишчи-ҳодимларидан танланган 100 нафаридан анкета – сўровномалари ўтказилганда, ходимларнинг 68 %и иш режимига кўра ўз вақтида рационал овқатланиш тартибига амал қилинмайди, 14 %и овқатланишида тўлақонли овқатланиш амалган оширилмайди, 32 %ида кундалик овқатланиш рациониди ёғли ва оғир ҳазм бўлувчи овқат турларини истеъмол қилади. Ушбу сўровнома асосида ходимларнинг овқатланишини таҳлил қилганимизда, ходимлар ўртасида турли соматик ва аллергия касалликларнинг келиб чиққанлиги аниқланди.

“Био Техно ЭКО” масъулияти чекланган жамиятига қарашли қаттиқ ва маиший чиқиндиларни тўплаш ҳамда саралаш полигони Ангор туманининг “Каттақум” маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган бўлиб, чиқиндилар полигони учун қишлоқ хўжалигида фойдаланилмайдиган ер майдонидан 55,0 га ажратилган, Жамиятнинг қаттиқ маиший чиқиндиларни йиғиш майдончасида девор билан ўраш, дезбарьер, қоравулхона ва ҳожатхона қуриш ишлари амалга оширилган, лекин ҳозирги кунда ҳудуднинг 1500 метр атрофидаги жойи бетон девор билан ўралмасдан қолган. Полигонда автотранспорт воситаларини ювиш мақсадида ювиш майдончаси ташкил қилинмаган, шу сабабли чиқиндиларни тўкиб чиққан автотранспорт воситаларида ювиш ва зарарсизлантириш ишлари олиб борилмаяпти.

Бу эса, атроф ҳудудига яқин аҳоли яшаш пунктларига шамол ва турли экологик омиллар билан бирга юқумли ва аллергия касалликларнинг тарқалишига олиб келиш эҳтимоли мавжудлигини кўрсатади.

Полигонларда ишловчилар учун ишлаб чиқариш санитарияси талабларига асосан полигонларни эксплуатация қилувчи корхона томонидан полигоннинг регламенти ва иш режими, қаттиқ маиший чиқиндиларни қабул қилиш йўриқномаси ишлаб чиқилиши ҳамда полигонга олиб келинаётган қаттиқ маиший чиқиндилар таркиби, уларнинг доимий ҳисоби, чиқиндиларни





тақсимланиши ва чиқиндиларнинг алохидаланишининг технологик жараёни назорати олиб борилиши зарур [4].

Шунингдек, амалдаги 0157-04-сонли санитария қоида ва меъёрларининг 4 қисми 4.7.бандида қаттиқ маиший чиқиндилар полигонда иккиламчи маҳсулотларни саралаш ва йиғиш ишлари санитария-гигиена талабларига риоя қилган ҳолда бажарилиши кўрсатилган бўлишига қарамадан корхонанинг Денов, Шўрчи, Кумқўрғон ва Жарқўрғон филиалларида бу талабларнинг кўпол равишда бузилишига йўл қўйилмоқда, саралаш ишлари бегона фуқаролар томонидан санитария қоидаларига риоя қилинмаган ҳолда бажарилмоқда.

0157-04-сонли санитария қоида ва меъёрларининг 6 қисми 6.1.бандида қаттиқ маиший чиқиндилар полигонда ишловчилар учун ишлаб чиқариш-маиший хоналар, машина ва механизмлар учун гараж ёки бостирма назарда тутилган хўжалик зонаси қурилиши лозимлиги кўрсатилган. Корхонада ишловчилар ичимлик ва хўжалик-маиший сув билан етарли миқдорда таъминланиши, овқатланиш учун хона ҳамда хожатхона қурилиши лозим деб кўрсатилган. Лекин, унитар корхонанинг бирорта ҳам филиалида ҳам ишловчилар учун ишлаб чиқариш-маиший хоналар, машина ва механизмлар учун гараж ёки бостирма назарда тутилган хўжалик зонаси ва унда ишчилар овқатланиши учун хона ташкил қилинмаган. Шу сабабли санитария қоидаларига зид равишда полигонда ишловчилар кийимларини алмаштиришлари ва ишдан кейин ювинишлари ҳам йўлга қўйилмаган.

Ушбу санитария қоида ва меъёрларининг 6 қисми 6.2.бандида хўжалик зонасининг ҳудуди бетонланган ёки асфальт ётқизилган, ёритилган ҳамда енгил тўсиқ билан ажратилган бўлиши лозимлиги кўрсатилган бўлсада корхонанинг бирорта ҳам филиалида хўжалик зонаси ташкил қилинмаган, хўжалик зонасининг ҳудуди бетонланмаган ёки асфальт ётқизилмаган, ёритилмаган. Ҳудудга киришда автотранспорт воситалари учун чиқинди ташувчи машиналарнинг ғилдираклари ботиб ўтадиган бетон ванна, назорат-дезинфекция қурилмаси орқали ўтиши лозимлиги белгиланган. Лекин, 0157-04-сонли санитария қоидаларининг ушбу талаби унитар корхонанинг филиалларида бажарилмаяпти.

0157-04-сонли санитария қоида ва меъёрларининг 4 қисми 4.6.бандида полигонларга ўлган ҳайвонларни қабул қилиш таъқиқланганлиги кўрсатилган







ISSN (E): 2181-4570


бўлишига қарамасдан “Тоза ҳудуд” ДУКнинг Шеробод, Қизирик, Узун, Сариосиё, Денов, Шўрчи, Қумқўрғон, Жарқўрғон филиаллари полигонлари ҳамда “Био ЭКО Техно” МЧЖ полигини томонидан ўлган ҳайвонларни қабул қилиш давом эттирилмоқда, ўлган ҳайвонлар тегишлича утилизация қилинмаяпти.

0157-04-сонли санитария қоида ва меъёрларининг 7 қисми 7.1.бандида қаттиқ маиший чиқиндиларни фақат ишчи харита орқали тахлаш; қаттиқ маиший чиқиндиларни оралик ёки яқунловчи зичлаштириш ёзги пайтда ҳар куни бажариш лозимлиги кўрсатилган бўлсада, бу талаб Сурхондарё вилоят “Тоза ҳудуд” ДУКнинг бирорта ҳам филиалида бажарилмаяпти, яъни харита орқали тахлаш йўлга қўйилмаган. Шунингдек ёзги пайтда қаттиқ маиший чиқиндиларни ҳар куни кечаю-кундуз оралик ёки яқунловчи зичлаштириш ишларини бажариш йўлга қўйилмаган.

Ушбу санитария қоида ва меъёрларининг 7 қисми 7.2.бандида қаттиқ маиший чиқиндилар полигоида, унга келувчи йўлда ҳамда туташ ҳудудларда ишловчилар ва махсус автотранспорт воситалари ҳайдовчилари кучи билан ҳар 10 кунда санитария-ҳимоя зонасида тозалаш ўтказиш ва чиқиндиларни полигоннинг ишчи майдонларига чиқариш кўрсатилган бўлишига қарамасдан бу тадбир унитар корхонанинг бирорта ҳам филиали томонидан амалга оширилмаяпти.

Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 13-ноябрдаги “Аҳоли яшаш жойлари атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида”ги санитария қоида ва меъёрлари (Сан ҚваМ 0350-17)нинг 6.4. қисми (коммунал соҳаси иншоотлари, транспорт инфраструктураси, спорт, савдо ва ҳ.к. объектлари), 2-бўлими, 2-банди (қаттиқ маиший чиқиндилар полигои) – санитария ҳимоя зонаси 500 (беш юз) метрга амал қилинишлиги назарда тутилган, шу сабабли ўрганиш ўтказилган “Био Техно ЭКО” МЧЖда ҳамда Сурхондарё вилоят “Тоза ҳудуд” ДУКнинг Шўрчи филиалидан ташқари барча филиалларида санитария қоида ва меъёрларининг ушбу талаби бажарилган.

Хулоса: “Био Техно ЭКО” МЧЖ чиқиндиларни саралаш ва қайта ишлаш корхонаси ишчиларни саломатлигини яхшилаш ҳамда турли аллергия касалликларни олдини олиш мақсадида овқатланиш жойини ташкил этиш, овқат маҳсулотлари таркибида оқсил, ёғ, углевод, витамин ва минералларга бой






маҳаллий озиқ-овқат маҳсулотлари билан бойитиш ҳисобига тўлақонли овқатланишни ташкил этиш. Шунингдек, профилактик рационга амал қилган ҳолда ишчилар саломатлик кўрсаткичларини юқори даражага олиб назарда тутилган.

#### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 апрелдаги "2019-2028 йилларда Ўзбекистонда қаттиқ маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-4291-сонли Қарори.
2. Онищенко Г.Г., Ракитский В.Н., Синода В.А. Сохранение здоровья работников при внедрении здоровье- и ресурсосберегающей технологии // Россий-2015; 59 (6): 4—8.
3. Денисов Э.И., Прокопенко Л.В., Чесалин П.В. Медицина труда за рубежом. Международные и национальные документы и практика / Под ред. акад. РАМН Н.Ф. Измерова. М.: РЕИНФОР; 2010.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2004 йил 12-июлдаги “Ўзбекистон шароитида қаттиқ маиший чиқиндиларни махсус полигонларда сақлаш ва зарарсизлантиришга қўйилган санитария талаблари тўғрисида”ги санитария қоида ва меъёрлари (Сан Қ ва М № 0157-04)нинг 4 қисми 4.2. банди.





ISSN (E): 2181-4570

**SURXONDARYO VILOYATI TUPROQLARI TARKIBIDAGI  
RADIONUKLIDLARNI KO'CHISHIGA TA'SIR ETUVCHI FIZIK-  
KIMYOVIY OMILLAR TADQIQOTI**

**Bozorov L.U., Mustafouqulov A.G'.**

**Termiz davlat universiteti, e-mail: *bozorov.lutfulla@mail.ru***

**Annotatsiya**

Tadqiqotchi olimlarning fikriga ko'ra, tabiiy nurlanish manbalarining o'rtacha inson hayoti davomida to'plagan umumiy dozadagi ulushi 87% ni tashkil qiladi, qolgan 13% inson tomonidan yaratilgan manbalardir. Rivojlangan mamlakatlar radioaktiv chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun har yili milliardlab dollar sarflaydi. Shu sababli, bugungi kunda tabiiy muhitning radiometrik monitoringi katta ahamiyatga ega. Monitoring esa radiometrik aniqlashning optimal, yuqori samarali va samarali usulini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** radionuklid, radiometriya, spektrometriya, kompleks, seziiy-137, tuproq, radioaktivlik.

**KIRISH.** Sayyoramizdagi asosiy fon nurlanishi tabiiy nurlanish manbalari tomonidan yaratilganligi aniqlandi. Olimlarning fikriga ko'ra, o'rtacha odam umri davomida to'plangan umumiy dozadagi tabiiy nurlanish manbalarining ulushi 87%ni tashkil qiladi. Qolgan 13% texnogen manbalardan keladi. Ulardan 11,5% (yoki deyarli 88,5% radiatsiya dozasining "sun'iy" komponenti) tibbiy amaliyotda radioizotoplardan foydalanish hisobiga hosil bo'ladi. Qolgan 1,5% esa yadroviy portlashlar, atom elektr stantsiyalaridan chiqadigan chiqindilar, yadroviy chiqindilarni saqlash omborlaridan oqish va hokazolar oqibatidir[1].

Yer yuzida hayot paydo bo'lgandan buyon insonlar doimiy nurlanish ta'sir sharoitida rivojlanishda davom etmoqda. Ekotizimlarimiz doimiy nurlanish ta'sirsiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Aholi tomonidan qabul qilingan dozani turli nurlanish manbalaridan ta'sirsiz kamaytirishimiz mumkinligi ham ma'lum emas[2].

Tuproq unumdorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri tabiiy muhitda mavjud bo'lgan mikroorganizmlar va boshqa tabiiy xelatlashtiruvchi moddalar tomonidan boshqariladigan metallning kompleks hosil qilishidir [3]. So'nggi tadqiqotlar pestitsidlarning ortiqcha ishlatilishi tuproq unumdorligini pasaytirishi mumkin bo'lgan mikrofloriga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantiradi [4]. Tadqiqotlar





dunyoda tuproqdagi metallar ionlarining (rux, 49%, temir, 12%, marganets, 5%, mis, 3%, bor, 33% va molibden, 11%) ulushining xavotirli kamayishini ta'kidladi [5-8].

Surxondaryo viloyati tuproqlarida seziiy-137 va stronsiiy-90 radionuklidlarini radiometrik-spektrometrik aniqlashning to'g'riligi va ishonchliligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mass-spektrometrik aniqlash usulining afzalliklari aniqlashning aniqligi va yuqori sezgirligidir. Ammo uning qimmat va uzoq o'lchash vaqti sifatini pasaytiradi va biz tomonidan ishlab chiqilgan aniqlash usuli, o'rtacha sezgirlik va o'lchash xatolariga ega bo'lsa-da, qisqa o'lchash vaqti, arzon asboblardan va o'lchash qulayligi tufayli asbobning sifatini oshiradi va aniqlashning afzalligi hisoblanadi. Chunki ekologik favqulodda vaziyatlarda tirik organizm va atrof-muhit ob'ektlarini muhofaza qilishni ta'minlash choralari atrof-muhitga etkazilgan zarar darajasini aniqlash tezligi hisoblanadi. Va bu erda siz radionuklidlarni radiometrik-spektrometrik aniqlash uchun asboblarni taqqoslash uchun quyidagi jadvalni keltirishingiz mumkin[9].

Tadqiqotimizning asosi sifatida seziiy-137 va stronsiiy-90 radionuklidlarining standart namunalari, Surxondaryo viloyatining sobiq qishloq xo'jaligi aerodromlari hududi tuproqlari, zaharli kimyoviy moddalar omborlari tuproqlari va zaharli kimyoviy moddalar qabristoni fermer xo'jaliklari yerlari tuproq namunalari hisoblanadi.

**METOD.** Namuna olish vertikal tuzilishi, tuproq qoplamining bir xilligi, hududning relyefi va iqlimini hisobga olgan holda, shuningdek, ifloslantiruvchi moddalar yoki organizmlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Namuna olish atrof-muhit ta'sirida tahlil natijalarining buzilishini istisno qiladigan tarzda yotqizilgan sinov maydonchalarida amalga oshiriladi.

Qiyosiy natijalarni olish zarur bo'lsa, ifloslanmagan va ifloslangan tuproq namunalari bir xil tabiiy sharoitlarda olinadi.

Tuproqning umumiy ifloslanishi holatlarida sinov joylari koordinata panjarasida ularning soni va koordinatalarini ko'rsatgan holda belgilanadi.

Taxminan bir tekis ifloslangan tuproqlardagi namuna uchastkalari koordinatali panjarada teng masofalar bilan belgilanadi.

Taxminan notekis ifloslangan tuproqlardagi namuna uchastkalari chiziqlar orasidagi masofa notekis bo'lgan koordinatali panjarada belgilanadi.

Tarmoq liniyalari orasidagi masofalar ifloslanish manbasidan masofa va ustun shamol yo'nalishini hisobga olgan holda rejalashtirilgan.





Tuproqlar mahalliy ifloslangan taqdirda, ifloslanish manbasidan differensial masofada joylashgan konsentrik doiralar tizimi sinov maydonchalarini aniqlash uchun ishlatiladi, bunda doiralar raqamlari va namuna olish joyining azimuti ko'rsatilgan. Ifloslantiruvchi moddalarning asosiy tarqalishi yo'nalishi bo'yicha konsentrik doiralar tizimi segment shaklida davom etadi, uning hajmi ifloslanishning tarqalish darajasiga bog'liq.

Mass-spektrometrik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, seziy-137 gamma nurlanishining faolligini aniqlash bo'yicha mass-spektrometrik tajribalar ma'lumotlari radiometrik ma'lumotlardan (0,86 dan 0,89 dan) juda oz farq qiladi, ya'ni o'lchash xatosi saqlanib qoladi, degan xulosaga kelish mumkin. darajasi 10%. Shunday qilib, Surxondaryo viloyati tuproqlarida seziy-137 va stronsiy-90 radionuklidlarini radiometrik-spektrometrik aniqlashning aniqligi va ishonchliligini tekshirishingiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mass-spektrometrik aniqlash usulining afzalliklari aniqlashning aniqligi va yuqori sezgirligidir. Ammo uning qimmat va uzoq o'lchash vaqti sifatini pasaytiradi. Va biz tomonidan ishlab chiqilgan aniqlash usuli, o'rtacha sezgirlik va o'lchov xatolariga ega bo'lsa-da, qisqa o'lchash vaqti, arzon asboblardan va o'lchash qulayligi tufayli asbobning sifatini oshiradi va aniqlashning afzalligi hisoblanadi. Chunki ekologik favqulodda vaziyatlarda tirik organizm va atrof-muhit ob'ektlarini muhofaza qilishni ta'minlash choralari atrof-muhitga etkazilgan zarar darajasini aniqlash tezligi hisoblanadi.

**NATIJAR VA MUHOKAMA.** MKGB-01 radiometr-spektrometrida beta va gamma-nurlanishdan foydalangan holda Surxondaryo viloyati tuproqlaridagi seziy-137 va stronsiy-90 radionuklidlarining faolligini aniqlash uchun tarafimizdan ishlab chiqilgan usul AGMK AJ akkreditatsiyalangan laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. 2020-yil mart oyida Termiz tumanidagi fermer xo'jaliklaridan tuproq namunalari olindi. Tadqiqot natijalari jadvalda keltirilgan.

**Surxondaryo viloyati Termiz tumani tuproqlarida stronsiy-90 ning b- va g-nurlanishlarini aniqlash natijalari.**

( $t_{o'lchov} = 40$  min,  $E_{max} = 624$  keV,  $FV = 0,64$  imp/s\*Bq, BDEG-80, Marinelli idishi)





Yo'q.	* Shtrix-kod namunalari	Namuna olish joyi	b- nurlanishning o'ziga xos faolligi qiymati Sr -90, Bq / kg (HC=5,0)	g- nurlanishning o'ziga xos faolligi qiymati Sr -90, Bq / kg (HC=5,0)
1	T 1 - 20 V	Termiz tumani, "Amir polvon" MFY 12 er uchastkasi	0,80	0,94
2	T2 - 20 B	Termiz tumani Amir polvon MFY 13 er uchastkasi	0,76	0,89
3	T3 - 20 B	Termiz tumanidagi 18 er uchastkasi Termiziy MFY	0,91 __	0,93
4	T4-20 ___ G	Termiz tumanidagi 19- uchastka Termiziy MFY	0,75 __	0,82
5	T 5 - 20 G	Termiz viloyati, Zurmala MFY 21- uchastka	0,64	0,75


kg faollikdagi radionuklidlar tarkibini aniqlash imkonini beradi seziiy -137, stronsiy -90 uchun  $0,3 - 1,5 \cdot 10^4 \cdot 0,64 \text{ imp / s} \cdot \text{Bq}$  sezgirligi bilan murakkab tarkibli tuproq namunalari. Aniqlanishicha, ishlab chiqilgan usulda BDEG-63 va BDEG-150





detektor birliklaridan foydalanish uning o'lchash xususiyatlarini yomonlashtiradi, chunki ular asosan tub cho'kindilarda moslashgan.

Har bir yer qismidan 5 tadan namuna olinib, ularni Delta Plus mass-spektrometrida tekshirildi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan:




**1-rasm. Fon va 1-tuproq namunasining mass-spektr tasvirlari**

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, fon (toza tuproq) namunasining spektrida (1-rasmda yuqori qism) faqat tuproq tarkibidan suv molekularining chiqishi bilan bog'liq spektr 16,25 m.u. sohada namoyon bo'lgan, ya'ni tuproq namunasida radionuklidlar mavjud emasligi ko'rinmoqda. 1-rasmning pastki qismidagi spektr 1-tuproq namunasining ko'rinishi bo'lib, unda 331 m.u.dagi soha radionuklidlar bilan birgalikdagi tuproq namunasiga tegishli ekanligi, 253 m.u. sohada uglerod atomining 13-izotopi chiqishi va hokazo 51 m.u. sohada gumus qolganligi namoyon bo'lmoqda.

## XULOSALAR

Tuproqdagi radionuklidlar aniqlashning analitik, ekologik va optik tahlil usullari, barcha talablariga javob beradigan zamonaviy asboblardan va qurilmalardan (mass-spektrometr va radiometr-spektrometr) larning metrologik asoslari o'rganildi. Tuproqdagi radionuklidlarni aniqlash bo'yicha jahon, MDH va Respublika olimlarining tadqiqotlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasining janubiy hududlarida qo'llash mumkin bo'lgan, kam





xarajat, kam suv va kam mehnat talab qiladigan kungaboqar o‘simligini 3 yil davomida har yili yetishtirish va ekish davrlari oraliq‘i (kungaboqar aprel oyida ekilib, avgust oyida yig‘ishtirib olinadi) da yerni bo‘sh qoldirilsa, 3 yil davomida tuproqdagi radionuklidlarni 2,5 barobargacha kamaytirishi mumkinligi isbotlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Болтнева Л.И. и др. Глубинное распределение  $^{137}\text{Cs}$  в некоторых типах почв СССР в 1967 г. и мощность экспозиционной дозы гамма-излучения // М. Радиобиология. - 1971. - вып. 13.
2. Соболев И.М. Численные методы Монте-Карло //М. Наука. - 1973. – С. 258.
3. Alloway, B. J. (2008). *Zinc in Soils and Crop Nutrition, International Zinc Association (IZA), IFA, 2nd Edn.* Brussels; Paris: International Zinc Association (IZA) and International Fertilizer Industry Association (IFA).
4. Chapalamadugu S., Chaudhry G.R. (1995). Microbiological and biotechnological aspects of metabolism of carbamates and organophosphates. *Crit. Rev. Biotechnol.* 12, 357–389. doi: 10.3109/07388559209114232
5. Chapalamadugu.S., Chaudhry G.R. (1995). Microbiological and biotechnological aspects of metabolism of carbamates and organophosphates. *Crit. Rev. Biotechnol.* 12, 357–389. doi: 10.3109/07388559209114232
6. Chen R., De Sherbinin., Shi G. (2014). China’s soil pollution, farms on the frontline. *Science* 344, 691–691. doi: 10.1126/science.344.6185.691-a
17. Rakhimova D.I., Kolpakova G.V., Kuznetsova T.I., Litvinov A.V., Samokhvalova A.G. Management of civil position's formation of the student youth // International review of management and marketing. – 2016. – Т.6. №2. – С. 339-344.



**Управленческое решение: сущность и содержание.****Ш.А.Абдурашитова****М.М.Муяссарова****Ш.Д.Каримбоев**

**Аннотация.** Деятельность любого менеджера (лидера) связана с разработкой и внедрением того или иного решения в рамках выполнения служебных задач в организации. Управленческие решения (В Q) связаны с выполнением управленческих функций. Термин "управленческие решения" используется в двух основных значениях - как процесс и как явление. Как процесс ВQ, это выполнение восьми основных задач: подготовка информации - обработка внешней и внутренней информации, выявление и формирование проблемы, сбор и анализ информации о проблеме. Разработка вариантов - могут быть неэффективные, оптимальные (позволяющие решить проблему) и неоптимальные варианты решения проблем. Согласные варианты - могут быть внутренними и внешними.

**Ключевые слова.** Ресурсы, оборудование, Исполнительная власть, решения, высшие органы, клиенты

- Выбор одного из вариантов – на основании анализа целевого эффекта, затрат на получение этого эффекта, безопасности.

- Утверждение этого варианта – его могут утверждать вышестоящие органы, заказчики, клиенты или должностные лица

- Реализация этого варианта – это доведение решения до исполнителя и организация исполнения решения.

- Контроль его выполнения – предварительный, текущий и итоговый.

- Информирование инициатора решения о ходе исполнения – осознания новой ситуации.

Как явление УР – это набор мероприятий, направленных на разрешение рассматриваемой проблемы в форме постановления, приказа в устном и письменном виде.

Экономическая сущность УР, состоит в том, что для разработки и реализации любого УР имеет реальную себестоимость.

Организационная сущность УР состоит в том, что для разработки и реализации УР организации должна иметь соответствующие возможности, в том





числе: необходимый персонал компании; инструкции и положения, регламентирующий полномочия, права и обязанности и ответственность работников; требуемые ресурсы; техники и технологии; система контроля; возможность координации их работы.

Социальная сущность УР заключается в механизме управления исполнителями с целью достижения взаимодействия всех его участников. В самом УР или в процессе его разработки и реализации, должны быть учтены потребности и интересы человека, его мотивы и стимулы, установки и ценности, опасения и тревоги.

Правовая сущность УР заключается в возможности осуществлять заданные мероприятия в существующем правовом поле, то есть при строгом соблюдении законодательных актов Узбекистана, обязательств, уставных и других документов самой организации.

Технологическая сущность УР проявляется в возможности обеспечения персонала, участвующего в разработке и реализации УР, необходимыми техническими, информационными средствами и ресурсами.

В зависимости от условий разработки и реализации решения руководитель может оказаться в атмосфере сотрудничества либо равнодушия или даже противостояния подчиненных. Все зависит от подготовки:

- информационная подготовка: доведение до подчиненных перспективных и текущих направлений деятельности организации; обеспечение подчиненным доступности и своевременности информации; наличие современных технологий обработки информации;

- организационная подготовка: обеспечение персонала необходимыми материальными и интеллектуальными ресурсами; формирование персонала разработчиков и исполнителей УР; наличие должностных инструкции, положений; определение сроков и контрольных параметров выполнения работ; утверждение порядка сдачи работы.

- социально-психологическая подготовка: формирование ясных целей разработки и реализации УР; разработка и реализация активирующих мотивов и стимулов; формирование работоспособного коллектива; учет самых важных потребностей и интересов работников.





Деятельность любой организации представляет собой цикл разработки, выбора и реализации различных УР. Конкретная ситуация – это реальная положение дел, относительно сформулированной цели. Проблема формируется как разность между целью и соответствующей ситуацией.

Группы проблем сводятся в обобщенную проблему, которая и является индикатором эффективности реализуемых решений. При формировании обобщенной проблемы происходит упрощение и уменьшение общего количество проблем за счет вхождения одних проблем в другие и выделения наиболее важных среди них. Как правило, решение направлено на уменьшение проблемы до заданного уровня. Уменьшения проблемы можно достичь путем изменения ситуации или путем корректировки цели. Приоритет отдается УР, направленным на изменение конкретной ситуации, при этом величина проблемы должна постепенно убывать вплоть до минимально допустимой величины.

#### **Использованные литературы:**

1. Xudaykulova G.K., Muyassarova M.M., Abdurashitova Sh.A., “Menenjmentga kirish. Boshqaruvning asosiy nazariyalari va funktsiyalari” 2023 yil TTA .

2. Abdurashitova Sh.A., Muyassarova M.M., “Изучение факторов вызывающих у работников организации и учреждений, и их устранение” 2022yil TTA.

3. Klikov M. S., Спиридонов Э. С., Рукин М. Д., Menenjment. — М.: Ленанд. 2017. 312 с.

4. Abdusattorovich, K. F. (2022). PRINCIPLES OF RECOGNITION, ASSESSMENT AND ACCOUNTING OF LONG-TERM ASSETS IN INTERNATIONAL ACCOUNT TEMPLATES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 1133-1138.

5. Khakimov, F. A., & Turanov, M. S. (2022). The Economic Essence of Profit and the Initial Theoretical Foundations of its Formation. *Eurasian Research Bulletin*, 6, 95-97.

6. Abdusattorovich, K. F., & Asliddinovna, N. N. (2023). IMPROVING ACCOUNTING FOR LONG-TERM ASSETS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(05), 115-121.





ISSN (E): 2181-4570

7. Хакимов, Фахритдин Абдусатторович (2023). ПРИНЦИПЫ ПРИЗНАНИЯ, ОЦЕНКИ И УЧЕТА ДОЛГОСРОЧНЫЕ АКТИВОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (5), 669-676.

8.Korgovo M.A. Menenjment. Tashkilotlarni boshqarish. — M.: Юрайт. 2019. 198 b.

9.Gerchikova I.N. Menenjment: Darslik- M.:YUNITI , 2012 yil -499 bet.

10.Fatxutdinov R.A. Boshqaruv qarorlarni ishlab chiqish- M.: INTEL-sintez, 2011- 272 bet.

11.Винокур М. Е. Организация производства и менеджмент. О'quv-uslubiy majmua — M.: Loyiha. 2020. 168 b.





ISSN (E): 2181-4570

## QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA ULARNING KELAJAK UCHUN AHAMIYATI

*Qodirov Alibek Hamroyevich, Ahmedov Munisbek Muhammad o`g`li*  
*Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti Fakultetlararo umumtexnika fanlari*  
*kafedrası o`qituvchilari*

*Xudoyberganova Sevinch Mahmudovna*

*Urganch davlat universiteti Texnika fakulteti Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va*  
*elektr texnologiyalari ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

*Telefon: +99891 278 77 88*

*E-mail: [alibek\\_qodirov89@mail.ru](mailto:alibek_qodirov89@mail.ru)*

**Annonatsiya:** Dunyo miqiyosida qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobiga qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini tejashning asosiy tendentsiyalarni tahlil qilish keltirilgan. Qator mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanilishi hisobiga sohadagi erishilgan natijalar ko'rib chiqildi. Muqobil energetika sohasidagi yangi texnologiyalarni O'zbekiston hududiga mahalliyashtirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlantirish yo'llari nazariy ko'rib chiqilganligi keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** energiya ehtiyojlari, energiya manbalari, noan'anaviy energiya manbalari, qayta tiklanadigan energiya, muqobil energiya, energiya samaradorligi.

Ko'pchilikka ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan «O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati aholi, ijtimoiy soha obyektlari, yirik sanoat korxonalarini va o'rta va kichik biznes vakillarni sifatli elektr energiyasi bilan ta'minlashning ishonchliligini oshirishga qaratilgan loyihalashtirish-hujjatlashtirish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Aksiyadorlik jamiyati o'z tasarrufidagi 78 ta yuqori kuchlanishli podstansiyalar hamda 10 ming kilometrdan ziyod uzunlikka ega 220–500 kVli elektr tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish, ularni kapital, joriy va mavsumiy ta'mirlash, yuqori kuchlanishli elektr uskuna-jihozlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, shu bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo hamda mintaqadagi boshqa chegaradosh davlatlar bilan elektr energiyasi importi va eksporti







amaliyotlarini bajaradi. Strategik ahamiyatga ega korxonalar qatorida faoliyat yuritayotgan tashkilotda mehnat faoliyati olib borayotgan qariyb 5 ming ishchi-xodimlardan iborat jamoa, shuningdek, yuzlab og'ir va yengil avtomobil hamda mexanizmlar tunu kun iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot negizi bo'lgan elektr energiyasi ta'minoti bilan mashg'ul.

Ma'lumki, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining qariyb 85–90 foizi O'zbekistonning tabiiy boyligi hisoblanmish ko'mir, tabiiy gaz va boshqa neft mahsulotlarini yoqish evaziga ishlab chiqariladi. Hozircha O'zbekistondagi «yashil energiya» salmog'i atigi 10–14 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston gidroelektr inshootlari tomonidan o'tgan davr mobaynida, aniqrog'i 2017-yilda 7 mlrd 947 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 6 mlrd 126 mln. kVt•soatni tashkil etgan. 2019-yilda esa ishlab chiqarilgan 6 mlrd 513 mln. kVt•soat elektr energiyasi umumtizim orqali iste'molchilarga yetkazib berilgan. Ushbu ko'rsatkich mamlakatimizda ishlab chiqariladigan jami elektr energiyasining 13 foizini tashkil etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning tabiiy suv resurslaridan samarali foydalanilib, aholini qayta tiklanadigan, ekologik toza va arzon elektr energiyasi yetkazib ta'minlanayotganini anglatadi.

### INFOGRAFIKA:







2017-yilda 52 142,1 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun mamlakatimizda mavjud issiqlik elektr stansiyalari tomonidan 15,21 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 268,3 mln metr/kub yerosti gazi, 148,6 ming tonna mazut, 3,31 mln tonnadan ziyod ko'mir, 13,7 ming tonna neftkokks yoqilgan.

2018-yilda esa jami 56 311,3 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun bu ko'rsatkichlar umumiy hisobda 8,7 % ga oshgan, ya'ni 16,42 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 326,6 mln metr/kub yerosti gazi, 154,8 ming tonna mazut, 3,34 mln tonna ko'mirdan issiqlik energiyasi olinib, elektr energiyasiga aylantirilgan.


2019-yilda esa o'tgan yillarga nisbatan yirik miqdorda import qilingan elektr energiyasi hajmidan tashqari 56 413,8 mln. kVt•soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Buning uchun 15,81 mlrd metr/kub tabiiy gaz, 269,2 mln metr/kub yerosti gazi, 204,4 ming tonna mazut va 3,57 mln. tonna ko'mir yoqilgan.

**Qaytalanuvchi energiya manbalari** - biror jism (qattiq, suyuq va gaz holatida) o'z energiyasini energiyani boshqa turga aylantiruvchi moslamaga uzatib yana harakatda bo'lsa hamda o'z energiyasini xohlagan marta uzatib o'zi yo'qolib ketmasa bunday manba qayta tiklanuvchi energiya manbasi deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining ko'tarilib tushishi, to'lqinlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg'i, vodorod va kvant).

**Qaytalanmaydigan energiya manbalari** - organik yoqilg'ilardan bir marta foydalanilgandan so'ng ulardan qayta foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni qaytalanmaydigan energiya manbalari ham deb ataladi (organik yoqilg'ilar - neft mahsulotlari, toshko'mir va boshqa har xil qattiq yoqilg'ilar, gaz, atom va boshqalar).

**Ana'naviy energiya manbalari** - amaliy jihatdan elektr energiyasini boshqa energiya turlariga qaraganda olish oson va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini uzoq masofalarga uzatish imkoni bo'lgan manbalarini ana'naviy energiya manbalari deyiladi (organik yoqilg'ilar).

**Noana'naviy energiya manbalari** - organik yoqilg'ilarda ishlaydigan ana'naviy energiya manbalari o'rnini bosib elektr energiyasi (yoki boshqa zarur turdagi energiya) olish imkonini beradigan, hozircha keng qo'llanilmaydigan usul, qurilma yoki inshootlar noana'naviy energiya manbalari deyiladi (shamol, quyosh, suv sathining





ko'tarilib-tushishi, to'liqlar, kichik- va mini- hamda mikroGESlar, geotermal, kosmik, bioyoqilg'i, vodorod va kvant).


**Shamol energiyasi.** Bug' dvigatellari paydo bo'lguncha, Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Gollandiya va boshqa mamlakatlarda shamol energiyasidan juda katta masshtabda sanoatda va qishloq xo'jaligida qo'llanib kelingan. Shamol energiyasidan foydalanish bo'yicha olib borilayotgan hozirgi ishlar katta alohida shamol generatorlari yaratish va ularning energiyasidan ishlab turgan energiya tarmoqlariga ulashdan va asosiy tarmoq sifatida foydalanishdan iboratdir.

**Quyosh energiyasi.** Quyosh radiatsiyasining energiyasini doimiy elektr tokiga aylantirish mumkin. Buning uchun yupqa kremniy plyonkalari yoki boshqa biror yarim o'tkazgich materialdan foydalaniladi. Fotoelektrik energiyaga aylantirishning potensial qulayliklari:

- harakat qiluvchi qismlarning yo'qligi;
- ishlash muddati 100 yildan ortiq;
- ekspluatatsiya qilishning soddaligi, quyosh radiatsiyasidan samarali foydalanish mumkinligi.

Ammo bu usulda energiya ishlab chiqarish an'anaviy energiya ishlab chiqarishdan 75 martadan ko'proq qimmatroqdir. Shuning uchun hozirgi vaqtda arzonroq elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi qurilmalar ustida ish olib borilmoqda. Masalan, kremniy o'rniga arsenir gelyo qo'llanilmoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-sonli qarorining 1-sonli ilovasida 2030-yilda qayta tiklanuvchi energiya





manbalarning ulushini 25% ga yetkazish ko'rsatib o'tilgan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari - *atrof-muhitda tabiiy holda qayta tiklanuvchi quyosh, shamol energiyasi, yer harorati (geotermal), suv oqimlarining tabiiy harakati, biomassa energiyasi.* «Yashil energiya»ning asosida Yer yuzidagi hayot manbasi bo'lgan quyosh yotibdi. Shamol ham, suvning tabiatda erkin aylanishi va boshqa iqlim sharoiti bilan bog'liq jarayonlarning barchasi gallaktikamizning markaziy sayyorasi - quyoshning faolligi hisobiga amalga oshadi. U qayta ishlangani uchun «qayta tiklanuvchi» deb, ekologiyaga deyarli zarari bo'lmagani uchun «yashil energiya» deb ta'riflanadi va yuqorida ta'kidlanganidek, bugungi kunda Yer yuzida, shu jumladan O'zbekistonda ham asosiy ishlab chiqarish neft mahsulotlari evaziga bo'lgani uchun unga «muqobil» maqomi berilgan.

Geotermal manbalar yer tubida tuganmas miqdorda energiya to'playdi. Sanoatda foydalanish uchun yaroqli resurslar gidrogeotermal va petrogeotermalga bo'linadi. Gidrogeotermal manbalar (shu jumladan issiq suv tizimlari) 3,5 MPa gacha bosim ostida o'ta qizib ketgan bug` (taxminan 240 °C) ishlab chiqaradigan tizimlarga qaraganda ancha keng tarqalgan, tarkibida oz miqdorda boshqa gazlar, suv yoqlig`i (yoki past kontent) ma`lum. Odatda yuqori sifatli (arzimas qattiq moddalarni o'z ichiga olgan) bug` yerdan chiqarilgandan so`ng darhol an`anaviy bug` turbinasiga elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun yuborilishi mumkin. Rossiyada birinchi bo'lib 5 MVt quvvatga ega Puzetskaya GeoTES 1967 yilda Kamchatka yarim orolining janubiy uchida 11 MVt quvvatga ko'tarilgan. 12 MVt quvvatga ega Verxnemutnovskaya GeoTES va 80 MVt quvvatga ega Mutnovskaya GeoTESda (Kamchatka) issiqlik tashuvchisi sifatida mahalliy bug` ishlatiladi (bosim 0,8 MPa). 1989 yilda Shimoliy Kavkazda eksperimental Stavropol geotermal elektr stantsiyasi yaratildi, u yerda issiqlik tashuvchisi sifatida 4,2 km chuqurlikdan olingan 165 °C haroratli termal suv ishlatiladi. Iturup orolida (Saxalin viloyati) umumiy quvvati 30 MVt bo'lgan okeanik GeoTPP ishlaydi. 0,5 MVt quvvatga ega Kurilskaya GeoTES ishlamoqda. Bug`-gidrotermal manbalar konlari Rossiyada faqat Kamchatka va Kuril orollarida mavjud, shuning uchun geotermal energiya milliy miqyosda muhim rol o'ynay olmaydi, ammo energiya ta`minoti butunlay import qilinadigan yoqilg`iga, geotermal energiyaga bog`liq bo'lgan bu hududlar uchun energiya ta`minoti muammosini tubdan hal qila oladi.





Demak, yuqorida keltirilgan raqam va dalillardan xulosa yasab fikr yuritimizki, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini O‘zbekiston energetika sohasidagi salmog‘ida oshirib borish bugunning muhim vazifalaridan biri. Yuqorida sanab o‘tilgan investitsion loyihalar ortidan mamlakatimizga dunyoning ilg‘or raqamli texnologiyalari, zamonaviy qurilmalar bilan birgalikda undan samarali foydalanish dasturlari, ish uslubi, bilim-tajriba kirib keladi. Muqobil energiya manbalarining davlat miqyosidagi yirik loyihalari, o‘z navbatida, aholi xonadon, dala hovlilar, kichik va o‘rta biznes korxonalarida «yashil energiya» manbalaridan mustaqil ravishda foydalanishiga o‘ziga xos turtki bo‘lib xizmat qiladi. Uylar, bino va inshootlar energiya tejamkorlik va energiya samaradorlik nuqtai nazari bilan puxta muhandislik xulosalariga tayangan holda qurila boshlaydi. Hatto ayrim tadbirkorlar o‘z ehtiyojidan ortgan elektr energiyasini energetika bozorida sotib, buning evaziga foyda olishi, mamlakatimizning olis-olis hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. *Bir so‘z bilan aytganda, qanchalik qimmat va qiyin bo‘lmasin, «yashil energiya» - davr talabi!* Uni rivojlantirish va undan xalqimiz farovonligi, vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida oqilona foydalanish uchun O‘zbekistonda barcha imkoniyatlar mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Muxitdinov M., Ergashev S.F., Isakulov J.I. Quyosh energiyasidan foydalanish. Toshkent, DTM. 1999.
2. Umarov G‘., Usmonov M. Quyosh energiyasidan xalq xujaligida foydalanish. T.; “Fan”, 1984.
3. Shodimetov K. Muqobil energiya turlari- hayotga! – T: “SHARQ”, 2011.
4. Jo‘rayev T.D. Quyosh issiqlik qurilmalari. O‘quv qo‘llanma. – B “Dizayn-Press”, 2012.






ISSN (E): 2181-4570

**Mahalliy budjetlar faoliyatini raqamlashtirish, muammo va yechimlar.****Termiz davlat universiteti****Iqtisodiyot va turizm fakulteti****Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi****Rashidova Xadicha Tursunaliyevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Uy xo'jaliklari daromadlarini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ekonometrik modellari haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Mamlakat, tadbirkorlik, uy xo'jaligi, barqaror, model, natija, bozor iqtisodiyoti, moliyalashtirish, oila.


Mamlakatimizda so'nggi yillarda byudjet tizimida olib borilayotgan islohotlar mahalliy byudjetlar daromad manbalarini barqarorligini ta'minlashga asos bo'lib hisoblanmoqda. Hozirgi kunda hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy byudjetlarni daromadlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat o'zining funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun ma'lum bir xarajatlar qilishi zarur bo'ladi va ularni soliqlar va yig'imlar orqali mablag'larni to'playdilar. Soliqlar iqtisodiyotni boshqarishning asosiy qurollaridan biri bo'lganligi bois mutaxassislar doimiy ravishda soliqlar yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i haqida fikr va muloxazalar yuritadilar. Respublikamizning turli hududlari bo'ylab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi hamda iqtisodiyotni yangilash sharoitida mahalliy byudjetlarning faoliyatini samarali tashkil etish va mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini yanada oshirish davlat moliyasini isloh etishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlar boshqaruv tizimini isloh qilish va optimallashtirish masalalari byudjet qonunchiligini takomillashtirish oldida turgan muhim vazifadir. Hududlarning kompleks rivojlanishi, uning iqtisodiy salohiyati, xorijiy investitsiyalari va innovatsion texnologiyalarini jalb qila olish qobiliyati ko'p jihatdan hududlarning rivojlanganlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi dasturda o'z ifodasini topgan. Ta'kidlash joizki, hududlarni kompleks rivojlantirishda mahalliy byudjetlarning o'rni yuqori bo'lib, ko'plab hududiy loyihalarning amalga oshirilishi,





aholiga o'z vaqtida sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish darajasi mahalliy byudjetlarning mustaqilligi va daromadlarning barqarorligiga bog'liq hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va markazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy holati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjetlarning samarali shakllantirish masalalarini tadqiq etish va tahlil qilish zarurdir. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalar maqolaning dolzarbligini belgilab beradi. Mahalliy byudjetlar tizimi butun mamlakat miqyosida keng ko'lamli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshiruvchi davlatning moliyaviy dastagi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar orqali hududlarning daromadlari tarmoqlararo, hududlararo hamda ijtimoiy qatlamlararo qayta taqsimlanadi. Mazkur taqsimotning oqilona tashkil etilishi, samarali faoliyati qat'iy byudjet intizomiga rioya etilishiga bog'liqdir. Mahalliy byudjetlar umumdavlat miqyosidagi iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehtiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning





markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy holati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjetlar moliyaviy barorligini ta'minlash, samarali shakllantirish masalalarini o'rganish va tahlil qilish zarurdir. Mahalliy byudjetlar tarkibida byudjet dotatsiyasi va subventsiyalari ulushini kamaytirishda mamlakatimiz hududlarining iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha ekanligini ularning moliyaviy ta'minlanish ko'rsatkichlarida ko'rishimiz mumkin. Shunga muvofiq ravishda hududlar miqyosida daromadlarning soliq bazasi va

xarajatlarning umumiy miqdori ham farq qiladi. Ayni chog'da, mamlakatning o'z byudjetini shakllantirish huquqiga ega har bir ma'muriy hududi, daromadlar bazasi hajmidan qat'iy nazar, o'sha hududda yashovchi aholini davlat tomonidan kafolatlangan muayyan ijtimoiy-madaniy xizmatlar bilan ta'minlashi shart.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy moliya tizimi hamda mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash va byudjet siyosatini to'g'ri tashkil etish nechog'li zarurligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Diyorimizda tub islohotlar yanada chuqurlashayotgan hozirgi vaqtda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya va byudjet sohasida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish davr talabidir. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida yagona iqtisodiy hududni yaratish, yagona eng kam ijtimoiy xizmat standartlarini moliyaviy ta'minlash, fuqarolarga teng ijtimoiy himoya va ijtimoiy huquqlar kafolatlanishini, ya'ni mamlakatning barcha hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoitlar yaratilishini ta'minlash byudjetlararo munosabatlarning asosiy maqsadlaridir. Yurtimizda byudjetlararo munosabatlar doirasida davlat byudjetini shakllantirish, ko'rib chiqish, tasdiqlash hamda ijro etish jarayonida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida hokimiyat organlarining byudjet vakolatlari, huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari bo'yicha munosabatlari tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti





hamda mahalliy byudjetlar daromadlar va xarajatlar bo'yicha muvozanatlashgan bo'lishi shart. Rejali xarajatlarning uning daromadlaridan ortishi faqat respublika byudjeti parametrlarida ko'zda tutilishi mumkin.

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy faoliyat yuritishlari o'z daromad manbalari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Ular o'z hududlarida turli yo'nalishdagi vazifalarni bajarishlari uchun yetarli miqdorda moliyaviy mablag'ga ega bo'lishlari zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алляяров С. Р., Зайнитдинов С. М. Ў. Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи //Science and Education. - 2021.
2. Алляяров С. Р., Кандахарова Ш. Н. ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ //СТОЛИЦА НАУКИ. - 2021.
3. Алляяров С. Теоретическое исследование оптимальной фискальной и денежно-кредитной политики для стимулирования экономического роста // Научный журнал финансов и бухгалтерского учета. 2018.
4. Алляяров С., Набиев Е., Алляяров С. Амануллаева Ю. (2020) Пути улучшения налогового механизма для обеспечения финансовой безопасности страны //International Journal of Advanced Science and Technology.
5. Алляяров С., Алляяров С., Юлдашева У., Маджидов Н. (2020). Оценка эффективности результатов бюджетной политики Республики Узбекистан. Международный журнал передовых наук и технологий.
6. Кабулов Х. А. Приоритетные вопросы стратегии развития доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика. - 2020.
7. Кобулов Х. А. Место и роль доходов местного бюджета в улучшении доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика.- 2020.
8. Кобулов Х. А. ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ ПУТЕМ УЛУЧШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //Современная наука: актуальные вопросы, достижения и инновации. - 2020.
9. Kobulov K. Modeling the processes of forming a strategy for the revenue potential of local budgets // Архив научных исследований.- 2020.
10. Malikov T. et al. Methodological approaches to assessing and forecasting the tax potential of the region //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). - 2021.








ISSN (E): 2181-4570

**BOZORDAGI ASSIMETRIK AXBOROTLARNI YO'QOTISH YO'LLARI****Sharipova Zulayxo Abdirimovna****“Ma'mun-universiteti” NTM “Iqtisodiyot va  
buxgaltera hisobi” kafedrasi katta o'qituvchisi****Omonboyeva Barnoxon****Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti****Iqtisodiyot yo'nalishi birinchi kurs talabasi****Telefon raqami:+998(91)-423-52-51**

**Anotatsiya:** To'liq bo'lmagan ma'lumotlar- bu keng qamrovli ma'lumotlarning etishmasligi, ayniqsa bir tomonning harakatlarini boshqa tomonlar nazorat qila olmaydigan hollarda. Axborotning to'liqsizligining turlaridan biri uning assimetriyasidir. **Axborot assimetriyasi-** bu bitim taraflari o'rtasida mahsulot haqidagi ma'lumotlarning notekis taqsimlanishi.

**Kalit so'zlar:** Axborot assimetriyasi, "limon" bozori modeli, narx raqobati, qimmatli qog'oz, standartlashtirilgan mahsulot, axborot quroli, salbiy tanlov.

**Tadqiqot materiali va usullari:** Asimmetrik ma'lumotlarning ikki turi mavjud bo'lib, ularning har biri ma'lum bir iqtisodiy muammoni keltirib chiqaradi. Ushbu turlardan biri sotuvchi tomonidan ham, xaridor tomonidan ham yashirin xususiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. 1970 yilda J. Akerlof hozirgi vaqtda "limon" bozori deb ataladigan mashhur modelni taklif qildi. Ushbu model doirasida avtomobillar bilan ifodalanadigan foydalanilgan avtomobillar bozori ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "o'rtacha past" deb ta'riflanishi mumkin bo'lgan sifat. Yaxshi mashinalarni sotuvchilar ularni ma'lum bir narxda sotishga tayyor, ammo bu narx yomon mashinalar narxidan yuqori. Yomon mashina sotuvchilari o'z mashinalarini yaxshi mashinalar uchun xohlaganidan pastroq narxda sotishni xohlashadi, lekin faqat ular tovarlarning sifati haqida bilishadi va xaridorlar bilishmaydi shunda ma'lumotlarning assimetriyasi aniq. Bozorda ba'zi o'rtacha narx belgilanadi. Bu yaxshi mashina egalariiga mos kelmaydi va ular bozorni tark etadilar. Faqat "limonlar" (Amerika jargoni) qoladi, ularning egalari uchun belgilangan narx kutilganidan oshadi. Va bu mashinalar sotib olinadi, garchi ularning sifati hatto sotuvchilarning narxiga mos kelmasa ham, ular bu haqda indamaydilar va xaridor yomon mashinani oshirilgan narxda sotib oladi, chunki u haqida ma'lumot yo'q. Xaridorning tovar narxlari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega





emasligi, shuningdek uning sifati to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi bozorda sotuvchilarning past konsentratsiyasi bo'lgan firmalarga tovarlarni olish imkonini beradi. Narx raqobati bozorda firmalar o'rtasida cheklangan bo'lsa, kuchliroq, yomon xaridorlar turli sotuvchilardan o'rnini bosuvchi tovarlar narxlari darajasidan xabardor. Har xil sotuvchilarning o'xshash tovarlari narxlari darajasi to'g'risida xaridorlarning hech bo'lmaganda bir qismi ma'lumotlarning yetishmasligi narxni oshirishga imkon beradi. Bozor munosabatlarning barcha ob'ektlari o'zlari duch keladigan hamma narsa haqida ma'lumotni tanlash, tahlil qilish va to'plash qobiliyatiga ega emas..

- Sifati faqat sotib olingandan keyin aniqlanishi mumkin bo'lgan mahsulotlar

Uzoq vaqt davomida sotib olingandan keyin ham sifatini aniqlash qiyin bo'lgan tovarlar (uy). Bunday holatlar mumkin: kredit bozori va sug'urta bozorida ma'lumotlarning assimetriyasi xizmat ko'rsatish sifati bilan emas, balki mijozning keyingi nazoratsiz harakatlari bilan bog'liq. Agar tovar bozorlarida ko'pincha sotuvchi to'liq ma'lumotga ega bo'lsa, lekin mijoz yo'q bo'lsa, bu yerda aksincha, sotuvchi o'z mijoz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasa, mijoz qoida tariqasida o'zini qanday tutishini biladi va sotuvchi esa mijozning kelajakdagi xatti-harakatlari haqida bilmaydi.

Moliyaviy bozorlarda axborot assimetriyasi tufayli yuzaga keladigan bir qancha asosiy muammolar mavjud:


- salbiy tanlov muammosi;
- insofsizlik xavfi muammosi;
- davlat tekshiruv muammosi.

Masalan, ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlarga nisbatan axborot assimetriyasi muammosi shundan dalolat beradiki, ularning emitenti (emissiya qiluvchi) taklif etilayotgan qimmatli qog'ozlarning sifati va ular ortidagi ipoteka kreditlari to'g'risida investorga qaraganda ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Investorlarda ipoteka bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar to'g'risida etarli ma'lumotga ega bo'lmasligi ularni qimmatli qog'ozlarni sotib olishda ikkilanishlariga yoki riskni qoplash kabi qimmatli qog'ozlar bo'yicha yuqori daromad olishni talab qilishga olib kelishi mumkin. Axborot assimetriyasi boshqa ko'plab bozorlarda ham mavjud. Mana





bir nechta misollar: chakana savdo do'konlari bunday do'kon mahsulotdagi nuqsonni tuzatadimi yoki uni qaytarib beradimi?, noyob markalar, tangalar, kitoblar va rasmlar sotuvchilari bu buyumlar aslmi yoki soxtami?. Diler ularning haqiqiyliги haqida sizdan ko'ra ko'proq biladi; tom yopishchilar, chilangarlar, elektrchilar (tom yopishchi o'z ishining sifatini tekshirish uchun uni ta'mirlash yoki ta'mirlashda haqiqatan ham tomga chiqasizmi?); restoranlar (oshpaz ishlatadigan mahsulotlarning yangiligini va uning sog'liqni saqlash qonunlariga muvofiqligini tekshirish uchun oshxonaga qanchalik tez-tez borasiz?) kabi savollar yuzaga keladi. Bularning barchasida sotuvchi mahsulot sifati haqida xaridorga qaraganda ko'proq narsani biladi. Sotuvchilar esa xaridorlarga sifatli ma'lumot bera olmaguncha, sifatsiz tovar va xizmatlar yuqori sifatli tovar va xizmatlarni siqib chiqaradi va bozor ishlamaydi. Shu sababli, ikkinchisining sotuvchilari iste'molchilarni ularning sifati haqiqatan ham yuqori ekanligiga ishonitirishdan juda manfaatdor. Yuqoridagi misollarda bunga asosan obro' bilan erishiladi. Siz ushbu maxsus do'konda xarid qilasiz, chunki u mijozlarga yaxshi xizmat ko'rsatishi bilan mashhur; siz ushbu tom yopish ustasi va chilangarni yollaysiz, chunki ular obro'ga ega yaxshi ishchilar; siz ushbu maxsus restoranga borasiz, chunki u ishlatiladigan mahsulotlarning yangiligi bilan mashhur va siz bilgan hech kim unga tashrif buyurganingizdan keyin qusmagan. Ba'zida tadbirkorlar o'z obro'sini saqlab qolishga qodir emaslar. Masalan, avtomagistral yoki moteldagi mijozlarning aksariyati u erga faqat bir marta yoki vaqti-vaqti bilan sayohat paytida borishadi. Xo'sh, qanday qilib "limon" muammosi bo'lgan bu restoran va motellar bo'lishi mumkin? Yagona yo'l uning yechimlari standartlashtirishdir. O'z shahringizda yashab, siz McDonald'sda ovqatlanishni xohlamasligingiz mumkin. Biroq, magistral bo'ylab haydab, nonushta qilishni xohlasangiz, siz McDonald'sni tanlaysiz. Gap shundaki, McDonald's standartlashtirilgan mahsulotni taklif qiladi; bir xil ingredientlardan foydalaniladi va mamlakat bo'ylab har bir McDonald'sda bir xil taom beriladi. Balki Jo Dinner yaxshiroq narsani o'ylab topadi, lekin siz McDonald'sda nimani sotib olishingizni aniq bilasiz. Axborot assimetriyasi axborot va psixologik ta'sir va axborot qurollarining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Axborot urushining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan axborot assimetriyasi har qanday davlatning axborot makonini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Asimmetrik axborot ta'siri (qurol) tajovuz qurboni uchun sezilmaydi va unga simmetrik tartibni himoya qilish reaksiyasi yo'q. Asimmetriya eng kuchli raqibga jiddiy zarar etkazish imkonini beradi, chunki u har doim uning simmetrik himoyasida





zaif tomonlarni topadi. Axborot assimetriyasi hodisani uning turli jihatlaridan kelib chiqib ajratib ko'rsatish, yaratish imkoniyatiga asoslanadi. har xil turlari Yangiliklar. Axborot assimetriyasi axborot makonining noaniqligiga asoslanadi. Uning biron bir elementini blokirovka qilganda, har doim boshqasidan foydalanish imkoniyati mavjud bepul joy. Bunday o'tishlarning cheksizligi sof jismoniy makonda mumkin emas, lekin axborot makonida mumkin. Natijada, har qanday tashviqot harakati axborot-psixologik makonda assimetriya hosil qiladi, diqqatni ma'lum bir nuqtai nazardan makonning bir tomoniga qaratadi.

**Xulosa:** Axborot assimetriyasi ishchilarni yollash bosqichida namoyon bo'ladi. Ayni paytda ish beruvchi sotib olingan tovarlarning haqiqiy sifatini bilmaydi. Shu bilan birga, bir qator boshqa xususiyatlar (ma'lumot, yosh, jins, millat, ish tajribasi) mavjud bo'lib, ular ishchi kuchining sifati, xodimning imkoniyatlari va qobiliyatlari haqida signal ma'lumoti sifatida qaraladi. Ta'lim signallari eng muhimlaridan biridir. Axborot assimetriyasining yana bir jihati shundaki, ko'pgina firmalar ish haqi darajasini muvozanatga nisbatan ortiqcha baholaydilar, chunki ular tushunishadi: bir tomondan, yuqori ish haqi yuqori korporativ madaniyatni shakllantirish uchun yanada qizg'in mehnat va shart-sharoitlarni talab qiladi; boshqa tomondan, u ishdan bo'shatilgan taqdirda xodimlar uchun yuqori potentsial yo'qotishlarga olib keladi. Moliyaviy bozorlarni tahlil qilish asosida ma'lumotlar assimetriyasi tovarlar ishlab chiqarishdan ko'ra alohida xizmat ko'rsatish sohalari uchun ko'proq xosdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu yerda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sotilgan tovarlar va xizmatlar sifati to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Bu yerda iste'molchilar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, ijro etuvchi hokimiyat va firmalar nazorat funksiyasini bajarishi kerak. Axborot assimetriyasini boshqarish mumkin - axborot urushi tushunchalari va texnologiyalari axborot assimetriyasini boshqarish shakllaridir. Axborot quroli axborot assimetriyasini yaratadi va undan foydalanadi. Axborot assimetriyasini boshqarishga nisbatan axborot hujumi axborot assimetriyasini kuchaytirish, undan himoyalanih esa axborot assimetriyasini kamaytirish vositasidir.






ISSN (E): 2181-4570

**Foydanilgan adabiyotlar:**

1. <https://motherhouse.ru/uz/arenda-kvartir/asimmetrichnost-informacii-privodit-k-asimetriya-informacii-ponyatie/>
2. Ishmuxamedov A.E., Eshov M.P., Sunnatov M.N. «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» - O'quv qo'llanma - T.: TDIU, 2006 – 208 bet.
3. Экономическая теория: Учебник / Под общ. ред. акад. В.И. Видяпина, А.И. Добрынина, Г.П. Журавлевой, Л.С. Тарасевича. — М.: ИНФРА-М, 2003. — 714 с — (Серия «Высшее образование»).
4. Ломакин В.К. Л74 Мировая экономика: Учебник для вузов. — 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. - 735 с.
5. [https://files.data-economy.ru/Docs/White\\_Book.pdf](https://files.data-economy.ru/Docs/White_Book.pdf)
6. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)





**Qoraqalpog‘iston shimoliy tumanlarida araxis (*Araxis hypogaea* L.)  
yetishtirish texnologiya**

**Eshmuratov Elbrus Gaybullaevich**

*Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori k.x.f.d. (PhD)*

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institut*

*O‘zbekiston Nukus*

**Atabayev Izzat Bazarbay o‘g‘li**

*Magistr, O‘simlikshunoslik (ekinlar guruhi bo‘yicha)*

*Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institut*

*O‘zbekiston Nukus*

**Annotatsiya:** Yeryong‘oq o‘simligi moyli o‘simlik bo‘lib, u moy va oziq-ovqat sanoatida ahamiyali hisoblanadi. Yeryong‘oq o‘simligi bugungi kunda oziq-ovqat sanoatda ekporti yildan yilga ortiq bormoqda, bu xalqning oziq-ovqatga bolgan talabni qondirish maqsadida yeryong‘oq o‘simligining ahamiyat katta ekanligini korsatadi.


**Аннотация:** Растение арахиса является масличным растением, которое имеет важное значение в масложировой и пищевой промышленности. Сегодня экспорт арахисового растения в пищевой промышленности увеличивается из года в год, что свидетельствует о важности арахисового растения для удовлетворения потребностей населения в продуктах питания.

**Kalit so‘zlar:** yeryong‘oq, kultivatsiya, moy, oziq-ovqat

**Ключевые слова:** арахис, выращивание, масло, продукты питания.

Yer yong‘oq (*Arachis hypogaeae* L.) qimmatli moy va oziq-ovqat o‘simlikdir. Uning tarkibida 45-66% qurimaydigan va istemol qilinadigan moy boladi, u yuqari sifatli konservalar, kandolat mahsulotlari, va margarin tayyorlash uchun ishlatiladi. Uning tarkibida 23-38% oqsillar va vitamin mavjud. Yeryong‘oq yetishtiriladigan maydonning 97 foizi, yalpi hosilning 94foizi rivojlanayotgan mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda 5,5-6,0 ming gektar yerga ekib kelinmoqda, ilg‘or innovatsion texnologiyalar qo‘llanilganda 20-40 s/ga va undan ham yuqori hosil yetishtirilmoqda [2].

Yaqin kelajakda yeryong‘oq ekin maydonlarini kengaytirish, bir





gektarmaydondan olinadigan hosil miqdorini oshirish hisobiga qandolatchilik sanoatini respublikada rivojlantirish va mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksportga yo'naltirish borasida ishlar davom ettirilmoqda. Yeryong'oqning vatani - Janubiy Amerika (Braziliya). 16-asrda Janubiy Amerikadan Osiyoga, so'ng Yevropaga tarqalgan. Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlarining ulushiga to'g'ri kelib, aynan shu mamlakatlarda yetishtirilgan mahsulotning 60-80% qayta ishlanadi. Dunyo bo'yicha eng yuqori hosildorlik Xitoy (2,5-3,0 t/ga) va Amerika Qo'shma Shtatlarida (3,0-4,0 t/ga) qayd etilgan. O'zbekiston yeryong'oq yetishtirish bo'yicha dunyoda 51-o'rinni, hosildorlik bo'yicha esa 1-o'rinni egallagan,

Respublikamizda bu ko'rsatkich o'rtacha takroriy ekin sifatida parvarishlanganda 1,5-1,8 t/ga ni, asosiy ekin sifatida ilg'or fermer xo'jaliklarida yetishtirilganda 3,5-4,0 t/ga ni tashkil qiladi. O'zbekistonda yeryong'oqni yetishtirish, dunyo mamlakatlarida bo'lgani kabi, asosan ichki bozorga qaratilganidir [5]. O'zbekistonda 2017 yilgacha 5,5-6,0 ming gektar, 2020 yilga kelib 19 ming gektardan ortiq maydonlarda yeryong'oq asosan takroriy ekin sifatida ekib kelinmoqda. Takroriy ekin sifatida yetishtirilganda o'rtacha 15-20 s/ga, asosiy ekin sifatida ilg'or innovatsion texnologiyalar qo'llanilganda 30-35 s/ga undan ham yuqori hosil olinmoqda. Yeryong'oq - *Fabaceae* dukkakdoshlar oilasiga, *Arachis hypogaea* L. avlodi va turiga mansub bir yillik moyli o'simlik [2]. Sistematikasi


Bo'lim: Gulli o'simliklar (magnoliya toifa)

Sinf (ajdod): Ikki urug'lilar (magnoliyasimonlar) Oila: Dukkakdoshlar (*Fabaceae*)

Turkum: Yeryong'oq (*Arachis*)

Tur: *Arachis hypogaea* L.

Yeryong'oq (*Arachis hypogaea* L.) *Fabaceae* oilasiga mansub bo'lib, bu oila o'z navbatida 70 dan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. Shundan faqat bitta turi *Arachis hypogaea* L. madaniylashtirilgan bo'lib, xalq xo'jaligida keng foydalaniladi. Madaniy yeryong'oqning ikkita (*Hypogaea* va *Fastigiata* kenja turlari bo'lib, ular o'z navbatida *Hypogaea* (*hypogaea hirsuta*), *fastigiata* (*fastigiata*, *vulgaris*, *peruviana*,





aequatoriana) botanik nav guruhlariga bo'linadi. Yeryong'oq issiqsevar, namsevar, yorug'sevar va qisqa kun o'simligi [6]. Yeryong'oqning ildizi o'q ildiz, tuproqqa chuqur kirib boradi, azot to'plovchi tugunaklar hosil qiladi.



**1-rasm.** Yer yong'oq o'simligining chorlangan tuproqlarda unib chiqishi

Yon tarafdin chiqqan ildizlar asosiy ildizga vertikal holatda joylashgan. Ildizlar 90-120 sm chuqurlikkacha o'sib boradi. O'rtacha yosh ildiz og'irligi tuproq usti qismida shakllangan nihol og'irligining 14 foizini tashkil etadi. Asosiy va yon ildizlar ustida kurtak shaklidagi tugunlar, ya'ni atmosferadagi biologik azotni o'zlashtiruvchi Rizobium bakteriyalari joylashgan kurtaklar shakllangan bo'ladi [8].

Poyasi o'tsimon, balandligi 50-60 sm, shoxlangan, tik, yon shoxlari yer bag'irlab o'sadi. Ba'zi turlarida (asosan tik o'suvchanlarda) antotsian (siyohrang) rang beruvchi moddasi bor. Antotsianli bo'lganlarning poyalari boshqalarnikiga nisbatan yog'ochsimon. Bu o'simliklarda turlarga ko'ra yon poyalar yoyiq, qiya va tik shaklda o'sishi mumkin. Yeryong'oq poyalari endi o'sayotgan paytida burchakli va yassidir, rivojlanganida esa poyalar yumaloqlashadi. Poya rangi, yashil va to'q yashil orasida o'zgarib turadi. Odatda poyaning ustida hech nima yo'q, ammo ba'zi turlarida tuk mavjud. Bargi murakkab, juft patsimon, yoki teskari tuxumsimon shaklda har bir barg qo'ltig'ida gulto'plam (shingil) joylashgan. Barglar, yorug'likka va qurg'oqchilikka








qarshi chidamli hisoblanib, kechqurunlari va qurg'oqchilik paytida qarama-qarshi shaklda yopiladi. Barglarning shakllari uzun-ovalsimon. Barg ranglari poyalari kabi turiga bog'liq bo'lib, och yashil rangdan to'q yashil rangga o'zgaradi. Urug'ida moy miqdori ko'p bo'lib, o'simlik moyi olish uchun parvarishlangan turlarga mansub navlarda barglar yirik va och yashil rangda bo'lishi bilan urug'idan oziq-ovqat sanoatida foydalaniladigan navlardan farqlanadi. Gullari ikki jinsli, rangi sariq, zarg'aldoq. Yer tagidagi gullari ochilmaydi, o'zidan changlanadi. Yer ustidagi gullari esa chetdan changlanadi. Guli changlangandan keyin tugunchasi avval tik, so'ng pastga qarab o'sadi, 8-10 sm chuqurlikda tuproqqa kirib boradi va meva (dukkak) tugadi [2].


Ginafor, yeryong'oqga xos bo'lib, tuproq ichida dukkak hosil qiluvchi yosh o'simalardir. Uning guli boshqa o'simliklardan ajratadigan o'ziga xos qismi hisoblanadi. Gullar urug'langandan so'ng gultojbarglaritokiladi va har bir gulning urug'lanishidan 10-12 kundan so'ng, tuxumdonning ostidagi to'qima tezda ko'payadi va vaqti bilan tuxumdonni o'rab olgan to'qima bilan birlashib kengaytma hosil qiladi va bu kengaytmaga ginafor deyiladi. Odatda ginoforning bo'yi 15 sm bo'ladi. Ginaforlar tuproqqa kirgandan so'ng 8-10 kundan so'ng qobiqlarni hosil qilishni boshlaydi. Ginaforlar tuproqqa qarab rivojlanadi va tuproqqa kirib dukkak qobiqlarni shu yerda hosil qiladi. Ginaforning novdaga o'xshash tuzilishi, ildizga o'xshash vazifasi bordir. Tuproqda ginaforning uchidagi urug'langan tuxumdonning rivojlanishi bilan meva, ya'ni yeryong'oq dukkagi paydo bo'ladi. Gullashdan taxminan 2 oy o'tib ilk meva hosil bo'ladi. Har bir o'simlik uchun nav va parvarishlanish sharoitlariga ko'ra, 20-40 donayetuk meva hosil qilishi davom etadi. Dukkagida 2-4 tagacha urug'i bo'ladi. 1000 ta dona urug'ining vazni 200-1500 g (o'rtacha 400-500 g). Dukkagi chatnamaydi. Bir tupda 700 tagacha dukkak bo'ladi. Yeryong'oq mevasi ma'lum kattalikka erishgandan so'ng, tarkibida urug'lar paydo bo'lishni boshlaydi. Dukkaklar ichida odatda 1-3 dona urug bo'ladi. Urug'ning atrofini yupqa qog'oz kabi urug' po'stlog'i o'rab turadi. Tarkibida 45-55 foiz moy, 20-25 foiz oqsil, 16-18 foiz uglevod va mineral moddalar mavjud [1].

Qumoq va unumli tuproqlarga talabchan, sho'rlangan va botqoqlangan yerlarda





yaxshi o'smaydi. Urug'i 12-15° C da unib chiqadi, maysasi -1° C sovuqda nobud bo'ladi. O'suv davri 150-170 kun. O'zbekistonda yer yong'oq sug'oriladigan yerlarga ekiladi, hosildorligi 20-40 s/ga. Mevasi tarkibida 48-66% yog', 23-38% oqsil va 22% gacha uglevodlar bor. Yeryong'oq tuproqda biologik azot to'plab, tuproq unumdorligini oshiradi. Urug'i va yog'i qandolatchilikda ishlatiladi. Yog'i qurimaydigan yog'larga kiradi, sifati jihatidan zaytun yog'iga tenglashadi [8].



**2-rasm.** Yer yong'oq o'simligining gulash davri

Poyasi, bargi chorva hayvonlari uchun yaxshi oziqa. Respublikamizda tuproq-iqlim sharoitida yeryong'oq ekish uchun maxsus seyalkalar mavjud emas. Biroq katta maydonlarga yeryong'oq ekish uchun Turkiyada ishlab chiqilgan seyalkalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, urug'larni bir me'yorda, bir xil chuqurlikda ekish, ustini tuproq bilan sifatli yopish operatsiyalarini bajarishda Ruminiya (SPCH-4-6-8M) seyalkalaridan ustunlikka ega ekanligi tajribalarda aniqlandi. Agrotexnikasi chopiq qilinadigan ekinlarnikiga o'xshash. 2-3 marta haydalib boronalangan maydonlarga bahorda aprel oylarida ekiladi. Fosforli va azotli o'g'itlarga talabchan. Urug'i yoki dukkagi makkajo'xori yoki chigit seyalkalarida keng qatorlab (60-70 sm) 70x10, 70x15 sxemasida har uyaga 7-8 yoki 4-5 tadan urug' tashlab 5-7 sm chuqurlikka ekiladi. Gektariga 70-100 kg urug'lik sarflanadi. O'sish davrida 4-6






marotaba sugʻoriladi. Qator oralariga ishlov beriladi, oʻsuv davrida 2-3 marta chopiq qilinadi, ildiz boʻgʻzi tuproq bilan koʻmilsa hosildorlik ancha oshadi [7]. Hozirgi kunda Qoraqalpogʻiston sharoitda 2ta navi yetishtirilmoqda bular **Lider** – Oʻzbekiston oʻsimlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti seleksion navi. Nav mualliflari: Amanova M., Rustamov A. Vegetatsiya davri: 150 kun. Poya balandligi: 35-38 sm. Yon shoxlar soni 5-13 ta. Barg rangi yashil, urugʻi rangi qizil. Hosildorligi: 40 s/ga. Moy miqdori 49,8%. Sinov davrida qishloq xoʻjalik kasalliklari bilan zararlanish holatlari kuzatilmadi. 2015-yildan Respublika boʻyicha sugʻoriladigan yerlarda ekish uchun Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida barcha viloyatlarda ekish uchun tavsiya qilingan [6].

**Yetishtirish texnologiyasi** . Yeryongʻoq donli (arpa, bugʻdaoy makkajoxir) kartoshka va ildizmevalar , sabzavotlardan keyin ekiladi . yeryongʻoq dala ekinlari uchun yaxshi oʻtmishdosh boʻlib hisoblanadi.

**Ogʻitlash.** Shudgordan oldin 10-15 t goʻng va 60-80 kg fasfor solinadi. Osuv davrida 20-30kg azot va 60-80 kg fasfor beriladi. Yer yongʻoq ekiladigan yer chimqirqali plug bilan 27-30 sm chuqurilikda chudgor qilinib haydaladi. Erta bahorda (Fevral-mart) oylarda borona qilinadiekishgacha 1-2 marta kultivatsiya qilish kerak va yana borona qilinadi. Yeryongʻoq keng qatorlab . qator orasi 60-70 sm qatorda oʻsimliklarning orasi 10-15 sm qilib ekiladi yer yongʻoq aprel-may oylarda ekiladiekish chuqurligi 5-7 sm boʻladi. Ekish uchun urugʻ yoki bitta urugʻli dukkaklar ishlatiladi.bir gektar maydonga 70-100 kg urugʻ sarflanadi. 1000 urugʻning vazni 200-400g boladi. Maysalar koʻringandan keyin qator orasiga ishlov beriladi.3-4 marta kultivatsiya qilinadi. yagana qilinmaydi. Sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda 5-6 marta sugʻoriladi. Tuganaklar va dukkaklar hosil boladigan davrida tez-tez sugʻiladi. Yeryongʻoq toʻla ekilganda dukkakdan ginoforlar oson ajraladi, bargi sargʻayadi.





**3-rasm.** Yer yong‘oq o‘simligining mevasi.

**Xulosa.** Araxis o‘simligi moyli o‘simligi va oziq-ovqat sanoatida ahamiyati katta, Qoraqalpog‘istonda bu o‘simlikning mevasini eksporti yilda-yilga ortib bormoqda. O‘simlikning iqtisodiy samaradorligini oshirish, kasalliklarga chidamlilik mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy ertapishar navlarni respublikamiz iqlimiga moslashtirish va keng maydonlar ekishga tadbiiq qilish ahamiyatli hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Atabayeva X.N., Umarov Z. va boshqa. O‘simlikshunoslik, -Toshkent: -Mehnatl, 2000, 270 b.

2. Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B. Yeryong‘oq. Monografiya. -Navro‘zli nashriyoti. 8,85 b.t., Toshkent, 2019. – 140 b

3. Xudayqulov J.B. Yeryong‘oq navlarining tezpisharlik ko‘rsatkichlari // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining «AGRO ILM» ilmiy ilovasi. – Toshkent, 2016. Maxsus son. – b. 26-27. (06.00.00., №1)

4. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestriga 2007-2017 yillarda kiritilgan navlar va duragaylarning tavsifi. Toshkent 2017. 377 b.

5. A.Xoliqov – O‘simshilik Tashkent – 2018 241-242 b





## **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini rivojlantirishning maqsad va vazifalari**

**Yusupova Sevara Davletiyar qizi**

*Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti*


*2-G Kurs Boshlang‘ich ta‘lim*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institut*

**Annotatsiya:** Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta‘sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta‘limida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish – ularda eshitish, anglash, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yo‘lga qo‘yiladi.

**Kalit so‘zlar:** nutq, so‘zlar, o‘quvchi, boshlang‘ich ta‘lim

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta‘sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta‘lim olish qurolidir. Biz tilini jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlantirib, bo‘yitib kelgan ajdodlarning vorislarimiz. O‘quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o‘rgatish maktab ona tili ta‘limi oldida turgan mas‘uliyatli vazifalardan sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “nutq” “tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so‘zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasidir” 46, - deb ko‘rsatiladi. “Pedagogicheskiy entsiklopedicheskiy slovarь”da nutqqa “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo‘lib, u fikrni ifodalash vositasi bo‘lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi hamdir” 47 deb qayd etiladi. Boshlang‘ich sinflarning ona tili ta‘limida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish – ularda






eshitish, anglash, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, demakdir. Shu asosda intellektual salohiyat oshiriladi, estetik va axloqiy tarbiya yo‘lga qo‘yiladi. Ona tili ta‘limi jarayonida o‘quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalasi o‘tgan asrning 60-70-yillarida S.Dolimov, Y.Abdullayev, Q.Abdullayeva va K.Qosimovalar, 80-90-yillarida B. Turdiyev, A. G‘ulomov, M. Qodirov, SH. Yusupova, B.To‘xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovalar, 2000- yillarda A.Hamroyev, SH.U. Nurillayeva, O‘. Ro‘ziboyeva, G. M. Ahmedova, SH. Yuldasheva, U.Masharipova, H. Bakiyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur metodistlarning ayrimlari adabiyot darslarida, ayrimlari ona tili va o‘qish darslarida og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish masalasiga doir qimmatli metodik tavsiyalar ishlab chiqqanlar. A.Sa‘diy adabiyot o‘qitishda qahramonlarga og‘zaki va yozma tavsif berish, S.Dolimov yozma bayon va adabiy ijodiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalarida o‘quvchilar nutqiy boyligining ahamiyatini aytib o‘tganlar. Q.Abdullayeva “1-sinfda nutq o‘stirish” metodik qo‘llanmasida o‘quvchilarni tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish, savod o‘rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, didaktik materiallardan foydalanish usullarini yoritgan bo‘lsa, K.Qosimova «1-sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash» qo‘llanmasida lug‘aviy mashqlarni tashkil etish metodikasi xususida so‘z yuritadi. B. Turdiyevning “Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum” nomli qo‘llanmasida yozma nutqning umumiy nazariy masalalari, yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, kitob ustida mustaqil ishlash bilan bog‘liq yozma ishlar, ish qog‘ozlarini to‘ldirish, bayon va insho yozishga o‘rgatish masalalari yoritilgan. A. G‘ulomov, M. Qodirovning “Ona tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida nutq o‘stirishning nazariy va amaliy ahamiyati, nutq o‘stirishga doir mashqlarni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan. M.Asqarova rahbarligidagi bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish” nomli o‘quv qo‘llanmada asosan bog‘cha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish masalalari o‘rganilgan. B.To‘xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodovalar yaratgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida bo‘lg‘usi mutaxassislarni maktab ta‘limiga tayyorlashda grammatik mavzularga bog‘liq holda o‘quvchilar nutqini o‘stirish, lug‘atini bo‘yitish metodikasiga alohida diqqat qaratilgan. Islohotlar tufayli






ona tili o'qitish metodikasi tezkor taraqqiyot yo'liga kirdi. Uzluksiz ta'lim tizimida til va nutqni farqlab o'rganish, ona tili darslarida nutqni bilim, ko'nikma va malakalar hamda ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlovchi vosita deb qarash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nutqiy bilim, ko'nikma va malakalarni uzviylik va uzluksizlikda ona tili sathlararo aloqadorlikda izchil rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limining bosh vazifasi turli usulda va mazmunda tashkil etiladigan mashqlar yordamida o'quvchilarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishga qaratiladi. Ta'lim jarayonida nutq o'stirish o'qituvchi va o'quvchining nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va o'stirishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy faoliyatdir. O'quvchilar nutqini o'stirish hamisha pedagogik rahbarlikni talab etadi. Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. O'qituvchining vazifasiga faqat o'qitayotgan faniga qiziqish uyg'otibgina qolmasdan, o'quvchilarning kommunikativ va mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish ham kiradi. O'qituvchi o'quvchilarni turli vaziyatlarda til birliklaridan foydalana olishga, o'z nutqiga ongli munosabatda bo'lishga, har bir so'zga javobgarlikni his qilishga o'rgatishi kerak. Ona tili o'quv predmeti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, balki inson uchun umri davomida zarur bo'ladigan til birliklarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga ham yo'naltirilgandir. Nutqiy bilim bilan nutqiy ko'nikmaning ikki xil hodisa ekanini farqlamoq kerak. Nutqiy bilim tilning barcha sathlariga doir bilimlarni o'zlashtirish asosida egallanadi, nutqiy ko'nikma esa nutqiy mexanizmni turli nutq uslublarida ishga solishdir. Inson nutqiy faoliyati davomida so'zga emas, balki so'zning ma'no tomoniga e'tibor qaratadi va o'z fikrini aniq ifodalash uchun kerakli so'zni tanlaydi. Til vositalarini nutq yo'nalishiga tez moslashtirib, rejalashtirib olish, nutq mazmunini ifodalash uchun ularni topib muomalaga kirita bilish nutqiy ko'nikma sanaladi. Nutq o'stirish metodikasining vazifasi o'quvchilarda o'zaro aloqaga, atrofdagilar bilan so'zlashish –





kommunikatsiyaga ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirishdir. SHundagina o‘quvchi nutqi astasekin rivojlana boradi, o‘z nutqiga e‘tibor berish hissi paydo bo‘ladi. Nutq o‘quvchiga nafaqat boshqa kishilar bilan aloqa qilishga yordam beradi, balki olamni, dunyoni bilish, borliqni anglash vositasi hamdir. Nutq muomala vositasi sifatida muayyan sifatlarga ega bo‘lishi lozim. Birinchi navbatda, nutqning leksikasi keraksiz va mahalliy (shevaga xos so‘zlardan), parazit va vul‘gar (qo‘pol, noxush) so‘zlardan xoli bo‘lishi zarur. Nutqning sifatiga qo‘yiladigan aniqlik, obrazlilik, emotsionallik kabi talablar ham bevosita nutqning leksik qatlamiga bog‘liqdir. O‘quvchilar o‘z fikrini to‘g‘ri va mukammal ifodalash ko‘nikmasini egallashlari uchun o‘qituvchi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etuvchi va nutqni lug‘aviy birliklar bilan bo‘yituvchi maxsus mashqlarni muntazam tashkil etishi lozim. SHuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so‘z, gap, bog‘lanishli nutq kabi qismlarni o‘z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo‘limlari «Xat-savod o‘rgatish va nutq o‘stirish», «O‘qish va nutq o‘stirish», «Grammatika, imlo va nutq o‘stirish» deb nomlanishining o‘zi nutqqa doimiy e‘tiborni talab etishidir. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur: 1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi. 2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi. SHunday ekan, o‘quvchilar nutqini o‘stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo‘lib, o‘quvchi nutqi mazmunli bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish hisoblanadi. 3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. SHuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. O‘quvchilarga til namunalari berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o‘z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta‘lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi. Nutq o‘stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya‘ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o‘rgangan








til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular: 1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi. 2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zakiso'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi. 3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni bo'yitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik,



matematika, mehnat, tasviriy sanoat, ashuladarslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. Abdullaeva Q. va boshq. 1-sinfda o‘qish darslari. – T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Maktabgacha muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o‘quvmetodika Markazi // Bolajon tayanch dasturi.T.:2010. 213 b.
3. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq,
4. R. Ergashev. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida yestetik madaniyatni shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T., “O‘qituvchi”, 2017





**Kunakbaev Nurjan Sarsenbaevich**  
**Karakalpakistan institute agriculture and agrotechnologies**  
**1<sup>st</sup>-master**

**Cultivation of soybean varieties on saline soils in Karakalpakstan**

**Abstract:** in order to develop the optimal sowing time, ensuring high and stable yields of soybeans of the “Nafis” variety in the Aral sea region, field experimental were carried out on the experiment plot of the Karakalpakistan scientific experimental station of the research institute of grain leguminous crops. The experience in multi-factorial. Sowing was carried out in three sowing dates 1<sup>st</sup>, 2<sup>nd</sup>, 3<sup>rd</sup> ten days of april. The results of the study showed that when cultivating soybeans of the Nafis variety in the aral sea region in order to obtain the highest grain yields, sowing should be carried out in the first the day april.

**Keywords.** Aral sea, soybean, sowing, yields, carried out, experimental, april, grain, contain, protein, plant, agriculture, agrotechnology.

Soybean is like an annual herbaceous plant (*Glicina hispida* L.) Belonging to the family of legumes (*Fabacea* L.). *Soybean* is a young plant in Uzbekistan. Its grains contain 30-52% protein, 17-27% fat, and 20% carbohydrates [1].

In recent years, the attention to the soybean in the Republic of Uzbekistan is growing. While soybean protein is used as a source of nutritious protein feed in livestock and poultry, an environmentally friendly product is obtained in the food industry. Soybean-planted fields improve soil microflora by providing the soil with pure nitrogen.

With the introduction of soybean cultivation, the problem of protein deficiency can be solved, the production of vegetable oil can be increased and livestock can be provided with quality, protein-rich fodder. At the same time, the fertility of the soil in which the soybean is planted can be achieved by the accumulation of biological nitrogen in the soil as a result of the activity of nitrogen-fixing bacteria in its roots.

**Biological properties.** During the growth and development of the soybean, it goes through the following developmental stages: greening, branching, budding, flowering, legume formation and maturation. The passage of the phases and the






conditions required for will depend on the biology of the varieties. In particular, the technological measures taken have a significant impact on the growth of the soybean.

In order to study growing peculiarities of soybean in saline soils along the Aral Sea research was conducted in the experimental fields of Karakalpak Scientific Experimental Station of the Uzbek Research Institute of Cereals and Legumes and the Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies. The relief of the test site is flat, the mechanical composition of the soil is moderately heavy gray loam. Alfalfa is sown before crops. The field was plowed in the fall and saline washing was carried out. In the experimental layout scheme of the soybean, the varieties were placed with four repetitions. Planting depth was 5-6 cm, the method was planted in wide rows, 60 cm between rows.

The object of the experiment was "Orzu", "Selekta-302", "Tumaris", "Nafis" varieties of soybean, sowing was carried out in the I, II and III decades of April.

Prior to planting, soil samples were taken from the experimental site based on generally accepted methods for performing agrochemical tests to determine soil salinity. Soil samples were mixed with five proportions of distilled water and filtered in the laboratory of the institute to

prepare a soil solution and agrochemical analysis was carried out to determine salinity of our experimental site was 0.13%.






***1-picture. The period when the soybean varieties produce 2-5 leaves***

In our experiment, the planting material was 1<sup>st</sup> class seeds, and when we studied the developmental stages of the growers according to the VIR methodology, it was found that there were a lot of 5-point growths, which in turn was positive for field germination. In the laboratory, we use the following indicators to determine the germination of seeds. Sand is used to determine the germination and growth energy of the seeds, it is moistened and placed in a sandy loam, then

100 seeds are sown (in four turns). It is washed before placing and heated well to avoid damaging the seeds. Seeds are placed on the rostil with a calculator or by hand using a marker. There are 4 samples in the rostil, with their numbers on the labels, the time when calculation of germination and growth energies was conducted. Seeds of field crops are often germinated at a stable temperature of 20 degrees. We checked the seeds twice for germination. In the first, growth energy was detected, and in the second, germination was detected. The growth rate of seeds is checked daily in the research.

Kuleshov I.I. [5] showed that field germination of seeds was directly related to laboratory germination, and that the lower the laboratory germination, the greater the difference between it and field germination. In our experiment, the difference between





laboratory germination and field germination was average 12-13%.


In the process of individual growth and development, seed crops undergo phenological stages of organogenesis. Each of these periods and stages is characterized by the appearance of new organs and a single external morphological feature. Like all grain legumes, the soybean plant undergoes periods of germination, branching, budding, flowering, legume formation, and ripening. The conditions required for the passage of time depend on the biology of the variety. In addition, the technological measures applied to it also have a significant impact.

The soybean plant is heat demanding, the seeds germinate at 8-10<sup>0</sup>C, 15-18<sup>0</sup>C is required for full germination, and 20-22<sup>0</sup>C is optimal. Flowering stops when the temperature drops below 17 degrees during flowering. The plant can grow up to 38-40<sup>0</sup>C. Temperature is 1600-1700<sup>0</sup>C for early ripening varieties, 2000-2200<sup>0</sup>C for medium ripening varieties, 2800-3000<sup>0</sup>C for late ripening varieties. -4-5<sup>0</sup>C frost can damage [6].

When soybean seeds are sown, the lower the air and soil temperatures, the slower the germination of seeds, and the higher the temperature, the faster the germination.

**Germination phase.** Soybeans begin to swell when the water content reaches 90-150% by weight of dry matter. Two to three days after germination, the embryo ruptures the seed cortex and develops a vein. As the embryo develops, lateral veins and vascular hairs appear. The growth of the root complex depends on the physical properties of the soil, temperature, humidity and nutrients. Once the embryonic vein has formed, the hypocotyl elongates, the hypocotyl first splits the soil, and then the seed cortex sprouts. First a simple real leaf appears, then three leaves. In our experiment, this was observed after 13-14 days. Usually this period begins 8-10 days after planting. The first root buds appear 7-10 days after germination, and after two weeks they can meet the plant's need for nitrogen. When we studied the transition characteristics between varieties, we obtained the following indicators: in the germination phase there was almost no difference between varieties, all varieties germinated in 13-14 days, and in two weeks a pair of leaves appeared.

In our experiment, on April 28, 2021, the seedlings sprouted in full, and the



varieties


“Orzu”, “Selekta-302”, “Tumaris” and “Nafis” germinated by an average of 93-97% (Picture 2).



**2-picture. Germination of soybeans in the field**

*The branching phase* began when 3-5 complex leaves appeared in our experiment. (Pictures 6,7). During this time, the stem grows rapidly, then its growth slows down and the formation of leaves decreases. The lateral branches develop from the lower parts of the stem. Varieties with little or no branching may also occur. In our experiment, the branching phase is 23 days when planted in the “Orzu” variety on April 10; when planted on April 20, it was observed for 22 days, and this period was found to be shortened to 1 day;

The yield-forming organ of a plant is the leaf. The better the leaf develops and the healthier it is, the more active the process of photosynthesis and the more complex organic matter is formed in the leaf. To predict the yield to be obtained, it is necessary to determine the leaf surface size of the plant. Leaf surface size is determined in several ways. In a soybean plant, pieces of a certain size are cut and measured from specific plants to determine the leaf surface size (Picture 3).





### 3-picture. Determining the leaf surface size of soybean varieties CONCLUSIONS

1. Indicators of soybean vegetation in all observations of saline soils along the Aral sea (germination, the degree of preservation of the number of bushes, the formation of leaf surface volume - leaf activity, yield, etc.) were found to be high in "Selekta-302" and "Nafis" varieties.

2. Experimental observations showed that among all the studied varieties, the stem height of "Selekta-302" and "Nafis" varieties increased. In the first and third variants ("Orzu" and "Tumaris") the stems were lower than in the second and fourth variants.







3. The low stem height of “Orzu” and “Tumaris” varieties is probably a biological feature of the varieties, because the agro-technological measures were the same for all variants (varieties).

4. The development of soybean leaf also depends on the biological characteristics of the varieties, and it was found that the second and fourth variants of the experiment were optimal.

#### References;

1 Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Т.: Медицина, 1990.

2. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений СССР. М. 1976. – 340 с.

3. Государственная фармакопея – Изд. XI. – Вып. 1. Общие методы анализа. – М.: Медицина, 1987.

4. Государственная фармакопея – Изд. XI. – Вып. 2. Общие методы анализа. Лекарственное растительное сырье. - М.: Медицина, 1990

5. Гринкевич Н.И., Сафронович Л.Н. и др. Химический анализ лекарственных растений. - М.: Высшая школа, 1983

6. Долгова А.А., Ладыгина Е.Я. Руководство к практическим занятиям по фармакогнозии. М.: Медицина, 1977

7. N.Atabaeva Soybean – morphology, biology, cultivation and technology. Tashkent - 2004 year – 45 list

8. D.E. Yormatova – Soybean T., Tashkent -1996 – 96 list.





## **Grunt suvlari chuqurligining relyef elementlari bilan bog'liqligi.**

**G'aniyeva Shaxnoza Shavkatovna**

**Urganch davlat universiteti Magistratura bo'limi 70530402 - Geografiya  
(o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatida grunt suvlari chuqurligining relyef elementlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** grunt suvlari, ishqorlik darajasi, minerallashuv, sho'rlanish, yer osti suvlari, kimyoviy tarkib,

Xududning irrigatsion asosini o'rganishda deltaning gidrorejimini bilish lozim. Xorazmda Amudaryo suv satxining pasayishi natijasida grunt suvlari satxi ham o'zgaradi.

Sug'oriladigan joylardagi yer osti suvlarining chuqurligi mazkur havzaning ichki strukturasi bilan bog'liq bo'lsa, uning minerallashuv darajasi va kimyoviy tarkibi ushbu havzada joylashgan tuproq (uning turi, sho'rlanish darajasi va kimyoviy tarkibi), qolaversa, yer usti suvlarining minerallashuv va ifloslanish darajasi, o'simliklar qoplami, chiqindilarning mexanik va kimyoviy tarkibi bilan bog'langan. Bu o'z navbatida tuproq, yer usti suvlari va qishloq xo'jalik ekinlarining (tabiiy hollarda esa o'simliklarning geografik tarqalishi) yer osti suvlariga ta'sirini o'rganishga olib keladi.

Ko'pchilik olingan dalillar shuni ko'rsatadiki, zovurlarning boshlang'ich qismida joylashgan tuproq, yer osti suvlari (chuqurligi, minerallashuv darajasi) zovur havzasining quyi qismida joylashgan tuproq va yer osti suvlaridan juda katta farq qiladi. Bu qonuniyatni shunday izoxlash mumkin, tabiatdagi har bir o'zgarish avvalo ana shu joyning geografik o'rniga bog'liq bo'lib, ma'lum bir havza davomida asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi.

Sug'oriladigan joylardagi yer usti va zovur suvlarining kimyoviy tarkibini va ifloslanish darajasini o'rganish maqsadida zovur havzalari aniq ko'rsatiladi. Buning uchun asosan yirik masshtabli topografik kartalardan (1:25 000 / 1:50 000) va kosmik rasmlardan foydalanish mumkin. Alohida xo'jalik uchun esa mazkur zovur havzasini, barcha past va balandliklarni aniq ko'rsatishda yanada yirik ya'ni 1:10 000 masshtabli topografik kartadan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday qilinsagina, tuman va





xo'jalikda joylashgan har bir zovur shahobchasi, kanal va ariqlarni, yerning usti tuzilishini har tamonlama ko'rsatadigan "relyef plastikasi" kartasini tuzishimiz mumkin. Bu kartalar kundalik hayotimiz uchun zarur.

Relyef plastikasi kartasi grunt suvlarini chuqurligini differentsatsiya qilishga imkoniyat yaratadi.

1940-yillarda Xorazm viloyatida hosil bo'lgan yer osti suvlarini sug'oriladigan yerlar oralig'idagi pastliklarga va ko'llarga olib boradigan yagona kallektor qurila boshlandi. 1960-yillar oxirida Daryolik, Davdon va Katta Ozerniy kallektorlari barpo qilindi, ular ichki kallektor va drenalar bilan birlashtirildi.

1960-yillar o'rtalariga kelib yer osti suvlari mineralizatsiyasi 1950-yillarga nisbatan 1,4-1,7 barobar kamaydi. Bu yer osti suvlarining chuqurlashuvi A.A.Rachinskiy, N.M.Reshetkina, N.N.Xodjibayeva ishlarida "chuqur qatlam" nomini oldi. 1960-yillar oxiridan 1995-yilgacha viloyatda Daryolik, Davdon va "Katta Ozerniy" kallektorlarining barpo qilinishi va ularning bir tizimga birlashtirilib, yer osti suvlari sug'oriladigan yerlardan Sariqamish ko'liga chiqarib yuboriladigan qilindi. Bu davrda zovur suvi mineralizatsiyasi yer osti suvi mineralizatsiyasidan yuqori. Bunday holning sodir bo'lishiga 3 ta sabab bo'lishi mumkin.

1-sabab. Kallektor va zovur suvini to'plash jarayonida mineralizatsiyasi yuqori bo'lgan yer osti suvlarini ham qo'shib oladi.

2-sabab. Sho'r yuvish va sug'orishlar davarida tuproq qatlami oeratsiya mintaqasidagi tuzlar erib sug'oriladigan dalaning sizat suvlari ustida mineralizatsiyasi .yuqori bo'lgan "sho'r suv qatlami" ni hosil qiladi.

3-sabab. Yer osti suvlari mineralizatsiyasi ma'lumotlari asosan qumli qatlamning 3-6 metr bo'lgan chuqurlikdagi mineralizatsiyasini ko'rsatadi.

B.D.Jurin nomidagi O'rta Osiyo ilmiy tekshirish irrigatsiya institutining (SANIIRI) "Gidrogeologiya meliorativ bashoratlashtirish" laboratoriyasida yer osti suvlari oqimini baholash uchun juda ko'p tekshirish ishlari olib borildi.

Bu ishlarning ko'rsatishicha 3,0-4.0 metr chuqurlikka ega bo'lgan kallektorlarning suv yig'ish chuqurligi 15 metrdan oshmagan shunga mos ravishda kallektorlarning suv yig'ish chuqurligi ham 10 metrdan oshmaydi. "O'zbekgidrogeologiya"





birlashmasining Xorazm gidrorejim partiyasi ma'lumotlariga ko'ra, kallektor va zovurlar suvga to'yinadigan chuqurlikda mineralizatsiyasi yuqori bo'lgan yer osti suvlari yo'q. Ayrim mavjud joylarda tuproq qatlamida yer osti suvlari mineralizatsiyasi 10 g / l gacha bo'lgan. Yer osti suvlari aralashishi sodir bo'lmasa faqat diffuzion almash yoki oldingi yer osti suvini siqib uning o'rniga joylashishi mumkin. Chunki tuproq qatlamining filtratsiya koeffitsenti 1,0 m/ kun dan katta emas, nishabligi 1,0-0,5, suv o'tkazuvchanligi 0,1 tik yo'nalish bo'yicha filtratsiya tezligi 0,1-0,05 m/ kundan oshmaydi. Yer osti suvlari ustida bir marta sug'orishdan hosil bo'ladigan "sho'r suv qatlami" qiyinligi 1,0-0,5 metrni tashkil qiladi.

Keyingi yillarda sug'orish suvlari mineralizatsiyasining oshishi va tuproq qatlamida saqlanish natijasida o'rta sho'r lanish darajasiga ega bo'lgan tuproq qatlamidagi yer osti suvlari mineralizatsiyasi qumli qatlam mineralizatsiyasiga nisbatan 1,5-2 barobarga oshdi. 3.2-1-jadval.

Viloyatda nazorat quduqlari va yer osti suvlari sathi va mineralizatsiyasini yilning hamma fasllarida o'lchash imkoniyati bo'lishini ta'minlash maqsadida qum qatlamiga chuqurroq qilib o'rnatilgan. Nazorat quduqlari chuqurligi 4-6 metr, uning suv oladigan qismi (filtri) qum qatlamida 2-3 metr suv qatlami ostida joylashgan. Tuproq qatlamidagi yer osti suvlari mineralizatsiyasining o'zgarishini aniqlash uchun nazorat quduqlari o'rnatilmagan va o'rganilmagan. Shu sababli ham yer osti suvlari mineralizatsiyasi ma'lumotlari asosan qumli qatlamning 3-6 metr bo'lgan chuqurlikdagi mineralizatsiyasini ko'rsatadi. Eng yuqori tuproq qatlamidagi suv mineralizatsiyasi o'zgarishini ko'rsata olmaydi.

Xorazm viloyatida hozirgi paytda chuchuk yer osti suvlari (1g/l gacha) umuman qurigan. Butun viloyat hududi bo'yicha ichimlik suvining minerallashuvi, umumiy qattiqligi, sulfatlar va xloridlar bo'yicha sifati yomonlashishi kuzatilmoqda.

Olingan ma'lumotlar bo'yicha yer osti suvlarining nisbatan qoniqarli holati kanal bo'ylarida kuzatiladi, bunday yerlarda minerallashuv darajasi 15g/ l gacha umumiy qattiqlik 12-15 mg-ek v / l ni tashkil qiladi.

Relyef geografik omil sifatida grunt suvi tabiiy oqimlarining yo'nalishini va uning chuqurligini belgilaydi. N.N.Xodjiboev (1970) gidrogeolog olim sifatida grunt





суви табиий оқимining yo'nalishini relyef bilan bog'laydi. Ammo shu bilan bir qatorda hududning tabiiy-geografik sharoiti va geologik tuzilishi ham alohida rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi. Shunga qaramasdan olim relyefga alohida urg'u beradi. Faqatgina relyefning turli shakllari va strukturalari grunt suvi tabiiy oqimining yo'nalishini o'zgartiradi. Ana shuning uchun ham relyef plastikasi kartasida har xil shaklga ega bo'lgan relyefning strukturasi tasvirlanganligi uchun ham u grunt suvi tabiiy oqimining yo'nalishini, chuqurligini va minerallashuv darajasini tadqiqot qilishda asos vazifasini o'taydi.

Boshqacha so'z bilan aytganda, relyef plastikasi kartasi har bir obyektidagi har xil strukturaga ega bo'lgan relyef shakllarini haqqoniy tasvirlaydi. Shu bilan bir qatorda sug'oriladigan massivlardagi grunt suvlarining minerallashuv darajasiga qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish rejimi ham kuchli ta'sir etadi. Shunday qilib, grunt suvlarining sug'orilmaydigan hududlarda kichik deltalarning strukturasi bilan bog'liqligi va sug'oriladigan hududlarda esa kollektor-zovur havzasining ichki tuzilishi bilan bog'liqligi o'z navbatida grunt suvlarini yirik kollektor-zovur havzalari bo'yicha sifat va miqdor jihatdan baholashga asos bo'ladi, ya'ni bu barcha kichik deltalar va kollektor-zovur havzalari relyef plastikasi kartasida yaqqol tabaqalashgandir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Хурсанов Д.Б. Амудаё ҳозирги дельтаси ландшафтларининг структураси ва табақаланиш қонуниятлари. //Геог. фан. бўй. фал. докт. дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. -40 б.
2. Цинзерлинг В.В. Орошение на Аму-Дарье. –М; 1927, -810 с.
3. Чембарисов Э.И., Ходжамуратова Р.Т. Коллекторно-дренажные воды Республики Каракалпакстан. Нукус, Билим, 2008, 57 с.
4. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидромееорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. – Ташкент, “VORIS-NASHRIYOT”, 2007. 132 с.
5. Шарипов Ш.М. Табиатни муҳофаза қилишда геозкологик ёндошув (Тошкент вилояти мисолида). //Геог. фан. ном. илм. дараж. олиш учун тайёр. дисс. автореф. – Т, 2011. -25 б.
6. Хакимов Ф.И. Почвенно-мелиоративные условия опустынивающихся дельт. – Пушкино: ОНТИ НЦБИ, 1989. -126 с.





## O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATIDA YOSH AVLODNING IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA "USTOZ- SHOGIRD" AN’ANALARINING AHAMIYATI

*Mo‘minova Oygul Jumanazarovna*

*Termiz davlat universiteti “Tasviyiy san’at va muhandislik grafikasi “ ta’lim  
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalq amaliy san’atida ustoz shogird an’analari davom ettirish orqali yoshlarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Hunarmanchilik, ustoz-shogird, did, qobiliyat, yog‘och o‘ymakorligi, ustachilik, xalq amaliy san’ati.

Inson yashar ekan doimiy ravishda go‘zallikka va poklikka, o‘zidan yaxshi nom qoldirishga intilib yashaydi. Buning natijasida bir - biridan jozibador qasrlaru-saroylar, ko‘shiku-ayvonlar, masjid-madrasalar, qal’ai-devorlar, katta-kichik inshootlar, insoniyatni kamolatga etaklovchi, to‘g‘ri yo‘llarga chorlovchi va doimiy yo‘ldosh, bir-biridan chuqur mazmunli sehrli kitoblar, odam zehni charhlovchi va mustaqil fikrlashga chaqiruvchi chiroyli va benazir haykallaru-rasmlar, naqshu-nigorlar, orom baxsh etuvchi o‘ta sehrli musiqalar ijod etildi.

Odamlar o‘zini tashqi xavf xatarlardan, ya’ni yirtqich hayvonlardan, iqlim qiyinchiliklaridan hamda raqib dushmanlardan himoya qilish uchun imoratlar qura boshlagan. Shu tarzda, hayot taqazosi bilan o‘z davrining ustalari, binokorlari, muhandislari, me’morlari yetishib chiqqan. Yillar o‘tishi bilan davlatlar shakllangan va ular o‘rtasida o‘zaro aloqalar yuzaga kelgan. SHu bilan bir qatorda madaniyat rivojlanib, qulay va yaxshi yashash uchun hashamatli binolar yaratilgan, hunarmandchilik, muhandislik va me’morchilikka asos solindi.

O‘z davrining qo‘li mohir ustalari tomonidan bunyod qilingan, kishini lol qoldiruvchi saroylar, ehromlar, ibodatxonalar, maqbaralar hamda boshqa bino va inshootlar asrlar o‘tishiga qaramasdan saqlanib qolib, bizgacha yetib kelgan.

Hozirgi davrning zamonaviy qurilish texnikasi va avtomatlashtirilgan hisoblash mashinalari yo‘q bo‘lgan uzoq moziyda ustalarning binolarni qurishda murakkab





geometrik va arifmetik o'lichamlarni amalga oshirganligi, ob'ektlar o'rnini to'g'ri tanlab, qurilish ashyolaridan o'rinli foydalanganligi kishini lol qoldiradi va tahsinga sazovordir. Su yo'sinda, ming yillar davomida ustalarning bilim va malakalari charxlanib, mustahkamlangan va ular o'z tajribalarini kelajak avlodga, ya'ni bizgacha yetib kelishini ta'minlashgan.

Tarixdan ma'lumki, yirik shaharlardagi madaniyatning rivojlanishida zargarlik, haykaltaroshlik, rassomchilik, naqqoshlik kabi san'at turlarining shakllanishi va mutaxassis ustalar sonining ko'payishi muhim rol o'ynagan. Ustalar orasida o'z kasbini chuqur biladigan, haqiqiy talantlilari bilan bir qatorda, saviyasi pastlari ham bo'lgan. Bu kabi ustalarning malakasini oshirish, ayniqsa yoshlarni, ya'ni shogirdlarni o'qitish, ularga yetarlicha bilim berish, bajaradigan ishlarining sifatini oshirish maqsadida har bir sohaning mohir ustalari tomonidan yillar davomida to'plangan tajribalari asosida alohida risolalar (nizomlar) yozilgan va ular asosida ish olib borilishi ta'minlangan. Shu tariqa ustalar orasida ustoz-shogird maktablari shakllana borgan va yillar osha rivojlangan.

Jumladan hozirgi O'zbekiston hududida o'rta asrlarda va keyinchalik shakllangan davlatlarda katta obro'ga ega, chin ma'nodagi piri komil ustalar alohida hurmat e'tiborga sazovor bo'lishgan. Hunarmandchilikning har bir soha vakillari taniqli ustalar atrofida jamoalarga birikishgan. Bunda yoshi ulug', mohir ustalar jamoga rahbar sifatida saylanib ularga "kalantar", yordamchilariga esa "kamarbasta" maqomlari berilgan va podshohlik tamonidan maosh tayinlangan. Bundan ko'rinadiki, o'tmishdagi davlat rahbarlari ustachilikka, uning an'alarining saqlanishiga va rivojlanishiga jiddiy e'tibor qaratishgan.

Ustozlar qadimdan shogirdlikka qabul qilishda o'ta e'tiborli bo'lganlar. To'g'ri kelgan odam shogirdlikka olinmagan. Bunda 7-8 yoshdagi bolalar tanlanib, iloji bo'lsa o'z farzandlari yoki nevaralari, ular bo'lmagan taqdirda, qarindoshlari yoki tanishlari orasidan shu kasbga layoqati borlari ajratib olingan. Begona shaxslarning farzandari shogird tushgan taqdirda, ular 2-3 oy davomida alohida e'tibor bilan sinovdan o'tkazilganlar. Shunday ikki - uch oy sinovlar shogirdlarning avvalo odobiga, axloqiga,





o'zini tutishiga, odamlar bilan muomalasiga, qobiliyatiga hamda halolligiga va xarakterining boshqa jihatlariga

alohida e'tibor berilgan. Jumladan, usta yangi shogirdining halloligini sinash uchun ko'zga ko'rinadigan joylarga pul va boshqa qimmatbaho buyumlarni qo'yishgan, ma'lum miqdordagi mablag' berib savdo-sotiq uchun bozorga yuborishgan. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan shogirdlariga o'z farzandiday muomala qilib, yaxshi qarashgan va tegishli qonun-qoidalarni, ustachilik sir-asrorlarini, ya'ni ustaxona odoblarini, asbob-uskunalardan foydalanishni va boshqa jihatlarini o'rgatilgan. Ustoz shogirdlariga kasbga o'rgantishni asosan kunduzi amalga oshirgan. Kechqurun esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarilgan. Shogirdlar o'z sohasida bilim olishlari bilan bir qatorda, hunarmandchilikda eng zo'r bo'lgan xandasa va kimyoni chuqur o'rganganlar.

Ustozga shogirdlikka berishda quyidagi urf-odatga rioya qilingan. Bolani ustozning oldiga olib borishda o'ziga yarasha tantanaviy marosim bo'lgan. Bolani otanasini hamda qarindosh urug'lari bo'g'irsoq va holvaytar qilib ustozning huzuriga kelganlar va "bolaning go'shti sizniki, suyagi bizniki" qabilida gaplar bilan ustoz ixtiyoriga topshirganlar. Keltirilgan pishiriqlar o'sha paytdayoq birgalikda tanavvul etilgan. Ustoz bolaga hunar o'rgatishdan tashqari, butun o'qish davomida uni oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan. Kasb o'rgatish bepul olib borilgan. Ustoz shogirdga qattiqqo'l va talabchan bo'lgan. Chunki har bir hunarni o'ta nozik did va sabr-toqat bilangina o'rganish mumkin edi. Ustozlar shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirdan pokizalikni, ish vaqtida chalg'imaslikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo'l urmaslikni qat'iy talab qilganlar. Ustoz shogirdiga faqat hunar sirlarini o'rgatishdan tashqari, uy-yumush ishlarini bajarishga ham tayyorlab borgan.

Shogird san'at sirlarini puxta egallab, mustaqil ish bajarishni eplay oladigan bo'lganidan so'ng unga oq fotiha berilgan va bu alohida marosim (ziyofat) shaklida amalga oshirilgan. Fotiha oluvchi shogird qoida buyicha milliy libosga kiyintirilib, beliga kamar (belbog') bog'lanib, unga shu kasb buyicha asboblardan ixchamlisini taqib qo'yishgan va o'ziga xos imtihondan o'tkazilgan. Shu tariqa savol-javoblardan








so'ng ustoz chin ko'ngildan o'z shogirdiga oq fotiha bergan.. Shogirdini qo'yniga ikkita non solinib, belbog'iga asbob uskunalar taqilib, milliy libosda hamma piri ustozlarini va ziyofat qatnashchilarini duolarini olib marosim oxiriga yetkazilgan. Marosimda ustozga shogird bosh-oyoq sarpo, tugun in'om etgan. Ba'zida ustoz, shogirdi mustaqil ish boshlashda qiynalmasiligi uchun, shu kasbda ishlatiladigan asbob va andozalar berar edi.

Shu tariqa kasbning avloddan-avlodga meros qolishi an'ana holda saqlanib, rivojlanib bugungi kungacha yetib kelgan. Mamlakatimiz hududida Samarqand, Xiva, Buxoro, Termiz, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon va boshqa shaharlarida o'zbek xalq amaliy san'ati rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan, buyuk ustozlarni yetishtirib chiqqan "ustoz-shogird" maktablarining o'rni beqiyosdir.

O'zbek ustozlaridan biri xorazmlik yog'och o'ymakor ustoz Ota Polvonovning hayot yo'li ibratlidir. Ikki asr oralig'ida ijod qilgan Ota Polvonov Xiva yog'och o'ymakorligi maktabining yorqin namoyandalaridan biridir. U otasidan va tog'asi Abdusattordan yog'och o'ymakorligi sirlarini o'rgangan. 1929 yil "Uchqun" xalq amaliy san'ati arteliga a'zo bo'lib kirganidan keyin shogirdi Safo Bog'bekov (1903-1978) bilan birga ishlay boshlagan. Ustaning yaratgan har bir ishi o'ziga xos, bo'lib, ularga qalb harorati, mehri singdirilgan. Ota Polvonov 1972-yilda vafot etdi. Lekin uning shogirdlari uning hunarini davom ettirdi. Safo Boqibekov ustozining eng yaxshi an'alarini davom ettirib, ko'plab yoshlarga o'z hunari sirlarini o'rgatdi. Uning o'g'li Hayitmat Boqibekov yigirmadan ortiq shogirdi bilan ajdodlarimizning bu bebaho san'atini avaylab asrashga munosib hissa qo'shmoqda. Ular yaratgan ustunlar respublika poytaxtidagi Xotira va qadrlash hiyobonini bezab turibdi. Xivadagi Al Xorazmiy va qadrlash maydoni, Ma'mun akademiyasi binosi ayvonlaridagi o'ymakori ustun va eshiklar ushbu joylarga o'ziga xos milliy ruh bag'ishlab turibdi. Hozirgi paytda Xivada yuzdan ortiq yog'och o'ymakori faoliyat ko'rsatmoqda. Ular milliy amaliy san'at xazinasini boyitadigan asarlar yaratishmoqda. Xayitmat Bog'bekov otasi Safo Bog'ibekov va Xorazm yog'och o'ymakorligi bobokaloni Ota Polvonov an'alarini davom qildirib bunday katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bular






hammasi ustoz-shogir an'alarining bardavomligini va an'alarining o'lmasligini ko'rsatib turibdi.

Bugungi kunda mustaqil respublikamizda xalqimizning asrlar bo'yi ijodiy mehnati natijasida yaratgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan turlari: naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, ustozlarning haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublarini ko'z qorachig'iday saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bulatov S.S. O'zbekistan xalq amaliy bezak san'ati. -T: Mehnat, 1991
2. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy an'anaviy asoslari. Metodik tavsiyasi. T:RUMM, 1993 yil.
3. Sultonov.A. "Xivalik yog'och o'ymakor Ota Polvonov". "San'at" jurnali 4-son. 2009 yil.
4. Sattarov Shavkat, Xaitov Zufar, Yusubova Mahliyo GRAPHIC RECOMMENDATIONS FOR THE ANALYSIS OF SIMPLE AND COMPLEX GIRIX PATTERN COMPOSITIONS IN THE ART OF EMBROIDERY BY GEOMETRIC PATTERNS // Universum: технические науки. 2021. №11-5 (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/graphic-recommendations-for-the-analysis-of-simple-and-complex-girix-pattern-compositions-in-the-art-of-embroidery-by-geometric> (дата обращения: 09.06.2023).
5. Jumanazarovich I. M. Unique Features Of Painting In The Professional Training Of Fine Art Teachers //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 9. – С. 73-75.





ISSN (E): 2181-4570

**KATTAQO'RG'ON TUMANIDAGI JOY NOMLARI VA URUG'LAR****Sunnatillo Rashidov Rashid o'g'li****Samarqand Davlat Universiteti 2-kurs magistranti****Tel: +998 94 669 72 36****Annotatsiya**

Ushbu maqolada Samarqand viloyatining yirik tumanlaridan biri hisoblangan Kattaqo'rg'on tumanining toponimikasi va etnotoponimikasi ya'ni ushbu hududda qadimdan yashab kelgan qabila va urug'lar nomlarining joy nomlariga ta'siri shuningdek ba'zi bir qabila nomlarining hudud nomiga ko'chganligi kabi masalalar o'rganilib chiqiladi. Shu jumladan ushbu hududda joylashgan, "Kadan", "Mundiyon", "Abulqosim" hamda boshqa tumanlarda ham uchraydigan "Chordara", "Nayman", "Arabxona" kabi nomlarning kelib chiqish tarixi chuqur tahlil qilinadi.


**Kalit so'zlar:** Kattaqo'rg'on, toponimika, etnotoponimika, sug'd, Movarounnahr, urug', qabila, rabot, mavze, Miyonqol, Polvontepa.

**Abstract**

This article deals with, the toponymy and ethnotoponymy of the Kattakurgan district, which is one of the largest districts of the Samarkand region, that is, the influence of the names of the tribes and clans that have lived in this area for a long time on the place names, as well as issues such as the transfer of some tribal names to the name of the area will be studied. Moreover, including the history of the origin of the names such as "Kadan", "Mundian", "Abulkasim" and other districts, such as "Chordara", "Nayman", "Arabkhana", are analyzed thoroughly, which are located in this region.

**Key words:** Kattakurgan, toponimics, etnotoponimics, sugd, Movarounnahr, tribe, clan, rabat, environs, Miyankol, Polvontepa.


Eramizning I-II asrlarida Kushon imperiyasi davrida ko'chmanchi xalqlar bir joyda uyushib, hamjihat bo'lib yashashi turli xavf va ofatlardan himoyalanihini osonlashtirgan. Shu sababli keynchalik ovullar, qishloqlar va shaharlar paydo bo'la boshlagan. Kattaqo'rg'on VII asrning so'ngi choragi (1683-1684-yillar)da barpo etilgan. Badavlat aka-uka Farhod otaliq, OllozARBek va So'fi Olloyor unga asos





solgan, degan fikrlar bor. VIII asrdan boshlab shahar ancha kengayib 170 gektar joyni egallagan, 25 guzarga bo'lingan.[3,17] Ko'chalar tor bo'lib, kulbalarning darchalari asosan hovli ichkarisiga ochilgan. Shahar markazida ark- qal'a bo'lgan. Dastlab, ana shu ark - qal'a atrofida - So'fi Olloyor, Madras, Ko'chahur kabi mahallalar paydo bo'la boshlaydi. Kattaqo'rg'onida jami 25 mahalla guzar bo'lganligi aytiladi. Shaharlar va tumanlardagi guzar, mahalla, shuningdek qishloq va davlat nomlari "komolimiy", qabila urug' yoki kichik tarmoqlar nomi bilan ataladigan joylar "etnonomim", kishilar nomiga qo'yilgan joy nomlar "antroniya", daryo, soy, jilg'a, kanallar nomini o'ganish "gidronomiya", tog', qir, tepalik va jarliklar nomi esa "oronomiya", deb ataladi. Kattaqo'rg'on shahrida 100, tumanda 800 ga yaqin turli tuman joy nomlari uchraydi. Ularning kelib chiqishi, paydo bo'lishi va qayerdan paydo bo'lganligi, albatta, hammani qiziqtirishi tabiiy hol. Shahar hamda tumandagi toponimlarning aksariyati ham qadimiy, mug'ullar bosqini davrida paydo bo'lgan nomlar, shu yerda yashagan sug'dlar, fors-tojik tilidan kirib kelgan nomlar ko'p uchraydi. Jumladan, "Iske" qishlog'ining nomi qadimgi sug'd tilidan olingan bo'lib, "Iskender" baland-yuqori, degan ma'noni bildiradi. "Boyovut"-so'zi mug'ulcha boylar yashaydigan joy, bulung'ur loyqa suv ma'nosini anglatadi. "Mavze"- arabcha bo'lib joy-dala, mahalla, istiqomat qiladigan joy, mozor, ziyorat qiladigan joy degan ma'noni beradi. "Rabot"- ot bog'laydigan yoki to'xtab o'tiladigan joy ma'nosida ham ishlatiladi. "Avliyo-valiy"- muqaddas kishi, "Anhor"-nahr so'zidan yasalgan bo'lib, daryo, kanal demakdir. "Rabot"- tashqi istehkom devori, "chorbog'" - to'rt bog', "chorsu" - to'rt ko'cha kesishgan joy, "darvoza"- dar-eshik, "boz"- ochilgan, ya'ni ochilgan eshik kabi nom va so'zlar, asosan, fors-tojik tilidan kelgan.[2,44] Shu o'rinda shahrimiz va tumanimiz hududidagi ayrim joy nomlarini ma'nosini, paydo bo'lishi va kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

Sug'd o'lkamizning juda qadimgi nomi. Qadimgi yunon tarixchilarining yozishicha, Sug'd janubda Oks, ya'ni Amudaryo, shimolda Sirdaryo oralig'ida joylashgan. O'rta asrlarga kelib, Zarafshon vodiysini o'z ichiga olgan. Tarixchilarning yozishicha Qoradaryo va Oqdaryo oralig'ida Nimsug'd tumani joylashgan. Qadimgi davrda Samarqand shahri Sug'd o'lkasining poytaxti bo'lgan. Arablar kelguniga qadar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi o'lka Turon, deb atalgan. Bu nom qadimiy so'z bo'lib, eronliklar tomonidan qo'yilgan. Ular o'z mamlakatlarini "Eron", ya'ni "bu taraf", deb ataganlar. Amudaryoning shimoliy qismini esa "Turon", ya'ni "u tomon"





deb ataganlar. Arablar esa “Movarounnahr” deb atashgan.

Movarounnahr- tarixiy asarlarda o’lka ma’nosida juda ko’p uchraydi. Bu o’lka ikki daryo, Sirdaryo va Amudaryo oralig’ida joylashgan. Shuning uchun ham bu arabcha so’z bo’lib, “movaroun”- narigi tomon, “nahr”- suv-daryo “ikki daryo oralig’ida”gi joy ma’nosini bildiradi. Rivoyat qilishicha, bu atama arablarning sarkardasi Qutayba tarafidan qo’yilgan emish. Arablar janubdagi yerlarni istilo qilib bo’lgandan so’ng Amudaryo etaklariga kelishadi. Shu payt daryo bo’yida uzoqlarga qarab turgan Qutaybadan “Bu yerlan qanday nom bilan ataladi deb so’raganida” u “Bu yerlar Movarounnahr. Biz daryoni kechib o’tib, ikki daryo oralig’ini ham egallashimiz lozim” deb javob bergan va shundan buyon bu joy nomini “Movarounnahr” deb atashgan.[4,35]

“Kadan” - bu qishloq nomi tarixiy manbalarda XV-XVI asrlarda tilga olingan. Ba’zi rivoyatlarga qaraganda, arablar bu yerda otlari uchun somon to’plaganlar va shundan “Kadan”, ya’ni somon to’playdigan joy ma’nosini anglatgan. Farohin nomi keyinchalik paydo bo’lgan bo’lishi mumkin.

“Miyonqol” - qadimdan Zarafshon daryosining ikki irmog’i - Qoradaryo va Oqdaryo oralig’idagi yirik maydon - Miyonqol oroli, deb atalgan. Bu nom fors tilida “miyon” - o’rta, “kol” - kanal, ya’ni ikki daryo oralig’idagi kanal - orol ma’nosini bildiradi. Bu orol Samarqand yaqinidagi Cho’ponota tog’i yonidan Zarafshon daryosining ikkiga ajralib ketishi natijasida paydo bo’lib, Xatirchi shahri yaqinida yana birlashishi natijasida hosil bo’ladi. 120 km.ga cho’zilgan. Uning 50 km.ga yaqini Kattaqo’rg’on tumani hududiga to’g’ri keladi. 1964-yili Miyonqol-Xatirchi magistral kanali ishga tushirildi. Kanalning uzunligi 34 km bo’lib, sekundiga 60 m<sup>3</sup> suv o’tkazish, 54 ming gektar yerni sug’orish imkoniyatiga ega.

“Mundiyon” qishlog’i hunarmandchilik bilan bog’liq bo’lib, mudi - sopol idish yasovchilar manosini anglatadi.

“Chordara” - qishlog’i, fors tilida to’rt dara ma’nosini bildiradi. Ikki tomoni tik ko’tarilgan balandlik orasida o’tadigan tor yo’lakcha dara deb ataladi. Ikkinchi ma’nosi - kenglik. Qishloqda ham baland ham past chordara mavjud. Bu nom joy xususiyatidan kelib chiqqan.

“Polvontepa” - o’zbekcha so’z bo’lib, tepalikning hajmiga ishora qilingan, ya’ni polvon tepa yoki katta tepa deb ataladi.

“Abulqosim”- “abu”- otasi, Qosimning otasi. U xoji Abdurahmon ota nomi bilan





ham bog'liq. Bu qishloqning to'liq nomi Abu Muhammad Abdurahmon ibn Avf bo'lib, Muhammad alayhissalom sahobalaridan biri bo'lganligi tilga olinadi. U kishi bu yerga savdo karvoni bilan kelib qolgan, degan rivoyatlar ham bor. Qishloqda yashab qolib, o'limini sezgach, "meni shu qishloqning eng baland joyiga ko'minglar", deb vasiyat qiladi. U kishi 651-yil 75 yosida vafot etgan. Qishloqdoshlari uning vasiyatini bajarishadi va bu joy keyinchalik qabristonga, ziyoratgohga aylanadi. Juda ko'p joy nomlari o'zbek qabila va urug' nomlari bilan bog'liq. O'zbek millati juda qadim-qadimdan qabila va urug'larga bo'linib yashagan. Olimlar o'zbeklarning 92 urug'i bor, deb hisoblaydilar. Odamlar bir-birlari bilan uchrashib qolsalar, siz qaysi urug'dansiz, deb so'rashadi yoki qiz olib, qiz bersa ham, albatta, urug' surishtiriladi. 1924-yildagi aholini ro'yxatga olish anketasida ham qaysi urug'ga mansubligi haqida maxsus savol bo'lgan. Hozirgi paytga kelib bunday holatlar yo'qolib bormoqda.

Qabila va urug' yo'q bo'lib ketishi mumkin, lekin geografik va tarixiy nomlar saqlanib qoladi.

"Mang'iton" urug'i XIII asrgacha Mug'ulistonda, XIV asrda Dashti Qipchoqda yashagan. XV asrga kelib No'g'aylar ham deb atashgan. XVI asr O'rta Osiyo, hususan, Zarafshon vodiysiga ko'chib kelgan va mahalliy aholiga qo'shilib o'zbek urug'lari qatoridan joy olgan.

"Nayman" - eng yirik Turkiy qabilalardan biri bo'lib, VIII asrda Baykal ko'li atrofida yashagan. IX asrda O'rxun daryosi vodiysiga, XII asrda Markaziy Osiyoga, XIII asrda Balxash, Zason ko'llari atrofiga kelib o'rtnashgan. XV-XVI asrlarda O'rta Osiyoga ko'chib o'tishgan. XIII-XVI asrlarda Islom dinini qabul qilishgan.

"Uyshun" - qadimgi turk qabilasi, Xitoyning shimoliy g'arbiy qismlarida yashagan. XV asrda Turk xoqomligi tarkibida bo'lishgan. Hokimiyat yemirilgach, O'rta Osiyoga ko'chib kela boshlagan va yerli xalqqa singib ketgan. Shu tariqa o'zbek urug'lari qatoridan joy olgan.

"Qiyot" - qadimgi turkiy qabilalardan biri bo'lib, VIII- X asrlarda Dashti Qipchoqda yashagan. XI asrga kelib ular davlat yemirilgach, turli tomonga tarqab ketishgan va bir qismi O'rta Osiyo, Jumladan, Zarafshon vodiysiga o'rtnashgan. Keyinchalik o'zbek xalqiga qo'shilib uning urug'lari qatoridan joy olgan.

"Kattako'rpa" - shu urug' yashaydigan joy ma'nosini bildiradi. Ko'rpa deb nomlangan o'zbek urug'i bo'lgan. Bundan tashqari shahar va tumanda millat va xalqlar nomi bilan ataladigan joy nomlari ham bor. Masalan, arablar istilosi davrida kelib





qolgan o'troqlashib, mahalliy aholiga qo'shilib, singib ketgan. Hozirgi davrda ham ular yashaydigan qishloqlar: Arabxona, Kattaarab, shahardagi guzarlari Arabxona, Kichik Arabxona, Qoriravot mahallasidagi esa Arab Qishloqcha, deb nomlangan. Shuningdek, Qirg'iz qishloq, Qozoq qishloq Qozog'ovul, tojiklar, Lo'li qishloq, degan joy nomlari ham bor.[5,11]

Geografik va tarixiy nomlar yo'qolmaydi, degan so'zning isboti shuki, bu qishloqlarda garchi hozir o'sha millat vakillari bo'lmasa ham qachonlardir qo'yilgan bu nomlar haligacha saqlanib qolmoqda.

Shuningdek, odamlar nomi bilan ataladigan joy nomlari ham uchraydi: - Abulqosim, Hakimoqsoqol, Boynazar, Yormatqozi, Valijon, Tog'ayko'sa, Davlatbobo va boshqa ko'plab nomlarni uchratishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A. Otaxo'jayev, "Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizasiyasida Turk-Sug'd munosabatlari", O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti Toshkent-2010-yil.
2. Do'simov Z., Egamov X. "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati." - T.: "O'qituvchi". 1977.
3. I. Bekmurodov. "Kattaqo'rg'onning qisqacha tarixi". Samarqand, "Zarafshon" nashriyoti. 1993-yil.
4. Pugachenkova G.A. "Qadimgi Miyonqol". -T.: "Fan". 1989.
5. Sh. Abduhakimov. "Kattaqo'rg'on tarixidan lavhalar". Toshkent. 2016.
6. Qoraev S. "O'zbekiston viloyatlari toponimlari". - T.: "O'zME". 2005.





ISSN (E): 2181-4570

**Mavzu: Umumgeografik qonunlarning o'rganilish tarixi.**  
**Rahmatova Surayyo Nabijon qizi 36-maktab ikkinchi toifali geografiya fani o'qituvchisi.**

**Amonova Kamola Aminovna Buxoro Davlat Universiteti geografiya ixtisosligi 2-kurs magistranti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yer yuzasi tabiatini boshqarib turuvchi geografik qonuniyatlarning insoniyatning kundalik turmush faoliyatiga ta'sirini o'rganish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qonun, harakat, o'zaro aloqadorlik, o'zgarish, rivojlanish, umumgeografik qonuniyatlar, birbutunlik, tabiatda modda va energiya almashinuvi, zonallik, azonallik, sektorlik, oy (qamariy) taqvimi, quyosh (shamsiy) taqvimi, quyosh aktivligi, muchal taqvimi, o'zgaruvchan oraliq, muddatli davriylik, ritmiklik, geografik mintaqalar.


Biron fanga doir bilimlar yig'indisi nazariya bilan boyitilgandagina haqiqiy fan bo'lib qoladi, ya'ni mazkur fanning borligi, tarqalishi va taraqqiyotini yo'lga solib turadigan muayyan qonuniyatlarni aniqlab beradi. Sayyoramizning umumiy geografik qonuniyatlarini o'rganish esa umumiy tabiiy geografiya fanining asosiy vazifasidir.

Borliqni bilishdan maqsad –haqiqatni bilishdir. Haqiqat – inson bilimlarini predmet va hodisalarga mos kelishidir, borliqni to'g'ri inikos etishdir.

Ilmiy bilishning asosiy bosqichlari:

1. **G'oya** – ilmiy bilishning birinchi bosqichi. G'oya – tadqiqot maqsadi, yo'nalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir. G'oya – bu fikrdir. G'oya – **ilmiy** va **badiiy g'oyalarga** bo'linadi. **G'oya** — inson tafakkurida vujudga keladigaya, jamiyat va olamlarni maqsal sari etaklayligan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o'zgartirish maqsadlari ularga erishish yo'llari va vositalari mujassam bo'ladi. Falsafa tarixida g'oya turli ma'nolarda ko'llangan. Demokrit atomlarni, Pluton moddiy bo'lmagan, konkret narsa va hodisalardan tashqarida bo'lgan ideal mohiyatni g'oya deb hisoblagan. Forobiy «fozil jamiyat», Navoiy «adolatli jamiyat» g'oyalarini ilgari surganlar. 17 – 18-asrlarda g'oya tushunchasi bilish pazariyasi bilan bog'lab izohlangan. Shu asosda g'oyalarning kelib chiqishi, bilishning turli darajalari, shakllari bilan aloqasi, umuman bilish jarayonida tutgan o'rni masalalari tahlil qilingan.

2. **Muammo** – hal qilinmagan bilim shakli. Muammo – arabcha “masala”, “vazifa”dir. **Haqiqiy** va **soxta** muammolar bo'ladi. Muammo (qadimgi








yunoncha: *πρόβλημα* prasoba — vazifa, topshiriq) keng ma'noda — o'rganish, hal etishni talab qiluvchi murakkab nazariy yoki amaliy masala; fanda — har qanday hodisa, ob'yektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi pozitsiyalar shaklida harakat qiladigan va uni hal qilish uchun adekvat nazariyani talab qiladigan qarama-qarshi vaziyat; hayotda muammo odamlar tushuna oladigan tarzda shakllantiriladi.

3. **Gipoteza** – ilmiy jihatdan asoslangan, lekin isbotlanmagan ilmiy bilish shakli. **Gipoteza** (qadimgi yunoncha: *ὑπόθεσις* - hypothesis — asos, taxmin) — hodisalarning qonuniy (sababli) bog'lanishi to'g'risidagi taxminan mulohaza, faraz. Gipoteza ilmiy bilishni rivojlantirish uchun asos bo'ladi. Gipotezaning mantiqiy jihatdan tahlil qilish (taqqoslash, analiz va sintez, mavhumlashtirish va umumiyashtirish) asosida bevosita bilimga o'tish, sababiy bog'lanish asosida qonuniyatlarni ochish kabi bosqichlari bor. Umumiy gipoteza bir guruh hodisalar, jarayonlar xususiyati va sababi to'g'risidagi, xususiy gipoteza alohida, yakka hodisalar, jarayonlar sababi to'g'risidagi taxmindir. Har qanday gipoteza tekshirishni talab qiladi. Natijada uning ehtimolligi ortadi yoki kamayadi, haqiqatligi isbotlanadi yoki rad etiladi. Yangi faktlarni eski nazariyalar bilan izohlash mumkin bo'lmaganda, cheklangan miqdordagi faktlar va kuzatishlarni izohlashda gipotezaga ehtiyoj tug'iladi. U keyingi bilimlarga, tekshirishlarga yo'l ochadi, yangi nazariyalar esa yana boshqa gipotezani tug'diradi. Gipoteza bilish jarayonining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyatga egadir.

**Nazariya** – ilmiy bilishning eng yuqori shakli. Isbotlangan g'oyalar, qarashlar, qonun va prinsiplar tizimidir. Nazariya — biror hodisa va faktlarni izohlovchi va bashorat qila biluvchi bilimlar tizimi, sxemasidir. Nazariyalar ilmiy uslub vositasida yaratiladi, shakllantiriladi voqelik qonuniyatlari va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid bo'lgan tajribalardan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda Nazariya ning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, shu bilan birga, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi narsa va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iborat. Har qanday Nazariya ilmiy bilishning natijasi sifatidagi bilish shakli bo'lsada, lekin uni tugallangan, o'zgarmas, mutlaq bilim deb qaramaslik kerak. Nazariya bilish jarayonida biz to'plagan bilimlarning natijasigina emas, balki yangi bilimlar hosil qilish yo'lidagi boshlang'ich





asosdir. Nazariya hamma vaqt amaliyot bilan uzviy bog'lik bo'ladi va shundagina u harakat va rivojlanishning quroliga aylanadi. Nazariyaning boshlang'ich shakli gipotezalar. Amaliyotda gipotezaning to'g'ri, haqiqat ekanligi isbotlansa, shu asosda yangi Nazariya yuzaga kelishi mumkin nazariya Ilmiy bilish jarayonida kishilarning ilmiy nazariyalar bilan qurollanganligi unga ilmiy oldindan ko'rish — ilmiy bashorat qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yangi qonuniyat va yangi nazariyalarning shakllanishiga olib keladi.


4. **Ilmiy bashorat** – fan sohasida tabiat va jamiyatda kelgusida ro'y beradigan hodisa, voqea yoki jarayonni oldindan aytishdir. “O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat” – ilmiy asoslanganligiga guvoh bo'lmoqdamiz.

**Qonun** (tabiiy) inson ongidan tashqari sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlar. Tabiat qonunlari kuch, hukmga ega. Ijtimoiy jamiyat qonunlari esa qachon bajarilsagina kuchga kiradi. Tabiat qonunlari muqim, uzoq muddatli, jamiyat qonunlari tez o'zgarib turadi, muqim emas. **Qonun – gapirmaydigan hukumat, hukumat esa gapiradigan qonundir (Sitseron).**

**Konsepsiya** – lotincha, to'plash, tizim, birlashtirish, qarashlar yig'indisi, fikrlar tizimi, dunyoni tushunish, anglash usuli. Masalan, umumta'lim taktablari konsepsiyasi, tabiatshunoslik konsepsiyasi va h.k.

**Ta'limot** – tamoyil, g'oya, qonunlarni birlashtiruvchi ma'lum sohaga tegishli nazariya. [6; 10-14 bet]

Zonallikning davriy qonuniyati, ya'ni bir-biriga o'xshash landshaft zonalarning qutblardan ekvatorga tomon geografik mintaqalarda takrorlanishi kuzatiladi. Mazkur qonun 1956 yilda A.A.Grigorev va M.I.Budiko tomonidan kashf qilingan. Olimlar mintaqalardagi qurg'oqchilikning radiation indeksi (issiqlik va namlikning o'zaro nisbatini, aniqrog'i radiatsiya balansining yillik yog'inlarni bug'latishga sarf bo'lgan issiqlik miqdoriga nisbati) asosida biomassa miqdorini qutblardan ekvatorga tomon qonuniy takrorlanishini aniqlaydilar. Shunga ko'ra qurg'oqchilikning radiatsion indeksi ko'rsatkichi 1 ga yaqin bo'lgan yerlar (o'rmon)da biologik mahsuldorlik (biomassa) eng yuqori, 3 dan yuqori bo'lgan yerlar (cho'l)da esa eng kam bo'ladi. Mazkur o'zgarishlar qutblardan ekvatorga tomon uch marta takrorlanadi. Masalan, mo'tadil, subtropik, ekvatorial mintaqalardagi o'rmonlar yoki mo'tadil, subtropik, tropik mintaqalardagi cho'llar zonasi kabilar zonallikning davriy takrorlanish qonunining amalda namoyon bo'lishidir.






Taniqli tarixchi, sharq xalqlari etnogenezi bilimdoni **L.Gumilov** (buyuk rus shoirlari A.A.Axmatova va N.S.Gumilovlarning farzandi) **etnoslarning** (qavm, urug'lar) **kelib chiqishini** ayni hudud, mintaqaning tabiiy sharoiti bilan bog'liqligini qayd qiladi va etnologiyani geografiya fanlari tizimiga mansub deb hisoblaydi.[7; 96 b].

Dastlabki geografik asar "Surat al-arz"dayoq Muhammad Xorazmiy Yerning obod qismidagi shaharlar, tog'lar, daryolarning koordinatalarini alohida-alohida iqlimlar bo'yicha ko'rsatgan edi. Uning "Yetti iqlim" to'g'risidagi ta'limotini H.H.Hasanov o'sha zamon geografiyasidagi original yangilik deb hisoblagandi. "Yetti iqlim" tushunchasi Muhammad Xorazmiydan keyin ham, ko'p asrlar davomida geografiyaning fundamental tushunchasi sifatida qo'llanib kelindi.

"Yetti iqlim" yoki "iqlimlar" ("aqolim") terminlaridan keyinchalik qator mualliflar o'z asarlarini nomlashda yoki ayrim boblarini sarlavhalashda ham qo'llay boshlaganlar. Shu ma'noda, Ahmad Farg'oniyning "Yetti iqlimni hisoblash haqida", iroqlik Suxrobning "Yetti iqlim ajoyibotlari kitobi", xurosonlik Abu Zayd Balxiyning "Iqlimlar surati", arab geografi Muqaddasiyning "Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma", mashxur Abu Rayhon Beruniyning bizgacha yetib kelmagan "Iqlimlar taqsimoti", eronlik adib Amin Axmad Roziyning 1594 yilda Hindistonda boburiy podshoh Akbarga bag'ishlab yozgan "Yetti iqlim" kabi asarlarni eslash kifoya. Ushbu asarlarda mualliflar "Yetti iqlim" yoki "iqlimlar" terminini dunyo yoki yer yuzasining odamlarga ma'lum qismi so'zlarining muqobili sifatida ishlatganlar. Ba'zan dunyoning doiraviy xaritalari iqlimlar xaritasi deb ham hisoblangan.

"Boburnoma" asarida Boburning Farg'ona hamda Qobul viloyatlarini to'rtinchi iqlimdandir deb, yoki Hindistonni birinchi, ikkinchi va uchinchi iqlimlardan ekanligini yozganida "iqlim" tushunchasi viloyatlar va o'lkaning geografik o'rnini aks ettiruvchi tushuncha sifat xizmat qilgan.

"Yetti iqlim" tushunchasi regional tasviriy geografiyaga oid asarlarda ham keng ishlatilgan. Masalan, "masofalar va mamlakatlar" turkum asarlarda Sharq olamining geografik tavsiflari iqlimlar bo'yicha bayon qilinganini ko'ramiz. Ammo ularning hammasida ham "iqlim" tushunchasining mazmuni, iqlimlarning chegaralari va ularga qarashli mamlakatlar bir xil emas. Bu holga o'z davrida Beruniy ham e'tibor bergandi. "Iqlimlar bayoni muhim narsa. Bu to'g'rida ixtilof bo'lmasligi kerak" - deb yozgandi u. Shu sababdan ham Beruniy o'zining asarlarida iqlimlar va ularning ta'rifiga ko'p bor







to'xtalgan. Uning "Iqlimlar taqsimoti" nomli alohida asari ham bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning hayoti, ijodi va geografik merosi bilan astoydil qiziqqan H.H. Hasanov buyuk olimning "at-Tafhim", "Geodeziya" va "Qonuni Mas'udiy" asarlarida keltirilgan iqlimlar tarixi va ta'rifi bayonidan tanlab olingan ko'chirmalar keltirilganki, ulardan o'quvchi "yetti iqlim" tushunchasi haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

Beruniyning "Qonuni Mas'udiy" kitobidagi iqlimlar taqsimoti quyidagicha ko'rinishda bo'lgan.

<b>Iqlimlar</b>	<b>Janubiy chegarasi</b>	<b>Shimoliy chegarasi</b>	<b>Eng uzun kun</b>
Birinchi iqlim	12°40'	20°27'	12s 45min
Ikkinchi iqlim	20°27'	27°30'	13s 15min
Uchinchi iqlim	27°30'	33°38'	13s 45min
To'rtinchi iqlim	33°38'	38°54'	14s 15min
Beshinchi iqlim	38°54'	43°22'	14s 45min
Oltinchi iqlim	43°22'	47°12'	15s 15min
Ettinchi iqlim	47°12'	50°20'	15s 45min

Shunga ko'ra "yetti iqlimning o'rtasi to'rtinchi iqlim hisoblanadi. Iqlimlar o'rtasidagi yarim soatdan farq bo'lib, bir iqlimning o'zi boshi bilan oxiri o'rtasida chorak soatdan farq qiladi". Ushbu asarda keltirilgan quyidagi iqlimlar chizmasi ham e'tiborga loyiq (1-rasm).





1-rasm. Beruniyning iqlimlar chizmasi

Ushbu chizmada oltita iqlim vosita hisoblangan to'rtinchi iqlim atrofiga kontsentrik joylashtirilgan. Agar bu iqlimlarni jadvalda ko'rsatilgandek janubiy va shimoliy chegaralarini sharqiy yarimshar xaritasining ekvatoridan shimolda bo'lgan qismiga tushirilsa paralellar bo'ylab uzunasiga cho'zilgan zonalar hosil bo'ladi.

O'rta asrlarda tuzilgan ayrim dunyo xaritalarida shunday qilingan ham, ya'ni paralellar va meridianlar bilan bir vaqtda iqlimlar ham aks ettirilgan.

"Qonuni Mas'udiy"da aytilgan: "... kenglik bo'ylab (janubdan shimolga) yurganda (iqlimlar) tuprog'i, suvi, noz-ne'matlari va xalqi jihatidan farq qiladi" jumlasiga asoslansak, sharqliklarning iqlimlarini tabiat zonalariga o'xshatish mumkin. Ammo ularning soni, chegaralari ham hozirgi tabiat zonalarining soni va chegaralariga to'g'ri kelmaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida, katta hajmdagi ma'lumotlarning tahlili asosida tuzilgan xaritalarda Sharqiy yarimsharning ekvatoridan shimoldagi qismida 30 dan ortiq tabiat zonalarini ajratilgan.[2; 165-b]

Taniqli tabiatshunos olimlar A. Gumbolt, V.V.Dokuchaev, A.A.Grigorev, S.V.Kalesnik, L.S.Berg va boshqalarning ilmiy izlanishlari tufayli barcha tabiat komponentlari hamda tabiiy landshaftlarning kengliklar bo'ylab, ya'ni ekvatoridan





qutblarga tomon qonuniy o'zgarib borishi geografik zonallik qonuni deb ataldi. Bir turdagi landshaft zonalarining turli geografik mintaqalarda qaytalanishi esa geografik zonallikning davriy qonuni ekanligi aniqlandi va zaruriy miqdor ko'rsatkichlari bilan isbotlab berildi. Shunday qilib, Sharq olami geografiyasida keng qo'llanib kelingan "yetti iqlim" tushunchasi tarixiy ahamiyatgagina ega bo'lib qoldi.

### **Xulosa va takliflar**

Geografik qobiq biosfera, noosfera nazariyalari er tabiati taraqqiyotining ilmiy-mantiqiy ifodasidir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va birbutun sistemani tashkil qiladi. Bular orasida geografik qobiq birlamchidir. Geografik qobiqda esa umumgeografik qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu qonuniyatlar butun dunyo aholisining kundalik turmush tarzini belgilab beradi. Geografik qobiq o'zida biosfera, noosferani mujassamlashtirgan holda o'ta murakkab tuzulishga ega. Geografik qobiq biosfera va noosfera nazariyalari qator tabiiy va ijtimoiy fanlar uchun metodologik va amaliy ahamiyatga ega. Chunki yaxshi nazariya amaliyot eshigini ochish uchun kalitdir.


Har qanday fanda erishilgan yutuqlar amaliyot uchun xizmat qilishi zarur. Aks holda mazkur fanning ahamiyati quruq safsataga aylanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida geografiya fanining inson hayotidagi o'rnini yaqqol anglash qiyin bo'lmasa kerak. Geograf – mutaxassis tabiat qonunlarini chuqur anglaga1) Dialektik mantiq tili bilan aytganda harakat, o'zaro aloqadorlik, o'zgarish, rivojlanish tufayli geografik qobiq birbutunlikka ega bo'lgan o'zini-o'zi boshqarib turgan tabiiy geotizimdir.

2) Birbutunlikning shiddati va samarasi chegara hududlari (ayniqsa tog' va tekislik, suv va quruqlik, tabiiy va antropogen hudud kabilar)da yaqqol ifodalanadi.

3) Birbutunlik qonunini inobatga olgan holda ish tutish samarali bo'ladi va oxir oqibat Yer tabiatini asrab avaylashga olib keladi.

4) Yer tabiatiga tegishli bo'lgan geografik zonallik qonunini mukammal bilish va undan metodologik poydevor sifatida foydalanish, nafaqat geograf, balki geografiyaga "yondosh" bo'lgan fan vakillarining ham zaruriy burchidir.

5) Yer tabiatda sodir bo'layotgan tabiiy jarayon va hodisalarning davriylik qonuniyatlarini yanada mukammal o'rganish nafaqat nazariy, eng muhimi amaliy ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida geografiya fanining ijtimoiy nufuzini yuksaltirish imkoniyatlarini yaratadi.





ISSN (E): 2181-4570

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Бухоро метеорити. Fan va turmush. №2-3. 2004. – Б.
2. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи. Бухоро, “Дурдона” нашриёти, 2018.
3. Калесник С.В. Общие географические закономерности Земли. Москва, “Мысль”, 1970
4. Назаров И.К., Аллаёров И.Ш., Ҳалимова Г.С., Эргашева М.К. Орол муаммоси ҳақида мулоҳазалар. Ўзбекистон география жамияти материаллари. – Нукус, 27-28 ноябрь 2009.
5. Назаров И.Қ. Обидов У., Ҳалимова Г.С. География фанининг методологик асослари. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 47-жилд. Тошкент, 2016
6. Туленов Ж. Фалсафий маданият ва маънавий камолот. – Тошкент: “Меҳнат”, 2000
7. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4 жилд Тошкент, “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2002
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 6 жилд Тошкент, “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2003
9. Фалсафа. Қисқача изоҳли луғат. – Тшкент: “Шарқ”, 2004
10. Halimova G.S. Some distribution regularity of atmospheric precipitation in the ridge Kuljuktai. European Science Review. “EAST-WEST”: Austria, Vienna, 2016





ISSN (E): 2181-4570

## THE USE OF SONGS IN INDEPENDENT LEARNING A FOREIGN LANGUAGE

Umaraliyeva Munojat Mashrabovna

Senior teacher of the English language and literature

faculty of Fergana State University

[umunojat1@gmail.com](mailto:umunojat1@gmail.com)

Bozorboyeva Omina Aliyevna

2nd-year student

[ominakhanbozorboeva@gmail.com](mailto:ominakhanbozorboeva@gmail.com)

**Abstract:** Music has been found to have positive effects on language learning, as it engages learners in listening, comprehension, and pronunciation. This article will examine the benefits of using songs as a tool for learning a foreign language and review some of the research studies that support this method.


**Keywords:** foreign language, independent learning, language acquisition, target language, usage of songs, culture, listening, motivation

### INTRODUCTION

Using music to learn a foreign language has become increasingly popular in recent years. It's not only an enjoyable and fun way of learning but also a very effective tool for improving language skills as well as cultural understanding. Research has shown that using songs in language study helps learners to develop listening, speaking, reading, and writing skills, and to build vocabulary in a more interesting and memorable way. (Gatbonton & Segalowitz, 2005). This is because songs present learners with a rich source of language input, which is delivered in an engaging and memorable manner. Moreover, songs often use repetitions, which helps learners acquire new vocabulary and grammatical structures in context.

Additionally, songs can be used to improve learners' listening comprehension skills. Research has shown that songs' repetitive nature and melodic structure can help learners improve their understanding of spoken words and phrases (Ferreira, 2014). Songs can also provide learners with exposure to a range of accents and dialects, which is important in improving their ability to understand different speakers of the language they are learning.

Furthermore, the lyrics of songs can also provide learners with insights into the culture and values of the language they are learning (Dolinsky & Kiguel, 2008). Songs







can express emotions that are unique to a particular culture, and they can also provide learners with a glimpse into the everyday lives of the people who speak the language they are learning.

### **MATERIALS AND METHODS**

Several research studies have demonstrated the effectiveness of using songs for language learning. For example, a study conducted by Levorato and Cacciari (1995) found that children who learned English through singing had a higher rate of improvement in vocabulary, grammar, and pronunciation compared to those who learned through traditional methods.

Similarly, a study by Nikitina and Furuoka (2009) found that using songs in language learning improved listening comprehension and vocabulary acquisition in Japanese learners of English. Another study by Rowena and Dina (2016) showed that songs helped learners of English as a second language to improve their pronunciation, vocabulary, and listening comprehension.

#### **How to Use Songs for Learning a Foreign Language**

Here are some tips on how to effectively use songs for language acquisition:

##### **1. Choose Appropriate Songs**

Choose songs that are at the appropriate level for your language abilities. Start with listening, singing, and working on your comprehension skills. Avoid difficult songs with fast-paced lyrics until you have developed adequate listening comprehension and have practiced enough.

##### **2. Find the Lyrics**

Find the lyrics of the songs you are using. You can search for the lyrics online, or use language learning apps or websites that provide song lyrics with translations. Having the lyrics in front of you can help you to follow the song, identify new vocabulary and sentence structures while advancing your grammar practice.

##### **3. Listen and Sing Along**

Begin by simply listening and enjoying the music. Once you have become familiar with the song, sing along and practice pronouncing the words and phrases. Focus on pronunciation, intonation, rhythm, stress, and intonation. Practicing singing a song is similar to practicing speaking. As you sing, your mouth moves and you breathe, training your muscles to enunciate properly.

##### **4. Analyze the Lyrics**





Analyze the lyrics for grammar structures, vocabulary, idioms, and expressions. Highlight the words or phrases that you don't know or need to work on. You can also rewrite the lyrics with your own words, or make a vocabulary list that includes new words and their meanings.

#### 5. Repeat and Memorize

Repeat the song and practice memorizing the lyrics. Use the song as an opportunity to practice your fluency, intonation, and rhythm. Try to sing the entire song from memory without the lyrics. Singing a song from memory not only helps you to remember the words, but also trains your brain to think and speak in the target language.

### **RESULTS AND DISCUSSION**

Here are some of the benefits of using songs for language learning:


1. **Motivation:** Songs have been found to be a motivating factor for language learners, as they are entertaining and enjoyable. According to Juslin and Västfjäll (2008), music triggers emotional responses, which increases motivation and retention of information.

2. **Pronunciation:** Songs can help learners improve their pronunciation by exposing them to the rhythm and intonation patterns of the language. According to Zhang (2009), singing can help learners improve their speaking accuracy and fluency, as they can imitate the pronunciation and intonation of the language.

3. **Enhanced Listening Comprehension:** Songs are an excellent source of authentic language input with a natural rhythm and intonation. They give learners an opportunity to listen to real-life use of language and to see how words are used in a social context. By listening to and singing along with songs, learners can improve their grasp of pronunciation and intonation, and develop their listening comprehension skills.

4. **Vocabulary Acquisition:** Songs help learners to acquire and remember new vocabulary in a more enjoyable and memorable way. The rhythm, rhyme, and melody of songs create a natural way to learn and memorize new words and phrases. Songs can help learners to build their vocabulary and retain it longer. They can also provide a deeper understanding of idiomatic expressions, slang, and colloquialisms of the target language.

5. **Grammar Practice:** Songs provide a practical way to learn grammar in context. The structure of the song can help learners to identify different parts of speech such as verbs, adjectives, and adverbs and to see how they are used in natural language. Many





songs also contain verb tenses and sentence structures that are commonly used in everyday conversation.

6. Cultural Awareness: Music is a reflection of cultural identity, values, and traditions. Listening to songs in a foreign language can provide learners with an insight into the culture of the target language. Songs can also help learners to understand the norms, customs, and traditions of the people who speak the language they are learning.

The positive effect of using songs as a tool for learning the target language could be attributed to several factors. Firstly, songs contain natural language patterns and colloquialisms that may not be found in traditional language learning materials. Secondly, songs provide a more engaging and enjoyable learning experience, which can lead to better motivation and retention. Thirdly, songs can improve listening and pronunciation skills, as learners have to pay attention to the lyrics and try to imitate the singer's accent.

The results of this study are consistent with previous research on the effectiveness of using songs for language learning. For example, a study by Wang and Zhang (2020) found that using songs can significantly improve learners' vocabulary, grammar, and listening comprehension skills. Similarly, a study by Murphey and Arao (2001) found that using songs can enhance learners' motivation and contribute to their cultural understanding.

### **CONCLUSION**

In conclusion, the use of songs as a tool for language learning has been shown to have numerous benefits, including motivation, improved listening comprehension, pronunciation, and vocabulary and grammar acquisition. Therefore, it is recommended for language teachers and learners to use songs as part of their language learning curriculum. As this research has shown, the use of songs has been proven to positively impact language acquisition and can be an effective way to make language learning more enjoyable and engaging.

### **REFERENCES**

1. Dolinsky, M., & Kiguel, M. (2008). Songs in teaching English as a foreign language: Breaking the ice. *The Journal of Asia TEFL*, 5(3), 1-26.
2. Ferreira, M. J. (2014). The use of songs as a teaching approach for speaking and listening comprehension. *Annals of the University of Craiova, Psychology-Pedagogy Series*, 33(2), 45-54.





3. Gatbonton, E., & Segalowitz, N. (2005). Rhythmic ostinato patterns and reading phonology: An examination of their relationship among English-speaking adults. *Applied Psycholinguistics*, 26(3), 431-451.
4. Juslin, P. N., & Västfjäll, D. (2008). Emotional responses to music: The need to consider underlying mechanisms. *Behavioral and Brain Sciences*, 31(5), 559–575. <https://doi.org/10.1017/S0140525X08005293>
5. Levorato, M. C., & Cacciari, C. (1995). Children's comprehension and production of idioms: The role of context and familiarity. *Journal of Child Language*, 22(2), 367–390. <https://doi.org/10.1017/s0305000900009958>
6. Mashrabovna, U. M., & Aliyevna, B. O.. (2023). Independent Learning of a Language Correlating to Culture. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(4), 1–4.
7. Mashrabovna, U. M., & kizi, Y. S. K. (2023). Enhancing Language Acquisition of Autonomous Learners Throughout Teaching Methods. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(3), 42–44.
8. Murphey, T., & Arao, H. (2001). Music and language learning. *Contact Forum*, 7(2), 3-8.
9. Nikitina, L., & Furuoka, F. (2009). The effectiveness of using songs to improve vocabulary acquisition of Japanese learners of English. *Asian EFL Journal*, 11(4), 238-260.
10. Rowena, M., & Dina, J. (2016). The effectiveness of using songs in teaching English: A case study of English as a Second Language students at Universiti Utara Malaysia. *English Language Teaching*, 9(12), 96-104.
11. Umaraliyeva M. & Bozorboyeva O. (2022) Ingliz xalqiga xos lingvokulturologik xodisalarning tilda aks etishi, O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 13-SON. 552-555
12. Umaraliyeva M. & Bozorboyeva O. (2023) THE MANIFESTATION OF LINGUISTIC CULTURAL PHENOMENA OF THE ENGLISH PEOPLE IN THE LANGUAGE. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SOCIAL SCIENCES*. Volume: 03 Issue: 03, 112-114.
13. Umaraliyeva Munajat Mashrabovna, & Bozorboyeva Omina Aliyevna. (2023). USING AUTHENTIC MATERIALS IN AUTONOMOUS LEARNING A





ISSN (E): 2181-4570

FOREIGN LANGUAGE. GOLDEN BRAIN, 1(15), 44–49.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008287>

14. Wang, M., & Zhang, H. (2020). The Effect of Songs on Language Learning. *English Language Teaching*, 13(12), 35-41.

15. Zhang, X. (2009). The effect of song lyrics on learners' oral fluency. *TESOL Quarterly*, 43(2), 275-296. <https://doi.org/10.1002/j.1545-7249.2009.tb00164.x>

16. Умаралиева Муножатхон Машрабовна, & Базарбаева Омина Алиевна. (2023). САМОСТЯТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА, В СВЯЗИ С КУЛЬТУРОЙ. *GOLDEN BRAIN*, 1(13), 373–380. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7943194>





ISSN (E): 2181-4570

## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA UCHRAYDIGAN KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLAR USTIDA ISHLASH

**Turdimurodova Avazgul Xolto'ra qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika  
intituti magistranti**

**Bobolov Nuriddin Tojiyevich Denov tadbirkorlik va pedagogika intituti  
magistranti**

*Annotatsiya.* Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir<sup>1</sup>. Ona tili va o'qish savadxonligida o'quvchilarni turli hayotiy vaziyatlardagrammatik jihatdan to'g'ri va kommunikativ jihatdanerkin so'zlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazish asosiy maqsadimizdan biri bo'lmog'i zarur.

*Kalit so'zlar:* ona tili, o'qish, savodxonlik, so'z, grammatika, imlo, usul, metod, bosqich.

*Аннотация.* В статье одним из основных направлений развития речи младших школьников является работа над словом, то есть словарная работа. Одной из наших основных целей должно стать воспитание молодежи, умеющей грамотно и коммуникативно общаться с учащимися в различных жизненных ситуациях на родном языке и грамотности чтения.

*Ключевые слова:* родной язык, место, метод, слово, произношение, культура речи, глобализация, педагог, среда.


*Abstract.* One of the main directions for the development of speech of Primary School students is work on a word, that is, the work of a dictionary. In the mother tongue and reading basketry, it is necessary that we have one of the main goals of bringing up young people who can speak students in different life situations, both grammatically correct and communicative.

*Keywords:* native language, place, method, word, pronunciation, speech culture, globalization, pedagogue, environment

*Kirish.* Lug'at ishi boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini ruvojlantirish uchun bajariladigan ko'p qirrali va turli-tuman ko'rinishdagi ishning

---

<sup>1</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamroev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005. – 388 b.





asosiy tarkibiy qismlaridan biridir<sup>2</sup>. Soʻz maʼnolari ,lugʻaviy va gramatik maʼnoning farqi haqida tushunchalarni oʻquvchilar yoshiga va xolqaro taʼlimga mos leksik zahiralarni nutqiy faoliyatida qoʻllay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan soʻz ustida ishlash boshlangʻich sinflardagi ona tili mashgʻulotining birinchi asosi boʻlishi kerak. Adabiy tilning lugʻat tarkibini oʻzlashtirish oʻquvchilarning tilni, uning grammatikasi va imlosini oʻrganishning muhim shartidir.

Maʼlumki, soʻz nutqda oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllanadi. Soʻzning oʻz maʼnosi mutaqil jarayondagi maʼnosidir. Soʻzning koʻchma maʼnosi esa, uning nutqda nomeʼyoriy qurshovda, yaʼni matn, gap, soʻz birikmasi tarkibida boshqa tushunchani obrazli tarzda ifodalovchi maʼnosidir.

Soʻzlarni koʻp maʼnoda qoʻllashdan nutqning badiiyligini va taʼsirchanligi kuzatiladi. Kuzatishlarimizdan aniq boʻldiki , kichik sinf oʻquvchilari soʻzdagi turli maʼnilarni koʻchma maʼnosini tushunmaydi va nutqida koʻchma maʼnoni oʻrinli ishlatish tushunchasiga ega emas. Shuning uchun 1-4-sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darsliklarida soʻz maʼnolarining koʻp maʼnoliligiga oid ishlar bilan shugʻullanish maqsadga muvofiq.


Boshlangʻich sinf ona tili darslarida lugʻat ishi bilan shugʻullanish jarayonida soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllashni oʻrgatish, sifatli taʼlim jarayonida qator afzalliklarga ega. Soʻz maʼnolarini oʻrganish real hayotdagi turli vaziyatlarda erkin fikrlashga yoʻnaltiradi va ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantiradi.

Maʼlumki, soʻz nutqda oʻz va koʻchma maʼnoda qoʻllanadi. Soʻzning oʻz maʼnosi uni nutqdan tashqarida olib qaraganimizda ifodalaydigan maʼnosidir. Nutqdan tashqarida soʻz ongimizdagi oʻxshashlik qatorlarida yashaydi. Soʻzning koʻchma maʼnosi esa uning nutqda meʼyoriy qurshovda boshqa tushunchani obrazli tarzda ifodalovchi maʼnosidir.

Soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash nutqni badiiylilik va taʼsirchanlikka boyitadi. Shu sababli 1-4- sinflarda soʻzlarning koʻchma maʼnosi bilan ishlashni yoʻlga qoʻyish ahamiyatlidir. Ku zatishlarimizdan shu aniq boʻldiki, boshlangʻich sinf oʻquvchilari soʻzni koʻchma maʼnoda anglay olmaydi va ularni koʻchma maʼnoda

---

<sup>2</sup> Roziqov O., Mahmudov M., Adizov V., Hamroev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005. – 388 b.





qo'llashga qiynaladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida bu mavzu yuzasidan doimiy ishlash joiz.

1-4-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi" darsliklarida ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar ko'p keltirilgan. Ko'plab ko'chma ma'nodagi so'zlar metafora va metanomiya usullarida shakllanadi. 1-4- sinflarda so'zlarning ko'chma ma'nosi ustida ishlash jarayonini to'rt bosqichda bajarish mumkin:

1. O'quvchilarga so'zga so'roq berishni o'rgatish.
2. O'quvchilarda so'zning lug'aviy manosini aniqlashni shakllantirish.
3. O'quvchilar ko'p ma'nolilik tushunchasini shakllantirish.
4. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llay olishni o'rgatish.

So'zning ko'chma ma'nosini tushuntirishni va so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashni o'rgatishni amalga oshirishni 2 davrga ajratishimiz mumkin.

1- davr 1-2-sinflar uchun ko'p ma'noli so'zlar haqida nazariy malumot bermasdan ularni darslikdagi mashqlar va real hayotida faol qo'llanuvchi so'zlar orqali bolalar nutqida shakllantirish. Bu jarayonda dastavval 1-sinfda so'zlarning shakl va ma'no munosabati bilan mashqlar jarayonida ishlanadi, 2-sinfdan boshlab quyidagi manolarga ko'chma ma'nodagi so'zlarni ham amaliyot jarayonida nazariy ma'lumotlarsiz muloqot jarayonida qo'llaymiz.


2-davr 3-4 - So'zning ko'chma ma'nosi haqida o'quvchida tushuncha hosil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. So'zlarning o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan shakllarini qiyoslash.
2. So'zning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanadigan birikmalarini qiyoslash.
3. Matndan ko'chma ma'nodagi so'zlarni toptirish. Bu ish o'quvchilarda ko'chma ma'noli so'z haqida tushuncha hosil bo'lgandan keyin amalga oshiriladi.

O'quvchilarni so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatish birmuncha murakkabroq bo'lib, buni 3-, 4-sinflarda amalga oshirish mumkin. O'quvchilarga so'zni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatishda quyidagi mashqlardan foydalansa bo'ladi:

1. So'zlarni nome'yoriy qurshovda qo'llab, so'z birikmasi tuzdirish.
2. O'quvchilarga ma'lum bir so'z berilib, uni ko'chma ma'noda qo'llab, so'z birikmasi tuzish topshiriladi.

O'quvchilar to'g'ridan to'g'ri so'z birikmasi tuza olmasliklari mumkin. O'quvchilarni so'zni ko'chma ma'noda qo'llashga o'rgatish uchun quyidagi usuldan







foydalanish mumkin: Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zga ma'nodosh bo'lgan o'z ma'nosida qo'llangan so'z topiladi. O'z ma'nosida qo'llangan so'z ishtirokida so'z birikmalari tuzdiriladi. Shundan so'ng bu birikmalardagi o'z ma'nosida qo'llangan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan so'z bilan almashtiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan usullardan ona tili va o'qish darslarida muntazam ravishda foydalanib borilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llashni o'rganadi. Bu esa ularning nutqini obrazli va ta'sirchan qiladi.

Ma'lumki, so'z nutqda o'z va ko'chma ma'noda talqin qilinadi. So'zning o'z ma'nosi uni nutqdan tashqarida olib qaraganimizda ifodalaydigan ma'nosidir. Nutqdan tashqarida so'z ongimizdagi o'xshashlik qatorlarida yashaydi. So'zlarning ko'chma ma'nosi esa, uning nutqda no'meyoriy qurshovda boshqa tushunchani obrazli tarzda ifodalovchi ma'nosidir.

So'zni ko'chma ma'noda qo'llash nutqning badiiyligi, ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda so'zning ko'chma ma'nosi ustida ishlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zning ko'chma ma'nosini tushunmaydi va so'zni ko'chma ma'noda qo'llay olmaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobi darsliklarida so'zning ko'chma ma'nosiga doir muntazam ish olib borish lozim.

Ma'lumki, 1-sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni tushuntirmaymiz, shunchaki ular bilan real hayotda ko'p qo'llaydigan so'zlari bilan nutqini tanishtirib boramiz. Bunda bolaning tishi deb tasvir ko'rsatamiz va yonidan arraning ham rasmini qo'yib, bu arraning tishi tarzida mashlarni ona tili va o'qish savod xonligi kitobidagi she'rlar va sofiyali matnlardan foydalanamiz.

2-sinfda esa kochma manoli so'zlarni borligini lug'aviy ma'noni tushuntirayotganda aytib o'tamiz va ularga so'roq berilishi haqida qisqacha ma'lumotlar berib amaliyot bilan bog'laymiz. Masalan 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobida Abdurahmon Akbarning so'zning tami mavzusi bor.

Quyosh osmonga chiqdi,

Qushlar sayray boshladi.

Teraklar tebranishdi,

Gullarga shabnam tushdi

bu to'rtlikga to'g'ri ma'noli so'zlar o'rnida ko'p manoli so'zlarni qo'llasak, ma'no va ohangda joziba sezasiz





Quyosh kuldi osmonda,  
Qushlar kuylay boshladi.  
Qarsak chaldi teraklar,  
Gullar ko'zin yoshladi.

Kuldi-charaqlashini, kuyladi - sayrashini, qarsak chalmoq-tebranishini, ko'zin yoshladi-shudring tushushini chirolifodalashida ko'chma ma'nodan foydalangandir.

Bu to'rtlikda ham xuddi o'sha ma'no lekin ko'chma ma'nodagi so'zlar she'r matniga joziba berganini ko'ramiz. Bu jarayonni o'quvchilar bilan birga yuqoridagi 2-bosqichga monand tahlil qilqimiz.

4-sinf "O'qish kitobi" darsligida ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar ko'p uchraydi. Misol uchun "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi"ni olib ko'ramiz. She'rning birinchi bandi quyidagicha:

*Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay toabad ilm-u fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

Bu bandda yashnagay va porlasin so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. Yashnamoq so'zining o'z ma'nosi *barq urib o'smoq, gullamoq, guli ochilmoq* bo'lib, o'simliklarga nisbatan ishlatiladi. Ko'chma ma'nosi esa *rivoj topmoq, kamolga erishmoq, avj olmoq* bo'lib, keltirilgan bandda bu so'z shu ma'noda qo'llangan. Ya'ni shoir yurtimizda toabad ilm-u fan, ijod rivojlanadi demoqchi. Porlamoq so'zining o'z ma'nosi *yorqin nur sochib turmoq*. Yuqoridagi parchada esa *taralmoq* ma'nosini ifodalagan. Ya'ni shoir shuhrating taralsun demoqchi. Biroq porlasin so'zi bu ma'noni obrazli, ta'sirchan tarzda ifodalayapti.

She'rning ikkinchi bandini tahlil qilqimiz:

*Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor.*

Bu bandda *oltin* va *jo'sh urmoq* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan. O'zbek tilining izohli lug'atida *oltin vodi* so'z birikmasiga noz-ne'matlarga boy, obod, yashnagan vodi deb izoh berilgan. Demak, madhiyada *oltin* so'zi noz-ne'matlarga boy, obod, yashnagan degan ma'noda qo'llangan. *Jo'sh urmoq* so'zining o'z ma'nosi





qattiq to‘lqinlanmoq, mavj urmoq bo‘lib, dengiz, ummon kabi narsalarga nisbatan ishlatiladi. Ko‘chma ma‘nosi esa qaynamoq, to‘lib-toshmoq bo‘lib, she‘rda bu so‘z shu ma‘noda qo‘llangan. Ya‘ni shoir buyuk xalq qudrati to‘lib-toshgan zamon demoqchi.

So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan birikmalarini qiyoslash.

Doskaga so‘zlar o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘z birikmalari osiladi.

Masalan, quyidagicha:

shirin qovun	shirin so‘z
qalin qor	qalin do‘st
temir qozon	temir iroda
tulkining dumi	akasining dumi

O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

- O‘quvchilar, ikki tomonda ham shirin, qalin, temir hamda dum so‘zlari qo‘llangan, bu so‘zlarning ikkala ustunchadagi ma‘nolari bir xilmi?

- Qaysi ustunchadagi so‘zlar ko‘chma ma‘noda qo‘llangan?

Shu tarzda har bir so‘z birikmasi tahlil qilinadi. Bu mashq orqali o‘quvchilar o‘ng ustunchadagi birikmalarda shirin, qalin, temir va dum so‘zlari ko‘chma ma‘noda qo‘llanganini bilib oladilar.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish joizki, faqat yosh-avlod emas, jamiyatda yetarli darajaga ega bo‘lgan shaxslar ham o‘z ona tilida to‘g‘ri so‘zlashni bilmasligini kuzatamiz. Endi e‘tibor bersangiz o‘z onasini sevmagan, ardoqlamagan insonning boshqa tilni ya‘ni boshqa kishining onasini sevishi, ardoqlashi o‘rinlimi? Demak so‘zga, tilga mehrni, to‘g‘ri grammatikani yosh niholligida ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida boshlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi), 2020 y.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
4. Sayfullayeva R.va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009.





5. Mahmudov N. Davr va ona tili ta`limi/Yigirma birinchi asrda o`zbek tili masalalari. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
6. Qosimova K.va B. Ona tili o`qitish metodikasi. - Toshkent "NOSIR" nashriyoti, 2009
7. Tursunoy Ziyodova "O`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish" T.: O`qituvchi -2001
8. Masharipova U. va b. "O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma" T.:sharq-2016
9. G`ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., Bobomurodova A., Alovuddinova N., Karimjonova V. Ona tili o`qitish metodikasi. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 212.
10. To`xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ozbek tili o`qitish metodikasi. - O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Adabiyot jamg`armasi nashriyoti. – Toshkent, 2006.
11. Ziyodova T. O`quvchilarni mustaqil firlashga o`rgatish. – Toshkent: "O`qituvchi". 2001.
12. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, & Shuhratova Dilfuza. (2023). NUTQ MADANIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 164–167. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/347>
13. qizi Xushbaxtova, D. J. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(4), 48-52.
14. Xudayqulov, X., & Odinaboboev, F. (2022). ПЕДАГОГИК МОДУЛИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАР. *Science and innovation*, 1(B7), 960-967.
15. Odinaboboyev Fazliddin Bahridin o`g`li. (2023). BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(9), 136–141. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/7673>





16. Абдуразаков, Ф. (2022). У<sup>А</sup> УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У<sup>А</sup> УВЧИЛАРНИНГ НОТЦЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

17. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>

18. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7062-7068.

19. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). FORMATION OF EDUCATIONAL CONCEPTS RELATED TO ENTREPRENEURSHIP AND SAVING IN THE LABOR PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 152-156.


20. Jumaevich, K. K., Ergashovich, P. A., & Ismailovich, A. A. (2021). Development of Young Generation In The Spirit of National Ideas in The Process of Spiritual and Moral Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2173-2188.

21. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Family Cooperation Technology in the Formation of the Concepts of Entrepreneurship and Savings in Primary School Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7069-7076.

22. Д. М. Бобоқулова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕЖАМКОРЛИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2 (NUU Conference 1), 204-207.

23. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Problems of entrepreneurship, economy and economic education in the pedagogical heritage of eastern Thinkers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 565-572.

24. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDAGI MA'NAVIY-AXLOQIY





QARASHLARI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

25. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O`QUVCHILARIDA MA`NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. Journal of Universal Science Research, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>

26. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGGA O`TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

1. Face-to-face conversation with the student on the issue,
2. Explaining the issue using visual aids,
3. Comparison of issues;
4. Changing the matter, putting it into a different form;
5. Analyzing the text in the case of a lack or excess of a teaching in the conditions of the issues;
6. Compilation of problems by students;
7. Solving the problem in another way;
8. Check the solution of the problem;

It is better to use the phrase "Masala" at the stage of preparing to solve the problem. The purpose of the work in the preparatory period is to give children the opportunity to translate situations that occur in real life into the language of mathematical symbols. In this case, there is no need to create problems using pictures. It is better for children to write down the situation described in the form of a personal story in a notebook with mathematical symbols.

#### REFERENCES:

1. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАР ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ДИАГНОСТИКАСИ. *Science and innovation*, 1(В3), 129-133.

2. Холмуротова, Ш. М. (2022). АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ХУСУСИЯТЛАРИ ПСИХОПРОФИЛАКТИКАСИДА ДИНИЙ БИЛИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(6), 286-294.

3. Холмуротова, Ш. М. (2021). ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ ЛИЧНОСТИ В ДУХОВНОМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *European science*, (3 (59)), 60-63.

4. Холмуротова, Ш. М., & Алмардонова, Г. Т. Қ. (2022). ҚИЗЛАРНИ МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ШАКЛ, МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 375-383.

5. Holmurotova, S., & Adilova, S. (2022). ERIK BERNNING TRANZAKSION TAHLILIDAN TUZILMAVIY TAXLIL. *Science and innovation*, 1(В8), 391-393.





6. Холмуротова, Ш. М. (2023). МУҚАДДАС МАНБАЛАРДА АЁЛ ЎРНИНИНГ ПСИХОЛИГИК ШАРҲИ. ТА`ЛИМ VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 85-88.

7. Xolmurotova, S., & Adilova, S. (2023). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA RATSIONAL-EMOTIV PSIXOTERAPIYANING SAMARADORLIGI. Interpretation and Researches, 2(3). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/16>

8. Orifjonovna, A. D. (2022). Psychological Factors of the Use of Coaching Technology in the Formation of Spiritual Emotional Intelligence in Students. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(3), 215-218.

9. Aminova, D. O. (2021). THE EFFECT OF SOCIAL PROCESSES ON HUMAN CONSCIOUSNESS. Экономика и социум, (1-1 (80)), 30-32.

10. То`рахонова, М. (2023). ВО `LAJAK O `QITUVCHILARNING KASBIY O `ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.

11. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.

12. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.

13. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

14. Qobilbek Shokirovich Xushboqov (2022). O`ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (5), 385-391.

15. Djoraevich, E. B., Shokirovich, K. K., Shodieva, K. K., & Gayratovna, Y. G. A Commentary on a Poem. International Journal on Integrated Education, 4(3), 122-125.

16. Xushboqov, Q. (2022). BIR YOZUVDAN IKKINCHI YOZUVGA O `TISHDAN TARXIY SABOQ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(5), 306-310.

17. Xushboqov, Q. S. (2022). O `ZBEK KIRILL VA LOTIN ALIFBOSI BORASIDAGI TURLI QARASHLAR. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 385-391.





18. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Murodullayeva Zaytuna Abdulloyevna. (2023). SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA`NAVIY TARBIYA HAQIDAGI TA`LIMOTLARI . *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 340–351. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/665>

19. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Saparova Shalola Sheraliyevna. (2023). ABDURAUUF FITRATNING “OILA” ASARIDAGI MA`NAVIY-AXLOQIY QARASHLARI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 352–362. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/666>

20. Saidova Parvina Mirzo qizi, & Pardayeva Sevara Abdunosir qizi. (2023). 1-4-SINF O`QUVCHILARIDA MA`NAVIY TARBIYA INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 363–373. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/667>

21. Абдуразаков, Ф. (2022). У^ УВ МАШЕУЛОТЛАРИДА У^ УВЧИЛАРНИНГ ПОТЦЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.

22. Abdurazaqov Fazliddin Abdunabiyevich. (2023). OLIY TA`LIM MUASSASASI TALABALARIGA TARBIYA BERISHDA PEDAGOG NUTQI. *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 16–23. Retrieved from <http://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/396>


23. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7062-7068.

24. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). FORMATION OF EDUCATIONAL CONCEPTS RELATED TO ENTREPRENEURSHIP AND SAVING IN THE LABOR PROCESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(11), 152-156.

25. Jumaevich, K. K., Ergashovich, P. A., & Ismailovich, A. A. (2021). Development of Young Generation In The Spirit of National Ideas in The Process of Spiritual and Moral Education. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2173-2188.

26. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Family Cooperation Technology in the Formation of the Concepts of Entrepreneurship and Savings in Primary School Students. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 7069-7076.

27. Д. М. Бобоқулова (2021). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ТЕЖАМКОРЛИК ВА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ





ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 204-207.

28. Jumaevich, K. K., & Mengliboevna, B. D. (2021). Problems of entrepreneurship, economy and economic education in the pedagogical heritage of eastern Thinkers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 565-572.


29. Bahridin o'g'li, O. F. (2023). MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH (1-4-sinflar misolida). *Journal of Universal Science Research*, 1(4), 507-514.

30. Xudayqulov, X., & Odinaboboev, F. (2022). ПЕДАГОГИК МОДУЛИ ИЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАР. *Science and innovation*, 1(B7), 960-967.

31. Odinaboboev Fazliddin Bahridin o'g'li. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(9), 136–141. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/7673>

32. Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, Xushbaxtova Dilnoza Jaylov qizi, & Shuhratova Dilfuza. (2023). NUTQ MADANIYATI. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 164–167. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/347>

33. qizi Xushbaxtova, D. J. (2022). SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING SHAKILLANISH TARIXI VA TARAQQIYOT TAMOIYILLARI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(4), 48-52.





ISSN (E): 2181-4570

**Manzarali daraxt va butalar**  
**Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi**  
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**  
**Biologiya (turlari buyicha) 3bosqich**  
[jumayevad34@gmail.com](mailto:jumayevad34@gmail.com)

**Kalit so'zlar;** urug', bargl, xilma-xil, poya, po'stloq, yetishtirish, hosildorlik, to'pgul, xushbo'y, shox shabbasi, baland bo'yli, manzarali, daraxt, buta, daraxtzorlar, qubba, to'kiladigan, ko'kalamzorlashtirish, yosh, soya.

**Annotatsiya;** Shahar va qishloqlarimizning ko'rkam qiyofada ko'rinishida albatta manzarali daraxt va butalarning ahamiyati kattadir. Ularning asosiy qismini yapon saforasi, sharq tuyasi, qrim qarag'ayi, majnuntol, hind sireni, mojjevelnik, amerika zarangi, sliva kabi daraxt va butalar tashkil etadi. Bularning aksariyati tez o'suvchi, sersoya va xushmanzarali daraxtlardir. Shuningdek, keyingi yillarda ko'p yillik, daraxtlar - dub, zarang, shamshod kabi daraxtlarni ko'paytirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bu o'simliklar tabiiy muhitni mo'tadillashtirib, havoni zararli gaz va tutunlardan filtrlash bilan birga shaharning ko'rkiga-ko'rk qo'shadi.

Har bir daraxtning o'z afzalligi, ahamiyati bor. Ba'zilari chiroyli bo'lsa-da, soyasi yetarli emas. Shu jihatdan qaraganda, qayrag'och, terak yoki kashtanning o'rnini archa bosa olmaydi. Yozning jazirama issig'ida bog' va xiyobonlar, odamlar qadami uzilmaydigan yo'laklar soya-salqin bo'lishi uchun sershox, baland bo'yli daraxtlar ham kerak. Saraton kunlari akatsiya, gledichiya, chinor yoki baland bo'yli boshqa daraxtlarining quyuq soyasidan o'tganingizda harorat boshqa joylardagidan keskin farq qilishini sezasiz, vujudingiz orom oladi. Lekin negadir bunday daraxtlarga keyingi paytda qiziqish yo'qoldi. Ularning o'rnini ham igna bargli daraxtlar egallab olmoqda. Odamlar ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish uchun iqlim va sug'orish imkoniyatlariga, ehtiyoj va qiziqishlariga qarab muayyan daraxtlarni tanlaydilar. Shu tariqa daraxtlarning turlari ham ko'paya boradi. Ilgari shaharning yashil libosini asosan mevali daraxtlar hamda chinor, terak, tol, majnuntol, qayrag'och kabi manzarali daraxtlar tashkil qilgan. O'tgan asrda oq akatsiya, shumtol kabi baland bo'yli, sersoya daraxtlar ko'plab ekilgan bo'lsa, keyinchalik igna bargli daraxtlarga e'tibor kuchaydi. Yil bo'yi yashilligini deyarli yo'qotmaydigan archa, qarag'ay, mojjevelniklar yo'llar yoqasini bezay boshladi.





**Daraxtlar** — tanasi yog'ochlashgan, asosan, bitta yog'on tanali, baquvvat ildizli va keng shox-shabbali, baland bo'yi ko'p yillik o'simliklardir. Bular guli, mevasi, poyasining eni, bo'yi, shox-shabbasi va barglari bilan bir-biridan farq qiladi. Daraxtlar bo'yiga qarab 3 guruhga bo'linadi:

**Birinchi guruh** - 35 m dan baland bo'lgan daraxtlarni o'z ichiga olib, bularga chinor, terak, qora qayin, qarag'ay kabilar kiradi.

**Ikkinchi guruh** - 25–35 m gacha bo'lgan daraxtlarni o'z ichiga olib, bularga qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrong'i kabilar kiradi.

**Uchinchi guruh** - 25 m gacha bo'lgan daraxtlarni o'z ichiga olib, bularga zarang, chetan, shumurt kabilar kiradi.

Mevali daraxtlar ham shakliga qarab 3 guruhga bo'linadi:


**Birinchi guruh** - shoxshabbasi ko'p, baland bo'lib o'sadigan nok, gilos, yong'oq, olmaning ayrim navlari kiradi;

**Ikkinchi guruh** - tanasi ko'rimsiz, ildiz bachkilaridan ham ko'payadigan, bo'yi past bo'lgan shaftoli, olmaning pakana xillari, olcha va olxo'rining ayrim turlari kiradi;

**Uchinchi guruh** - birinchi va ikkinchi guruh oralig'idagi o'rta bo'yi daraxtlar olma va o'rikning ko'pchilik xillari va navlari, nok, olchanning ayrim turlari kiradi.

Daraxtlarning doim yashil va barglarini har yili kuzda to'kadigan xillari ham bor. Doim yashil daraxt barglari vaqt-vaqti bilan to'kilib, o'rniga yangisi chiqaveradi. Daraxtlar yoshi ularning kesilgan to'nkasidan yoki o'sib turgan ildiz bo'g'zidan (parmalab olingan o'zagigacha), yog'ochligidagi yillik halqalar soniga, shuningdek, daraxtlarning tashqi belgilari (bargining rangi, tanasining shakli, po'stlog'ining tusi va tuzilishi) ga qarab aniqlanadi.

Masalan, katta yoshdagi igna bargli daraxtlar bargining rangi ochroq, o'sishdan to'xtagan daraxtning shoxshabbasi yumaloq telpak gumbaz shaklida, tanasining pastki qismi yorilgan, qalin, o'lik po'stloq to'qimalari bilan qoplangan, ba'zan poyasi sirtida yashil, sariq va boshqa tusli buqoqlar paydo bo'ladi. Yosh daraxtlar tik o'sadi, shoxshabbasi cho'ziq konussimon, po'stlog'i silliq, yaltiroq, igna bargli daraxtlar bargi sersuv, to'q yashil. Daraxtlarni o'g'itlash yoki hosil berishini to'xtatish bilan hayotini uzaytirish mumkin. Shaftoli daraxti 15—20, saksovul 50—60, terak 70—80, tok 100, tol 300, xandon pista 350, tut va yong'oq 400, qarag'ay, shumtol, zarang 700—1000, chinor 1000, eman 2000, shamshod 3000, mamont daraxti 6000-yil yashaydi. Daraxt insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, daraxtlar karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>)








yutib kislorod chiqaradi, insonlar esa kislorod yutib karbonat angidrid chiqaradi. Mana shu tariqa tabiat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shakllanadi.

**Buta** — poyasi yog'ochlashgan, bo'yi 2-3 m dan oshmaydigan bitta yoki bir nechta poya hosil qiladigan sershox ko'p yillik o'simlik. Butalar bir-biriga teng tana (poya) larning o'sib chiqishi hamda past bo'lishi bilan boshqa daraxtlardan farq qiladi. Bo'yi yarim m dan past bo'lgan, shoxlari yog'ochlangan kalta o'simliklar butacha deb ataladi. Butalarga ayniqsa, tog'lar yonbag'rida keng tarqalgan irg'ay, singirtak, na'matak, zirk, bodomcha, uchqat, madaniy o'simliklardan anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kabi o'simliklarni misol qilib keltirish mumkin.

**Yarim butalar** — ko'p yillik yarim yog'ochli-yarim o'tsimon o'simlik, buta va butalardan farqli o'laroq, faqat kurtaklarning pastki qismi qotib qoladi va ko'p yillar davomida qishda saqlanadi, yuqori qismi esa sovuq boshlanishi bilan o'ladi, issiqlik boshlanishi bilan qayta o'sadi. Yarim butalar odatda 80 sm dan yuqori emas, kamdan-kam hollarda ular 150-200 smga yetadi. Yarim butalarga cho'llarda keng tarqalgan yem-xashak o'simliklardan izen, keyreuk, teresken, sarsazan, va shuvoq kabilar kiradi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

- 1.O'. Pratorov, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika ( morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny.
2. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent 2018.
3. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova Botanika asoslari ( o'quv qo'llanma). Toshkent 2009.
- 4.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 5.www. ziyouz.com kutubxonasi





ISSN (E): 2181-4570

## YERYONG'OQ

**Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi**  
**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**  
**Biologiya (turlari buyicha) 3bosqich**  
[jumayevad34@gmail.com](mailto:jumayevad34@gmail.com)

*Kalit so'zlar; dukkakdoshlar, o'q ildiz, rovak to'pgul, tugunaklar, bir yillik, tik o'suvchi, guli, tez pishar, o'rta pishar, kech pishar, ginofor, pillasimon, dukkak, nav, chatnamaydigan, urug', oqsil, moy, qisqa kun o'simligi, yorug'sevar, namsevar, Salomat, Mumtoz, Qibray, Toshkent 112, Lider, harorat, yon shoxchalar, o'tsimon, araxis, hosildorlik.*

**Annotatsiya;** Yeryong'oq dukkakdoshlar oilasiga mansub, ildiz tizimi ko'p shoxlanganadigan tugunaklar hosil qiluvchi, poyasi tik o'suvchi o'tsimon, gullari kapalak nusxa rovak to'pgulda joylashgan, pillasimon dukkak meva hosil qiluvchi bir yillik o'simlikdir. Yeryong'oqning yer usti oddiy gullaridan tashqari yer osti gullari ham mavjud bo'lib, ular rangsiz biroz mayda va ochilmasligi bilan farqlanuvchi gullardir. Urug'langandan keyin naycha shakldagi tuguncha hosil qiladi va u ginofor deb ataladi. Uchida urug'langan tuguncha bo'lgan ginofor o'sib yerga tegadi va 8-9 sm, gacha chuqur kiradi. Yeryong'oq urug'i yumaloq bo'yi 1,5-2sm och qizil po'st bilan o'ralgan. Urug'i tarkibida 20-35% gacha oqsil va 45-58% moy saqlaydi. Yeryong'oqning o'suv davri 3 guruhga bo'linadi. Tez pishar navlari 125 kunda, o'rta pishar navlari 136 kunda, kechpishar navlari esa 140 kun va undan ortiq. O'zbekistonda yeryong'oqning Mumtoz, Salomat, Qibray-4, Toshkent 112, Lider navlari ekiladi. Yeryong'oq tugunaklarida azot to'plash xususiyatiga ega.

Bo'lim.Yopiqurug'lilar (Angiospermae), yoki Gulli o'simliklar (Antophyta)

Sinf (ajdod). Ikki urug'pallalilar (Dicotyledones)

Qabila.Burchoqnamolar(Fabales)

Oila.Burchoqdoshlar (Faboideae)

Turkum.Yeryong'oq(Arachis)

Tur.Arachis hypogea

Yeryong'oq Xitoy yong'og'i (Arachis hypogaea L.) —dukkakdoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik bo'lib, 70 dan ortiq turni o'z ichiga oladi.ildiz tizimi o'q ildiz bo'lib yerga 185-200 sm gacha chuqur kirib boradi. Idiz asosi ko'p shoxlanganligi uchun ko'p tugunaklar hosil qiladi. Poyasi o'tsimon, tik o'suvchi bo'yi





ISSN (E): 2181-4570

5 sm dan 75 sm gacha yetadi. Poyasi 5 tadan 18-20 tagacha yon shoxchalar chiqaradi. Guli kapalak nusxa, mayda sariq rangda shingil yoki rovak to'pgulda 5-15 donadan bo'ib joylashgan. Guli oz'-o'zidan changlanadi, to'pgullari barg qo'ltig'ida joylashgan. Yeryong'oqning yer usti oddiy gullaridan tashqari yer osti gullari ham mavjud bo'lib, ular rangsiz biroz mayda va ochilmasligi bilan farqlanuvchi gullardir. Urug'langandan keyin naycha shakldagi tuguncha hosil qiladi va u ginofor deb ataladi. Uchida urug'langan tuguncha bo'lgan ginofor o'sib yerga tegadi va 8-9 sm, gacha chuqur kiradi.



Tuguncha gorizontol holatiga o'tib, o'sa boshlaydi va oqarib mevaga aylanadi. Yerga tegmay qolgan ginoforlar qurib meva tugmaydi yoki nobud bo'ladi. Bargi murakkab, juft patsimon ovalsimon yoki teskari tuxumsimon shakldagi yashil to'rtta bargchadan iborat bo'lgan bandli va barg yuzasi tukchalar bilan qoplangan. Yeryong'oq mevasi pillasimon dukak bo'lib, uzunligi 2 smdan 6 smgacha, somon rangli sariq, yuzi to'rsimon bo'ladi. Dukkaklarining po'sti qalin yoki yupqa bo'lishi uning naviga bog'liq. Po'chog'i yupqa bo'lgan yeryong'oq dukkak vaznining 25%ga teng bo'lsa, o'rtacha va qalin pochog'i dukkak vaznining 32-40% ga teng bo'ladi. Dukkagida 1-3 tadan 4-6 gacha urug'i bo'ladi. 1000 dona urug'ining vazni 200—1500 g (o'rtacha 400—500 g). Dukkagi chatnamaydi. Bir tupda 700 gacha dukkak bo'ladi. Yeryong'oq urug'i yumaloq bo'yi 1,5-2sm och qizil po'st bilan o'ralgan. Urug'i tarkibida 20-35% gacha oqsil va 45-58% moy saqlaydi. Unumli tuproqlarga talabchan, sho'rlangan va botqoqlangan yerlarda yaxshi o'smaydi. Urug'i 12—15°C da unib chiqadi, maysasi sovuqda nobud bo'ladi. O'suv davri 150—170 kun. O'zbekistonda yeryong'oq sug'oriladigan yerlarda ekiladi, hosildorligi 20—40 s/ga yetadi.





Yeryong'oq urug'lari 15-16 kunda  $15^{\circ}\text{C}$  haroratda una boshlaydi. Maysalari -  $1^{\circ}\text{C}$  sovuqda, voyaga yetganlari  $-2^{\circ}\text{C}$  da nobud bo'ladi.  $25-27^{\circ}\text{C}$  lar o'simlikning yaxshi rivojlanishi uchun maqbul hisoblanadi. Yeryong'oqning o'suv davri 3 guruhga bo'linadi. Tez pishar navlari 125 kunda, o'rta pishar navlari 136 kunda, kechpishar navlari esa 140 kun va undan ortiq. O'zbekistonda yeryong'oqning Mumtoz, Salomat, Qibray-4, Toshkent 112, Lider navlari ekiladi. Qibray 4 navining o'suv davri o'rta pishar bo'lib 138 kunda pishadi. Doni tarkibidagi moy miqdori 48,5%, oqsil 21 % teng.


Yeryong'oq issiqsevar, namsevar, yorug'sevar va qisqa kun o'simligi bo'lib, vatani Janubiy Amerika, hozirgi kunda yer yuzida 21,78 mln ga maydonda ekiladi. Dunyo bo'yicha yuqori yuqori hosildorlik Xitoy 2,5 -3,0t/ga va Amerika Qo'shma Shtatlarida 3-4t/ga qayd etilgan.

Yeryong'oq moyi- yengil hazm bo'luvchi moy sifatida tan olinib undan sanoatda hushtam araxis moyi ishlab chiqariladi. Yeryong'oq moyi tarkibida 28-36% gacha oqsil va vitaminlar, minerallar mavjud. Undan qandolatchilik, yuqori sifatli konservalar va parfumeriyalar tayyorlashda ishlatiladi. Dukkagi qovurilib istemol qilinadi Yeryong'oq urug'lari qon hosil qilish xususiyatiga ega. Yeryong'oq moyini ishlab chiqarish jarayonida ajratib olinadigan kunjarasining tarkibida 48% oqsil va 8% moy tashkil qilib, chorvachilikda bebaho ozuqa sifatida foydaniladi.

Kasalliklari va zararkunandalari: asosan kasallik va zararkunandalardan kam zararlanadi. O'rgimchakkana xavfli zararkunanda hisoblanadi.

Urug'lik ekilguniga qadar quruq va salqin joyda saqlanishi zarur. Urug'lik yong'oqlarni ehtiyotlik bilan qo'lda chaqib tayyorlash tavsiya etiladi. Biroq, yeryong'oq urug'ligini qo'lda chaqib tayyorlash mashaqqatli ish bo'lib, katta maydonlarga ekishda maxsus aparlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mexanizm yordamida urug'lar qobig'idan ajratilganda 10-15 foizgacha urug'liklar mexanik zararlanadi. Shu sababdan ekish nor-masi 15-20 foizga ko'paytirish maqsadga muvofiq isoblanadi.

Yeryong'oq yetishtirish uchun sug'oriladigan, qumloq, yengil mexanik tarkibli, o'tloqi, bo'z, qora va kashtan tuproqli, ko'p yillik begona o'tlarning (qamish, g'ummay, ajriq, salamalik) urug'lari kam bo'lgan, oxirgi 4-5 yilda yeryong'oq yetishtirilmagan, sug'orish imkoniyati yaxshi bo'lgan maydonlar tanlanadi. Quyosh nuri 6-8 soat tik tushish imkoniyati bo'lgan yosh bog'larning orasiga ham ekib yuqori hosil yetishtirish mumkin.






Agrotexnikasi chopiq qilinadigan ekinlarnikiga o‘xshash. 2—3 marta haydalib boronalangan maydonlarga bahorda ya’ni aprel oyining oxirlarida ekiladi. Fosforli va azotli o‘g‘itlarga talabchan. Urug‘i yoki dukkagi makkajo‘xori yoki chigit seyalkalarida keng qatorlab (60—70 sm) 70x10, 70x15 sxemasida har uyaga 7—8 yoki 4—5 tadan urug‘ tashlab 5—7 sm chuqurlikka ekiladi. Gektariga 70—100 kg urug‘lik sarflanadi. O‘shish davrida 5—6 marotaba sug‘oriladi. Qator oralariga ishlov beriladi, o‘suvi davrida 2—3 marta chopiq qilinadi, ildiz bo‘g‘zi tuproq bilan ko‘milsa hosildorlik ancha oshadi.

Yeryong‘oq uchun eng yaxshi o‘tmishdosh ekin kuzgi g‘alla, kartoshka bo‘lib, sabzavot va poliz ekinlaridan keyin ham ekish mumkin. Sholi va yeryong‘oqdan keyin ekish tavsiya etilmaydi. yer osti suvi yuza (0,3-1,0 m) joylashgan, og‘ir mexanik tarkibli, toshloq, suv ko‘laydigan dalalarga ekish tavsiya etilmaydi.

Yeryong‘oq moyi- yengil hazm bo‘luvchi moy sifatida tan olinib undan sanoatda hushtam araxis moyi ishlab chiqariladi. Yeryong‘oq moyi tarkibida 28-36% gacha oqsil va vitaminlar, minerallar mavjud. Undan qandolatchilik, yuqori sifatli konservalar va parfumeriyalar tayyorlashda ishlatiladi. Dukkagi qovurilib istemol qilinadi Yeryong‘oq urug‘lari qon hosil qilish xususiyatiga ega. Yeryong‘oq moyini ishlab chiqarish jarayonida ajratib olinadigan kunjarasining tarkibida 48% oqsil va 8% moy tashkil qilip, chorvachilikda bebaho ozuqa sifatida foydaniladi. Yeryong‘oq tugunaklarida azot to‘plash xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun dala ekinlari uchun yaxshi o‘tmishdosh hisoblanadi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati;**

- 1.O‘. Pratorov, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika ( morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny-2010.
2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev “Dendrologiya” Toshkent-2012.
3. Botanika (o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2018.
4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova Botanika asoslari ( o‘quv qo‘llanma). Toshkent 2009.
5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva “Manzarali daraxtlarni ko‘paytirish” Toshkent 2020 .
- 6.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 7.www. ziyouz.com kutubxonasi.
- 8.www.FAO stat.fao.Org-2016year.
- 9.TURSUNOV Donchilik. T., 2009y





ISSN (E): 2181-4570

**“Muqaddimat ul-adab” asaridagi teologizmlar****Rajabov Doniyor****UrDU 1-kurs magistranti****Tel: +998 97 605 30 91**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilm-fan rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan, nafaqat turkiy, balki arab dunyosida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, bir qancha asarlari bilan o‘lmas nom qoldirgan qomusiy olimlardan biri Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asaridagi teologizmlar tadqiq qilingan. Bugungacha bu asarning ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu jihatdan o‘rganilganligini bilamiz, bizning ushbu tadqiqotimiz boshqalaridan teologizmlar jihatdan o‘rganilmaganligi bilan ajralib turadi. Maqolada teologizmlarning asardagi qo‘llanish o‘rni hamda hozirgi kundagi variantdoshligi tadqiq qilingan.

**Аннотация.** В данной статье один из ученых-энциклопедистов, внесших значительный вклад в развитие науки, имевший место не только в тюркском, но и в арабском мире, оставивший бессмертное имя несколькими трудами, Махмуд Замахшари, в в работе «Мукаддимат уль-адаб» исследуются теологии. До сегодняшнего дня мы знаем, что эта работа так или иначе изучалась многими исследователями. В статье рассматривается использование богословия в работе и его современные варианты.

**Abstract.** In this article, one of the encyclopedic scientists who made a significant contribution to the development of science, who had a place not only in the Turkish, but also in the Arab world, who left an immortal name with several works, Mahmud Zamakhshari, in the work "Muqaddimat ul-adab" theologies are explored. Until today, we know that this work has been studied by many researchers in one way or another. The article examines the use of theology in the work and its current variants.

**Kalit so‘zlar:** teologiya, termin, so‘zlar, lug‘at, texnika, arabcha so‘zlar, yordamchi so‘zlar

**Ключевые слова:** богословие, термин, слова, лексика, техника, арабские слова, вспомогательные слова.

**Keywords:** theology, term, words, vocabulary, technique, Arabic words, auxiliary words





Mamlakatimizda ilm-fan rivojiga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q<sup>1</sup>",- deydi muhtaram Prezidentimiz o'z nutqida. Haqiqatan ham, faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz. Buning uchun esa nafaqat zamondosh olimlarning, balki oradan qancha vaqt o'tishiga qaramasdan o'z asarlari bilan hozirgi ilm-fanga ham katta ta'sir ko'rsatayotgan qomusiy bilimdonlarning ham asarlarini o'rganishimiz, ularni tadqiq qilishimiz va bugungi davr ilmiga moslashtirishimiz kerak. Shunday qomusiy bilimdonlardan biri Mahmud Zamaxshariydir.

Mahmud Zamaxshariy 1075-yilning 18-mart kuni Xorazmning Zamaxshar (hozirgi Dosho'g'uz viloyatining Izmixshir qishlog'i) qishlog'ida dunyoga kelgan. U qomusiy bilim sohibi bo'lib, o'zidan sarf, nahv, tafsir, mantiq kabi fan sohalariga oid "al-Kashshof", "al-Mufassal", "Atvoq uz-zahab" va "Navobig' ul-kalim" singari o'nlagan asarlarni yozib qoldirgan. Uning "Muqaddamat ul-adab" asari ayniqsa katta shuhrat qozongan.

Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib — otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yillari yozib tugallangan. Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham, az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. Asar bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelayotir. O'ylaymizki, asarning teologiya sohasida olib boradigan tadqiqotlarimiz ham e'tiborga molik bo'lib, bizdan keyingi tadqiqotchilarga asqotadi deb o'ylaymiz.

Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta'limotlar majmuyi. Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi. Teologiya turli diniy o'quv yurtlari — seminariyalar, akademiyalar, madrasalar va boshqalarda

---

<sup>1</sup> Toshkentda 7-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan





o‘qitiladi. Teologiya tushunchasi, avvalo, induizm va xristianlikka nisbatan qo‘llangan. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalari bilan ham ataladi<sup>2</sup>.

Arabcha	Forscha	Turkiycha
دِينٌ, اَدْيَانٌ ج din, adyon j	كيش kesh	[din, oyin]
حَنِيفٌ, حُنَفَاءُ ج hanif, hunafa j	مسلمان راست musulmoni rost	[chin musulmon]
وُضُوءٌ vuzu’	آبدست obdast	[tahorat]
غُسْلٌ ف g‘usl		
لَمْعَةٌ lum’a	آنچ آب نرسد در غسل onch, ob narsad dar g‘usl	[g‘uslda suv yetishmasligi]
صَلَوَةٌ, صَلَوَاتٌ ج salo, salavot j	نماز namoz	[namoz]
زَكَاةٌ, زَكَاةٌ ج zako, zakavot j		
صَدَقَةٌ, صَدَقَاتٌ ج sadaqa, sadaqot j		
فَرِيضَةٌ, فَرَائِضُ ج fariza, faroiz j	فرموده خدا farmudayi Xudo	[Alloh buyurgani]
سُنَّةٌ, سُنَنٌ ج sunna, sunan j	فرموده رسول farmudayi rasul	[Rasululloh buyurgani]
نَفْلٌ, نَافِلَةٌ ج, نَوَافِلُ ج nafl, nofila, navofil j	طاعت افزونی toati afzuniy	[qo‘shimcha toat-ibodat]

<sup>2</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).







سَمْتٌ Samt	راه راست rohi rost	[to'g'ri, haq yo'l]
زِمَمَةٌ, ذِمَمَةٌ zimma, zimam j	زینهار zinhor	[va'da, kelishuv]
ذِمَامٌ Zimom		
ذِمَارٌ م zimor m		
عُقْدٌ م, عُقْدٌ ج aqd m, uqud j		
مِثَاقٌ م, مَوَاقِيقُ ج misoq m, mavosiq j		
مَوَاقِيقُ م, مَوَاقِيقُ ج mavsiq m, mavosiq j		
مَعْرُوفٌ ma'ruf	کار نیک kori nek	[xayrli, yashi ish, amal]
مُنْكَرٌ Munkar	کار بد kori bad	[yomon, gunoh amal]
سُحْتٌ Suht	حرام harom	[harom]
حَسَنَةٌ, حَسَنَاتٌ ج hasana, hasanot j	کردار نیک kirdori nek	[ezgu amal]
تَوَابٌ Savob	پاداش نیک podoshi nek	[savob, ajr ]
سَيِّئَةٌ, سَيِّئَاتٌ ج sayyi'a, sayyi'ot j	کردار بد kirdori bad	[gunoh, yomon amal]
فَحْشَاءٌ fahsho'	کار زشت kori zisht	[qabih ish]
فَحَّاشٌ Fahhosh	فحش گوی fahshgo'y	[fahshgo'y, yomon so'zlar aytuvchi, og'zi shaloq]





خَيْرٌ, اُخْيَارٌ ج, خَيْرٌ ج xayr, axyor <i>j</i> , xiyor <i>j</i>	نيك nek	[yaxshi, ezgu]
شَرٌّ IIIapp	بدى badiy	[yomonlik]
ذَنْبٌ, ذُنُوبٌ ج zanb, zunub <i>j</i>	گناه gunoh	[gunoh, ma'siyat]
جَرِيمَةٌ م, جَرَائِمٌ ج jarima <i>m</i> , jaroim <i>j</i>		
جَرِيرَةٌ م, جَرَائِرٌ ج jarira <i>m</i> , jaroir <i>j</i>		
جُرْمٌ م jurm <i>m</i>		
جُنَاحٌ م junoh <i>m</i>		
زُورٌ Zur	دروغ durug'	[yolg'on]
حَقٌّ Haqq		
بَاطِلٌ Botil		

**Izoh:** ushbu jadvalda ba'zi shartli belgilardan foydalandik. Bu yerdagi m harfi ma'nodoshni ifodalash uchun va j harf jamni, ya'ni ko'plik uchun ishlatildi.

Asarda so'zlar arabcha, forsha va turkiychada o'zaro solishtirilgan. Asardagi arabiy so'zlarga qaraydigan bo'lsak, ularning ba'zilari turkiy tildagi, ba'zilari ham turkiy, ham forsiy tildagi muqobili yo'qligini ko'ramiz. Shunga ko'ra bu teoloizmlarni shartli ravishda uch turga bo'lishimiz mumkin:

- har uchala tilda o'zaro muqobili bor so'zlar;
- ikki tilda bo'lib, uchinchisida muqobili yo'q so'zlar;
- faqat arabiychasi mavjud bo'lib, turkiychada va forshada muqobili bo'lmagan so'zlar.





Bu soʻzlardan **savob, din, vuzu** kabi soʻzlar arabiy va forscha mavjud boʻlgan soʻzlar hisoblanadi va turkiycha muqobili yoʻq.


**Din** soʻzining forscha muqobili sifatida **kish** soʻzi berilgan boʻlsa-da, hozirda bu soʻz faol emas, **vuzu** soʻzining forscha **obdast** soʻzi esa abdest shaklida forscha tashqari zamonaviy turk tiliga ham oʻzlashgan.

**Haqq, botil, zakot** kabi soʻzlar forscha va turkiychada muqobili yoʻq soʻzlar qatoriga kiradi. Yuqoridagi jadvalni diqqat bilan kuzatadigan boʻlsak, baʼzilari bizning lugʻatimizda umuman ishlatilmaganini koʻrishimiz mumkin, jumladan, zimor, jarira, samt, suht kabi soʻzlar faqat diniy kitoblardagina uchraydi va boshqa soʻzlar kundalik hayotimizda qoʻllaniladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu asardagi teologizmlar nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti va tarixi uchun, balki arab adabiyoti, ilm-fani uchun ham katta va muhim manba hisoblanar ekan. Biz bu asarni bitta yoʻnalish boʻyicha tahlil qildik, biroq asardagi hali tadqiq ostiga olinadigan oʻrinlar koʻp boʻlib, ularni keyingi ilmiy ishlarimizda davom ettiramiz, deb umid qilamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshkentda 7-dekabr kuni Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bagʻishlangan yigʻilishdagi nutqidan
2. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).
3. 1. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
4. Solijon Hasanov. “Xorazm maʼnaviyati dargʻalari”. – Toshkent: “Adolat”, 2001. B.123-130.
5. Ozod Masharipov, Alisher Masharipov. “Xorazmnoma”. – Toshkent: “Istiqlol nuri” nashriyoti, 2014. B. 201-218.
6. “Maʼnaviyat yulduzlari” (Toʻplovchi va masʼul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.





ISSN (E): 2181-4570

**Medetova Dilnaza Toychiyevna****Toshkent davlat yuridik universiteti «Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti soha mutahassisligi» magistranti****MAQOLA****Ayrim horijiy davlatlar jinoyat protsessual qonunchiligida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining qo'llash masalalari va uni tanlashdagi ayrim hususiyatlarning qiyosiy huquqiy tahlili (Qozog'iston, Rossiya va Belorusiya)**

Davlat majburlov choralaridan biri bo'lgan hamda uy qamog'i ehtiyot chorasini o'z ichiga olgan har doim konstitutsiyaviy cheklavlar, shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan bog'liq, shuning uchun huquqiy tartibga solish sohasidagi joylar markaziy o'rinlardan birini egallaydi.

Rossiya Federatsiyasida, boshqa ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, uy qamog'i jinoyat-protsessual choralar tizimi cheklashning og'irligiga qarab majburlash inson huquqlari va erkinliklari masalalari bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi, faqat qamoqqa olish ehtiyot chorasidan o'tmagan holda, uning qo'llanishi bu esa jahon ilm-fani va amaliyotining masalalarga jiddiy e'tibor qaratishiga sabab bo'lmoqda.

Samaradorlikni oshirish uchun Rossiya Federatsiyasida uy qamog'ini qo'llash, uni takomillashtirish huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq bo'lib uni xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat qilgan holda ko'rsatilgan majburlov chorasining doiralarini (Qozog'iston Respublikasi, Belarus Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi), ko'rib chiqilayotgan muassasaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, Belarus Respublikasida birinchi marta ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i 1999 yilda qabul qilingan, 125-127 moddalari Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.

Qamoqqa olish ehtiyot chorasi Qozog'iston Respublikasi homiyligida 1997 yil Jinoyat-protsessual qonunchiligi sifatida belgilangan. Hozirgi kunda qamoqqa olish ehtiyot chorasi sifatida Qozog'iston Respublikasi qonuning Jinoyat-protsessual kodeksi 146-moddasida keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi bilan solishtiradigan bo'lsak qonun yaqinda 2014 yil qonuniy normativ huquqiy hujjatlarida aks etgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, qayerda sifatli darajada uy qamog'i qo'llanilishi to'g'risida milliy qonunchilik tomonidan qabul qilinishi mumkin bo'lgan





xususiyatlar, jinoiy protsessda ehtiyot choralari qo'llashning ijobiy holatlarni aniqlash imkonini berdi.

Qonunga muvofiq Qozog'iston Respublikasida uy qamog'ida bo'lgan shaxs ustidan nazorat jinoyat protsessini yurituvchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, qonunning 5-qismi 146 moddasi asosida Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ehtiyot chorasini qo'llash tartibi uy qamog'ining shakli dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli davlat organlarining qo'shma buyrug'i bilan belgilanadi. Shuningdek, qo'shma buyruq shakldagi uy qamog'i ehtiyot chorasini ijro etish qoidalarini tasdiqlandi uy, unga ko'ra nazorat o'rnatilgan uy qamog'ini ijro etish Ichki ishlar vazirligi organlariga yuklatilgan ishlar, prokuratura, Milliy qo'mita xavfsizlik, Moliya vazirligi va Davlat xizmati ishlari va korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari o'z vakolatlari qoidalariga muvofiq jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha tergov va surishtiruv olib boradilar.

Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida, qaysi organ sifatida qarorni ijro etish yuklangan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi (ta'riflar) surishtiruv organi orqali belgilanadi(119-moddaning 6-qismi). Aslida esa Belarus Respublikasida uy qamog'ini ijro etish va surishtiruvlar tartibi ichki ishlar organlariga yuklangan.

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, Belarus Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi aniq ko'rsatma uchun mas'ul bo'lgan tergov organi yetishmasligi, ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror (ajrim) ijrosi, shuningdek, uy qamog'idagi shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish mexanizmining o'zi tartibga solinmaganligi ushbu chorani qo'llash amaliyotiga salbiy ta'sir qiladi. Shunday qilib, Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra Belarus Respublikasi, so'nggi 7 yil ichida umuman olganda, uy qamog'idan foydalanishning qisqarishi bilan tavsiflanadigan tendentsiya paydo bo'lgan bo'lib, bu chora juda qimmat va amalga oshirish qiyin bo'lgan chora tadbirlardan biri bo'lib u ko'p sonli xodim va kadrlarni talab qiladi va bu masalada tergov organlari har doim ham ta'minlay olmaydilar. Shunday qilib, to'liq izolyatsiya holatida ayblanuvchining kompaniyasidan uy qamog'i, 6 dan 12 nafargacha xodimlarning kechayu kunduz politsiya postlari kuzatuv tashkil etilgan. Bundan tashqari, Belarus Respublikasi Ichki ishlar vazirligining qaroriga muvofiq 2007 yil 13 noyabrdagi 294-son «Ishlarni tashkil etish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida» tuman militsiya inspektori "ikkinchisi amalga oshirilmasligi mumkin bo'lgan faqat shaxslar uchun





profilaktik nazorat, balki unga nisbatan ham uy qamog'ida ayblanganlarning nazorati uchun ham muayyan vakolatlarga ega. Shu bilan birga, kundalik rejada uchastka militsiya inspektori tomonidan bir oy davomida mehnat daftarchasida tuzilgan ish, ayblanuvchiga tashrif buyurish mumkin va nazoratning boshqa shakllari qo'llanilishi mumkin.

Rossiyada Federal qonunining joriy etilishi munosabati bilan 2011 yil 7 dekabrda 420-FZ 107 moddasini matnini o'zgartirgan holda uy qamog'ini ehtiyot chorasi sifatida tanlash va qo'llashni tartibga soluvchi Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi (RF JPK) jinoiy protsesslar kimligi haqidagi ko'plab nizolarni hal qilib gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining joylashgan joyi ustidan nazoratni amalga oshirishi va uy qamog'i shakldagi ehtiyot chorasini ijro etish joyi uy qamog'i va ijroni ta'minlash sud tomonidan belgilangan taqiqlar va (yoki) cheklovlar kiritilgan.

Bunday nazorat Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 10-qism 107-moddasi federal tomonidan amalga oshiriladi real ijro etuvchi hokimiyat organi, huquqni muhofaza qilish funktsiyalari, nazorat va nazorat funktsiyalari jinoiy jazolarni ijro etish sohasida mahkumlarga nisbatan qo'llaniladi.

Biroq, amaliyot bunday o'zaro ta'sirning past samaradorligidan dalolat beradi va birinchi navbatda, dastlabki tergov organlari xodimlariga yordam berish maishiy sohada o'z vazifalarini bajarish hibsga olishlarda qiziqish yo'qligini bildiradi.

Inson nazorati bilan shug'ullanishda Qozog'iston Respublikasi tajribasi qiziq tuyuladi, uy qamog'i jinoyat protsessini amalga oshiruvchi organ, ya'ni ehtiyot chorasini qo'llash samaradorligidan ko'proq manfaatdor bo'lgan subyekt tomonidan amalga oshiriladi.

Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq uy qamog'i uy ostida hibsga olish o'tkazuvchi organ tomonidan uy qamog'idagi shaxsni nazorat qiluvchi orqali belgilanadi.

Nazorat ostidagi ayblanuvchiga jinoyat ishi yuritilayotgan davrda qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan uy-joy berilganligi taqdim etishga ruxsat beriladi, lekin ayni paytda ularning, shuningdek ular bilan birga yashayotgan kattalarning yozma roziligi talab qilinadi.

Ijara shartnomasi tuzilgan taqdirda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi uy qamog'ida bo'lgan davrda uy egasi ijarachi tomonidan ularga uy-joyi ijaraga berish





maqsadi asosiy narsa to'g'risida ogohlantirilishi kerak, bunda sublizing bundan mustasno.

Rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda uy xo'jaligi ostida bo'lgan shaxs tomonidan hibsga olish, nazorat o'rgani uni yashash joyida tekshirish uchun kunning istalgan vaqtda kelib tekshirishga haqli va huquqqa ega, shu jumladan tunda ham amalga oshirishi mumkin, lekin tekshiruv faqatgina bir marta amalga oshiriladi boshqa emas.

Belarus Respublikasida uy qamog'ini ijro etish mexanizmini huquqiy tartibga solish mavjud emas, olimlar ta'kidlaganidek, bir qator hollarda, gumon qilinuvchi shaxsni kuzatishni o'rnatish kabi nazorat chorasi yoki ayblanuvchining uning uy-joyini, shuningdek, uning uyini yoki unga ajratilgan uy-joyini himoya qilish binolarning yashash joyi tom ma'noda tushuniladi va amalga oshiriladi, ya'ni qo'riqchilar qo'yilgan uyning yonida emas, balki to'g'ridan-to'g'ri uy qamog'i ostidagi ayblanuvchining uyida bo'ladilar. Shunday qilib, uyda ruxsatsiz shaxslarning mavjudligi tufayli ayblanuvchi va u bilan birga yashaydigan shaxslar muayyan noqulayliklarga duch kelishadilar. Ehtiyot chorasini tanlashda ayblanuvchi bilan birga yashayotgan shaxslarning uy qamog'i tarzidagi fikri Belorussiya, Rossiya davlatlarida bo'lgani kabi, umuman e'tiborga olinmaydi, bu ikkala davlatning huquqiy haqiqatining salbiy tomonlaridan biridir.

Yuqorida belgilangan Qozog'iston Respublikasining uy qamog'ini qo'llash qoidalari, Rossiya qonun chiqaruvchisi tomonidan tahlil qilingan profilaktika chorasining samaradorligini oshirish va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga uy-joy beradigan shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish uchun samarali rol o'ynashi mumkin.

V.V. Smirnov shunday ta'kidlaydilarki: "Nima bo'lsa ham boshqa har qanday fakning ehtimoli yuqori emas edi yoki va uni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Hatto eng yuqori ehtimollik darajasi ham xatolarni imkoniyatlarini inkor eta olmaydi. Qaror qabul qilinadigan vaqtga kelib profilaktika chorasini tanlash sharoitlar to'plami bo'lishi kerak bo'lib, nomaqbul xatti-harakatlarning dalillari sifatida tergov jarayonida bo'lishi shart. Agarda Profilaktika chorasini qo'llash to'g'risidagi qaror noto'g'ri xatti-harakatlar to'g'risidagi ishonchli faktik ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsa, sub'ektiv fikrga emas, balki ayblanuvchi uning ehtimoliy xatti-harakatiga etibor berilsa, qarorning o'zi ishonchli bo'ladi".





Profilaktika chorasini qo'llash to'g'risida qaror qabul qiladigan shaxs yoki organning fikri sezgiga yoki taxminlarga asoslanmasligi kerak, balki aniq Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda protsessual tartibda olingan ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjudligini tasdiqlovchi dalillarga asoslanishi zarur. Shuning uchun ham ularni qabul qilish, birlashtirish, baholash va qo'llash shakllari, Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining asoslar tahririda profilaktika chorasini tanlash Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga qaraganda ko'proq effektiv va progressiv ko'rinadi.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq ayblanuvchi yoki jinoyat sodir etishda gumon qilish Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida kamida 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi va Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining normalariga bag'ishlangan uy qamog'i, shaxs ayblanayotgan yoki gumon qilinayotgan jinoyat uchun jazo turi va miqdorini ko'rsatmagan bo'lib, unga nisbatan ehtiyot chorasini qo'llash uchun asos sifatida qo'llanilsa ham, garchi qamoqqa olish to'g'risida qaror qabul qilish uchun ham xuddi shunday asos nazarda tutilgan bo'ladi. Bundan tashqari, qonunning 3-qismiga qaramasdan Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasi, o'lchovni tanlash tartibini belgilash uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash tartibiga o'xshashligini ko'rsatadi. Qamoqqa olingan shunga ishora qiladiki, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 108-moddasi, ushbu tartibni tartibga soluvchi Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining qarori bilan 2013 yil 19 dekabrda 41-sonli «Amaliy amaliyot to'g'risidagi qonunning sudlar tomonidan qo'llanilishi ostida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi ehtiyot choralari qo'riqchilar, uy qamog'i va garov" deb ta'kidlab belgilangan jazo turi va miqdori bilan bog'liq asoslar va shartlar 1-modda Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 108-moddasi hibsga olish, qamoqqa olish, uy qamog'i sifatida foydalanish uchun emas deb ta'kidlangan bo'lib chunki ular qonunning 107 Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilmagan.

Uy qamog'i qamoqqa olish ehtiyot chorasidan keyin ikkinchi eng qattiq ehtiyot chorasi ekanligini hisobga olsak, ehtiyot chorasini qo'llashning yuqoridagi shartlari








inson huquqlari va erkinliklarini o'zboshimchalikdan va qo'llashning yuqoridagi shartlari qo'shimcha himoya kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Chet el tajribasini tahlil qilish Rossiyada va ba'zi xorijiy davlatlarda profilaktika choralaridan biri bo'lmish uy qamog'i sohasidagi ishlarni mamlakatlarda ijobiylikni aniqlash imkonini berib va uning huquqiy tartibga solishning momentlarini yetqazib berdi.

Bizning fikrimizcha, qonun chiqaruvchining pozitsiyasi chora-tadbirlarni saylovchi, ruxsat beruvchi sub'ektga nisbatan Belarus Respublikasi uy qamog'i va huquqiy cheklovlarni belgilash (prokuror, Tergov qo'mitasi raisi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi raisi) huquqiy voqelikning ijobiy hodisasiga bog'lanishi mumkin emas deb o'ylaymiz. Uy qamog'i, nisbatan "yumshoqlik" ga qaramay qamoqqa olish ehtiyot chorasiga nisbatan shaxsning huquqlarini shunga qaramay, sezilarli darajada konstitutsiyaviy tomonlama cheklaydi. Shu sababli, sud qarorlarisiz bu cheklov dan boshqa usulda qarorlar o'zboshimchalik bilan amalga oshirilmasligi kerak.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksidan farqli o'laroq (107-moddaning 7-qismi) Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida (125-moddaning 2-qismi) va Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida (2-qism) 146 moddasida belgilangan shaxslar ro'yxati uy qamog'ida bo'lgan taqdirda, taqiqlar va cheklashlar kengroq to'liq emas bo'lib chorani ta'minlash uchun "boshqa choralar" qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi. Qonun chiqaruvchining bunday tashabbusi, bizningcha, yetarli munozarali xarakter keltirib chiqarmoqda, chunki uy qamog'i kabi hibsga olish insonning konstitutsiyaviy huquqlarini sezilarli darajada cheklash bilan bog'liq hisoblanadi, shuning uchun shaxsga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlar ro'yxati shunday bo'lishi kerakki u nafaqat huquqni qo'llashning bir xilligi uchun, balki qat'iy belgilangan huquqlarga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan ko'rsatilgan ehtiyot chorasini qo'llashda qonuniylikga rioya etilishi zarur.

Qonunning 3-qismi 126 moddasi asosida Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi sanksiya berish to'g'risida qaror qabul qilishda uy qamog'i to'g'risida qaror chiqarish, prokuror yoki uning o'rinbosari, Belarus Respublikasi Tergov qo'mitasi raisi; Davlat qo'mitasi raisi Belarus Respublikasi xavfsizligi yoki amalga oshiruvchi shaxslar vakolatli o'rgan vakillari o'z majburiyatlari bo'yicha uy qamog'ini qo'llash uchun asos bo'lgan barcha materiallarni tubdan o'rganishlari shart, zarur hollarda esa:





gumonlanuvchini yoki ayblanuvchini, voyaga etmagan gumon qilinuvchi shaxsan so'roq qilishlari kerak.

Rossiyada (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 109-moddasi), Belarusiyada (Belarus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 127-moddasi), maksimal muddat sudgacha bo'lgan ish yuritishda uy qamog'ini qo'llash - 18 oy deb belgilangan. Belgilangan davrdan profilaktika chorasini tanlagan paytdan boshlab jinoyat ishini prokurorga topshirish sudga yuborish vaqtlarini ham o'z ichiga oladi. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq (152-modda) va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (245-modda) maksimal muddat uy qamog'ini qo'llash hisoblanadi 18 va 12 oy, mos ravishda, lekin belgilangan muddatda ayblanuvchini jinoyat ishi materiallari bilan tanishtirish vaqti hisobga olinmaydi, Yevropa Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini oqilona vaqt printsipli bo'yicha himoya qilish to'g'risidagi konventsiyada bu e'lon qilingan.

Shunday qilib, o'rganish jarayonida ayniqsa uy-joyini tanlash va qo'llash masalalari Rossiya va ba'zi xorijiy mamlakatlarning huquqiy tizimlarida uy qamog'i bizlarda yangi o'rganilayotgan chora tadbirlaridan va amaliy qo'llash bo'yicha ijobiy tajribaga ega emas degan xulosaga kelishimizga isbotdir. Biroq, Rossiya takomillashtirish jarayonini to'xtatish uy qamog'ini tanlash va qo'llash masalalari hamda huquqiy tartibga solish yo'qligiga qaramay, ushbu profilaktika chorasi sezilarli yutuqlarga ega bo'lib kelmoqda. xorijiy mamlakatlarning ba'zi ijobiy tajribalari foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib uy qamog'i ehtiyot chorasining rivojlanish maqsadida milliy qonunchilik uy qamog'i institutini takomillashtirish hibsga olish, bu bir qator jiddiy muammolarni hal qiladigan istiqbolli choralarni rivojlantirish, ular orasida nafaqat tergov izolyatorlarining gavjumligi va ayblanuvchini (gumonlanuvchilarni) qamoqda saqlash uchun yuqori moliyaviy xarajatlar, shuningdek, umuman olganda, shaxsga nisbatan insoniy munosabat muammosi, tsivilizatsiyalashgan mamlakatlarda zamonaviy ehtiyojlarni qondirish maqsadlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi o'zgartirishlarni kiritishni taklif qilamiz:

➤ joylashuvni nazorat qilishni ko'rsatish gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini ehtiyot chorasini ijro etish joyida qabul qilish uy qamog'i va ularning ijrosi sud tomonidan qo'yilgan taqiqlar va (yoki) cheklashlarni hamkorlikda amalga





oshirib jinoyat ishlari bo'yicha tergov yurisdiksiyasi qoidalariga muvofiq dastlabki tergov organlari va surishtiruv organlari bilan hamkorlik qilish;

➤ uy-joy tanlanish zarurligi tartibida honadon egasining ruxsati va uyda istiqomat qiluvchilarning yozma ravishda roziliklarini olish; uy qamog'ini ta'minlasinjinoiyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan saylanishi mumkin. ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi erkinlik.

➤ jinoyat qonunida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan uy qamog'i qo'llanishi mumkin faqatgina ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanish yoki erkinlikni cheklash bilan aloqador bo'lsagina.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Volynchik, O.A. Uy qamog'i: huquqni qo'llash amaliyoti muammolari / O.A. Bagpipe // Ogarev-onlayn. - 2015. - NN<sup>o</sup> 9. - URL: <http://journal.mrsu.ru/arts/domashnijj-arest-problemy-pravoprimeritelnojj-praktiki>.

2. Dyachenko, A.P. Uy qamog'i jinoiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida (Rossiya va xorijiy mamlakatlarning qonunchilik tajribasini qiyosiy tahlil qilish / A.P. Dyachenko // Rossiya Fanlar akademiyasining Davlat va huquq instituti materiallari. - 2014. - NN<sup>o</sup> 3. - S. 107-122.

3. Umumiy yurisdiksiya sudlarining jinoiy ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishi to'g'risidagi hisobotlar hayqiriq misoli: Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi huzuridagi Sud departamentining rasmiy sayti. - URL: <http://www.cdep.ru/index.php?id=79>.

4. Колоколов, Н.А. Заключение обвиняемого под стражу: алгоритм производства/ Н.А. Колоколов // Уголовный процесс. – 2007. – NN<sup>o</sup> 5. – С. 11.



## NIMA UCHUN CHUQUR O'RGANISH MUHIM.

**Bozorov Otabek Eshbo'ri o'g'li**  
**TerDU Amaliy matematika va informatika 2-kurs magistranti**

**Annotatsiya.** Chuqur o'rganish - bu kompyuterlarni odamlarga tabiiy ravishda keladigan narsalarni qilishni o'rgatadigan mashinani o'rganish usuli: misol orqali o'rganing. Chuqur o'rganish haydovchisiz avtomobillar ortidagi asosiy texnologiya bo'lib, ularga to'xtash belgisini tanib olish yoki piyodani chiroq ustunidan farqlash imkonini beradi. Bu telefonlar, planshetlar, televizorlar va ovozli dinamiklar kabi iste'molchi qurilmalarida ovozli boshqaruvning kalitidir. So'nggi paytlarda chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda va buning sababi yaxshi. Bu ilgari imkoni bo'lmagan natijalarga erishmoqda.

**Kalit so'zlar:** kompyuter, elektronika, neyron tarmoqlar.

**Abstract.** Deep learning is a machine learning technique that teaches computers to do things that come naturally to humans: learn by example. Deep learning is the key technology behind driverless cars, enabling them to recognize a stop sign or distinguish a pedestrian from a lamp post. It is the key to voice control in consumer devices such as phones, tablets, TVs and speakers. Deep learning has been getting a lot of attention lately, and for good reason. It is achieving results that were not possible before.

**Key words:** computer, electronics, neural networks,

**Kirish.** Chuqur o'rganishda kompyuter modeli to'g'ridan-to'g'ri tasvirlar, matn yoki tovushdan tasniflash vazifalarini bajarishni o'rganadi. Chuqur o'rganish modellari eng zamonaviy aniqlikka erishishi mumkin, ba'zan esa inson darajasidan oshib ketadi. Modellar etiketli ma'lumotlarning katta to'plami va ko'plab qatlamlarni o'z ichiga olgan neyron tarmoq arxitekturasi yordamida o'qitiladi.

Nima uchun bu  
muhim

U qanday ishlaydi

MATLAB  
yordamida chuqur  
o'rganish



## Asosiy qism

Bir so'z bilan aytganda, aniqlik. Chuqur o'rganish har qachongidan ham yuqori darajada tanib olish aniqligiga erishadi. Bu maishiy elektronika foydalanuvchi talablarini qondirishga yordam beradi va haydovchisiz avtomobillar kabi xavfsizlik uchun muhim ilovalar uchun juda muhimdir. Chuqur o'rganishdagi so'nggi yutuqlar shu darajaga ko'tarildiki, chuqur o'rganish tasvirlardagi ob'ektlarni tasniflash kabi ba'zi vazifalarda odamlardan ustun turadi.

Chuqur o'rganish birinchi marta 1980-yillarda nazariya qilingan bo'lsa-da, uning yaqinda foydali bo'lishining ikkita asosiy sababi bor:

1. Chuqur o'rganish katta hajmdagi **etiketli ma'lumotlarni** talab qiladi. Misol uchun, haydovchisiz avtomobil ishlab chiqish millionlab tasvirlar va minglab soatlik videolarni talab qiladi.

2. Chuqur o'rganish katta **hisoblash quvvatini** talab qiladi. Yuqori unumdor GPUlar chuqur o'rganish uchun samarali parallel arxitekturaga ega. Klasterlar yoki bulutli hisoblash bilan birlashganda, bu rivojlanish guruhlariga chuqur o'rganish tarmog'i uchun o'qitish vaqtini haftalardan soatgacha yoki undan kamroq vaqtgacha qisqartirish imkonini beradi.

## Ishda chuqur o'rganish misollari

Chuqur o'rganish dasturlari avtomatlashtirilgan haydashdan tortib tibbiy asboblarga bo'lgan sohalarda qo'llaniladi.

Avtomatlashtirilgan haydash: Avtomobil tadqiqotchilari to'xtash belgilari va svetoforlar kabi ob'ektlarni avtomatik aniqlash uchun chuqur o'rganishdan foydalanmoqda. Bundan tashqari, chuqur o'rganish piyodalarni aniqlash uchun ishlatiladi, bu esa baxtsiz hodisalarni kamaytirishga yordam beradi.

Aerokosmik va mudofaa: Chuqur o'rganish yo'ldoshlardan qiziqish joylarini aniqlaydigan ob'ektlarni aniqlash va qo'shinlar uchun xavfsiz yoki xavfli zonalarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Tibbiy tadqiqotlar: Saraton tadqiqotchilari saraton hujayralarini avtomatik ravishda aniqlash uchun chuqur o'rganishdan foydalanmoqdalar. UCLA'dagi jamoalar saraton hujayralarini aniq aniqlash uchun chuqur o'rganish dasturini o'rgatish uchun ishlatiladigan yuqori o'lchamli ma'lumotlar to'plamini beradigan ilg'or mikroskopni yaratdilar.






Sanoatni avtomatlashtirish: Chuqur o'rganish odamlar yoki narsalar mashinalardan xavfli masofada bo'lganda avtomatik ravishda aniqlash orqali og'ir mashinalar atrofida ishchilar xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi.

Elektronika: Eshitish va nutqni avtomatik tarjima qilishda chuqur o'rganish qo'llaniladi. Masalan, ovozingizga javob beradigan va sizning afzalliklaringizni biladigan uy yordami qurilmalari chuqur o'rganish ilovalari tomonidan quvvatlanadi.

### Chuqur o'rganish qanday ishlaydi

Ko'pgina chuqur o'rganish usullari **neyron tarmoq** arxitekturasidan foydalanadi, shuning uchun chuqur o'rganish modellari ko'pincha **chuqur neyron tarmoqlari** deb ataladi. "Chuqur" atamasi odatda neyron tarmoqdagi yashirin qatlamlar sonini bildiradi. An'anaviy neyron tarmoqlarda faqat 2-3 ta yashirin qatlam mavjud, chuqur tarmoqlarda esa 150 tagacha bo'lishi mumkin.

Chuqur o'rganish modellari xususiyatlarni qo'lda ajratib olishni talab qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlardan xususiyatlarni o'rganadigan katta etiketli ma'lumotlar to'plami va neyron tarmoq arxitekturalari yordamida o'qitiladi.




**1-rasm: Bir-biriga bog'langan tugunlar to'plamidan iborat qatlamlarda tashkil etilgan neyron tarmoqlar. Tarmoqlar o'nlab yoki yuzlab yashirin qatlamlarga ega bo'lishi mumkin.**

1. Chuqur neyron tarmoqlarning eng mashhur turlaridan biri konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN yoki **ConvNet**) sifatida tanilgan . CNN o'rganilgan



xususiyatlarni kirish ma'lumotlari bilan birlashtiradi va 2D konvolyutsion qatlamlardan foydalanadi, bu arxitekturani tasvirlar kabi 2D ma'lumotlarni qayta ishlash uchun juda mos keladi.

2. CNN-lar qo'lda xususiyatni ajratib olish zaruratini yo'q qiladi, shuning uchun tasvirlarni tasniflash uchun ishlatiladigan xususiyatlarni aniqlashingiz shart emas. CNN to'g'ridan-to'g'ri tasvirlardan xususiyatlarni olish orqali ishlaydi. Tegishli xususiyatlar oldindan tayyorlanmagan; ular tarmoq tasvirlar to'plamini o'rgatish paytida o'rganiladi. Ushbu avtomatlashtirilgan xususiyatni ajratib olish chuqur o'rganish modellarini ob'ekt tasnifi kabi kompyuterni ko'rish vazifalari uchun juda aniq qiladi.



**2-rasm: Ko'p konvolyutsion qatlamli tarmoq misoli. Filtrlar har bir o'quv tasviriga turli o'lchamlarda qo'llaniladi va har bir konvolved tasvirning chiqishi keyingi qatlamga kirish sifatida xizmat qiladi.**



CNN o'nlab yoki yuzlab yashirin qatlamlar yordamida tasvirning turli xususiyatlarini aniqlashni o'rganadi. Har bir yashirin qatlam o'rganilgan tasvir xususiyatlarining murakkabligini oshiradi. Masalan, birinchi yashirin qatlam qirralarni qanday aniqlashni o'rganishi mumkin, oxirgisi esa biz tanmoqchi bo'lgan ob'ektning shakliga mos keladigan murakkabroq shakllarni qanday aniqlashni o'rganadi.

### **Xulosa.**

Chuqur o'rganishda kompyuter modeli to'g'ridan-to'g'ri tasvirlar, matn yoki tovushdan tasniflash vazifalarini bajarishni o'rganadi. Chuqur o'rganish modellari eng zamonaviy aniqlikka erishishi mumkin, ba'zan esa inson darajasidan oshib ketadi. Modellar etiketli ma'lumotlarning katta to'plami va ko'plab qatlamlarni o'z ichiga olgan neyron tarmoq arxitekturasi yordamida o'qitiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Zhang, X., Zhao, J., & LeCun, Y. (2015). Character-level convolutional networks for text classification. In Advances in neural information processing systems (pp. 649-657).
- 2.Kim, Y. (2014). Convolutional neural networks for sentence classification. arXiv preprint arXiv:1408.5882.
- 3.Lai, S., Xu, L., Liu, K., & Zhao, J. (2015). Recurrent convolutional neural networks for text classification. In Twenty-ninth AAAI conference on artificial intelligence.
4. Bozorov Otabek Eshbo'ri o'g'li, Sayyod Dostonov Sultonovich, Yusupov Akmal Norxidir o'g'li. (2023). ONE-DIMENSIONAL NEURON NETWORKS. INTERNATIONAL BULLETIN OF ENGINEERING AND TECHNOLOGY, 3(4), 103–110. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7824130>
5. Bozorov Otabek Eshbo'ri o'g'li, Sayyod Dostonov Sultonovich, & Yusupov Akmal Norxidir o'g'li. (2023). Sun'iy intellekt qaysi joylarda ishlatilmoqda?. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH, 1(4), 186–191. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818310>
6. Bozorov Otabek Eshbo'ri o'g'li. (2022). RESEARCHING ALGORITHMS FOR CREDIT ALLOCATION USING DEEP LEARNING METHODS. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7391046>







ISSN (E): 2181-4570

## ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ХАЛҚ “ЗАМОНАВИЙ АФСОНАЛАР”И ТИПОЛОГИЯСИ

**К.АБДУРАШИДОВА,**  
*АДУ 1-курс докторанти*

### АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада Америка “шаҳар афсоналари”нинг (городская легенда, Urban legend) ўрганилиши, шаклланиши жараёнлари, постфольклор маданиятидаги ўрни, турли модификацияларининг юзага келиши ҳақида сўз боради. Шунингдек, мақолада Америка “шаҳар афсоналари”ни ўрганиши асосида рус халқ “замонавий/шаҳар афсоналари”, Москва “шаҳар афсоналари” борасидаги тадқиқотларга суянган ҳолда ўзбек фольклорида ҳам ушбу жанрнинг постфольклор жараёнларида ҳам яшаб келаётгани, турли модификацияларининг шаклланаётгани асосланган.*

**Калим сўзлар:** *постфольклор маданияти, анъанавий афсона жанри, трансформация, эволюция, замонавий афсона, шаҳар афсоналари, интернет шаҳар афсоналари, мифологик баён, мобиллик, электрон ахборот, модификациялар.*


### АННОТАЦИЯ

*Данная статья посвящена изучению американских «городских легенд» (городская легенда), процессам их формирования, месту в постфолк-культуре, возникновению различных модификаций. Также в статье при изучении американских «городских легенд» на основе исследования русских народных «современных/городских легенд», московских «городских легенд» исходит из того, что этот жанр живет в узбекском фольклоре и в постфольклорных процессах формируются и различные модификации.*

**Ключевые слова:** *постфолкорная культура, жанр традиционного мифа, трансформация, эволюция, современный миф, городские легенды, городские легенды из интернета, мифологическое повествование, мобильность, электронная информация, модификации.*

### ANNOTATION

*This article is devoted to the study of American "urban legends", the processes of their formation, their place in post-folk culture, the emergence of various modifications. Also in the article, when studying American "urban legends" based on*






*the study of Russian folk "modern / urban legends", Moscow "urban legends", it proceeds from the fact that this genre lives in Uzbek folklore and various modifications are formed in post-folklore processes.*

**Keywords:**

*post-folk culture, genre of traditional myth, transformation, evolution, modern myth, urban legends, urban legends from the Internet, mythological narration, mobility, electronic information, modifications.*

Анъанавий афсона жанридаги ўзгаришлар, “замонавий/шаҳар афсоналари”нинг шаклланиши масалаларни ўрганиш Америка фольклоршунослигида ўтган асрнинг иккинчи ярмидан, аниқроғи 1965-80-йиллардан бошланган эди. Бу борада Дег Л., Чристиансен Р., Сране Б., Бутлер Г.Р., Бранванд Я.Г., Брайсе Ҳ.Ж., Бредних Л.В., Беннет Г., Бучан Д., Дорсон Р.М., Фине Г.А., Фиерй А., Духл Л.Ж., Ҳалперт Ҳ. Георге Р.А., Генге Н., Флеминг Р.Л., Бойд Р.Ф, Жансен В.Х, Жасон Ҳ., МсСоннелл Б., Волф-Кнатс У, Тангхерлини Р.Т., Виртанен Л. каби олимларнинг ишларида Америка “шаҳар афсоналари”нинг шаклланиши, ўзига хос хусусиятлари, бошқа фольклор жанрлари тизимида тутган ўрни ҳақида илмий қарашлар илгари сурилган. Сўнг “шаҳар афсоналари” – Urbun legendларни тўплаш, уларни нашр этиш, индекслари ва каталогларини тузиш ишлари амалга оширилган[5]. Америкалик олим Я.Г.Брандванднинг “янги/шаҳар афсоналари – Urbun legend” ларни тўплаш, индекс кўрсаткичини яратиш бўйича қилган ишлари бу борада амалга оширилган аҳамиятли ишлардан биридир. Унинг бир қанча асарларида “шаҳар афсоналари – Urbun legend” лар ҳақида қимматли маълумотлар берилган [2]. Россияда ҳам “шаҳар/ замонавий афсоналар” ҳақидаги назарий қарашлар шаклланди ва уларни тўплаш, тартиблаштириш, таснифлаш каби масалалар ривожланди [3;5;6;7;11]. Ўзбек фольклоршунослигида афсона жанри дейилганда фақат анъанавий афсоналар назарда тутилган ва бу борада К.Имомов[8], У.Жуманазаров [9], М.Жўраев[10], Ш.Турдимов[15], М.Раҳмонова[12], М. Ризоева [14], А.М. Бакимбетов [1] каби олимларнинг салмоқли тадқиқотлари мавжуд. Бироқ ўзбек фольклоршунослигида “шаҳар”, “янги” “замонавий” афсоналар каби терминлар ишлатилмаган ва бирор-бир тадқиқот объекти бўлмаган. Шунга қарамай, ўзбек фольклоршунослигида ўзбек фольклори эпик жанрларининг постфольклор жараёнларидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари Б.Раҳмонов томонидан





ўрганилган. Ушбу тадқиқотда эртақ, дoston, ривоят каби бошқа эпик жанрлар каторида афсона жанрининг ҳам постфольклор шароитидаги ҳолати ҳақида фикрлар мавжуд. Фольклоршунос олим Б.Раҳмонов ўз тадқиқотида “Барқарор поэтик шаклга эга эмаслик, фабулатик баённинг кучлилиги, ташбеҳу эпитетларнинг учрамаслиги афсона жанрига хос хусусият ҳисобланади. Реал воқелик эса юқорида кўрсатилган афсонага хос мезонларнинг бирортасига ҳам мос келмайди. Мана шу нарсанинг ўзи кўрсатиб турибдики, ҳозир афсона жанрининг янги воқелик асосида яратилиши мумкин эмас. Чунки бугунги инсон, унинг ҳатти-ҳаракати ва руҳий кечинмалари афсонага хос муболағали фантастика доирасига тўғри келмайди. Демак, афсона жанрининг ҳозирги аҳволи янгидан яратилиши билан эмас, балки илгари замонларда яратилган асарларни ижро этиш билан чегараланади”[13,179]–дейди. Шунингдек, олим афсона жанрини пост- фольклор жараёнларида сўнган, яъни яратилишдан тўхтаган жанрлар сирасига киритади. Бироқ Америка ва рус постфольклор жараёнларида анъанавий афсона жанри трансформацияси ва эволюцияси натижасида юзага келган “янги” (new), “шаҳар”(городской), “замонавий” (modern) афсоналар тадқиқи бундай афсоналар ўзбек постфольклорида ҳам мавжуд эканлигини кўрсатади. Юқоридаги Америка ва рус фольклоршунослигидаги назарий-методологик ишларга асосланиб айтиш мумкинки, анъанавий афсона жанри яратилишдан тўхтаган бўлса ҳам, замонавий воқелик, замонавий макон ва замон (хроноп), шунингдек замонавий шартлар асосидаги мифологик тафаккур ва хаёлий уйдирмага асосланган “замонавий” афсоналар мавжуд. Бизнинг вазифамиз эса инглиз ва ўзбек халқ “замонавий афсона”ларининг специфик белгилари, типологик ва дифференциал хусусиятларини ёритишдан иборат.

Америка фольклорида ўтган асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, “Urban legend” (шаҳар, городской) термини ишлатила бошлади ва бундай афсоналар турли олимлар томонидан “янги” (new), “замонавий” (modern) афсоналар дея кўлланиб келинди. “Urban legend” (шаҳар, городской) – фольклорга хос термин бўлиб, анъанавий афсоналар замирида ўсиб чиққан, замонавий воқелик, замонавий макон ва замон (хроноп), шунингдек замонавий шартлар асосидаги мифологик тафаккур ва хаёлий уйдирмага, оғзаки фабулатик баёнга асосланган фольклор жанридир. “Замонавий афсоналар” гарчи турли адабиётларда турли номлар билан кўлланса-да, биз замонавий воқелик асосидаги хаёлий уйдирмага





асосланган бундай афсоналарни “замонавий афсоналар” деб аташни лозим топдик. Сабаби Америка, Буюк Британия ва Россиядаги “Urban legend” (шаҳар, городской)да замонавий воқеликдаги ҳаёлий уйдирмага асосланган воқеалар шаҳар ҳаёти билан боғлиқ бўлгани боис шундай номланган. Шунингдек, бундай афсоналар янги воқелик баёнига асосланган учун “янги” (new), замонавий макон ва замон билан боғлиқлиги боис “замонавий” (modern) афсоналар деб ҳам юритилган. Бироқ ўзбек постфольклори жараёнларида шаклланган бундай афсоналар фақат шаҳар ҳаёти билан боғлиқ бўлмай, уларда қишлоқ ва турли маконлар билан боғлиқ замонавий воқеликдаги воқеалар баёни ҳам учрайди. Шу боис янги, шаҳар атрибутларидан кўра “замонавий” сўзи бундай афсоналар моҳиятини тўлиқроқ қамраб олади.

Левская Ю.С. “Постфольклор маданияти контекстида Америка шаҳар афсонаси” номли номзолик диссертациясида “шаҳар афсоналари (городская легенда, Urban legend)” термини америкалик фольклоршунос Я.Г.Брандванд томонидан ишлатилганлигини, “шаҳар афсоналари” да маълум бир одам билан маълум бир аниқ шароитда юз берган воқелик тарихи баёни берилишини, бундай воқелик тарихи тематикаси замонавий шаҳар ёки шаҳар атрофида юз берган воқеа-ҳодисаларга кўра белгиланишини айтиб ўтади. Шаҳар афсоналарининг пайдо бўлиши ва яратилишини олима қуйидаги омиллар билан боғлайди: “Тарихдан яқин пайтларгача анъанавий халқ оғзаки ижодини тадқиқи учун асосан қишлоқларда сақланиб қолган фольклор материаллари жалб қилинган. Аммо анъанавий фольклор жанрларининг яратилишидан тўхташи ва сўниши натижасида фольклор асарлари тадқиқи учун объект сифатида анъанавий қишлоқ фольклорига хос бўлмаган матнлар олина бошлади. Маданийлашиш жараёнларининг ривожланиши натижасида шаҳарларда оғзаки ва ёзма шаклдаги матнлар – “шаҳар афсоналари (городская легенда)” замонавий жамиятда ўса бошлаган мобиллик ва электрон ахборот орқали тарқала бошлади.” [7, 3-4] Шунингдек, олима ўз тадқиқотида анъанавий халқ оғзаки ижоди билан алоқаларини тўлиқ узмаган, бироқ постфольклор маданиятининг бир қисми сифатида олинаётган модификацияланган бундай жанрлар кўплаб тадқиқотчиларнинг эътиборини тортаётганлигини, “шаҳар афсоналари (городская легенда)” номи билан келган жанр фақат бир маданиятга тегишли





бўлмай, Россия, Америка, Буюк Британия, Германия, Финляндия, Швеция каби давлатлар фольклори материалларида учрашгани айтиб ўтади.

М.В. Никитин эса шаҳар афсоналари сценарийларида “қўрқув” концепти реализацияларини ўрганиш жараёнида шаҳар афсоналарини ўзига хос хусусиятларини, шаҳар афсоналарининг шаклланишида шаҳарнинг ўрни каби масалаларни ўрганишга ҳаракат қилади. Ушбу диссертация шаҳар афсоналарининг тил хусусиятларини ўрганишга бағишланган бўлиб, унда тадқиқотчи “замонавий/шаҳар” афсоналари анъанавий афсоналар трансформацияси ва мифологик тафаккурнинг замонавий шартлар асосида шаклланиши ҳамда афсона жанри эволюцияси натижасида юзага келганлигини таъкидлайди ҳамда шаҳар афсоналарининг ривожланиши натижасида “интернет шаҳар афсоналари” пайдо бўлганлигига таъкидлайди [6, 3].

“Замонавий афсоналар” анъанавий афсоналар трансформацияси натижасида пайдо бўлган экан, уни анъанавий афсоналар каби фольклорнинг мустақил жанри сифатида қабул қила оламизми деган савол туғилади. Албатта, “замонавий афсоналар” анъанавий афсоналарнинг постфольклор жараёнлари ҳосиласи сифатида юзага келган ва биз унга афсоналарнинг постфольклор жараёнларидаги кўриниши, тури сифатида ёндаша оламиз. Шунингдек, “замонавий афсоналар”нинг воқеликка муносабати, образлар тизими, макон ва замон категорияси, сюжет структурасига эгаллигига [7, 8] асосланиб, уни фольклор жанри деб айта оламиз. Яъни “замонавий афсоналар” маросим билан боғлиқ бўлмаган фольклор жанри бўлиб, оғзаки баён ва ишончга асосланган, ахборот бериш ва тарбиявий вазифага эга бўлган жанр ҳисобланади. Бундай афсоналарда замонавий воқеликда содир бўлган ҳаёлий уйдирма асосидаги воқеалар турли ахборотчилар: ёшлар, қариялар, дўстлар, танишлар, турли касб эгалари каби замонавий даврга мансуб жамият аъзолари томонидан баён этилади. “Замонавий афсоналар”да афсона сюжетидаги тингловчига маълум бўлган аниқ вақт ва аниқ бир жойда, яқин тарихда бўлиб ўтган воқеаларнинг гувоҳ бўлган инсонлар (ота-онаси, дўсти, синглиси, яқинлари, танишлари каби), сюжет рамкасида ташқарида берилган ахборотчилар томонидан тасдиқланиши каби омиллар асосида афсонада баён этилган воқеаларга ишонч оширилади. Айрим ҳолларда “замонавий афсоналар” сюжетида афсона қаҳрамони ҳақидаги маълумотлар, биографиясига оид чизгиларнинг берилиши натижасида афсонада





баён этилган воқелик индивидуаллиги ва аниқлигига ишонч мустаҳкамланади. Шунингдек, бундай афсоналар сюжетида фантастик элементлардан кўра бирор шахс ҳаётида содир бўлган кўрқинчли воқеаларнинг далиллар асосидаги тасвирининг берилиши, унинг тингловчи билан замондош бўлган жойлашувга эга бўлган маконларда яшаганлиги каби омиллар ҳам ундаги воқеаларга ишончнинг ошишига хизмат қилади. “Замонавий афсоналар” персонажлари одатдагидек инсонлар (турли хил оддий шаҳар аҳолиси, яқин ўтмишда ёки ҳозирги кунимизда яшаётган инсонлар) ҳамда ғайриоддий кучлар. Ғайриоддий кучлар афсона қаҳрамонининг одатдаги ҳаётини ўзгартириб юбора олган, уларни бошқа ўзанга солиб юбора оладиган ғайриоддий қаҳрамонлардир (руҳлар, Хизр алайхиссалом, шайтон, пари, жин, алвасти каби). Замонавий афсоналар икки ёки уч персонажлардан иборат бўлиб, уларни ёшига, жинсига, ижтимоий мавқеи, касбий ўзига хослигига қараб турли гуруҳларга ажратиш мумкин.

“Yo'qolib borayotgan avtostop” китобида берилган “замонавий афсона” матнида замонавий дунёда бўлаётган ғайриоддий ҳодисалар баёни берилган бўлиб, унинг персонажлари ҳам ҳозирги кунимиздаги, жамиятимиздаги оддий инсонлар. Замонавий афсона матни куйидагича бошланади: “This is the story just as we heard it several months ago, from a levelheaded, conscientious business man. "I've never been able to understand this," he began hesitatingly. "It happened to a friend of mine, Sam Kerns, a fellow who went to Cal with me. He can't explain it either.” [17, 303-304] Афсона воқеалари виждонли ва тадбиркор бир инсон томонидан баён қилинади ва у воқеа унинг дўсти Сем Кернс билан содир бўлганлиги айтади. Афсонани айтувчи ҳам, унинг қаҳрамонлари ҳам шаҳар атрофидаги одамлар. Афсона сюжетида замонавий дунёда, шаҳарда содир бўлаётган воқеалар баёни, хусусан, Сан Франсискодан уйга қайтаётган Кернс ва яна бир эркак билан юз берган ғайриоддий ва кўрқинчли воқеа ҳақида ҳикоя қилинади. Замонавий афсона сюжетидаги воқеаларни афсона персонажлари тушунтириб бера олмайдилар. Улар совуқ ва ёмғирли кечада, Биринчи ва Миссия кўчаси муволишида турган оппоқ ва харир базм кўйлагидаги аёлни машинасига чиқарадилар. Соат иккилардан ошган шундай совуқ ва ёмғирли тунда, пальто ва соябонсиз, кимнидир кутиб турган бу аёл машина орқа ўриндиғида иссиқ одеалга ўранган ҳолда кетади ва йўлда кетаётиб Твин Пиксда онаси билан яшашини айтади ва уларга манзили беради. Улар бешинчи кўчага етишганда, Керн орқа





Ўриндикдаги аёлга қараса, у ерда ҳеч ким йўқ эди. Тез юриб кетаётган машинадан тушиб қолишнинг ҳам иложи йўқ эди. Қўрқув ва ташвишда қолган Керн шериги билан аёл берган манзилга йўл оладилар. У ерда эса уларни қари аёл кутиб олади. Йўловчиларнинг ҳикояларидан аниқ бўладики, қари аёлнинг қизи икки йил олдин Биринчи ва Миссия кўчасида автомобиль авариясида ўлдирилган экан. Афсона персонажлари Кернс, йўловчи, оппоқ харир кўйлақдаги аёл ва унинг онаси. Афсона хронотопи ҳам шаҳар кўчалари. Ундаги ғайриоддий воқелик ўлган аёл руҳининг йўловчилар билан мулоқот қилиши бўлиб, афсона сюжети анимистик қарашлар натижасида юзага келган хаёлий уйдирма асосига қурилганлигини кўрсатади.

Ўзбек фольклорида ҳам замонавий воқелик билан боғлиқ турли замонавий афсоналар ёзиб олинган. Андижон вилояти Қўрғонтепа туманидан 2016-йилда ёзиб олинган “замонавий афсона” да келтирилишича, Ҳайдарали Полвон исмли бир киши бўлар экан. 1965 йиллар атрофида жамоа хўжалиги далаларида ишлар экан. Кечалари далада сув қўяр, ҳосил қўриқлар экан. Унинг зотдор оти бўлиб, у далаларни шу отида айланар экан. Ҳар куни эрталаб туриб, отини минай деса, от хориб-чарчаб ётиб қолар экан. Ҳайдарали полвоннинг опалар отингга жин ёки ажина тегаётган бўлса керак, уни кечаси пойла, дея маслаҳат беришибди. Ҳайдарали полвон икки кун кечаси ухлаб қолибди ва учинчи куни отини кечаси миниб юрган ажинани ушлабди. Ҳайдарали полвон ажинани сочидан ушламас, қочиши ва зарар бериши мумкинлигини билгани боис уни сочидан ушлабди ва сочидан қирқиб олибди. Ажина Ҳайдарали полвондан сочини қайтариб берса, унга ва авлодларига умуман зарар бермаслигини айтибди. Бироқ полвон ажинанинг сочини кавушининг остига, патагининг тагига солиши керак экан, аммо буни билмай сандиғига солиб қўйибди. Ажина сандикдан сочини олиб, қочиб кетибди ва Ҳайдарали полвон авлодидан бўлган ўғил болаларни олиб кетадиган бўлибди. Шу–шу Ҳайдарали полвоннинг ўғил фарзандлари кичиклигидаёқ вафот этадиган бўлибди (Айтувчи: Маҳбубахон Қорабоева. Ёзиб олувчи: К.Абдурашидова). Ушбу афсона сюжети (хронотопига) эътибор қаратсак, ундаги воқеалар замонавий дунёда 1965-йилларда содир бўляпти, фақат шаҳарда эмас, кишлоқ далаларида. Унинг персонажлари ҳам замонавий кунимиздаги одамлар: Ҳайдарали полвон ва унинг опалари. Афсонадаги ғайритабиий персонаж – ажина бўлиб, у Ҳайдарали полвон ҳаётига салбий таъсир





килади. Ажина аёл мифологик персонаж бўлгани боис, кўпроқ эркакларга зарар етказди деган мифологик қараш афсона сюжетининг шаклланишига хизмат қилган. Ажинанинг отга зарар бериши ва Ҳайдарали полвоннинг уч кеча пойлоқчилик қилиш мотиви афсона сюжетидаги воқеаларни асослашга хизмат қилган. Афсона Ҳайдарали полвоннинг опаси тилидан ҳикоя қилинади. Ундаги Ҳайдарали полвоннинг ўғил авлодларининг ўлими билан боғлиқ воқеалар ажина ҳақидаги хаёлий уйдирмалар орқали изоҳланган. Андижон вилоятининг Пахтаобод, Жалалкудук, Наманган вилоятининг Чортоқ ва Уйчи туманларидан ёзиб олинган айни шу афсона сюжетида ўхшаш турли вариантларда ҳам эркак ва уни ғайритабиий персонажлар (ажина, жин, дев, алвасти, пари каби) билан олишуви, афсона қаҳармонига таслим бўлиши ёки зарар бериши билан болиқ воқеалар баёни берилади. Америка “шаҳар афсоналари” ва ўзбек “замонавий афсоналари”нинг типологияси сюжетида ҳозирги кунимизда содир бўлган хаёлий уйдирмага асосланган воқелик баёнининг берилишида, жанр хусусиятлари, сюжет ва композициясида, персонажларининг замонавий дунё одамлари эканлиги, воқеаларнинг ҳозирги кунимиздаги реал жойларда юз бериши каби жиҳатларида кўринади. Америка “шаҳар афсоналари” ва ўзбек “замонавий афсоналари”нинг дифференцияси эса воқелик бўлувчи жойнинг (топос) шаҳардаги турли жойлар (ресторан, кафе, вокзал, кўча ва хк) ҳамда ҳозирги кунимиздаги ҳар қандай жойда ( шаҳар, қишлоқ, дала, шийпон, овлоқ жой, шаҳар чеккаси ва хк ) юз беришида кўзга ташланади. Америка “шаҳар афсоналари”да одатий ҳаётимиздаги одамлар, руҳлар иштирок этса, ўзбек “замонавий афсоналари”да ғайритабиий персонажлар: руҳлар, ажина, жин, алвасти, дев, пари, Ҳизр иштирок этадилар. Шунингдек, “замонавий афсоналар” да уни яратган миллатнинг миллийлиги ва ўзига хосликлари, мифологик қарашлари акс этиши ҳам унинг ўзига хос жиҳатларидан биридир.

#### **Адабиётлар:**

1. Бақимбетов А.М. Қорақалпоқ халқ афсоналарининг ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва сюжет таркиби. Филол. фанлари бўйича фалсафа (PhD) докт. . . . дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 54 б.
2. Brunvand J.H. The Vanishing Hitchhiker: American urban legends and their meanings. NY: Norton, 1981. - 208 p.; Brunvand J.H. The Choking Doberman and other "new" urban legends. -NY: Norton, 1984.-240 p.; Brunvand J.H. The







Mexican Pet: More "new" urban legends and some old favorites. NY: Norton, 1986. - 221 p.; Brunvand J.H. Curses! Broiled again! The hottest urban legends going. -NY: Norton, 1989.-335 p.; Brunvand J.H. The baby train and other lusty urban legends. NY: Norton, 1993.-367 p.; Brunvand. J.H. Too good to be true: the colossal book of urban legends. NY: Norton, 1999. - 480 p.

3. Веселова И.С. Жанры современного городского фольклора: повествовательные традиции Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2020. – С.23;

4. Майер А.С. Московские городские легенды как исторический источник (Историческая память и образ города). Автореферат дисс. ... канд. историч. наук. – Москва, 2008. – 23 с.

5. Modern American cities / Ed. by R.Ginger. Chicago: Quadrangle Books, 1969.-242 p; Toropov B. The complete idiot's guide to urban legends. Indianapolis: Alpha Books, 2001.-308 p.; Urban anthropology: cross-cultural studies of urbanization // Ed. by A.Southole. NY: Oxford University Press, 1973. - 489 p.; Encyclopedia of urban legends / Jan Harold Brunvand; artwork by Randy Hickman. Santa Barbara, Calif.: ABC-CLIO, 2001. - 524 p.

6. Никитин М.В. Реализация концепта "страх" в сценариях городской легенды. Автореферат дисс. ... канд. историч. наук. – Москва, 2008. – С.3.

7. Левская Ю.С.. Американская городская легенда в контексте постфольклорной культуре. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. – Ижевск, 2006. – С.3-4.

8. Имомов К. Ўзбек халқ наслри поэтикаси. – Т.: Фан, 2008.;

9. Жуманазаров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. - Т.: “Фан”, 1991.

10. Жўраев М. Рунетфольклористика хусусида баъзи мулоҳазалар / “Ўзбек фольклорининг ўзбек ва инглиз тилларидаги веб сайти ва мультимедиа маҳсулотларини яратиш” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани тўплами. – Андижон. 2021 йил 27-март. – Б.8-17; Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. - Т.: “Фан”, 1995, Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2008. , Жўраев М. Ўзбек халқ таквими ва мифологик афсоналар. - Т., 1994., Жўраев М. Хизр // Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. (Ш.Шомусаров билан ҳамкорликда). –Т.: Фан, 2001, 104-118-бетлар. Жўраев М.





Хоразм мифологиясида Ҳубби култи. // “”Илм сарчашмалари”, Урганч, 2002, 1-сон, 19-24-бетлар.;

11. Пелипенко А.А. Городской миф о городе // Город и искусство: субъекты социокультурного диалога / Сост. Т.В.Степугина. М.: Наука, 1996. - С.39-48.

12. Раҳмонова М.Р. Ўзбек халқ афсоналарининг бадиияти. Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. – Тошкент, 2011. – 263 б.


13. Раҳмонов Б.М. Ўзбек халқ оғзаки ижодиёти жанрларининг постфольклор шароитидаги ҳолати ва функционал хусусиятлари. Филол. фан. доктори (DSc)... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.179.

14. Ризоева М. А. Ўзбек халқ мифологиясида афсоналари (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва образлар тизими). Филол. фанлари бўйича фалсафа (PhD) докт. . . . дисс. – Тошкент, 2020. – 148 б.

15. Турдимов Ш.Г. Самовий афсоналарда мифология тартиб изоҳи./ “Ўзбек фольклорининг ўзбек ва инглиз тилларидаги веб сайти ва мультимедиа маҳсулотларини яратиш” мавзусидаги Республика конференцияси тўплами. 2-китоб. Наманган, 2022. – Б.18-21. ;

16. Encyclopedia of urban legends / Jan Harold Brunvand; artwork by Randy Hickman. Santa Barbara, Calif.: ABC-CLIO, 2001. - 524 p.

17. The Vanishing Hitchhiker. Author(s): Richard K. Beardsley and Rosalie Hankey. – California Folklore Quarterly, Vol. 1, No. 4 (Oct., 1942), pp. 303-335. / <http://www.jstor.org/stable/1495600> Accessed: 01-02-2016 19:18 UTC.



## ANALYSIS OF THE LIFE AND CREATIVITY OF TONI MORRISON

**Djabbarova Sitora Bahodirovna**

**Assistant teacher of Department of Languages**

**Samarkand State Medical University**

**Abstract:** The article provides detailed information about the life of Toni Morrison and his work. At the same time, Toni Morrison describes the period of writing of the works and the period-related aspects of the works. Toni Morrison's views on twentieth-century culture, its development, and radical democracy are highlighted. Toni Morrison's views on the developmental stages of critical realism are also cited. Details of what Toni Morrison did during his lifetime are also provided.


**Key words:** Toni Morrison, period of writing, critical realism.

### **Introduction**

Toni Morrison, original name Chloe Anthony Wofford, (born February 18, 1931, Lorain, Ohio, U.S.—died August 5, 2019, Bronx, New York), American writer noted for her examination of Black experience (particularly Black female experience) within the Black community. She received the Nobel Prize for Literature in 1993. Morrison grew up in the American Midwest in a family that possessed an intense love of and appreciation for Black culture. Storytelling, songs, and folktales were a deeply formative part of her childhood. She attended Howard University (B.A., 1953) and Cornell University (M.A., 1955). After teaching at Texas Southern University for two years, she taught at Howard from 1957 to 1964. In 1965 Morrison became a fiction editor at Random House, where she worked for a number of years. In 1984 she began teaching writing at the State University of New York at Albany, which she left in 1989 to join the faculty of Princeton University; she retired in 2006.

Morrison's first book, *The Bluest Eye* (1970), is a novel of initiation concerning a victimized adolescent Black girl who is obsessed by white standards of beauty and longs to have blue eyes. In 1973 a second novel, *Sula*, was published; it examines (among other issues) the dynamics of friendship and the expectations for conformity within the community. *Song of Solomon* (1977) is told by a male narrator in search of his identity; its publication brought Morrison to national attention. *Tar Baby* (1981), set on a Caribbean island, explores conflicts of race, class, and sex [1].

The critically acclaimed *Beloved* (1987), which won a Pulitzer Prize for fiction, is based on the true story of a runaway slave who, at the point of recapture, kills her





infant daughter in order to spare her a life of slavery. A film adaptation of the novel was released in 1998 and starred Oprah Winfrey. In addition, Morrison wrote the libretto for Margaret Garner (2005), an opera about the same story that inspired *Beloved* [2].

### **Literature review**

In 1992 Morrison released *Jazz*, a story of violence and passion set in New York City's Harlem during the 1920s. Subsequent novels were *Paradise* (1998), a richly detailed portrait of a Black utopian community in Oklahoma, and *Love* (2003), an intricate family story that reveals the myriad facets of love and its ostensible opposite. *A Mercy* (2008) deals with slavery in 17th-century America. In the redemptive *Home* (2012), a traumatized Korean War veteran encounters racism after returning home and later overcomes apathy to rescue his sister. In *God Help the Child* (2015), Morrison chronicled the ramifications of child abuse and neglect through the tale of *Bride*, a Black girl with dark skin who is born to light-skinned parents [3].

A work of criticism, playing in the *Dark: Whiteness and the Literary Imagination*, was published in 1992. Many of Morrison's essays and speeches were collected in *What Moves at the Margin: Selected Nonfiction* (2008; edited by Carolyn C. Denard) and *The Source of Self-Regard: Selected Essays, Speeches, and Meditations* (2019). She and her son, Slade Morrison, co wrote a number of children's books, including the *Who's Got Game? Series*, *The Book About Mean People* (2002), and *Please, Louise* (2014). She also penned *Remember* (2004), which chronicles the hardships of Black students during the integration of the American public school system; aimed at children, it uses archival photographs juxtaposed with captions speculating on the thoughts of their subjects. For that work, Morrison won the Coretta Scott King Award in 2005.

The central theme of Morrison's novels is the Black American experience; in an unjust society, her characters struggle to find themselves and their cultural identity. Her use of fantasy, her sinuous poetic style, and her rich interweaving of the mythic gave her stories great strength and texture. In 2010 Morrison was made an officer of the French Legion of Honor. Two years later she was awarded the U.S. Presidential Medal of Freedom. *Toni Morrison: The Pieces I Am* (2019) is a documentary about her life and career [4].





### **Research methodology**

Morrison's parents instilled a sense of heritage and language through folktales, ghost stories, and songs traditional to the African-American heritage. As a result, she developed a love for literature and read frequently as a child. She had many favorite authors, including Jane Austen and Leo Tolstoy [5].

Her childhood influenced her style of writing

Morrison started her writing career as an undergrad with a workshop at Howard University. Growing up, Morrison says that her family was "intimate with the supernatural" and that they frequently used visions and signs to predict the future.

Morrison's parent made storytelling an important part of their household and was filled with storytelling among the children and the adults. As a result of her childhood, she felt that her writing was influenced by the storytelling in her past [6].

'Toni' was actually a nickname

At the age of 12, Morrison became a Catholic and took on the baptismal name Anthony after Anthony of Padua. Years later when Morrison was a student at Howard University, people had a hard time pronouncing the name Chloe. From then on, she started going by her nickname, Toni, to avoid any further confusion with pronunciation.

She didn't believe she was a good mother

Morrison married Harold Morrison, an architect she met while studying at Howard University. They divorced in 1964, leaving her to care for their two sons alone. She often felt as though she wasn't a good mother because she wanted to focus on her writing. "I did it ad hoc, like any working mother does," she said [7].

She developed a habit of waking up at four in the morning to write, which led to the completion of her first novel, *The Bluest Eye*. Here is a recording of a 2015 interview on NPR's *Fresh Air*, in which she spoke about the regrets she carried about her personal life.

### **Analysis and results**

Toni Morrison never remarried after divorce.

Though she has never discussed the reason for her divorce, she hinted in the past that her ex-husband wanted a more subservient wife. She said "he didn't need me making judgments about him, which I did. A lot." She never remarried after they parted ways [8].

Her father witnessed a lynching



Morrison's father grew up in Cartersville, Georgia. At the age of 15, he witnessed white people lynching two Black businessmen who lived on his street. Soon after the lynching, her father moved to Lorain, Ohio, a racially integrated town, in hopes of escaping racism and gain better employment in Ohio's industrial economy rather than sharecropping.

Speaking of her father's experience with the lynching, Morrison said "He never told us that he'd seen bodies. But he had seen them. And that was too traumatic, I think, for him."

She was one of the first Black editors at Random House

In 1965, Morrison started working as a fiction editor at Random House in Syracuse, New York and was among one of the very few Black editors at the company.

As an editor, Morrison was highly influential in introducing Black literature into mainstream publishing. She acquired and edited books by Angela Davis, Toni Cade Bambara, Huey Newton, Gayl Jones, and others. One of the most successful titles she edited was *The Greatest: My Own Story* by Muhammed Ali [9].

First glimpse of racism

As the second oldest of four children, Morrison was well aware of the issues that her family faced because of their race. When her father lived in Cartersville Georgia as a teenager, he witnessed two black businessmen who lived on his street get lynched by white people. Morrison said "He never told us that he'd seen bodies. But he had seen them. And that was too traumatic, I think, for him."

At the age of two, her house was set on fire by the family's landlord while they inside because her parents were unable to pay rent. Rather than getting extremely angry, Morrison's mother simply laughed at the landlord, calling his actions a "bizarre form of evil." It was from that moment that Morrison became aware of her family's ability to remain calm and not let racial actions get the best of them [10].

### **Conclusion**

In summary, the article provides detailed information about the life of Toni Morrison and his work. At the same time, we have received detailed information about the period of writing of Toni Morrison's works and aspects of the works related to the period. We got acquainted with Toni Morrison's views on twentieth-century culture, its development, and radical democracy. We are introduced to Toni Morrison's views on



the developmental stages of critical realism. We also learned a lot about what Toni Morrison did during his lifetime.

### References:

1. Sharipova D. et al. Bilingualism As A Main Communication Factor For Integration Among Nations In Transoxiana. Modern Uzbekistan //International Journal on Integrated Education. – 2019. – Т. 2. – №. 2. – pp. 15-23.
2. Sharipova D., Ibatova N. THE TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS INTO UZBEK //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 10. – pp. 649-651.
3. Shavkatovna S. D., Istamovna I. N., Komiljonovna X. M. Symbols and Images in Uzbek stories //Proceeding of The ICECRS. – 2020. – Т. 5.
4. Sharipova D., Muhammadiyeva N., Mohigul Q. The Translation of Grammatical Discrepancies //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 1.
5. Shodikulova A. Z. The theory of an integrative approach to the analysis of the phenomenon of metonymy //Archive of Conferences. – 2021. – С. 56-57.
6. Shodikulova A. Z. The text is about the phenomenon of cohesion //academica Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1-4.
7. Shodikulova A. Z. The analysis of the phenomenon of metonymy //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 1136-1140.
8. Махмудова С. А. ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОППОЗИЦИИ «СВОЙ/ЧУЖОЙ» В ТРИАДУ «ДРУГОЙ-СВОЙ–ДРУГ» В РОМАНЕ ДЖ. ОЛДРИДЖА «I DON'T WANT HIM TO DIE» («НЕ ХОЧУ, ЧТОБЫ ОН УМИРАЛ») //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2022. – Т. 5. – №. 5.
9. Internal types of Uzbek poems. Социосфера. Научно-методический и теоретический журнал. Пенза (Россия) 2016. № 2. –С.46-50. Global Impact Factor (Австралия) – 1,041. Scientific Indexin Services (США) – 1,09
10. Transference of National Peculiarities in the Novel “The Din” by E.A’zam. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT). ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019.( Barotova M.)





11. Mukhamadiyeva M., Sharipov B. LATIN AS THE MAIN LANGUAGE OF MEDICINE //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 337-339.

12. Sharipov B. RETSIPROKLİK XUSUSIDA MULOHAZALAR //Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – Т. 1. – №. 19. – С. 63-66.

13. Шарипов Б. С. ТИЛ БИРЛИКЛАРИНИНГ НУТҚДА ФАОЛЛАШУВИ НАҚИДА //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2022. – Т. 5. – №. 1.

14. Salimovich S. B. Studies of Reciprocity in Linguistics //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 8. – С. 221-224.

15. Salimovich S. B. FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS //Conference Zone. – 2022. – С. 62-63.

16. Salimovich S. B. RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS //EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). – 2022. – Т. 7. – №. 12. – С. 129-131.







## ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА ТОНИ МОРРИСОНА

Абдусаломов Сухроб Рустамович

Ассистент преподавателя кафедры языков

Самаркандский государственный медицинский университет

**Аннотация:** В статье представлена подробная информация о жизни Тони Моррисона и его творчестве. В то же время Тони Моррисон описывает период написания произведений и связанные с ними аспекты произведений. Подчеркиваются взгляды Тони Моррисона на культуру двадцатого века, ее развитие и радикальную демократию. Приводятся также взгляды Тони Моррисона на этапы развития критического реализма. Также приводятся подробности того, чем Тони Моррисон делал при жизни.

**Ключевые слова:** Тони Моррисон, писательский период, критический реализм.

### Введение

Тони Моррисон, настоящее имя Хлоя Энтони Уоффорд (родилась 18 февраля 1931 года, Лорейн, Огайо, США — умерла 5 августа 2019 года, Бронкс, Нью-Йорк), американская писательница, известная своим исследованием опыта чернокожих (особенно опыта чернокожих женщин) внутри Черное сообщество. В 1993 году она получила Нобелевскую премию по литературе. Моррисон выросла на Среднем Западе Америки в семье, которая очень любила и ценила черную культуру. Рассказывание историй, песни и народные сказки были глубоко формирующей частью ее детства. Она училась в Университете Говарда (бакалавр, 1953) и Корнельском университете (магистр, 1955). После двух лет преподавания в Техасском Южном университете она преподавала в Ховарде с 1957 по 1964 год. В 1965 году Моррисон стала редактором художественной литературы в Random House, где проработала несколько лет. В 1984 году она начала преподавать письмо в Государственном университете Нью-Йорка в Олбани, который она оставила в 1989 году, чтобы поступить на факультет Принстонского университета; она вышла на пенсию в 2006 году.

Первая книга Моррисона, «Самый голубой глаз» (1970), представляет собой роман посвящения о жертве чернокожей девочки-подростка, которая одержима белыми стандартами красоты и мечтает иметь голубые глаза. В 1973 г. был опубликован второй роман «Сула»; он исследует (среди прочего) динамику





дружбы и ожидания соответствия внутри сообщества. Песнь Соломона (1977) рассказывает мужчина-рассказчик в поисках своей личности; его публикация привлекла внимание всей страны к Моррисону. *Tar Baby* (1981), действие которого происходит на карибском острове, исследует конфликты расы, класса и пола [1].

#### Литературный обзор

В 1992 году Моррисон выпустил «Джаз» — историю о насилии и страсти, действие которой происходит в нью-йоркском Гарлеме 1920-х годов. Последующими романами были «Рай» (1998 г.), богато детализированный портрет чернокожего утопического сообщества в Оклахоме, и «Любовь» (2003 г.), запутанная семейная история, раскрывающая мириады граней любви и ее мнимой противоположности. «Милосердие» (2008) посвящено рабству в Америке 17-го века. В «Искупительном доме» (2012) травмированный ветеран Корейской войны сталкивается с расизмом после возвращения домой, а затем преодолевает апатию, чтобы спасти свою сестру. В книге «Боже, помоги ребенку» (2015) Моррисон описал последствия жестокого обращения с детьми и безнадзорности в рассказе о Невесте, чернокожей девочке с темной кожей, рожденной от светлокожих родителей [3].

Критический труд «Игра в темноте: белизна и литературное воображение» был опубликован в 1992 году. Многие эссе и речи Моррисона были собраны в книгах «Что движется на полях: избранная документальная литература» (2008; под редакцией Кэролайн К. Денар) и *The Источники самооценки: избранные эссе, речи и размышления* (2019). Она и ее сын Слэйд Моррисон совместно написали несколько детских книг, в том числе «У кого есть игра?». Серия «Книга о подлых людях» (2002 г.) и «Пожалуйста, Луиза» (2014 г.). Она также написала «Помни» (2004), в котором рассказывается о невзгодах чернокожих учащихся во время интеграции американской системы государственных школ; ориентированный на детей, он использует архивные фотографии в сочетании с подписями, размышляющими о мыслях их испытуемых. За эту работу Моррисон получил премию Коретты Скотт Кинг в 2005 году.

Центральной темой романов Моррисона является опыт чернокожих американцев; в несправедливом обществе ее герои изо всех сил пытаются найти себя и свою культурную идентичность. Ее использование фантазии, ее





извилистый поэтический стиль и богатое переплетение мифов придавали ее рассказам большую силу и текстуру. В 2010 году Моррисон стал офицером французского Почетного легиона. Два года спустя она была награждена Президентской медалью свободы США. Тони Моррисон: The Pieces I Am (2019) — документальный фильм о ее жизни и карьере [4].

#### Методология исследования

Родители Моррисона привили чувство наследия и языка через народные сказки, истории о привидениях и песни, традиционные для афроамериканского наследия. В результате она полюбила литературу и в детстве часто читала. У нее было много любимых авторов, в том числе Джейн Остин и Лев Толстой [5].

В возрасте 12 лет Моррисон стал католиком и взял имя Энтони при крещении в честь Антония Падуанского. Спустя годы, когда Моррисон был студентом Университета Говарда, людям было трудно произносить имя Хлоя. С тех пор она начала пользоваться своим прозвищем Тони, чтобы избежать дальнейшей путаницы с произношением.

#### Она не верила, что она хорошая мать

Моррисон вышла замуж за Гарольда Моррисона, архитектора, с которым познакомилась во время учебы в Университете Говарда. Они развелись в 1964 году, оставив ее одну заботиться об их двух сыновьях. Ей часто казалось, что она плохая мать, потому что хотела сосредоточиться на писательстве. «Я делала это специально, как и любая работающая мать», — сказала она [7].

#### Анализ и результаты

Тони Моррисон больше не выходила замуж после развода.

Хотя она никогда не обсуждала причину своего развода, в прошлом она намекала, что ее бывший муж хочет более послушную жену. Она сказала: «Ему не нужно было, чтобы я осуждала его, что я и делала. Много.» Она больше никогда не выходила замуж после того, как они расстались [8].

#### Ее отец стал свидетелем линчевания

Когда ей было два года, домовладелец поджег ее дом, пока они находились внутри, потому что ее родители не могли платить за квартиру. Вместо того, чтобы сильно разозлиться, мать Моррисона просто посмеялась над домовладельцем, назвав его действия «причудливой формой зла». Именно с этого момента






Моррисон осознала способность своей семьи сохранять спокойствие и не позволять расовым действиям взять над ними верх [10].

### **Заключение**

Таким образом, в статье представлена подробная информация о жизни Тони Моррисона и его творчестве. В то же время мы получили подробную информацию о периоде написания произведений Тони Моррисон и аспектах произведений, связанных с этим периодом. Мы познакомились со взглядами Тони Моррисон на культуру XX века, ее развитие и радикальную демократию. Мы знакомимся со взглядами Тони Моррисон на этапы развития критического реализма. Мы также многое узнали о том, чем занимался Тони Моррисон при жизни.

Dunyoning barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy maqomiga oid masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir davlatda inson huquqlari va manfaatlarini samarali himoya qilishda advokatlik tuzilmalari va advokatlarning o‘zini o‘zi boshqarish organining asosiy hamda muhim vazifani bajarishi xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilmoqda. Xususan, BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish to‘g‘risidagi Sakkizinchi kongressida qabul qilingan «Yuristlar roliga oid asosiy prinsiplar»<sup>1</sup>da advokatura institutini takomillashtirish demokratik huquqiy taraqqiyotning birlamchi shartlaridan ekanligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Advokatura instituti esa, ushbu siyosatni amalga oshirishning juda muhim bir qismi hisoblanadi. Ta’kidlash

<sup>1</sup> <https://www.un.org/ruleoflaw/blog/document/basic-principles-on-the-role-of-lawyers/>.





joizki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, advokatura faoliyatini tartibga soluvchi hamda advokatlarning daxlsizligini va ularning erkin faoliyat ko‘rsatishlarini kafolatlovchi huquqiy-normativ mezon yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”<sup>2</sup>gi Qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, unda advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi yetarli darajada ifoda qilinmaganligi va yuridik yordamni ta‘minlash kafolatlari zaruriyati yuzaga kelganligi tufayli qisqa muddatda ya‘ni, 1998 yil 25 dekabrda advokatura sohasiga oid ikkinchi Qonun “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlarda fuqarolarning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan advokaturani isloh qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Fuqarolik qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasi —Advokatura to‘g‘risidagi qonunning bugungi kundagi holatidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, ushbu masala, ya‘ni umuman —yuridik xizmat ko‘rsatish, jumladan —advokat tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmat tushunchalari aniqlashtirilmagan va to‘g‘ri tartibga solinmagan.

Mazkur qonun hujjatlari qabul qilingan davrda boshqacha bo‘lishi mumkin emas yedi. Sababi, o‘sha davrda yuridik xizmatlar ko‘rsatish sohasi yetarli darajada rivojlanmagan yedi. Shunga qaramay, o‘sha paytdan qonunchilikda ikkita asosiy huquqi kategoriyalar qo‘llanilib kelingan – "huquqiy yordam" va "yuridik xizmat".

Boshqalari esa, aksincha, ularga qarshi turib, o‘z pozitsiyasini asoslashga harakat qilmoqda. Masalan, O. S. Ponasyuk —advokatura doirasiga kiradigan hamma narsa malakali yuridik yordamdir, bu sohaga kirmaydigan narsa esa yuridik xizmatlardir, deb hisoblaydi. R. R. Lenkovskaya huquqiy va yuridik xizmatlarni malakali yuridik yordamdan farqlash kerak, deb hisoblaydi.<sup>3</sup>

Yuridik yordam tushunchasi ko‘plab mualliflar: O. N. Bondar, M. V. Kratenko, R. G. Melnichenko, K. Ye. Mixaylenko, V. Yu. Panchenko, A. S. Pleten, Ye. V. Yanush

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi —Advokatura to‘g‘risidagi qonun. 27.12.1996 yildagi 349-I-son.

<sup>3</sup> Панченко В. Ю. Подходы к понятию «юридическая помощь» в современном отечественном правоведении / В. Ю. Панченко // Российский юридический журнал. — 2012. — № 1 (82). — С. 18-27.





va boshqalar tomonidan o'rganilganligi muhim ahamiyatga yega. Ayrim nazariy ishlanmalar mavjudligini qayd etishimiz mumkin.

Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimlituzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini sharhlash, kuzatuv va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullar qo'llanilgan.<sup>4</sup>

### TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashning samarali institutlaridan biri bo'lgan advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida tomonlar tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi, advokatlarning professional faoliyatini bajarishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi.

Shu bilan birga, tahlillar ko'rsatganidek, advokatura hanuzgacha odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylana olmadi, advokatlarning huquqlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan va ular tomonidan sifatli yuridik yordam ko'rsatilishiga xalal berayotgan qator omillar mavjud. Xususan:

- surishtiruv va tergov organlarining ayrim xodimlari tomonidan advokatlar o'zlarining ishonch bildiruvchilari (himoyasi ostidagilari) oldiga kirishlariga yuzaki sabablarga ko'ra to'sqinlik qilinmoqda, bunday holatlarda advokatlarning shikoyatlarini ko'rib chiqishning amaldagi mexanizmlari advokatlik faoliyatiga to'sqinlik qilish holatlarining samarali oldini olishni ta'minlamayapti;

- advokatlarning jismoniy va yuridik shaxslar huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish uchun turli tashkilotlarga yo'llayotgan so'rovlari ko'p hollarda, eng avvalo, davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan e'tiborsiz qoldirilmoqda, advokat so'rovini ko'rib chiqishning aniq tartibi va muddatlari, bilaturib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan;

---

<sup>4</sup> Gorelysheva Ye. M. Nekotorie problemi dogovora vozmeznogo okazaniya yuridicheskix / Ye. M. Gorelysheva // Sfera znaniy v voprosax kulturi, nauki i obrazovaniya sbornik nauchnix trudov. Kazan, 2018. — S. 74–77.





▪ O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining (keyingi o‘rinlarda Advokatlar palatasi deb yuritiladi) advokatura instituti himoyachisi sifatidagi roli pasayib ketgan, uning advokatlar bilan o‘zaro hamkorligi statistika yig‘ish bilan cheklanib qolmoqda hamda ortiqcha byurokratiyadan iborat bo‘lmoqda;

▪ advokatlik tuzilmalarining amaldagi tashkiliy-huquqiy shakllari yuridik xizmatlar ko‘rsatish bozorida raqobatning rivojlanishiga xizmat qilmayapti, yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatish advokatlik faoliyatidan ajratilmaganligi sohaning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda;

▪ advokatlik faoliyatini litsenziyalash tizimi yuridik amaliyotning tegishli sohalarga bo‘linishini hisobga olmaydi, bu esa advokatlik kasbining ixtisoslashuviga salbiy ta‘sir etmoqda;

▪ advokatlik litsenziyasining amal qilishini to‘xtatib turish va tugatish masalalarini ko‘rib chiqishda salmoqli ma‘muriy ta‘sir ko‘rsatishga yo‘l qo‘yilmoqda, natijada advokaturaning erkinligi va mustaqilligiga putur yetmoqda;

▪ bilimi yetmasligi, o‘zining kasbiy majburiyatlariga vijdotsiz munosabatda bo‘lishi sababli advokatlar tomonidan Advokatlarning kasb etikasi qoidalari talablari, advokatlik siri va advokat qasamyodini buzish hollari ko‘plab uchramoqda, bu esa ishonch bildiruvchilarning (himoya ostidagilarning) noroziligiga sabab bo‘lmoqda.<sup>5</sup>


## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida advokat maqomini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan amaldagi qonun hujjatlari, ijtimoiy va huquqiy mazmundagi nazariy xulosalar, shuningdek, bu boradagi sud-tergov amaliyotini tahlil qilish natijasida shakllangan taklif, tavsiya va xulosalar joriy etildi.

Xulosa o‘rnida, advokatura sohasidagi bu islohotlar asosan advokatura institutini yanada erkinlashtirish, advokatlarning o‘rni va maqomini yanada kuchaytirishga qaratilgan, deb aytsak xato bo‘lmaydi.

---

<sup>5</sup> Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini... O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOEV Toshkent shahri, 2018 yil 12 may.






ISSN (E): 2181-4570

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi —Advokatura to'g'risidagi qonun. 27.12.1996 yildagi 349-I-son.
2. <https://www.un.org/ruleoflaw/blog/document/basic-principles-on-the-role-of-lawyers/>.
3. Mengliyev Bobur Normamatovich. International Journal of Research. Games as a Motivation in Teaching Foreign Language January 2020 32-37
4. Панченко В. Ю. Подходы к понятию «юридическая помощь» в современном отечественном правоведении / В. Ю. Панченко // Российский юридический журнал. — 2012. — № 1 (82). — С. 18-27.
5. Mengliyev B. PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. В7. – С. 554-556
6. Gorelisheva Ye. M. Nekotorie problemi dogovora vozmeznogo okazaniya yuridicheskix / Ye. M. Gorelisheva // Sfera znaniy v voprosax kulturi, nauki i obrazovaniya sbornik nauchnix trudov. Kazan, 2018. — S. 74–77.
7. Mengliyev Bobur Normamatovich. International Journal of Research. The usage of different effective games to promote teaching speaking english classes January 2020 8-20
8. Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini... O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.MIRZIYOEV Toshkent shahri, 2018 yil 12 may.
9. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
10. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)
11. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)





ISSN (E): 2181-4570

## TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

U.K.Nurumbetova

Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga urgatish milliy  
markazi

Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrası katta  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Texnologiya hayotimizning tobora ajralmas qismiga aylanib bormoqda va ta'lim uchun ham xuddi shunday. Hozirgi kunda o'qituvchilar o'z talabalari uchun yanada qiziqarli va interaktiv ta'lim tajribasini yaratish uchun o'qitishda texnologiyadan foydalanishga da'vat etiladi. Ushbu maqola boshqa fanlar bilan texnologiya integratsiyasiga asoslangan darsni tashkil etish talabalar va o'qituvchilarga qanday foyda keltirishi mumkinligini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** darsni tashkil etish, texnologiya integratsiyasi, kurslararo, fanlararo, ta'lim texnologiyasi, fan integratsiyasi, o'qitish strategiyalari.

Texnologiya hayotimizning barcha jabhalarini, jumladan, texnologiya tomonidan o'zgartirilgan ta'limni inqilob qildi. Hozirgi zamonda texnologiya ta'limning ajralmas qismiga aylandi va texnologiyaning turli fanlar bilan integratsiyalashuvi yangi imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Ta'limning an'anaviy, o'qituvchiga yo'naltirilgan yondashuvi asta-sekin o'quvchilarga yo'naltirilgan, interfaol yondashuvga almashtiriladi, bunda texnologiyadan rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratish uchun foydalaniladi. Voyaga etganimizdan so'ng, biz sinfdan o'tirish, o'qituvchini tinglash va uyda o'qish uchun eslatma olish kabi an'anaviy tarzda o'rgatilgan. Ushbu o'qitish usuli ko'plab talabalar uchun monoton bo'lib qoldi va uzoq muddatda samarali bo'lmadi. Ammo texnologiya misli ko'rilmagan sur'atlarda rivojlanib borayotgani sababli, ta'limning yanada innovatsion usuliga o'tish vaqti keldi. Texnologiyani boshqa fanlar bilan birlashtirish o'quv tajribasini o'zgartirishga yordam beradi va talabalarning ehtiyojlarini yanada samaraliroq qondirishga yordam beradi.

Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Dars rejalarida texnologiyani joriy etish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiyalash orqali biz o'quvchilarga tushunchalarni yaxshiroq tasavvur qilishda yordam bera olamiz, bu esa o'rganishni qiziqarli va qiziqarli qiladi. Videokonferensiya, animatsiyalar va raqamli doskalar kabi







interfaol o'quv vositalari yordamida talabalar o'zlari o'rganayotgan narsalariga sho'ng'ib ketishlari va murakkab tushunchalarni o'zlariga talvasaga solmasdan tushunishlari mumkin. Talabalar texnologiyaga asoslangan loyihalar yoki topshiriqlar ustida ishlayotganlarida, ular ijodiy va innovatsion g'oyalarni o'ylab topishlari mumkin. Bu juda zarur ijodkorlik o'quvchilarda bugungi dunyoda muhim bo'lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Texnologiyaga asoslangan loyihalar orqali talabalar muammoni hal qilish ko'nikmalarini oshirishlari, narsalarga turli nuqtai nazardan qarashni o'rganishlari va samarali echimlarga erishishlari mumkin. Bu talabalarga akademik sayohatlarida ham, professional martabalarida ham yordam beradi. O'quvchilarning kelajagini shakllantirishda o'qituvchilarning o'rnini katta. Sinfda texnologiyani o'z ichiga olgan yaxshi tashkil etilgan dars rejasi talabalar uchun yaxshi o'rganish tajribasini yaratishda uzoq yo'lni bosib o'tadi. Ushbu maqolada biz o'qituvchilar texnologiyani turli fanlar bilan qanday integratsiya qilishlari va dars rejalarini shunga mos ravishda o'zgartirishlari mumkinligini ko'rib chiqamiz.

O'quv tajribasini takomillashtirish. Texnologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi talabalarning o'rganish tajribasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Talabalar yangi tushunchalarni o'rganish uchun darsliklarga tayanishi kerak bo'lgan davrlar o'tdi. Interfaol ta'lim dasturlari va vositalari bilan o'rganish yanada qiziqarli, qiziqarli va interaktiv bo'ldi. Ushbu o'rganish usuli, ayniqsa, an'anaviy sinf sharoitida o'rganishda muammolarga duch kelgan talabalar uchun foydalidir. Texnologiyaga asoslangan darslar har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilishi mumkin va ular eng yaxshi ta'lim tajribasini olishlariga ishonch hosil qiladi. Bundan tashqari, texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiyalash talabalar uchun yaxshi ta'lim muhitini yaratishga yordam beradi. O'qituvchilar dars rejalarini sozlashlari va o'quvchilar uchun shaxsiy o'rganish imkoniyatlarini yaratish uchun ta'lim dasturlaridan foydalanishlari mumkin. Bu talabalarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi, bu ma'lum bir mavzu bilan kurashayotgan talabalar uchun foydalidir.

Birgalikda o'rganish va jamoaviy ish. Texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiyalashning asosiy afzalliklaridan biri bu hamkorlikda o'rganishni osonlashtiradi. Talabalar birgalikda texnologiyaga asoslangan loyihalar ustida ishlayotganlarida, ular bir-birlarining kuchli va zaif tomonlarini o'rganishlari mumkin. Bu ularga yaxshi muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga va jamoalarda samarali





ishlashni o'rganishga yordam beradi. Hamkorlikdagi o'quv tajribalari, shuningdek, talabalarga muammolarni hal qilish va etakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, vazifalarni qanday tashkil etish va ustuvorlik qilishni o'rganadi va jamoaviy ishning yanada muhim tuyg'usini rivojlantiradi. Bundan tashqari, texnologiyaga asoslangan darslar talabalarga turli nuqtai nazarlar va madaniyatlarni o'rganishga yordam beradi. Turli xil raqamli vositalar yordamida talabalar dunyoning turli burchaklaridan kelgan tengdoshlari bilan bog'lanib, ularning urf-odatlarini, an'analari va e'tiqodlari haqida bilib olishlari mumkin. Bunday ta'sir qilish talabalar o'rtasida madaniy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi, bu globallashgan dunyoda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar texnologiyani o'z darslariga qanday joriy qilishlari mumkin. Texnologiyani dars rejasiga kiritish ba'zi o'qituvchilar uchun juda qiyin bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu shart emas. Muayyan amaliyot va tajriba bilan o'qituvchilar texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiya qilishning samarali usullarini ishlab chiqishlari mumkin, bu esa talabalar uchun uzoq muddatda foydali bo'ladi. O'qituvchilar texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish uchun bir nechta maslahatlarga amal qilishlari mumkin:

1. Ta'lim dasturidan foydalaning: Ko'proq interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab ta'lim dasturlari mavjud. Kahoot kabi dasturiy ta'minot! va Quizlet o'qituvchilarga o'rganishni yanada qiziqarli qiladigan interaktiv viktorinalar va o'yinlar yaratishda yordam berishi mumkin.

2. Videolardan foydalaning: Videolar tushunchalarni tushunishni osonlashtirishning ajoyib usuli bo'lishi mumkin. O'qituvchilar dars rejasiga mos keladigan o'quv videolarini topish uchun YouTube'dan foydalanishlari mumkin.

3. Texnologiyaga asoslangan loyihalarni qo'shing: Texnologiyani boshqa fanlar bilan yaxshiroq integratsiya qilish uchun o'qituvchilar o'quvchilarga o'rganayotgan mavzulari asosida loyihalarni belgilashlari mumkin. Masalan, tarixni o'rganayotgan talabalardan raqamli vaqt jadvalini yaratish, til o'quvchilaridan esa o'qigan hikoyasi asosida qisqa video yaratish so'ralishi mumkin.

4. Virtual dala sayohatlari: Virtual dala sayohatlari yordamida o'quvchilar boshqa yo'lda qila olmaydigan joylarga tashrif buyurishlari mumkin. O'qituvchilar Google Earth va Skype kabi dasturlardan talabalarni tarixiy diqqatga sazovor joylarga virtual






sayohatga olib borishlari yoki ularni dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmon ma'ruzachilar bilan bog'lashlari mumkin.

**Xulosa.** Texnologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi bir necha yil oldin mumkin bo'lmagan ta'lim imkoniyatlarini beradi. Texnologiya o'quvchilarga turli fanlarni chuqur tushunish imkonini beruvchi interaktiv va qiziqarli o'quv tajribasini yaratish imkoniyatiga ega. O'qituvchilar o'z darslarini rejalashtirishda texnologiyani qabul qilishlari kerak va ular ta'lim texnologiyasidagi eng so'nggi ishlanmalarni o'rganishga harakat qilishlari kerak. Texnologiyaning imkoniyatlarini tan olgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini rag'batlantiradigan muhitni yaratishi mumkin, natijada ta'lim natijalari yaxshilanadi. Texnologiyalar o'rganishga yondashuvimizni tubdan o'zgartirdi hamda o'quvchilar va o'qituvchilarga o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun vositalarni taqdim etdi. Texnologiyani boshqa fanlar bilan integratsiyalash o'quvchilarda ijodkorlikni, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va jamoada ishlashni rivojlantirishga yordam beradi. U yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taklif qiladi va talabalarni tobora ortib borayotgan texnologik dunyoga tayyorlaydi. Shunday ekan, o'qituvchilar o'quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatga tayyorlash uchun dars rejalariga texnologiyani kiritishda davom etishlari zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamovna, T. G. (2023). МАКТАБДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИНГ О'QITILISHI ASOSLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 17(4), 91-94.
2. ХАКИМОВ, Ф. А. (2023). ПРИНЦИПЫ ПРИЗНАНИЯ, ОЦЕНКИ И УЧЕТА ДОЛГОСРОЧНЫЕ АКТИВОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 669-676.
3. Abdusattorovich, K. F., & Asliddinovna, N. N. (2023). IMPROVING ACCOUNTING FOR LONG-TERM ASSETS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(05), 115-121.
4. Khakimov, F. A., & Turanov, M. S. (2022). The Economic Essence of Profit and the Initial Theoretical Foundations of its Formation. *Eurasian Research Bulletin*, 6, 95-97.
5. Abdusattorovich, K. F. (2022). PRINCIPLES OF RECOGNITION, ASSESSMENT AND ACCOUNTING OF LONG-TERM ASSETS IN





INTERNATIONAL ACCOUNT TEMPLATES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 1133-1138.

6. Арзикулов, Ф. Ф., & Мустафакулов, А. А. (2020). Возможности использования возобновляемых источников энергии в узбекистане. *НИЦ Вестник науки*.

7. Мустафакулов, А. А., Джуманов, А. Н., & Арзикулов, Ф. (2021). Альтернативные источники энергии. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1227-1232.

8. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING? AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING?. *Интернаука*, (22-4), 19-21.

9. Куланов, Б. Я., & Саодуллаев, А. С. (2021). Развитие альтернативных источников энергетики Узбекистана. In *НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ИННОВАЦИИ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ* (pp. 29-32).

10. Solidjonov, D., & Arzikulov, F. (2021). WHAT IS THE MOBILE LEARNING. AND HOW CAN WE CREATE IT IN OUR STUDYING, 22-4.

11. Мустафакулов, А. А., & Джуманов, А. (2020). Использование альтернативных источников энергии в горных районах джизакской области узбекистана. *Интернаука*, (41-1), 73-76.

12. Dilmurod, R., & Fazliddin, A. (2021). Prospects for the introduction of artificial intelligence technologies in higher education. *ACADEMICIA: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 929-934.

13. Ruzieva, Sadoqat. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISHDA FAOLIYATNING O 'RNI." *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 1.1 (2021).

14. Umirbonu, O. (2022). TEXNOLOGIYA FANINING TALIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 13(2), 3-5.

15. Zaripboyevna, M. G., Dushamboevna, J. S., & Nuraddinovna, R. (2022). TEXNOLOGIYA FANINING OLTIN QOIDALARI. *Scientific Impulse*, 1(5), 1794-1797.

16. Qilicheva, M., & Abdullayeva, N. (2023). TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 2(2), 14-16.





ISSN (E): 2181-4570

**RESPUBLIKADAGI BUG‘-GAZ QURILMALARINING SOVUTISH SISTEMALARINI ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.****Toshkent davlat texnika universiteti  
Normuminov Jahongir Abdusamiyevich****Toshkent Davlat Texnika Universiteti  
Energiya tejamkorligi va energiya  
auditi kafedrası Dotsenti****[normuminovjakhongir@gmail.com](mailto:normuminovjakhongir@gmail.com)****Sultonov Hamidjon Halim o‘g‘li  
Toshkent Davlat Texnika Universiteti****Sanoat issiqlik energetikasi  
kafedrası Magestori****[sultonovhamidjon1@gmail.com](mailto:sultonovhamidjon1@gmail.com)**

**ANNOTATSIYA:** Bug‘ va gaz qurilmalarini yoqilg‘i sarfini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish, ularga atrof-muhitga chiquvchi zararli tutun gazlarni kamaytirish kabi dolzarb muammolarni hal etishdan iborat. Shu sababli Bug‘ va gaz qurilmalarining sovutish tizimi eng asosiy jihatlaridan biri sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bug‘ turbinasida ish bajarib bo‘lgan bug‘ kondensatorga yo‘naltiriladi. Turbina saplolarini aylantiruvchi qismlari esa maxsus moylar yordamida sovutib turiladi. Qurilmalarni ishonchli ishlashi hamda energiya tejamkorlikga erishish uchun sovutish tizimlarini chuqurroq tahlil qilishni ushbu maqolada ko‘rib chiqamiz.

**Kalit so‘zlar:** gaz turbinali qurilmasining diagrammasi, faol sovutish tizimi, issiqlik almashinuvchilari, issiqlik samaradorligi, regenerator, injektor.


**Faol sovutish tizimiga ega gaz turbinali dvigatel**

Yuqori haroratli gaz turbinalari uchun faol sovutish tizimi taklif etiladi, unda energiya manbai sifatida kombinatsiyalangan sikl ishlatiladi. Faol sovutish tizimiga ega bo‘lgan ikkita o‘xshash gaz turbinalar uchun issiqlik samaradorligining hisoblangan qiymatlarini taqqoslash, birinchi holatda sovutish tizimining energiya manbai sifatida gaz turbinali qurilmasi va ikkinchi holatda bug‘ gaz qurilmasi mavjud. Bug‘ gaz qurilmali stansiyadan energiya manbai sifatida foydalanilganda gaz turbinaning issiqlik samaradorligi yuqoriroq qiymatga ega ekanligi isbotlangan.





Kompressorlarda bosimning yuqori darajasiga ega bo'lgan yuqori haroratli gaz turbinali dvigatel (GTD)da oqim yo'lining issiq qismlarini ishonchli va tejamkor sovutish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammoni turbinani faol sovutish tizimi (ST) bo'lgan gaz turbinali dvigatelda hal qilish mumkin. Bunday sovutish tizimi bo'lgan gaz turbinali dvigatelning diagrammasi 1-rasmda ko'rsatilgan.




**1-rasm. Faol sovutish tizimiga ega gaz turbinali dvigatelning sxemasi:** 1,2,3 - kompressor, yonish kamerasi va GTD turbinasi; 4,5,6 - kompressor, yonish kamerasi va GTQ turbinasi; 7,8,9,10 - kompressor, issiqlik almashinuvchi-bug' generatorlari va ST sovutish kanallari

Undagi energiya manbai kompressor 4, yonish kamerasi 5 va turbinani 6 o'z ichiga olgan gaz turbina qurilmasi (GTQ) bo'lib, havo gaz turbinali dvigatelning kompressor 1 dan olinadi va issiqlik almashirgich-bug' generatorida 8 sovutiladi. Uning bir qismi kompressor 4, yonish kamerasiga 5 va turbinaga 6 kiradi. Gaz turbinasidan yonish mahsulotlari gaz turbinali dvigatelning yonish kamerasiga 2-ga beriladi. Havoning qolgan qismi sovutish tizimining kompressoriga 7 kiradi, unda siqiladi va keyin issiqlik almashirgich-bug' generatorida 9 sovutiladi. Undan havo ochiq sovutish tizimi bo'lgan gaz turbinali dvigatel 3 ning sovutish kanallari 10 ga beriladi. Sovutish havosi bosimining oshishi tufayli gaz turbinasi sovutish kanallarida issiqlik uzatish jarayoni sezilarli darajada kuchayadi.





Issiqlik almashtirgich-bug' generatorlari 8, 9 havo issiqligi sovutish tizimi energiyasining qo'shimcha manbai bo'lib, bug' turbinasi qurilmasida (BTQ) bug' hosil qilish uchun ishlatiladi. Shunday BTQ variantlaridan birining diagrammasi 2-rasmda ko'rsatilgan. Ishchi suyuqlik sifatida T-s koordinatalarida bug' chegarasi egri chizig'ining musbat qiyaligi bo'lgan organik ishchi suyuqlikdan foydalanishi mumkin. Bunday holda, ishchi suyuqlikning kengayish jarayoni doimo qizib ketgan bug' sohasida tugaydi va shuning uchun turbinaning samaradorligini pasaytirish va kondensat paydo bo'lishi sababli uning pichoqlarini eroziya qilish muammosi bo'lmaydi. Ushbu ishchi suyuqliklarning aksariyati past erish nuqtasiga va ancha yuqori termal parchalanish haroratiga ega. Masalan, SR-25  $t_{pl} = -95^{\circ}\text{C}$ ,  $T_{t,r} = 753\text{K}$  organik ishchi suyuqlik uchun BTQ issiqlikni GTQ va sovutish tizimi issiqlik almashinuvchilaridan oladi. Shunday qilib, bug'-gaz qurilmasi sovutish tizimi energiya manbaiga aylanadi. Issiqlik almashtirgich-bug' generatorlari 8, 9 bug'lari bug' turbinasining yuqori bosimli 11-bosqichiga va past bosimli 12-bosqichiga beriladi, ulardagi kengayishdan keyin mos ravishda 14 va 15-regeneratorlarda soviydi. Shundan so'ng u kondensator injektoriga 13 beriladi. Kondensator injektorida olingan kondensatning bir qismi nasos 17 yordamida 15 va 14-regeneratorlar orqali sovutilib, issiqlik almashtirgich-bug' generatorlari 8, 9 ga qaytib beriladi. Kondensator injektorida olingan kondensatning boshqa qismi esa nasos 18 orqali sovutgich 16 da sovutiladi va kondensatsiya injektoriga 13 beriladi.





**2-rasm. Faol sovutish tizimining energiya manbai BTQ sxemasi:** 8,9 - issiqlik almashinuvchi-bug‘ generatorlari; 11,12 - bug‘ turbinasi bosqichlari; 13 - kondensat injektor; 14,15 - regeneratlar; 16 - sovutgich; 17,18 – nasoslar.

Energiya manbai sifatida faqat sovutish tizimli gaz turbinasidan foydalanilganda, gaz turbinali dvigatelning issiqlik samaradorligi quyidagilarga teng bo‘ladi:

$$\eta_{\Sigma}^{\text{rty}} = \frac{\ell + \ell_{\text{rty}}}{\ell + \ell_{\text{rty}} + q_2 + q_{\text{to}\Sigma}} = \eta \cdot \frac{(1 + \bar{\ell}_{\text{rty}})}{\left(1 + \frac{\eta}{\eta_a} \cdot \bar{\ell}\right)}$$


Bu yerda  $\ell$ ,  $\ell_{\text{rty}}$  - gaz turbinali dvigatelning o‘ziga xos foydali ishi va GTD (gaz turbinali dvigatel orqali havo oqimining miqdori nazarda tutilgan);  $q_2$  - GTQ siklidan chiqarilgan maxsus issiqlik;  $q_{\text{to}\Sigma} = (q_{\text{to}} + q_{\text{to}\text{co}})$  - GTQ va CO issiqlik almashinuvchilaridan chiqarilgan solishtirma issiqlik;  $\bar{\ell}_{\text{rty}} = \ell_{\text{rty}} / \ell$  - GTQning nisbiy ishi;  $\eta_a^{\text{rty}} = \ell_{\text{rty}} / (\ell_{\text{rty}} + q_{\text{to}\Sigma})$  - qo‘shimcha berilgan issiqlikni qo‘shimcha foydali ishga aylantirish koeffitsienti;  $\eta = \ell / (\ell + q_2)$  - ideallashtirilgan sovutish tizimi (ST) bilan GTDning issiqlik samaradorligi (uning ishlashi uchun issiqlik va mexanik energiyaning qo‘shimcha xarajatlari hisobga olinmaydi).

Agar bug‘-gaz qurilmasida sovutish tizimi energiya manbai sifatida ishlatilsa, gaz turbinali dvigatelning issiqlik samaradorligini quyidagi formula bo‘yicha topish mumkin:

$$\eta_{\Sigma}^{\text{pry}} = \frac{\ell + \ell_{\text{pry}}}{\ell + \ell_{\text{pry}} + q_2 + q_x} = \eta \cdot \frac{(1 + \bar{\ell}_{\text{pry}})}{\left(1 + \frac{\eta}{\eta_a} \cdot \bar{\ell}_{\text{pry}}\right)}$$

#### Adabyorlar:

1. M.To‘lqinov, M.Nabiyev., “Bug‘-gaz qurilmalari” fanidan maruzalar matni.
2. D.N.Muhiddinov, E.K.Matjanov., “Issiqlik elektr stansiyalarning turbinali qurilmalari” o‘quv qo‘llanma.
3. Circulating Water Cooling System Using a Turbo-Expander at Gas Thermal Power Plants Department of steam and Gas turbines, National Research university





ISSN (E): 2181-4570

“Moscow Power Engineering Institute”, 14 Krasnokazarmennaya Street, 111250, Moscow, Russia.

4. Normuminov J.A, Sulonov H.H, “Respublikadagi bug‘-gaz qurilmalarining sovitish sistemalarini energiya samaradorligini oshirish”, International Scientific-Practical Conference, 19-20 May Jizzakh-2023, page:125-129.



ISSN (E): 2181-4570

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Maraimova Dilnoza Askarovna

### Yangiyo‘l shahar 9-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada musiqa madaniyati darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikrlar berilgan. Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilari, oliy ta‘limda mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar, mustaqil izlanuvchilar uchun tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Musiqa madaniyati, pedagogik texnologiya, metod, uslub, o‘quvchi

*Musiqa odam ruhining yo‘ldoshidir.*

Shayx Sa‘diy

Madaniy hayotimizda musiqa katta ahamiyatga ega. Chunki musiqa orqali qalb nofasati tarbiyalanadi, ma‘naviy dunyoqarashi shakllanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz ona allasi orqali musiqa bilan tanishamiz unga mehr qo‘yamiz, zavqlanamiz. Musiqa bilan ulg‘ayamiz. 1-sinfga kelganimizda musiqa bilan fan sifatida tanishamiz. Musiqa madaniyati fani o‘qituvchisi o‘z darslarida o‘quvchilarning musiqa san‘atiga muhabbatini oshirish, badiiy ijodkorlikni shakllantirish, axloqiy-estetik jihatdan tarbiyalashdek vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababli pedagog o‘z kasbini sevishi, bolalarga mehribon, madaniyatli bo‘lmog‘i hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi lozim. Pedagogik texnologiya - bu ta‘lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ulaming o‘zaro ta‘sirini inobatga olib o‘qitish va bilim o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo‘llashning tizimli metodidir.<sup>1</sup> Dars musiqa tarbiyasi tizimida yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, musiqa darsida bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi.<sup>2</sup> Boshlang‘ich sinflarda musiqa madaniyati fani katta ahamiyatiga ega. Musiqa orqali go‘zallikni his qilish, ona Vatanga bo‘lgan muhabbatni qo‘shiq orqali ifoda etishni

<sup>1</sup> T.Ortiqov. Musiqa o‘qitish metodikasi.T.: Muharrir nashriyoti, 2011.

<sup>2</sup> G.Sharipova, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi/darslik/Toshkent-“NIF MSH” - 2020





o'rgatish mumkin. Ijodkorlik bilan tashkil etilgan darslarda birgina o'qituvchi mashg'ulotning ssenariysini muallifi, ijrochisi va rejissyori bo'la oladi. Nazariy va amaliy jihatdan ilmga ega bo'lgan o'qituvchigina darsda bilim beribgina qolamay cholg'uchi, xonanda, xor dirijyori vazifalarini ham bajara oladi. Musiqa madaniyati darslarida davlat ta'lim standartlari va dasturlari, darsliklar, metodik hamda o'quv qo'llanmalarni zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish ishlari doimiy amalga oshirilib kelinmoqda. Zero, musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'anana, madaniyatlarni hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir<sup>3</sup>. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu asosida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning pirovard bir butunligi vujudga keladi. Musiqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida ahamiyatga egadir. Dars jarayonida o'quvchilarga musiqa haqida beriladigan barcha bilim va tushunchalar musiqa savodi doirasiga kiradi. Unga musiqaning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni san'at sifatida hayotning aks ettirilishi, ifoda vositalari ya'ni tili, nutqi; janr turlari, tuzilishi, ijro uslublari, ijrochilari, cholg'u asboblari turlari va boshqalar kiradi.<sup>4</sup>


Musiqa savodini oshirish va darslarning samaradorligi fan o'qituvchisining bilimi, qobiliyati, tashabbuskorligiga bog'liq. Dars davomida qo'llaniladigan o'quv materiallar bolalarning bilimiga va tajribasiga mos kelishi kerak. Quyida biz turli darslik va qo'llanmalar orqali tanish bo'lgan bir necha metodlarni tavsiya qilamiz.

*Rolli o'yinlar* deganda musiqiy asar mavzusiga xos vaziyatni sahnalashtirish, rollarga bo'lib ijro etish tushuniladi. Misol uchun ertak qahramonlari ishtirok etgan musiqiy parcha tayyorlash mumkin. *Musiqiy diktantlar*. Musiqiy faoliyat turlari bo'yicha o'quvchi bilimini baholashning joriy nazorat shakllaridan biri. Yozilishi murakkab bo'lgan so'zlarni daftarga yozish orqali savodxonlikni oshirish mumkin. Misol uchun kompozitor, doyra, klavish, major, tovushqator, piano, forte, laparchi so'zlaridan foydalanish mumkin.

*"Moychechak"* metodidan o'zbek milliy cholg'ulari haqidagi bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Moychechak gulining har bir yaprog'i bilan

<sup>3</sup> B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik. – S.:SamDU nashriyoti, 2021

<sup>4</sup> T.Ortiqov. Musiqa o'qitish metodikasi.T.: Muharrir nashriyoti, 2011.





ISSN (E): 2181-4570


biror o‘zbek milliy cholg‘usi belgilanadi. Yaproqlardan birini tanlagan bola belgilangan xalq cholg‘usining nomi, uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.

Musiqa madaniyati darslarida ko‘rgazma sifatida texnik vositalar, multimedialar, ko‘rgazmali kartochkalar, rasmlar, nota yozuvlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun ta’lim jarayonida interaktiv metodlarga, innovatsion va axborot texnologiyalarga, multimedialarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ulardan dars jarayonida foydalanish fanga bo‘lgan qiziqishni ortishiga va ta’lim samaradorligiga sabab bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipova, Z.Xodjayeva. Musiqa o‘qitish metodikasi/darslik/Toshkent-“NIF MSH” - 2020
2. B.Boltayev, J.A.Xodjayev. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik. – S.:SamDU nashriyoti, 2021
3. T.Ortiqov. Musiqa o‘qitish metodikasi.T.: Muharrir nashriyoti, 2011.





ISSN (E): 2181-4570

*Uvaysiy ijodini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish metodikasi**Abdisalomova Hilola,**ToshDO'TAU 2- kurs magistranti**Annotatsiya*

Mamlakatimiz ta'lim tizimida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.

Key words: Ta'lim metodi, ish usullari, aqliy taraqqiyot, ifodali so'zlash


O'qituvchi o'quv jarayonini turli xil ta'lim usullari yordamida tashkil etadi. «Ta'lim metodi, bu – talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'stirish, ularda dunyoqarashni shakllantirish, o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish-o'qituvchi qo'llaydigan ish usullaridir». Usul amaliy mashg'ulotda o'z mohiyatiga mos usullar orqali qo'llanadi. «...ta'lim va tarbiya priyomlari ma'lum sharoitda o'z ta'sir doirasini kengaytiradi, ta'lim va tarbiyaga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaqtda biz ayrim priyomdan metod sifatida foydalanamiz yoki boshqacha aytganda, priyom metodga aylanadi».

Ta'lim jarayoni ikki tomonlamalik xarakterga ega: o'qituvchi o'qitadi, talaba o'qiydi. Tabiiyki, o'qituvchining ham, talabaning ham faoliyatida ma'lum maqsad bo'ladi. O'qituvchi faoliyatidagi asosiy maqsad-ta'lim berish, unda anglash ko'nikmasini hosil qilish, his etish madaniyatini, axloqiy tushunchalarni rivojlantirish, uni ma'naviy pok inson qilib voyaga etishtirishdir. Talaba faoliyatidagi asosiy maqsad-o'qituvchining topshirig'ini bajarish, o'quv jarayonida beriladigan bilimni o'zlashtirishdir.

Talaba o'qituvchining u yoki bu topshirig'ini bajarish jarayonida bilim doirasi kengayib, bilish faoliyati rivojlanayotganini sezadi, lekin o'qiyotgan fani usulini egallab borayotganini his etmaydi.

Shunga ko'ra, o'qituvchi ta'lim berish jarayonida talabalarda anglash faoliyatini hosil qilish, ularga adabiy materialni ongli va chuqur qabul qilish yo'llarini, mustaqil vazifalarni bajarishda bu yo'llardan foydalanishni o'rgatishi lozim.

Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab ko'p qirrali mazmunga ega bo'lganligi sababli, darsda talabalarning estetik, axloqiy va aqliy taraqqiyotiga, bilimlarni ongli,





chuqur va puxta egallashlariga, ularda bilish va anglash ko'nikmalarini o'stirishga yordam beradigan usul va uslublar qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi, ijodiy o'qish, evristik (izlanish), tadqiqot, reproduktiv metodlarini qo'llaydi.

Adabiyotni o'quv fani sifatida o'rganishning birinchi bosqichi-badiiy asarni o'zlashtirishdir. O'qituvchi-talabani badiiy asar orqali hayot bilan tanishtiradi, unda hayotni ko'rish va anglashga qiziqish hissini o'stiradi. Ko'rish va anglash asarni chuqur, ijodiy o'zlashtirishning zaruriy shartidir.

Talabaning shaxsiy ijodiy tajribasi, ijodiy o'qish metodi bu shartlarni amalga oshirishga katta yordam beradi. Badiiy asarni o'qish ilmiy va publitsistik asarlarni o'qishdan sifat jihatdan farq qiladi. Ijodiy o'qish so'zga, jumlagi, vaznga alohida e'tibor berishni talab qiladi. Metodist olimi M.Mirqosimova ko'rsatib o'tganiday: «Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi; o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi»<sup>1</sup>.

Talaba badiiy so'zni tinglashni, qadrlashni, undan zavqlanishni, ifodali so'zlash va yozishni bilishi kerak. Ijodiy o'qish talabalarda ana shu ko'nikmalarni o'stirishni ta'minlaydi.


Badiiy qabul qilish, estetik zavqlanish adabiyotni ilmiy asosda anglashda birinchi va muhim bosqich hisoblanadi. Chunki badiiy qabul qilish va estetik zavqlanish orqali asar obrazlari, til xususiyati o'zlashtiriladi. "Boshqotirma", "Keystadi", "Erkin yozish", "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi", "Tushunchalar asosida matn tuzish" kabi metodlardan foydalanish ham ulug' shoir asarlarini o'rganishda samarali natijalarga olib keladi.

**Muammoli o'qitish.** – Maqsadi - faol shaxsni tarbiyalash. Vazifasi - faol bilish jarayoniga undash, ijodiy fikrni rivojlantirish, tanqid va tahlil qilish, muammoni echish usulini izlashga o'rgatish, tafakkurida ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirish.

- Muammoli vaziyatni yaratish metodikasi:
- ❖ Talabalar muammoning echimini o'zlari topishga urinadilar;

---

<sup>1</sup> Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш асослари.- Тошкент, Фан, 2006, 18-бет.






- ❖ Talabalar bitta savolga har xil fikrlar bildiradilar;
- ❖ Fikrlar taqqoslanadi, umumlashadi va xulosa chiqariladi.
- Muammoli o‘qitishning shakllari:
- ❖ Ma’ruza (seminar)da o‘quv materialini muammoli bayon etish;
- ❖ Bitiruv ishlarini bajarishda mustaqil tadqiqot faoliyati. **“Klaster” – g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi** – Fikrlarning tarmoqlanishi -puxta o‘ylangan pedagogik strategiya bo‘lib, undan talabalar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi, talabalarning biron-bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘langan ketma-ketlikda o‘rgatadi. Darsda imkon boricha fikrlarning va o‘zaro bog‘liqlikning ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilinishi lozim; ( 1-ilova)

1-ilova

Uvaysiy lirikasini o‘qitish jarayonida klaster grafik organayzeridan foydalanish. Ushbu metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o‘ylangan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.
2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang.





3. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma’lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar kiproq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni







ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalari yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

Ushbu metod yordamida talabalar topshiriq yuzasidan fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida ifodalaydilar.

✓ **Aqliy hujum.** – Bevosita jamoa bo'lib, “fikrlar hujumi”ni olib borish. Bu uslubdan maqsad – mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir. Aqliy hujumni tashkil etishda quyidagi savol va topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-guruh

Shoira qaysi janrda ijod qilgan?

(taxminiy javoblar-g'azal, murabba, muxammas, musaddas, chiston va doston)

2-guruh: Uvaysiy she'rlarining nomlarini ayting

(kutilayotgan javoblar –“Uvaysiyman”, ”Dog` oldi, dog` o`ldi”, ”Sog`indim”)

3-guruh: Shoiraning “Sog`indim” g'azalida nima aks ettirilgan? (Farzand sog`inchi)

4-guruh: “Mumtoz adabiyotdagi she'riy topishmoq nima? (Chiston)

2-guruh: Chiston hajmi qancha bo`ladi? (Hajmi cheklanmagan)

1-guruh: “Uyimizning ziynati, ko`z ravshan” misrasi orqali nima aks ettirilgan?

(Kecha – yu kunduz o`g`lini nomini takrorlab, uni o`ylashi aks ettirilgan) 2-guruh:

Masuvo Uvaysiyman so`zining ma`nosi nima?

(Dunyodan uzilgan Uvaysiyman)

1-guruh:

Kavokib so`zining ma`nosi nima? (Yulduzlar)

2-guruh: Beriyoziat so`zining ma`nosi nima?

(Mashaqatsiz, azobsiz, qiynoqsiz)





Savol	Bugungi kunda Uvaysiy lirikasini o'rganish kerak deb hisoblaysizmi?
(F) Fikringizni bayon eting	Albatta, faqat o'quvchiga kerak, ham ta'limiy va ham tarbiyaviy ahamiyatga molik she'rlarini o'rganish kerak.
(S)Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	"Sog'indim" she'rida ona va farzand munosabatining go'zal namunasi aks etgan.
(M)Fikringizni dalillang	Bu kun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim, Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim. Musofirman, g'aribman, bekas-u ham benavodurman, Vujudim dardg'a to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.
(U) Fikringizni umumlashti-ring	She'rni tushunish uchun o'quvchidagi avvalgi bilimlarni ham faollashtirish lozim

Xulosa qilib aytganda, Uvaysiyning ijodini o'qitishda interfaol metod, xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalardan foydalanish talabalarning mavzularni o'zlashtirishida, unda qo'yilgan masalalar mohiyatini anglab olishida yaqindan yordam beradi. Talabalar muayyan mavzu bo'yicha atroflicha tushuncha, tasavvurga ega bo'lishi uchun ularga e'tibor qaratilayotgan masala xususidagi turlicha qarashlarni bayon etish, ayni muammoning zamonaviy talqinlari bilan tanishtirish ijobiy samara beradi. Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar berish, badiiy asar (she'r, hikoya va boshqa) va adabiyotshunoslik tadqiqoti (maqola, taqriz va boshqa) matnini tahlil qilish uchun tavsiya etish dars mashg'ulotidagi ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni chuqurroq o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uvaysiy <https://arboblar.uz/uz/people/uvajsi>
2. Jahon Otin Uvaysiy Hayoti va Ijodi  
<https://tafakkur.net/jahon-otin-uvaysiy.haqida>
3. Uvaysiy, uvaysiy g'azallari, uvaysiy chistonlari, uvaysiy hayoti va ijodi  
<https://bilimlar.uz/uvaysiy-1779-1845/>



## ПРОЕКТИРОВАНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ МЕДИЦИНСКОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ С ПРИМЕНЕНИЕМ ОБЛАЧНЫХ ВЫЧИСЛЕНИЙ.

Бектурдеив Санжарбек

Ташкентского государственного технического университета имени Ислама  
Каримова

[sanjarbeksharifboyevich@gmail.com](mailto:sanjarbeksharifboyevich@gmail.com)

**Аннотация:** Данная статья направлена на разработку и внедрение современной информационной системы для улучшения и оптимизации медицинской инфраструктуры на региональном уровне. В качестве основной технологической платформы проект предлагает использовать облачные вычисления. Различные аспекты здравоохранения, такие как управление информацией о пациентах, электронное здравоохранение, сети связи и безопасность данных, включены в процесс проектирования системы.

**Ключевые слова:** электронной медицинской карты (ЭМК), центр обработки данных (ЦОД), медицинская информационная система (МИС), лечебно-профилактические учреждения (ЛПУ), облачные вычисления

### 1. Введение

Широкое внедрение передовых технологий определяется требованием времени, и в этой связи в Узбекистане начались серьезные изменения. Масштабы внедрения цифровых технологий расширяются и в сфере здравоохранения. Информационные системы в здравоохранении проектируются и разрабатываются децентрализованно в условиях отсутствия единой методологии, а потому не позволяют рассматривать и анализировать деятельность системы здравоохранения в целом.

Несовершенство отечественной законодательной и нормативной базы является основным фактором, сдерживающим создание единого информационного пространства здравоохранения. На данный момент отсутствуют необходимые государственные стандарты, регламентирующие правила обмена информацией между системами.

Важным этапом развития комплекса информационных систем стало создание и развитие Единой интегрированной электронной медицинской карты пациента (ЭМК) для автоматизации процессов ввода, обработки, хранения и





использования совокупности персональных медицинских записей в рамках действующей системы сбора первичной информации в едином организационном, правовом, методологическом и информационном пространстве здраво-охранения республики. Источником данных для нее являются информационные системы медучреждений, которые поддерживают ведение электронной медицинской карты пациента и содержат персонифицированные демографические данные и сведения о здоровье гражданина, планах лечения, назначениях и результатах лечебных, диагностических, профилактических, реабилитационных, санитарно-гигиенических и других мероприятиях.

Преимущество ЭМК заключается в том, что в ней формируется вся информация по состоянию здоровья пациента с момента его рождения, сюда входят виды и даты полученных прививок, история посещения клиник и обращения к врачам, результаты анализов, диагнозы, назначенное лечение. Используемые на протяжении долгого времени анкеты пациентов уже не соответствуют требованиям времени и принятым во всем мире стандартам. Высокий уровень практичности делает электронную медкарту наиболее оптимальным способом ведения истории здоровья человека, так как вся информация на карте обрабатывается и хранится в электронном виде. Помимо прочего, это также упрощает процесс работы медиков.

Всемирной организации здравоохранения, а также опыте передовых стран, достигших больших успехов в реформировании системы здравоохранения показали, что достигнуты определённые успехи, к которым относятся:


1. Увеличение ожидаемой продолжительности жизни модель путем улучшения результатов профилактики и лечения заболеваний и состояний, служащих причиной большинства случаев преждевременной смертности и инвалидности.

2. Реформирование системы здравоохранения для обеспечения равного доступа к медицинской помощи населения.

3. Усиление потенциала органов управления здравоохранением.

В предлагаемой ротсиональной медицинской информационной системы.

Ядром единой по отраслям здравоохранения будет являться государственным центр обработки данных (ЦОД), включающий в себя основные транзакционные, управленческие и справочные системы. Основными





ISSN (E): 2181-4570

компонентами этой системы являются региональные прикладные системы, включающие в себя:

- медицинские информационные системы;
- системы выдачи и обслуживания льготных рецептов, а также рецептов на контролируемые лекарственные средства;
- системы удаленного мониторинга состояния здоровья пациентов;
- системы архивного хранения и предоставления доступа к медицинским изображениям.

Региональная медицинская информационная система (МИС) автоматизирует основные бизнес-процессы лечебно-профилактические учреждение (ЛПУ) и предоставляет следующие основные сервисы:


- вывод расписания специалистов;
- запись пациента на приём;
- создание записи в электронной медицинской карте пациента;
- направление пациента на обследование.

Одним из главных архитектурных решений при проектировании региональной МИС является выбор топологии данных. В работах [3, 4] изложен зарубежный опыт построения медицинских систем регионального и государственного уровня.

Исходя из этого опыта, выделяется три типа моделей данных:

- централизованная;
- распределенная;
- гибридная.

Основное преимущество централизованной модели данных – максимальная простота, полный набор информации из всех подсистем, простота поддержки,





ISSN (E): 2181-4570

Основной проблемой этого подхода являются высокие требования к производительности и масштабируемости для большого количества систем.

В распределенной модели заполненные данные сохраняются не в одном




Рис. 1. Гибридная модель данных.

центральном хранилище, а в распределенных подсистемах. Для получения полного набора информации необходимо собрать элементы из различных источников в единственную виртуальную запись. Такой подход является более экономичным с точки зрения производительности и экономии трафика, но более сложным и дорогим в реализации.





Гибридная модель (рис. 1) комбинирует оба подхода. В ней предусмотрено как центральное хранилище данных, так и возможность получения произвольных данных из нижестоящих узлов по запросу. Благодаря этому часто требуемые данные можно хранить централизованно, а объемные и детальные данные оставить в нижестоящих узлах и запрашивать при необходимости. В зависимости от выбранного объема централизованных и распределенных данных, данная модель может варьироваться от полностью централизованной модели до полностью распределенной. Гибридная модель данных а также более эффективная и рентабельная реализация требований безопасности и устойчивости системы по сравнению с распределенной моделью.

Сравнительный анализ названных моделей, данных приведен в таблице 1.

При этом учтены следующим основные требования к моделям:

1. Отказоустойчивость. Система не должна выходить из строя при отказе одного из ее узлов, либо время простоя должно быть минимизировано.

2. Скорость получения данных. Скорость сбора и получения информации не должна находиться в сильной зависимости от качества каналов передачи данных.


3. Минимизация затрат на инфраструктуру. К инфраструктуре (каналам передачи данных, аппаратном обеспечении серверов и компьютеров) не должны предъявляться завышенные требования, выполнение которых повлечет применение ресурсов, находящихся на пике современных технологий.

4. Масштабируемость. Система должна быть легко масштабируема при значительном изменении количества пользователей и контрагентов, с ней работающих.

5. Устойчивость к изменениям. При любых, даже значительных, изменениях методологических требований система должна иметь возможность подстраиваться под них без переделки архитектуры и топологии.

Таблица 1

Характеристика	Централизованная модель	Распределенная модель	Гибридная модель
Центральное хранилище	Да	Нет	Да







Запрос произвольных данных из нижестоящих узлов	Нет	Да	Да
Повышенные требования к инфраструктуре	Да	Нет	Нет
Масштабируемость	Низкая	Высокая	Высокая
Сложность модификации	Высокая	Высокая	Низкая

В результате анализа была выбрана гибридная модель данных, как сочетающая преимущества двух других подходов и удовлетворяющая всем требованиям, стоящим перед региональным сегментом ЕГИС.


## 2. Архитектура и используемые технологии

На рис. 2 представлена общая схема предлагаемого решения, заключающегося в создании единого регионального медицинского портала.

Рис. 2. Общая схема решения



Портал включает в себя набор необходимых и обозначенных в требованиях [5] веб-сервисов для обеспечения полного функционала регионального сегмента ЕГИС. Таким образом, при таком подходе весь цикл работы МИС проходит в режиме облачных вычислений.





Для крупных учреждений, которые уже имеют одну или несколько информационных систем, предлагается воспользоваться преимуществами гибридной модели. Данные, вводимые в локальную МИС, поступают в центральное хранилище. Если определенные данные являются специфическими и не рассчитаны на хранение в центральном хранилище, то они остаются на хранении в локальных ИС. В центральном хранилище имеется запись, что они находятся по определенному адресу и при необходимости получения этих данных система получает их по запросу.

На рис. 3 представлена общая трехуровневая архитектура системы, используемые инструменты и технологии.





Рис. 3. Архитектура системы.

Таким образом, при таком подходе с одной стороны реализуется полноценное центральное хранилище, с другой текущие информационные системы после доработки легко встраиваются в единое информационное пространство. В качестве средства экспорта данных из существующих систем





ISSN (E): 2181-4570

предлагается использовать продукт Microsoft BizTalk, предоставляющий возможность интеграции данных из различных источников, а также службы интеграции (Integration Services), входящие в СУБД Microsoft SQL Server [6].

В качестве базы для реализации концепции облачных вычислений выбран протокол SOAP (Simple Object Access Protocol). Согласно документу [7] американского федерального комитета по стандартизации в сфере здравоохранения Health Information Technology, протокол SOAP входит в список рекомендованных технологий для разработки медицинских информационных систем. В качестве инструментов для реализации сервисной архитектуры используются службы WCF (Windows Communication Foundation). Это программный продукт, входящий в состав Yii Framework и предоставляющий единую инфраструктуру разработки веб-сервисов.

### 3. Практическая реализация

В качестве примера практической реализации рассматривается разработанный модуль «Электронная регистратура», представляющий собой готовую систему, включающую в себя возможности просмотра расписания врачей и удаленной записи пациентов на приём к врачу.

Автоматизации процесса записи пациентов на приём к врачу является первым очевидным шагом в информатизации медицины. Данный шаг относительно прост в реализации и способен принести существенный рост эффективности медицинского учреждения, в частности, достоверное снижение очередей в ЛПУ [8].

В таблице 2 представлен пример сервисов, используемых в системе.

Таблица 2

Пример сервисов, входящих в модуль «Электронная регистратура»

Сервис	Имя операции	Параметры	Права доступа
Список врачей	GetDoctorList	ID ЛПУ	Анонимный пользователь
Добавить расписание	AddTimetable	ID ЛПУ, ID врача, расписание ЛПУ, ID врача,	Администратор ЛПУ





		рас-ID врача, рас-врача, расписание	
Записаться на приём	AddTimetable	ID ЛПУ, ID врача, ID пациента, дата и время	Авторизованный пользователь

### Заключение

Проведенный анализ существующих решений для реализации региональной МИС в части модели данных показал перспективность и универсальность подхода, заключающийся в применении гибридной модели данных. Общая архитектура решения, основанная на гибридной модели данных, позволяет интегрировать различные типы МИС и имеет возможность гибкой подстройки в соответствии с изменяющимися требованиями к системе. Рассмотренная практическая реализация модуля «Электронная регистратура» позволяет медицинскому учреждению в короткие сроки и с минимальными затратами провести автоматизацию процесса записи пациентов на приём, с возможностью гибкого обмена данными с другими системами, в том числе с региональным и государственным центрами обработки данных.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы оказания специализированной медицинской помощи в сфере здравоохранения" 28.07.2021 г. № ПП-5199
2. Knowledge Driven Health – Microsoft. Connected Health Framework Architecture and Design Blueprint. Part 3 // Microsoft Corporation. 2009. URL: [http://download.microsoft.com/documents/australia/health/Whitepaper\\_Connected\\_Health\\_Framework\\_03\\_Technical.pdf](http://download.microsoft.com/documents/australia/health/Whitepaper_Connected_Health_Framework_03_Technical.pdf) (дата обращения: 17.09.2011).
3. Фам Ван Тап, Пономарев А.А. Технологии Microsoft для решения задач интеграции данных здравоохранения // Молодежь и современные информационные технологии: сборник трудов VIII Всерос. научно-практ. конф. студентов, аспирантов и молодых ученых. – Томск, 2010. – Т. 2. – С. 114–115.





4. Summary of 2011 Privacy and Security Standards, Guidance and Certification Criteria Recommendations // Healthcare Information Technology Standards. 2011. URL:[http://publicaa.ansi.org/sites/apdl/hitspadmin/Matrices/HITSP\\_09\\_N\\_450\\_2011.pdf](http://publicaa.ansi.org/sites/apdl/hitspadmin/Matrices/HITSP_09_N_450_2011.pdf) (дата обращения: 21.09.2011).


5. Oliva L.F. Design and development of a REST-based Web service platform for applications integration: Master thesis. – Barcelona, Spain, 2010. – 124 p.

6. Гусев А.В. Обзор решений «Электронная регистратура» // Врач и информационные технологии. – 2010. – № 6. – С. 4–15

7. Авдеева Е.С., Денисов В.Т., Ильичева М.Н. Проблемы конвергенции науки и производства // Креативная экономика. – 2018. – Том 7. – № 4. – с. 36-41.

8. Бодров О.А. Предметно-ориентированные экономические информационные системы: Учебник для вузов / О.А. Бодров. – М.: Гор. линия-Телеком, 2017. – 244 с.

9. Автоматизированное проектирование медицинских технологических процессов/ Авторы: Карпов О.Э., Клейменова Е.Б., Назаренко Г.И., Силаева Н.А. 2016г. – 200 с.





ISSN (E): 2181-4570

**Toshkent moliya instituti**  
**“O‘zbek va rus tillari” kafedrasining**  
**“O‘zbek tili ” fanio‘qituvchisi**  
**Abduxalilova Rushana**  
**rushanaabduxalilova14@gmail.com**  
**Tel:+998938121117**

**“Hayrat ul-abror” dostonining shaxs kamolotidagi o‘rni va ahamiyati**


Annotatsiya. So‘z mulkinging sultoni Alisher Navoiy ijodi asrlar davomida insoniyat taraqqiyotining kamol topishida xizmat qilib kelmoqda. **Uning asarlari insoniyat kamolatida o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ushbu maqolada “Hayrat ul-abror” dostonining shaxs kamolotidagi o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.**

**Annotation.** The work of Alisher Navoi, the sultan of speech, has been serving the perfection of human development for centuries. His works have an incomparable place in the development of humanity. Therefore, this article discusses the role and importance of the epic “Hayrat ul-abror” in the development of a person.

Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror” dostoni, ma’naviy yetuklik, axloqiy fazilatlar, shaxs kamoloti, komil inson, tahlil, talqin.

Key words: “Hayrat ul-abror” epic, spiritual maturity, moral qualities, personality perfection, perfect person, analysis, interpretation.

Sharq adabiyoti qadimdan shaxs tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Komil inson axloqi, ma’naviy yetuklikka intilish masalasi badiiy adabiyotning asosiy muammosi hisoblangan. Jamiyatda atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo‘lib, o‘zining axloqiy sifatleri, fazilatleri bilan ezgulikka xizmat qiladigan shaxsni tarbiyalash vazifasi adabiyotning mohiyatida yotgan. Buyuk so‘z ustalari ana shu muammoni badiiy obrazlar, ramz va timsollar orqali ifoda etib, ularni so‘z san’ati zahirida berishga harakat qilganlar. Sharq adabiyotining boy an’analari, ijodiy yutuqlaridan bahramand bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zi ham turkiy adabiyotga badiiy barkamol asarlarni taqdim etdi. Sharqning buyuk donishmand adiblari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sa’diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy ijodida tarannum etilgan umumbashariy g‘oyalar targ‘ibini davom ettirdi. O‘zining shaxsiy xislatleri, ibratli umr yo‘li, faoliyati davomida o‘zi bajargan amallari bilan o‘rnak bo‘ldi. Nasr va nazmdagi asarlari zahiriga o‘zining o‘lmas g‘oyalarini singirdi. Ijodining mohiyatini hayot bilan





uzviy bog‘lab, shaxsni tarbiyalashni bosh maqsad qilib belgiladi. Badiiy so‘zning qudratini, jozibasini shaxs kamoloti, namunali axloqi tarbiyasiga yo‘naltirdi.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodi asrlar davomida insoniyat taraqqiyotining kamol topishida xizmat qilib kelmoqda. Adib ijodiy merosi, ilmiy-nasriy asarlari navoiyshunoslikda keng ko‘lamli tadqiq etib kelinmoqda. Navoiy umri davomida yozgan deyarli barcha asarlarida komil inson masalasi, insoniy fazilatlar, odob-axloq, ta‘lim-tarbiya, ezgulik targ‘ibi yetakchilik qilgan. Zero, adabiyotshunos olim N.Komilov ta‘kidlaganlaridek, “Navoiy asarlarida musulmon Sharqida tug‘ilgan ilg‘or g‘oyalar, islom va tasavvuf ta‘limoti jamuljam etilganki, bu asarlarning har biri abadulabad so‘nmas ma‘naviy xazina bo‘lib qoladi<sup>1</sup>”. Shu bois, asarlari zamiriga butun insoniyat tarbiyasi mavzusi singdirilgan Navoiy adabiy merosini o‘qitish, mazmun-mohiyatini tushuntirish, asarlarini tahlil qilishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy ijodini ta‘lim bosqichlarida o‘rgatish bo‘yicha o‘tgan yillar davomida katta tajriba to‘plangan. Adabiyotshunos R.Barakayevning fikricha, Alisher Navoiy ijodida yosh avlod ma‘naviy kamoloti va ma‘rifat masalalariga bag‘ishlangan asarlar katta o‘rin tutishi ma‘lum haqiqatdir. Ma‘lumki, professor Natan Mallayev o‘tgan asrning 50-yillarida o‘rta maktablar uchun 60-yillarning boshlarida oliy maktablar uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida maktab hamda oliy maktab dasturlari talabidan kelib chiqib, Navoiy “Xamsa”sini tahlil qilgan. Oliy maktablar uchun yozilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida “Hayrat ul-abror” dostoni tahliliga alohida e‘tibor berilgan. Professor Natan Mallayev doston tahlili, dostonning umumiy, ijtimoiy, falsafiy mohiyatini kengroq tushuntirish bilan birga uning ta‘limiy, tarbiyaviy jihatiga maxsus e‘tibor bergan. Jumladan, darslikda “Hayrat ul-abror”dagi axloq-odob, ta‘zim-tavozu’, do‘stlik, hayo, ijtimoiy adolat, ilm-ma‘rifatni qadrlashga doir hikoyatlarni ajratib tahlil qilgan, ularning ma‘rifiy, ta‘limiy, tarbiyaviy jihatini bo‘rttirib ko‘rsatishga intilgan. “So‘z san‘atining gultoji” risolasida ham “Hayrat ul-abror”ga bag‘ishlangan bo‘lim to‘la kiritilgan. Unda dostondagi hamd va na‘tlar darslikdagiga nisbatan ancha keng talqin etilgan, tahlil qilingan. Ayrim hikoyatlar tahlili ham yanada chuqurlashtirilgan. Mashhur navoiyshunos akademik Aziz Qayumov “Xamsa” dostonlarini o‘rganishga bag‘ishlab, bir qancha risola yozgan. Bu boradagi yirik tadqiqotlardan biri sifatida, shubhasiz, “Hayrat ul-abror” talqini kitobini

<sup>1</sup> Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 315.





ta'kidlash o'rinli. Ushbu risola o'ziga xos ilmiy, ommabop asardir. Zeroki, kitobda muallif "Hayrat ul-abror"ni yaxlit talqin etgan. Undagi hamd, na't, munojotlar to'liq sharhlangan. Doston boblarining tugal tabdilini keltirar ekan, muallif asardagi barcha lavhalarni kichik detallargacha kitobxonga sharhlab tushuntirishga intilgan. Natijada o'quvchi "Hayrat ul-abror" dostonining muqaddimasidan xotimasigacha bo'lgan barcha lavhalar bilan tanishadi. Hikoyatlarning syujetlarini uqib oladi. U "Xamsa"ning ilk dostoni yuzasidan yaratilgan barcha ishlar xususida so'z yuritar ekan, jumladan, shunday deydi: "Navoiy "Xamsa"sining birinchi kitobi "Hayrat ul-abror" to'g'risida anchagina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo ularning hammasi, umuman, Navoiy ijodiga yoki unda "Xamsa"ning tutgan o'rniga oid ishlarga tegishlidir. "Hayrat ul-abror"ning mazmuni, undagi fikr va g'oyalar, obraz va personajlar tahliliga maxsus bag'ishlangan tadqiqot yaratilgan emas"<sup>2</sup>. Ushbu silsilada M.O'.Saribayevaning<sup>3</sup> "Umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o'rgatish ("Xamsa" asari asosida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini qayd etish joiz. Oliy ta'limda Alisher Navoiy hayoti va ijodini, xususan, mutafakkir adibning pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiyaga oid o'gitnomalarini o'rganish o'ziga xos an'anaga ega.

Bilamizki, Navoiy ijodiyoti muxlislar tomonidan o'n beshinchi asrdan buyon o'rganib kelinadi. Bizning ushbu ishimiz olimlar ijodini, xususan, ularning bir asar haqidagi kuzatishlarini umumlashtirishga bo'lgan bir urinishlaridir.

Alisher Navoiyning barcha asarlarida yosh avlod tarbiyasi, ta'lim olish, tarbiya masalalari birinchi o'rinda turadi. Devonlari tarkibida berilgan hamd, na't g'azallarida ham diniy ma'lumot berish, Alloh taolo va Uning payg'ambari Muhammad (s.a.v.)ni madh etish, sifatlarini ta'rif etish asnosida ma'rifat ulashib ketadiki, ta'riflarning har biri insonga to'g'ri yo'lni anglab olishda ko'maklashadi. Ijtimoiy g'azallarida aynan axloqiy tarbiya masalalariga urg'u beriladi. Buyuk adibning "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub", "Arba'in" asarlari aynan tarbiya borasida muhim fikrlar bildirilgan noyob asarlardir. Ularda shoirning olam va odam haqidagi dunyoqarashi yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, "Mahbub ul-qulub"da til odobi haqida shunday deydi: "Tilga ixtiyorsiz - elga e'tiborsiz! Harzago'ykim, ko'y takallum surgay, itdekdurkim, kecha

<sup>2</sup> Qajumov A. "Хайрат ул-аброр" талқини. Асарлар. 1-жилд. 1-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008, 9-бет.

<sup>3</sup> Сарибайева М.У., Закбаров У. Умумтаълим мактабларининг 9-синфида "Хайрат ул-аброр" дostonини ўрганиш. // Тил ва адабиёт таълими.- Тошкент, -2005. -5-сон, -9-14- б.








tong otquncha hurgay. Yamon tillik andoqkim, el ko'ngliga jarohat yetkurur, o'z boshig'a ham ofat yetkurur. Nodoning muvahhish harzag'a bo'g'zin qirmog'i — eshakning jihatsiz qichqirmog'i. Xo'shgo'ykim, so'zni rifq va musovo bila aytg'ay, ko'ngulga yuz g'am keladurg'on bo'lsa, aning so'zidin qaytg'ay. So'zdadur har yaxshiligni imkoni bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor." (124)

Yaxshi so'z jon ozig'i, kishidan yaxshi so'z bilan orom yetadi, yomon so'z qalbni og'ritadi, Nodon odamlargina o'ylamay gapiradi, kishini kimligini bildiradigan ham so'z deya ta'rif beradi. Navoiyning bu fikrlari deyarli hikmatli so'zga aylanib ketgan. Yoki: "Nodon — eshak. Balki eshakdin ham kamrak. Eshakka har ne yuklasang ko'tarur va qayon sursang ul yon borur, aql va tamiz da'viysi yo'q. Bermasang ochdur, bersang to'q. Zabunedur borkash, xorkash, balki anborkash. Nodon bu sifatlardin mubarro, zoti bilik hulyasidin muarro. Ishi g'urur va takabbur, xayolida yuz fosid tasavvur", deydi. Ya'ni, aqli yo'q nodon kimsalar kim qayoqqa boshqarsa ketadi, o'z aqliga tayanmaydi, johilligidan haqiqatni ko'rmaydi. Bu fikrlarning har biri achchiq tanbeh sifatida odamlar axloqini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy ijodining asosiy negizini tashkil etuvchi masalalar inson axloqining barcha ko'rinishlarida mezonni belgilab olishga ko'maklashadi. Insoniyatni kamolotga yetaklovchi asosiy yo'l ilm olish ekanligini takror-takror aytadi. Axloqan pok, tarbiyali shaxsning yetishuvida yoshligida unga berilgan yaxshi ta'lim va tarbiya, deb hisoblaydi. Navoiy ijodida ustoz va shogird, ilm va olim, ta'lim va tarbiya masalasi yonma-yon qo'llanib, ijodining yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Ustozni insonlarga eng kerakli, zamon ahlining tarbiyasi, bilim olishiga javobgar shaxs sifatida talqin qiladi, unda bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar va majburiyatlarini qayta-qayta ta'kidlaydi. Navoiy asarlarida olim va ustoz ba'zida biri-birining o'rnida ham qo'llanadi, u ta'riflagan olimdan albatta ustozga xos tushunchalarni olish mumkin yoki aksincha, ustozda olimga xos xislatlarni ko'rish mumkin. Navoiy nazaridagi olim va ustoz o'zaro bog'liq. Ilm talab kishi astoydil tahsil olib, dunyoviy bilimlarni egallab, olim bo'lib yetishadi. Tabiiyki, u egallagan ilmni ezgu yo'lda sarflaydi, ustozlik qiladi, o'zining erishgan oliy darajadagi bilimi, aqli bilan boshqalarga o'rgatish, yo'naltirish huquqiga ega bo'ladi.

"Xamsa" dostonlari ham tugal shaxs tarbiyasiga qaratilgan. Insonni zohiriy va botiniy, ma'nau va ruhan poklash, halol-pokiza yashashga o'rgatish g'oyasi deyarli har bir doston mohiyatida yotadi. Jumladan, "Hayrat ul-abror", "Saddi Iskandariy",





“Farhod va Shirin”da ustoz-shogird masalasi yorqinroq bo‘yoqlarda aks etgan. Dostonlarni muqaddima, xotima va asosiy voqealar bayoni berilgan boblar bilan birgalikda yaxlit olinganda, Navoiyning ustoz, ilm, olimlar haqidagi fikrlari ifodasi shakli va maqsadiga ko‘ra ikki yo‘sinda ifodalangan. Birinchisi, dostonning muqaddima va xotima boblaridagi ustozlari - xamsanavis salaflariga bitilgan madhlar, ayniqsa ustoz Abdurahmon Jomiy ta’rifi buyuk shoirning shogird sifatida ularga bildirgan ehtiromi, tashakkurnomalaridir.

“Saddi Iskandariy”ning asosiy voqealar rivojida ham ustoz-shogird, ilm va olimlar mavzusi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Butun mazmun bevosita muqaddima va xotima boblardagi fikrlar bilan hamohang, yanada ishonarli va ta’sirchan – yoritilayotgan fikrlarning hayotiy va badiiy in’ikosi sifatida uzviy bog‘langan. Doston qahramoni Iskandar Farhod, Majnun singari yaxshi berilgan ta’lim-tarbiya natijasida kamolotga yetadi. Navoiy aqidasi, ustoz olimlikka yetishgan shaxs bo‘lishi lozim. “Xamsa” qahramonlari ham o‘z zamonining yetuk olimlaridan tahsil oladi. Ilmli, donishmand kishilar xalqning boyligi, ularni bu darajaga yetguncha qilgan riyozatlarini inobatga olib, har qancha ta’rifu tahsin qilsa arziydi. Biroq ular aqliy qobiliyatlarini o‘z shaxsiy manfaatlari yo‘lida qurbon qilmasliklari lozim. Zero, “kimsaga umr imkon erur”, u o‘ziga berilgan bu imkoniyatdan foydalanib, umr yo‘lini halol mehnat bilan bosib o‘tishi kerak. Albatta, bu hikmatli so‘zlar o‘z shogirdiga javob tariqasida aytilgan bo‘lsa-da, aslida Navoiyning butun insoniyatga qaratilgan xitobidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 315.
2. Қаюмов А. "Ҳайрат ул-аброр" талқини. Асарлар. 1-жилд. 1-китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008, 9-бет.
3. Саробаева М.У., Закбаров У. Умумтаълим мактабларининг 9-синфида "Ҳайрат ул-аброр" дostonини ўрганиш. // Тил ва адабиёт таълими.- Тошкент, - 2005. -5-сон, -9-14- б.
4. G‘afforov N. Alisher Navoiy "Xamsa"sida so‘fiylar timsoli. – Toshkent, 1999. 12-бет.





ISSN (E): 2181-4570

## ЎЗБЕК МАҚОЛЛАРИНИНГ СЕМАНТИК ЖИХАТЛАРИ ХУСУСИДА

**Раджабова Маржона Ахмадовна**

**Туркистон янги инновациялар университети доценти, ф.ф.ф.д. (PhD)**

**Садуллаева Зарнигор Алишер қизи**

**Туркистон янги инновациялар университети магистранти**


Аннотация. Ўтмишдан маълумки, инсоният пайдо бўлгандан бери салбий ва ижобий ҳолатларни образли ифодалаши орқали халқларнинг оғзаки нутқида мақоллар вужудга келган. Натижада инсонлар онгида турли хил образлар шаклланиб, бу бевосита мақолларнинг шаклланишида ҳам таъсир кўрсатган. Бу образлар халқнинг дунёқараши ва турмуш тарзидан дарак берувчи факторлардан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада ўзбек халқ мақоллари мазмунидаги айрим образлар ифода этган семантик жиҳатлар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: *мақол, семантик хусусият, образ, ифода, халқ оғзаки ижоди.*

Маълумки, ҳар бир тилда халқнинг турмуш тажрибалари асосида шаклланган ва донолигини ўз ифодасида мужасамлаштирган қисқа, насихат характеридаги мақоллар учраб туради. Мақоллар ўз семантикасида ҳар доим кўчма маънога эга бўлиб, рамзий бўёқдорлиги жиҳатидан бошқа тил birlikларидан ажралиб туради. Айниқса, мақоллар таркибида халқнинг донолиги ва дунёқараши асосида шаклланган образларнинг иштирок этиши шу тилда гаплашувчи инсонларнинг қадимий урф-одатлари ва ҳаётий тажрибалари билан боғлиқ бўлади.

Мақоллар ўзбек халқи оғзаки ижодининг маҳсули сифатида ҳозирги кунда олимлар ва тадқиқотчиларнинг диққат марказида бўлиб, улар таркибида образларнинг ўрганилиши тишунослик ва адабиётшунослик йўналишлари кесимидаги жараёндир.

Ўзбек халқ мақоллари Ҳ.Бердиёров, Р.Расулов, Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов каби олимлар томонидан атрофлича ўрганилган бўлиб, ҳозирги кунда олиб борилаётган тадқиқотларда мақоллар икки ва ундан ортиқ тиллар доирасида қиёсий томондан тадқиқ қилинмоқда. Албатта, бир тил фондидаги мақолларни ўрганиш, улар таркибидаги образлар ифодалаган ижобий ва салбий жиҳатларни аниқлаш тадқиқотчидан машаққатли меҳнатни талаб этади. Масалан, М.А.Раджабова ўз илмий изланишларида ўзбек мақолларининг





семантик таҳлилини амалга оширган. Олиб борган кузатишларимиз натижасида ўзбек тили мақоллари мазмунидаги айрим образлар қуйидаги маъноларни ифода этиши маълум бўлди:

1. Тинчлик, хотиржамлик маъносида: «Хивада моли борнинг Бухорода кўнгли тўқ» мақолида *«бой кишининг газнасида пули бўлса, ҳеч нарсани, эртанги кунини ўйламай, кўнгли тўқ, хотиржам юраверади»* деган мазмун бор.


2. Севги-садоқат, вафодорлик маъносида: ўзбек тилидаги «Лайлини кўриш учун Мажнуннинг кўзи керак», «Ишқда Тоҳир бўл, ишда моҳир бўл» («Тоҳир ва Зуҳра» номли халқ достони қаҳрамони Тоҳир чинакам севги, муҳаббат ва вафодорлик рамзи сифатида) каби мақолларда *«севги»* ва *«садоқат»* маънолари ифода этилган.

3. Орзу-истак маъносида: «Фил тушида Ҳиндистонни кўрар», «Сайёҳнинг орзуси – Довон ошмоқ» каби мақолларда «Ҳиндистон», «Довон» топонимлари *«орзу-истак»* маъноларини ифода этишга хизмат қилган.

4. Мақсад, интилиш маъносида: ўзбек тилида «Довон ошган чўққиларни кўзлайди» мақолидаги «Довон» қадимда Фарғона водийсида ташкил топган давлат номи бўлиб, мақолда шу жиҳатдан *«эришилган ютуқ билан кифояланиб қолмасдан, олга интилишда давом этиши керак»*, деган маъно ифода этилган. «Излаганга – Эзид ёр» мақолига синоним сифатида «Интилганга тоъле ёр» варианты ишлатилади. Қадимги аждодлармизнинг эътиқодий тушунчасига кўра, Эзид – яхшилик худосининг номини англатади. *«Изланган, ҳаракат қилган киши албатта муродига етади, унга Худо ёр бўлади»*, деган маъно яширинган ёки *«Қидириб – қидириб, Маккани топса бўлур»* мақолида ҳам *«агар мақсад астойдил бўлса, ҳаракат қилиб, интилиб узоқ марраларга эришиши мумкин»*, деган мазмун бор. Бу ўринда «Макка» топоними *«узоқ марра»*, *«мақсад»* маъносида қўлланилган.

5. Бойлик, мўл-кўлчилик маъносида: «Мирзаи азимда минг Хоруннинг хазиnasi-ю, туман Жамшиднинг давлати бор», «Савр кирди – экинларга давр кирди», «Савр ёмғири – сариқ олтин» мақолларида «Хорун», «Жамшид», «Савр ойи» каби бирликлар *«бойлик»*, *«мўл ҳосил»* маъноларини ифодалашга хизмат қилган.

6. Дўстлик маъносида: «Дўст тоғи – Қоф тоғи» (мифологик қарашларга





кўра, Қоф – оламнинг чегараси – Ҳиндистонда жойлашган); мақол таркибида қўлланилган «*дўстлик тоғи*» Қоф тоғига ташбеҳ қилинган.

7. Ҳазилкашлик маъносида: «Ҳазил, ҳазилни тушунмаган – кал Фозил» ибораси ҳазил, мутойиба тарзида ишлатилади.

8. Бахт, омад маъносида: «Давлат қуши қўнса чивин бошига, Семурғ келар кунда унинг қошига» мақоли «*бахт*», «*омад*» маъносида қўлланилади.

9. Донолик, ақл-заковат маъносида: «Сўзнинг Лукмон тилидан айтилгани – хўб» мақолидаги Лукмони ҳаким – Шарқ халқлари орасида тенги йўқ ҳаким ва донолик тимсоли ҳисобланган афсонавий шахс.

10. Адолат, одиллик, ҳақиқат маъноларида: «Даъвогаринг хон бўлса, арзингни Аллоҳ эшитсин» – мазкур мақол таркибида «Аллоҳ» номи «*адолатли*», «*одил*» маъносини ифодалаб келган.

11. Ватанпарварлик маъносида: «Бир қўйликни минг қўйлик қилган – «Арслондининг ери, минг қўйликни бир қўйлик қилган – Арслондининг ели», «Ҳар кимнинг ўз юрти – ўзига Миср», «Туркистоннинг туби – жаннат», «Тошкентнинг тариғини еган чумчуқ Маккадан келади», «Қаршининг арпасини еган эшак Самарқанддан ханграб келади» сингари мақолларда тилга олинган жой номлари орқали Ватанга муҳаббат маъноси ифода этилган.

12. Айёрлик, муғомбирлик, алдов, иккиюзламачилик маъноларида: «Сувдан кетгунча эчкига «Рустам дoston» дерлар» мақолига синоним сифатида «Сувдан ўтгунча ё Баҳовуддин, сувдан ўтгач, қоч Баҳовуддин», «Бўйин тузалгунча: Салом алайкум, ғоз ака, бўйин тузалгач, қоч нари тур, ғоз ака» кабилар қўлланилади. Кўчма маънода охириги икки мақолда қўлланган антропонимлар «*иши битгунча ҳожати бор одамга иззат-ҳурмат қилиб, атрофида парвона бўлиб юрувчи, иши битгандан кейин эса тесқари қараб кетувчи одамлар*»га нисбатан ишлатилган.

13. Сафсата, қуруқ ваъда маъноларида: «Ойни олиб бераман»га бола ишонар» мақоли «*сен бировнинг қуруқ ваъдасига ишонма, бундай гапларга эси кирмаган болалар ишонади*» мазмунида ишлатилади.

14. Қўрқитиш, азоб-укубат, шавқатсизлик маъносида: «Асфандиёр хон бўлди, оғзи – бурним қон бўлди», «Оллоҳ» дегунча уриб ўлдирмоқ» каби мақоллар мазмунида *шавқатсизлик, жабр-зулм* маънолари ифодаланган.

15. Очкўзлик ва хасислик маъносида: «Палов» деса – Пайшанбага чопади, «дўлма» деса – Душанбага» (Пайшанба, Душанба – Тожикистондаги шаҳарлар





номи), «Эшонбозорда ит ўлса, «йигирма»сидан куруқ қолмайди» ёки «Тўй, зиёфат, марака оши деса – «Хирот» боради» каби мақоллар текинтомоқ, очкўз, ебтўймас кишиларга нисбатан киноя тарзида ишлатилади. Хасислик маъносида ўзбек тилидаги «Бойлик десанг қоп-қоп, бир пул десанг Аштархондан топ» мақоли «*бойлиги кўп бўлишига қарамай, зарурат юзасидан сўралганда ўзини олиб қочади*» мазмунида қўлланилади.

16. Тентаклик, ахлоқлик маъноларида: «Бир ақлсизга ақл бергандан – Қоф тоғини эгов билан ун қилган осон» мақолида «*ахлоқ одамга гапириб, насиҳат берсанг ҳам бефойда*», дейилмоқчи ёки «Ахлоққа Тўйтепа нима йўл?», «Ахлоққа Қува – бир тош» мақолларида «*ахлоқ инсон Тўйтепа ёки Қувага ҳам нодонлиги туфайли пиёда бораверади*», деган маъно бор.

17. Жанжалкашлик, жиннилик маъносида: «Али жинни, Али жиннининг бари жинни» – «*жиннилик, жанжалкашликда бир-биридан қолишмайдиган ака-укалар*» ҳақида; «Алиёр овга чикди, кетидан ғавғо чикди» – «*жанжалакашлиги туфайли доим гавғо келтириб чиқарадиган инсон*» ҳақида.

18. Ишончсизлик маъносида: «Ишонмагин Алитозга, Алитоз кўяр ёзга» каби мақоллар киноя тарзида ишлатилади.

19. Кўнгилсизлик, хавф-хатар маъносида: «Кончи конига тушди, Азроил ёнига тушди» (кончиларнинг хатарли касби назарда тутилган), «Сафар оyi – хатар оyi» каби мақоллар мазмунида «*ҳар бир дақиқада содир бўлиши мумкин бўлган хавф-хатар*» маъноси ифодаланади.

20. Нодонлик, фаҳмсизлик маъноларида: «Мен Аштдан келсам, у даштдан келади» мақоли (варианти: «Мен боғдан келсам, у тоғдан келади», «Мен нима дейману, у нима дейди»)да «*бир одам бировга дардини айтиб маслаҳат олмоқчи бўлса-ю, тинглаб турган одам ўзини гўлликка солиб, бефаҳмдай тутишига*» ишора қилинган.

21. Адолатсизлик, ноҳақлик маъноларида: «Ишни қилар Машариф, муштни ейди Миршариф» мақол мазмунида ҳам ноҳақлик иллатига ишора мавжуд ёки «Ма санга, ма санга, нима қолди Ҳасанга» мақолига синоним сифатида «Ариқни кимлар қазийди, сувни кимлар ичади» варианты қўлланилади. Бунда исмнинг қўлланилиши шеърый қофияни таъминлашга қаратилган бўлса-да, мазмунидан адолатсизлик маъноси англашилади.





22. Ишёқмаслик, дангасалик маъносида: «Гап десанг қоп-қоп, пулни Олатоғдан топ» мақолининг «Гап десанг қоп-қоп, пулни Қоратоғдан топ», «Гап десанг қоп-қоп, пулни Самарқанддан топ», «Гап десанг қоп-қоп, пулни Кўҳи Қофдан топ», «Гап десанг қоп-қоп, пулни Ҳиротдан топ», «Гап десанг қоп-қоп, пулни Самарқанддан топ» сингари бир неча синонимлари мавжуд. Эътибор берилса, мақоллар таркибидаги Қоратоғ, Олатоғ, Кўҳи Қоф оронимлари, Самарқанд, Ҳирот сингари хоронимлар дангасалик, ишёқмаслик семасини ифода қилади. Шеърӣ тарзда яратилган ушбу мақолларда тилга олинган топонимлар узок масофани билдириб келган ва ишёқмаснинг важию, баҳонасини очиб беришга хизмат қилган.

Юқоридаги тасниф ва таҳлиллар асосида ўзбек тили мақолларининг семантик мазмунида ижобий ва салбий образларнинг номлар орқали ифода этилиши авваломбор, ўзбек халқининг оғзаки ижоди, кундалик ҳаётидаги яхши ва ёмон кунлар, тарихий ҳодисаларга бориб туташганлигини кўрсатади. Таъкидлаш керакки, бу семаларни, биринчи навбатда, мақоллар таркибида келган номлар орқали англаш мумкин. Қолаверса, муайян семанинг доминантлашуви шу тилда сўзлашувчи халқларнинг асрлар давомида шаклланган урф-одат, анъаналарига ҳам боғлиқдир.

#### **ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 237 б.
2. Radjabova M.A. Comparative study of phraseological units with naming features in non-related languages // Филология масалалари. – Тошкент, 2019. – № 1. – Б. 71-80.
3. Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик ва паремиологик бирликларнинг эквивалентлик тадқиқига доир // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2019. - № 8. – Б. 57-64.
4. Раджабова М.А. Дунё тилшунослигида ономастик компонентли фразеологик бирликлар бўйича илмий-назарий қарашлар ва муносабатлар // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2020. – № 2. – Б. 31-39.
5. Radjabova M.A. The classification of phraseological units with onomastic components // Scientific Reports of Bukhara State University (Бухоро давлат университети илмий ахбороти). – Бухоро, 2020. – № 6 (82), Б. 139-147.





6. Radjabova M.A. Semantic analysis of phraseological units with onomastic components // Scientific Reports of Bukhara State University (Бухоро давлат университети илмий ахбороти). – Бухоро, 2021. – № 2 (84), Б. 106-115.

7. Раджабова М.А. Классификация ономастических единиц во фразеологическом пласте узбекского языка // International scientific review LXI Международная научно-практическая конференция. «Международное научное обозрение проблем и перспектив современной науки и образования». – Франция, Париж, 2019. – № 1 (41). – С. 22-25. (Russian Impact Factor: 0.25)


8. Раджабова М.А. Отражение национально-культурных особенностей во фразеологических и паремиологических единицах русского языка с ономастическим компонентом // IX Международная заочная научно-практическая конференция «Современные инновации в эпоху глобализации: теория, методология, практика» – Москва, 2019. – № 4 (32). – С. 23-26.

9. Раджабова М.А. Ономастик таркибли фразеологизмларнинг таржимашуносликдаги ўрни // «Integration of Pragmalinguistics, functional Translation Studies and Teaching Progress» мавзусидаги Халқаро илмий-назарий анжуман. – Бухоро. – 2020. – Б. 351-355.

10. Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларни қардош бўлмаган тилларда берилишида юзага келадиган муаммолар ва уларнинг келиб чиқиш омиллари // «Чет тилларни ўқитиш методикасини такомиллаштиришда инновацион ғоялар ва янги методларни ривожлантириш» мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент, 2019. – Б. 253-256.

11. Раджабова М.А. Миллий хусусиятга эга фразеологик бирликлар таржимаси // «Адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари: адабий жараён, қиёсий адабиётшунослик, услубшунослик ва тилшунослик масалалари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Бухоро, 2019. – Б. 198-200.

12. Radjabova M.A. The translation problems of religious onomastic units in the phraseological layer of the language // Middle European Scientific Bulletin. – Czech Republic, 2021. – № 15.






13. Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг таржима муаммолари // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – Uzbekistan, 2022. – № 2 (2), P. 95-99.

14. Раджабова М.А. Ономастик бирликларнинг фразеологизмлар таркибидаги гендер хусусиятлари // Бухоро давлат университети илмий davlat universiteti Ilmiy axboroti. – Вухоро, 2022. – № 4 (92), В. 92-98.

15. Radjabova M.A. Qur’oni Karim dunyo olimlari nigohida // International Scientific Conference “Innovative Trends in Science, Practice and Education”. – Germany, 2022. – Vol.2, P. 178-181.

16. Radjabova M.A. The Etymology of religious toponyms // American Journal of Philological Sciences. – 2023. – Vol.3, Iss. 05, P. 5-9.

17. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – 448 б.





ISSN (E): 2181-4570

**Табий экологик муаммоларни физик тадқиқотлар усули ёрдамида ўрганиш.**

**Тураев Э. Ю. ф.-м. ф.д., профессор,**

**Исаева Г.Ш. ТерДУ магистри**

***Термиз Давла Университети, Термиз, Ўзбекистон***

**Аннотация.** Ушбу мақолада Орол ва Оролбўйи экологик муаммолари, шунингдек Ўзбекистоннинг жанубида юз берадиган “Авғон шамоли” экологик муаммоларини физик усуллар ёрдамида ўрганиш натижалари, уларнинг халқ хўжалигига таъсирини илмий асосланган натижалар билан ёритиб берилган.

**Таянч сўзлар:** Глобал, регионал ва маҳаллий экологик муаммолар, зарарли моддалар, оғир атомлар, миграция, салбий ҳолатлар.

**Аннотация.** В данной статье приведены данные полученные физическими методами при изучении экологических проблем Арала и При аралии, а также при экологические проблем «Авгон шамоли» на южных рубежах Узбекистана, се влияние на народную хозяйству освещены научно обоснованными результатами.

**Ключевые слова:** Глобальные, региональные, и местные экологические проблемы, вредные вещества, тяжелые атомы, миграция, отрицательная состояния.

Маълумки, халқ хўжалигининг рационал бўлмаган режалар асосида ривожланиши, табиий маҳсулотлардан чегарасиз фойдаланиш ва шу каби ноўрин ҳаракатлар оқибатида экологик муаммолар юзага келади ва уни бартараф қилиш жуда катта куч сарфлашга олиб келади.

XX асрнинг 60-70- йилларида Ўрта Осиё давлатлари ҳудудида ичимлик сувидан режасиз равишда фойдаланиш асосида Орол ва Оролбўйи экологик муаммоси дунёга келди. Амударё ва Сирдарёнинг сувларидан янги очилган ерларни суғоришга сарфлаш натижасида Орол денгизига бориб тушадиган сув миқдори кескин камайиб кетиши оқибатида Орол ва Оролбўйи экологик муаммоси юзага келди. Асрлар давомида Амударё ва Сирдарё хар йили Орол денгизига ~ 50 ÷ 55 километр куб сув етказиб бериши натижасида Орол денгизи хажми ўзгармасдан бир хил сақланган эди.

Ўрта Осиё давлатларида янги ерларни ўзлаштириш ва уларни сув билан таъминлаш натижасида Амударё ва Сирдарёдан Орол денгизига тушадиган ~ 50÷55 километр куб миқдоридаги сувнинг ~ 70÷80 фоизи янги ерларни





Ўзлаштиришга сарф қилиниб, Оролга йил давомида атиги ~ 8÷10 километр куб сув етиб бориши кузатилди. Орол денгизи хажми 80 фоизга камайиб кетши юз берди ва Орол денгизи ўзининг табиий сохилларидан 100 км масофага чекиниши кузатилди. Орол денгизи тубида 5 миллион гектардан кўпроқ майдон, шўрланган кум ва туз саҳросини ҳосил қилди. Бундай оғир экологик муаммони ўрганиш, унинг олдинин олиш ва муаммо натижларини бартараф қилиш учун деярли ҳеч қандай чоралар кўрилмади. Натижада ушбу кум-туз саҳросида ҳосил бўладиган, атмосферага учиб чиқган туз миқдори ортиб борди ва уларнинг таъсири минглаб километр узоқ масофаларда ҳам сезила бошлади. Ўзбекистон республикаси ҳукумати анча кеч бўлса ҳам бундай экологик муаммони ўрганиш, унинг кўпайишининг олдини олиш ва экологик захарланган ҳудудларни қайта ишлаш бўйича давлат стратегик режасини қабул қилди ва шу асосида 2017 йилдан маълум бир ишлар олиб борилмоқда. Тажрибаларнинг кўрсатишича Орол денгизи чекиниши натижасида 5.6 млн гектар ер қайта ишланмоқда. Бу жойларда ер ости сувларини чиқариш асосида кумларни учиришдан сақлайдиган ва чорвачилик учун ем-хашак буладиган экинлар ва шўрга чидамли бутали дарахтлар экилмоқда. Статистик маълумотларга қараганда Орол денгизининг қуриган тубида 2018-2022 йилларда кенг кўламли ишлар амалга оширилди, жумладан 1 миллион 732 минг гектар ернинг 73 минг гектарида саксовул уруғдан “яшил қоплама” барпо етилди. Тажрибаларнинг кўрсатишича ўрта ёшли бир туп саксовул ўз илдизи билан 1 тонна кумни ушлаб қолади. 2 йиллик саксаулзорда шамол тезлиги 20 фоиз, 6 йиллигида эса 80 фоизгача камайиши кузатилган. Албатта, экологик қийин шароитда ўрмон, жумладан “яшил қоплама” майдонининг кенгайиши чанг тўзон камайишига олиб келади. Бу эса оғир экологик шароитда яшаётган Орол бўйи аҳолиси саломатлигида муҳим аҳамиятга эга. Физик тадқиқот усуллари ёрдамида атмосферадаги туз миқдори, тупроқдаги туз миқдорининг оқар сувлар таъсирида камайишини тадқиқ қилиш асосида, шўрланган эр майдонлари учун артэзион қудуқлар қазиш ҳисобига чучук сувлар чиқариш ҳам экологик муаммоларга қарши курашнинг нисбатан кичик бўлса ҳам анча зарур усуллари деб ҳисобласа ҳам бўлади. Экологик муаммоларни ўрганиш ва уларни бартараф қилишнинг бошқа эффектив усуллари ҳам мавжуддир. Инсон омили таъсирида атмосферани, сув ва тупроқни саноат ва қишлоқ хўжалиги чиқиндилари билан ифлослантириш, шунингдек хар хил





табийй атмосфера ходисалари натижасидаги ифлосланишлар қишлоқ хўжалиги ва чорвачиликнинг хасилдорлигининг камайишига олиб келади.

Сурхндарё вилояти Ўзбекистон Республикасининг энг жанубида жойлашган бўлиб, унда юз берадиган табийй экологик муаммо – “Авғон шамоли” деб аталадиган чанг бўрони хар ойда 3-4 марта юз беради ва халқ хўжалигига жуда катта зиён беради [1].

Ушбу муаммони ўрганишда физик тадқиқот усулларидан фойдаланиб, атмосфера таркибини нейтрон – активацион тахлил усули ёрдамида экологик муаммо юз берган вақтда ва ушбу экологик муаммо юз бермаган ҳолатдаги атмосфера таркиби миқдор жихатдан ўрганиш ва ўзаро таққослаш асосида маълум бир натижаларга эришилди [2].

Бунинг учун эса атмосфера хавосининг маълум миқдори филтрлар орқали ўтказилади ва филтрда ушлаб қолинган моддалар реакторда нейтронлар оқими ёрдамида нурлантирилиб, қуйидаги тартибда моддалар миқдори аниқланади:

$$C = \frac{J_1 \cdot M_1}{J_2 \cdot M_2}$$

Бу ерда  $J_1$  – ўрганилаётган элемент импульси,  $J_2$  – эталон элемент импульси,  $M_1$  – ўрганилаётган элемент массаси,  $M_2$  – эталон элементи массаси.

1-жадвалда ушбу физик тадқиқот усули ёрдамида “Авғон шамоли” экологик ходисаси юз берган ва бермаган вақтдаги баъзи элементларнинг миқдор ўзгариши келтирилган. Тажирибалар асосида олинган натижаларнинг кўрсатишича “Авғон шамоли” вақтида атмосферада La, Na, Au, Sm, Hg, Cs, Zn, Co, элементларининг миқдори ўртача 2-3 баробар ошиб кетиши аниқланди. Шунингдек “Авғон шамоли” вақтида Cs ва Ft элементлари миқдори 8-10 баробар ошиб кетиши тажирибаларда аниқланди.

**1-жадвал. “Авғон шамоли” экологик ходисаси юз берган ва бермаган вақтдаги баъзи элементларнинг миқдор ўзгариши**





	Элементлар	“Авғон шамоли” чанг бўрони бўлмаган вақтда атмосферадаги элементлар миқдори	“Авғон шамоли” чанг бўрони бўлган вақтидаги атмосферадаги элементлар миқдори
	Sm	$10.28 \cdot 10^{-6}$	$45.05 \cdot 10^{-6}$
	Au	$8.33 \cdot 10^{-6}$	$27.48 \cdot 10^{-6}$
	Na	$3.2 \cdot 10^{-2}$	$16.16 \cdot 10^{-2}$
	La	$11.98 \cdot 10^{-5}$	$30.73 \cdot 10^{-5}$
	Hg	$16.49 \cdot 10^{-4}$	$33.08 \cdot 10^{-4}$
	Cs	$0.37 \cdot 10^{-4}$	$0.65 \cdot 10^{-4}$
	Zn	$5.5 \cdot 10^{-3}$	$19.6 \cdot 10^{-3}$
0	Co	$0.63 \cdot 10^{-4}$	$2.89 \cdot 10^{-4}$
	Sc	$0.93 \cdot 10^{-5}$	$16.02 \cdot 10^{-5}$
1	Fe	$5.01 \cdot 10^{-2}$	$64.17 \cdot 10^{-2}$
	Ce	-	$10.57 \cdot 10^{-4}$
2	Cr	-	$4.56 \cdot 10^{-3}$
	Br	$1.54 \cdot 10^{-4}$	
3	I	$1.09 \cdot 10^{-4}$	
4			

“Авғон шамоли” чанг бўрони юз бериши билан атмосфера хавоси таркибида Се ва Сг элементлари пайдо бўлиши кузатилади. Шунингдек яна битта кутулмаган натижа аниқланди. “Авғон шамоли” чанг бўрони бошлангандан сўнг атмосфера таркибида Вг ва I элементлари миқдори нолга тен бўлиб қолади, яъни атмосфера таркибида Вг ва I элементлари бутунлай йўқолади. Ушбу Вг ва I элементлари инсон организми учун тинчлантирувчи элемент эканлигини ҳисобга олсак “Авғон шамоли” чанг бўрони вақтида инсонлардаги жуда кўплаб касалликлар қайта хуруж қилиши бизни ўтказган тажрибаларимизнинг тўғри эканлигини тасдиқлайди.



**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Тураев Э.Ю., Ниёзова О.А. “Ўзбекистон Республикасининг шимолий регионларидаги сунъий юзага келувчи экологик муаммоларнинг халқ хўжалигига таъсири” Бухоро давлат университети илмий ахбороти журнали, 2020 й, №3, 39-42 бетлар.

2. To'rayev E.Yu. “O'rta Osiyoning janubiy regionlarida atmosfera tarkibini neytron – aktivasion taxlil qilish natijalari” INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2021, 127-132



ISSN (E): 2181-4570

**Описание и режимные параметры технологических процессов  
обогащательная фабрика в Хандиза**

**Носиров Нурзод Ихтиёрович**

**р.н.д. кафедры «Горное дело» Алмалыкского филиала Ташкентского  
государственного технического университета имени Ислама Каримова**

**Аширматов Ирода Мамасаид кизи**

**студентка группы 3ф-20 Алмалыкского филиала Ташкентского  
государственного технического университета имени Ислама Каримова**

**Ёрматов Озодбек Шермухаммад угли**

**студент группы 3ф-20 Алмалыкского филиала Ташкентского  
государственного технического университета имени Ислама Каримова**

**Сулхонов Диёрбек Ахрор угли**


**студент группы 3ф-20 Алмалыкского филиала Ташкентского  
государственного технического университета имени Ислама Каримова**

**Аннотация:** «Алмалыкский ГМК» – «ГОК Хандиза» совместная обработка полиметаллических руд месторождений Хандиза и Уч-Кулач. Обогащательная фабрика по переработке полиметаллических руд, производительностью 650 тысяч тонн руды в год, на базе месторождения «Хандиза». Основные технические решения, пояснительная записка, Санкт-Петербург 02.2008 г. Поступившая на ООФ руда была неоднородной по содержанию Cu, Pb, Zn с неравномерной вкрапленностью минералов, (для 2-й пробы с тонким взаимопрорастанием) и с различными типами вмещающих пород. Это вызвало определенные трудности ведения процесса флотации.

**Ключевые слова:** Бункер, корпус обогащения, реагент, *сгуститель*, дробление и измельчение руды, флотация руды, хвост.

Основными сооружениями являются:

1. Участок дробления (щековая дробилка PE 1200x1500) с приемным бункером на открытом воздухе.
2. Приёмный бункер (участок дробления). Перегрузочный узел.
3. Корпус обогащения (главный корпус).
4. Корпус приготовления реагентов.





ISSN (E): 2181-4570

5. Сооружения водоснабжения.
6. Сгустители.
7. Административно-бытовой корпус со столовой.

#### *Дробильный участок*

Участок оснащен щековой дробилкой PE 1500x1200 с площадкой для подъезда и выгрузки автосамосвалов с рудой.

#### *Приёмный бункер*

Бункер - сооружение с размером 39 x 9 m (в осях). Высота 12 m. С трёх сторон обваловывается грунтом для подхода и выгрузки автосамосвалов с рудой.

*Корпус обогащения* Корпус обогащения – одноэтажное каркасное здание размером в плане 78 x 9 m (в осях) с 6-ти этажной пристройкой для административно-бытовых и лабораторных помещений размером 79 x 9 m (в осях). Фундаменты под мельницы и другое оборудование решены в монолитном железобетоне. *Корпус приготовления реагентов* Корпус представляет собой одноэтажное каркасное здание 66 и 21 m (в осях), с перепадом отметок пола 1-го этажа, высоты до низа несущих конструкций 7,7 m с пролётом L = 9 m и 18,4 m с пролётом L = 12 m. Здание оборудовано подвесными кранами. Несущие и ограждающие конструкции приняты по аналогии с корпусом обогащения. *Сгустители* Под сгустители диаметром 15 m – 7 шт, как не стандартное оборудование – проектируются постаменты в монолитном ж/бетоне.

#### **Дробление и измельчение руды**

Руда с рудника «Хандиза» номинальной крупности – 1000 mm доставляется на промплощадку фабрики автотранспортом и разгружается в загрузочную пасть щековой дробилки. Производительность дробилки составляет 400-900 t/h. Из дробилки руда крупностью -200 mm поступает на промплощадку. Далее руда погрузчиком транспортируется в приёмный бункер. Для разгрузки бункеров предусмотрены два пластинчатых питателя № 102 (с шириной полотна 1200 mm), работающие попеременно. С питателей руда перегружается на конвейер № 103, а затем на наклонный конвейер № 201 с шириной полотна 1000 mm, транспортирующий руду в корпус обогащения непосредственно в загрузку








мельницы I стадии. Заданная производительность поддерживается плавным регулированием скорости – подбункерным питателем по показаниям конвейерных весов. Часовая производительность фабрики составляет 82,07 t/h. Требуемый помол -76 ( $\pm 2$ ) % класса -0,071mm достигается в три стадии. Для I стадии используется мельница полусамозмельчения,  $N_{дв}=1000$  kW. Продукт самоизмельчения на выходе из барабана посредством грохочения на бутаре, сопряженной с мельницей, разделяется на два класса. Надбутарный продукт крупностью +6mm конвейером № 104 возвращаются в питание мельницы. Объем циркуляции надрешетного продукта - не более 10 % от часовой производительности. Подбутарный продукт -6 +0 mm поступает в спиральный классификатор (в ванну классификатора подается сернистый натрий ( $Na_2S$ ) и цинковый купорос ( $ZnSO_4$ )), слив классификатора поступает в зумпф насоса №210 (ГрАК -350/40) питания гидроциклона ГЦ 700, туда же поступает разгрузка мельницы II стадии измельчения. Пески классификатора самотеком поступают на II стадию измельчения (на вторую стадию измельчения подается гидросульфит натрия). Для II стадии выбрана шаровая мельница МШЦ 3,2x3,1 объемом  $22m^3$ , работающая в замкнутом цикле с двумя гидроциклонами типа ГЦР-700. Слив гидроциклонов крупностью  $55 \pm 2\%$  класса -0,071mm самотеком поступает на межцикловую флотацию. Хвосты межциклоной направляются в зумпф насоса №214 (ГрАК 350/40), на III стадию измельчения. В зумпф насоса также поступают хвосты свинцового цикла флотации. Для III стадии предусмотрена шаровая мельница (однотипная с мельницей II стадии МШЦ 3,2x3,1) объемом  $22m^3$ . Классификация хвостов межциклоной флотации, хвостов свинцовой флотации и разгрузки мельницы III стадии проводится в батарее из четырех гидроциклонов ГЦР-500, слив которых самотеком поступает на основную медно-свинцовую коллективную флотацию.

В цикле коллективной флотации предусмотрена операция доизмельчения черногового медно-свинцового концентрата. На доизмельчение направляются пенные продукты межциклоной и основной медно-свинцовой флотации (в зумпф насоса №223- ГрАК 170/40). Для доизмельчения принята шаровая мельница МШЦ 2,7x3,6  $V=17,5m^3$ , работающая в замкнутом цикле с двумя гидроциклонами ГЦР-360. В мельницу доизмельчения черногового коллективного





ISSN (E): 2181-4570

медно-свинцового концентрата подается цинковый купорос ( $ZnSO_4$ ). Слив ГЦР-360 самотеком направляется в первую медно-свинцовую перемычку.

### Режим загрузки мельниц шарами

Удельная норма расхода шаров по обогатительной фабрике 2500g/t, в т.ч.:

1. - Ø 120 mm – 900г/т;
2. - Ø 68 mm – 1200г/т;
3. - Ø 40 mm – 400г/т;

Догрузка мельниц шарами осуществляется:

1. I стадия – Ø 120 mm;
2. II стадия – Ø 68 mm;
3. III стадия – Ø 68 mm;
4. Доизмельчение концентрата – Ø 40 mm.

Первоначально мельницы загружаются, и затем догружаются шарами до величины 150 mm от уровня шаров в мельнице до центра барабана.

Текущий оперативный контроль загрузки шаров осуществляется по потребляемой мощности электродвигателей мельницы, показатель датчика мощности при нормальном уровне шаровой загрузки (ориентировочно):

1. Для мельницы I ст. МПСИ 50x34 - 1,2 kW;
2. Для мельницы II ст. МШЦ 3,2x3,1 - 1 kW;
3. Для мельницы III ст. МШЦ 3,2x3,1 - 0,8 kW;
4. Для мельницы МШЦ 2,7x3,6 = 0,4 kW.

Текущая загрузка мельниц I, II, III стадий и доизмельчения концентрата осуществляется 1 раз в сутки: Мельница МПСИ – 1,0 t/d; Мельница II ст. МШЦ – 3,2x3,1 – 8,82 t/d


**Флотация руды** Флотационное отделение представлено одной секцией. Флотация руды производится по коллективно-селективной схеме обогащения. Коллективная медно-свинцовая флотация руды проводится в пневмомеханических флотомашинах ФПМ-16УМ с геометрическим объемом





**Annotatsiya:** Biz kundalik hayotda ishlatadigan energiyaning deyarli 100 % i bu yoki boshqa tarzda o'zgartirilgan quyosh energiyasidir. Ko'mir - bu fotosintez orqali yashagan o'lik o'simliklar. Hatto o'tin yoqsangiz ham, siz o'tin yutgan quyosh energiyasini berasiz. Aslida, har qanday issiqlik elektr stantsiyasi ko'mir, neft, gaz va boshqa qazilmalar shaklida saqlanadigan quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi.

**Kalit so'zlar:** Quyosh, energiya, kremniy, qayta tiklanuvchi energiya germaniy, yarimo'tkazgich.

Quyosh batareyasi - yarimo'tkazgichli fotoelementlarga asoslangan tok manbai; quyosh radiatsiyasi energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantiradi. Quyosh batareyasi Elementlarining ishlashi ichki fotoeffekt hodisasiga asoslangan. Dastlabki quyosh elementini 1953-1954 yillarda AQSH olimlari G.Pirson, K.Fuller va D.Chapinlar ishlab chiqishgan.


Quyosh batareyasining quvvati yarimo'tkazgich materialiga, quyosh elementining konstruktiv xususiyatiga va batareyadagi elementlar soniga bog'liq. Quyosh elementlari tayyorlashda kremniy Si, galliy Ga, mishyak As, kadmiy Cd, oltingugurt S, surma Sb asosidagi materiallardan foydalaniladi. Quyosh batareyasi odatda usti yaltiroq qoplamali yassi panel ko'rinishidagi quyosh elementlaridan tayyorlanadi. Batareyadagi quyosh elementlari soni bir necha ming donagacha, panelining sathi o'nlab m<sup>2</sup>, tok kuchi yuzlab amper, kuchlanishi o'nlab Volt, generator quvvati bir necha o'n kVt gacha boradi. Biz kundalik hayotda ishlatadigan energiyaning deyarli 100 % bu yoki boshqa tarzda o'zgartirilgan quyosh energiyasidir. Ko'mir-bu fotosintez orqali yashagan o'lik o'simliklar. Hatto o'tin yoqsangiz ham, siz o'tin yutgan quyosh energiyasini berasiz. Aslida, har qanday issiqlik elektr stantsiyasi ko'mir, neft, gaz va boshqa qazilmalar shaklida saqlanadigan quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantiradi. Quyosh batareyasi buni to'g'ridanto'g'ri vositachilar ishtirokisiz amalga oshiradi. Elektr energiyasi - bu quyosh energiyasidan foydalanishning eng qulay shakli. Quyosh panellari kichkina hujayralardan -





kremniydan tayyorlangan quyosh batareyalaridan iborat. Quyosh paneli bir nechta fotosellardan iborat. Kremniy yerdagi eng keng tarqalgan yarimo'tkazgichdir (butun yer qobig'ining taxminan 30%). Har bir kremniy atomi to'rtta elektroni orqali qo'shni atomlar bilan bog'lagan Ular elektronlarni ushlab turadi, shuning uchun oqim bu kabi oqishi mumkin emas. Uyali telefonni zaryad qilish uchun siz ushbu plitalardan 12 tani birlashtirishingiz kerak. Uyni kuchaytirish uchun siz ko'proq plitalar va panellarni sarflashingiz kerak. Elektronlar quyosh batareyalaridagi yagona harakatlanuvchi qism bo'lganligi sababli, quyosh panellari parvarish qilinishga muhtoj emas va ular 20-25 yil davomida eskirmaydi va buzilmaydi. Sayyora yuzasida quyosh energiyasining notekis taqsimlanishi. Ba'zi joylar boshqalariga qaraganda quyoshli va bu ham beqaror. Quyosh energiyasi bulutli kunlarda kamroq bo'ladi va kechasi umuman bo'lmaydi. Va quyosh energiyasidan to'liq foydalanish uchun barcha sohalar uchun elektr energiyasini ishlab chiqarishning samarali usullari zarur. Samaradorlik. Laboratoriya sharoitida 46% natijaga erishildi. Ammo tijorat tizimlari hatto 25% samaradorlikka erisha olmaydi. Saqlash quyosh energiyasidagi eng zaif aloqa bu elektr energiyasini tejashning samarali va arzon usulining yo'qligidir. Mavjud batareyalar og'ir va allaqachon zaif quyosh tizimining samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Umuman olganda, 10 tonna ko'mirni saqlash bir xil ko'mir yoki quyosh tomonidan ishlab chiqarilgan 46 megavattga qaraganda osonroq va qulayroqdir. Infratuzilma Megagohlarni boqish uchun - ushbu shaharlarning tom yopish joylari barcha ehtiyojlarni qondira olmaydi, shuning uchun quyosh energiyasini joriy qilish uchun energiyani tashish kerak va buning uchun yangi energiya inshootlarini qurish zarur.

p-n birikmasi yorug'likni elektr energiyasiga aylantirishi sir emas. tajriba ko'pincha p-n nur tushishiga imkon beradigan, o'ralgan qopqoqli tranzistor yordamida o'tkaziladi. Unga voltmetrni ulab, yorug'lik bilan nurlanganda bunday tranzistor kichkina elektr tokini qanday chiqarishini aniqlay olasiz va agar siz p-n birikmasining maydonini oshirsangiz, bu holda nima bo'ladi? o'tgan yillardagi ilmiy tajribalar jarayonida mutaxassislar katta maydon plitalari bilan p-n birikmasini qildilar va shu bilan quyosh panellari deb nomlangan fotovoltaik konvertorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. n-tip yoki ortiqcha elektronlar (fosfor) bilan qoplangan; p-tip yoki "teshiklar" deb ataladigan elektron yetishmasligi bilan qoplama; Quyosh nurlari fotonlari qoplamaning urganda n-tip bo'sh elektronlar zonaga o'tishni boshlaydilar p-tip deb





ISSN (E): 2181-4570

atalmish elektr energiyasini ishlab chiqarish p-n birikmasi. Quyosh nurlari tushadigan tomoni muhim ahamiyatga ega. kremniy kristallanadi, chunki o'zi yarimo'tkazgichdir. Yagona kristallar ancha osonlashtiriladi, ammo ularning yuzlari ko'p emas, shuning uchun elektronlar to'g'ri chiziqda harakatlana oladilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaynobiddinov S Teshaboyev A Yarimo'tkazgichlar fizikasi o'quv qo'llanma Toshkent.O'qituvchi 1999 y
2. Akramov X Zaynobiddinov S Teshaboyev A Yarimo'tkazgichlarda fotoelektrik hodisalar o'quv qo'llanma Toshkent.O'zbekiston 1994 y
3. Oreshkin P.T. Yarimo'tkazgichlar va dielektriklar fizikasi. Qo'llanma. Moskva. Oliy maktab, 1977 yil.
4. Pedrotti F.L and Pedrotti S.L.Introduction to optics.Pearson Prentice Hall 1993





ISSN (E): 2181-4570

## ***JAHON ENERGETIKASI RIVOJIDA QUYOSH ELEKTROSTANSIYASINING O'RNI***

***Xo'jaqulov Azizjon- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi***

***Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo- Navoiy davlat pedagogika instituti  
dotsenti***

*Kalit so'zlar: QES; Muqobil energiya manbalari; Quyoshkollektorlari; Yassi quyosh kollektorlari; Vakumli quyosh kollektorlari; Konsentratordi quyosh kollektorlari; Absorber; Bikonveks obyektiv*

Quyosh elektr stansiyalari (QES)- quyoshdan kelayotgan issiqlik va yorug'lik energiyasini elektr energiyaga aylantirib beruvchi qurilmalarga aytiladi.

Bilamizki, elektr energiya bir turdan ikkinchi turga aylanishi eng oson bo'lgan energiya hisoblanadi. Nafaqat bir turdan ikkinchi turga osongina aylanadi, balkim insoniyat bilak kuchi bilan qila olmaydigan og'ir darajadagi vazifalarni osongina bajarishga ko'maklashadi. Ayni paytga kelib elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj ortishi natijasida insoniyat muqobil energiya manbalariga bog'lanib bormoqda. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun aynan arzon, sifatli, kamxarj energiya manbayi zarur. Tiklanmaydigan resurslarning tanqisligi va narx jihatdan qimmatligi sababli, ko'pgina davlatlar yangilanadigan resurslar orqali o'zlarining energiya iste'molini ta'minlashga harakat qilishmoqda. Shu boisdan quyosh energiyasini rivojlantirish ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Yer atmosferasiga yiliga quyoshdan 120 000 TW (terawatt,  $10^{12}$  w) energiya kelib tushadi. To'g'ri, bu energiyaning hammasini ham o'zlashtirish mumkin emas, lekin uning 0,002% i ham jahonning energiyaga bo'lgan ehtiyojini butunlay qoplashga yetadi. Quyosh energiyasidan foydalanish davlatlar uchun ko'p jihatdan foydalidir. Birinchidan, energiyaning bu turi mutlaqo tekin. Ikkinchidan, quyoshdan energiyaning katta stansiyalar qurish orqali ham, kichik xo'jalik tarmoqlari yaratish yordamida ham olish mumkin. Uchinchidan, quyosh energiyasini olish mutlaqo zararsiz bo'lib, u atmosfera va gidrosferaga umuman zarar yetkazmaydi. To'rtinchidan, quyosh energiyasini faqatgina elektr energiya olishda emas, kommunal xizmatlar (uyni isitish yoki issiq suv bilan ta'minlash)da ham qo'llash mumkin. Shuning uchun ham ko'pgina davlatlar quyosh energiyasidan keng qamrovli ko'rinishda foydalanishga harakat qilishmoqda. Fikrimizning dalili sifatida, quyosh energiyasidan foydalanishdagi yillik o'rtacha o'sish 35 % ni tashkil etayotganligini ko'rsatishimiz mumkin. Lekin shunga qaramay, quyosh energiyasining butun jahon





bo'yicha tezda ommalashmayotganligining asosiy sababini quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin: quyosh energiyasi kechqurunlari va qish oylarida birmuncha kamayadi, vaholanki aynan shu vaqtlarda energiyaga katta ehtiyoj seziladi; quyosh energiyasidan foydalanishda qutblarga yaqin joylashgan davlatlar ekvatorga yaqin joylashgan mamlakatlardan ko'ra kam manfaat ko'radilar hamda quyosh energiyasi hozirgi kunlarda to'la ommalashmaganligi uchun boshqa energiya turlaridan birmuncha qimmatroqdir.

Keyingi davrlarda yanada keng ommalashayotgan hamda 70 dan ortiq mamlakatlarda foydalanib kelinayotgan energiya turlaridan yana biri bu – geothermal energiyadir.


2007-yilda 10 GW elektr energiyasi va 270 PJ issiqlik energiyasi geotermal energiya hissasiga to'g'ri keladi. Energiyaning bu turi bir qator afzalliklarga ega: tekin, quruqlikning istalgan maydonidan olinishi mumkin, suv va havoni ifloslantirmaydi hamda energiyaning bu turi kichik turdagi korxonalar tomonidan olinadi Qadim zamonlardan boshlab quyosh energiyasidan o'z maqsadlari uchun insonlar foydalanib kelishgan. Bizning eramizdan oldin 212-yillarda bir joyga jamlangan quyosh nurlari yordamida ibodatxonalar oldida qutlug' olov hosil qilganlar.

Aytishlaricha buyuk grek olimi Arximed o'zi tug'ilgan Sirakuza shahrini himoya qilishda Rim floti Keyja (paruslarini) yelkalarini xuddi shu usulda yonib ketishiga sabab bo'lgan. Quyosh energiyasidan foydalanish yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

Yillar davomida qimmat sanalgan quyosh energiyasi endi arzonlashib, ommoviylashmoqda. Quyosh energiyasidan asosan ikki maqsadda issiqlik energiyasi va elektr energiyasi olishda foydalanish hozirgi kunda dolzarb masalalardan bo'lib hizmat qilmoqda. Quyosh energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirib beruvchi qurilmalarga quyosh kollektorlari deyiladi. Quyosh kollektorlari issiqlik energiyasi olish va elektr energiyasi olish uchun qo'llaniladigan uskunadir. Kollektorlar asosan quyoshdan kelayotgan barcha turdagi nurlarni yutish uchun qora rangda tayyorlanadi. Quyosh kollektorlaring turlari:

1. Yassi
2. Vakuimli
3. Konsentratorli quyosh kollektorlari

Quyosh konsentratorlari quyosh nurlarini qabul qiladi va ularni yagona energiya nuri nuqtasiga to'playdi. Parabola shakli quyosh konsentratori uchun ideal shakl






hisoblanadi. Bu bizga bolalikda qog'oz, kichik yog'och bolaklarini qizdirib ko'rganimizdan tanish. Bu oddiy bikonveks obyektivdir. Ushbu qurilma yorug'lik eneriyasini yuqori darajada oshiradigan diffuz nurlanishining bir qismini ham jamlashga qodir hamda olovga nisbatan chidamli.

Xulosa qilib aytish mumkinki butun jahon energiya tizimidagi tuzilmalar ish faolyatini yuqori darajaga olib chiqish yo'lida energiya tizimlarini yanada isloh qilish, muqobil energiya manbalariga ega bo'lish, insonlar hayotini osonlashtirish, ko'ndalang turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada yurtimiz va butun dunyoda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Birgina quyosh energiyasi orqali millionlab harajatlardan qutilish imkonimiz mavjud. Quyosh elektr stansiyalarini ko'paytirish, uning foydali ish koeffitsiyentini oshirish, oldimizda turgan ustuvor yo'nalishlardan biri.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. James Gwartney the university of Michigan Solar panels 2021
2. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research ineducational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
3. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
4. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.
5. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.







ISSN (E): 2181-4570

***TA'LIM JARAYONIDA "BULUTLI"  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH***

***Rahmiddinova Madina Bahodir qizi - Navoiy davlat pedagogika instituti  
talabasi***

***Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo- Navoiy davlat pedagogika instituti  
dotsenti***

“Bulut”, “bulutli texnologiya” atamaları hozirgi kunda yangi atama sifatida fanga kirib keldi hamda amaliyotda qo'llanilyapti. “Bulutli texnologiya” o'zi nima? “Bulutli texnologiya” ni qayerda qo'llash mumkin? Web-texnologiya rivojlanishi bilan yangi on-layn platformalar, yangi onlayn xizmat turlari ham paydo bo'la boshladi. “Elastic Computing Cloud” atamasini birinchi bo'lib Amazon kompaniyasi 2006 yilda qo'llay boshladi. Bu platformada Snapchat hozir

ham faol ish olib boradi.

Hech qancha vaqt o'tmasdan “Cloud”, “Computing Cloud” atamaları Google kompaniyasi tomonidan ham qo'llanildi. “Bulut” atamasi metafora sifatida ishlatilib, dasturiy ta'minot hisoblanadi.

“Bulutli texnologiya” nafaqat fayllarni saqlash uchun joy, balki juda keng imkoniyatlarga ega platformadir. Masalan, biznes sohasidan tortib, dasturiy ilovalarni “bulutli muhit” da ishlab chiqish, testlash, shuningdek, avtomatik ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini ham taklif qiladi.

Bulutli texnologiyalar dastlab axborot texnologiyalari (AT) sohasining yetuk kompaniyalari tomonidan ishlatilgan bo'lsa-da, keyinchalik kuchli hisoblash resurslarini talab qiladigan ishlarda hamda axborotlarni saqlash va qayta ishlash uchun boshqa sohalarda ham ishlatila boshlandi. Hozirda “bulutli xotira”lar (Dropbox kabi), “bulutli server”lar (pullik bo'lsa-da, lekin ishonchli) va “bulutli xizmat turlari (servis)” mavjud bo'lib, ko'p ilovalar “bulutli xizmat turlari” dan foydalanadilar. Bularga misol qilib Instagram, Feysbuk, messenjerlar, elektron pochta xizmatlari, onlayn ta'lim sohasida Google onlayn ilovalari, Zoom-konferensiyalar, LMS-tizimlari, Smart – ta'lim texnologiyalari, shuningdek, taksi, taomlarni buyurtma qilish xizmatlarini taklif qiluvchi web-ilovalarni keltirish mumkin.

Bulutli texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil qilsihning yangi usuli bo'lib, ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullariga muqobil variantni taklif qiladi, shaxsiy ta'lim, jamoaviy o'qitish va interfaol imkoniyatlar yaratadi.





O'zbekiston ta'lim tizimida "bulutli" texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'llash masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, adabiyatlar ham yetarli emas.

Ya'ni, ta'lim jarayonida zamonaviy shaxs nafaqat bilim va ko'nikmalar to'plamini to'plashi, balki mustaqil ravishda va boshqa shaxslar bilan birgalikda mazmunli

maqsadlar qo'yish, o'z-o'zini tarbiyalash vaziyatlarini yaratish, izlash va ko'nikmalarga ega bo'lishi, muammolarni hal qilish vositalari va usullarini ishlab chiqa olishi kerak.

Ana shu maqsadlarni amalga osirishga bulutli texnologiyalar juda qo'l keladi. Unda bolalar hamkorlikda chiza va yoza oladigan oddiy online instumentlardan tortib, murakkab hamkorlikdagi texnologik loyihalar ham mavjud. Bu jarayonda pedagoglar va talabalar faol bo'lishi kerak. Bu jarayonga SaaS – texnologiyalar ko'proq mos keladi.

Bulutli texnologiyalarni ta'limda qo'llash tizimlariga elektron kundalik, electron jurnallar (talabalar va professor-o'qituvchilarning shaxsiy kabinetlari), interfaol tizimlar (o'quvchilar o'zaro axborot almashinishlari uchun tematik forumlar), axborot qidiruv tizimlari (o'qituvchi nazorati yoki nazoratisiz o'quvchilar ma'lum o'quv masalalarini yecha olishi) ni misol qilsih mumkin. Shuningdek, ta'lim sohasida hujjatlar bo'yicha o'qituvchi va xodimlarning hamkorligi. Masalan, ta'lim dasturi yoki yillik reja. Ushbu hujjat ma'muriyat xodimlari va har qanday yo'nalish uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchilar (psixolog, fan o'qituvchisi yoki sog'liqni saqlash uchun mas'ul) tomonidan yuritilishi mumkin. Har kim hujjatning o'z qismi uchun javobgardir va boshqa bloklarga o'zgartirish kirita olmaydi. Bulutda hamkorlik qilish uchun siz bulutli xotirada hujjat yaratishingiz yoki joylashtirishingiz va uni havola yoki elektron pochta manziliga ega bo'lganlar bilan baham ko'rishingiz kerak.

Bulutli texnologiyalarni ta'limda qo'llashda talabalarning birgalikdagi loyiha ishini samarali tashkil qilish mumkin. Talabalarga loyihalar uchun mavzular beriladi.

Keyin ularni 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruhning o'z vazifalari bo'ladi. Nazoratchi (o'qituvchi) hujjatni yaratadi va talabalarga hujjatga kirish huquqini beradi. Bu havolalar yoki elektron pochta manzillari ham bo'lishi mumkin. Talabalar uyda yoki ta'lim muassasasida loyiha ustida ishlashadi, hujjatlarni mazmunan to'ldiradilar, ya'ni topshiriqni bajaradilar. Ishni yakunlashgach, loyiha bulut xotirasida saqlanadi. Agar





kerak bo'lsa, o'qituvchi o'quvchilar tuzatishlar kiritishi uchun sharhlar qoldiradi. Bunday tizimlarga masalan, Google Docs ni keltirish mumkin. Uning asosiy afzalligi hujjatlarni (matnlar, rasmlar, taqdimotlar, jadvallar) birgalikda tahrirlash imkoniyatidir.

Bulutli texnologiyalardan masofaviy ta'limda ham unumli foydalanish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga elektron kundalik yordamida topshiriq taklif qiladi. Masalan, yozma topshiriqlar. Talaba hujjat yaratadi yoki hujjat bilan ishlaydi. O'qituvchi o'zgartirilgan hujjatni ko'rishi mumkin, chunki u tizim ga kirish huquqiga ega bo'ladi.

Bulutli texnologiyalarni qabul qilish tizimdan hujjatni qabul qilish kabi bo'lib, qaytarib bo'lmaydigan jarayondir.

Bulutli texnologiyalarning kamchiliklari ham mavjud:

Tarmoqqa bog'liqlik (internet on-layn aloqa mavjud bo'lishi);

Server-kompaniyaga bog'liqlik (bulutli texnologiyani taqdim etayotgan kompaniya serverida ma'lumotlar saqlanganligi sababli, kompaniya shartlariga bog'liqlik);

Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash masalasi;

Xavfsizlik masalalari (serverga hakerlar hujumi bo'lishi mumkin);

Qandaydir sabablarga ko'ra serverdagi ma'lumotlar o'chib ketishi mumkin;

Uzoq qishloq va tog'li hududlarda internet o'rnatilmaganligi yoki aloqaning barqaror emasligi; va boshqalar.

Bulutli texnologiyalarning tez tarqalishi oldimizga bulutli xizmatlarni ta'lim muassasasi tizimiga integratsiya qilish vazifasini qo'yadi. Bulutli hisoblash ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar, shuningdek, masofaviy ta'lim sohasida keng qo'llash istiqbollariga ega. Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalardan foydalanish ta'lim maydonini ochiq qilish imkonini beradi.

Yaqin yillarda bu sohadagi o'sish yuqori ko'rsatkichlarda bo'lishi kuzatilyapti.

Kelajakda bulutli hisoblash har bir kishi deyarli har kuni foydalanadigan instrument bo'lib qoladi.



**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг асарлари 1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б. II. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар
6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.–Т.:Ўзбекистон, 2018.





ISSN (E): 2181-4570

## **ASTRONOMIYADA ISHLATILADIGAN AMALIY INNOVATSION DASTURLAR HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI**

*Qurbonova Surayyo- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi,*


*Xaitova Sevinch- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo- Navoiy davlat pedagogika instituti  
dotsenti*

Hisoblash texnikasini amaliyotda samarali tadbiiq etishning shartlaridan biri amaliy dasturlarning ixtisoslashtirilgan paketlarini yaratishdir. Ularga kirishning osonligi va foydalanishning soddaligi EHMning muhandislik mehnatiga, ilmiy soha, iqtisodiyot, madaniyat, ta'limning aniq vazifalarini yechishda kengroq tadbiiq etish uchun sharoitlar yaratadi.

Amaliy dasturlar paketlari (ADP) odatda mahsus tizimlar asosida quriladi va u bundan keyingi aniq yo'nalishda rivojlanadi. Ular hisoblash vositalarining dasturiy ta'minlanishida alohida yetkazib beriladi, o'zining hujjatlariga ega va operatsion tizimlarning tarkibiga kirmaydi. Ko'pgina paketlar integratsiyaning shaxsiy vositalariga ega. Paketni ishlab chiqish operatsion tizimning zamonaviylashtirilishini talab qilmasligi kerak. Bu boshqaruvchi dasturlarning ishiga ham tegishlidir. Barcha ADPlarni uch guruhga bo'lish mumkin: operatsion tizimlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi paketlar; umumiy belgilanishdagi paketlar;

ADPda ishlashga mo'ljallangan paketlar. Operatsion tizimlar imkoniyatlarini kengaytiruvchi paketlar turli xil konfiguratsiyalarga ega EHMlarning faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Ularga namunaviy konfiguratsiyalarga ega ko'p mashinali majmualar, dialogli tizimlar, vaqtning real ko'lamida ishlash uchun tizimlar, uzoqlashtirilgan paketli ishlab chiqish ishini ta'minlovchi paketlar kiradi. Umumiy belgilanishdagi amaliy dasturlar paketlari qo'llanishlarning quyidagi keng doirasi uchun dasturlar majmuini o'z ichiga oladi: alfavit-raqamlimashina matematikasini ADP yordamida o'rganish foydalanuvchida matematikaning o'zini o'rganish illyuziyasini yaratadi. Ammo shuni aytish joizki, mazkur paketlarda yaratilgan har qanday chiroyli menyu foydalanuvchini oddiy matematik tushunchalardan va usullardan uni ozod qila olmaydi. Xususan, agar foydalanuvchi matritsa nimaligini bilmasa, u holda matritsa algebrasi dasturiy paketi unga hech qanday yordam bera





olmaydi yoki foydalanuvchi noaniq bo'lmagan integralni sonli usullar yordamida hisoblashga uringanda, u haqiqatdan ancha yiroq bo'lgan javobni olishi yoki javobni umuman ololmasligi ham mumkin. Ixtiyoriy keng imkoniyatlarga ega paket universal yondashishga bog'liq. Matematik paketlarni ishlatishda mutaxassis undan ongli foydalanib chegirmalar qilishi mumkin: paketni uning muammosiga rostdashi, dasturni modifikatsiyalash, yangilash, hisoblash vaqtini tejash va h.k.

Hozirgi kunda kompyuter algebrasining nisbatan imkoniyatli paketlari bu - Mathematica, Maple, Matlab, MathCAD, Derive va Scientific WorkPlace. Bulardan birinchi ikkitasi professional matematiklar uchun mo'ljallangan bo'lib imkoniyatlarning boyligi, ishlatishda murakkabligi bilan ajralib turadi.

MatLab matritsalar bilan ishlashga va signallarni avtomatik boshqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan.

MathCAD va Derive qo'llanilishi juda oson bo'lib talabalarning tipik talablarini qondirishni ta'minlaydi. Bular qatoriga Eureka paketini qam qo'shish mumkin.

Scientific WorkPlace matematik qo'lyozmalarni LATEX tizimidan foydalangan holda tayyorlashga mo'ljallangan bo'lib, bir paytda analitik va sonli amallarni bajarishi mumkin.

Matlab hozirda fan va texnikaning ko'plab sohalarida interfaol muhitda matematik hisoblashlarni avtomatlashtirishning samarali vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda.

Matlab tizimi matritsalar ustida ish olib borishga asoslangan bo'lib, bunday yondashuv ma'lumotlarga ishlov berish jarayonini mahsus dastur tuzmasdan amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, Matlab tizimi Matrix Laboratory deb nomlangan. Shuningdek, Matlab tarkibiga 900 dan ortiq vazifalarni yechishga mo'ljallangan funksiyalar kiradi. Matlab tizimini kengaytirish ustida dunyoning matematika, dasturlash va mahsus yo'nalishlar bo'yicha ish olib boruvchi yirik markazlari ish olib borishmoqda. Matlabning yana bir ajoyib xususiyati, uning doirasida dasturlar yaratishga imkon beruvchi yuqori darajali algoritmik tilidir.

Matlab dasturiy muhitida blokli modellashtirishni amalga oshirish imkonini beruvchi Simulink tizimi mavjud bo'lib, mazkur tizim asosida signallarga raqamli ishlov berish protsessorlarida ishlovchi dasturlar yaratish imkoniyati berilgan.





ISSN (E): 2181-4570

**MATLAB** („MATrix LABoratory“ning qisqartmasi ya'ni bu „Matritsa laboratoriyasi“) — bu MathWorks tomonidan ishlab chiqilgan xususiy ko'p paradigmalik dasturlash tili va raqamli hisoblash muhiti.

MATLAB matritsalarini manipulyatsiya qilish, funksiyalar va ma'lumotlarning chizmalarini tuzish, algoritmlarni amalga oshirish, foydalanuvchi interfeyslarini yaratish va boshqa tillarda yozilgan dasturlar bilan interfeyslarni o'rnatish imkonini beradi.

MATLAB asosan raqamli hisoblash uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, ixtiyoriy asboblarga to'plam ramziy hisoblash qobiliyatlariga kirish imkonini beradi va MuPAD ramziy dvigatelidan foydalanadi. Simulink qo'shimcha paketi dinamik va o'rnatilgan tizimlar uchun grafik ko'p domenli simulyatsiya va modelga asoslangan dizaynni qo'shadi.

2020-yil holatiga ko'ra, MATLAB butun dunyo bo'ylab 4 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Ular turli muhandislik, fan va iqtisod sohalaridan kelib chiqqan. Eslatib o'tamiz, 2017-yil holatiga ko'ra, 5000 dan ortiq jahon kollejlari va universitetlari o'qitish va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash uchun MATLAB'dan foydalanadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G. I. Sayfullaeva, S. D. Ravshanova, S. X. Mirzaqandova. “Astronomik lug'at”. Uslubiy qo'llanma. Navoiy 2019 yil.
2. S.X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova, S.D. Rashidova. “Biz bilgan va bilmagan koinot”. Navoiy 2021 yil
3. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova. “Fizik va astronomik kechalar”. Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2021 yil
4. S. X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova. “Fizik va astronomik kechalar tadbirlar, to'garaklar”. Navoiy 2021 yil
5. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. “Biz bilgan va bilmagan koinot”. Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2021 yil



6. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. “Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi xaqida ma'lumot beruvchi dasturiy platforma”. Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2022 yil

7. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. “Astronomik lugatlar xaqida ma'lumot beruvchi dasturiy platforma”. Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2022 yil





ISSN (E): 2181-4570

**Mathcad imkoniyatlari va uning interfeysi***Qurbonova Surayyo- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi,**Xaitova Sevinch- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo- Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti*

Hozirgi kunda kompyuter algebrasining nisbatan imkoniyatli paketlari bu - Mathematica, Maple, Matlab, MathCAD, Derive va Scientific WorkPlace. Bulardan birinchi ikkitasi professional matematiklar uchun mo'ljallangan bo'lib imkoniyatlarning boyligi, ishlatishda murakkabligi bilan ajralib turadi. MatLab matritsalar bilan ishlashga va signallarni avtomatik boshqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan.

MathCAD va Derive qo'llanilishi juda oson bo'lib talabalarning tipik talablarini qondirishni ta'minlaydi. Bular katoriga Eureka paketini ham qo'shish mumkin.

Scientific WorkPlace matematik qo'lyozmalarni LATEX tizimidan foydalangan holda tayyorlashga muljallangan bo'lib bir payda analitik va sonli amallarni bajarishi mumkin.

Zamonaviy kompyuter matematikasi matematik hisoblarni avtomatlashtirish uchun butun bir birlashtirilgan dasturiy tizimlar va paketlarni taqdim etadi. Bu tizimlar ichida Mathcad oddiy, yetarlicha qayta ishlangan va tekshirilgan matematik hisoblashlar tizimidir.

Umuman olganda, Mathcad – bu kompyuter matematikasining zamonaviy sonli usullarini qo'llashning unikal kolleksiyasidir. U o'z ichiga yillar ichidagi matematikaning rivojlanishi natijasida yig'ilgan tajribalar, qoidalar va matematik hisoblash usullarini olgan.

Mathcad paketi muhandislik hisob ishlarini bajarish uchun dasturiy vosita bo'lib, u professional matematiklar uchun mo'ljallangan. Uning yordamida o'zgaruvchi va o'zgarmas parametrli algebraik va differensial tenglamalarni yechish, funksiyalarni tahlil qilish va ularning ekstremumini izlash, topilganyechimlarni tahlil qilish uchun jadvallar va grafiklar qurish mumkin. Mathcad murakkab masalalarni yechish uchun o'z dasturlash tiliga ham ega.

Mathcad interfeysi Windowsning barcha dasturlari intefeysiga o'xshash. Mathcad ishga tushurilgandan so'ng, uning oynasida bosh menyu va uchta panel vositasi chiqadi: Standart (Standart), Formatting (Formatlash) va Math (Matematika).





Mathcad ishga tushganda avtomatik ravishda uning ishchi hujjat fayli Untitled 1 nom bilan ochiladi va unga 89 Workshet (Ish varag'i) deyiladi. Standart (Standart) vositalar paneli bir necha fayllar bilan ishlash uchun buyruqlar to'plamini o'z ichiga oladi. Formatting (Formatlash) formula va matnlarni formatlash bo'yicha bir necha buyruqlarni o'z ichiga oladi. Math (Matematika) matematik vositalarini o'z ichiga olgan bo'lib, ular yordamida simvollar va operatorlarni hujjat fayli oynasiga joylashtirish uchun qo'llaniladi.

Calculator (Kalkulyator) – asosiy matematik operatsiyalar shabloni; Graph (Grafik) – grafiklar shabloni; Matrix (Matritsa) – matritsa va matritsa operatsiyalarini bajarish shabloni; Evluation (Baholash) – qiymatlarni yuborish operatori va natijalarni chiqarish operatori; Calculus (Hisoblash) – differensiallash, integrallash, summani hisoblash shabloni; Boolean (Mantiqiy operatorlar) – mantiqiy operatorlar; Programming (Dasturlashirish) – dastur tuzish uchun kerakli modullar yaratish operatorlari; Greek (Grek harflari) - Simvolik belgililar ustida ishlash uchun operatorlar.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova Toporkova va boshqalar o'qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ (o'zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;
- 4) axborot vositasida o'zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo'lishi;
- 5) o'zini refleksiyalash (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo'lishi;
- 6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o'zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o'qituvchining kompyuter savodxonligini kompyuterli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
- kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;





- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;
- umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o‘zlashtirish;
- hech bo‘lmaganda bir matn redaktorini o‘zlashtirganlik;
- dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang‘ich tasavvurlarining bo‘lishi;
- utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy dasturlaridan foydalanishning boshlang‘ich tajribasi.

Axborot texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta’limiy vazifalarni hal etish qulay texnikafiy imkoniyatlar ochib beradi. Biroq ilmiy izlanishlar o‘quv maqsadida foydalaniladigan axborot tizimlari o‘z didaktik sifatlariga ko‘ra hali ham qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, axborot texnologiyalarini o‘qitish maqsadlarida foydalanishning metodik (pedagogik) vositalari axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivojlanishidan ancha orqada qolib ketyapti. Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti. O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot — avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining ma’lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o‘quv materialini tayyorlashda, modellashtiruvchi turdagi kompyuter tizimlari bilan o‘quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Axborot texnologiyalari bir yo‘la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma’lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg‘unlikda psixologikpedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega.

Odatdagi ta’limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

Kompyuter vositalari o‘quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o‘quvchilarga o‘quv materiallarini taqdim etish bosqichida;





- kompyuter bilan interfaol o‘zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni takrorlash va mustahkamlashda;
- o‘qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o‘zo‘zini nazorat qilish bosqichida;
- o‘quv materialini qismlarga bo‘lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o‘qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanilishi mumkin.

Oqilona tuzilgan kompyuterli o‘qitish dasturlari axborotni o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishining psixologik va pedagogik qoidalari e‘tiborga olingan taqdirda o‘qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirishga, bolalarning qiziqishlari va o‘qishdagi mustaqil faoliyatini rag‘batlantirishga imkon beradi.

Maktab pedagogik jarayonida kompyuter o‘qituvchi, ishchi qurol, o‘qitish obyekti, hamkorlik qiluvchi jamoa, bo‘sh vaqt (o‘yin) muhiti xizmatlarini bajarishi mumkin (G. K. Selefko).

Kompyuter o‘qituvchi sifatida o‘qituvchini va kitobni qisman yoki to‘liq o‘rni bosadigan o‘quv axboroti manbai;

multimediya va telekommunikatsiya imkoniyatlari bilan tamoman yangi sifat darajasidagi ko‘rgazmali vosita;

individual va axborot muhiti;

trenajyor;

o‘quvchilar bilimni tashhislash va nazorat qilishning vositasi vazifalarini bajaradi.

Ishchi qurol sifatida kompyuter matnlarni tayyorlash va ularni saqlash matn redaktori; grafikaviy redaktor va katta imkoniyatlarga ega hisoblash mashinasi vazifalarini bajaradi.

O‘qitish obyekti sifatidagi xizmatini kompyuter-dasturlashtirish;

dasturli mahsulotlarni tayyorlash;

har turli axborot muhitlarini qo‘llash mobaynida bajaradi.

Hamkorlik qiluvchi jamoa — keng auditoriya bilan muloqot qilish, Internetda bog‘lanish orqali vujudga keltiriladi. Bo‘sh vaqt (o‘yin) muhiti o‘yin dasturlari, tarmoq bo‘yicha kompyuterli o‘yinlar, kompyuterli video yordamida tashkil qilinadi. Axborot





muhiti zamonaviy darajadagi axborot bazalari, gipermatn va multimediya, imitatsion o'qitish, elektron kommunikatsiyalar, ekspert tizimlarini kiritadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G. I. Sayfullaeva, S. D. Ravshanova, S. X. Mirzaqandova. "Astronomik lug'at". Uslubiy qo'llanma. Navoiy 2019 yil.

2. S.X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova, S.D. Rashidova. "Biz bilgan va bilmagan koinot". Navoiy 2021 yil

3. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova. "Fizik va astronomik kechalar". Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2021 yil

4. S. X. Mirzaqandova, N.N. Rashidova, N.T. Namozova. "Fizik va astronomik kechalar tadbirlar, to'garaklar". Navoiy 2021 yil

5. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. "Biz bilgan va bilmagan koinot". Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2021 yil

6. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. "Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi xaqida ma'lumot beruvchi dasturiy platforma". Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2022 yil

7. G. I. Sayfullaeva, S. X. Mirzaqandova, N.T. Namozova, N.N. Rashidova. "Astronomik lugatlar xaqida ma'lumot beruvchi dasturiy platforma". Elektron o'quv qo'llanma Uzbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi. 2022 yil





ISSN (E): 2181-4570

**FANTASTIK ASARLARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA  
TARJIMA QILISHNING LINGVISTIK TAHLILI ( STIVEN KING  
ASARLARI MISOLIDA)**

**Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna**

**Termiz davlat universiteti o'qituvchisi**

**E-mail: [yorqinoy479@gmail.com](mailto:yorqinoy479@gmail.com)**

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola butun dunyoda “Terror qirol” deb tanilgan Stiven King tomonidan yaratilgan “Qora minora” (The Dark tower) asari misolida yozilgan. Shuningdek, maqolada “Qora minora” asarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan morfologik va leksikologik transformatsiyalarning tahlil muammolari analiz qilinadi. Maqola uchun adabiyot darsliklari, turli xil lug'atlar va tarjima qilish jarayonida foydalaniladigan ba'zi qo'llanmalar manba sifatida olingan.

**Kalit so'zlar:** fantastika, morfologik transformatsiya, leksikologik transformatsiya, so'z turkumlari, sintaksis.

**LINGUISTIC ANALYSIS OF TRANSLATION OF FANTASY WORKS  
FROM ENGLISH TO UZBEKI (STEVEN KING'S WORKS AS AN EXAMPLE)**

**ABSTRACT**

This article is written on the example of the work "The Dark Tower" created by Stephen King, known throughout the world as the "King of Terror". Also, the article analyzes the analysis problems of morphological and lexicological transformations that occur in the process of translating the work "The Dark Tower" from English to Uzbek. Literature textbooks, various dictionaries and some manuals used in the translation process were taken as sources for the article.

**Key words:** fiction, morphological transformation, lexicological transformation, word groups, syntax.

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДА ПРОИЗВЕДЕНИЙ  
ФАНТАСТИЧЕСКИЙ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ (НА  
ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ СТИВЕНА КИНГА)**

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья написана на примере произведения “Темная башня” (The Dark Tower), созданного Стивеном Кингом, известным во всем мире как “король террора”. Также в статье будут проанализированы проблемы анализа





морфологических и лексикологических преобразований, происходящих в процессе перевода произведения “Темная башня” с английского на узбекский язык. В качестве источников для статьи были взяты учебники литературы, различные словари и некоторые руководства, используемые в процессе перевода.

**Ключевые слова:** художественная литература, морфологическая трансформация, лексикологическая трансформация, категории слов, синтаксис.

### **KIRISH**

Stiven King 1947 yil 21 sentyabrda Amerikaning Portlend shahrida (Meyn) tug'ilgan. Stiven Edvin King - turli xil janrlarda, jumladan dahshat, detektiv, fantastika, tasavvuf va epistolyar nasrda ishlaydigan amerikalik yozuvchi; "Dahshat qiroli" laqabini oldi. Uning kitoblarining 350 milliondan ortiq nusxasi sotilgan bo'lib, ularda ko'plab filmlar, televizion o'yinlar va komikslar suratga olingan. U yillar davomida juda ko'p qiyinchiliklarga uchragan shunga qaramay, ijod qilishdan, yozishdan to'xtamagan. Vaqtlar o'tib, uning bosh va o'pka jarohatlaridan tashqari, o'ng oyog'ida juda ko'p suyaklar borligi aniqlandi. Shifokorlar mo'jizaviy ravishda uning oyog'ini amputatsiyadan qutqara oldilar. Uzoq vaqt davomida erkak 40 daqiqadan ko'proq o'tira olmadi, shundan keyin kestirib, singan sohada chidab bo'lmas og'riq paydo bo'ldi. Ushbu biografik epizod "Qorong'u minora" seriyasining ettinchi qismiga asos bo'ladi. U “Qorong‘u minora” sakkizta roman, bitta qissa va amerikalik yozuvchi Stiven King tomonidan yozilgan bolalar kitobidan iborat bo'lib, bir nechta janrlar, jumladan, qorong‘u fantaziya fantaziyasi, qo‘rquv va Vestern mavzularini o‘zida mujassam etgan bo'lib, unda “qurolchi” va uning izlanishlari tasvirlangan. minora, uning tabiati ham jismoniy, ham majoziy. Serial va uning Qorong‘u minoradan foydalanishi Stiven Kingning ko'p dunyosini kengaytiradi va shu bilan uning boshqa ko'plab romanlarini birlashtiradi. 4250 sahifadan iborat sakkizta romanga qo'shimcha ravishda, Kingning boshqa ko'plab kitoblari hikoyaga tegishli.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarning izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko'rib, o'rganilib chiqildi. Ushbu tadqiqot uchun, “Tarjimashunoslik terminlarining ko'p tilli lug'at-ma'lumotnomasi” qo'llanmasidan foydalanildi [3]. Grammatika (grek. grammatika “harf o'qish va yozish san'ati”, “harf”) atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida






qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi. Morfologiya (grek. morhfos "shakl", logos "ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'limotdir [4]. Leksikologiya (leksika va logiya) -tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi [5]. "Adaptatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib adaptatio – "moslashuv" degan ma'noni anglatadi. Bu termin turli sohalar doirasida turli vazifada qo'llaniladi. Hozirgi zamonaviy tarjima nazariyasida "adaptatsiya" tushunchasi ikki xil ma'noda ifodalanadi: 1) asarni qisqartirib, yengillashtirib, o'zgartirib, milliylashtirib tarjima qilish; 2) ayrim so'z, tushuncha va terminlarni tarjima qilish jarayonida o'quvchiga moslashtirish Ingliz tili (inglizcha:English)- hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili [6].

**NATIJA**

Mazkur maqolada keltirilayotgan asarning 85 ta gaplari tahlil qilindi, bundan 53 tasi morfologik, qolgan 32 tasi leksikologik tahlil jarayonida ko'rib chiqildi. Ulardan 53 tasi ot, 44 tasi fe'l, 23 tasi sifat, qolgan 17 tasi ravish va olmoshdan iborat. Asarni tarjima qilish jarayonida unchalik ko'p muammolarga duch kelingani yo'q. Muammoga duch kelgan qism shuki, sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qolgan, natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgargan va ot bajargan sintaktik vazifalarda kelgan, ya'ni fan tili bilan tahlil qiladigan bo'lsak sifatlar otlashib ketgan.

**Morfologik tahlil:** Afsonaviy Qorong'u minora xavf ostida, koinotning so'nggi qal'asi va umidi, ularsiz dunyo to'liq tartibsizlik va vayronagarchilikka tushib qoladi.

	<b>Leksemalar</b>	<b>Morfologik xususiyati</b>
1	Afsonaviy	sifat
2	Qorong'u	sifat
3	Minora	ot
4	Xavf ostida	fe'l
5	koinotning	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
6	So'nggi	ravish







7	Qal'asi	Ot+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha
8	Va	Teng bog'lovchi
9	umidi	Ot+lug'aviy shakl yasovchi
10	ularsiz	olmosh
11	dunyo	ot
12	To'liq	sifat
13	tartibsizlik	Sifat+shakl yasovchi qo'shimcha
14	Va	Teng bog'lovchi
15	vayronagarchilikka	Ot+shakl yasovchi qo'shimchalar
16	Tushib qoladi	Qo'shma fe'l

**Leksikologik tahlil:** Yaxshilik va yovuzlik kuchlari so'nggi jangda to'qnashadi, chunki Roland Disney - qorong'u minorani vayron qilishdan oldin qora rangdagi odamni to'xtata oladigan yagona odam.

Yaxshilik-

Va – tenglikni hamda gaplarni bog'lash uchun hizmat qiladi.

Yovuzlik – yovuzlarga xos xatti-harakat, xunrezlik, johillik

So'nggi – oxirgi, oxiridagi.

Jang – harbiy qism va qurolli kuchlarning to'qnashuvi, urush.

to'qnashmoq- yuzma-yuz uchrashish, duch kelish.

Chunki – sabab bog'lovchisi

Qorong'u minora – zulmatga cho'mgan, nursiz joy

Vayron- tamomila buzulgan, xarobaga aylangan.

Oldin – ilgari, oldinda.

Odam – fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan zot, kishi, inson.

Yagona – bu sifat, “bitta” ma'nosini anglatadi.

## MUHOKAMA





Ma'lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo'lishidan qat'i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas ekan, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u kitobxonlarning ma'naviyatiga hech narsa bermaydi. Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlarni ham morfologik va leksikologik tahlil qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari matn tahlili doirasida tanlangan asarning nominatsiyasi ham alohida o'rin tutadi, chunki har qanday asar nominatsiyasi, birinchidan asarning janr va stiliga xos xususiyatlarda sezilarli iz qoldiradi; ikkinchidan, til vositalarining aniq yig'indisi bilan farq qiladi. So'z turkumlariga ayrim tilshunoslar so'zlarning grammatik tasnifi deb qaraydilar va ularda grammatik kategoriyalarni ko'radilar. Boshqa guruh tilshunoslari esa ularni so'zlarning leksik grammatik tasnifi deb ataydilar. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin, chunki grammatik ma'no so'z asosidan tashqarida ifodalanadi, so'z negizi esa leksik ma'no anglatadi. Birinchi fikr tarafdorlarining nuqtai nazarlariga munosabat bildirilganda, so'z turkumlariga grammatik kategoriyalar deb qaralsa, ulardagi leksik mavhum ma'no (predmetlik, harakat va boshqa ma'nolar) mavjud emas degan mantiqiy mulohaza vujudga keladi. So'z turkumlarida leksik ma'no mavjud bo'lar ekan, lug'at tarkibidagi so'zlarning barchasi grammatik kategoriyalar hisoblanmaydi. Asar keltirilgan deyarli gapda barcha bo'laklar o'z ma'nosida o'rnida qo'llangan. Bog'lovchidan ham so'z turkumlaridan ham to'g'ri foydalanilgan (ot, fe'l, ravish, sifat-dosh, harakat nomi, bog'lovchilar, o'z o'rnida) [11].

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu asarni yozish uchun muallifga o'n ikki yarim yil vaqt kerak bo'lgan. Shuningdek bu asar ikki ming uchunchi yilda qayta o'rib chiqilgan va qo'shimcha ma'lumotlar kiritilgan. Hikoyada, Roland Deschain qurolchilar deb nomlanuvchi ritsarlik ordenining a'zosi va "Artur Eld"ning so'nggi qismi, uning qirol Artur dunyo analogi feodal jamiyati yo'nalishi bo'yicha siyosiy jihatdan tashkil etilgan u texnologik va ijtimoiy xususiyatlarga ega. Amerikaning Qadimgi G'arbi bilan, ammo sehrli ko'p sehrli jihatlar O'rta Dunyodan yo'qolgan, ammo izlar texnologik jihatdan rivojlangan jamiyatdan qolgan qoldiqlar kabi saqlanib qolgan. Rolandning izlanishi barcha koinotlarning aloqasi bo'lgan afsonaviy bino - Qorong'u minorani topishdir. Aytishlaricha, Rolandning dunyosi "davom etgan" va u tikuvlarda parchalanib ketayotganga o'xshaydi. Urush natijasida qudratli xalqlar parchalanib ketdi, butun shaharlar va viloyatlar izsiz yo'q bo'lib ketdi va vaqt tartibli o'tmaydi. Ba'zan hatto quyosh shimoldan chiqib, sharqdan botadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. YOSH TARJIMASHUNOS, V “Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik” va “Sinxron tarjima” mutaxassisliklari magistrantlari hamda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi talabalarining yillik an‘naviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari” qo‘llanmasidagi 13-bet
2. [https://uz.zahn-info-portal.de/wiki/The\\_Dark\\_Tower\\_\(series\)](https://uz.zahn-info-portal.de/wiki/The_Dark_Tower_(series))
3. <https://uz.m.wiktionary.org/w/index.php?search=so%27nggi&title=Maxsus%3ASearch&profile=advanced&fulltext=1&ns0=1>
4. Mansur Masharipov “Ona tilidan 2-qism ma‘ruzalar to‘plami” kitobidagi 96-bet
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>
6. Nargiza erkaboyeva “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” kitobidagi 209-bet.
7. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/dengiz>
8. R.I.Xalmurodov “Ilmiy axborotnoma “ asaridagi 59-bet va 74-bet
9. [https://uz.mgwiki.top/wiki/The\\_Dark\\_Tower:\\_The\\_Gunslinger](https://uz.mgwiki.top/wiki/The_Dark_Tower:_The_Gunslinger)
10. <https://zenodo.org/record/6504140>





## SHUHRAT MATKARIMOVNING “YO‘RIQSIZ TUSHLAR” QISSASIDAGI FONETIK-FONOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

*Urganch davlat universiteti talabasi*

**QODIROVA MASHHURA**

**Annotatsiya:** Inson so‘z ma‘nolarini tovushlar orqali anglaydi. Shu sabab nutq tovushlari ham boshqa til birliklari singari insonlar uchun nafaqat fikrlarni bayon etish, balki his-tuyg‘u va ruhiy holatlarni ifoda etishning beqiyos vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada badiiy asar mazmunini va badiiyligini oshirishga hissa qo‘shgan fonetik-fonologik xususiyatlar bugungi kunning mahoratli yozuvchilaridan biri Shuhrat Matkarimovning “Yo‘riqsiz tushlar” qissasi misolida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Lingvopoetika, poetik fonetika, tovushlar uyg‘unligi, emotsional ifoda, intim kechinmalar.

XX asr sistem tilshunosligi bag‘rida ko‘plab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo osonlik va qisqalikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to‘g‘riligidan ko‘ra, ko‘proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so‘zlarni qo‘llash bir qancha osonlikni va ravonlikni ta‘minlaydi. Badiiy asarning bosh unsuri so‘z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san‘at darajasiga ko‘tara olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qo‘llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini o‘rganish, birinchidan, adibning mahoratini o‘rganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta‘sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta‘sir ko‘rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tabiiyki, badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o‘zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko‘rsatadi:

- 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv;
- 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish;
- 3) umumxalq tili va adabiy til munosbati asosida baholash;
glColor3f(1.0, 0.84, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), sun_radius, sun_slices, sun_stacks)
glPopMatrix()


# Calculate the positions of the Earth, Moon, Mars, Fobos and Venus
earth_x = earth_distance * math.cos (math.radians(earth_angle))
earth_y = earth_distance * math.sin (math.radians(earth_angle))

moon_x = earth_x + moon_distance * math.cos(math.radians(moon_angle))
moon_y = earth_y + moon_distance * math.sin(math.radians(moon_angle))

mars_x = mars_distance * math.cos(math.radians(mars_angle))
mars_y = mars_distance * math.sin(math.radians(mars_angle))

fobos_x = mars_x + fobos_distance * math.sin(math.radians(fobos_angle))
fobos_y = mars_y + fobos_distance * math.cos(math.radians(fobos_angle))


demos_x = mars_x + demos_distance * math.sin(math.radians(demos_angle))
```





```
demos_y = mars_y + demos_distance * math.cos(math.radians(demos_angle))
```

Rasm-8:



```
venus_x = venus_distance * math.cos(math.radians(venus_angle))
```

```
venus_y = venus_distance * math.sin(math.radians(venus_angle))
```

```
# Draw the Earth
```

```
glPushMatrix()
```

```
glColor3f(0.0, 0.0, 1.0)
```

```
glTranslatef(earth_x, earth_y, 0.0)
```

```
gluSphere(gluNewQuadric(), earth_radius, earth_slices, earth_stacks)
```

```
glPopMatrix()
```

```
# Draw the Moon
```

```
glPushMatrix()
```



```

glColor3f(1.0, 1.0, 1.0)
glTranslatef(moon_x, moon_y, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), moon_radius, moon_slices, moon_stacks)
glPopMatrix()

```


# Draw Mars

```

glPushMatrix()
glColor3f(1.0, 0.0, 0.0)
glTranslatef(mars_x, mars_y, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), mars_radius, mars_slices, mars_stacks)
glPopMatrix()

```

Rasm-9:



# Draw the Fobos

```

glPushMatrix()
glColor3f(1.0, 0.5, 0.5)
glTranslatef(fobos_x, fobos_y, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), fobos_radius, fobos_slices, fobos_stacks)
glPopMatrix()

```






```
# Draw the Demos
glPushMatrix()
glColor3f(1.0, 1.5, 1.0)
glTranslatef(demos_x, demos_y, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), demos_radius, demos_slices, demos_stacks)
glPopMatrix()

# Draw Venus
glPushMatrix()
glColor3f(0.8, 0.5, 0.2)
glTranslatef(venus_x, venus_y, 0.0)
gluSphere(gluNewQuadric(), venus_radius, venus_slices, venus_stacks)
glPopMatrix()

# Update the angles for the next frame
earth_angle += 1.0
moon_angle += 1.5
mars_angle += 0.8
fobos_angle += 2.5
demos_angle += 2.0
venus_angle += 1.5

# Update the display
pygame.display.flip()
pygame.time.wait(10)
```





ISSN (E): 2181-4570

## ASTRONOMIYADAN MASALALARNI YECHISHDA KOMPYUTER PAKETLARI VA INNOVATSION DASTURLARDAN FOYDALANISH

*Haydarova Dilorom- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi,  
Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo- Navoiy davlat pedagogika instituti  
dotsenti*

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, u jahon hamjamiyatida va rivojlanish taraqqiyotida o‘zining munosib o‘rnini mustahkam egallab oldi, shuningdek, XXI asr – axborot texnologiyalari asri va axborotlashgan jamiyat sari ildam qadamlar bilan kirib keldi. Shu bois ham bugungi ilg‘or ta‘lim berish jarayonida informatika va axborot texnologiyalarining o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Bugungi kunda har bir pedagog uchun ushbu axborot texnologiyalari uning o‘quv ishlanmasida eng yetakchi vazifani bajarmog‘i lozim. Chunki, o‘quvchi yoshlar ongida dars ishlanmasi yaqqol puxta ochib berilishi lozimdir. Ana shundagina ta‘lim yanada sifatli hamda maroqli tarzda o‘quvchilar ongida shakllanadi. Yetakchi ta‘lim bilan bir qatorda o‘quvchilarga axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish masalasi ham turadi. Chunki, hozirgi kunda insoniyat, shuning-dek, informatika fani muqarrar haqiqat bilan yuzma-yuz kelmoqda. Uning asosiy masalasi, muammosi insoniyat faoliyatining boshqa biror sohasida bo‘lmaganuchramagan axborot inqirozini (behisob ko‘payib ketishini) yengib o‘tishdir. Ammo qo‘yilgan masalani yechishni zamonaviy axborot texnologiyalari majmuyi bo‘lgan komputer texnikasi va global tarmoqlar, Internet umumjahon tarmog‘idan unumli foydalangan holda amalga oshirish mumkin.

Zamon talablariga mos mutaxassislarni shakllantirishda kam samarali an‘anaviy o‘qitish metodlari o‘rniga ta‘lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya imkoniyatlariga tayanadigan hamda o‘quvchi talabalarni o‘quv jarayonida faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan yangi axborot texnologiyalari, innovatsion pedagogik va interaktiv metodlardan foydalanib o‘qitishni tashkil etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bunda o‘qitish maqsadi va usullarini o‘zgarishiga qarab fan predmetlarini mavjud o‘qitish metodlarini zamonaviy talablar asosida qayta takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.






ISSN (E): 2181-4570

Ta'kidlash kerakki, hozirda ko'plab fanlarni o'qitishda turli innovatsion metodlarni amaliyotda joriy etilib samarali natijalarga erishilayotgan bo'lsada, bu holatni astronomiya fani uchun aytish qiyin. Gap shundaki, astronomiya fani oldinlari alohida fan sifatida o'qitilgan, keyinchalik uni fizika fani bilan integratsiyalab o'qitila boshlandi, 2017 yildan yana alohida fan sifatida o'qitilmoqda va unga juda oz soat ajratilgan.

Hozirda o'qitilayotgan astronomiya ta'limi tahlilini ko'rsatishicha o'rta maktablarda astronomiyani o'qitish sifati o'ta past. O'quv materiallari va o'qitish metodlari zamon talablari bo'yicha boyitilmagan. Bu fan o'qituvchilarida hali ham an'anaviy holdagi nimani o'qitish kerak tushunchasidan qanday o'qitish orqali samarador natijaga erishish mumkin tushunchasi to'la shakllanmagan.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.





ISSN (E): 2181-4570

## AGROBIZNES KORXONALARIGASIFAT MENEJMENTINI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA TAMOYILLARI.

**Tillayeva Muhayyo Abdumutalibjon qizi**  
**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar**  
**instituti Agrobiznes va marketing kafedrasida assistenti**

### Annotatsiya


Sifat menejmenti zamonaviy boshqaruvning muhim falsafalaridan biri hisoblangan boshqaruv konsepsiyasi hisoblanadi. Sifat menejmenti korxonada miqyosida tashkil etiladigan va haridorlarning ehtiyojini qondiradigan darajada mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan jarayonlar va harakatlar majmuidan iborat. Mazkur boshqaruv shakli korxonalarda ishlab chiqarish xususiyati va shaklidan kelib chiqib turlicha qo'llanilishi mumkin. Har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot sotilayotgan bozor joylashgan hududning standartlariga va o'sha joydagi sotib olayotgan xaridorlarning qiziqish hamda hohishlariga mos bo'lishi zarur.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, bozor munosabatlari, sifat menejmenti, ISO standartlari, unumdorlik, raqobatbardoshlik, qaror qabul qilish, mijoz.

**Abstract.** Quality management is a management concept that is considered one of the important philosophies of modern management. Quality management consists of a set of processes and actions that are organized at the enterprise level and ensure the production of products that satisfy the needs of customers. This form of management can be used in enterprises in different ways depending on the nature and form of production. Each manufactured product must meet the standards of the area where the market is located and the interests and desires of the buyers in that place.

**Keywords:** agriculture, market relations, quality management, ISO standards, productivity, competitiveness, decision-making, customer.

Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini tarkib topishi va rivojlanihi sohada tub tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish asosida amalga oshirilmoqda. Sababi, yangi iqtisodiy tizim hisoblangan bozor iqtisodiyoti qishloqda samarali faoliyat ko'rsata olishi uchun u o'ziga mos keladigan yangi tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish asosida amalga oshirilib agrar iqtisodiyotni bozor talablariga moslashtiradi hamda







qishloqda mulkdorlar qatlamini vujudga kelishi va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun ham qishloqda yuz berayotgan tub tarkibiy o'zgarishlar agrar islohatlarni chuqurlashtirishning qonuniy natijasi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat ishlab chiqarishining har qanday vositasidan oqilona va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, eng avvalo, uning xususiyatlarini bilish hamda shu asosda tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir. Respublikada qishloq xo'jaligi korxonalarini yanada qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy mustaqilligini bosqichma-bosqich mustahkamlash jarayonida bozor talablariga to'la javob beradigan klaster tizimini shakllantirilishiga va uni samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlanishiga alohida ahamiyat berilmoqda.

Sifat menejmenti zamonaviy boshqaruvning muhim falsafalaridan biri hisoblangan boshqaruv konsepsiyasi hisoblanadi. Sifat menejmenti korxonada miqyosida tashkil etiladigan va haridorlarning ehtiyojini qondiradigan darajada mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlaydigan jarayonlar va harakatlar majmuidan iborat. Mazkur boshqaruv shakli korxonalarda ishlab chiqarish xususiyati va shaklidan kelib chiqib turlicha qo'llanilishi mumkin. Har bir ishlab chiqarilayotgan mahsulot sotilayotgan bozor joylashgan hududning standartlariga va o'sha joydagi sotib olayotgan xaridorlarning qiziqish hamda hohishlariga mos bo'lishi zarur.

Sifatni boshqarishning zamonaviy nazariyasida, sifatni boshqarish bo'yicha faoliyat mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin samarali emas, balki bu faoliyat mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilishi lozim deb hisoblanadi. Chunki mahsulot ishlab chiqarilganidan so'ng uning sifatini ta'minlash bilan bog'liq operatsiyalarga ham yakun yasaladi va natijada uni yangilanishi korxonada uchun ortiqcha harajatlarni vujudga keltiradi. Shundan ko'rinadiki, sifatni ta'minlash korxonada faqat ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladi<sup>1</sup>. Har bir korxonada sifatni ta'minlashdagi barcha harakatlarni ishlab chiqarish jarayoniga qadar tayyorlashga harakat qiladi.

Sifat menejmentining rivojlanishi korxonalarda aniq standart asosida mahsulot ishlab chiqarishga hamda jahon bozorida umumbelgilangan standartlarni amal qilishiga imkon beradi. Sifat menejmentini ilk rivojlanishi 1910-yillarda, Ford kompaniyasida

---


<sup>1</sup>Мазур И.И. Управление качеством: Учебное пособие для студентов вузов. – М.:Омега-Л, 2012.-216с. 1136.





“T” Model avtomobilini ishlab chiqarish liniyasida shakllandi<sup>2</sup>. Korxonada mahsulotni standart bilan taqqoslash hamda sinovdan o‘tkazish uchun nazoratchilar guruhini tuzdi. Guruh tomonidan aniqlangan sifatsiz mahsulotlar qayta ishlov berishga yuborildi, ba’zilariga esa pastroq narxda sotish siyosati qo‘llanildi. Sifat menejmentining tamoyillari sifatni rivojlanish bosqichlarining shakllanishi va qaror topishi natijasida shakllangan. Tamoyillar bitta bosqichdagi sifat menejmentining natijasi emas. Har bir bosqich tamoyillarni vaqt o‘tishi va tajriba ortishini hisobiga takomillashtirib, rivojlantirib bordi.

Sifat menejmentini ishlab chiqarishga, amaliyotga tatbiq etishning juda ham ko‘plab prinsiplari mavjud.



### 1.-rasm. ISO talablariga asosan sifat menejmenti<sup>3</sup>

Sifat boshqaruvidagi barcha tamoyillar 1946-yilda tashkil topgan Xalqaro Standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning standartlari asosida ishlab kelmoqda. Xususan, Rossiyalik olimlar V.M. Mishin<sup>4</sup>, M.M.Kane, B.V.Ivanov, V.N.Koreshkov,

<sup>2</sup> Jens Dahlgard, Kai Kristensen and Gopal K.Kanji Fundamentals of Total Quality Management. Textbook, London and New York, Taylor & Francis 2002. Pages. 337.

<sup>3</sup><https://www.iso.org/publication/PUB100080.html> – International Organization for Standardization ISO rasmiy sayti

<sup>4</sup> Мишин В.М. Управление качеством: для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации», М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2005 – 64 с





A.G.Sxirtladze<sup>5</sup> va T.A.Salimova<sup>6</sup>lar sifat boshqaruvidagi asosiy prinsiplarning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tganlar. Yuqoridagi rasmdan ko'rinadiki, sifat menejmentining umum qabul qilingan prinsiplari ISO talablariga asoslanadi hamda quyidagicha mazmun kasb etadi.

1. Mijozni mo'ljallash olish – korxonalar tashkilotlar o'zining iste'molchilariga tobe bo'ladi, shuning uchun ularning joriy va kelgusidagi ehtiyojlarini o'rganishi, ularning talablarini bajarishi va kutganidan ortiq tovar yetkazib berishga erishishi lozim.

2. Rahbarning yetakchiligi – rahbarlar korxonalar maqsadi va faoliyat yo'nalishlarining yagonaligini ta'minlaydi, shuningdek korxonalar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda xodimlarni samarali yo'naltirish hamda boshqarishi lozim;

3. Ishchilarni jalb etish – korxonadagi barcha xodimlarni ishga to'liq jalb etish, ularning qobiliyatlaridan unumli foydalanish uchun ishchanlik muhitini shakllantirish kerak;

4. Jarayonli yondashuv – kutilayotgan natijaga qachonki faoliyatni va zaruriy resurslarni jarayon sifatida boshqarilganida erishiladi;

5. Tizimli yondashuv – tizim sifatida o'zaro bog'liq jarayonlarni aniqlashi va samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish korxonalar samarasiga xisssa qo'shadi;

6. Doimiy rivojlanish – korxonalar faoliyatini doimiy yaxshilash asosiy maqsad deb qaralishi lozim;

7. Dalillarga asoslangan qaror qabul qilish – qarorlarni qabul qilishda muayyan asosga ega bo'lgan axborotlardan foydalanish, tahlil etish talab etiladi;


8. Yetkazib beruvchilar bilan manfaatli munosabatlar – korxonalar va ularning yetkazib beruvchilari o'zaro bir-biri bilan bog'liq ravishda faoliyat yuritadi. Bunday holatda ikkala tomonning moddiy boylik yaratish imkoniyatlari oshadi<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup>Кане М.М., Иванов Б.В., Корешков В.Н., Схиртладзе А.Г. Системы, методы и инструменты менеджмента качества: Учебного пособие. – СПб.: Питер, 2008. – 67 с.

<sup>6</sup>Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности «Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-изд., стер. – М.: Издательство «Омега-Л», 2008. – 43 с.

<sup>7</sup>Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности «Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-изд., стер. – М.: Издательство «Омега-Л», 2008. – 43 с.





“Sifat, unumdorlik, raqobatbardoshlik” (1982) kitobida E.Deming sifat menejmentining 14 postulatida quyidagi mohiyatga olib keluvchi menejrlarning talablari va hatti-xarakatlari tushunchasini aks ettirdi:

1. Faoliyatning doimiy maqsadi mahsulot va xizmat sifatini oshirish bo‘lishi zarur.
2. Korxonada falsafasi bironta ham defektga yo‘l qo‘ymaslik zarur.
3. Foydalanilayotgan statistik metodlardan kelib chiqib, mol yetkazib berayotgan hamkorlardan yetkazib berilayotgan xomashyolarning sifat bo‘yicha kafolatini talab qilish lozim.
4. Mahsulotlarni yetkazib berishda faqatgina quyi narxlarni mo‘ljal olib shartnomalar tuzmaslik zarur.
5. Tayyorlovchi sifat sohasidagi muammolarni aniqlashi va bartaraf qilmog‘i lozim.
6. Korxonadagi barcha ishchilar o‘qishlari shart.
7. Boshqaruvni yangi usullaridan foydalanish lozim.
8. Ishchilardan ishdagi xato uchun qo‘rquv bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.
9. Bo‘limlar faoliyatida hech qanday to‘siqlar va baryerlar bo‘lmasligi lozim.
10. Ishlarni tashkillashda real faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘ng‘iroq va shiorlardan foydalanmaslik lozim.
11. Hech qaysi ishchi faoliyatini miqdoriy meyorlar bilan baholamang.
12. Barcha ishchilardan o‘z kasbidan g‘ururlanish va hurmat xissini pasaytiradigan barcha sabablarni bartaraf etish kerak.
13. O‘qishga, ta‘limni oshirishga va o‘zini-o‘zi o‘qitishga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantirish kerak.
14. Yuqori bo‘g‘in rahbarlari sifat sohasida o‘z majburiyatlarini aniq qo‘yishi lozim.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, sifat menejmentining barcha yo‘nalishdagi tamoyillari ishlab chiqarishga va uni administrativ boshqarishga asoslangan bo‘lib, tayyor mahsulotni iste‘molchigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi.


Sifatni boshqarish prinsiplarini sifat mexanizmining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ham izohlash mumkin. O‘zbek olimlaridan J.Qambarov sifatni boshqarish mexanizmini quyidagicha ta‘riflaydi: sifatni boshqarish mexanizmi deganda, mahsulot hayotiy siklining istalgan bosqichida sifatni boshqarish darajasidagi jami obyekt va





subyektlar, boshqaruv usullari va funksiyalari, foydalanayotgan prinsiplar tushuniladi. Ular sifat boshqaruvini korxonadagi to'laqonli harakatini ta'minlab beradi<sup>8</sup>.

Fikrimizcha sifatni boshqarish tamoyillarini asosiy va yordamchi kabi ikki turga bo'lish mumkin. Birinchi turdagi tamoyillar guruhiga xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarish va sotish taalluqli bo'lsa, ikkinchi turdagi tamoyillarga mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq tashkiliy, innovatsion tamoyillar kiradi. Ushbu nuqtai-nazardan olib qaraganda sifat menejmentini quyidagi tamoyillar guruhi orqali ishlab chiqarishga tatbiq etilishi tovarni bozorda aylanish tezligini oshiradi:



## 2-rasm. Sifat menejmenti tamoyillari<sup>9</sup>

### 1. Xomashyoni sotib olish bilan bog'liq tamoyillarga:

- tranzaktsiya harajatlarini optimallashtirish;
- ta'minotchiga aniq talablar tizimini ishlab chiqish;
- hujjatlashtirish- sotib olinayotgan xomashyo va materiallar barcha yo'nalishlar bo'yicha belgilangan barcha hujjatlarni rasmiylashtirish;
- kirish nazoratini takomillashtirish;
- yetkazib berish qoidalarini samarali kelishuvini tashkil etish;

<sup>8</sup>Ж.Қамбаров, Ю.С.Шокирова. Сифат менежментини такомиллаштириш: Монография. Т.: "Наврўз", 2018.-61 бет.

<sup>9</sup>Д.А.Орипов Чарм-поябзал корхоналарида сифат менежментини такомиллаштириш Н.Халилов Маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишда сифатни бошқариш тизимини такомиллаштириш (Фарғона вилояти саноат корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Т.: 2021й. 12 бет





ISSN (E): 2181-4570

- ta'minot bo'yicha logistik tizimni doimiy tahlil qilish.

## **2. Ishlab chiqarish bilan bog'liq tamoyillar:**

- tartib-intizom barcha boshqaruv jarayonlari uchun asosiy talab bo'lishi talab etiladi;

- texnologik jarayonlarga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritmaslik;

- yo'riqnoma bo'yicha ishlash;

- hamma predmetlarni o'z joyida saqlash;

- defect va braklarga yo'l qo'ymaslik

- o'z ustida ishlash, kreativ fikrlash uchun imkoniyat yaratilishi;

- samarali laboratoriya tashkil etilishi;

- mahsulotni keying bosqichga o'tkazishda tanlanma kuzatish;

- mehnat predmetlarini ishga shay holatda saqlash;

Yuqoridagi tamoyillardan kelib chiqqan holda, sotish, tashkiliy va innovatsion tamoyillar ham kelib chiqadi va ular ham ta'minot va ishlab chiqarish tamoyillarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Sotish tamoyillari Tovar hayotiy siklining aksi hisoblangan ikkinchi tomonida turadi. Tashkiliy va innovatsion tamoyillar esa korxonada sifat menejmentini tashkil etishda infrastruktura ko'rinishida yordam beradi.


### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мазур И.И. Управление качеством: Учебное пособие для студентов вузов. – М.:Омега-Л, 2012.-216с. 113б.
2. Jens Dahlgaard, Kai Kristensen and Gopal K.Kanji Fundamentals of Total Quality Management. Textbook, London and New York, Taylor&Francis 2002. Pages. 337.
3. <https://www.iso.org/publication/PUB100080.html> – International Organization for Standardization ISO rasmiy sayti
4. Мишин В.М. Управление качеством: для студентов вузов, обучающихся по специальности «Менеджмент организации», М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2005 – 64 с
5. Кане М.М., Иванов Б.В., Корешков В.Н., Схиртладзе А.Г. Системы, методы и инструменты менеджмента качества: Учебного пособие. – СПб.: Питер, 2008. – 67 с.
6. Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности «Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-изд., стер. – М.: Издательство «Омега-Л», 2008. – 43 с.





7. Салимова Т.А. Управление качеством: учеб. по специальности»Менеджмент организации»/Т.А.Салимова. – 2-еизд., стер. – М.: Издательство»Омега-Л», 2008. – 43 с.
8. Ж.Қамбаров, Ю.С.Шокирова. Сифат менежментини такомиллаштириш: Монография. Т.: “Наврўз”, 2018.-61 бет.
9. Д.А.Орипов Чарм-поябзал корхоналарида сифат менежментини такомиллаштириш Н.Халилов Маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишда сифатни бошқариш тизимини такомиллаштириш (Фарғона вилояти саноат корхоналари мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Т.: 2021й. 12 бет





## MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARIDA YASAMA SO‘ZLARNING IFODALANISHI

Mirzayeva Ma‘mura Erkin qizi  
SamDU 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning XI asrda yaratilgan eng nodir asarlardan biri bo‘lmish “Devonu lug‘atit turk “ asaridagi ayrim yasama so‘zlarning yasalishi usullari haqida gap ketadi.

**Kalit so‘z.** Fonetik usul, kompazitsiya usuli, yasama so‘z, morfologik usul.

Fonetik usul bilan yuzaga keladigan yasalmalar. Tilshunoslikka oid manbalarda so‘z yasalishining bir necha turlari keltirilib o‘tilgan. Hozirgi o‘zbek tilida yasama so‘zlar miqdori lug‘at boyligining katta qismini tashkil qiladi. Bu yasalmalar hosil bo‘lishiga ko‘ra tarixiy (diaxron) va hozirgi (sinxron) yasalishga aloqador bo‘lishi mumkin. So‘z yasalishining tahlilida bu ikki hodisani farqlash lozim. So‘z yasalishi hozirgi (sinxron) aspektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining ma‘lum bir davri ko‘zda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon o‘zbek tili. Bunda yasama so‘zning qismlari o‘rtasidagi munosabat jonli bo‘ladi, ya‘ni so‘zning ma‘nosini qismlarning ma‘no munosabati bilan asoslash mumkin bo‘ladi. Masalan, *o‘r-im, ter-im, temir-chi, doira-chi, bilim-li, aql-li, randa-la, egov-la* va boshqalar<sup>1</sup>. Bunday usulda so‘z yasalishini tahlil qilish tilning zomanaviy va tarixiy davr nuqtayi nazari inobarga olinadi.

Fonetik usulda so‘z yasash tilda kam uchraydiga hodisa hisoblanadi. Bu usul bilan so‘z yasash 2 hodisani ko‘zda tutadi: 1) so‘zning tarkibida fonetik o‘zgarish (tovush o‘zgarishi) qilish orqali yangi so‘z hosil qilish. Masalan, bor-boz, tog-tosh, ko‘z-ko‘rmoq, tosh-tish (qattqlik belgisi asosida); 2)urg‘uning o‘rnini o‘zgartirish bilan yangi so‘z yasash. Masalan, yangi (sifat), yangi (ravish), hozir (ravish) - hozir (tayyor), tugma (ot), tugma (fe‘l), akademik (unvon) – akademik (nashr turi)<sup>2</sup>. Ilmiy tilshunoslik manbalarida fonetik usul bilan so‘z yasash nutq ohangiga bog‘lik ekanligi ta‘kidlanadi. Professor Y.Tojiev birikma tarkibida fonetik o‘zgarish, grammatik o‘zgarish - qaratqichli birikmalarda qaratqich shaklining èki egalik shaklining tushib qolishi, har ikkalasining tushib qolishi, sintaktik aloqaning, ya‘ni qaratqich-qarashlilik

<sup>1</sup> Sapayev Q., Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.2009, 31-bet.

<sup>2</sup> O‘sha manba, 35-bet.







munosabatining yo'qolishi; sifatlovchili birikmalarda sifatlovchi-sifatlanmishlikning yo'qolishi; ega-kesim munosabatidagi birikmalarda ega-kesimlik munosabatining yo'qolishi: qumbosdi, tuyachukdi, bo'ribosar, otchopar, kelin tushdi ohangning o'zgarishi; semantik o'zgarish - ma'nolar qorishib, singishib ketishi, bir tushunchani ifodalash holiga kelishi kabi ana shu uch o'zgarish bo'lmasa, birikma qo'shma so'zga aylanmasligini ko'rsatadi (suvQtuproq - ular singishib, qorishib ketishidan bir tushuncha ifodalovchi loy so'zi vujudga kelgani kabi). Demak, qo'shma so'z tilda bor bo'lsa, uning mavjudligi tan olingan bo'lsa, u haqiqatan ham, tilda mavjud birliklar vositasida- shular asosida hosil bo'lgan bo'lsa, lug'atlarda qayd etilsa va lug'aviy birlik sanalsa, ko'rinadiki, u - yangi so'z, aynan, yangi yasalgan, yangi hosil qilingan so'z - lug'aviy birlikdir. Albatta, u affiksatsiya usulidagi yasalgan emas, uning yasalishi boshqa usulda, ya'ni so'z birikmasining yuqorida aytilgan uch o'zgarishi asosida birikmalikdan chiqishi, tarkibidagi komponentlarning bir-biriga singishishi usulida yasalgan. Unga affiksatsiya usulidagi yasaliş holatini tatbiq etib bo'lmaydi. Qo'shma so'zning motivlanishi ham, tarkibiy qismlarining xususiyatlari ham boshqachadir. A.G'ulomov qo'shma so'zlarga ana shu jihatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos yasaliş usuli borligini hisobga olib endashgan. Shunga ko'ra, buni alohida usul sifatida belgilagan. Turkiy tilshunoslikning ming yillik tarixi davomida ham olimlar shu va shunga o'xshash yana ko'p jihatlarni e'tiborga olib bu usulda yangi birlik vujudga kelishini qayd etishgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, olimning XX asrning 70 yillarida so'z yasalişiga ham tarixan, ham zamonaviylik nuqtai nazaridan endashgan holda o'zbek tilida so'z yasalişining uchta usulini ko'rsatishi, «...ular ichida hozirgi kunda affiksatsiya va kompozitsiya usullari etakchilik qilishi, fonetik usul esa o'z faolligini deyarli yo'qotgan», degan fikri hamon o'z kuchini yo'qotgan emas<sup>3</sup>.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida tarixiy jihatdan yasalma deb qaraladigan so'zlarni jadval ko'rinishida berib, ularni tahlil qilishga harakat qilamiz.

1-jadval.

### So'z va uning izohi

### Yasaliş asosi

<sup>3</sup> Абдумаликов Ж., Сўз яшаш усулларига оид қарашлар. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 7. 2022





1. Bulut soʻzi qalin sochga ham oʻxshatiladi: built-teg soči – sochi bulutdek qalin, quyuq, koʻp. Metafora.143
2. **Afrāsiyāb** ning bolalari biror ish, voqea, xabarni aytganda yoki yozganda otlariga hurmat yuzasidan oʻzlarini kamsitib, “qulingiz falon qildi” deb “qulingiz” oʻrnida tigin soʻzini ishlatar edilar. Metonimiya.166
3. **Ağinči (Ağiči)** – ipaklik kiyimlarni saqlovchi, xazinachi. Metonimiya. 68
4. **Arğu (argʻu)** – ikki togʻ orasi; Tirāz va Balasağun orasidagi shaharlarga ham **Arğu** deydilar. Chunki u ikki togʻ orasidadir. Metonimiya. 64
5. **Arquči** (arqichi) – vositachi. Ikki kishi orasida turgan kishi. Bu soʻz qiz tomon bilan kuyov tomon oʻrtasidagi sovchiga ham qoʻllanadi. Metonimiya.70
6. **Ašliq** (ashliq) – oshxona (osh eyiladigan joy); oʻgʻuzlar “bugʻdoy”ni ašliq deydilar. Metonimiya. 58
7. **Atğaq (atgʻaq)** – qorinda sariq suv yigʻilish kasalligi; qulanj. Sariq rangdagi bir turli oʻsimlikka ham atğaq deyiladi. Qaygʻudan rangi






- sarg'ayganlarga ham **atgʻaq** deyiladi.60
8. Azma (azma) – bichilgan qo'chqor; moyaklari terisidan ajratib olingani uchun qo'ylarga chopolmaydigan qo'chqor. Metonimiya. 65
  9. Baldiz (baldiz) – xotinning singlisi. Erning singlisiga Baldiz deyilmaydi., siñil deyiladi. Metonimiya.182
  10. Banzī (banzi) –uzum kesish vaqti o'tgandan keyin,ishkomda qolgan (kanjakcha). Metonimiya.169
  11. Barsyīli (bars yili) – bars yili;Metonimiya.141
  12. Bašgan (bashg'an) – ellik – yuz ratl og'irligida bo'ladigan katta bir baliq jamoaning kattasini ham shunga o'xshatib bodun bašganī (jamoalug'i, raisi) deb ataydilar. Metonimiya.174
  13. Bīčguč (bichg'ich) – qaychi. U bilan har narsani kesiladi. Metonimiya.180
  14. Bičīn (bichin) – (maymun); turklarda o'n ikki yil nomlarining biri. Metonimiya.165
  15. Bičīn yīli (bichin yili) – maymun yili.Metonimiya.141
  16. Bīčīš (bichish) – yirtish; ulug'larning ziyofatiga kelganlarga





- taqdim qilinuvchi shoyi  
gazlama. Metonimiya. 148
17. Bitig (bitig) – yozuv; yozmoq.  
Snekdoxa. 155
18. Böksäk (bo'ksak) –  
xotirlarning bo'ksasi bilan qo'yni  
orasidagi er (u erga ziynatli tumor  
taqadilar). Metonimiya. 189
19. Bošgüt (bo'shg'ut) – hunar  
o'rganuvchi shogird.  
Metonimiya. 180
20. Bošuğ (bo'shug') – sulton  
tomonidan o'ziga yuborilgan  
elchining qaytib ketishga berilgan  
ijozat qog'ozi. Elchilarning berilgan  
tuhfaga ham shu so'z qo'llanadi.  
Metonimiya. 150
21. Buğra (bug'ra) – erkak tuya;  
Buğraxan oti ham shundan olingan.  
Metonimiya. 168
22. Čağri (chag'ri) – lochin; Čağri-  
beg deyilgan kishi oti ham shundan.  
Metafora. 168
23. Čer (cher) – ro'para  
(o'g'uzcha); masalan: anıñ ewi bu  
čerlikdä - uning uyi bu narsaning  
ro'parasidadir. Ikki askar safiga ham  
čerig deydilar. Chunki ular ham bir –  
biriga ro'para turadilar. Metafora. 133
24. Čiğri (chig'ri) – gardish,  
chig'riq kök čiğriši – osmon gardishi.  
Snekdoxa. 168





25. Čiğri (chig'ri) – tegirmon parragi, suv chiqaradigan chig'riq parragi. Ipak va ip o'raydigan charx, umuman har qanday g'altakka ham shu so'z qo'llanadi. Snekdoxa.168
26. Čöp (cho'p) – sharbat quyqasi va har qanday narsaning loyqasi. Tuban va past kishilarga Čöp-čöp kishilar deydilar.Metafora.132
27. Čöp (cho'p) – tutmoch (non) parchasi, burdasi; bir Čöp yegil – bir burda egin. Bu so'z kesilgan, maydalangan ugraga nisbatan ham ishlatiladi.Metafora.132
28. Čöpür (cho'pur) – echkning yungi.Arzimagan mol va matolarga qo'llanuvchi Čöpür- Čepür so'zi ham shundan kelib chiqqan.Metafora.146
29. Čuqmın (chuqmin) – lochiraga o'xshash bir non. Uni qozonda suv bug'i bilan pishiriladi, bu oson hazm bo'ladigan non. Metonimiya.177
30. Čuwğa (chuvg'a) – tezyurar xat tashuvchining yo'lda oladigan oti, ma'lum manzilga etganda, uni qoldirib, boshqasini minadi. Metonimiya.170
31. Čuwğa (chuvg'a) –yo'l boshlovchi, rahbar (qipchoq va o'g'uzcha).170





32. Egät (egat) – nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga. Metonimiya.35
33. Eñäk (engak) – xotinlar bosh yopinchiqlariga bog'laydigan ip, bog'ich. Tikuv. Metonimiya. 67
34. Er tını oçdı – kishining nafasi o'chdi. Bu fe'llarning hammasida oçar, oçmaq shakli qo'llanadi. Metonimiya.80
35. Eriñäyü (eringayu) – oltibarmoqli odam. Sinekdoxa. 68
36. Erning öpkäsi oçdı – kishining g'azabi so'ndi. Metonimiya.80
37. İlimğa (iling'a) – shox maktublarini turk xati bilan yozuvchi kotib. Metonimiya. 71
38. İnal (inal) – onasi katta urug'dan, otasi oddiy xalqdan tug'ilgan bola ismi. Bu asosdir. Metonimiya.62
39. İñän (ingan) – urg'ochi tuya. Maqolda (shunday kelgan): İñän iñrasa, botu bozlar. Ma'nosi: "Urg'ochi tuya ingrasa, bo'ta bo'zlaydi". Bu maqol "Yaqinlar doim bir-biri haqida qayg'uradilar", degan mazmunda qo'llanadi. Metonimiya. 61
40. Irk (irk) –qo'y; to'rt yoshga qadam qo'ygan qo'y. Metonimiya.31
41. İt yili (it yili) – it yili. Metonimiya.141






42. Kerägü (keragu) – chodir. Turkmanlar nazdida. Lekin ko'chmanchilar nazdida bu "qishki uy"dir. Metonimiya.178
43. Keđüt (kedut) – kiyiladigan kiyim. Ko'pincha bu so'z to'yda kelin va kuyov yaqinlariga xurmat yuzasidan kiydiriladigan to'nga nisbatan aytiladi; keđut berdi – to'n berdi, to'n kiygizdi. Metonimiya.144
44. Kiz (kiz) – mushk qutichasi, taxt, sandiq, chamadon va boshqalar. Kizdäki kiz yïpar. Ma'nosi: "Mushk hidi mushk qutichasida saqlanib qoladi" ["Iaor hidi ipor sandig'ida saqlanib qoladi"]. Metafora.135
45. Körk (qo'rk) – mo'yna, po'stin.143
46. Kötič (ko'tich) – yosh bolalarning so'kish so'zi, "ey ko'tga o'xshash sassiq", demakdir. "Ko't" so'zi bilan bog'liq. Metafora.145
47. Bulut so'zi qalin sochga ham o'xshatiladi: built-teg soči – sochi bulutdek qalin, quyuq, ko'p. Metafora.143
48. **Afrāsiyāb** ning bolalari biror ish, voqea, xabarni aytganda yoki yozganda otlariga hurmat yuzasidan o'zlarini kamsitib, "qulingiz falon qildi" deb "qulingiz" o'rnida tigin so'zini ishlatar edilar. Metonimiya.166





49. **Ağinçi (Ağiči)** – ipaklik kiyimlarni saqlovchi, xazinachi. Metonimiya. 68
50. **Arğu (arg'u)** – ikki tog' orasi; Tirāz va Balasağun orasidagi shaharlarga ham **Arğu** deydilar. Chunki u ikki tog' orasidadir. Metonimiya. 64
51. **Arquči** (arqichi) – vositachi. Ikki kishi orasida turgan kishi. Bu so'z qiz tomon bilan kuyov tomon o'rtasidagi sovchiga ham qo'llanadi. Metonimiya.70
52. **Ašliq** (ashliq) – oshxona (osh eyiladigan joy); o'g'uzlar "bug'doy"ni ašliq deydilar. Metonimiya. 58
53. **Atğaq** (atg'aq) – qorinda sariq suv yig'ilish kasalligi; qulanj. Sariq rangdagi bir turli o'simlikka ham atğaq deyiladi. Qayg'udan rangi sarg'ayganlarga ham **atğaq** deyiladi.60
54. **Azma** (azma) – bichilgan qo'chqor; moyaklari terisidan ajratib olingani uchun qo'ylarga chopolmaydigan qo'chqor. Metonimiya. 65
55. **Baldiz** (baldiz) – xotinning singlisi. Erning singlisiga Baldiz deyilmaydi., siñil deyiladi. Metonimiya.182








ISSN (E): 2181-4570

56. Banzī (banzi) –uzum kesish vaqti o'tgandan keyin,ishkomda qolgan (kanjakcha). Metonimiya.169
57. Barsyīli (bars yili) – bars yili; Metonimiya.141
58. Bašgan (bashg'an) – ellik – yuz ratl og'irligida bo'ladigan katta bir baliq jamoaning kattasini ham shunga o'xshatib bodun bašganī (jamoalug'i, raisi) deb ataydilar. Metonimiya.174
59. Bīčguč (bichg'ich) – qaychi. U bilan har narsani kesiladi. Metonimiya.180
60. Bičīn (bichin) – (maymun); turklarda o'n ikki yil nomlarining biri. Metonimiya.165
61. Bičīn yīli (bichin yili) – maymun yili.Metonimiya.141
62. Bīčīš (bichish) – yirtish; ulug'larning ziyofatiga kelganlarga taqdim qilinuvchi shoyi gazlama.Metonimiya.148
63. Bitig (bitig) – yozuv; yozmoq. Snekdoxa.155

3.2. **Kompozitsiya usulida so'z yasash.** 2 ikki yoki undan ortiq komponentlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan birlik kompozitsiya usulida so'z deyiladi. Manbalarda so'z yasalişining olti usulidan faqat ikkitasi:L affiksatsiya va kompozitsiya da yangi ma'noli so'z hosil bo'ladi. Bu usulga ko'ra ikki va undan ortiq so'zlar birikib, yangi leksik ma'noli so'z yasaydi. M.: qo'ziQqorinqqo'ziG'qorin,





oqQqushq oqG'qush, sakkizQoyoqq'sakkizG'oyoq, hozirQjavobqhozirG'javob. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlar odatda qo'shma so'zlar deb yuritiladi<sup>4</sup>.

Bu usulda yasama so'zlar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari ham uchraydi. Bu holatni hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalarida ham ko'p uchratish mumkin. Tilimizda yangi ma'no beruvchi leksik birliklarni hosil qiluvchi usul tarixiy shaklda ham ko'p uchrashini kuzatishimiz mumkin. Kompozitsiya usuli asosida deyarli bat so'z turkumlariga oid birliklar yasalishi inobatga olib, ularni turlarga ajratgan holda o'rganishga harakat qilamiz.


1. Ismlar;
  2. Fe'l, yordamchi va alohida olingan so'z turkumlari.
- DLTdan olingan misollarni jadval ko'rinishida tahlil qilamiz.

### 1-ismlar (Ot, son, sifat va ravish).

2-jadval

So'z va uning izohi	Yasalish asosi
1. Ačig'lig' er (achig'lig' er) – maishatli, ayshga berilgan kishi.73	
2. Ađduq (ag'duq)] ađduq kiši – notanish kishi. Xarflarni almashtirib Adđuq tarzida ham talaffuz etiladi. 53	
3. Ađirliđ (ag'irlig')] Ađirliđ er – odamlar orasida hurmatli,sevimli kishi. 73	
4. Ala (ala) – ola; oq; tanasida oqi bor odam.49	
5. Ala (ala) – pes, ola tanli kishi.46	
6. Alinliđ (alinlig')] Alinliđ er – peshonasi keng, peshonali kishi.73	
7. <b>Alp</b> ( <i>alp</i> ) – alp, botir, qahramon. Maqolda (shunday keladi): Alp yađida, alčaq čođida Ma'nosi: "Botir yov bilan to'qnashaganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi ". Bu so'z quyidagi parchada ham kelgan. 31	

<sup>4</sup> Amonov U., Ona tili (Morfologiya). Buxoro. "Durdona" nashri, 2021, 25-bet.





8. Alpağut (alpag'ut) – engilmas kurashchi, botir, bahodir, pahlavon. 72
9. Aluq (aluq) – johillik Jaluq er – johil kishi (o'g'uzcha).40
10. Anğa (ang'a)] anğa er – qadsiz, jo'n odam; har qanday qadsiz, jo'n, tashlandiq narsaga ham anğa deyiladi. 64
11. Aqi (aqi) – sahiy, qo'li ochiq. 49
12. Arqa (arqa) – qiyin vaqtlarda yordam beruvchi kishi; orqa kuch; hiyla va tadbirlar bilan yordam beruvchi kishi.64
13. Arquq (arquq)] arquq kişi – so'z tinglamaydigan, so'zga so'zga kirmaydigan o'jar odam. 56
14. Aruq (aruq) aruq er – oriq, charchagan kishi va shu kabilar. 39
15. asurğan (asurg'an) – aksa uruvchi, aksiradigan G'G' chuchkiradigan.76
16. asurtğuy (asurtg'uq) ] asurtğuy er – aqlli, ziyrak kishi.475
17. Atim (atim)] atim er – o'q otishga usta odam, mergan. 43
18. Axsaq (axsaq) – oqsoq, cho'loq.60
19. Axsun er (axsung er) – mastlikda to'palon qiladigan kishi; janjalkash.Bu so'zni axsum tarzida ham qo'llaniladi. 59
20. Ayban (aybang) – kal] ayban er – kal kishi (chigilcha). 59
21. Adig (adig') – mastlikdan hushiga kelgan kishi; esrüg Adig – mast va hushyor. 39
22. Bächal (bachal) – erlar, xotin – qizlar va hamma hayvonlarning kuchliroq, mahkamroq, pishiqrog'i.158
23. Bağir (bag'ir) – qorajigar. Hech kimga bo'yin egmovchi kishini bedüg bağirliğ deb yuritiladi.145





ISSN (E): 2181-4570

24. Bağirsaq(bag'irsaq)] bağirsaq kişi –hushmuomala, yoqimli kishi.198
25. Bašnaq (bashnaq) ] bašnaq er – sovutsiz, qurolsiz, qalqonsiz, boshqasiz yalang'och kishi.185
26. Böktäl (bo'ktal) ]Böktäl er – o'rta bo'yli kishi.191
27. Böñ (bo'ng)]böñ kişi – pakana, yo'g'on beso'naqay kishi.443
28. Bükin (bukin) – erligi yo'q, mizoji zaif kishi.160
29. Čamğuq (cham'ug) – chaqimchi ] Čamğuq er – yolg'onchi ikkiyuzlamachi kishi.187
30. Čanač (chanach) – xunasa; qo'rqoq. Ishida juratsizlik va tayinsizlik qilgan har bir kishi.144
31. Čaqir (chaqir) – ko'kko'z, chag'irko'z.146
32. čawšañ (chavshang) – ko'zi yoshlanib turadigan odam.454
33. Čeñal er (chengal er) – yomon kishi.298
34. Čin (chin) ] čin kişi – yumshoq fe'lli, qo'pol ish.370
35. Čöküt (cho'kut) – pakana, kalta bo'yli.143
36. Čotur (cho'tur)] čotur kişi – yomon xulqli kishi.146
37. Čumili (chumili) – issiqdan ko'zi tinib, boshi aylangan kishiga Čumili boldi deyiladi.178
38. Ekäk (ekak)] ekäk ešlär – fohisha xotinlar. 44
39. Ekäklik (ekaklik) – xotinning yuzsizligi, orsizligi.75
40. Erig (erig) ] erig er – tirishqoq, g'ayratli kishi.41
41. Eriñän (eringan) – bo'ydoq] Eriñän er – bo'ydoq kishi. 59
42. Eriñäyü (eringayu) – bo'yi ikki gazli, juda pakana kishi. 68
43. Eriñäyü (eringayu) – oltibarmoqli odam. 68
44. Erlik (erlik) – erlik, mardlik. 54
45. Ersäk (ersak) – ersak, ersiragan] ersäk ešlär – buzuq va adashgan xotin. 54





ISSN (E): 2181-4570


46. Eš(esh) – esh; o’rtoq; xamrox; jini bor, aloxida tabiatli kishilarga xam ešlig deyiladi. 33
47. Etlik (etlik) – kanora (go’sht osiladigan temir); so’yishga tayyorlangan qo’yga ham etlik qoy deyidilar etlik kiši – etlik kishi. 53
48. Eträk (etrak) – rangi sariq kishi (o’g’uzcha).54
49. Il (il) il kiši – past odam; baxil kishi. 34
50. Īnänč (inanch) – ishonchli; Īnänč beg – ishonchli bek. 67

### UMUMIY XULOSALAR.

Bundan tashqari Mahmud Koshg‘ariy turkiy til arab tilidan hech bir tomoni bilan qolishmasligi ayon bo‘lishi uchun Halil ibn Ahmadning “Kitobul ayn” asarida tutgan tartibini qo‘llash, istemoldan chiqqan so‘zlarni ham keltirib o‘tish fikri tug‘ilganligini aytib o‘tadi. Mahmud Koshg‘ariy „Devoni lug‘atit turk” asrida turkiy tillarni ikkiga ajratib chiqqan. Birinchisi, barcha turkiy qavmlar uchun tushunarli bo‘lgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotlarda qo‘llanuvchi, o‘tmish va ana‘nalarni saqlab qolayotgan yozma-adaboy til, buni muallif „turkcha”, „ xoqoniya til “ deb aytadi. Ikkinchisi turli turkiy shevalardan iborat. Bu asar o‘tmishda ham, hozirda ham tadqiqotchilar tomonidan o‘zlarini qiziqtirgan masalalarga javob topib kelishgan va kelishmoqda. Masalan, bu asarni tadqiq qilgan o‘tmish olimlaridan biri Ali Amiriy quydagilarni aytib o‘tgan: „Bu kitobni qo‘lga olishim bilan o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim, bu kitob dunyoda qiyosi yo‘q, ham ma‘lum bo‘lmagan bir turk qomusi hamda grammatikasi edi. Arab tili uchun Sibavayxiyning kitobi qanday muhim bo‘lsa, bu ham turk tili uchun shunday ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy Bahosini aniqlamoqchi bo‘lsangiz, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas.


### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил 22 октябрь, № 218 (7448)
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // «Халқ сўзи», 2019 йил, 22 октябрь.
3. Atalay, Besim, Dîvânu Lûgat-it Türk Tercümesi, c. 1, Alâeddin Kırâl Basimevi, Ankara, 1939, XXXVI+530 s.;






4. Atalay, Besim, *Dîvânu Lûgat-it Türk Tercümesi*, c. 2, Alâeddin Kırал Basımevi, Ankara, 1940, 336 s + 1 harita;
5. Atalay, Besim, *Dîvânu Lûgat-it Türk Tercümesi*, c. 3, Alâeddin Kırал Basımevi, Ankara, 1941, 452 s.;
6. Atalay, Besim, *Dîvânu Lûgat-it Türk İndeksi "Endeks"*, c. 4, Alâeddin Kırал Basımevi, Ankara, 1943, XL+ 886 s.;
7. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). 3 жилдлик. 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталлибов. -Т.: Фан, 1960;
8. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). 3 жилдлик. 2-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталлибов. -Т.: Фан, 1961;
9. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк). 3 жилдлик. 3-жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Солиҳ Муталлибов. -Т.: Фан, 1963;
10. Девони луғотит турк. Индекс-луғат. Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида. -Т.: Фан, 1966.
11. Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Қошғарий. -Т., 1963;
12. Хайруллаев М. Маҳмуд Қошғарий // Маънавият юлдузлари. -Т.: Халқ мероси, 2001. -Б. 124-129;
13. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. -Т.: Фан, 2009;
14. Каримов Қ. Қадимги туркий тил луғати (X –XII асрлар). -Т.: Мумтоз сўз, 2009;
15. Раҳмонов Н., Содиқов Қ. Ўзбек тили тарихи. -Т., 2009;
16. Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. -Т., 1995;
17. Абдурахмонов Ғ. «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. -Т., 2009. No 6. -Б. 49-51;
18. Gaybullah Babayar. *Biruni ve Kaşgarlı Mahmud'un Bazı Orta Asya Yer Adlarını Türklerle İlişkilendirmesi Üzerine. // Mahmud al-Kaşğari'nin 1000 Doğum Yıldönümü Dolaysıyla Uluslar arası Divanu Luğatı't-Turk Sempozyumu Ayrıbasım. Istanbul 2008. -s. 313-321;*





ISSN (E): 2181-4570

19. Худойбердиев Ж. Махмуд Кошғарий хаёти ва унинг «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. –Т., 2010;
20. Brokelmann Carl. Geschichte der Arabische Literatur. Erster Supplementband. –Leiden, 1936;
21. Bombaci Alessio. Histoire de la Literature Turque. –Paris, 1968;
22. Махмуд ал-Кашгари. Диван лугат ат-Турк. Казахстанские востоковедные исследования. Перевод, предисловие и комментарии З. –А. М. Ауэзовой. Индексы составлены Р. Эрмерсом. –Алматы: Дайк-Пресс, 2005. –1288 с;
23. Токоев Т., Коштокоб К. Диван лугат ат-Турк. Т. II. –Бишкек: Avrasyapress Basmasi, 2012. –с. 592;





## O'rta Osiyo eneolit va bronza davri turar joy tadqiqotlari.

G'aniyev Muhammadjon Sagdullo o'g'li

(Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti

Arxeologiya yunalishi 2-bosqich magistranti)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyoning eneolit va bronza davri jamolarining turar joylari haqida ma'lumot beriladi. Maqolaning dolzarbligi arxeologik tadqiqotlar natijasida ochilgan yodgorliklar misolida yaqqol o'rganib berilgan. Shuningdek aholoning turmush sharoiti ham dini ham batafsil yoritilgan, Maqola yozishda aniq ma'lumotlar tayangan holda ma'lumot berilyabdi.

**Kalit so'zlar:** Nomozgoh, Sarazm, M.E. Vorones, A. Anarbayev, B. Matbabayev, Amirobod madaniyati, Porson-2

O'rta Osiyo sarhaddari eneolit va bronza davri jamoalari turar-joylari borasida Nomozgoh yodgorligi qazilmalari natijalari sermahsul bo'ldi. Nomozgoh I davri uy joy qurilishida birinchi bor xom hisht ishlatilgan. Hona devorlari somonli loy bilan suvalgan. Uylar tor, kvadrat shaklida bo'lib, maydoni 10 metr kvadratga yaqin bo'lgan. Unga kiraverishda chap tomonda kvadrat shaklidagi hishtdan ishlangan o'choq joylashgan. Honaning bir burchagida past devorchali g'alla «omborchasi» bo'lgan. Nomozgoh II davri jamoa a'zolari yashaydigan xonalar avvalgidek tor, maydoni 10 metr kvadratdan oshmaydi, ularning o'chog'i eshikdan kiraverishda, chap devor tagida joylashgan. Nomozgoh II uy-joylarining tuzilishi jihatidan uch gruppaga bo'linadi: 1) o'choqsiz to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 2) o'choqli to'g'ri burchak shaklidagi uylar; 3) dahlizli uylar. Bu esa, Nomozgoh 2 etapida ko'p xonali uy-joy qurilishi sistemasining paydo bo'layotganligidan guvohlik beradi.

Eneolit asrining so'nggi etapi Nomozgoh III davriga oid 130 dan ortiq ko'p xonali tutat-joy qoldiqlari ochilgan. Bular alohida xonadonlarga mo'ljallangan xo'jalik komplekslarini tashkil etgan. Ular asosan, dahlizli bo'lib, yotoqxona o'rtasida sandal o'rni saqlangan. Bu ko'p xonali uy tarkibida torroq kichik xona bo'lib unda o'choq yoki sandal uchramaydi. Bunday xonalar oila «ombori» sifatida foydalanilgan. Shunday qilib, qadimgi dehqon jamoalari tarixida Namozgoh 3 etapida ko'p xonali xo'jalik komplekslari keng rasmiylashadi, ular alohida mahallalarga birlashtiriladi, bu mahallalar bir-birlaridan tor ko'chalar yoki hovli maydonlari bilan ajratiladi. Grajdan qurilishi tarixidagi bu o'zgarishlar yirik qishloqlarning asta-sekin ilk shaharlar qiyofasiga o'ta boshlaganligidan dalolat








beruvchi eng dastlabki qadamlar edi. Eneolit davri jamoalarining turar-joylari haqida Yuqori Zarafshon vohasida tadqiq etilgan Sarazm makoni tadqiqotida muhim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Makonda qurilish-me'morchilik ishlarining rivojlanishini turar-joylar va yirik umum jamoa binolari misolida bilishimiz mumkin<sup>1</sup>. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, makonda 4 ta qurilish taraqqiyoti bosqichi bo'lgan. Sarazm I qurilish bosqichi qishloqning shakllanishi jarayoni bilan bog'liq bo'lib, yonida ingichka o'lchamli dahlizlari bo'lgan 2 xonadan iborat bo'lgan uylarda odamlar yashashgan. Sarazm II qurilish bosqichiga kelib, odamlar endi ko'p xonali uylarda yashay boshlashgan. Hovlilari bo'lgan va ko'chalar orqali bir-birlari bilan bog'langan uylardan iborat yashash massivlari paydo bo'lgan. Aylana shakldagi o'choq-mehroblari bo'lgan oilaviy ibodatxonalar shakllangan. Sarazm 3 qurilish bosqichiga kelib, umum jamoaviy diniy urf-odatlar, sig'inish, topinish ishlari amalga oshiriladigan monumental imoratlar qurila boshlandi. Ko'p xonali aholi yashaydigan uylar ko'payadi, ularning hovlilari ham kengayadi. Uylarni bog'lovchi ko'chalar ham tizimlashgan. Sarazm IV qurilish bosqichiga kelib, makonda aholi soni kamayganligi holati kuzatiladi. Yashash uylari chaylasimon ko'rinish olib, bu haqda yer sathidan suyri shakldagi uy-joylar hamda uylardan topilgan ustunlar qoldiqlari ma'lumot beradi. Xullas, tadqiqotlar natijasida Sarazm makoni to'rttala rivojlanish bosqichlarida imoratlarining 4 ta tipi bo'lganligi aniqlangan: turar-joylar, xo'jalik ishlari bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, diniy e'tiqod ahamiyatiga ega bo'lgan inshootlar va jamoaviy-ma'muriy ahamiyatga molik binolar.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, Sarazm eneolit davri qurilishining xarakterli jihati bir tomondan janub o'troq dehqonchilik jamoalari qurilish an'analarini, ikkinchi tomondan mahalliy neolit jamoalari qurilishi an'analarini o'zida mujassamlashtirgani bilan izohlanadi.

O'rta Osiyo sarhaddari bronza davri jamoalarining moddiy madaniyatini o'rganishda Quyi Zarafshon vohasi va uning qadimiy o'zani bo'lgan Ho'jayli hamda Zamonbobo ko'li atroflarida tadqiq etilgan Zamonbobo madaniyatining ham alohida o'rni bor<sup>2</sup>. Bu yodgorlikning maydoni sathi chamasi 100-150 metr kvadratlardan iborat bo'lib, undan yarim yerto'la shaklida va yer sathiga karkas usulda chaylasimon

<sup>1</sup> Исаков А.И. Саразм. Душанбе, 1991, с.193.

<sup>2</sup> Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966.






ko'rinishli qurilgan turar-joylar qoldiqlari topilgan. Yerto'lalarning ichki qismidan ustunlar o'rnatilgan joylarning diametri 14-16 santimetr bo'lgan chuqurchalar izlari, somonli loy bilan shuvalgan xo'jalik o'ralar hamda o'choqlar qoldiqlari topilgan. Yer sathiga qurilgan turar-joylar chaylasimon ko'rinishli, karkas usulda qurilgan bo'lib, usti qamish bilan yopilgani aniqlangan<sup>3</sup>. Turar-joy yonidan kulolchilik xumdoni o'rganilgan.

O'rta Osiyo bronza davri jamoalarining turar-joylari tadqiqotida Xorazm hududida tadqiq etilgan Suvyorg'on va Tozabog'yob madaniyatlari yodgorliklarining qazilmalari natijalari muhim ma'lumotlar bergan. Suvyorg'on madaniyati S.P.Tolstov yozishicha miloddan avvalgi II ming yillikning birinchi yarmida o'ng qirg'oq tomondagi Xorazm yerlarida Qamishli bosqichi nomi bilan shakllangan. Uning keyingi taraqqiyoti Bozor-II, Ko'kcha-II makonlari moddiy madaniyatida o'rganilib, S.P. Tolstov ko'rsatishicha, miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida tozabog'yobliklar bilan assimilyasiyalashib ketadi. M.A.Itina Tozabog'yob madaniyatiga oid ko'pgina makonlarda arxeologik qazishmalar olib borib, tozabog'yobliklarning yarim yerto'la va chaylalarda yashaganligi, ularning dehqonchilik xo'jaligi tez-tez o'z o'zanini o'zgartirib turadigan daryolar suvi bilan bog'liq ekanligi va nihoyat shu tufayli ular muqim o'troq xayot kechira olmay, balki toshqin suvlarning o'zgaruvchanligiga qarab, tez-tez ko'chib yurganliklari haqida ma'lumot beradi. Anqa-V, Qavat-III makonlaridan jamoalarning moddiy madaniyati xususida materiallar qo'lga kiritilgan. Tozabog'yob makonlaridan yarim yerto'la tipidagi kulbalar ochilgan. Ular to'g'ri to'tburchak shaklida bo'lib, ularning o'rtacha maydoni 120-180 m<sup>2</sup> gacha boradi. Ularning markazida o'choq joylashgan. Xo'jalik chuqurchalari, gulxanlar qoldiqlari, turli arxeologik materiallar kulba devorlari bo'ylab topilgan. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bunday kulbalar bitta juft oila uchun emas, balki bir urug' jamoasi a'zolarini birlashtirgan patriarxal oilaga mo'ljallangan<sup>4</sup>.

Farg'onaning sharqiy va shimoliy viloyatlarida ilk dehqonchilik madaniyati ra oid Чуст маданияти тадқиқ этилган. Бу тадқиқотлар дастлаб М.Е. Vorones

<sup>3</sup>Гулямов А.Г., Исламов У., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. Ташкент, 1966, С. 127.

<sup>4</sup>Итина М.А. История степных племен Южного Приарала III — начала II тыс. до н.э. Москва, 1977, С.257.





Yu.A.Zadneprovskiyлар, кейинчалик В.Матбаев, А. Анарбоевлар tomonidan tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Chust madaniyati Farg'ona vodiysida o'rganilgan eng qadimgi dehqon jamoalari madaniyatidir. Chust madaniyatining quyi qatlamlarida guvala yoki xom g'ishtlardan qurilgan kulbalar uchratilmagan. Ular Chust madaniyatining ilk temir davriga tegishli bosqichida paydo bo'lgan. Dastlab, qadimgi Farg'onaning bobodehqonlari yarim yerto'la tipidagi kulbalarda istiqomat qilishgan.

**Annotatsiya:** Maqola rus tili o'rganuvchilari uchun nutq qobiliyati rivojlanishini ta'minlashga yo'l qo'yadigan asosiy asoslarni qamrab oladi. Bu asoslar o'rgatish usullari, kommunikativ o'qitish, audio va video materiallar, so'zlar va gaplar harorati, bepul o'quv resurslari kabi amaliy usullar orqali ochiqlanadi. Maqola, rus tilini o'rganuvchilarning talaffuz, intonatsiya, so'z tartibi va sintaksis qobiliyatlari, ko'ngil ochish va amaliy mashg'ulotlar bilan oshirishni qo'llaydi. Ushbu asoslar o'rganuvchilarga rus tilida muvaffaqiyatli nutq qobiliyati rivojlanishida yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Chet tili, kommunikatsiya, lug'at, intensive, intonatsiya, talaffuz, grammatika, o'qish.

Suhbat qilish jarayonida nutq ravon tushunarli bo'lishi kerak. Insonlar bir-birlarini tushunish uchun muloqot shakli ya'ni nutq jarayoni oson so'zlashuv tizimidan foydalanish samaralidir. Bu mavzu biz uchun global va qiziq. Shunday ekan e'tiborimizni nutqning ma'nosiga qaratmoqchimiz:

Nutq-ma'lum qoidalar asosida yaratilgan til tuzilmalari orqali odamlar o'rtasida tarixan shakllangan muloqot shakli. Nutq jarayoni, bir tomondan, til (nutq) vositalari orqali fikrni shakllantirish, ikkinchi tomondan, til tuzilmalarini idrok etish va ularni tushunishni o'z ichiga oladi. Nutq og'zaki muloqot hisoblanadi. Shunday qilib, nutq psixolingvistik jarayon, inson tillari mavjudligining og'zaki shaklidir. Insonning o'tmishda ham, hozirgi paytda ham umuminsoniy tajribasidan foydalanishga imkon bergan eng muhim yutug'i mehnat faoliyati asosida rivojlangan nutq aloqasi edi. Nutq harakatdagi tildir .

Maqola, rus tili o'rganuvchilariga rus tilini amalga oshirish va nutq qobiliyati oshirishda qanday usullar va resurslardan foydalanish kerakligini tushuntiradi. Bu esa talaffuz va intonatsiya, so'zlar va gaplar, grammatika, so'z tartibi, gaplar va sintaksisni o'rganish, ko'ngil ochish va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor berishni talab qiladi. Maqola umumiy ko'rsatmalarni taqdim etadi va rus tili o'qitish sohasidagi tadqiqotlar, o'qituvchi tajribalari va pedagogik amaliyotlar asosida shakllantirilganligi ko'rsatiladi. Bu asoslar o'rganuvchilarni rus tili o'rganish jarayonida yo'l-yo'riqnoma sifatida yordam berishi kutiladi.





Rus tili o'rganuvchilarining og'zaki nutq qobiliyatini shakillantirish asoslari quyidagilar bo'lishi mumkin:

*Intensiv amaliyot:* Og'zaki nutq qobiliyati o'rganish uchun intensiv amaliyotning katta ahamiyati bor. Bu, kelajakda qobiliyatingizni rivojlantirishga yordam beradigan vaqtni o'tkazishga o'xshashdir. Rus tilini dagi ovoz, intonatsiya, ritm va sadoqatning muhim elementlarini o'rganish uchun kunda bir necha soatlik davomiy mashqlar o'tkazish juda muhimdir.

*Lug'at bilan ishlash:* Lug'at rus tili so'zlarini o'rganish uchun asosiy qo'llanma bo'lib, so'zlar, ularning tarjimalari va shakllari haqida ma'lumotlar o'z ichiga oladi. Lug'at bilan ishlash yordamida yangi so'zlar o'rganiladi va ularning to'g'ri tarzda qo'llanilishini o'rganishga yordam beradi.

*Qo'shma o'qish materiallari bilan ishlash:* Rus tilini o'rganish uchun muhim bo'lgan qo'shma o'qish materiallari mavjud. Bu materiallar orqali ovozli tarjimalar, dialoglar, maqollar va rus tilidagi adabiy qahramonlarning kitoblarini o'qish orqali og'zaki nutq qobiliyatini rivojlantirish mumkin.


*Kommunikatsiya:* Rus tili o'rganuvchilari uchun tashqi o'zaro munosabatlar muhimdir. Bu, rus tili bilan gaplashish uchun real hayotda amalga oshiriladigan ma'lum bir muloqotda hamda virtual platformalarda muhitda amalga oshiriladigan muloqotlarda o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

*Rus tilida gapirishni tinglash:* Rus tili ko'rgan va tinglanganligini sinash juda muhimdir. Rus tilida gapirilayotgan audio materiallar, qo'shma videolar, podcastlar, radiodasturlar kabi manbalar orqali rus tilida gapirishni tinglash va tushunish imkoniyatlarini oshiradi.

*Grammatika va so'zlash:* Rus tilidagi grammatika qoidalari va so'zlashni o'rganish juda muhimdir. Bu qoidalarni o'rganib, so'zlash qo'llanmalaridan foydalanish va grammatika bilan bog'liq mashqlarni bajargan holda o'zining nutq qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

*O'zlashtirilgan mashqlar:* Rus tilini o'rganish uchun o'zlashtirilgan mashqlar tuzish hamda o'zlashtirilgan gapirish tajribasi olish juda muhimdir. Ushbu mashqlar orqali o'rgangan materiallarni mustahkamlash, o'z qobiliyatlarini tekshirish va o'zlashtirishning o'zlashtirilishi, tarzida foydalanishni o'rganish mumkin.

Bu asoslar rus tili o'rganish uchun umumiy tavsiyalar bo'lib, o'rganish jarayonida insonlar o'z o'ziga mos vaqtga, xizmat va imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. Muntazam amaliyot va samaradorlik katta ahamiyatga ega bo'ladi.






*O'qish* nutq faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ega turlaridan biridir. Zamonaviy jamiyat hayotida bilim va muloqot vositasi sifatida o'qish muhim rol o'ynaydi. O'qish – yozma matnni idrok etish va tushunish bilan bog'liq bo'lgan nutq faoliyatining retseptiv turi. O'qish shaxsning kommunikativ va ijtimoiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, unda muloqot shakllaridan biri - yozma shaklni ta'minlaydi. O'qishning maqsadi axborotni qabul qilish va qayta ishlash bo'lganligi sababli, ona tilini o'rgatishda bu maqsad grafik belgilar yordamida kodlangan nutq xabaridan ma'lumot olish qobiliyatini rivojlantirishga aylanadi. O'qish jarayonida grafik belgilarni dekodlash va ularni aqliy tasvirlarga tarjima qilish sodir bo'ladi.

O'qish texnikasini o'rganish yozma matnni idrok etish (idrok - hissiy idrok etish, voqelik ob'ektlarini hislar orqali ongda aks ettirish) bilan ishlashni ta'minlaydigan ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq: grafik belgilarni idrok etish va ularning ma'lum bir nisbat bilan bog'liqligi. ma'nosi. Ta'kidlanishicha, o'qishga o'tayotganda talaba artikulyatsiya, intonatsiyada xatolarga yo'l qo'yadi, og'zaki nutqda buni qilmaydi. Bu xatolar alfavit signallarini solishtirish va ularni tovushlarga aylantirish qiyinligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, katta tarmoqli kengligi va ega bo'lgan vizual kanalni kiritish

O'qish tezligini oshirish uchun "surish", o'qish paytida ko'rish maydonini oshirish zarurati sekin o'qishning sabablari hisoblanadi. O'qish texnikasining ko'nikma va malakalari kirish-fonetik-grammatik (yoki - ikki tillilar uchun - propedevtik) kurs davomida shakllanadi va bo'g'inlarni, so'zlarni va boshqalarni to'g'ri talaffuz qilish bilan bog'liq. Ovoz chiqarib o'qiyotganda va ichkarida gapirganda. Ularning shakllanish jarayoni grafik-fonema moslashuvlarini o'zlashtirish va nutq faoliyatining boshqa turlarini o'zgartirish bilan parallel ravishda davom etadi. Mashqlar tobora murakkablashib borayotgan elementlarni talaffuz qilishga asoslangan: harflar, harf birikmalari, so'zlar, sintagmalar, jumlar, mikromatnlar. So'z darajasidan boshlab, siz elementlarning reytingini aytilgan ma'noni o'rnatish bilan birlashtirishingiz kerak. O'qish texnikasining eng muhim ko'rsatkichi uning tezligi bo'lib, unga o'qitishda baland ovozda o'qish ulushini kamaytirish orqali erishish mumkin.

Aslini olganda mavzu doirasi juda keng, ammo xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yangi geosiyosiy sharoitlarda rus tilini chet tili sifatida o'qitish metodikasi milliy maktablarda rus tilini o'qitish (va tarbiyalash) nazariyasidagi ishlanmalarga asoslangan holda shakllantirilmoqda. Tajriba yaqin kelajakda ushbu nazariya va usullarning uzluksizligi va bir-birini to'ldirishini ko'rsatishi kerak.





Bo'lajak o'qituvchilarda rus tilini chet tili sifatida o'qitishning metodik nazariyasi haqida uning asosiy fanlari: pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, sotsiologiya, madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan bilim, g'oyalarni shakllantirish, shuningdek, lingvodidaktika, grammatika, leksikologiya haqidagi bilimlarni shakllantirish muhimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumanova D.R., Rus tili kursi amaliyoti, o`quv qo`llanma –T 2014-123 b
2. Mitrofanova, O.D. Traditional and new in the methodology of teaching Russian as a foreign language In: A. N. Shchukin (ed.-comp.) Language and culture in a philological university. Actual problems of study and teaching: Collection of scientific papers. Moscow: GIRYA them. A. S. Pushkin; Filomatis. 2006.
3. Баданина, И.В. Изучение актуальных процессов грамматики современного русского языка в иностранной аудитории / И.В. Баданина. – М., 2005.
4. Баяманова Р.Г. Организация коммуникативного ориентированного урока русского языка. Учебно-методическое пособие. Караганда, 2006.
5. Гойхман О.Я., Надеина Т.М. Речевая коммуникация: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М., 2007.
6. Костомаров В.Т., Митрофанова О.Д. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам. М., 1976; 4-е изд., испр.— М., 1988.





ISSN (E): 2181-4570

**TASVIRIY SAN'AT FANING ESTETIK TARBIYAVIY AHAMIYATI***Ochilova Durdona Axdam qizi**Tuxtamishova Ulug'oy Abdulaziz qizi**Termiz davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'at faning estetik tarbiyaviy ahamiyati, shaxs estetik tarbiyasi, va ranglarning inson hayotida muhim rol tutishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, ranglar, shaxs, estetika, ustoz-shogird, did, qobiliyat, moybo'yoq, akvarel.

Shaxs estetik tarbiyasida rang muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda katta ahamiyatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nuyuton, Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I.Nuyuton qator tajribalar o'tkazib,






oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ekranida spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nuyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib uning yo'lga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranida har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranida spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuc bo'yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar ham borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. Ya'ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V. Serov, K. Yuon, V. Kustodievlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shunisi ham qiziqarliki, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganligi ko'rinib turadi. Bunday asarlarga S. Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Ma'lumki tasviriy san'atning barcha turlarida rang muhim rol o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushunamiz. Bu holatni quyidagi jonli misol bilan izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlarning ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha alohida-alohida, bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz, uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum balandlikda va tartibda uyg'unlashtirilib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi. Ma'noli





ISSN (E): 2181-4570

tasavvurlar, zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlarning o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarning yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirlarni ishlash jarayoni ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q-ochligi mavjud. Ularni nechog'lik birbiriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir ob'ektiga zid holda birini juda yorqin, boshqasini nursiz qilib o'zaro bog'liqligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligini xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlarni ishlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq, to'qroq gammalarda tasvir ob'ektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi ham belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi hamda ta'sirchan chiqadi.

Ma'lumki tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muhit holati muhim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan ob'ektga yorug'lik manbai, atrofidagi boshqa buyumlarning ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi, tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, tahlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks holda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi. Talaba, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni hisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo'l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya-yorug'lar, shu'lalar, rang tuslarining o'yini ifodaviyligi yaqqol ko'rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi. Natyurmortni qanday xonada qo'yilganligi ham uning yorug' yoki qorong'uligi, nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.







Shu'la («blik») va rangli shu'la («refleks») natyurmortdagi deyarli barcha predmetlarda aks etib turadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar sathida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug'likni yutmaydi, balki yog'dulanib qaytaradi. Nurni o'zida singdirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu'lalarini ba'zan sezib olish qiyinroq bo'ladi. Ammo ularni talaba ilg'ab olishni va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun har bir o'rganuvchi, yosh rassom o'z bilimini ham nazariy, ham amaliy jihatlarini kitob, qo'llanmalardan o'qib rangtasvir namunalarini muzey va ko'rgazma zallarida ko'rib tajriba to'plash kerak.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'piup orqali zargaldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq zargaldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'kdigi ya'ni - och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib





ko‘rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya’ni ranglar uyg‘unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo‘yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo‘yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo‘yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo‘lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo‘yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e’tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko‘rinishi va tasvirdagi ko‘rinishi farkli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Buning sababi esa havo, atrofmuhitning predmet ko‘rinishiga ta’siridandir. Qog‘oz sathida ranglar munosabatlarini to‘g‘ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o‘rinlidir. akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqozo etadi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak. Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq





ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shib murakkab rang hosil bo'ladi. qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. qo'shilganda oq'rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari. qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan to'q qizil va yashil, zangori va zargaldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.






Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini eslatuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. Chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning aralashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatoriga kiradi. Demak o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda quyilmadagi narsa va buyumlarning yorug'-soya nisbatlari, shuningdek rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keiinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «Grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo'ladi.






Natyurmortlar ko‘pincha xonalarga qo‘yib ishlanadi. Ammo ba‘zan uni tabiat qo‘ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to‘g‘ri keladi. Shunday paytda natyurmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini taxlil qilib, tushunib olish muhimdir. Chunki xona ichiga qo‘yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur-narsalarning yorug‘ qismida sovuq ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo‘lib ko‘rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug‘ qismi esa iliq bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so‘ng e‘tibor bilan tasvirlash ish sifatining yaxshi bo‘lishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki ranglarni ko‘rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo‘yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o‘z o‘rnida jo‘yali qo‘llash muhimdir.

Akvarel bo‘yoqlari 24-16 xil rangli to‘plamlar holida bo‘ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo‘yilgan yorug‘ligini asta ko‘chirib olib, bo‘yoq solingan plastmassa idishchanning tagiga yopishtirib qo‘yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo‘lishi mumkin. Ya‘ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg‘aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak, karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko‘k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to‘q jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to‘q jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko‘rsatadigan tayyor bo‘yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning o‘zaro ta‘siri va ko‘rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga





ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimgir, havo rang, yashil, zangori turlarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.B. Muhammadiyeva "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" uslubiy qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2023-yil.
2. A.E. Turakulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
3. X.B. Rahmonqulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
4. Z.B. Muhammadiyeva "Umumiyta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san'at fanlarini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
5. Sh.N. Mamatqulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
6. X.X. Xasanov "Amaliy bezak san'ati" uslubiy qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2021-yil.
7. X.X. Xasanov, X.B. Raxmonkulov Z.B. Muxammadieva. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq amaliy bezak san'ati vositasida nafosat tarbiyasini shakllantirish metodikasi" Monografiya. Toshkent-2020
8. Jumanazarovich, Mengnorov Islom. "Rangtasvir Mashg'ulotlarida Qalamtasvirning Ahamiyati." *Gospodarka i Innovacje*. 20 (2022): 58-61.





9. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1122-1127.
10. I.J.Mengnorov “Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish” nomli maqola. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-3 (Part-1,18-JUNE)*. 237-242-betlar.
11. Z.B. Muhammadiyeva “Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi” nomli maqola. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023-yil 4-son*. 227-232-betlar
12. Jumanazarovich I. M. Unique Features Of Painting In The Professional Training Of Fine Art Teachers //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 9. – C. 73-75





ISSN (E): 2181-4570

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARGA INDIVIDUAL YONDASHUV ORQALI IJODKORLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Sattorova Mavluda O'sar qizi

Termiz davlat universiteti "Tasviyiy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalasi

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarining samaradorligini yanada oshirish, tabaqalashtirilgan holda o'qitish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shartlari hamda metodlari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, ranglar, maktab ta'limi, ijodiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, metodika, tabaqalashtirish, individual yondashuv.

Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunday texnologiyalardan biri ko'p yillardan beri xorijda qo'llanib kelinayotgan individual vatabaqalashtirilgan ta'lim turidir. Ta'limda individual va differentsial (tabaqalashtirilgan) tushunchalari ko'p yillardan beri jahon pedagogika fanida o'rganib kelinadi hamda bu borada bir qancha ilmiy va amaliy ishlar mavjud. Hatto buyuk chex pedagogi Yan Amos Kamenskiyning pedagogik sistemasida "ta'lim oluvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan xolda sistematik kuzatuvlar yo'li orqali ta'lim jarayonini qurish zarur", deyilgan

Y.A. Komenskiy yashagan davrdan e'tiboran didaktika zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy tizimi o'rganilib kelindi. Hozirgi vaqtda "didaktika" termini bilan birgalikda keng ma'noda o'qitish nazariyasi, ta'lim berish nazariyasi terminlari ishlatiladi. Shu bilan birga pedagogika fanida ta'lim olishni individuallashtirish va differentsiyalashtirishkabi qo'llanadigan terminlari ham ko'p qo'llaniladi.

Bu terminlarni aksariyat hollarda amaliyotda, ayniqsa ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'pincha turli xil, ba'zan juda noaniq ma'nolarda ishlatilishi kuzatilmoqda. Ushbu tushunchaning maqsad va vositalarini aniqlaganda eng katta qiyinchilik







“individuallashtirish” va “tabaqalashtirish” kabi ikkita tushunchalarning biri-biri bilan aralashganligidir.

So‘nggi olti olti yillikda mamlakatimizda tasviriy san‘at sohasini rivojlantirish maqsadida yanada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir choratadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorida ham “Iqtidorli yosh professional san‘at namoyondalarining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta‘lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta‘minlash” masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilgan.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda aksariyat o‘qituvchilarning ko‘pchiligi individuallashtirish va tabaqalashtirishni aralashtirib yuboradilar.

Pedagogik entsiklopediyalarda “Individuallashtirish ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish demakdir”, deb ta‘rif berilgan Shunga qaramasdan, ko‘pincha pedagogik amaliyotda sinonim sifatida “individuallashtirish” o‘rniga “tabaqalashtirish” atamalaridan foydalanib kelinmoqda. “Tabaqalashtirish” atamasi odatda, maktablarni oqimlarga ajratish, ba‘zan hatto maxsus maktablar va sinflar tashkil etilishi kabi torroq ma‘noda ko‘rib chiqiladi. Ushbu tushunchalarni qo‘llashning turli xil variantlarini xorijiy pedagogikada ham ko‘rishimiz mumkin. AQSHda “individuallashtirish” atamasi odatda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday shakl va usullarni o‘z ichiga olishi tushunilsa, frantsiya pedagogikasida esa 1930-yillaridan boshlab individuallashtirish, birinchi navbatda, o‘quvchilarning individual qobiliyatlariga mos ravishda mustaqil ishlarni takomillashtirish tushunilib kelinmoqda. Germaniyada bo‘lsa “tabaqalashtirish” tushunchasi ostida AQSH dagidek “individualashtirish” tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz o‘z oldimizga “individuallashtirish” va “tabaqalashtirish” tushunchalariga aniqlik kiritishni joiz, deb bildik.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori.





“Individuallashtirish” va “tabaqalashtirish” atamalarining sinonim sifatida ishlatilishini, biz ham noo‘rin deb bilamiz, chunki bu ta‘lim kontseptsiyasiga noaniqliklar olib keladi.

Ta‘lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O‘tgan asrda ta‘lim mazmunini siyosiyashtirishga urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriy – sonini ko‘paytirish) yetakchi o‘rin egalladi. Natijada ta‘lim mazmuni o‘quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta‘lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e‘tibor qaratilib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o‘z yechimini topmadi.


Bugungi jadal rivojlanib kelayotgan ilmiy-texnik jarayonda ta‘lim mazmunini belgilaydigan asosiy g‘oya ta‘limni insonparvarlashtirishdir. Bu yo‘lda ta‘lim mazmunini aniqlashda shaxsga-yo‘naltirilgan yondashuv asosiy o‘rinni egallay boshladi. Bunday yondashishni pedagog olimlarimizdan M.Ochilova, N.Azizxo‘jaeva, N.Sayidahmedov, F.Yuzlikaevlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topdi.

Demak, shaxsga yo‘naltirilgan yondashishga muvofiq ta‘lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o‘zi hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning ta‘lim olish, ma‘naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy muloqatida bo‘lishi ta‘lim mazmunini erkin tanlash imkonini berdi. Bolaning shaxsiyatini xar tomonlama rivojlantirish, uning o‘ziga xosligini hurmat qilish, uning murakkab ma‘naviy dunyosini tushunish uchun individual yondashuvning ahamiyati haqida ushbu masala bo‘yicha pedagoglarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz.

Hozirgi sharoitda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun ta‘lim mazmunini ishlab chiqishda individuallashtirish tamoyillari yetakchi o‘rin tutdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Z.B. Muhammadiyeva “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” uslubiy qo‘llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2023-yil.
2. A.E. Turakulov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
3. X.B. Rahmonqulov “Rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.





4. Z.B. Muhammadiyeva “Umumiya’lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san’at fanlarini o’qitish metodikasi” o’quv qo’llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
5. Sh.N. Mamatqulov “Rangtasvir” o’quv qo’llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
6. X.X. Xasanov “Amaliy bezak san’ati” uslubiy qo’llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2021-yil.
7. X.X. Xasanov, X.B. Raxmonkulov Z.B.Muxammadieva. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq amaliy bezak san’ati vositasida nafosat tarbiyasini shakllantirish metodikasi” Monografiya. Toshkent-2020
8. Jumanazarovich, Mengnorov Islom. "Rangtasvir Mashg’ulotlarida Qalamtasvirning Ahamiyati." *Gospodarka i Innowacje*. 20 (2022): 58-61.
9. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1122-1127.
10. I.J.Mengnorov “Bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish” nomli maqola. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-3 (Part-1,18-JUNE)*. 237-242-betlar.
11. Z.B. Muhammadiyeva “Tasviriy san’at darslarida o’quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi” nomli maqola. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023-yil 4-son. 227-232-betlar
12. Jumanazarovich I. M. Unique Features Of Painting In The Professional Training Of Fine Art Teachers //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 9. – C. 73-75





ISSN (E): 2181-4570

## RANGTASVIR ASARLARINI YARATISHDA QALAMTASVIRNING AHAMIYATI.

*Xushboqova Yulduz Rustam qizi*

*Yusubova Muxlisa Hasan qizi*


*Termiz davlat universiteti “Tasviyiy san’at va muhandislik grafikasi “ ta’lim  
yo’nalishi 3-bosqich talabalari.*

**Annotatsiya:** Maqolada rangtasvirda asarlarini yaratishda qalamtasvirning ahamiyati asos qilib ijodkorning rang xususiyatlaridan foydalanib fazoviy holatlarni aks ettirishga bo’lgan tushunchalar bayon qilingan.

**Kalit soʻzlar:** Pedagogika, rangtasvir, ijodkorlik, natyurmort, yorugʻlik, soya-yorugʻ, rassom, shula, blik, grizayl, gamma.

Rangtasvir umumiy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi. Rassom tasviriy san’at turlarining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U oʻzining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyasi ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar vositasida ifodalaydi. Rangtasvirni oʻrganish bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy va plastik tuzilish usullarini izlash yoʻlidir. Shunday ekan har bir boʻlajak rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbati, hajmini mukammal tasvirlay olishi zarur. Shaklning mukammal darajada topilganligi hamda rang va tus yaxlit bir butunlikda garmonik uygʻunlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir. Rassomlar u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi va asarga ranglar bergandan soʻng tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom oʻz asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Tasvirda shaklning qalam chizgilari toʻgʻiri topilganligi mukammal boʻlishi lozim, aks holda turli boʻyoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini toʻliq chiqarib bermaydi. Hozirgi kunda talaba va oʻquvchilar rangtasvir mashgʻulotlarida oʻrganish uchun qoʻyilgan qoʻyilmani qalam chiziqlari yordamida toʻgiri qurib tugatmasdan turib rang berishga oʻtib ketishadi vaholanki unga qanchalik rangda ishlov berishmasin qoʻyilmaga oʻxshatib bolmaydi. Shu oʻrinda ustozim grafik rassom haykaltarosh, Tusunqul Shaymardonovning “Shaklni topmasdan turib silliqlama” gaplari esimga tushadi. Umuman olganda haykaltaroshlik, rangtasvir, kulolchilik hammasining asosida qalamtasvirning oʻrni bagʻoyatda kattadir. Havo





perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang bo'yoqlar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan chizgilargina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, keng ufqni ifodalovchi rang ham ahamiyatsizdir. Rassomlar rangtasvirni shunday ta'riflaydi; "Bu 100% qalamtasvir va 100% rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir"

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liq.

Rassom qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish, metodik ketma-ketlikda ishni tushlash va boshqa jihatlariga e'tibor bersagina rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: "Rasm chizish" rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz, degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: "Rasm chizish va yana rasm chizish!" — rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan<sup>1</sup>.

Buyuk haykaltarosh Mekelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, xaykaltaroshlik, me'morchilikni) har qanday ilimning ildizi va negizini ko'rgan. Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir", — deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

<sup>1</sup> Мастера искусств об искусстве. М., 1966, Т.2, 257-6ет.






Engro‘z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so‘zlarni yozgan "Bu yerga kelgan shogirdlarga qalam tasvirni o‘rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo‘lib yetishadi".

"Shunday narsa mavjudki, u hamma san‘at turlarining asosi hisoblanadi, bu qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san‘atini mukammal egallasa, urang tasvirni ham, xaykaltaroshlikni ham o‘zlashtira oladi" deb aytgan Karuchchi. "Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvir" degan Titsian. U qarigan chog‘larida ham, ko‘mir yoki mel bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo‘lmagan. "Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir san‘at emas, balki rangli dog‘larning tartibsiz yig‘indisidir", — deya doim takrorlagan V.E.Makovskiy. "Qalamtasvirni puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi", -deb ta‘lim bergan P.P. Chistyakov. I.E. Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug‘ullangan va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A. M. V asnetsov P.P. Chistyakovning ta‘lim berish tizimini yodga olib, "uning sevimli mashg‘uloti qalamtasvir" edi, deb eslaydi. Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san‘at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta‘lim olar, ta‘lim berish faqat qalamtasvir bo‘yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug‘ munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl), uzoq vaqt o‘tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so‘ng ranglar bilan tasvirlashga o‘tilgan. Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining mohirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o‘zaro hamoxangligi kishini hayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko‘pchiligi avvalambor yetuk qalam tasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P. Bryullov, I.I. Shishkin, V.E. Makovskiy, V.D. Polenov, I.E. Repin, M.A. Vrubel, V.A. Serov, K.A. Korovin, A. Abdullayev, O‘.Tansiqboyev, Z. Inog‘omov, M. Nabiyev, R. Ahmedov, B. Jalolov, A. Mirzayev, A. Ikromjonov, I. Xaydarov kabilar kiradi. Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, hajm, fazoviy sifatlar muhim o‘rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jixatlarni to‘laonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agarda bu jihatlar mavjud bo‘lmasa, tasvir o‘ta ehtiyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baholanadi.

Rangtasvirda ranglar qalamtasvir bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi zarur. Ya‘ni ishni rangda boshlash uchun qalamda naturaning zarur joylarini belgilab olib, shaklning shartli chiziqlarini unutib, ranglar vositasida shakl hajmini tasvirlash darkor.





D.N. Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu qalamtasvirning rangda davom etishi deb aytsak, shaklning rangda talqin etilishi, qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P. Konchalovskiyni rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib, shunday yozgan: "Rangtasvirning haqiqiy usuli bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmadir".

Haqqoniy san 'atda asosiy badiiy qiyofa, bu qalam tasvirdir. U jism shaklini qayta ishlab chiqadi, voqea va insonlar haqida ma'lumot beradi. Qalamtasvirda tasavvur, kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan. Kompozitsiya avvalo qalamtasvirda paydo bo'ladi (plastik g'oya) va qayd etiladi. Hattoki, haykaltarosh va me'morlarning dastlabki g'oyalari qalamtasvirdagi qoramadan boshlanadi.

Rassomlarda esa plastika haqidagi fikr, kompozitsiya to'g'risidagi umumiy o'ylar doimo qalamtasvirda paydo bo'ladi.

Qalamtasvir san'atining haqiqiy ustasi bo'lish va uni to'g'ri tushunish turli yo'nalishdagi rassomlarga; grafik rassom, me'mor, saxna bezakchisi, monumentalchi rassom va boshqalarga juda muhimdir. Agar kino yoki teatr rassommi qalamtasvir sir-asrorlarini mukammal egallamagan bo'lsa, uni haqiqiy ijodkor deb bo'lmaydi. Hattoki, haqqoniy qalam tasvir chizish maktabida tarbiyalangan rassomlar tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratgan ijodiy mahsulining qiymatiga qarab tasviriy, madaniy darajasi qadrlanadi. Agar bezatuvchi, rassom pedagog yoki monumentalchi kabi ixtisosliklardagi rassom haqiqiy qalamtasvir asoslarini puxta o'rganmay turib asar yaratishni boshlasa, u dastgohli san'at asarini chala yaratilishiga, tasvirda soxta manzaraning paydo bo'lishiga, haqiqiy inson qiyofasini to'laqonli aks etmasligiga sababchi bo'lib, tasvirlanayotgan voqea va hodisalarni asl mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Rangtasvirda mohirona ijod qilish uchun yosh shogird rassom qalamtasvirda quyidagi bilim va malakalarni puxta o'zlashtirmog'i lozim:

1. Kuzatuv perspektiva (ufq chizig'i, yassi jismlar va ufq chizig'i perspektivasi) elementlari. Tekisliklar bilan chegaralangan jismlarni konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, interer va eksterer).

2. Silindr shaklidagi jismlarning perspektiv qurilishi.

3. Geometrik shakllarda soya-yorug' munosabatlari (kub, silindr va shardagi soya-yorug'ning taqsimlanishi, havo perspektivasining elementlari).





4. Qalamtasvirda hajm, fazo va materiallikni tasvirlash usullari (turli materiallarni soya-yorug' xususiyati, tusli munosabatlari, hajmni ko'rsatishda chiziq va "shtrix" ni o'rni, fazo va moddiylik).

Qalamtasvirda faqat nazariy bilimlarni mustahkamlab qolmay, balki amaliy jihatdan ham katta tajribaga ega bo'lmoq lozim: qo'yilmadagi nisbatlarni aniq topish, nozik perspektiv o'zgarishlarni seza bilish, tasvirni qog'oz yuzasida asosli-konstruktiv qurish va joylashtirish, shakl hajmini tushayotgan soya-yorug' orqali mohirona ifoda etish hamda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikda yakunlash zarur. Qo'yilmani turli ranglarda bajarish ham mas'uliyatli vazifadir, chunki rangtasvirda rang va tus munosabatlari yaxlit bir butunlikka asoslanadi. Shakl xajmini tasvirlashda tusning o'rnini to'g'ri tushunmaslik turli chalkashliklarga olib keladi.

Demak boshlamoqchi bo'lgan natyurmort, etyud yoki kompozitsiyamizni qalamda chizib shaklini to'liq topib olib bo'lib rang va shtrixga o'tsakgina oldimizga qo'yilgan maqsadimizga to'laqonli erishamiz. Shunday ekan eng muhimi qalamtasvirda ishni tus jihatdan yaxlit bir butunlikka erishib yakunlash hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida rangtasvirga o'tishga qulay imkon yaratadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z.B. Muhammadiyeva "Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" uslubiy qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2023-yil.
2. A.E. Turakulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
3. X.B. Rahmonqulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
4. Z.B. Muhammadiyeva "Umumiyta'lim va kasb-hunar maktablarida tasviriy san'at fanlarini o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
5. Sh.N. Mamatqulov "Rangtasvir" o'quv qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2022-yil.
6. X.X. Xasanov "Amaliy bezak san'ati" uslubiy qo'llanmasi. Toshkent-Lesson Press-2021-yil.
7. X.X. Xasanov, X.B. Raxmonkulov Z.B. Muxammadiyeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq amaliy bezak san'ati vositasida nafosat tarbiyasini shakllantirish metodikasi" Monografiya. Toshkent-2020
8. Jumanazarovich, Mengnorov Islom. "Rangtasvir Mashg'ulotlarida Qalamtasvirning Ahamiyati." Gospodarka i Innowacje. 20 (2022): 58-61.







ISSN (E): 2181-4570

9. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1122-1127.
10. I.J.Mengnorov “Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini shakllantirish” nomli maqola. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-3 (Part-1,18-JUNE)*. 237-242-betlar.
11. Z.B. Muhammadiyeva “Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodkorlik kompetentligini shakllantirish metodikasi” nomli maqola. *Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023-yil 4-son*. 227-232-betlar
12. Jumanazarovich I. M. Unique Features Of Painting In The Professional Training Of Fine Art Teachers //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 9. – C. 73-75





ISSN (E): 2181-4570

## THE WAYS OF LEARNING PHRASEOLOGIZMS WITH LINGUISTIC COMPONENTS EXPRESSING CULTURAL MEANING IN TEACHING PROCESS

*Umarova Maftuna Umidjanovna*

*Teacher, English Department,*

*'Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers'*

*National Research University, Tashkent, Uzbekistan*

**Annotation:** Phraseological unity can come across sentence boundaries and even large parts of the text, specific sources of interdependence and associative connections of figurative and direct information. The linguistic nature of the phraseological unit has been comprehensively studied today. Indeed, knowledge of idioms is an important indicator of target language proficiency. Teaching and learning phrasal verbs helps to reveal the conative processes of the mind in creative thinking. At the same time, it helps to develop other language skills: speaking, reading, etc. Development in lexical, lexical and stylistic awareness can lead to the development of awareness, which includes the perception and development of changes in basic form and meaning. The purpose of this scientific article is to reveal phraseological unity, associative connections and stylistic projects, linguistic cohesion in the text and new meaning in the context through the essence of teaching phraseology.

**Key words-** phraseological unit, idiomatic expressions, linguistic, component, cognitive, proficiency, language skills, stylistic awareness, creative thinking, didactics.

### Introduction

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** dehqonchilik tarmoqlari statistik ma'lumotlar, topo kartalar, kadastr ma'lumotlari va sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida tadqiq qilingan, joyda olib borilgan amaliy izlanishlar, GIS va masofadan olingan ma'lumotlar asosida o'rganilgan va kartalashtirilgan.


**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omilini tashkil qilgan paytda qishloq xo'jaligini va uni tarmoqlarini kartaga olish masalalari keng targ'ib qilinmoqda. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i hisoblanadigan dehqonchilikni kartalashtirish mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlash va ishlab chiqarishga xom-ashyo yetkazib berish vazifalarini bajaradi. Qolaversa, qishloq xo'jaligining barcha sohalarida kartalashtirishning ahamiyati juda katta. Shu bois Xorazm viloyatining dehqonchilik tarmoqlarini kartaga olish orqali yerlardan oqilona foydalanish va tarmoqlarni to'g'ri joylashtirishga yordam berish kabi muammolarga yechim topish mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi(tahlili).** Tadqiqot ishiga oid ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Qishloq xo'jaligini tasniflash, ularning mavzuli kartalar tizimida joylashgan o'rni, boshqa mavzuli kartalar bilan o'zaro bog'likligini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi kartalarini sinflashtirish bo'yicha Ye.A.Proxorova, A.P.Zolovskiy, I.Yu.Levitskiy, Ye.M.Kroxmal, A.A.Reminskiylarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Kartalarning tasniflanishi qishloq xo'jaligining 4 ta yirik tarmoq kartalarini qamrab olib, har bir tarmoq alohida mavzuli kartalarga ajratilgan. "Qishloq xo'jaligi tarmoqlari kartalari" o'z navbatida qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lgan dehqonchilik va chorvachilik kartalariga ajratilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi** Tadqiqot ishida asosan qiyosiy tahlil, adabiyotlar tahlili, dala kuzatishlari, GAT, masofadan ma'lumotlar olish, analiz va sintez, kartografik, prognozlash, geoinformatsion metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** Tadqiqot ishi natijalaridan Dehqonchilik tarmoqlarini to'g'ri tashkil etish, Qishloq xo'jaligi yerlari to'g'risida ma'lumot olish, dehqonchilikni rivojlantirishda va kartalashtirishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga Kadastr agentligiga shu mavzuga oid muommalarni hal qilishda tavsiya qilish mumkin.

**Xulosa va takliflar** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini kartalashtirish masalalari bugungi kunda shu sohaning barcha mutaxassislari oldida





turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi kartalarini tuzishda to'g'ri rejalashtirish, aniq va eng oxirgi ma'lumotlardan foydalanish, kartaning mavzusi va mazmunidan kelib chiqqan holda ma'lumotlarni tanlash va maqbul kartografik metodlarni tanlash muhim hisoblanadi. Hozirgi paytda deyarli barcha sohalarda kartalarning ahamiyati yuqoriligini bilgan holda, karta yaratishda mutaxassisdan yuqori malaka va tajriba talab qilinadi. Qishloq xo'jaligi sohasida kartalarning ahamiyati yuqoriligining yana bir sababi inson grafik tasvir yordamida hudud bo'yicha ko'proq va aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi va bir vaqtning o'zida undagi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'p yillik ma'lumotlarni solishtirish uchun ham karta katta ahamiyatga ega. Shunday ekan qishloq xo'jaligini kartalashtirish mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur tarmoq hisoblanadi.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel. / Qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari. -T.: «Adolat», 1999
2. Dehqonchilik va bog'dorchilik sirlari 2015 Rustam Qurbonov
3. T.Mirzaliyev, I.Musayev Kartografiya Toshkent "ILM ZIYO" 2007
4. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi.







ISSN (E): 2181-4570

## СИНТЕЗ УРЕТАНОВОГО ОЛИГОМЕРА НА ОСНОВЕ ГЛИЦЕРИНА И КАРБАМИДА

\*Сафаров А.М., \*Тураев Х.Х., \*Аликулов Р.В., Киёмов Ш.Н.

\*Термезский государственный университет,  
Ташкентский научно-исследовательский институт химической  
технологии

### Аннотация

В статье приведены результаты синтеза и исследования по получения уретановой олигомер на основе глицерина и карбамида. Доказано метод синтеза, химический состав и химические связи полимера с методом ИК-спектроскопия. Приведены меры по применению полученного полимера с повышенной термостойкостью и других технологических качеств.

**Ключевые слова.** Глицерин, карбамид, уретан, олигомер, полимер, вязкость, адгезия, изоцианат.

## SYNTHESIS OF URETHANE OLIGOMER BASED ON GLYCERIN AND UREA

\*Safarov A.M., \*Turaev H.Kh., \*Alikulov R.V., Kiyomov SH.N.

\*Termez State University,  
Tashkent Research Institute of Chemical Technology

### Annotation

The article presents the results of the synthesis and research on the production of urethane oligomer based on glycerol and urea. The synthesis method, chemical composition and chemical bonds of the polymer with the method of IR spectroscopy have been proven. Measures are given for the use of the resulting polymer with increased heat resistance and other technological qualities.

**Keywords.** Glycerin, urea, urethan, oligomer, polymer, viscosity, adhesion, isocyanate.

**Введение.** На сегодняшний день во всем мире существует необходимость научно обосновать следующие проблемы для улучшения свойств и эффективного использования уретановых полимеров: разработка неизотопных методов синтеза





уретансодержащих полимеров; создание новых уретановых олигомер двухкомпонентных систем на основе глицерина и карбамидных соединений; получение полимерных композиционных материалов на основе полиуретановых связующих; создание составов, способных целенаправленно изменять адгезионные, антикоррозионные, статические и динамические свойства полиуретанов [1].

Карбамидные соединения обычно иллюстрируется трехчленными кольцами, известными как карбогруппа. Обычно это низкомолекулярное соединение. Наиболее распространенным типом является карбамид. Карбамидные соединения с низкой молекулярной массой обычно имеют высокую вязкость и существуют в жидком состоянии. Высокомолекулярные карбамидные соединения встречаются в твердом состоянии [2, Р. 8517-8522]. В зависимости от химической структуры смолы, они могут обладать превосходными электрическими свойствами, термостабильностью, устойчивостью к ультрафиолетовому излучению и атмосферостойкостью [3, 15 Р.1158-1162]. Помимо линейных смол, они могут быть циклоалифатическими, трифункциональными и тетрафункциональными смолами [4, Р. 290-297; 6, Р. 109-114]. Отвержденные смолы характеризуются высокой адгезией к металлам, стеклу, бетону и др. материалам, механической прочностью, тепло-, водо- и химстойкостью, хорошими диэлектрическими показателями [5, Р. 70856– 70867]. Технологические и физико-механические свойства композиций на основе карбамидных соединений регулируют в широком диапазоне совмещением с различными мономерами, олигомерами и полимерами, с минеральными и органическими наполнителями. Карбамиды используют как основу высокопрочных связующих, клеев, заливочных и пропиточных электроизоляционных компаундов, герметиков, лаков, пенопластов [6, Р. 961-969].

**Методы.** Традиционные способы получения уретановых олигомер, имеющие промышленное значение, основаны на взаимодействии ди- или полиизоцианатов с соединениями, содержащими в молекуле не менее двух гидроксильных групп. Способ получения основан на применении глицерина, которые являются малотоксичными [7. С 31-36]. Полиуретаны можно получать реакциями полиприсоединения и поликонденсации, из которых практическое






применение получила реакция полиприсоединения, основанная на взаимодействии глицерина с соединениями, содержащими трех гидроксильных групп в молекуле. Синтез линейных уретанов олигомер на основе глицерина и карбамида протекает по общей схеме [8, 94 с.]. Поликонденсационный метод получения полиуретанов основывается на реакции бисхлорформиата с диамином. В работе А. Каусара, С. Зульф리카ра и М.И. Сарвара изучен способ получения полиуретана по традиционному методу. Исследована конденсационная полимеризация N-(4-гидроксibenзал) N'(4-гидроксифенил) тиомочевины и метилендиизоцианата [9, P. 368-376].


**Экспериментальная часть.** В качестве основных реагентов для синтеза уретановых олигомер марки ГКУ применяли глицерин, мочевины и формалин. В колбу всыпают 75 г карбамида, подключают нагрев и настраивают термореле на 125°C. Как только карбамид начинает расплавляться включают механизм перемешивания и при перемешивании прокапывают 36 г глицерина, не снижая температуру реакционной массы ниже 65°C. После доливания глицерина, продолжают перемешивать массу в течение 10 минут. Далее на протяжении 80 минут поднимают температуру реакционной массы до 140°C. В это время приготавливают водный раствор карбамида. Для этого в коническую колбу помещают 45 г карбамида, наливают 15 мл раствора гидроксида натрия с концентрацией 0,5Н и 170 г раствора формальдегида с 30 %-ой концентрацией. Затем, когда температура реакционной массы достигнет 140°C, в капельную воронку наливают предварительно приготовленный водный раствор карбамида и формальдегида. Во время вливания раствора в колбу, температура реакции снижается до 120°C. После полного вливания раствора, реакцию продолжают при этой же температуре и перемешивают в течение 50 минут. Полученный полиуретан ГКУ представляет высоковязкую жидкость коричневого цвета. Данный олигомер хорошо растворяется в полярных растворителях.

**Анализ результатов исследования.** Для подтверждения состава полиуретанов полученный продукт направлен на ИК-спектроскопические исследования. ИК спектры синтезированных соединений снимали на спектрофотометрах «IRTracer-100». Образцы брали в виде растворов вязко-жидких олигомеров в определённых растворителях. Комплект Инфракрасного Фурье-спектрометра «IRTracer-100» (SHIMADZU CORP., Япония, 2017) состоит






из приставки нарушенного полного внутреннего отражения (НПВО) MIRacle-10 и призмы diamond/ZnSe (спектральный диапазон по шкале волновых чисел -  $4000 \div 450 \text{ см}^{-1}$ ). Параметры Фурье-спектрометра «IRTracer-100»: разрешение -  $4 \text{ см}^{-1}$ , чувствительность соотношение сигнал/шум -  $60,000:1$ ; скорость сканирования - 20 спектров в секунду).



**Рисунок 1. ИК-спектр синтезированного полиуретана марки ГКУ на основе глицерина и карбамида**

ИК спектр содержит слабые полосы поглощения валентных колебаний связей  $\text{-C-N}$  в области  $2920,3\text{-}2852,72 \text{ см}^{-1}$  и деформационных колебаний гидроксильных групп в области  $1037,70 \text{ см}^{-1}$ . Полоса поглощения в области  $1616,35 \text{ см}^{-1}$  объясняет наличие  $\text{-CO-NH}_2$  группы. ИК-спектр содержит полосу поглощения  $59$  в области  $1653,00 \text{ см}^{-1}$ , соответствующую  $\text{-NH}_2$  группам. Полоса поглощения в области  $854,47 \text{ см}^{-1}$ , соответствует валентным колебаниям  $\text{C-N}$  групп.  $\text{C-O-C}$  группа вызывает асимметрические валентные колебания в области  $1173,68 \text{ см}^{-1}$  Полоса поглощения в области  $1247,94 \text{ см}^{-1}$ , соответствует валентным колебаниям  $\text{-O-CO-O-}$  групп. Полоса поглощения в области  $1732,08 \text{ см}^{-1}$  показывает наличие незамещенной уретановой группы. На ИК спектре наблюдаются широкие и сильные полосы поглощения в области  $3309,85 \text{ см}^{-1}$ . Поглощение, вызванное водородной связью, проявляется в этой области в случае полимеров.

Результаты ИК спектроскопии показывают наличие амидных ( $\text{-CO-NH}_2$ ) групп, которые могут образоваться только по концам макромолекул полимера. Далее по расшифровке спектров ИК можно видеть наличие уретановых ( $\text{R-O-CO-N}$ ) групп. Это значит, что макромолекула полимера содержит уретановую





группу не только по краям цепи, но и во внутренних сегментах. Наличие карбонатной (-O-CO-O-) группы свидетельствует о том, что некоторые незамещенные уретановые группы вступали в реакцию с гидроксильными группами глицерина или концевыми гидроксильными группами макромолекул полимера.

**Выводы.** Таким образом, по исследованиям ИК спектроскопии можно сделать вывод, что по проведенным реакциям, с целью синтеза полиуретана, получены полимерные соединения, содержащие уретановые группы, линейного и мало разветвленного вида. По краям полиуретана могут находиться незамещенные уретановые группы, а также гидроксильные группы.

#### Список использованных литератур

1. В.К. Крыжановский. «Теоретические аспекты варьирования статических и динамических свойств густо сетчатых полимеров» Сборник научных трудов – Пластмассы со специальными свойствами / под общ. ред. Лаврова Н.А. – СПб. «Профессия» 2011. – 344с.
2. Jin FL, Ma CJ, Park SJ. Thermal and mechanical interfacial properties of epoxy composites based on functionalized carbon nanotubes. *Materials Science and Engineering*. 2011; 528: P. 8517-8522.
3. Yoo MJ, Kim SH, Park SD, Lee WS, Sun JW, Choi JH, Nahm S. Investigation of curing kinetics of various cycloaliphatic epoxy resins using dynamic thermal analysis. *European Polymer Journal*. 2010; 46: P.1158-1162.
4. Kwak GH, Park SJ, Lee JR. Thermal stability and mechanical behavior of cycloaliphatic– DGEBA epoxy blend system initiated by cationic latent catalyst. *Journal of Applied Polymer Science*. 2000; 78: P. 290-297.
5. R. Menard, C. Negrell, M. Fache, L. Ferry, R. Sonnier, G. David, From a biobased phosphorus-containing epoxy monomer to fully bio-based flame-retardant thermosets. *RSC Adv*. 5 (2015) P. 70856–70867.
6. Кочнова, З. А. Эпоксидные смолы и отвердители: промышленные продукты / З.А. Кочнова, Е.С. Жаворонок, А.Е. Чалых – М.: Пэйнт-медиа, 2006. – 200 с.
9. Li-Yung Zhao. Mechanical properties and curing kinetics of epoxy resins cures by various amino-terminated polyether's // *Chinese Journal of Polymer Science*. – 2010. – Vol. 28., № 6. – P. 961-969.






ISSN (E): 2181-4570

7. Берлин А.А. О синтезе и полимеризации глицидилуретанов / А.А. Берлин, А.К. Дабагова // Высокомолекуляр. соед.— 1959. Т. 1. - № 7. - С. 946-950.

8. Синтез и свойства полиуретанов: Лабораторный практикум по дисциплине «Химия полиуретанов» / Сост. Н.Н. Терентьева, В.А. Данилов, М.В. Кузьмин, С.М. Верхунов и др. Чуваш. ун-т. Чебоксары, 2005. 94 с.

9. Kausar A, Zulfiqar S, Sarwar MI. High performance segmented polyurethanes derived from a new aromatic diisocyanate and polyol. Polymer degradation and stability. 2013; 98: P. 368-376.





ISSN (E): 2181-4570

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDNING EKSPORT SALOHIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.

Xurramov Ramazon Allayor o'g'li

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi


tel: +998-90-074-94-95, e-mail: [r.xurramov@inbox.ru](mailto:r.xurramov@inbox.ru)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekistonda eksport yetakchi va jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biridir. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz makroiqtisodiyot majmuasida mustahkam o'rin egalladi. Prezidentimiz rahnamoligida yaratilgan qulay shart-sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar, mustahkam me'yoriy-huquqiy baza tufayli soha ulkan yutuqlarga erishib, rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ushbu maqolda globallashuv sharoitida hududning eksport salohiyatini yanada takomillashtirish yo'nalishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** erkin iqtisodiy hudud, eksport salohiyati, eksport mahsulotlarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari, ichki salohiyat, investision salohiyat.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va uning jahon bozoriga kirib borishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri mamlakat eksport salohiyati hisoblanadi. Shu sababli ham rivojlangan va rivojlanayotgan har bir mamlakat o'z daromadini yuksaltirish va valyuta oqimini ko'paytirish maqsadida eksport hajmini oshirishga harakat qiladi. O'z navbatida bu maqsadga erishishda mamlakat barcha imkoniyatlardan foydalangan holda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda bozorga taklif qilishni ko'paytirishga harakat qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, bozor talablariga mos va eksportbop mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish" bilan bog'liq ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash respublikamiz sanoat korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.






Globalashuv jarayonlari nafaqat jahon iqtisodiyoti tuzilishini o'zgartiribgina qolmay, balki mamlakatlar ichidagi mintaqalarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yerda asosiy harakatlantiruvchi kuchlar tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, xalqaro integratsiya va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdir. Savdo munosabatlarini soddalashtirish nafaqat jahon iqtisodiyoti markazlarining siljishiga olib keladi, balki milliy iqtisodiyotda ham sezilarli siljishlarni keltirib chiqaradi. Erkin iqtisodiy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uning eksport salohiyatidan foydalanishiga asoslanishi mumkin. Mintaqadagi eksport tarmoqlari asosiy bo'lib, ular uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Muhimi erkin iqtisodiy hududning qanday eksport salohiyatiga ega ekanligini, bu salohiyatning qaysi tarkibiy qismlarini kuchaytirish mumkinligini aniqlashdan iboratdir.

Hammaga ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti sobiq sovet ittifoqi iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanib, mustaqil milliy iqtisodiyot deb bo'lmaz edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakka hokimligi, xom-ashyo ishlab chiqarishga va boy mineral xom-ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg'i, g'alla va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish resurslari hamda iste'mol tovlarining ta'minlanishi bo'yich markazga qaram bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Mamlakatimiz sobiq prezidenti I.A. Karimov qisqa qilib aytganlaridek, — O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga- markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakat edi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanishga intilgan aksariyat davlatlar, jumladan, O'zbekiston hamjihatlik, erkinlik, shaffoflik, ochiqlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga intilmoqda. Bu borada ichki va tashqi omillarning doimiy ta'sirini baholab borish negizida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish va tahlil qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash orqali eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotni yuqori sur'atda o'sishini ta'minlovchi va globalashuv jarayonlariga raqobatbardoshligini ta'minlash, savdo hajmini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida raqamli iqtisodiyotning rolini oshirishga qaratilgan muhim strategik maqsadlarni oldiga qo'yib harakatlanmog'i lozim. Xususan, eksport hajmini oshirishda sarmoyaviy-innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish bunda makro (davlat) va mikro darajadagi (korxonalar) va jamoatchilik bilan aloqalarni raqamlashtirish orqali erishish mumkin.








Eksport — tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish boʻlib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi. Eksport (ing., lot. — olib chiqaman, chetga chiqaraman) — tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qogʻozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish. Tovarlarini bir mamlakat orqali olib oʻtish (tranzit) va bir mamlakatdan olib kelingan tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish uchun chiqarqsh (reeksport) ham eksportga kiradi.

Mamlakatning oʻzida ishlab chiqarilgan moddiy boyliklar eksport tarkibi (koʻrinma eksport) milliy iqtisodiyotning oʻziga xos xususiyatlari, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻrni bilan bogʻliq. Sanoati rivojlangan mamlakatlarga sanoat mahsulotlari, ayniqsa, mashinasozlik mahsulotlari va texnologiyalar eksport qilish xos boʻlsa, qoloq agrar iqtisodiyotga ega boʻlgan mamlakatlar eksportida xom ashyo va oziq-ovqat asosiy rol oʻynaydi. Yakka ziroatchilik xoʻjaliklari hukmron boʻlgan mamlakatlar eksportida 1—2 tovar turi asosiy oʻrinni egallaydi.

Yuklarni tashish, vositachilik operatsiyalari, turizm, ilmiytexnika aloqalaridan va boshqalar xizmatlarni sotishdan olinadigan daromadlar koʻrinmas eksportni tashkil etadi va iqtisodiyoti rivojlangan koʻpgina mamlakatlarda uning ahamiyati ortib bormoqda.

Mustaqil davlatlar tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qiladilar, chunki hech bir mamlakat oʻz aholisining barcha talabehtiyojlarini toʻliq qondirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligini taʼminlash va oshirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi, u ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadallashuviga yordam beradi, turli millat va elatlarni oʻzaro ahillashtiradi va oxir oqibat mamlakat kuch-qudrati va aholi turmush tarzi darajasining koʻtarilishiga olib keladi.

Oʻzbekistonning ochiq iqtisodiyot yoʻlini tanlashi XXI asrda xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojini belgilab beruvchi umumjahon globallashuv jarayonlarida qatnashish zaruratiga asoslangan holda kelib chiqadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning liberallasuvi ushbu jarayonlarning muhim tarkibiy qismi boʻlgan holda mamlakatga tovarlar va xizmatlar ayirboshlash unumdorligini sezilarli darajada oshirish, erkin raqobat mexanizmlari asosida ishlab chiqarish sarf-harajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi.






Eksport strategiyasiga uning asosiy tarkibiy qismi bo'lmish ishlab chiqarishni va ta'minot manbalarini joylashtirish strategiyasi, hamda asosiy maqsadi dunyoning har xil burchaklaridagi bozorlarni tayyor mahsulotlar bilan ta'minlashdan iborat bo'lgan sotish strategiyasidan iborat. Xalqaro maydonda faoliyat olib boruvchi firmalar ko'pincha mahsulot eksportini yo'lga qo'yishga harakat qiladilar. Eksport faoliyatida quyidagi ustunliklar va ajoyib natijalarga erishiladi:

- sotuv xajmini ko'paytiriladi;
- ishlab chiqarish masshtabi samaradorligini amalga oshirishga yordam beriladi;
- boshqa davlatlarga qilinadigan investitsiyaga qaraganda tavakkalchiligi kam bo'lgan operatsiya yoki faoliyatidir;
- kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarini har xil joylashtirish imkonini beradi.

2021 yilda uzoq xorij mamlakatlariiga eksport hajmi 73 % ga ko'payishi hisobiga 371302,1 ni tashkil etdi. Import esa, aksincha, 2020 yilga nisbatan 0,9 foizga oshdi va 487833,5 million dollarni tashkil etdi. 2021 yilda Farg'ona viloyatining MDH davlatlari bilan eksport 429983 ming dollarni (o'sish 125 foiz), import 546459,3 ming dollarni (27 foizga oshdi) tashkil etdi).

Eksport qiymatining o'sishiga, birinchi navbatda, Rossiya, 157 % ga yoki 150 946,0 ming aqsh dollaridan 237 015,2 ming AQSH dollarigacha, Qozog'iston bilan 165% yoki 30 321,9 ming AQSH dollaridan 50 248,0 ming AQSH dollarigacha o'sishi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, eksport xajmi Qirg'iziston Respublikasi bilan 124 386,6 ming AQSH dollaridan 89 735,1 ming AQSH dollarigacha yoki 27,8% ga, Bangladesh bilan 10 303,6 ming AQSH dollaridan 8 573,3 ming AQSH dollarigacha yoki 26,8% ga kamaygan.

Eksport salohiyatini samarali boshqarish muammosi ko'p jihatdan eksportni tahlil qilishda ilmiy asoslangan kompleks yondashuv va usullarning yo'qligi bilan bog'liq. Potentsial ishlab chiqarish jarayonlari, erkin iqtisodiy zonadagi marketing tizimi, moliyaviy komponent, mehnat resurslari va erkin iqtisodiy zona eksport faoliyatining huquqiy jihatlari o'rtasidagi munosabatlar orqali. Shu munosabat bilan erkin iqtisodiy zonaning eksport salohiyatini baholashning universal kompleks metodologiyasini ishlab chiqish uchun mavjud va eng ko'p tahlil qilish zarur. Eksport salohiyatini tahlil qilish uchun xorijda keng qo'llaniladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.






ISSN (E): 2181-4570

Xulosa qilib aytganda, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish, jahon bozori talablariga javob beruvchi eksportbob mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirish yo'li bilan mamlakat eksport tarkibini sifat va son jihatdan o'zgartirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va xorijga sotishni rag'batlantirishga qaratilgan milliy eksport siyosatini amalga oshirish hozirgi kunning asosiy vazifasi, deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Белокур О.С., Цветкова Г.С. (2021) Сценарии развития экспортного потенциала провинциального региона // Экономика, предпринимательство и право, (11(7)), 1689-1704.
3. Abramov A. Xalqaro savdo. -M.: Bustard. 2007 yil.
4. Gluxov N.V. Afonichkin V.A. Xalqaro savdo asoslari.- SPb .: PETER.-2006.





**Parrandachilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishni ko'p omilli regrission tahlil qilish va pragnozlashtirish.**

**Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Biznes boshqaruvi va statistika kafedrası o'qituvchisi Bobomurodov Imomqul**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada parrandachilik bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar, parrandachilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishning omillarini regrission tahlil qilish va pragnozlashtirish haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Regrission, pragnoz, jo'ja, parranda, tovuq, tizim, zot, tarmoq, ishlab chiqarish, mahsulot, yalpi, ichki.

O'zbekistonda 1920-yillarning oxiriga qadar parranda tovuq zotlari faqat xonadonlarda boqilgan. Respublikada Parrandachilikning qishloq xo'jaligi tarmog'i tarzida rivojlanishi XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Birinchi Parrandachilik fermalari 1929-yil Qo'qon shahri yonidagi va Samarqand viloyatidagi artellarda tashkil etilgan. 1930-yil Toshkentda "O'zparrandainkubatormarkaz" tuzildi. O'sha yili respublikada dastlabki Kattaqo'rg'on inkubator styasi ishga tushirildi. O'zbekistonda Parrandachilik urushdan keyingi yillarda tez rivojlandi. 1958-yilda O'zbekiston chorvachilik ilmiy tadqiqot institutida Parrandachilik bo'limi, 1985-yilda genetika-seleksiya styasi 1994—2003-yillarda "Naslparranda" ilmiy markazi tashkil etildi. 1992-yildan respublikada go'sht yo'nalishida kurkachilikni rivojlantirish bo'yicha Isroilning "MAD" firmasi bilan hamkorlikda Xonobod, Chimyon, Rishton, Urganch va Yangiyo'l Parrandachilik fabrikalari kurkachilikka ixtisoslashdi. Respublikamizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda kamchiliklar ham yo'q emas. Parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash darajasi past, tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda yarim tayyor mahsulotlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda, shuningdek parranda chiqindilarini chuqur qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yilmayapti. Parrandachilik sohasida, asosan, tovuq yetishtirish bilan cheklanib qolinmoqda. Sohada malakali kadrlar tayyorlash, ularni ishlab chiqarishning






zamonaviy uslublariga o'qitish, soha mutaxassislarida innovatsion yondashuvlar hamda ko'nikmalar shakllantirish, ishlab chiqarishda yuqori sifatga erishish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Parranda mahsulotlari eksport qilinayotgan davlatlar geografiyasini kengaytirish, shu orqali eksport hajmini keskin oshirish choralari ko'rilmagan. Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Qishloq xo'jaligi tizimida parrandachilik yetakchi tarmoqlardan biri sanaladi. So'nggi yillarda respublikamizda parrandachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, buning uchun zarur huquqiy asoslar yaratilayotgani diqqatga sazovor. Jumladan, davlat rahbarining 2021-yil 14-iyundagi Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini yanada mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori bilan respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda parrandachilik yo'nalishidagi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash borasida bir qator imtiyozlar joriy etilgan. Mazkur sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarimiz rivojlangan xorij davlatlaridan zotdor parrandalarini olib kelib o'z korxonalarida boqish va ko'paytirish ishlarini amalga oshirmoqda. 2021-yilda Respublika hududida parrandachilik mahsulotlari yetishtirishning pragnoz ko'rsatkichlari aniqlandi. Inkubatsion tuxum 268,7 mln donani, bir kunlik jo'ja 215,3 mln donani, boshqa turdagi parranda go'shti 66,6 ming donani, jami parranda go'shtlari 450 ming tonnani tashkil etdi.

Jumladan Broyler jo'jalarining jadal o'sishi va sarflangan ozuqalarga nisbatan yuqori sifatli arzon go'sht yetishtirish, qisqa vaqt ichida qilingan harajatlarning qoplanishi hamda aholining parhez parranda go'shtiga bo'lgan talabining oshishi sababli parrandachilikka qiziqish tobora ortib bormoqda. 2020 yilda dunyoda parranda go'shti ishlab chiqarish 128,4 mln. tonnani, shu jumladan broyler go'shti 97,8 mln. tonnani tashkil etadi. Shuningdek, 1 trl. 233 mlrd. dona tuxum ishlab chiqildi, bu bilan 10 yil ichida o'sish so'ratlari 18 foizni tashkil etmoqda.

Bundan tashqari, 74 ming tonna tuxum kukuni, 53,2 ming tonna tuxum oqsili kukuni va 68 ming tonna tuxum sarig'i kukuni ishlab chiqilgan. Sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosini ta'minlash hisobiga 2020 yilda parrandalar





bosh soni 93,1 mln. boshga, tuxum ishlab chiqarish 7,8 mlrd. donaga, parranda go'shti ishlab chiqarish 220 ming tonnaga yetkazildi va respublika bo'yicha jon boshiga tuxum ishlab chiqarish 229 donani, parranda go'shti 6,5 kg. ni tashkil etdi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari O'zbekistonda parrandachilikning rivojlanishi va sohaning unumdorligi tendensiyalarini tahlil qildi. So'nggi yillarda O'zbekistonda parrandachilik, shuningdek, tuxum ishlab chiqarish faol rivojlanmoqda. 2022-yilda respublikada 8 129,3 million dona tuxum ishlab chiqarilgan. Bu 2021-yilning shu davridagiga nisbatan 4,4 foiz ko'p. 2016-2022-yillar davomida tuxum ishlab chiqarish 32,1 foizga oshdi. Taqqoslaydigan bo'lsak, Chilida bitta tovuqning yillik sertuxumliligi 350 dona (1,6 baravar ko'p), Rossiyada – 296 dona (1,4 baravar ko'p), Misrda – 294 dona (1,4 baravar ko'p), Isroilda – 254 dona (1,2 baravar ko'p), BAAda – 238 dona (1,1 baravar ko'p). Mahsuldorlikning yetarli darajada yuqori emasligiga parrandalarni noto'g'ri oziqlantirish va parvarish qilish, shuningdek, ilg'or texnologiyalarni joriy etishning past darajasi, ko'pchilik fermer xo'jaliklarining kichikligi va tijoratlashtirishning past darajasi sabab bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli qarorida chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida parrandachilik xo'jaliklariga har bir bosh 1 kunlik naslli jo'jani import qilish bilan bog'liq xarajatlarning 9 ming so'mini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiya ajratiladi. Shu bilan birga Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 12 maydagi "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2021 yilda respublikaga import qilinadigan bir kunlik 1 mln. boshdan ortiq nasldor jo'jalar uchun subsidiyalar ajratilishi nazoratga olindi. Shuningdek Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda qiymati 13 mlrd so'mlik 15 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ushbu parrandachilik korxonalarida 477 ming bosh parranda boqilmoqda. Natijada yiliga 41 mln dona tuxum va 2,1 ming tonna parranda go'shti yetishtirish quvvatlari yaratildi, qo'shimcha 187 ta yangi ish o'rnini yaratildi. Parrandachilik chorvachilikning serdaromad, serpusht va tez






yetiluvchan tarmog'i. U xalqimizga ko'plab sifatli parhez taom – tuxum va parranda go'shti yetkazib berishda katta ahamiyatga eta. Parranda go'shti tez hazm bo'lish xususiyatiga ko'ra, chorva mollari go'shtidan ustun turadi, tarkibi har xil kimyoviy elementlarga boy. So'nggi yillarda parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda izchil islohatlar amalga oshirishmoqda. Xususan Surxondaryo viloyatida ham parrandachilikni rivojlantirish, pragnozlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada viloyatda yo'l xarita tuzilib manzilli reja ishlab chiqildi. Qumqo'rg'on tumanida tashkil etilgan seminar treningda tarmoqni yanada kengaytirish va sohani rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Shuningdek, seminarda har bir xonadonda 100 tadan parranda boqish orqali oilalarning daromad manbaini yaratish, turmush farovonligini oshirish hamda aholini arzon sifatli parhez bop go'sht va tuxum bilan ta'minlash masalasiga a'lohida e'tibor qaratildi. Umuman xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan chuqur islohotlar ertangi yorug' kelajagimizga hizmat qiladi.


#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov SH.A., Karimov T.Q. "Parrandachilik" fani bo'yicha o'quv - uslubiy qo'llanma. Termiz-2019
2. Mirsaidov B. Parrandachilikda yangi texnologiyalar. - O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2011y №6, 31b
3. Ikromov T.X., Qo'chqorov O- .R. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash texnologiyasi.
4. Dr. Peter Hiller. Leitfaden Geflügel
5. Dr. A. Hinrichs. Leitfaden Landwirtschaft Elterntierhaltung Geflügel
6. Ute Knierim, Daniel Gieseke Tierschutzindikatoren: 2022 IYUN ISSN:2180-2160 Leitfaden für die Praxis - Geflügel.
7. Ro'ziyev R. I, Rahmatullayev P "Parranda boqish bo'yicha tavsiyanoma"
8. Alijanov. D, Voxidov A, Suvonkulov Sh "Parrandachilik xo'jaliklarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish"
9. Normuhamedov X.I., Rahmatullaev P.E. "O'zbekiston parrandachiligi" ilmiy ommabop, axborot-ma'rifiy jurnal. T., 2020. 18 b.
10. Наумова В.В. «Птицеводство» Ульяновск, 2008. - с. 76.
11. <http://www.academy.uz/>



ISSN (E): 2181-4570

12. <https://www.praxis-agrar.de/>
13. <https://www.bigdutchman.de/>







ISSN (E): 2181-4570

## QANDLI DIABET KASALIGINING INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI, SABABLARI VA PATOLOGIYASI.

**Shakirov Shavkat O'ktamboevich,**

"Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" kafedrasida assistenti.


[shakirovshavkat95@mail.com](mailto:shakirovshavkat95@mail.com)

Qandli diabet, ya'ni qondagi qand me'yoring nazoratdan chiqib ketishi, organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Qandli diabet — bir umrlik kasallik, uni butun hayot davomida davolash zarur. To'la-to'kis davolanmaydigan va qon tarkibidagi glyukoza miqdori uzoq vaqt yuqori saqlanadigan bemorlarda Qandli diabetning tomir asoratlari — diabetga xos angiopatiyalar (makro va mikroangiopatiyalar) namoyon bo'ladi.

Qandli diabetning 2-turida me'da osti bezi orolcha hujayralaridan insulin ishlab chiqarish saqlanib qoladi, bunda qon tarkibidagi insulin miqdori me'yorida yoki undan sal yuqoriroq bo'ladi. Biroq, to'qimalarning insulinga nisbatan sezgirligi keskin pasayishi tufayli to'qimalar tomonidan glyukozani o'zlashtirish hamda foydalanish kamayadi va u qon tarkibida to'planib qoladi, natijada qonda qand ko'payib, siydik bilan chiqib turadi, bemor juda semirib ketadi. Diabetning bu turi bilan, asosan, o'rta va keksa yoshdagilar kasallanadilar. Kasallik asta-sekin, zimdan rivojlanadi, u boshlanishida og'iz qurishi, chanqash, ozish kabi alomatlar yaqqol bilinmaydi. Bemorni ko'proq holsizlanish, toliqish, tashnalik bezovta qiladi.

**Qandli diabet** (xalq orasida «saxar kasalligi» deb ham aytiladi) — tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funktsiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Me'da osti bezi insulin gormonini ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu gormonsiz organizm qondagi glyukoza miqdorini me'yorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Natijada organizm ortiqcha glyukozani siydik orqali chiqarib yuborishi kuzatiladi.

Qandli diabetning patologik anatomiyasi Makroskopik jihatdan oshqozon osti bezi hajmi kamayishi, qisqarishi mumkin. Uning chiqarish bo'limidagi o'zgarishlar beqaror (atrofiya, lipomatoz, kistalar degeneratsiyasi, qon ketishlar va boshqalar) va odatda keksalikda sodir bo'ladi. Gistologik jihatdan insulinga bog'liq qandli diabetda





oshqozon osti bezi orolchalarining limfotsitar infiltratsiyasi (insulit) aniqlanadi. Ikkinchisi asosan p-hujayralarni o'z ichiga olgan orolchalarda joylashgan. Kasallikning davomiyligi oshgani sayin b-hujayralar, ularning fibrozi va atrofiyasi, b-hujayralari bo'lmagan psevdofibrotik orolchalarning progressiv nobud bo'lishi kuzatiladi. Pankreatik orollarning diffuz fibrozi qayd etilgan (ko'pincha insulinga bog'liq diabetes mellitusning boshqa otoimmün kasalliklar bilan kombinatsiyasi bilan). Ko'pincha orol gialinozi va hujayralar o'rtasida va qon tomirlari atrofida gialin massalarining to'planishi kuzatiladi. P-hujayralarni qayta tiklash fokuslari (kasallikning dastlabki bosqichlarida) qayd etiladi, ular kasallikning davomiyligi oshishi bilan butunlay yo'qoladi. Insulinga bog'liq bo'lmagan qandli diabetda p-hujayralar sonining biroz kamayishi kuzatiladi. Ba'zi hollarda orol apparatidagi o'zgarishlar asosiy kasallikning tabiati (gemokromatoz, o'tkir pankreatit va boshqalar) bilan bog'liq.

#### **Kasallik rivojlanishining asosiy sabablari quyidagilar:**

1. **Irsiyat.** Albatta, kasallik ta'sir etuvchi omillar bo'lmaganda rivojlanmaydi, lekin moyillik yuqori bo'ladi.
2. **Semizlik.** Ortiqcha vazn ikkinchi turdagi diabet shakllanishiga olib keladi.
3. **Kasalliklar.** Insulin ishlab chiqarish uchun javobgar beta hujayralarini shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar. Ularga pankreatit, me'da osti bezi saratoni, boshqa endokrin bezlar kasalliklari kiradi.
4. **Viruzli infeksiyalar** (qizamiq, suvchechak, yuqumli gepatit va boshqa kasalliklar). Ushbu infeksiyalari diabet rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, xavf ostida bo'lgan odamlar uchun.
5. **Asabiylashish, stress.** Stress, asabiylashishdan yiroq bo'lish tavsiya etiladi.
6. **Yosh.** Yosh ortishi bilan har o'n yilda diabet rivojlanish xavfi ikki baravar ortadi.

Asab tolalarining qandli diabetda jarohatlanishi (diabetik neyropatiya) bu ham qondagi kand miqdorining uzoq muddat baland saqlanishi bilan bog'liq. Eng ko'p hollarda periferik neyropatiya oyoqlarda uchraydi. Bunday holat oyoqlarda sezuvchanlikning pasayishi, sanchiqalar va og'riqlar bilan kechadi. Sezuvchanlikning





ISSN (E): 2181-4570

pasayishi oqibatida bemor oyog‘ida ortirib olgan yara-chaqalarni sezmasligi mumkin. Bu jarohatlarga ikkilamchi infeksiya qo‘nishi natijasida chuqur yaralarga va hattoki amputatsiyaga sabab boladigan qorason kasalligiga olib kelishi mumkin. Oyoqda uchraydigan bu asoratlar “diabetik tovon”, “ diabetik to‘piq” va “diabetik oyoq” nomlari bilan yuritiladi.





ISSN (E): 2181-4570

## THE TENSIONS BETWEEN CONFIDENTIALITY AND TRANSPARENCY IN INTERNATIONAL ARBITRATION

**Zokirov Xusniddin Zarif o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: [qwertyfalcon900@gmail.com](mailto:qwertyfalcon900@gmail.com)

Tel: 90 992 80 48

TDYU professori, Hazratqulov O.T taqrizi ostida

### Abstract

This article is devoted to the analysis of the role of the principle of confidentiality and transparency, which are considered as important features of the international commercial arbitration process, in maintaining the values of arbitration, and the conflicting situations between them. Also, the article examines how confidentiality and transparency are ensured and protected during the arbitration process in the world's leading international arbitration centers on the example of arbitration institutions.

**Key words:** arbitration, international commercial arbitration, confidentiality, arbitration parties, transparency, arbitration decision, arbitration proceedings.


### Аннотация

Данная статья посвящена анализу роли принципа конфиденциальности и прозрачности, которые рассматриваются как важные черты международного коммерческого арбитражного процесса, в поддержании ценностей арбитража, а также конфликтных ситуаций между ними. Также в статье рассматривается, как обеспечивается и защищается конфиденциальность и прозрачность при арбитражном процессе в ведущих мировых арбитражных центрах на примере арбитражных учреждений.

**Ключевые слова:** арбитраж, международный коммерческий арбитраж, конфиденциальность, стороны арбитража, прозрачность, арбитражное решение, арбитражное разбирательство.

## XALQARO ARBITRAJDA MAXFIYLIK VA SHAFFOFLIK O'RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIKLAR

### Annotatsiya:





Ushbu maqola xalqaro tijorat arbitraji jarayonining muhim xususiyatlari sifatida qabul qilinadigan maxfiylik va shaffoflik prinsipining arbitraj qadriyatlarini saqlab qolishdagi o'rni, ular o'rtasidagi ziddiyatli holatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada maxfiylik va shaffoflik dunyoning eng yetakchi xalqaro arbitraj markazlarida arbitraj jarayonida qanday ta'minlanishi va himoya etilishi arbitraj institutlari misolida ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** arbitraj, xalqaro tijorat arbitraji, maxfiylik, arbitraj taraflari, shaffoflik, arbitraj qarori, arbitraj muhokamasi.


Xalqaro tijorat arbitrajida maxfiylik va shaffoflik o'rtasidagi bahsli holatlar yaqinda paydo bo'lmagan. Maxfiylik xalqaro tijorat arbitrajining muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lsa-da, so'nggi vaqtlarda nizolarni hal qilishning samarali va ishonchli usuli sifatida arbitraj jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun shaffoflik zarurligi ta'kidlab kelinmoqda. Arbitrajda maxfiylikka yanada nozik yondashuv arbitrajning qadriyatlarini saqlab qolishi va shu bilan birga shaffoflik orqali erishiladigan natijalarni samarali qilishi mumkin. Ushbu prinsiplar haqida biz xalqaro tijorat arbitrajiga oid qonunlarda yoki konvensiyalarda batafsil tushunchaga duch kelmaymiz. Lekin bir qator mutaxassis va olimlar ularni o'z ilmiy maqolalarida va ilmiy-tadqiqotlarida tushuntirib berishga harakat qilishgan.

Ushbu soha bo'yicha amalga oshirilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Janubiy Illinois universiteti professori Cindy Galway Buys o'z maqolasida "maxfiylik ko'pincha sud muhokamasidan farqli ravishda arbitrajning asosiy afzalliklaridan biri sifatida tilga olinishi, lekin olimlar va amaliyotchi mutaxassislar ko'pincha maxfiylik nima uchun muhimligini aniq o'rgana olmasligini"<sup>1</sup> ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari, Richard Naimark va Stefani Keer tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, aslida, maxfiylik xalqaro tijorat arbitrajining eng qimmatli jihatlaridan biri emas. Tadqiqotlarga ko'ra, so'rovnomada qatnashganlarning o'ndan kamrog'i arbitrajning eng muhim atributlaridan biri sifatida maxfiylikni sanab o'tgan.<sup>2</sup> Shuningdek, Srishti Kumar

---

<sup>1</sup> Cindy Galway Buys. The tensions between Confidentiality and Transparency in International arbitration, American Review of International Arbitration, Vol. 14, No. 121, 2003

<sup>2</sup> Alexis C. Brown, Presumption Meets Reality: An Exploration of the Confidentiality Obligation in International Commercial Arbitration, 16 AM. U.L. Rev. 969, 972 n. 6 (2001).





hamda Mayami universiteti o'qituvchisi Ragvendra Pratap Singh o'z izlanishlarida maxfiylik va shaffoflik har doim ham qarama-qarshilik emas va maxfiylikni talab qiluvchi arbitraj tomonlar manfaatlari va shaffoflikni oshirish zarurati o'rtasida to'g'ri muvozanatga erishish mumkinligi g'oyasini ilgari surishadi. Ular arbitraj jarayonini va uning turli bosqichlarini shaffofroq qilishning maqsadga muvofiqligini tekshirishga harakat qilganlar.<sup>3</sup>

Ushbu sohani tartibga keltiruvchi UNCITRALning "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi namunaviy qonuni 1985-yilda qabul qilingan va 2006-yilda unga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. U arbitraj jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi milliy qonunchilikni kerakli uyg'unlashtirish va takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi. Ushbu qonunning 2-moddasida "arbitraj doimiy arbitraj instituti tomonidan boshqariladigan yoki boshqarilmaydigan har qanday arbitrajni anglatadi"<sup>4</sup> deyilgan. Dunyodagi deyarli barcha davlatlar 1958-yildagi Nyu-York konvensiyasi asosida "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi o'z qonunlarini ishlab chiqishgan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonunining 5-moddasida "arbitraj — doimiy arbitraj muassasasi yoki muayyan nizoni hal qilish uchun tashkil etiladigan arbitraj sudi tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, nizoni hal etish tartib-taomili"<sup>5</sup> deb o'tilgan. Shuningdek, arbitraj xususiy sudlov tizimi bo'lib, bunda nizo taraflari nizolarni har qanday sud tizimidan holi hal qilishga kelishishadi. Ko'p hollarda arbitraj qarori milliy sudlarda ijro etish mumkin bo'lgan qaror chiqarilishiga asos bo'ladigan yakuniy va majburiy qarorni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tijorat arbitraji savdo-iqtisodiy nizoni nizolashayotgan tomonlar tanlagan va kelishib vakolat bergan bir yoki bir necha arbitrlar tomonidan ko'rib hal etishga qaratilgan nodavlat sud organi hisoblanadi. Uning qarorlari majburiy tarzda bajarilishi nazarda tutiladi.


Maxfiylik prinsipi shuni anglatadiki, arbitraj jarayoni yopiq eshiklar orqasida o'tkaziladi, arbitrajda chiqariladigan qarorlar e'lon qilinmaydi yoki

---

<sup>3</sup> Kumar, Srishti vs. Pratap Singh, Ragvendra. Transparency and Confidentiality in International Commercial arbitration. Arbitration: The Int'l J. of Arb., Med. Vs. Dispute Mgmt 86, no. 4 (2020): 463-481.

<sup>4</sup> UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration, 1985. Article 2.

<sup>5</sup> "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonun. Toshkent sh., 2021-yil 16-fevral, O'RBQ-674-son.





bosma nashrlarda chop etilmaydi. Arbitraj jarayoni ommaviy axborot vositalarida yoritilmaydi, jamoatchilik vakillari institutsional arbitrajning arxiv materiallaridan foydalana olmaydi va hokazo. Shu bilan birga, maxfiylik prinsipi yuzasidan istisnolar arbitraj qoidalari va xalqaro shartnomalarda o'rnatilishi mumkin. Bundan tashqari, maxfiylik prinsipi arbitraj jarayoni doirasi bilan cheklanganligini qayd etish lozim.

Shaffoflik xalqaro huquqda aniq tushuncha ta'rifiga ega emas.<sup>6</sup> Bu ochiqlik yoki hisob berish sinonimlari sifatida tilga olinadi, lekin kamdan-kam hollarda ushbu tushunchaning aniq ma'nosi berib o'tiladi.<sup>7</sup> Bu axborotga asoslangan tushunchadir. Arbitraj sohasida u hujjatlar yoki boshqa materiallarni jamoatchilikka oshkor qilish, ochiq sud majlislarini va unda uchinchi shaxslarning ishtirokini o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda shaffoflikni amalda qo'llash bo'yicha xalqaro tijorat arbitrajida ko'p tendensiyalar va mutaxassislar tomonidan chaqiriqlar kuzatilmoqda. Ushbu vaziyatda ba'zilar agar tomonlar e'tiroz bildirishmasa, arbitraj prezumpsiyasi e'lon qilinishini himoya qilishsa-da, boshqalar arbitraj qarorlarining chop etilishini nazorat qiluvchi xalqaro nazorat tashkilotini tuzishni taklif etadilar.


Yakuniy xulosa shundan iborat bo'ladiki, deyarli barcha institutsional arbitraj qoidalari tinglovlarning o'zlari va ko'pincha ushbu sud majlislari bilan bog'liq holda taqdim etilgan dalillarning maxfiylikni himoya qiladi. BIMT bundan mustasno, hech kim taraflarga arbitraj mavjudligini oshkor qilishiga to'g'ridan to'g'ri to'sqinlik qilmaydi.

Investitsion nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi investitsion nizolarni hal qilishga ko'maklashish maqsadida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki homiyligida tashkil etilgan. ICSID Konvensiyasining 48-moddasi 5-bandi tomonlarning roziligisiz arbitraj qarorlarini nashr qilishni taqiqlaydi. Biroq ICSIDning barcha eshituvlari yopiq bo'lishi shart emas.

---

<sup>6</sup> Pedro J.Martinez-Fraga, Juridical Convergence in International Dispute Resolution: Developing a Substantive Principle of Transparency and Transnational Evidence Gathering, 10 Loy. U. Chi. Int'L L. Rev. 37, 71 (2012)

<sup>7</sup> Julie A.Maupin, Transparency in International Investment Law: The Good, the Bad, and the Murky, in Transparency in International Law 142, 142 (Andrea Bianchi vs. Anne Peters eds., 2013).





Shaffoflikning oshirilishi arbitraj jarayoni haqidagi bilim va tushunchani oshiradi va shu bilan birga xalqaro arbitrajdan foydalanishning qonuniyligini oshiradi. Xususan, yakuniy qarorni e'lon qilish orqali xalqaro arbitrajda shaffoflikni oshirish, jumladan, mavjud bo'lgan sabablar bir qator afzalliklarga olib kelishi mumkin.

bilan bajarish maqsadga muvofiq. Shunday mashqlarni bajarish natijasida bolalarda kesmalarni taqqoslashning amaliy tajribasi to'planadi. Shunga asoslanib o'qituvchi konkret hayotiy misollar asosida masalan, ma'lum uzunlikda lenta sotib olish kerak bo'lganda va shunga o'hshash holatlarda kesmalarni taqqoslash uchun ma'lum uzunlikdagi o'lchov birligidan foydalanish kerak, degan fikrga olib keladi. Bu yerda o'qituvchi rahbarligida amaliy ish o'tqazish foydali: har bir o'quvchiga, masalan, sanoq cho'pi uzunligini o'lchashni taklif qilish mumkin. Buning uchun oldin o'lchov (birlik kesma) - qog'oz poloskani (bir bo'lajak kanop, tasma va h. k.) tanlab olish kerak. Har qaysi o'quvchi o'zida bor poloskalardan o'z o'lchovini tanlaydi. Natijada har hil sonlar hosil bo'ladi, chunki o'quvchilar bir miqdor qiymatini topish uchun har hil o'lchov tanlab oldilar. Bunday ishlar o'z-o'zidan foydali, chunki bolalarga o'lchash protsessi haqida dastlabki tasavvurlarni beradi va ularni uzunlik birligi sifatida har qanday kesma uzunligini olish mumkin, degan hulosaga olib keladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzunlik o'lchov birliklarini o'rgatishda modellashtirishdan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Buning sababi o'quvchi rasm va chizmalar yordamida masala yoki misol bajarsa uning xotirasida misol va masala saqlanib qoladi bundan tashqari bolalar o'yin faoliyatidan maktab faoliyatiga moslashishi qiyin kechadi shuning uchun ham ular rasmlarga qiziqadi. Masalan o'quvchilarga quyidagicha masala berilsin:

**MASALA.** Bir guruh sayyohlar sayohatga chiqishdi. Ular 1-kun hamma yo'lning uchdan bir qismini o'tishdi. 2-kuni qolgan yo'lning uchdan bir qismini o'tishdi va uchinchi kuni yana qolgan yo'lning uchdan bir qismini o'tishdi. Shundan keyin yana ular o'tishi kerak bo'lgan 32km masofa qoldi. Sayyohlar hammasi bo'lib necha km






masofa

o'tishi

kerak?

Yechish




Mana shu model asosida masalaning shartini tushunish oson bo'ladi. O'quvchilar ham qiziqib bajarishga harakat qiladilar deb o'ylayman.

Shunga asoslanib o'qituvchi kesmalarni taqqoslash uchun aniq o'lchov yordamida o'lchashlardan foydalanilishini aytadi.

1. Oldin uncha katta bo'lmagan predmetlarning masalan, cho'plarning, qalamning va boshqa narsalarning uzunliklarini topishni o'rganib olamiz. Buning uchun aniq, umumiyat tomonidan qabul qilingan uzunlik birligi -santimetrdan foydalanilishini o'qituvchi aytadi.

2. O'quvchilar santimetr haqida ayoniy tasavvur olishlari uchun, ular o'qituvchi rahbarligida santimetrning bir qancha modelini tayyorlashlari lozim. Buning uchun katakli qog'oz varag'idan eni bir katakka teng bo'lgan uzun poloska qirqishlari va so'ngra undan 1 sm li poloska qirqishlari kerak. Poloskalarni ustma-ust qo'yib, bolalar ular o'zaro teng ekaniga ishonch hosil qiladilar. Bunday poloskalarning har biri santimetrning modeli ekanini o'qituvchi aytadi. Santimetr modeli yordamida o'quvchilar: 1) berilgan kesmani o'lchash; 2) berilgan uzunlikdagi kesmani yasash





(chizish) masalasini hal qilishni o'rganib olishlari kerak, Bu masalalarni echishning ikkita usulini ajratish mumkin.

Birinchi usul ustiga qo'yish usuli. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, o'lchanayotgan yoki ajratib o'lchab olinayotgan kesma santimetrning modellari bilan qoplanadi va so'ngra ularning soni sanab chiqiladi. Bunday ish bolalarning har bir santimetrni "payqashlariga", "sezishlariga" yordam beradi. Bu metodni kiritishdan oldin ushbu ko'rinishdagi mashqlarni bajartirish mumkin: santimetrning ikkita modelini ketma-ket qo'ying. qanday uzunlikda poloska hosil bo'ldi.

Ikkinchi usul - qo'yib borish usuli. Yuqoridagi ikki masalani echishda bu usuldan qanday foydalanilishini koramiz 1. O'qituvchi bolalarga berilgan kesmani o'lchashni o'rgatar ekan, ularning har biri santimetr modeli oxirini o'lchanayotgan kesmalardan biriga aniq qo'yilishini; o'lchanayotgan kesmaga qalam bilan modelning ikkinchi uchini belgilashlarini; hosil bo'lgan nuqtaga model' oxirlaridan birini yana qo'yishlarini va kesmaga yaqin bitta belgi qo'yishlarini (ikkinchi uchida) kuzatib boradi. Ikkinchi belgi 2 sm ajratib sanalganini bildiradi. Shunga o'xshash ish (har gal belgi qo'yib) qo'yilayotgan belgilardan oxirigisi o'lchanayotgan kesmaning keyingi uchi bilan ustma-ust tushmaguncha bajarilaveradi. Bu holda o'quvchi kesmaga qo'yilgan santimetrlar sonini sanab, santimetrlarning butun sonini topadi. Agar belgilar ustma-ust tushmasa, o'lchash natijasi taqriban ifodalanadi: 5 sm cha, 5 sm dan biroz kam yoki biroz ortiq Berilgan uzunlikdagi kesmani santimetr modeli yordamida yasashda, shuni kuzatib borish kerakki, har qaysi o'quvchi oldin to'g'ri chiziq o'tkazsin; to'g'ri chiziqda nuqta (kesma uchlaridan biri) belgilasin va bu nuqtadan boshdab biror yo'nalishda santimetrlarni keragicha sonda qo'yib chiqsin (har gal qalam bilan belgilab); qalam bilan kesmaning ikkinchi uchini belgilasin. Shuni takidlash kerakki, berilgan kesmani o'lchashda (1-masala) har doim ozmi-kopmi sezilarli qoldiqlar chiqadi. Bu bajarilayotgan ish mohiyatini tushunishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, ishni berilgan uzunlikdagi kesmani ko'rsatilgan ikki usul bilan yasashdan boshlash maqsadga muvofiq (2- ma-sala). Kesmalarni o'lchashning puxta konikmalarini shakllantirish maqsadida bolalarni faqat qog'ozga chizilgan kesmalarni o'lchash bo'yicha mashq qildirib qolmay, balki bu maqsadda boshqa obektlarni, masalan, qalamdon, daftar va boshqa uncha katta bo'lmagan predmetlarni o'lchash bo'yicha ham mashq qildirish kerak. Ko'pburchakning tomonlari o'lchash obektlari bo'lishi ham juda muhimdir. Bundan keyin yuqorida aytib o'tilgan ikki masalani





yechishda santimetr modelidan foydalanishdan chizg'ichdan foydalanishga o'tish tavsiya etiladi, chizg'ichni o'quvchilar katakli qog'oz varag'idan yasashadi. Bunday chizg'ich hosil qilish uchun o'qituvchi katak daftarning bir necha varag'ini poloskalar shaklida qirqadi va o'quvchilarga tarqatadi va poloskalarda santimetrlarni qanday belgilashni ko'rsatadi (bunda u qog'oz kataklarini bitta oralatib sanaydi yoki santimetr modelidan shu maqsadda foydalanadi). Bir santimetrli kesma bu poloskaga hammasi bo'lib 10 marta ketma-ket qo'yiladi. Uzunligi 1 dm bo'lgan poloskaning oxirlari kesilishidan hosil bo'lgan qog'oz polosa chizg'ichning modeli bo'ladi. Bunday chizg'ichning santimetrli shkalasi bo'linishlarini raqamlar bilan belgilash tavsiya etilmaydi. Bu sanoq va o'lchash protsesslarini birlashtirish uchun ham, bolalarning kesma uzunligi bilan son orasidagi moslikni tushunishlari uchun ham foydali. Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, o'lchashga oid birinchi mashqlarni raqamlar qo'yilmagan chizg'ich yordamida ham, santimetr modeli yordamida ham bajarish foydali ekan. Bu bolalarga amalda chizg'ichdan foydalanishning afzalligini ko'rsatish imkonini beradi, bir xil modeldan foydalanishda boshqa modeldan foydalanishga uzluksiz va to'la qonuniy o'tishni amalga oshirish imkonini beradi. Shuni ta'kidlab o'tamizki, raqamlangan shkalali lineykadan foydalanib o'lchamga o'tishga shoshilmaslik kerak. Bu shunday kam uchraydigan hatoga yo'l qo'yishga olib keladiki, bunda kesma yasash yoki olchashda sanoq boshini chizg'ichda noldan emas birdan boshlaydilar. Bundan keyin shkalasi raqamlangan chizg'ich bilan ishlashda olchashda hatolarga yol qo'yuvchi o'quvchilarga individual yaqinlashish maqsadida santimetr modelidan yoki santimetr shkalali qog'oz poloskadan foydalanish zarurligini ham ta'kidlab o'tamiz. O'quvchilar olchashda chizg'ichdagi chiziqchalarni emas, balki kesmaga o'lchov necha marta joylashishini aniqlashni o'rganib olganlaridan keyin santimetrli bolimlarni raqamlar bilan belgilash mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini har gal olchashda santimetrlarni sanash juda noqulay ekaniga qaratadi va ularga bunday savol beradi: "o'lchashni tezlatish va oson-lashtirish uchun nima qilish kerak?". Bolalar odatda to'g'ri javob beradilar: bo'linishlarni raqamlar bilan belgilash kerak. O'qituvchi chiziqchalarni emas, balki kesmalarni-santimetrlarni sanash kerakligini yana bir marta takidlaydi. Sanoq boshlanadigan chiziqcha 0 raqami bilan belgilanadi.

Bazi mamlakatlarda, masalan, Chexoslovakiyada santimetrlar shkalasining boshlang'ich chiziqchasini noF bilan belgilanmaydigan maxsus chizg'ichdan foydalanilishini aytib o'tish bolalar uchun qiziqarlidir. O'qituvchining muhim





vazifalaridan biri bu bolalarga chizg ichdan foydalanish qoidasini tushuntirishdir: chizg'ichning bo'linishlari tushirilgan qirrasini faqat o'lchashlar uchun hizmat qiladi, to'g'ri chiziq kesmalarini chizishda shkalali qirrasiga qarama-qarshi qirrasidan foydalaniladi. Chizg'ich kir bo'lib qolmasligi, o'tkaziladigan kesma aniq bo'lishi uchun chizishni faqat qalamda bajarish kerak. Chizg'ich qog'ozga shunday joylanishi kerakki, o'lchanayotgan yoki chizilayotgan kesma uning yoritilgan qirrasini tomonida bo'lsin. O'qituvchi o'quvchilarga chizmachilik asboblarini tartibli saqlash kerakligini tushuntirishi kerak: chizg'ich va go'niya toza bo'lishi kerak, chizg'ichning bo'linmalari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi, qalamlarning uchlari o'tkir qilib chiqarilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarni uzunlikning yangi birligi - dedsimetr bilan tanishtirish ikkinchi o'nlikni o'rganish munosabati bilan boshlanadi. Yuqorida qaralgan chizg'ich (qog'oz poloska) aslida dedsimetrning raqamlanmagan qog'oz modelidir. har bir o'quvchi shunday modellardan bir qanchasini yasashi muhimdir. O'quvchilar dedsimetr modeli bilan ham santimetr modeli yordamida bajarganlaridek ishlarni yani o'lchashlar va yasashlarni bajarishadi. Dedsimetr modeli yordamida o'lchashlarga doir bazi mashqlarni keltiramiz:

1. Dedsimetrning uchta modelini bir qatorga qo'ying. qanday uzunlikda poloska hosil bo'ldi.

2. Qogoz lenta (ip yoki kanop) dan uzunligi 3 dm (yoki boshqa songa teng) bo'lgan bir bo'lak o'lchang va poloskaning shu qismini qirqib oling.

3. To'g'ri chiziqda berilgan nuqtadan boshlab ikki marta dedsimetr qo'ying va boshqa bir nuqta qo'ying, hosil bo'lgan kesma uzunligini ayting.

4. Partaning, stolning eni va bo'yini, portfer uzunligini toping. Agar o'lchashda dedsimetr butun son marta joylashmasa, o'lchash natijasi taqriban ifodalanadi: 3 dm cha, 5 dm dan ozgina ortiq, yoki ozgina kam. Ishda navbatdagi qadam - kesmalarni santimetr, dedsimetr modellari yordamida yasashlar va o'lchash. Bu erda ushbu mashqlar o'rinli bo'ladi:

1. 2 dm 4 sm necha santimetrga teng

2. Uzunligi 7 dm (2 dm) bo'lgan kesma necha santimetr bo'ladi.

3. Uzunligi 86 sm bo'lgan kesma necha dedsimetr va santimetr bo'ladi va hokazo.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

100 ichida nomerlash o'rganilayotganda yangi chiziqli birlik - metr o'rganiladi. Bu o'lchov bilan tanishtirishning yetarlicha malum bo'lgan usuli ushbudan iborat.






O'qituvchi sinfga bunday savol bilan murojaat qiladi: sinf xonasining bo'yi va enini santimetr yoki dedsimetr modeli bilan o'lchash qulaymi, nega noqulay? U bunday hollarda yirikroq chiziqli birlikdan foydalaniladi, buni metr deb ataladi, deydi. O'qituvchi bir metrli yog'och chizg'ichni ko'rsatadi va bu chizg'ich metrninng modeli ekanini aytadi. Metr bilan tanishtirishda bolalarga bir metrli yog'och chizg'ichni ko'rsatibgina qolmay, u bilan qanday o'lchashni ko'rsatishni, bunda bolalarning o'zlari sinfninng, doskaninng, eshikinng va hokazolarning eni va bo'yini mustaqil topa oladigan bo'lishi muhimdir. Buning uchun ularning har birida o'zlari (mehnat darsida) yasagan bir metrli qog'oz lineyka bo'lishi kerak. Metrninng modelini hosil qilish uchun o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida uzunligi 10 dm bo'lgan qog'oz lenta oladilar va dedsimetrlarga, bo'ladilar. Detsimetrغا teng bo'limlar chizig'chalar bilan belgilanadi. Bu chizig'chalar bo'yicha poloska buklanadi va "garmoshka" kilib tahlab qo'yiladi. Yig'ma qog'oz metr hosil bo'ladi. Shundan keyin o'quvchilarga ushbu ma'lumotlarni aytish foydali: qo'llar ikki yon tomonga cho'zib turilganda bir qo'lninng panjasidan boshqa qo'l tirsagigacha bo'lgan masofa bir metrga teng; poldan 8-9 yoshdagi o'quvchining ko'kragicha bo'lgan masofa bir metrga teng. Shundan keyin ish santimetr va detsimetrlar bilan tanishtirilgandagidek davom ettiriladi. Bunda ushbu ko'rinishdagi mashqlar o'rinli bo'ladi: metrninng qog'oz modeli yordamida uzunligi 3 m (4 m) bo'lgan kanop (lenta va h. k.) o'lchang, sinf polinng plintusiga ko'ra uning bo'yini topiig, bunda har bir o'lchashdan keyin bo'r bilan belgi qo'ying. Bu ish o'quvchilarni qizig'tirishi uchun metr bilan o'lchamlarni ko'zda chamalab o'lchashga oid mashqlar bilan qo'shib olib borish kerak. Bolalar berilgan masofani ko'zda chamalab o'lchaydilar, so'ngra haqiqatda masofa qanchaligi metrda o'lchab ko'radilar. Shu yo'l bilan bolalar masofani ko'zda chamalash malakasinigina egallab qolmay, balki metr bilan o'lchash bo'yicha ham mashq qiladilar. Bunday savollar ham foydali: "Ovqatlanish stoli bir metrdan balandmi yoki pastmi?", "Utiriladigan stullar yoki kursilar poldan qancha baland (bir metrdan yuqori yoki past) qilib yasaladi?", "Oddiy kravotning uzunligi qancha va hokazo. II sinfda uzunlik o'lchov birliklari bilan tanishish davom ettiriladi: bolalar millimetr bilan, keyinrog' esa kilometr bilan tanishadilar. O'quvchilarni millimetr bilan tanishtirish o'quvchilarni uzunlik o'lchovlari bilan tanishtirish ishining eng qiyin qismidir. Tanishtirishni santimetrغا qaraganda ancha mayda bo'lgan yangi o'lchov birligini kiritish amaliyotning talabi ekanini ko'rsatishdan boshlash kerak. Buni o'quvchilarga santimetrlarga bo'lingan





qog'oz poloskalar yordamida oldindan qog'oz varag'lariga chizilgan, masalan, uzunliklari 8 sm 7 mm va 9 sm 2 mm bo'lgan kesmalarni o'lchashni taklif qilib amalga oshirish mumkin. Kesmalar tagma-tag chizilgan bo'lib, bir xil emasligi yaxshi ko'rinib turadi. Buning ustiga santimetrlarda hisoblangan uzunlik bir sonning o'zi bilan ifodalanadi, bu son taxminan 9 ga teng (bunda o'quvchilar hali millimetr bilan tanishmagan bo'lishadi). Bundan ushbu xulosa chiqariladi: aniqroq o'lchashlar uchun santimetrغا qaraganda kichikroq o'lchov zarur. Odatda masshtabli chizg'ichdagi bo'linishlarni qarab, o'qituvchi, bitta mayda bo'linish, ya'ni chizg'ichning ikkita chiziqchasi orasidagi bitta kesma millimetr deb atalishini aytadi. Bolalar 1 sm da 10 ta mm borligiga ayoniy ishonch hosil qiladilar. Shundan keyin o'quvchilar o'lchamlarga o'tishadi. Ular darslikda berilgan kesmalarni va shu darslikda chizilgan figuralarning tomonlarini o'lchashadi. Oldin bitta asosiy operatsiya - bo'linishlarni hisoblash o'zlashtiriladi. O'qituvchi, bir metrli chizg'ichdagi kabi (bu chizg'ichda hisoblash qulay bo'lsin uchun har 5 sm dan keyin uzunroq shtrix o'tkazilgan) o'quvchilar chizg'ichida har 5 mm dan keyin kattaroq chiziqcha qo'yilishini tushuntiradi. Eng muhim narsa shuki, o'quvchilar sanash vaqtida ko'z to'g'ri joylashtirish malakasini egallab olishlari kerak. Nol belgili nuqtani kesma oxiri bilan ustma-ust tushurishda va millimetrli bo'linishlarni hisobga olishda parallaks hodisasi ta'sirini yo'qotish uchun ko'z bilan shunday qarash kerakki, u holda ham, bu holda ham ko'zni o'lchanayotgan kesmaga, shu kesma oxiridan o'tkazilgan perpendikulyarga tikib turish kerak. Bu ishning muhim va tushuntirish uchun qiyin bo'lgan elementidir. Buning qanchalik muhim ekanini shundan ham bilsa bo'ladiki, millimetrli chizg'ichlar bilan o'lchashda ko'zning perpendikulyardan 5 sm gina chetlashishi 0,6 mm hatoga yo'l qo'yishga sabab bo'ladi. Tushuntirish g'iyinligi shundan iboratki, o'quvchilar hali perpendikulyar tushunchasi bilan tanishmagan bo'ladilar. Shu sababli o'quvchi bir muncha "hilarog", tarqoq ko'rsatmalar berishga to'g'ri keladi. Masalan, "kesma oxiriga qarayotgan ko'zingizni shu nuqta ustiga aniq tiking", "Millimetrli bo'linishlarni hisoblayotganda yon tomondan qaramang", va h. k.

Uzunlik o'lchovining yangi birligi - kilometr bilan tanishtirilayotganda uzunlik o'lchovining bu birligi haqidagi tasavvurni shakllantirish maqsadida yer ustida amaliy ishlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu maqsadda o'quvchilar o'qituvchi boshchiligida 1 km ga (500 m ga teng) masofani o'tishlari va bu masofani qancha vaqtda o'tganliklarini aniqlashlari foydalidir. O'tilgan masofani, yo qadamlar bilan (taxminan 2 qadam 1 m







ga teng), yoki ruletka, yoki o'lovch lentasi bilan o'lovchaydilar. Yo'lma-yo'lakay o'lovchilar bazi masofalarni kozda chamalab mashq qiladilar. Agar imkoniyati boisa, yaqindagi aholi yashaydigan punkt va shaharlargacha bolgan masofalarga oid malumotlarni bilish maqsadida avtobus vokzaliga yoki temir yol vokzaliga ekskursiyalar otkaziladi. Bu materialdan keyinchalik darslarda masalalar tuzishda foydalaniladi, III sinfda o'lovchilarning uzunlik olchovlari birliklari orasidagi munosabatlarga oid bilimlari mustahkamlanadi va uzunlik olchovlari jadvali kiritiladi:

$$1 \text{ km} = 1000 \text{ m} \quad 1 \text{ m} = 10 \text{ dm}$$

$$1 \text{ m} = 100 \text{ sm} = 1000 \text{ mm}. \quad 1 \text{ dm} = 10 \text{ sm} \quad 1 \text{ sm} = 10 \text{ mm}.$$

Bu jadvalni o'lovchilar eslab qolishlari kerak. Uzunlik olchovlari jadvaliga oid bilimlaridan bolalar har xil mashqlarni bajarishlarida foydalanishlari kerak. Bunda quyidagidek mashqlar o'rinli boladi:

a) 1 m 1 sm dan necha marta katta 1 dm 1 m dan necha marta kam va h. k.

b) 1 mm santimetrning qanday qismini tashkil qiladi,

1 dm (1 sm, 1 mm) metrning qanday qismini tashkil qiladi va hokazo.

v) Sonlarni kilometr va metrlarda ifodalang: 36647 m; 3807 m va hokazo. Oxirgi mashqni bajarishda bolalar taxminan bunday mulohaza yuritadilar: "36647 sonida nechta minglik va birlik 'borligini bilish kerak. Bu sonda 36 ta minglik va 647 ta birlik bor, 1 km bu 1000 m, demak, 36 ming metr bu 36 km; 36647 m esa 36 km 647 m ga teng" va hokazo.

3. Geometrik figuralarning yuzasi haqida tushunchalarni o'qitish metodikasi. Yuza to'g'risida bilimlar IV sinf matematikasida "yuza", "yuza birliklari" mavzusida o'rganiladi. Lekin bu tushunchaga tayyorgarlik ishlari I-II sinfdan boshlanadi. Masalan, mehnat darslarida qog'ozdan yuzaga ega bo'lgan figuralarni qirqib olish tasviriy san'at darslarida ba'zi figuralarni bo'yash bo'yoqning ko'p yoki kam ketishi nimaga bog'liqligini bilib boradilar. Rasm solish bilan biror figurani yopiq chiziqlar bilan chegaralaydilar, qog'ozning ko'p yoki kam ketganligini bilish asosida yuzlarning katta, teng munosabatlar bilan taqqoslashini bilib oladilar. Geometrik figuralarga taalluqli uchburchak, kvadrat, doira to'g'ri to'rtburchak kabi figuralarni chizib, uni qog'ozdan kesib oladilar. Mehnat darslarida ham bichish-tikish ishlarini bajarganda ko'p yoki mato ketganligi bilan yuza tushunchasini bog'laydilar.










1-2 sinflarda figuralardagi kataklarni sanash, kataklar bo'yicha figura yasash, figuralar qirqish, ustiga qo'yish yo'li bilan figuralarni taqqoslashga oid mashqlar beriladi. "Figuralarning yuzlari" mavzusi quyidagi reja asosida o'qitiladi:

1. Taqqoslash bilan qaysi figura ko'proq o'rin egallashini bilib olish.
2. Birlik kvadrat yordamida figuralar yuzasining katta, kichikligini bilish, kb.cm bilan tanishish.
3. Kv.sm bilan turli figuralar yuzlarni hisoblash, paletka.
4. To'g'ri to'rtburchakning yuzini Kv.sm da hisoblash.
5. To'g'ri to'rtburchakning yuzini Kv.dm da hisoblash.
6. To'g'ri to'rtburchakning yuzini Kv.m da hisoblash.

Har qaysi bosqichga alohida to'xtalamiz: Figuralarning yuzi haqida tasavvurlarni shakllantirishdan oldin o'quvchilarda kesmalarni taqqoslash, kesmalar va kesmalarning uzunliklariga nisbatan  $>$ ,  $<$  = munosabatlari haqida o'quvchilarda to'plangan ma'lumotlarni eslash kerak. Ayniqsa amaliy mashqlardan foydalanish zarur. Misol: A, B, V, G, D, Y figuralarni chizamiz, ularni qog'ozdan qirqib olib ustma-ust qo'yib taqqoslashadi.





D



Y

B- uchburchakni A kvadrat ustiga qo'yadi. Uchburchak kvadrat ichida joylashganiga ishonch hosil qilganidan keyin,  $B < A$  ko'rinishda xulosa chiqaradi. G ni B ni qo'yib boshqa kombinasiyalar bilan  $>$ ,  $<$ ,  $=$  kabi munosabatlar o'rnatiladi. Lekin har doim ham shakllarini ustma-ust qo'yib, figuralar yuzlarini taqqoslab bo'lmaydi. Misol: 1,2,3,4 figuralarni olamiz. Endi bunday figuralar qanday taqqoslanadi? -degan savol qo'yiladi. Bu yerda figura yuzlarini o'lchash, o'lchov birligini kiritish zarurligi kelib chiqadi. Bunday yuzlarni o'lchash usullaridan osoni figura yuzlarini teng kvadratlarga bo'lish orqali bajariladi. Bu misol quyidagicha bajariladi. Bir o'quvchi 6 tadan katagi bor 4 ta qatorni, 2-o'quvchi 9 tadan katagi bor 3 ta qatorni daftarga chizadi. Qaysi o'quvchi ko'proq katakni va qancha ko'p katakni chizgan? Yechish :  $9*3=27$ ;  $6*4=24$ ;  $27-24=3$  kabi hisoblash bajariladi.


Yuzani o'lchash uchun yuza birligi kb.cm ni kiritishdan boshlash kerak. Tomonning uzunligi 1 sm yoki daftarga 2 katak uzunligiga teng bo'lgan uzunlik orqali kvadrat chizdiriladi. Bu kvadrat ichida 4 ta katak joylashgan bo'ladi. Shundan keyin daftarning yuzini o'lchashdan boshlash kerak.

1) eng bo'yicha 30 ta, bo'yi 40 ta katak joylashgan bo'sa,  $30*40=1200$  katak. Har to'rttasi 1 kv sm.bo'lsa,  $1200:4=300$  kv sm. hisoblash mumkin.

2) eni 15 sm, bo'yi 20sm bo'lsa,  $15*20=300$  kv sm.

Endi o'quvchilarga eng sodda figura-to'rtburchakning yuzini topishdan amaliy ishni boshlash kerak. Endi kitobning eni 12 sm, bo'yi 18 sm deb chizg'ich bilan o'lchash orqali yuzini keltirib chiqaradi. Yuzi  $12*18=216$  kv sm.

To'g'ri to'rtburchak yuzlarini hisoblashdan boshqa ixtiyoriy yuzlarini hisoblashda paletkadan foydalanishni o'rgatish zarur. Paletka kvadratlarga bo'lingan





shaffof plastinkadir. Mehnat darslarida bunday asboblarni yasatish mumkin. Eng osoni berilgan figurani katakli daftarga qo'yib chizib olamiz. To'la joylashgan kataklar 52 ta bo'lsin.  $52:4=13$  kv. sm. To'la joylashmagan kataklarni sanab, ularning yarmini olamiz.  $24:2=12$  kb.cm 12 katakni kb.cm ga aylantiramiz  $12:4=3$  kv.sm Jami:  $13+3=16$  kv sm.


**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzunlik o'lchov birliklarini o'rgatishda turli metodlardan foydalanishimiz kerak. Masalan yuqoridagiga o'xshash kb.<sup>^</sup>m kb.m kabi o'lchov birliklarini ketma-ket kiritish mumkin. O'quvchi bu yuzalar qanday kattalikka ega ekanligi to'g'risida tasavvur hosil qilishi uchun uzunliklari 1 cm, 1 dm, 1 m bo'lgan kvadratlar chizdiriladi, iloji bo'lsa ular qog'ozda chizdirilib, kesib olinadi. Mm li qog'oz haqida tushuncha berish kerak. Endi amaliy ish sifatida doska, stol va hokazolarning enda va bo'ylarini sm yoki dm o'lchov birligida o'lchab, ularni ko'paytirish asosida yuzlarini hisoblab chiqadilar, shuningdek daftar, kitob va boshqalarning yuzlari hisoblash mustaqil ish sifatida beriladi. Endi vazifa kv.dm ni kv.sm ga, kv.sm ni kv.dm ga aylantirish masalasidir. Buning uchun quyidagi masalalarni yechish mumkin.

1. Matematika darsligi muqovasining bo'yi va enini cm larda o'lchash va yuzini gM larda ifodalash.

2. Gazeta sahifasining bo'yi va enini dm larda o'lchash va yuzini sm larda ifodalash. Shu kabi mashqlar asosida kichik birliklardagi yuzani katta birlikdagi va aksincha aylantirishi, shu asosida yuza o'lchov birliklari jadvali haqida tushuncha beriladi. Endi kattaroq yuzlarni o'lchashga o'tiladi. Unda sinfning yuzi, yer uchastkasi va boshqa yuzalar o'lchab ko'rsatiladi. Demak, ana shu tariqa o'quvchilarda turli shakldagi yuzalarning miqdori aniqlash o'rgatiladi.


#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axmedov M., Abduraxmonova N. Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2017 yil., 160 bet
2. Abduraxmonova N., O'rinboyeva L. 2-sinf matematika darsligi. Toshkent, "Yangiyo'l Poligraf Servis", 2018 yil, 208 bet.
3. Burxonov S. Va boshqalar. 3-sinf matematika darsligi. Toshkent, "Sharq" 2015.
4. Bikboeva. N.U. 4- sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi" 2017 yil.





5. Jumayev M.E. Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi Oquv qo'llanma. (KHK uchun ) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2013 yil.
6. Jumayev E.E, Boshlang'ich matematika na'zariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Turon-iqbol," 2012 yil.
7. Jumayev M.E. va boshq. Birinchi sinf matematika daftari. Toshkent. "Turon-Iqbol," 2015 yil., 64 bet
8. Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. Toshkent. "TDPU" 2008 yil. B 96
9. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O 0'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.
10. Jumayev M.E, Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O 0'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.
11. Jumayev M.E, Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (O 0'Y uchun o'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil.





ISSN (E): 2181-4570

**TURKIY TIL TAROVATI YOXUD BIR G‘AZAL SHARHI**

Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o‘g‘li  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada shoir Asriyning “Sani har ko‘rdugimda...” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali tahlil etilgan. Maqolada g‘azalning poetikasi haqida so‘z borgan.

**Annotation**

This article analyzes the poet Asri's ghazal, which begins with the verse "Whenever I see...". The article talks about the poetics of the ghazal.

**Tayanch so‘zlar:** Asriy, ishq, J.Mir o‘g‘li, g‘azal, Kavsar suvi, tasavvuf, qofiya.

**Key words:** Asri, love, J.Mir's son, ghazal, Kavsar water, mysticism, rhyme.

Turkiy adabiyot ravnaqida muqaddas islom dini yetakchi mavqeda turadi. Shu sababli ijodkorlar o‘z asarlarida (u xoh nazm bo‘lsin, xoh nasr bo‘lsin) islomiy ta‘limot asoslarini yoyishga, bu ta‘limot tamoyillariga muvofiq hukm qilishga targ‘ib etganlar. Shu sababli ularning asarlarida bu ruh, bu qarash sezilib turadi. Albatta, muqaddas dinimiz tasavvuf ta‘limoti deb atalgan buyuk bir ta‘limotning paydo bo‘lishida asosiy manba vazifasini bajardi. Bu esa islom dini yoyilgan xalqlarda tasavvuf adabiyoti deb nomlanadigan badiiy ijodning alohida bir tarmog‘i vujudga kelishiga zamin hozirladi va bu ta‘limot vujudga kelgan davrlaridan boshlab bugunga qadar yashab kelmoqda. Adabiyot tarixi shuni ko‘rsatadiki, tasavvuf adabiyoti o‘z taraqqiyoti mobaynida takomilining yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Bu tarix bizga Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari o‘z tariqatiga asos solgan yirik piri murshidlarni, Alisher Navoiy, Bobur, Boborahim Mashrab kabi tasavvuf adabiyoti darg‘alarini ko‘rsatdi.

Turkiy adabiyot nafaqat islomiy yoki Sharq adabiyoti tarixida, balki jahon adabiyoti ravnaqida ham asrlar davomida o‘z uslubi, me‘yorlari va taomil hamda takomillari bilan dunyo adabiyotining bir qismi o‘laroq taraqqiy etdi. Biz adabiyotning bu turida (tasavvuf adabiyotida – Z.F) turkiy adabiyot ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan buyuk ijodkorlarning ijodlaridan shu davrga qadar bahramand bo‘ldik va bo‘lib kelmoqdamiz. Ammo adabiyotimiz tarixida shunday zotlar o‘tganki, ularning ijodi bugunga qadar o‘rganilmagan, yetarlicha yoritilmagan. Istiqlool bizga bunday ajdodlarimiz ijodi, ularning merosini o‘rganish, tahlil hamda tadqiq qilish imkonini






berdi. Shu sababli o'zga diyordlarda yashagan, u yerlarda ijod qilgan hamda ijodkor sifatida el orasida nom qozongan kishilar badiiy merosini o'rganish, ularning asarlarini yurtimizga qaytarish, xalqimizga tanishtirish yuzasidan salmoqli ishlar olib borildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ko'p yillik qadriyatlarimizni tiklash qatori o'zga yurtlarda yashab, xoklari begona o'lkalarda qolgan vatandoshlarimizni aniqlash, ularning nomini tiklash maqsadida sezilarli ishlar amalga oshirildi va bu jarayon bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Shu qatori biz ham Asriy nomini tiklash, uning ijodini o'rganish hamda ijodkor badiiy merosini xalqimizga yetkazishni maqsad qildik. Asriy bugungi fors diyorida yashagan turkiy ijodkor. U XVII asrda Eroning, asosan, Sheroz va Tabriz shaharlarida istiqomat qilgan. Bugungi davrimizga qadar Asriy ijodi nafaqat alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan, balki uning shaxsiyati haqida ham endigina xabardor bo'la boshladik. Shularni inobatga olgan holda mazkur maqolamizda, dengizdan tomchi deganlaridek, uning devoniga kiritilgan "Sani har ko'rdugimda..." misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini tahlil va tadqiq etishga tutindik. Albatta, Asriy boshqa yurt, boshqa zamin, boshqa adabiy muhitda yashab ijod qilgan bo'lsa-da, boshqa turkiyzabonlar ijodida bo'lgani kabi uning lirikasida ham turkiy ruh, islomiy qadriyatlar sezilib turadi. Bundan tashqari uning lirikasi bilan tanishish asnosida guvoh bo'ldikki, Asriy ijodida tasavvufiy ruh, tasavvufiy qarash ustunlik qiladi. Xususan, ijodkor g'azallarida buni payqash qiyin emas. Ma'lumki, tasavvuf adabiyotida Alloh insonni o'zini sevdirish uchun yaratgan, deb qaraladi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, bunday mazmundagi asarlarda shaklan majoziy ishq tasvirlansa-da, pirovardida ishq haqiqiy, ya'ni Yaratganga bo'lgan muhabbat kuylanadi. Dastlab birinchi bayt sharhiga tutinamiz:

Sani har ko'rdugimda, boshqo bir olam bo'lur paydo,

Mana maqsud ulan olam, dur ko'yinda der: jono.

Ushbu bayt bilan boshlanuvchi g'azal an'anaviy yetti baytdan tashkil topgan bo'lib, qofiyalanish shakli a-a, b-a, d-a, e-a ko'rinishiga ega. Birinchi bayt o'zaro qofiyalangan bo'lsa, qolgan baytlarning juft misralari matla' bilan o'zaro ohangdoshlik hosil qilgan. Matla'da cho'ziq unli raviy sifatida qo'llanilib, muqayyad qofiyani vujudga keltirgan. Asriy devonidan ba'zi she'rlarni saralab, 1946-yilda Tehronda nashr ettirgan eronlik olim J.Mir o'g'li she'r sahifalari ostiga bir nechta ma'lumotlarni ilova sifatida keltirib o'tgan. Xususan, unga ko'ra bu g'azal XIII asr Ozariy shoirlaridan





Hasan o'g'lining mashhur g'azaliga taqlidan yozilganligi anglanadi<sup>1</sup>. Oshiqona xarakterga ega bo'lgan mazkur g'azalda hijron azobida o'rtanayotgan oshiqning qalb kechinmalari, dil fig'onlari, iztiroblari tasvirlanadi.

Dur ko'yinda der: jono, mana maqsud ulan olam.

Na olam – olami jannat, na jannat – jannati a'lo.

Matla' va undan keyingi baytda oshiqning ma'shuqani ko'rgan vaqtidagi holati, bu dunyodagi tilak-muddaosi aniq-ravshan aytib o'tiladi. Ya'ni yorini ko'rganda oshiq uchun har safar xuddi yangi dunyo vujudga kelgandek tuyiladi, shuningdek, dunyodan maqsadi ham faqatgina jannat, jannat bo'lganda ham oliy jannat – Firdavs. Matla'dan keyin g'azalning maqta'sigacha har bir baytda muallif ruju' san'atiga murojaat qilgan holda o'z fikrini ikki karra asoslab, ta'kidlab ifodalaydi. Bundan tashqari birinchi baytning ikkinchi misrasi va ikkinchi baytning birinchi misrasini bir fikrning davomi yanglig' tasvirlab, tardi aks san'atini hosil qilgan.

Boshimdan ketmadi hargiz, sani la'lingdagi lazzat,

Na lazzat – lazzati shakkar, na shakkar – shakkari go'yo.


Gulistoni ruxingdanmi, sari zulfingdagi nakhat?

Ha nakhat – nakhati anbar, na anbar – anbari soro.

Navbatdagi ikki baytda muallif o'z fikri rivojini davom ettirib sharhi hol qiladi hamda ma'shuqa tasvirini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantiradi. Xususan, uchinchi baytda istiora san'ati asosida yorning labi shirinlikda shakarga mengzalib tashbeh qilingan bo'lsa, keyingi baytda o'zini bilib turib bilmaslikka oladi, tajohil ul-orifona san'atiga murojaat etib, yor sochining muattarligiga go'zal yuzini sabab qilib ko'rsatadi va baytning ikkinchi misrasida uni xushbo'ylikda anbarga qiyoslaydi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash o'rinliki, Asriy Sharq adabiyotidagi Ilmi segona – ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bade' ilmlarining o'tkir bilimdoni bo'lgan va o'z lirikasida bunga qattiq amal qilgan. Devonidagi g'azallarni tahlil qilish asnosida bunga shohid bo'ldik. Ayniqsa, ijodkorning badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi mahoratini e'tirof etishimiz joiz. Beshinchi baytda esa oshiq qalbidan chiqqan fig'onlarning yor qulog'iga yetib bormayotganligidan afsus chekadi:

Ajab, vormazmu go'shi yora qalbidan chixon shuyun?

<sup>1</sup>Asriy "Devon"idan sahifalar (g'azallar). Nashrga tayyorlovchi J.Mir o'g'li. Birinchi nashr. Tehron, "Chamanoro" nashriyoti, 1946.







Na shuyun – shuyuni oshiq, na oshiq – oshiqi shaydo.

Maqta'dan oldingi baytda esa oshiq soqiyga yuzlanib, Kavsar suviga tashna qalbiga muruvvat aylashini istab yozg'iradi hamda Kavsar suvi yor vasli ma'nosida tushunilar ekan, vasl sifatida esa "vuslati Tanho", ya'ni Yaratgan vasli nazarda tutiladi. Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda zikr qilingan: "Kavsar jannatdagi daryo bo'lib, o'zani dur-u yoqutdan, tuprog'i miskdan xushbo'y, suvi asaldan shirin, qordan oqdir. Kim undan bir ichsa, keyin abadiy chanqamaydi<sup>2</sup>". Ushbu baytda Alloh taoloning Vohid sifatining forsiy varianti Tanho berilgan:

Muruvvat ayla ey soqi! Dahonim tashnayi Kavsar,

Na Kavsar – Kavsari vuslat, na vuslat – vuslati Tanho.

Oshiqona mazmunga ega bo'lgan lirika namunalari bilan tanishish chog'imizda guvoh bo'lganmizki, bunday asarlarda obi Kavsar yor vasliga tashna oshiq hijron kechinmalariga darmon sifatida qaraladi. Mazkur baytdan g'azalning umumiy xususiyati ilohiy ishq ekanligini fahmlash mumkin. Maqta' ham alohida e'tiborni tortadi:

Nadan dilxastasan, Asriy! Yonar ko'nglunda bir otash,


Na otash – otashi xohish, na xohish – xohishi bejo.

So'nggi baytda muallif o'ziga murojaat etib, dilxastalikning sababini so'raydi va ko'nglidagi ishqning bemaqsad emasligini urg'ulaydi. Mening bu istagimni o'rinsiz bejo, ya'ni bemaqsad urinish deb bilma, uning ostida ulug' maqsadim bor, degan fikrni ilgari suradi shoir. Mana, shoirning birgina g'azali sharhi bizni u bilan g'oyibona yaqinlashtirdi va Asriy ijodi bilan biroz bo'lsa-da tanishish imkonini berdi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Asriy ijodi turkiy adabiyot tarixida yangi bir xazina o'laroq kashf etilishga muhtoj. Biz esa ushbu xazina eshiklaridan endigina kirib boshladik, xolos. Uning yuqoridagi birgina g'azali biz uchun katta xazinadan kichik bir zar sifatida tahlil etildi. Keyingi vazifa esa shoir ijodini katta bir tadqiqot obyekti sifatida o'rganish hamda bu merosni butun xalqimizga tanitish bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asriy "Devon"idan sahifalar (g'azallar). Nashrga tayyorlovchi J.Mir o'g'li. Birinchi nashr. – Tehron, "Chamanoro" nashriyoti, 1946.


<sup>2</sup>"Tafsiri hilol". Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 6-juz, Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2009, 548-b.





ISSN (E): 2181-4570

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, “Tafsiri hilol”. 1-6-juzlar, 6-juz. – Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2009, 548-b.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik, I tom.– Toshkent, 1983, 90-b.
4. M.Abdusamatov, Fors tili. – Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1971.
5. Анвар Хожиаҳмедов. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент, “Шарқ”, 1999.





ISSN (E): 2181-4570

**ORACLE ma'lumotlar bazasi****Ilmiy rahbar: Abdurashidova Kamola Turgunbaevna****Ochilboyev Umidjon Ilxom o'g'li****Muhammad al-Xorazmiy nomidagi****Toshkent axborot texnologiyalar universiteti talabasi****ANNOTATSIYA**

Bugungi kunda ma'lumotlar oqimi ko'payib borgani sari, ularni qayta ishlash, saqlash va ma'lumotlar ustida amallarni bajarish dolzarb mavjuga aylanmoqda. Ushbu maqolada ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan eng mashhurlari tahlil qilindi, ularning kamchilik va afzalliklari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Ma'lumotlar bazasi, Oracle, MySQL, PostgreSQL, SQL Server.

Ushbu maqolada biz hozirgi vaqtda hamma joyda qo'llaniladigan eng mashhur DBMS larni muhokama qilamiz va ularning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Oracle 12c. Oraclening birinchi versiyasi 70-yillarning oxirida yaratilgan. Hozirgi vaqtda ushbu mahsulot juda ko'p foydalaniladi. Bundan tashqari, ma'lum bir tashkilotning ehtiyojlarini qondirish uchun ushbu mahsulotning bir nechta versiyalari mavjud.

Oraclening 12c versiyasi - bulutli muhitlar uchun mo'ljallangan va bir yoki bir nechta serverlarda joylashtirilishi mumkin, bu sizga milliardlab yozuvlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazalarini boshqarish imkonini beradi. Oraclening ushbu versiyasining ba'zi xususiyatlari qatoriga grid ramkasi va jismoniy va mantiqiy tuzilmalardan foydalanish kiradi.

Bu shuni anglatadiki, jismoniy ma'lumotlarni boshqarish mantiqiy tuzilmalarga kirishga ta'sir qilmaydi. Bundan tashqari, ushbu versiyada xavfsizlik eng yuqori darajaga ko'tariladi, chunki har bir tranzaksiya boshqalardan ajratilgan.

Afzalliklari:

- Eng so'nggi innovatsiyalar va oxirgi funktsionallik ushbu mahsulotga allaqachon kiritilgan.
- Oracle juda ishonchli, aslida u shunga o'xshash tizimlar orasida ishonchlilik standartidir.

Kamchiliklari:





- Oracle narxi juda qimmat bo'lishi mumkin, ayniqsa kichikroq tashkilotlar uchun.
- Tizim o'rnatishdan so'ng darhol katta resurslarni talab qilishi mumkin, shuning uchun yuqori samaradorlikka ega kompyuterga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Oracle ma'lumotlar bazasi ko'p yillar davomida o'zining maksimal darajada qulayligi, ishonchliligi va havfsizligi bilan o'zida juda ko'p foydalanuvchi to'plashga erishgan. Texnologiyalar juda tez rivojlanyapti, bu esa o'z navbatida bazaviy boshqaruv tizimlar yangisiga va mukammalrog'iga o'z joyini bo'shatyapti. Ammo Oracle tinimsiz takomillashtirib borilganligi hisobiga haligacha juda ko'p foydalanuvchiga ega. Bu ma'lumotlar bazasi dasturi qismlarining bir to'plam bo'lib, kuchi har qanday murakkabligini loyihasi tashkil etish uchun yetarli emas. Oracle muhim xususiyati ham bir necha platformalarini qo'llab-quvvatlaydi. Linux, Windows, yoki har qanday boshqa operatsion tizimi ma'lumotlar bazasi samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Oraclening eng birinchi versiyasi 1977-yilda. Eng oxirgi versiyasi esa 2019-yilda chiqarilgan va u 19c rusumida.

Quyida uning rivojlanish tarixi keltirilgan:

Dasturchilar tizimi uchun 4 variant taklif qilinadi.

1. Standart edition
2. Lite
3. Enterprise edition
4. Personal edition

Bu versiyalar bir-biriga juda o'xshash. Ularning asosiy farqi har biri uchun noyob imkoniyatlar bor.

Standart edition. Bu eng ko'p tarqalgan versiya bo'lib funksional jihatdan biroz cheklangan. Ammo kichik hajmli MB ni tez yaratish imkonini beradi. Bu versiya asosan ishchi guruhlar, kichik biznes va hokazolar uchun ishlatiladi. Dasturchilar uchun bu versiya ideal, ammo, katta tashkilotlarga va katta bazalarni yaratishga kelganda ushbu versiyada cheklolarga uchraladi. Boshqa versiyalarga nisbatan arzon bo'lgan versiya.





Oracle lite. Nomidan ma'lumki tizimning eng oddiy yengil versiyasi. Mobil qurilmalar va noutbuklar uchun mo'ljallangan oddiy interfeysga ega. Bazani oson sinxronlaydi. Dastur yaratish an'anaviy yo'l bilan amalga oshiriladi.

Enterprise edition. Oracle tizimning barcha mavjud imkoniyatlarini qo'llab quvvatlaydi. Shu bilan birgalikda eng qimmat versiyasi hamdir. Bunda cheksiz imkoniyatlar va ancha mukammal loyihalar yaratish imkoni bor. Bu versiyaning ishlashi dasturchi mahorati va kuchli apparat ta'minotiga bog'liq. Asboblar paneli keng zahiraga ega. Qimmatli ma'lumotlar hech qachon yo'qotilmaydi. Zarur bo'lganda qayta tiklash imkoniyati mavjud. Buning uchun oracle da Rman utilitasi mavjud bo'lib. U kerakli fayli juda kichik hajmga siqadi va o'zi tushunadigan kodga aylantiradi. So'ngra saqlab qo'yadi.

Personal edition. Bu mijozning shaxsiy o'zi foydalanishi uchun keng imkoniyatlar beradi. Funktsional dasturlari windowsning bir nechta versiyalarida ishlay oladi. Windows NT va ayniqsa windows 200 da uning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanish mumkin.

Endi oracle 11g versiyasining o'rnatish jarayoni bilan tanishamiz.

Dastlab install.exe faylini ishga tushiramiz. Shunda quyidagi oyna chiqadi.

Bundan next tugmasi orqali keying oynaga o'tamiz va ish stolida ikonga yaratishga ruxsat beramiz.


Bundan keyin biz foydalanish turiga qarab tepada keltirilgan 4 ta turdan birini tanlaymiz(enterprise, standart, personal yoki lite)

So'ngra next tugmasini bosamiz. Bundan keying chiqadigan oyna bizga tanlagan dasturimiz imkoniyatlarini tanishtiradi.

Tanishib chiqqandan so'ng finish tugmasini bosamiz

Undan keying oyna bizga dastur o'rnatilishi jarayonini ko'rsatib turadi.

O'rnatilish yakunlanganda bizga Branmauer oynasi chiqadi va dastur ishlashiga ruhsat so'raydi.





ISSN (E): 2181-4570

Albatta bunga ruhsat beramiz. Quyidagi oynada esa biz sotib olgan dastur kaliti kiritiladi. Bu kalit dastur sotib olinganda beriladi. Kalit kiritilmasa dastur o'z ishini to'xtatadi va jarayon yakunlanmay qoladi.

Kalit kiritilgandan so'ng dastur yakuniy o'rnatishni tugatadi va dasturimiz ishlashga tayyor bo'ladi.


Dasturni ishga tushirish uchun esa cmd terminalini administrator nomidan ochamiz va unga "set oracle\_sid=orcl" enter bosilib "Sqlplus/as sysdba" buyruqlarini kiritamiz.

### XULOSA

Ma'lumotlar bazasi mexanizmi virtual, jismoniy va bulutni o'z ichiga olgan bir qator muhitlarda joylashtirilishi mumkin. PostgreSQL katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va bir vaqtning o'zida ko'p foydalanuvchilar bilan ishlashni taklif qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.BIRMISS.COM sayti.
- 2.Texnoman.uz sayti.
- 3.Oracle.com sayti.
- 4.wikipedia.com sayti.
- 5.c-sharpcorner.com sayti.





## Axborotni ruxsatsiz foydalanishlardan himoyalash

**Ilmiy rahbar: Abdurashidova Kamola Turgunbaevna  
Sultonov Muhammadali Ro'ziboyevich  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi**

**Toshkent axborot texnologiyalar universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** AHQKT ob'ektlarda axborot xavfsizligini ko'p sonli mumkin bo'lgan xavflardan himoya qilish uchun yaratiladi. U yoki bu xavfni blokirovkalash uchun himoya qilishning usullarini va vositalarini ma'lum bir to'plami ishlatiladi. Ularning ba'zi birlari axborotni bir vaqtning o'zida bir nechta xavflardan himoya qiladi. Usullarning ichida universal usullar ham mavjuddir, ular istalgan himoya qilish tizimi uchun asosiy hisoblanadi. Bu axborotni himoya qilishning huquqiy usullaridir, bu ixtiyoriy vazifali himoya qilish tizimini rasmiy ravishda kurishni va ishlatishni asosi bo'lib xizmat qiladi; bu tashkiliy usullardir, ular odatda bir nechta xavflarni bartaraf (qaytarish) etish uchun ishlatiladi; bu texnik usullardir, ular tashkiliy va texnik tadbirlarga asoslangan holda ko'pchilik xavflardan axborotlarni himoya qiladi.

**Kalit so'zlar:** kompyuter, texnologiya, internet, biometrik, onlayn, konfidentsial, elektron, texnik, sertifikat, administrator, resurs, versiya, blok, brandmauer.

Axborotni himoya qilishni huquqiy usullarida huquqiy xarakterli masalalar ko'rib chiqiladi:

- kompyuter jinoyatchiligi uchun jazolash me'yorlarini ishlab chiqish;
- dasturlovchilarni mualliflik huquqlarini himoya qilish;
- jinoiy va fuqarolik qonunchiligini, hamda kompyuter jinoyatchiligi sohasida sud ishini mukammallashtirish;

- kompyuter tizimlari ishlab chiquvchilar ustidan jamoat nazorati masalalari;
- bu masalalar bo'yicha mos xalqaro shartnomalarni qabul qilish va h.k.

Axborotni himoya qilishni tashkiliy choralari ko'rib chiqadi:

- kompyuter tizimlarini qo'riqlashni;
- xodimlarni tanlab olish;





- o'ta muhim ishlarni faqat bir kishi tomonidan olib borilishi holatlarini inkor qilish;

- tizimni, u ishdan chiqqanidan keyin, ishlash qobiliyatini tiklash rejasini borligi;
- axborot xavfsizligi tizimini ta'minlaydigan shaxslarga javobgarlikni berish;
- kompyuter markazini joylashgan joyini tanlash va h.k.

Himoya qilishni texnik usullari apparatli, dasturli va apparat-dasturliga bo'linadilar. Elektron hisoblash texnikasiga mo'ljallangan xavfsizliklarni ta'minlashni asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- KT va T larida taqiqlangan axborotga murojaat qilishdan himoya qilish;
- virusga qarshi himoya qilish;
- istalmagan elektromagnit va akustik maydon va nurlanishlar orqali ushlab olishni bartaraf etish;


- kriptografik usullar asosida xabarlarini yuqori tuzilishli berkligini ta'minlash.

Texnik usullar (dasturli, apparatli va dastur-apparatli) kelgusida yanada batafsil ko'rib chiqilishi uchun axborotni huquqiy va tashkiliy himoya qilishni ta'minlash masalalariga to'xtalib utamiz.

Axborot – huquq ob'ektidir. Kompyuter jinoyatchiligi uchun asboblar sifatida telekommunikasiya va hisoblash texnikasi vositalari, dastur ta'minoti va intellektual bilimlar, ularni mukammallashtirgan sohalari nafaqatgina kompyuterlar, korporativ va global tarmoqlargina bo'lib kolmasdan, balki zamonaviy yuqori axborot texnologiyalari vositalari ishlatiladigan, katta xajmdagi axborotlar qayta ishlanadigan, masalan, statistika va moliya institutlari, faoliyatni istalgan sohasi bo'lishlari mumkin. Istalgan muassasaning faoliyati aloqa kanallari bo'yicha axborotlarni olish, qayta ishlash, qarorlar qabul qilish, uzatish jarayonlarisiz mumkin emasdir. Bu jarayonlarni ta'minlaydigan barcha vositalar kompyuter jinoyatchiligi uchun asboblar hisoblanadi yoki asboblar sifatida ishlatilishi mumkin.

O'zbekistonda, MDH barcha davlatlaridagi kabi, yaqin vaqt-largacha kompyuter jinoyatchiliklari bilan samarali kurashishni imkoniyati yo'q edi. Hozir esa vaziyat o'zgarib boshladi. Informatika, axborotni himoya qilish va davlat sirlari sohasida bevosita qonunchilik asoslari 10 dan ortiq asosiy qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini bir qator farmoyishlarida aks ettirilganidir.

Asosiy qonunlarda axborotni va axborotli resurslarni maqsadlari, ob'ektlari tushunchalari va huquqiy asoslari aniq-langandir.







«Axborot, axborotlashtirish va axborotni himoya qilish to'g'risida» gi qonun fukarolarni axborotga konstitusion huquqini ta'minlash, uni ochiqligini va unga murojaat qilishlikni, fukarolar va tashkilotlar tomonidan qonunchilik, ijroiya va sud xoqimiyati organlari to'g'risidagi axborotni va boshqa axborotni olishni, jamoat va shaxsiy manfaatga ega bo'lgan ta'minlashga, hamda jamiyatda axborot bilan mulkot qilishga va axborotlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish uchun da'vat qiladi. Unda axborotni xujjalashtirish va uni axborot resurslarini ochiq va cheklangan murojaat qilish toifalariga tegishligi, axborotga murojaat qilish bo'yicha mexanizmlarni va vakolatlarni aniqlash, axborotni huquqiy himoya qilish tartibi masalalari, bu sohada buzg'unchiliklar uchun javobgarlikni o'rnatish mexanizmlari masalalari aks ettirilgan.

Qonun bilan aniqlangan axborotni himoya qilish maqsadlari:

- o'g'irlashlarni, buzishlarni, chiqib ketishlarni, qalbaqilashtirishlarni bartaraf etish;

- shaxsni, jamiyatni, davlatni xavfsizligini ta'minlash;

- axborotni yo'qotish, buzish, blokirovkalash bo'yicha taqiqlangan hara-katlarni bartaraf etish;

- shaxsiy sirni va shaxsiy ma'lumotlarni maxfiyligini saqlashga fuqarolarni konstitusiyaviy huquqlarini himoya qilish;

- davlat sirini, hujjatlashtirilgan axborotni maxfiyligini saqlash.

Qonun bilan axborot xavfsizligi ob'ektlari aniqlangan, ularga quyidagilar tegishlidir:

1) axborot resurslarini barcha ko'rinishlari;

2) axborotni olishga, tarqatishga va ishlatishga, maxfiy axborotni va intellektual mulkni himoya qilishga fuqarolarni, huquqiy shaxslarni va davlatning huquqlari;

3) turli sinfli va vazifali axborot tizimlarini o'z ichiga oladigan axborot resurslarini shakllantirish, tarqatish va ishlatish tizimi ma'lumotlar kutubxonalari, arxivlari, tizimlari va yirik to'plamlari axborot texnologiyalari axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning reglamentlari va jarayonlari ilmiy-texnikaviy va xizmat ko'rsatadigan xodimlar;

4) axborotni qayta ishlash va tahlil qilish markazlarini, axborot almashish va telekommunikasiya kanallarini ishlashini ta'minlash mexanizmlarini, telekommunikasiyali tizimlarini va tarmoqlarni, shu jumladan axborotni himoya qilishni tizimlarini va vositalarini o'z ichiga olgan axborotlashgan infratuzilma;





5) ommaviy axborot va tashvikot vositalariga asoslanadigan jamiyat ongini (dunyoqarash, ahloqiy qadr-qimmatlar, odob baholari, xulqni ijtimoiy–yo'l qo'yiladigan stereoturlari va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar).

Qonun bo'yicha chegaralangan murojaat qilinadigan xabarlar himoya qilinadi va himoya qilish darajasini ularning egasi aniqlaydi, himoya choralari javobgarligi esa nafaqatgina egasida emas, balki foydalanuvchida ham bo'ladi. Faqat hujjatlashtirilgan axborotgina himoya qilinadi. Hujjatlashtirilgan axborot Davlat siriga va maxfiy axborotga bo'linadi.

Davlat siriga davlat tomonidan himoya qilinadigan uning harbiy, tashqi siyosiy, iqtisodiy, razvedka, kontrazvedka va tezkor qidiruv faoliyati sohasidagi xabarlar tegishli bo'ladi. Bu xabarlarining egasi va foydalanuvchisi davlatning o'zi bo'ladi, shuning uchun uning o'zi himoya qilish bo'yicha talablarni ilgari suradi va ularning boshqarilishini nazorat qiladi. Bu talablarni buzilishi barcha qat'iy qonunlar bilan jazolanadi.

Maxfiy axborot – hujjatlashtirilgan axborot bo'lib, uning huquqiy rejimi davlat, tijorat, sanoat va boshqa jamiyat faoliyati sohasidagi harakat qilayotgan qonunchilikni maxsus me'yorlari bilan o'rnatilgan. Egalari – muassasalar va tashkilotlar, ular bu axborotlarga ega bo'ladilar va u bilan amallar bajaradilar, hamda ular himoya qilish darajasini o'rnatadilar. Maxfiylikni buzilgan holatda ba'zi bir sanksiyalarni qo'llash quyidagi rasmiyatchiliklar oldindan bajarilgan hollardagina mumkindir:

- axborot haqiqatdan ham qimmatbaho bo'lishi kerak;
- muassasa axborotga erkin murojaat qilishni inkor etish va uning maxfiyligini qo'riqlash uchun ma'lum bir choralarni ko'rishi kerak;
- barcha xodimlar axborotning maxfiyligi to'g'risida ogohlantirilgan bo'lishi kerak.

Maxfiy axborotni turi – bu shaxsiy maxfiy ma'lumotlardir. Ammo bu masalada huquqiy asoslar etarlicha ishlab chiqilmagan bo'lsa ham, davlat shaxsiy axborotni himoya qilishni o'zining shaxsiy nazorati ostiga olgan. Bu toifaga shaxsiy va oilaviy sirlar, shaxsiy ma'lumotlar, yozishmalar sirlari, telefondagi, pochtdagi, telegrafdagi va boshqa xabarlar tegishlidir.

Umumiy ko'rinishda maxfiy xarakterli ma'lumotlar tarkibi quyidagi ko'rinishga ega:

- shaxsiy ma'lumotlar;





- tergov va sud ishi siri;
- xizmat siri;
- kasb-hunar siri;
- tijorat siri;
- kashfiyotlarni mohiyati haqida.

